



Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** Matkarimova M. Menlimuratova A – NDPI «Umumiy pedagogika va psixologiya» kafedrası, assistent o'qituvchisi

**Tahrizchilar:** Saparov Sh. - NDPI «Pedagogika va psixologiya» kafedrası dostenti

Fanning ishchi o'quv dasturi «Umumiy pedagogika va psixologiya» kafedrasining 2016 yil «18» V gi 11 son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakul'tet kengashida Omuhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

# I MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI

## REJA:

- 1.1. Psixologiya fanining predmeti va vazifalari.
- 1.2. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar taraqqiyotining asosiy bosqichlari.
- 1.3. Psixologiyaning tuzilishi, psixologiya soxalariga psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ri.

### 1.1. Psixologiya fanining predmeti va vazifalari

Psixologiya oliy o'quv yurtlarda o'quv predmeti va fan sifatida o'rganiladi. O'quv predmeti sifatida ta'lim muassasi o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, talabalarning umumkasbiy tayyorgarligiga yo'naltirilgan o'quv fanlari tizimidan joy olgan, uni o'rganish uchun ma'lum o'quv soatlari ajratilgan va turli shakldagi mashg'ulotlar: ma'ruza, seminar va laboratoriya-amaliy, shuningdek, nazorat ishlari va imtihonlar ko'zda tutilgan.

Psixologiyani fan sifatida o'rganish bilan uning qanday fan ekanligi, xususiyatlari va nimalarni o'rganishi haqida bilimlarga erishiladi. Psixologik bilim va malakalarni o'zlashtirish talabalarga atrofda odamlarni ular bilan muloqot amaliyotida, munosabatlarda, o'zaro hamkorlik faoliyatida bilish uchun; ularning fikri, maqsadi, kechinmalari, qiziqish va qobiliyatlari, ehtiyoj va motivlari va h.k.larini bilish va qo'llash uchun zarurdir. Psixologik bilim va malakalar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati, oilaviy hayoti, bolalar tarbiyasi va boshqalarda asqotadi. Va, nihoyat, eng muhimi, psixologik bilimlar talabalarga o'zlarini anglashda, o'z ustilarida ishlashda va qiziqish, ijodiy imkoniyatlarini dolzarblashtirishlarida, barkamol shaxs bo'lib shakllanishlarida ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fani o'ziga xos fan bo'lgani uchun oliy o'quv yurtlari talabalari o'rganadigan ilmiy fanlar tizimida alohida o'rin egallaydi. Psixologiyaning fan sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: birinchidan, bu fan hozircha inson uchun noma'lum bo'lgan, eng murakkab – psixika, insonning ichki olami haqidagi fandır, ikkinchidan, bu fanda bilishning ob'ekti va sub'ekti tutashib ketgan. Bu holat va fikrni shunday ifodalash mumkin: avval inson o'z fikrlarini tashqi dunyoga yo'naltirib, so'ngra o'ziga murojaat qiladi. Bunda fikr o'ziga qarata burilish yasagani uchun psixologiyaning vazifalari boshqa fan vazifalari bilan taqqoslab bo'lmaydigan darajada murakkabdir. Va, uchinchidan, psixologiyaning o'ziga xosligi uning noyob amaliy oqibatlariga ega bo'lishidir. Axir biror narsani anglash – uni egallab, boshqarishni o'rganishdan iborat. Insonning o'zida kechayotgan psixik jarayonlar, ularning vazifalari, qobiliyatlarini boshqarishni o'rganish, misol uchun, koinotni zabt etishdan ko'ra o'ta murakkab va muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Bunda inson o'zini anglab borgani sayin o'zini va atrofida qilarni o'zgartirib borishini alohida ta'kidlab o'tish lozim. SHuning uchun, psixologiya – insonni faqatgina anglovchi emas, balki uni yaratuvchi fan.<sup>1</sup>[4]

<sup>1</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.5 p

Biz har qanday fanni ikki katta asosiy guruhlarga bo'lishimiz mumkin: **Positiv Fanlar va Normativ Fanlar**. Fizik va hayotiy fanlar **positiv fanlar** deb atalishiga qaramasdan, logika, falsafa va etika kabi fanlar **tabiiy fanlar** kategoriyasiga kiradi. Normativ fanlarni **positive fanlar** bilan taqqoslasak, **positive fanlar** faktlarni o'rganadi, "nima?"ligini tasvirlaydi va "nima bo'lishi kerak" degan savollarga javob beradi.

Psixologiya hech qanday shubhasiz **Positive fanlar** guruhiga kirib ketadi.<sup>2</sup>

Psixologiyaning vazifalari asosan, quyidagilardan iborat:

- psixik hodisalarning mohiyatini va ularning qonuniyatlarini anglashni o'rganish;

- ularni boshqarishni o'rganish;

- olingan bilimlardan shakllangan fanlar va sohalar bilan bir qatorda turgan amaliyotning boshqa sohalarini samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish;

- amaliy xizmatning nazariy asosi bo'lib xizmat qilish.

Ko'rsatilgan umumiy vazifalardan tashqari hozirda psixologiya quyidagi xususiy vazifalar bilan ham shug'ullanmoqda: psixikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi; psixik faoliyatning neyrofiziologik asoslari; tashqining ichkiga o'tish qonuniyatlari; inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy omillarga bog'liqligi; olam psixik obrazlarining shakllanishi va va ularni tashqi, amaliy faoliyatga tadbiiq etish qonuniyatlari; inson psixikasining boshqariluvda biologik va ijtimoiy omillarning birligi; inson psixikasi tuzilishi; bilish,irodaviy va hissiy jarayonlarning aks ta'sir-boshqariluvchi mohiyati, insonning ijtimoiy muhitdagi individual-psixologik hulq-atvori; inson faoliyatining ma'lum turlari psixologiyasi.

**Har bir fanning asosi – maishiy tajriba.** Masalan, fizika jismlarning harakati va pastga tushishi, yorug'lik va tovush, issiqlik va yana ko'plab boshqalar haqidagi bilimlarga tayanadi. Falsafa, iqtisod, jamiyatshunoslik va, albatta, psixologiya ham o'z boshlang'ich manbalarini kundalik hayotdan oladilar, chunki har birimiz bitta ham adabiyotni o'qimay turib va oliygohning psixologiya fakultetida tahsil olmasdan inson psixologiyasining ba'zi tomonlarini tushuntirib bera olamiz deb hisoblaymiz.

Kundalik maishiy bilimlar aniq bo'lib, haqiqiy vaziyatlarga bog'liqdir, ilmiy psixologiya esa asosli umumlashtirishga intilgani uchun nazariy tushunchalardan foydalanadi va tekshirilgan ma'lumotlarga tayanadi. Ular ichki fahm xususiyatiga ega bo'lgani uchun amaliy ruhshunoslarning ko'pchiligini ayollar tashkil etadi. Ilmiy psixologik bilimlar umumlashtirilgan, maqsadga muvofiq va anglangan bilimlardir.

Kundalik maishiy bilimlar chegaralangan bo'lgani uchun qiyinchilik bilan o'tkaziladi, ilmiy psixologik bilimlar esa to'planadi va o'tkaziladi, shuning uchun doimo kengayib boraveradi.

Maishiy psixologiyada bilimlarga ega bo'lish metodi sifatida kuzatish va mulohaza yuritish qo'llaniladi. Ilmiy psixologiyada ularga tajriba metodi ham qo'shiladi.

---

<sup>2</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.5 p

Ilmiy psixologiyaning afzalligi shundan iboratki, u keng, turli-tuman, noyob ma'lumotlarga egadir. Ular to'planib, psixologiya fanining maxsus sohalarida, deylik, yosh yoki muhandislik psixologiyasida o'rganiladi. Ularga biror bir shaxsning alohida o'zi egalik qilolmaydi.

Insonning xarakterini o'rganuvchi psixologiya fanini fizika, kimyo, botanika, zoologiya, astronomiya va matematika kabi boshqa positive fanlar bilan bir qatarga qo'ya olishimiz mumkinmi? Javob salbiy. Bu fanlarni bir biriga taqqoslasak, psixologiya unchalik ham rivojlangan fan emasligini bilamiz. Shunisi aniqki, bu organizim hususiyatlarini o'rganuvchi xarakterik fandır. Bu o'zgaruvchi va aniq bashorat qilib bo'lmaydigan xarakterdir. Bu fanni o'rganuvchi metodlar ham tabiiy fanlardagidek aniq va obyektiv emas. Boshqa tomondan, fizik va kimyoviy reaksiyalarni o'rganuvchi tabiiy fanlarda o'rganish jarayoni va tabiiy moddalar tuzulishidan kelib chiqib aniq ma'lumotlar aytish mumkin. Natijada shuni aytishimiz mumkinki, psixologik xarakterlar faniga qaraganda tabiiy fanlar yanayam aniqrod va obyektivdir.

Shunday qilib, psixologiyani fizik va tabiiy fanlar bilan bir qatarga qo'yish unchalik to'g'ri ish emas. Psixologiya texnikalari va obyektiv va imkoni boricha aniq bo'lishga intilishi juda kuchliligiga qaramasdan o'z o'rnini va fan sifatidagi obro'sini topa olmayabdi. Bu fan bir o'zi rivojlangandan ko'ra positive fanlar sifatida rivojlanishi uning uchun yanada yengillik tug'dirardi.

Biz psixologiyani tuzilishi va hususiyatlarini o'rgangan holda bu fanni *rivojlanishdagi xarakterni o'rganuvchi positive fan* deb aytishimiz mumkin<sup>3</sup>

Ilmiy psixologiyani to'liq o'rganilgan va mubolag'asiz yaxlit bir fan deb bo'lmasligi ayni haqiqatdir, chunki bu sifatlar asosiy masalalar bo'yicha muntazam ravishda munozaralar yuzaga keladigan, yangi maktablar yo'nalishlar paydo bo'ladigan, olingan bilimlar qaytadan tekshirib chiqiladigan va aniq haqiqatlar rad etiladigan fanning tabiatiga zid bo'lib hisoblanadi.

«Psixologiya» atamasi ikki yunoncha so'zdan kelib chiqadi: «psyuxé» – jon, ruh va «logos» – ta'limot, so'z.

**1.2. Psixologiya fanining predmeti haqidagi tasavvurlar**

Bir necha yuz yilliklar davomida psixologiya tomonidan o'rganiladigan hodisalar umumiy «ruh», tushunchasi bilan belgilanib, falsafa fani bir bo'limining predmeti bo'lib hisoblanar edi. «Psixologiya, aniqrog'i «psixé» so'zining kelib chiqishini tushuntirib berish uchun yunon afsonalariga murojaat qilamiz. Afroditaning o'g'li (lotin an'alarida – Veneraning) Erot (Amur), go'zal Psixeyani sevib qoladi. Lekin Afrodita camo ma'budi bo'lgan o'g'lining o'z qismatini oddiy qiz bilan bog'lamoqchi ekanligidan norozi bo'lib, Psixeyani qator sinovlardan o'tishga majbur qilgan holda sevishtanlarni bir-biridan judo qilishga urinar edi. Ammo Psixeyaning muhabbati shunday kuchli, Erot bilan uchrashishga intilishi esa shunchalik yuksak ediki, bundan barcha ma'budlar kuchli ta'sirlanib, unga Afroditaning barcha talablarini bajarishga ko'mak berishga rozi bo'ldilar. Erot, ham o'z navbatida, Zevsni Psixeyani ma'budaga aylantirish uchun

<sup>3</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.5 p

ko'ndirishga muvaffaq bo'ldi. Natijada Psixeya abadiylikka erishdi, va ular birlashdilar. YUnonlar uchun bu afsona haqiqiy sevgining, inson ruhi yuksak ro'yobining mumtoz namunasi edi. SHuning uchun, Psixeya – abadiylikka erishgan oddiy qiz, o'z mukammaligini izlovchi ruhning timsoli bo'lib qoldi.[2]

### ***Psixologiyaning maqsadi***

Psixologiyaning maqsadi degandan biz nima tushunamiz ? bu savol quyidagi ikki fikr bilan muhokama qilinishi mumkin:

1. Uning faoliyati va turlarining imkoniyatlari
2. Uni muhokama qiluvchi faktlar, mavzular va tarmoqlar

Psixologiya faning faoliyati va turlarining imkoniyatlari juda kengdir. U yashovchi organizimning xarakterlarini o'rganadi, tushuntiradi va tasvirleydi. Bu yerdagi "xarakter" va "yashovchi organozim" terminlari noodatiy keng ma'nolarni beradi. Xarakter termini har qanday turdagi harakatlar va tajribalarni – bilish, his – tuyg'u, tushunish yo tushunmaslik, sezish, sezmaslik kabilarni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, "yashovchi organozim" atamasi o'z ichiga har qanday rangi, jinsi, yoshi, fizik va aqliy hususiyatlari, turlarini qamrab olgan tirik hilqatlarni oladi. Shunday normalar, bolalar, yoshlar, o'smirlar, o'qtuvchilar, ishchilar, jinoyatchilar, talabalar, ota – onalar, haridorlar kabi har xil sohalarga oid bolgan odamlarni psixalogiya fani o'rganadi. Shu bilan birga psixologiya fani bu bilan cheklanib qolmaydi, bundan tashqari u hayvon, qush, hashoratlar va ,hattoki, o'simliklarni tushunishga ham harakat qiladi.<sup>4</sup>

Shunday ekan, tirik organozim bor bo'lgan har qanday joyda, ularni tushunish va o'rganish uchun psixologiya fani kerak bo'ladi. Bizga ma'lumki, yashovchi organozimlar va ularning hayot faoliyati judayam xilma xil, shunday ekan psixologiya fani uchun bularni o'rganishda hech qanday to'xtov va chegara yo'q, bu fan hech qachon rivojlanishdan to'xtamaydi.[1]

Har qanday boshqa fan kabi psixologiya ham o'z o'rganish predmetiga ega. «Psixologiya» tushunchasining ma'nosidan kelib chiqqan holda, uning o'rganish predmeti psixika bo'lib hisoblanadi, deb aytish mumkin. Psixologiya ushbu predmetining maxsus xossalarini ajratish mumkin. SHunday qilib, ***psixika*** – bevosita kuzatilmaydigan, lekin qo'shimcha ifodalari orqali aniqlanadigan ***yaqqol bo'lmagan voqelik***. ***Psixika*** – turli odamlarda yoshi, jinsi, asab tizimining turi, muhit va tarbiya sharoiti, orttirilgan tajriba, ma'lum hayotiy vaziyat va ko'pgina boshqa omillarga bog'liq ravishda bir talay o'ziga xos takrorlanmas, noyob turlari, belgilari, turli ifodalari mavjud bo'lgan ***bir nusxaga ega bo'lmagan va bir qolipda ishlab chiqilmagan ob'ekt***.<sup>5</sup>

***Psixika – faol, maqsadga muvofiq jarayon***. Idrok qilish, xotira, ong yoki psixomotorikaning o'zini emas, balki shu kabi hodisalar, jarayonlar xos bo'lgan ***insonning*** psixik faolligini namoyon qiladi. S.L. Rubinshteynning fikriga ko'ra, ***psixikaning o'ziga xos xususiyati uning individga, sub'ektga tegishlilikidir***. Boshqa xususiyati esa – ***sub'ektning psixikadan, ondan mustaqil ob'ektga***

<sup>4</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.5

<sup>5</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan p14-39

*bo'lgan munosabati.* «Har qanday psixik hodisa boshqalaridan ajratilib, nimaningdir kechinmasi ekanligiga binoan, ma'lum *kechinma* sifatida belgilanadi, ichki tabiati uning tashqi olamga bo'lgan munosabati orqali namoyon bo'ladi»<sup>6</sup>. *Psixikaning o'ziga xosligi* uning voqelikning haqiqiy tomoni ekanligi – *haqiqiylik va mukammallik* birliginining aksi ekanligidan iborat. *Psixika* – bu *ob'ektiv olamning sub'ektiv tasviri*. Psixika individning hulq-atvori va faoliyatida shakllanadi, rivojlanadi va namoyon bo'ladi. SHunday ekan, psixikani ob'ektiv voqelikning insonning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini tartibga keltiruvchi ideal obrazlarda sub'ektiv aks etishi, deb ta'riflash mumkin mojno. Psixikaning mazmuni o'zida *psixik obrazlarnigina* (his-tuyg'uli va maqsadga muvofiq) emas, balki, *obrazdan tashqari tarkibiy qismlarni* – shaxsning umumqadriyatlarni nazarda tutib ish ko'rishini, hodisalarning mazmun, mohiyatini, shuningdek, aqliy faoliyatni ham jamlaydi.

L.M. Vekkerning fikriga asosan, psixikaning empirik belgilari sifatida quyidagilar namoyon bo'ladi: *predmetlilik* – obraz tashuvchining emas, balki, psixik obrazning yakuniy xususiyatlarini ob'ekt xossalari atamalarida ifodalash; *sub'ektivlik* – psixik obraz yoki ko'rinishda organning rivoji ko'rsatilmagan taqdirda; *tuyg'ularga erishib bo'lmaslik* – obrazni emas, ob'ektning o'zini ko'ramiz; jonli mavjudotlar (hayvonlar)ning tirik organizmlarning xususiy shakli sifatidagi *ichki sabab natijasida vujudga keladigan faolligi*.

Shunday qilib, ilmiy tilda *psixikani miyaning tashqi, shuningdek, ichki olamni aks ettirish va shu asosda harakatni, hulq-atvorni tartibga solish qobiliyati* sifatida ta'riflash mumkin. M.I. Enikeevning ta'rifiga ko'ra, inson psixikasi – bu umuminsoniy tajribani o'zlashtirish asosida uning atrof-olam bilan faol o'zaro ta'sirini ta'minlovchi aks ettirib-tartibga soluvchi faoliyati.

Psixikaning paydo bo'lishini sxema tarzida quyidagicha tasavvur qilish mumkin: *fizik, moddiy, voqelik jismoniy jarayonlar* *psixikada aks etishi* (birlamchi va ikkilamchi obrazlar).

SHu asosda, hodisalar mustaqil fan hisoblanmish psixologiyaning predmeti bo'lib xizmat qiladilar. *Psixik hodisalar* sifatida tuyg'ular, fikrlar, istaklar, hislar, kechinmalarni o'z ichiga olgan insonning ichki, sub'ektiv tajribasi qabul qilinadi. *Bunday tajribaning asosiy xossasi bo'lib bevosita sub'ektga taqdim etilganlik hisoblanadi* bu esa: *psixik jarayonlarning faqat o'zimizda sodir bo'libgina qolmasdan, balki, bevosita bizga ayon bo'lishini* anglatadi: biz faqat ko'rib, his etib, fikrlab, xotirlab, istab qolmasdan, ko'rishimiz, his etishimiz, fikrlashimiz va shu kabilarni bilamiz; intilib, ikkilanib yoki qaror qabul qilib qolmasdan, shu intilishlar, ikkilanishlar, qarorlar haqida bilamiz ham.

**1.3. Psixologiyaning tuzilishi,  
psixologiya sohalariga  
psixologiyaning fanlar tizimida  
tutgan o'rni.**

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni

ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va etakchidir.

**Falsafa** va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi

**Sotsiologiya** fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar.

**Pedagogika** bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari etarli bo'lmaydi.

**Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.k.** psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini ob'ektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiklashtirishdagi rolini e'tirof etgan xolda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. **Kibernetika** fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi.

**Texnika fanlari** bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini echishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi.



**Iqtisodiyot** bilan psixologiyaning o‘zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo‘lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e‘tiborni qaratgan edilar

Yuqorida ta’kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o‘sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Shuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo‘lib ajralib chiqqan tarmoqlar to‘g‘risida ham fikr yuritish mumkin.

## **2. MAVZU: PSIXOLOGIYA FANINING TARAQQIYOT TARIXI**

REJA:

1. Psixologiya fanining taraqqiyot tarixi va rivojlanish bosqichi.
2. Psixologiya fanining yirik ilmiy yo‘nalishlari va maktablari
3. O‘zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish tarixi.

### **1.1 Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishi tarixiy rivojlanishi tarixiy bosqichlari**

Mavzu tarixiy fon nafaqat uning bosqichma-bosqich rivojlanish ajoyib hikoya, ammo turli mafkuralar, tushunchalarni turli qiymatlarni kiriting

ham yoritib boradi, alohida-alohida yoki birgalikda, yondashuv va nufuzli olimlar bilan himoyalangan vaqti-vaqti bilan mavzu vazifalari. Shu shuningdek psixologiya mavzu uchun amal qiladi. Quyida ko‘rsatilgan quyidagi sahifalarda suiqasd asosiy boblarda, ba’zi psixologiya predmeti tarixiga qarash amalga oshiriladi:

- A. Erta yosh ilmiy psixologiyagacha.
- B. Ilmiy psixologiyaning zamonaviy davri.
- C. Zamonaviy psixologiyada so‘nggi tendensiyalari.

Erta yosh ilmiy psixologiyagacha - qanday qilib biz muomala va nima uchun biz qadim zamonlardan buyon qiziqish uyg‘otdi masalalar sifatida tarqaladi. Quyidagicha psixologiya tarixi erda davrda, ular faqat taxmin va xurofot asosida juda ilmiy javob berdi:

1. Inson xulq sayyora harakat ta'siri ostida bo'lishi kerak edi, uning taqdiri, natijasidir deb hisoblaydi. Biz har qanday bir vaqtda sayyoralar pozitsiyasi, biz aytish mumkin va uning munajjimlar bashorati qadrlamaydigan, inson xatti oldindan bilar edi, agar. Sayyoralar o'rni tashqari, jinlar, ruhlar, arvohlar va boshqa g'ayritabiiy kuchlar ham inson faoliyati o'zgarishlar uchun mas'ul edi. Shunday qilib, sabablari va inson xulq shakllari inson tashqarida biror narsa joylashgan edi.

2. Yunon faylasufi xatti inson kalitlari ichida qarash uchun kirim. Suqrot kosmosning tabiatning o'rganish foydasiz, deb. Natijada, u savolga usuli olish va inson tabiatda peeping uchun javob berishga harakat qildi. Aflotun sobiq albatta

xatti shakllantirishda asosiy roli tayinlash, aqli va jismi o'rtasidagi aniq farqni qaratdi. Jon Arastu tushunchasi ko'p asrlar davomida psixologiya asosiy tushni o'girildi. U zot: «hayot» ma'nosini anglatuvchi sifatida "jonga" yoki "psixika" deb hisoblanadi va tana harakat faoliyatini yo'naltiradi tirik hodisasi sifatida fikringizni ko'rib chiqildi. Shunday bo'lsa-da, u kishi sifatida ong va tanani ko'rib, va shu tariqa biologiya uchun psixologiya keltirdi.<sup>7</sup>

Psixologiya tushunchasining rivojlanish tarixi:

1 bosqich: Psixologiya – ruhni o'rganadigan fan (mill.avv.6 asr-16milodiy). Qalbni mavjudligi tufayli har doim hayotdagi tushunarsiz hodisalarni tushuntirib berishga harakat qilinib kelingan. Boshlang'ich tushunchalar animistic xarakterga ega bo'lgan, ya'ni har bir jism o'z ruhi bilan ajralib turgan deb tushinilgan. Jonlilikda hodisalarning va harakatlarning sabablari ko'rib kelingan. Aristotel barcha organik jarayonlarda psixologiya tushunchasini kiritgan, shuningdek o'simlik, hayvonot va ongli mavjudotlarni belgilab chiqqan.<sup>8</sup>

Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo'lgan. Eng qadimgi davrlardayoq inson tush ko'rish hodisasi orqali ayrim odamlarning noyob qobiliyatlari (masalan, ovdagi muvaffaqiyatlar) o'lim va boshqa hodisalarning sabablarini tushuntirishga intilgan. Ammo dastlabki qarashlar mifologik xarakterda edi. Ular fikrlash orqali emas, ko'r-ko'rona ishonch vositasida egallanardi. Ruh haqidagi qarashlar ko'pincha nafas bilan bog'lanardi, ruhni esa uchar mahluq sifatida tasavvur etardilar.

Psixologiya haqidagi fikrlar qadim zamonlardan beri mavjuddir. Ilk davrlarda psixologik xususiyatlarni jonning ishi deb tushuntirilgan. Jonning o'zi esa odam tanasidagi maxsus ikkilamchi jism deb qaralgan. Bunday tasavvurlar «animizm» deb ataladi. Animizm so'zi –anima «jon» degan ma'noni anglatadi. Jon o'z mohiyatiga ko'ra olovsimon uchqundan iborat ekanligi Geraklit tomonidan, yoki olovsimon atomdan iboratligi Demokrit tomonidan ta'kidlangan.[1]

Platonning «ideyalar tug'ma bo'ladi» degan g'oyalari psixologik fikr taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Platon ta'limotiga ko'ra «ideyalar» mohiyati abadiy va o'zgarmas, ularning tabiiy olamdan tashqarida oliy olam mavjud bo'lib, ularni odam ko'zi bilan ko'ra olmaydi.

Platon psixologiyada «dualizm» oqimining asoschisi hisoblanadi. Dualizm so'zi ikki yoqlamalik yoki ikki mustaqil fikr degan ma'noni anglatadi. Dualizm ta'limoti mohiyati moddiy va ruhiy olam tana va psixikaning bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lib, azaldan qarama-qarshi narsalar deb tushuntiradi.

Platonning dualizm shogirdi Arastu (Aristotel eramizdan oldingi IV asr 384-322 yillar) tomonidan birmuncha muvaffaqiyatli bartaraf etildi. Aristotelning «Jon haqida» asari o'sha davrdayoq psixologiya maxsus fan sifatida maydonga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ana shu tufayli psixologiya jon haqidagi fan

<sup>7</sup> Mangal S.K.: "General Psychology" 2013y. p.-14

<sup>8</sup> David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p-39.

sifatida maydonga kelgan va hozirgi kunda psixologiya fani o'z mazmunini batamom o'zgartirgan.

Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bo'lib ruh va jonli tananing ajralmasligini isbotlab berdi. Unga ko'ra, jon qismlarga bo'linmaydi, lekin u faoliyatimiz davomida oziqlanishi, his etishi va harakatga kelishi, aql-idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Birinchi qobiliyatlar o'simlik uchun, ikkinchisi va uchinchisi hayvonlarga, to'rtinchisi esa insonlar uchun xosdir. O'simliklar, hayvonlar ruhi va aql idrok odam ruhi ta'limoti bilan Arastu oliy qobiliyatlar va ularning negizida paydo bo'lishini bildiradigan rivojlanish tamoyilini joriy etdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan qobiliyatlarni faqat o'zining xususiy faolligi orqali ruyobga chiqarishga asoslangan holda xarakterning faoliyatda shakllanishi to'g'risidagi nazariyani ilgari surdi.

Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik g'oyalarni rivojlanishida tayanch nuqta bo'lib hisoblanadi.[2]

Mazkur davrlarda SHarqda ham ilk psixologik qarashlar yuzaga keldi. SHarqda psixologik qarashlarning paydo bo'lishida buyuk SHarq mutafakkirlarining roli katta bo'lgan. Ular orasida Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabilar o'zlarining inson psixikasi va yosh avlodni tarbiyalashga doir boy fikrlar va qarashlarini meros sifatida qoldirganlar. Ular orasida ayniqsa Abu Ali ibn Sinoning mantiq, metafizika, tabiiy fanlar, ayniqsa, tibbiyot haqidagi fikrlari o'sha davr ilmiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. U maxsus psixologik muammolar bilan shug'ullangan olimlardan biridir. Uning ruh, asab tizimi haqidagi qarashlari katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning temperament xususiyatlariga qarab yondashish zarurligi haqidagi fikrlari ming yildan so'ng ham zamonaviy psixologiyada o'z qimmatini yo'qotmagan. Abu Ali ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib psixoterapevtik usullarni qo'llab ko'rgan olimlardan biridir. [1]

Asta-sekin ruh haqidagi tushuncha hayotning barcha ko'rinishlariga emas, faqat hozir biz psixika deb atalgan darajaga nisbatan qo'llana boshlandi. Psixika kategoriyasining negizida idrok va tafakkurdan tashqari ong tushunchasi yuzaga keldi, buning natijasida ixtiyoriy harakatlar va ularni nazorat qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, Galen (eramizdan oldingi II asr) fiziologiya va tibbiyot yutuqlarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik asoslari to'g'risidagi tasavvurlarini yanada boyitdi. Uning ilgari surgan g'oyalari «ong» tushunchasi talqiniga muayyan darajada yaqinlashadi.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun muhim davr bo'lib hisoblanadi. Jumladan fransiya olimi Dekart (1596-1650) tomonidan xulq-atvorning reflektor (g'ayriixtyoriy) tabiatga ega ekanligini kashf etilishi, yurakdagi mushaklarning ishlashi (faoliyati) qon aylanishning ichki mexanizmi bilan boshqarilayotganligini tushuntirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, **refleks** (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaksiyasi sifatida talqin qilinib, asab-mushak faoliyatini ob'ektiv tarzda bilish vositasiga aylandi. Sezgi, assotsiatsiya, ehtiros yuzaga kelishini izohlashga imkon yaratildi.[2]

Psixologiya fanining ilmiy asosga qurilishida ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb tan olib, uning qonuniyatlari psixologiyaning ham qonuniyatlari ekanligini ta'kidledi. Uning negizida – epifenomalizm (yunoncha eri - o'ta, rhainominon – g'ayritabiiy hodisa) vujudga keldi, ya'ni psixologiya tanadagi jarayon-larning soyasi singari ruy beradigan ruhiy hodisalar to'g'risidagi ta'limotga aylandi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega materiyadan sira qolishmaydigan voqelik, ya'ni yaqqol narsa deb, tushuntirdi. U determinizm (lotincha demmerminara - belgilayman) tamoyilining, ya'ni tabiat, jamiyat hodisalarining, shu jumladan psixik hodisalarining ob'ektiv sabablar bilan belgilanligi haqidagi ta'limot targ'ibotchisi edi.[2]

XVII asrdagi yirik nemis mutafakkiri Leybnits (1646-1716) ning ta'limoti matematika, jumladan, integral va differensial hisoblar kashf etilishiga ta'sir etgan edi. Psixika hayot manzarasi arifmetik yig'indi tariqasida emas, balki integral tarzda namoyon bo'ladi. Leybnits tasavvurlarning uzluksiz chegaralanishi g'oyasiga tayangan holda persepsiya (bevosita ongsiz idrok)ni appersepsiyalar diqqat va xotirani o'z ichiga olgan anglangan idroklardan farqlagan edi. Leybnits psixologiyaga psixikaning faolligi tabiati va uzluksiz rivojlanishi hamda psixikaning onglilik va ongsizlik ko'rinishlari o'rtasidagi murakkab nisbat haqidagi g'oyani olib kirdi.

J.Lokkning tashqi va ichki tajriba to'g'risidagi ta'limoti ikki xil xarakterga ega ekanligi ham materialistik ham idealistik ta'limotlarning taraqqiyotiga turtki bo'ldi. Materialistlar Gartli (1705-1784) bosh bo'lgan fransuz, A.N.Radishchev (1749-1802) boshchiligidagi rus materialistlari olamni bilishda tashqi tajribani asos qilib, olib inson psixikasining ichki mazmuni asosida odam atrof-muhit bilan o'zaro munosabati yotadi degan edilar.

XVIII asrga kelib nerv sistemasini tadqiq qilishda ulkan yutuqlarga erishildi (Galler, Proxazka). Buning natijasida psixika miya funksiyasi ekanligi haqidagi ta'limot vujudga keldi. Ingliz tadqiqotchisi CHarlz Bell va fransuz Fransua Majandi tomonidan yoyiluvchi va harakat nervlari o'rtasidagi tafovut ochib berildi. Uning negizida psixologiya fanida reflektor yoyi degan yangi tushuncha paydo bo'ldi. Bularning natijasida ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz) reflektor turlari kashf qilindi.

Yuqoridagi ilmiy kashfiyotlar ta'sirida rus olimi I.M.Sechenovning (1892-1905) reflektor nazariyasi ruyobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatini yaratadi. [1]

«Psixologiya» so'zi birinchi marta 1590 yilda nemis teolog olim R. Goklenius tomonidan qo'llanilgan edi. XVIII asrda esa nemis olimi X. Volf birinchi marta ilmiy atamalar qatoriga «psixologiya» atamasini kiritdi. U dastlabki yirik ilmiy-psixologik asarlar: «Empirik psixologiya» (1732) va «Ratsional psixologiya» (1734) ni yaratdi.

Psixologiya – ham qadimiy, ham ma'lum darajada yangi fan. Qadimiy fan sifatida u ikki ming yil avval paydo bo'lgan.

Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar qadimgi dunyo (Hindiston, Xitoy, Misr, Bobil, Yunoniston)da falsafa bag'rida paydo bo'lgan va jamiyatdagi amaliyot, davolanish va tarbiya ehtiyojlaridan kelib chiqqan edi.

XIX asrning 70-80-yillarida psixologiya mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi. Ilmiy psixologiyaning, xususan, eksperimental psixologiyaning asoschisi sifatida 1879 yilda Leypsig shahrida dunyoda birinchi bo'lib eksperimental psixologik laboratoriyani ochgan nemis tadqiqotchisi V. Vundt tan olingan. Bunga mos ravishda ushbu yil psixologiyaning fan sifatida yuzaga kelgan sanasi bo'lib hisoblanadi. Dastlab eksperimental psixologiyaning asosiy mavzulari sifatida sezgilar va ta'sirlanish vaqti (F. Donders), keyinchalik esa – assotsiatsiyalar (G. Ebbingauz), diqqat (Dj. Kettel), hissiy holat (U. Djeyms, T.A. Ribo), ong va iroda (Vyursburgskaya shkola, A. Bine) xizmat qildi.

XX asrning birinchi yarmida amaliy psixologiyaning ko'plab maxsus bo'limlari yuzaga keldi – bu mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi va boshqalar, shu bilan bir qatorda ilmiy psixologiyaning ko'plab maxsus sohalari – psixofiziologiya, oila, yosh, differensial psixologiya va boshqalar ajralib chiqdi. Ilmiy amaliy psixologiya turli yo'nalishlar bo'yicha rivojlanib bordi, inqiroz ma'lum darajada bartaraf etilgan bo'lsada, ko'plab masalalar hal etilmagan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnik inqilob psixologiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Fanda matematika, kibernetika, informatika nazariyalari metodlari, shuningdek, elektron-hisoblash texnikasi kengroq qo'llanila boshladi. Psixologiya tibbiyot va biologiya sohalaridagi eng so'nggi yutuqlardan faol tarzda foydalana boshladi.[1]

Shunday qilib, psixologiya rivojlanish yo'lida uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan holda, o'rganish predmeti va fan sifatidagi nomlanishini o'zgartirib bordi. L.D. Stolyarenko psixologiyaning fan sifatidagi rivojlanishini to'rt bosqichga ajratadi.

*Birinchi bosqich.* Psixologiya – ruh haqidagi fan (Arastu). Psixologiyaning bunday ta'rifi ikki ming avval keltirilgan edi. Ruhning mavjudligi bilan inson hayotidagi barcha noma'lum hodisalarni tushuntirib berishga urinar edilar.

*Ikkinchi bosqich.* Psixologiya – ong haqidagi fan (R. Dekart, B. Spinoza, D. Lokk, G. Leybnits, D. Gartli). XVII asrda tabiiy fanlar rivoji bilan yuzaga keldi. Fikrlash, sezish, xohishga bo'lgan layoqat ong deb ataldi. O'rganishning asosiy metodi bo'lib, insonning o'zini kuzatishi va voqelikni bayon etishi hisoblanar edi.

*Uchinchi bosqich.* Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida XX asrda paydo bo'ldi (D. Uotson, E. Torndayk). Psixologiyaning vazifalari – tajribalar qo'yish va bevosita ko'rish mumkin bo'lganlarni, aynan, insonning xulq-atvori, harakatlari, ta'sirlanishga javoblarini kuzatish (harakatlarni keltirib chiqaruvchi motivlar hisobga olinmas edi).

*To'rtinchi bosqich.* Psixologiya ob'ektiv qonuniyatlarni, psixikaning faoliyat va ifodalanish mexanizmlari, shuningdek, faktlarni o'rganuvchi fan sifatida.[2]

## **2.2. Psixologiya fanining yirik ilmiy yo'nalishlari va maktablari**

Psixologiya fanining rivojlanishi qator bosqichlarni o'z ichiga qamrab olib, bu davrlarda samarali tadqiqot ishlari olib borilgan. Aynan tadqiqot ishlarini samarali

bo'lishi uchun fan doirasida tamoyillarni ishlab chiqish uchun zarurat sezila boshladi. Bu boradagi ishlar Amerika va boshqa chet el psixologiyasi yo'nalishlari namoyondalari tomonidan ilgari surildi. XX asr boshlarida bixeviorizm, freydizm yo'nalishlari vujudga kelgan edi. Bixeviorizm yo'nalishi hayvonlarda o'tkazilgan kuzatishlar natijasiga asoslangan bo'lib, uning namoyondalari E.Torndayk va Dj.Uotsonlar hisoblanadi. «Bixeviorizm» ingliz tilida “hulq-atvor” degan ma'noni bildiradi. Bu oqim psixika va ongni inkor qilib, hulq bilan tashqi muhit o'rtasidagi munosabatlarni, qonuniyatlarni tekshirishni taklif qiladi.

Freydizm yo'nalishiga venalik psixiatr Z.Freyd asos solgan. Uning fikricha, odam mohiyatiga ko'ra hayvonga o'xshaydi. Odamning xulq-atvori va xarakatlari ikkita tamoyilga: rohatlanish va reallik tamoyiliga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu oqim ham insonning ongiga ishonmaydi Z. Freyd o'zining psixologik nazariyasini odam haqidagi, jamiyat va madaniyat haqidagi umumiy ta'limotga aylantirib, g'arb mamlakatlarida katta e'tibor qozondi.<sup>9</sup>

Bu yo'nalish psixologiya tushunchasiga mutlaqo yangi nazariyalarni, strukturalizm, funksionalizm, bixeviorizm yoki geshtal-psixologiya yo'nalishlarining odam ruhiyati tushunchalariga qarama-qarshi fikrlarni olib keldi. Keling bu qarashlar haqida so'z yuritsak:

1.Behushlik dunyosi Freyd to'kidlardiki hayotda psixologik jarayonlar ong bilan, ya'ni inson hushida bo'lgan vaqtdan ko'ra ancha ko'proq.Inson hushi psixologik hayotining atigi o'ndan bir qismini tashkil etadi. Aslida bundanda kuchliroq psixologik jarayon mavjud . Bu keng tushuncha insonning psixologik hayotida yashirin va erishib bo'lmaydi. U barcha yashirin hohish va istaklarni tuyg'ularni , motiv va tajavuzkorlik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Inson psixologik hayotining eng katta qismini mana shu yashirin psixologik jarayon olib boradi.Ruhiyat bilan bog'lik bo'lgan barcha muammolar yechimining kaliti ongsiz ravishda ongli ravishga o'tish darajasini ta'minlab berishdir.

2.Psixoanalitik metod: Freyd katta yoshdagi odamlarning ruhiyatidagi muammolar ularning yoshligidagi yoddan chiqqan kechinmalar sabab bo'lishini ta'kidlab o'tgan. U ruhiyat bilan bog'lik muammolarni yechish uchun yangi g'ayri tabiiy psixoanalitik metodni yaratdi.Bu metod o'z ichiga behushlik holatida analiz jarayonini oladi.Mana shu maqsadda Freyd quyidagi metodlarni sanab o'tgan.<sup>10</sup>

A) Erkin uyishma . Bu metodda ular individni yotqizishib, uning miyasiga ya'ni hayoliga nima kelsa shuni aytib berishi kerak bo'ladi.

B) Tush Tahlili: Freydning fikricha orzu bu inson tetik vaqtidagi uning hohish istaklarini yashirin ko'rinishi. Bu istak va kechinmalar inson tushida aks etadi. Tushlarning taxlili inson ichidagi barcha haqiqiy tuyg'ularni chiqarib berishi mumkin.

C) Har kungi psixopatologiya tahlili yashirin xohish-istaklar yoki kechinmalar behush vaziyatdagi ko'rinishini kundun-kunga psixopatologik nuqtai nazaridan inson , hatti harakatlar orqali bilib olish mumkin. Masalan gapirish ohangidan , harakatlaridan.

---

<sup>9</sup> S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y.20-28p

<sup>10</sup> S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y.20-20p

3. Psixikaning tuzilishi Freyd uch xil tushunchani yaratdi, identifikator, ego va super ego. Bu inson psixikasini tuzilishi, uning shaxsiyatini, ruhiyatini tushintirib beruvchi tushunchalardir.

Identifikator inson shaxsiyatining eng chuqur va kam ma'lumotga ega bo'lgan qismidir. U hech qanday realikka ham, qoidalarga ham ega emas. Psixologiyani rivojlanishi, tarixiy tasvirlanishi.

Ruhiyatning super ego etik ahloqiy qismi. Bu ideallik va haqiqiy reallik haqida o'ylamaslik. Mukammallik bu uning maqsadi, lazzatlanishni qidirish yoki vayron qilish emas. Barcha harakatlar Freydning fikricha id, ego, va super-ego o'rtasidagi dinamik muvozanat tomonidan tushunarli bo'lishi mumkin. Idning talablari o'zining muhtojlarini va appetiteni qoniqtirish bilan birga, o'sha vaqtda ikkalasini tichlantiradi. Voqeylik nuqtayi nazar tomonidan identifikatorni boshqarish va super egoni tinchlantirish uchun. Yaxshi tartibdagi inson o'z egosi tomonidan boshqariladi, nevroz ayb xissidan tashvishlangan, uning super egosida chiqayotgan; uning idi telbalik.

«Psixik tahlilning maqsadi muvozanatni tiklashdan iborat: Qayerda bo'lgan bo'lsa o'sha yerda bo'lishi keak». (Freyd 1935).

Psixo-seksual rivojlanish: Freyd ko'rsatmasiga muvofiq jinsiy aloqa – hayot biror ish qilish yoki hayotdagi fundamental maqomdir. Jinsiy aloqa faqatgina kattalarga xos emas. Bolalarham boshidan jinsiy aloqa xohishida bo'lishadi. Bola bir necha turli hil psixo-seksual quyidagi bosqichlardan o'tadi.<sup>11</sup>

A) Oral bosqich: Freyd bo'yicha og'iz bolaning rohtlanishi uchun birinchi jinsiy organ xisoblanadi. Avvaliga onaning ko'rgidan yoki butilkadan rohatlanadi. Keyin uning o'rniga konfet, tayoqcha yoki o'z barmog'ini so'rish orqali rohatlanadi.

B) Anal bosqich: Bu yoshda bolaning qiziqishlari og'iz bo'shlig'I va tarqtish a'zolari bilan qo'shilib ketadi, yaniy anus yoki uretra. Bu bosqich, qoyida bo'yicha ikki yoshdan uch yoshgacha bo'ladi.

C) Genital bosqich: bu faza to'rt yoshdan bolaning o'zgaruvchan qiziqishlaridan boshlanadi. Bu bosqichda bolalar ayollar va erkaklar o'tasidagi biologik farqlarni bila boshlashadi va ular bilan uynab rohatlanishadi. Bu bosqich Freyd bo'yicha bir necha hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan: Qizlarda genrivatsiya va elektrokompleks va o'g'il bolalarda kastrasiya va Edip kompleksi. Edip va elektro faz haqida Freyd aytadiki: ular jinsiy qiziqish va lazzatlanishning natijasidir.

D) Latent bosqich: Bu davr qiz bolalarda 6 yoshdan o'g'il bolalarda esa 7-8 yoshdan boshlanadi va balog'at yoshigacha davom etadi. Bu bosqichda o'g'il bolalar va qizlar o'zining o'rtoqlari bilan birga bo'lishni maqul ko'rishadi va hattoki qarama qarshi jins vakillaridan nafratlanishlari ham mumkin.

E) Fallik bosqichi: Pubertat fallik bosqichining yo'naltiruvchi nuqtasi hisoblanadi. O'spirin bola va qiz endi qarama qarshi jins vakillariga o'zgacha

---

<sup>11</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 21p

xissiyotni xis qila boshlashadi , o'zlarini o'zlari sevib qolishlari mumkin , turli hil bo'yoqlarga o'z a'zolarini bo'ya boshlashdi.

Shunday qilib Freyd o'z psixo tahlili orqali psixologiya sohasiga umuman boshqa o'lchovni olib keldi. Uning oa inson fe'l atvoridagi total terminlar ( shu bilan birga ongli , ongsiz va beixtiyor fe'l atvor ) psixika tuzilishi , repressiyani anglash, katarsis ongsiz , psixo-seksual rivojlanishni namoyon bo'lishi sifatida va inson hulqiga jinsiy aloqani loyiq o'rinda saqlashning ta'siri doimo maqtovdada buladi. Keyingi hodisalar yo'lida psixoanalitik harakat psixoanalizning rivojlanish asosiatsiasini 1902 yilda shakllantirdi. 2 usul , individual psixologiyada Alfred Adler (1370- 1937) va analitik psixologiyada ( 1875 – 1961 ) . Bu ikki yo'nalishda ularni eslab o'tish zarur.

Boshqa esda qolarliklari : neo- Freydist ( yoki neo – Adlerian ) , yangi davrda Anna , Karen Horni , Garri Stek Sallivan , Erix Frimm , Erikson va Xayns Xartmannlar say harakati bilan an'anaviy psixoanalitik nuqtai nazarga kichik o'zgarishlar kiritishdi. Asosan deemfizin roli yoki jamiyat rolida jinsiy aloqa va stress.<sup>12</sup>

Mutlaqo bu tushunchaga qarshi bo'lgan, zamonaviy psixologiya inson ruhiyatiga yangi tushuncha va nazariyalarni kiritdi.

Biroq mana shu yo'nalish bilan bir qatorda psixoanaliz va bixeviorizm yo'nalishlarini bir xil xususiyat va kuchga egaligi uchun qo'yishimiz mumkin. Qolgan katta kuchlar, masalan, gumanistik psixologiya , transpersonalagik psixologiya va kognitik psixologiyalar ularni to'ldirib turadi.

### **Gumanistik (Ijtomoiy) Psixologiya.**

Psixologiyaning bu yangi maktabi psixologiyadagi oxirgi tendensiyalarni ko'rsatadi. Uning rivojlanishida Abraxam Maslov, Kevlar Rodjers, Rollo Mey, Artur Kombs, Gordon Olport kabi psixologlar o'z xissalarini qo'shishgan. Gummanistik psixologiya insonga eng qadrlri narsalarni beradi. Bu yo'nalish maqsadga yo'naltiruvchi atrof muhitga moslashtiruvchi xususiyatlarga ega. Bu maqsadlar fizik ehtiyojlarni qondirish uchun yoki o'z-o'zini aktuallashtirish va reallashtirish kabi oddiy bo'lishi mumkin.<sup>13</sup>

This new school of psychology reflects the recent trends of humanism in psychology. The personalities like Abraham Maslow, CavlarRogers, Rollo May. Arthur Combs. Gordon Allport and others have contributed towards its growth. Humanist psychology gives more value to the human being by not considering him merely as a sophisticated machine or the victim or conflict between the ego and id. It considers him as a purposeful being. capable of adapting himself to his environment and choosing his own course of action in order to achieve the goals which he has selected for himself. These goals may be as simple as mere satisfaction of a common physical need or as lofty Is the attainment of self-actualization or self-realization.

---

<sup>12</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 22p

<sup>13</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y.20-28p



Mana shunday tarzda gumanistik psixologiya insonning farqli tomonlarini, shaxsiyatini erkinligini noyob qobiliyat va maqsadlarini, maqsadini tushintirib beradi.

### **Transpersonalagik psixologiya.**

Transpersonalagik psixologiya zamonaviy psixologiyadagi eng yangi yondashuvlardan biridir. O'z-o'zini aktuallashtirish borasidagi Abraxam Maslovning ishi: u o'zining e'tiborini o'zining shaxsiy tajribasiga asoslanib o'tkazgan. Biz nimani o'ylashimiz, o'zimizni qanday his qilishimiz, holatimizni o'zgarishi bularning barchasi transpersonalagik psixologiyaning bir qismidir. Bu holatlar inson kuchli stress va hayajonda bo'lgan paytda yuzaga chiqadi. Ular ko'pincha uyqu yoki chuqur konsentratsiya vaqtida paydo bo'ladi. Ular tashqi ta'sir, ma'lum bir narkotik vositalar, diniy targ'ibot, yoga va meditatsiya yo'llari orqali eksperimental tarzda chaqiriladi.

### **Kognitik psixologiya.**

Bu ham zamonaviy psixologiyaning yangi maktablaridan biridir. U intellektualizm natijasida paydo bo'lgan insoniyat qobiliyatlari va atrof muhitga moslashuvi yashash uchun kurashini o'rganuvchi yo'nalishdir. Bu yo'nalishning boshlang'ich ildizlari gestaltlar fikrlariga borib taqaladi.<sup>14</sup>

This new school of contemporary psychology is the result of the wave of intellectualism demonstrating faith in the higher cognitive abilities and capacities of human beings for his adaptation to his environment and struggle for perfection. The roots of this psychology may be discovered in the cognitive outlook of the gestaltists who advocated an overall mental functioning by bringing the idea or Gestalt and insight in place of a molecular and mechanistic approach for the study of human behaviour.

Kognitik psixologiya insoniyat tafakkuri, xotirasi, nutqi, rivojlanishi, qabul qilishi kabi xususiyatlarini o'rganadi. Kognitiv psixologiya bixevioristlar yondashuvi mutlaqo qarama qarshi turadi.

Shu tarzda, Kognitik psixologiya ruhiyat mexanizmining ishlash tizimini tushintirib beradi. Bu tizimda barcha ta'sirlar, atrof-muhit ta'siridan kelib chiqadi.

Inson ongining kognitik funksiyasi, misli bir uning ishlab chiqariluvchi mahsuloti sifatida ish yuritadi.

Kognitik psixologiya kundan-kun mashxur bo'lib bormoqda. Edvard Tolmen kognitik psixologiyasining asoschilaridan biri bo'lib, bu borada ko'plab bilim va malakaga ega bo'lgan. U ongli organizmlarning ruhiyatidagi muammolarni yechishda mana shu organizmlarning aqliy gipoteza yordamida topishga harakat qilgan. Keyin uni amalda qo'llashga va uni tekshirib ko'rishga harakat qilgan.

Shveysariyalik psixolog Jan Piaje, u kognitik psixologiya bo'yicha eng taniqli shaxslardan biri bo'lgan. U bolalarda kognitik psixologiyaning ta'siri va funksiyalarini o'rgangan. U bolalarning biologic tayyorgarligiga qarab iqtidorlarining rivojlanishi bosqichlarini aniqlagan.

---

<sup>14</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 24p

Qisqacha xulosa.

Psixologiya fanining rivojlanish evolutsiyasi tarixdan o'rganish oson va u o'z navbatida 3 qismga bo'linadi:

1. Ilmiy davri,
2. Imiy va zamonaviy davri,  
Zamonaviy davri.

Ilmiy psixologiya (o'n to'qqizinchi asrning o'rtalariga qadar davom etgan) uning dalillari quyidagilar:

1. Inson ruhiyati -ma'lum bir qadimgi irimlarga ko'ra insoniyatga aloqasi bo'lmagan, noreal borliq sifatida tushinilgan, ya'ni planeta va iblis, ruh va boshqa g'ayritabiiy kuchlar bilan ta'riflangan.

2. Suqrot, Platon, Aristotel kabi faylasuflar nuqtai nazari bo'yicha irimlarning hayotdagi ma'nosini tugatish kerak edi. Aynan shuni o'zgartirish uchun 17 asrda yetakchi psixologlar tomonidan falsafa asoslari paydo bo'lib, renessans davrida Dekardning dualiz, empirizm kabi tushunchalari paydo bo'ldi.<sup>15</sup>

The age of pre-scientific psychology (stretched upto the middle or the 19th century) witnesses the following trends:

(i) In the earliest of superstitions causes and forms of human behaviour were being located in something outside the human being i.e., planets or demons, spirits, and other Supernatural powers.

(ii) Subsequently, philosophers like Socrates, Plato and Aristotle etc., with their philosophical viewpoints tried to do away with the evils of superstition. Specially after the renaissance in the 17th century there emerged quite a dominating philosophical basis of behaviour in the philosophies like dualism propagated by Descartes and empiricism advocated by John Locke and Kant.

3. O'n to'qqizinchi asrda Lokk nuqtai nazariyasi. Kann va uning shogirdlari Buyuk Britaniyada psixologiyada birinchi assotsionizm maktabini yaratishdi. U bunda tuyg'u va fikrlarni bir-biriga bog'laydi.

4. Assotsionizm va emperizmlarning kuchli ta'siri psixologiyada yana bir yangi naturalistic yo'nalish yaralishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalishni tarqatuvchilari Russo, Pestalotsiy, Fredel, Kristian Volf.

5. Yigirmanchi asrda nemis professori Gerbart tomonidan yaratilgan yangi gerbartian psixologiyasi, psixologiya fakultetida yangi tushunchalarni kiritdi.

Ilmiy psixologiyaning zamonaviy davri.

O'n to'qqizinchi asr o'rtalaridan boshlab, zamonaviy ilm va texnika davrida inson ruhiyatini o'rganuvchi yangi ilmiy metodlar yaratildi. Quyidagi yo'nalishlar aynan shu davrda yaratilgan:

1. Strukturalizm, nemis professori Vilgelm Vundt (1832- 1920) aqliy faoliyat va uning tuzilishi, taxlilini yaratgan.

2. Funksionalizm, amerikalik psixolog Uilyam Jeyms (1842-1910) ong evolutsiyasi jarayonida rivojlangan, buning sababi bo'lsa atrof-muhitga moslashish bo'lgan deb tushintiradi. U yana bu yo'nalishda nerv sistemasini ham yoritib o'tgan.

---

<sup>15</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 25 p

3. Bixeviorizm, Jon B. Uotson o'zining bor e'tiborini inson ruhiyati va xatti-harakatlariga qaratgan.

4. Germaniyada bir qator psixologlar guruhi bixeviorizmdan ajralib turuvchi yangi geshtaltpsixologiya maktabini yaratdi.

5. Psixoanaliz. Zigmund Freyd yangida –yangi fikrlarni kiritdi. U tajribalarini ongli va ongsiz ravishda, ruhiyatni psixoanaliz orqali o'rgangan.

6. Shaxsiy va analitik psixologiya. Keyingi davrda Alfred Adler (1870-1937) va Karl Yung (1875-1960) ikkalasi ham Freydning izdoshlari bo'lib, ular ham jinsiy aloqa borasida o'z maktablarini yaratishdi.

Zamonaviy psixologiyadagi oxirgi tendensiyalar.

Psixologiya dunyosining rivojlanishida turli xil yo'nalish va maktablarning aralash bo'lishi kata o'rin tutadi. Masalan; bixeviorizm, psixoanaliz, gumanistik psixologiya, transpersonalogik psixologiya va kognitik psixologiya

Gumanistik psixologiya asoschilari Maslou, Rodjers, Artur Kombs, Gordon Olportlar insoniyatni psixologiyadagi eng oxirgi tendensiyalarini tushintiradi.

Transpersonalogik psixologiya insonning his-tuyg'ulari, ong ta'siridagi o'zgarishlarni o'rganadi.<sup>16</sup>

Kognitik psixologiyaning chuqur ildizlari geshtaltpsixologiyaga borib taqaladi. Edvard Tolmen va Jan Piaje uning keying tarqalishidagi xissalari kata bo'lgan,

O'n sakkizinchi asrda empirik va assotsianistlar fikri bilan bir qatorda psixologiyaning yangi oqimi dunyoga keldi. Bu oqimni Frebel, Pestolotsiy, Russo kabi naturalistlar ommaga targ'ib etishgan. Ular ratsionalist va empiriklar tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori ong nazariyasiga qarshi turishgan. Ular odam faqat aql va fikrdan iborat degan tushunchaga qarshi xissiyot va tuyg'u birinchi o'rinda turishini ta'kidlab kelishgan.<sup>17</sup>

Empirik va naturalistlarning nazariyasiga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan psixologiyaning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi (nazariyaga muvofiq qalb va ruhiyat tafakkur, tafakkur, xotira kabilarga bo'lingan). Bu oqim o'n sakkizinchi asrning birinchi yarmida nemis tafakkurchisi Kristian Volf tomonidan amalda qo'llana boshlandi. Psixologiyaning bu yo'nalishi o'n to'qqizinchi asrgacha, ya'ni nemis olimi Gerbart yaratilgan yangi gerbartian yo'nalishi paydo bo'ldi. Shu nazariyaga muvofiq yangi fikrlar eskisidan ustun chiqdi. Shaxsning harakatlari va aqliy faoliyati Gerbartning aytishicha fikrlar o'rtasida doimo kurash bo'lib o'tadi, har bir fikr harakatda va ularning hammasi inson onggida qolishga harakat qiladi. Manashu tushunchani isbotlash uchun u matematik formulalar, aqlni tashkil etuvchi qonun-qoidalarni ishlab chiqqan.

Shu bois psixologiya fan davriga qadar ma'lum bir darajadan boshqa bir darajaga o'tib kelgan.

O'n to'qqizinchi o'rtasiga kelib, psixologiyaning noilmiy darajada rivojlanib kelishi to'xtadi va boshqa fanlar singari ma'lum bir fan mavqeyida qarash boshlandi.

Ilmiy psixologiyaning zamonaviy davri.

<sup>16</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 26p

<sup>17</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 24p

O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmiga kelib fizika, kimyo, zoologiya, geologiya va boshqa fanlarni o'rganish chuqurlashgani natijasida insonning ruhiyati ma'lum bir laboratorik tajribalariga asoslanib emas, balki ilmiy metodlar bilan o'rganish mumkinligi ilgari surila boshladi.<sup>18</sup>

Strukturalizm: Vilgelm Vundt psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida katta xissa qo'shgan (1832-1920 nemis professori birinchi bo'lib 1879-yilda Leypsigda psixologik laboratoriyani ochdi). Uning bu yondashuvi psixologiyada strukturalizm deb atalgan.

Vundt va uning shogirdlari tajriba xonalarida o'z-o'zini analiz qilish va kuzatish bo'yicha ko'plab tajribalar o'tkazishgan. Tajribalar mobaynida ular nur, rang, tovush va sezgi orqali tajriba o'tkazilayotganlarning qanaqa his-tuyg'ularni his etayotganliklari aniqlangan.

Leyosigdagi laboratoriyada ko'plab yetuk psixologlar yetishib chiqqan. Ulardan eng mashxurlaridan biri Edvard Bredford Titchener Amerikaning Kornelsk Universitetida yetuk professor psixologlardan biri bo'lgan. Uning so'zlari bo'yicha psixologiya ong va tajribani o'rganadigan fan. Ong yoki tajriba faqat uch holatda yuzaga chiqishi mumkin: jismanan sezish, tuyg'u va obrazlar (masalan, xotirlash va orzu). Masalan, bizning banan bilan bo'lgan tajribamizni izohlash uchun biz avval uni jismonan his qilishimiz mumkin (ya'ni uni ko'ramiz), sezamiz (ya'ni bananni yoqtirish yoki yoqtirmasligimiz) keyin oldingi banan bilan bo'lgan tajribalarimizni eslaymiz.

Shu orqali, Vundt va uning Titchener kabi izdoshlari, aqlni uning tuzilishi orqali o'rganishga harakat qilib kelishgan.

Shu bilan birga, yaqin yillarda strukturalizm maktabi ko'plab tanqidlarga uchradi va aniq, ishonchli ma'lumotlarni isbotlab berolmagani uchun muvofaqqiyatsizlikka uchradi.

Funksionalizm: Strukturalistlarning sharofati bilan psixologiya mustaqil fan sifatida qarala boshlandi. Bu inson ruhiyatini o'rganishga yangidan yangi foydali yo'llarni ochib berdi.

Shunday qilib, yangi funksionalistik maktab paydo bo'ldi.<sup>19</sup>

Amerika psixologiyasining asoschisi Uilyam Jeyms (1842-1910), psixologiya maktabining tuzilishiga juda katta xissa qo'shgan psixologlardan biridir. U Darvin nazariyasining ta'sirida, bundan tashqari anatomiya, fiziologiya va meditsinaga qiziqishi tufayli psixologiyaning o'rganishda biologik usullardan foydalandi. U Vundt va Titchenerning fikrlari noto'g'ri ekanligini ta'kidlab kelgan. Ongning tuzilishi va tarkibini bilgan holda uning faoliyati va vazifalarini o'rganish mumkin. Uning ta'kidlashicha, evolutsiya jarayonida ilk ongli rivojlanish boshlangan, buning sababi esa atrof-muhit ta'siriga moslashuv bo'lgan. U o'zining nuqtai nazarini rivojlantirgan holda, odat bu faqat asab tizimining ma'lum bir vazifasi degan qarorga keldi. Ma'lum bir faoliyatni takrorlanayotgan vaqtda, asb tizimi shu faoliyatga mos ravishda o'zgaradi va kelgusi marta shu faoliyatni beixtiyor takrorlaydi.

---

<sup>18</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 15p

<sup>19</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 16p

O'n to'qqiz va yigirmanchi asrning keying yillarida Uilyam Jeymsning fikrlari Jon Dyu(1859-1951), Jeyms Roulend Enjel(1869-1949) J.M.Kattel, L.Edvard, Torndayk va R. S.Vudvard kabi psixologlar tomonidan yanada mustahkamlanib,rivojlantirib borildi.

Bixeviorizm:Strukturalizm va funksionalizmga mutlaqo qarama qarshi holatda Jon B.Vatson yangi bixeviorizm nomli yo'nalishni kiritdi.Uning fikricha,Ongni ilmiy tarafdin tasvirlab berib bo'lmaydi,uni ko'rish ham , tegib ko'rish ham mutlaqo bo'lmaydi.Xatto u mavjud bo'lsa ham uni ilmiy nuqtai nazardan o'rganib bo'lmaydi.Shu sabab psixologiya fanini ilmiy tomondan emas, balki ma'lum bir tajriba va kuzatuvlar orqali bayon etish mumkin.

Shunga ko'ra, bixeviorizm inson ruhiyatini o'rganish uchun o'zini bor diqqatini kuzatiluvchining xatti-harakatiga qaratadi.Mana shu maqsadda inson faoliyatini , fikrlarini ,his-tuyg'ularini butunlay tushuntirib berish uchun kuzatish va har birini yozib boorish kerakligini bayon etadi.<sup>20</sup>

Mana shu tufayli, bixevioristlar,masalan, aynan qo'rquvning o'ziga emas , balki yurak urishini tezlashishiga, arterial bosimga e'tibor berishgan.Chunki,qo'rquvni uni o'zini o'lchab bo'lmaydi,ularni va ma'lum bir darajada o'rganish mumkin.Bixeviorizm nazariyasi rus psixologi Ivan Pavlov(1849-1936 )ning nazariyalariga asoslanib Uotson tomonidan faktlarga asoslanib yaratilgan.

Pavlov o'z nazariyasi tajribasida kuchukni avval faqat qo'ng'iroq tovushiga , keyin uni go'sht xidiga almashtirib kuchukning har bir javib reaksuyasiga atrof muhit ta'sir qilishini aniqladi. Uotson shu usulni inson psixologiyasini o'rganib ko'rishga qo'llab ko'rdi. U 11 oylik Albert ismli chaqaloqqa o'z tajribasini o'tkazdi. U chaqaloqni avval kalamushlarga bo'lgan qo'rquvni yaratib, keyin uni to'satdan baland shovqinga o'zgartirdi. Shunga ko'ra, u bizning har bir xatti-harakatimizni atrof muhit ta'siriga nisbatan bo'lgan javob reaksiyasi ekanligini isbotladi.

Quyida ko'rsatilganidek Uotson 1926-yilda qat'iy tarzda inson avtomatik ravishda javib berishi atrof-muhit ta'siri ekanini isbotladi:

“Menga bir qator yosh, sog'lom bolalarni bering, men ularni o'z dunyoyimda o'zgartirishga kafolat beraman, ularni har qanaqa kasb egasi bo'lib yetishib chiqishiga olib kelaolaman.Masalan, shifokor,yurist,rassom savdogar ,kambag'al odam va o'g'ri , buni barchasini ularni qobiliyati ,iqtidori, mavqei va qaysi elatga mansub ekanligiga qaramasdan bajara olaman”.

Uotson va shogirdlarining yangi bu bixeviorizm yo'nalishi eramizga psixologiyaning yangi mexanik, materialist, obyektiv, fizik va boshqa aniq fanlar ko'rinishini olib kirishdi. Ammo buning ham o'ziga xos kamchiliklari mavjudligi sabab, zamonaviy psixologlar tomonidan bir qator tanqidlariga uchradi.

#### Geshtaltpsixologiya.

Amerikada strukturalizm va funksionalizmga qarshi bo'lganlar chegarasiz edi. Germaniyada bixeviorizmdan ozroq farq qiluvchi yangi geshtaltpsixologiya nomli maktab ochildi.<sup>21</sup>

<sup>20</sup> S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y. 17p

<sup>21</sup> S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y. 18p

Bu maktabning eng mashxur namoyandalari: Vertgeymer (1890-1943), Koffka(1886-1941),Volfang Keler(1887-1967) va Kurt Levin (1990-1947). Geshtalt so'zi nemischa ot bolib. Geshtaltni inglischga tarjimasini "Konfiguratsiya" yoki oddiy kilib "uyishik butun". Shuning uchun geshtalt-psixologiyasi atomistik va molekulyar yondashuvlarga karshi tura oladi. Bu bilan birgalikda inson murakkab bulaklarning kolleksiyasi yoki element kilib emas buyumni butun kabul kiladi. Geshtalt-psixolog , sezgilar yoki idrok ma'nosi har doim umumiy vaziyat bilan bog'lik. Narsa jinsdagi alokadek kabul kilinadi. U o'z ichiga narsa, tamoshabin va murakkab fonni ichiga oladi. Gestalistlar bundan tashkari mexanik yondashuv yurishini rad qilishdi, oddiy stimuly – reaksiya orqali qoriqlanuvchi tarzda. Ular shuni tasdiklashtiki stimuly bilan reaksiya o'rtasida o'zini rodidagitashkilotlar mavjud va ular yangi geshtalt shakillanishiga yordam beradi. Gestalistlarning ta'kidlashlaricha behosdan fikrda(ongda,tafakkurda) yangidan barpo bo'lgan narsalarning tuzilishlari eskilariga nisbatan yanada mukkamalroq va zarurroq holatda o'zicha kelishlari mumkinmi,natijada ular bir biridan umuman farq qilishlari ham mumkin.Natijada inson tafakkuri oddiy rag'batlantirilishining natijasigina emas,balki uning rivojlangan intellek ongining , tafakkurining xulosasiga aylanadi.

Individ-sharoitni yaxshilab o'rganib vaziyatga turlicha berilgan fikrlar bilan tanishib, haqiqatga yaqinroq bo'lgan yo'lni "qarorni" tanlaydi va uni amalga oshirish maqsadida kutilmagan,qat'iy qarorlarni kabul qiladi.

Gestalt-psixologiya RZM(sayt)- insonning xususiyatlarini rivojlanishini uch turga ajratadi:

- a)sharoitni bor holatda kabul qilish;
- b)sharoitni ko'rib ,o'rganib ,uni kelib chiqish sabalarini aniqlash;
- v)tezlik bilan qaror kabul qilish va shu asosida faoliyat olib borish.

Shunday qilib, Gestalt-psixologiya qat'iy ravishda sharoitni strukturalash(kesimlarga ajratish), funksiyalash (vazifalash) va qilinishdan iborat bo'lgan ilmiy psixologiyaga qarshi chiqdi.Jumladan, u bu tizimning tuzilishiga "g'isht va quyma", o'zaro bog'lanishiga ularni kesimlarga "g'isht" ajralishiga qarshi chiqdi va ular to'g'risidagi tushunchalarni achinarli hol deb hisoblagan.<sup>22</sup>

### **3.3. O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanish tarixi.**

Psixologiyaning fan sifatida yurtimizda rivojlanish tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak shuni ta'kidlash lozimki, u oxirgi o'n yilliklar mobaynida shakllanmoqda, xolos. Lekin tarixan, umuman psixologiyaning O'zbekiston hududida shakllanishini tahlil qilinsa, uning diniy-falsafiy olimlar va qarashlar tizimida o'ziga xos tarzda shakllanib kyolganini ko'rish mumkin. Masalan, eramizning II-III asrlarida rivoj topgan manixizm (asoschisi Mani) yoki mazdakizm (asoschisi Mazdak) va boshqalar o'z diniy qarashlari tizimida ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy adolat va shaxsning o'ziga xosligi kabi g'oyalarni keng tashviqot qilganlar. Lekin tarix bizga shundan darak beradiki, yaxlit, sistematik ijtimoiy psixologik qarashlar sistemasi umuman bo'lmagan. SHuni alohida

<sup>22</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 19p

ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda o'tkazilayotgan psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlarga bag'ishlangan. Chunonchi, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot ham 70- yillarning oxiri 80- yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan bo'lib, u oilaviy munosabatlarning barqarorligi va er-xotin ijtimoiy rollarining muvofiqligini ta'minlovchi sotsial-psixologik omillarni o'rgandi. Tadqiqot natijasida, shu narsa aniqlandiki, oila a'zolarining rollar borasidagi muvofiq o'zaro munosabatlari oilaviy xamjihatlikning muhim shartidir. Oilaviy majorolar esa, asosan hozirgi zamon o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy munosabatlarda eskilik sarqitlarining saqlanib qolganligidadir.

G'.B.Shoumarov va E.A. Morshinalarning (1986) tadqiqotlarida esa oilada bolalar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-psixologik omillar o'rganildi, chunonchi, unda o'ziga xos milliy va an'anaviy o'zaro munosaoat xususiyatlarining o'rni belgilandi.[1]

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi xususida o'tkazilgan muhim tadqiqotlardan biri N. Sog'inovning o'zbek oilasiga xos bo'lgan nikoh va oila munosabatlari - nikohdan qoniqish, nikoh motivlari, oila qurishning o'zbeklarga xos bo'lgan yosh xususiyatlari, yosh o'zbek oilalaridagi psixologik mojarolar va ajralishlarning sabablarini sistematik tarzda o'rgangan ilmiy ishidir. Bu tadqiqotda ilgari hech o'rganilmagan ilmiy ma'lumotlar to'plandiki, ularga ko'ra, o'zbek oilasining qurilishiga sabab bo'ladigan asosiy motiv—bu "Farzandli bulish", (birinchi o'rinda), ikkinchi o'rinda "Jamoatchilikning gap-so'ziga qolmaslik", uchinchi o'rinda "Ota-ona va qavmi-qarindoshlarning istaklarini bajo etish" va hokazolar aniqlandi. N.Sog'inovning to'plagan ma'lumotlari yosh oilalar, mojaroli oilalar va yoshlar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar uchun muhim ilmiy yo'l-yo'riqdir.

Bundan tashqari, oxirgi yillarda katta guruhlar psixologiyasiga oid qator tadqiqotlar o'tkazildi. Masalan, V.M.Karimovanning o'zbek xotin-kizlari ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarishi mexanizmini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1987), E. Usmonovning o'zbek ayollarining suitsidal (ya'ni o'z-o'ziga o't qo'yish) xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti (1993), E. No'monovanning o'zbek oilalaridagi reproduktiv ustanovkalarining xususiyatlariga bag'ishlangan, M.Zokirovanning erkak va ayollardagi rollar hakidagi tasavvurlarning o'ziga xosligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqoti, M.Toshpo'latovning o'zbek yoshlaridagi ijtimoiy xulq-atvorning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'ziga xos qirralarini o'rganishga qaratilgan ishlari va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik konsepsiya shakllanadi va bu respublikamizdagi ilmiy ishlarning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

O'zbekistonda psixologlar oldida juda muhim tadqiqot mavzulari mavjudki, ularda hozirgi mustaqillik sharoitida shaxs va turli ijtimoiy guruhlar psixologiyasida ro'y berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik etnik professional guruhlarga mansub bo'lgan kishilarning ijtimoiy tasavvurlari, ular asosida ijtimoiy xulq-atvorni ilmiy boshqarish asoslari ishlab chiqilishi lozim. Ya'ni, ishlab chikarish ijtimoiy psixologiyasi, boshqarish psixologiyasi, guruhlar

psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari o'zbek psixologlaridan o'z echimini kutmoqdaki, ularda ilg'or fan yutuqlaridan foydalanilgan holda xududning milliy o'ziga xos qirralari ishlab chiqilishi kerak.[2]

Psixologiya fanini rivojlantirishda judayam katta rol o'ynagan psixologlar quyidagilar: B.Ananov, P.P.Blonskiy, S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, R.S.Nemov va boshqalar, shuningdek keyinchalik o'zbekistonda ham yirik olimlar etishib chiqdi. Ular jumlasiga M.G.Davletshin, E.G'.G'oziev, M.Vohidov, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, G'.B.SHoumarov, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova va boshqalarni kiritish mumkin. YUqorida nomlari tilga olingan olimlar o'zlarining g'oyalari va milliy mafkuralar bilan yoshlarda tafakkur sifatlaridan «mustaqillik», «tanqidiylik» kabilarni shakllantirishga e'tibor bermoqdalar.

### **3 MAVZU. HOZIRGI ZAMON PSIXOLOGIYASINING TUZILISHI VA TADQIQOT METODLARI**

#### **REJA:**

- 3.1. Psixologiya sohasida ilmiy tekshirish olib borishning o'ziga xosligi.
- 3.2. Psixologiyaning asosiy tamoyillari
- 3.3 Psixologiyaning tadqiqot metodlari

#### ***3.1 Psixologiya sohasida ilmiy tekshirish olib borishning o'ziga xosligi.***

Hozirgi zamon psixologiyasi yaxlit fanning o'zidan emas, balki mustaqil fan bo'lishga da'vogarlik qiluvchi ilmiy fanlar majmuasidan iborat.

Bu majmuadan psixologiyaning ta'lim bilan bog'liq bo'lgan asosiy va amaliy, umumiy va maxsus sohalari o'rin olgan. Psixologiya fanining asosiy sohalari odamlarning aniq bir faoliyat bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar, odamlarning hulq-atvor psixologiyasini bilish va tushuntirib berishda umumiy ahamiyatga ega. Fanning bu sohalari odam hulq-atvori va psixologiyasi bilan qiziquvchilarga birday zarur bo'lgan bilimlarni berishlari kerak. Ba'zida umumiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ular «umumiy psixologiya» atamasi bilan umumlashtiriladi. Umumiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlar natijalari psixologiya fanining barcha soha va bo'limlarining rivojlanishi uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Shu bilan birga, ma'lum maxsus yoki nazariy faoliyatning u yoki bu turi bilan mashg'ul odamlar hulq-atvori va psixologiyasini tadqiq etuvchi fanning maxsus yoki amaliy sohalari ham ajratiladi

Bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'langan bolalar psixologiyasi (bola psixik rivojlanishining qonuniyatlarini o'rganadi) va pedagogik psixologiya (maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sharoitida psixikani tadqiq etib, ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslarini ishlab chiqadi), yosh psixologiyasi (o'rganish predmeti – psixikaning yosh xususiyatlari), mehnat psixologiyasi (issleduet mehnat jarayonida psixik faoliyat va shaxsni tadqiq etib, kasb tanlash, mehnat jamoalarini tashkil etish va boshqalar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi), boshqaruvning



avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalash va ularni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan muhandislik psixologiyasi («inson – qurilma» tizimida inson faoliyatini o'rganuvchi mehnat psixologiyasining bo'limi); koinot psixologiyasi (koinotga parvoz sharoitida psixik faoliyatning xususiyatlarini o'rganadi), ijtimoiy psixologiya (jamoada inson faoliyati va shaxslararo munosabatlarning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etadi), qiyosiy psixologiya (o'rganish predmeti – odam va hayvon psixikasi kelib chiqishi va rivojlanishidagi umumiylik va tafovutlar) kabi mustaqil bo'limlarga shakllandilar.<sup>23</sup>

Psixologiyaning ko'plab sohalari quyidagi mezonlar bo'yicha ajratiladi:

- aniq faoliyat (mehnat psixologiyasi, tibbiyot, pedagogik psixologiya, san'at, sport psixologiyasi va shu kabilar);
- rivojlanish (hayvonlar psixologiyasi, qiyosiy psixologiya, rivojlanish psixologiyasi, bolalar psixologiyasi va shu kabilar);
- ijtimoiy umumiylik (ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, guruh, sinf psixologiyasi, etnopsixologiya va h.k.).

Sohalar bo'yicha faoliyat maqsadiga ko'ra tafovut muhim ahamiyat kasb etadi (yangi bilimlarga ega bo'lish va ularni qo'llash): asosiy va amaliy fanlar; tadqiq etish predmetiga ko'ra – rivojlanish psixologiyasi, ijod, shaxs psixologiyasi va h.k. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi asosida yuzaga kelgan fanlar sifatida psixofiziologiya, neyropsixologiya, matematik psixologiya va boshqalarni keltirish mumkin. Psixologiyaning amaliyotning turli sohalari bilan murakkab aloqalarining rivojlanishini tashkiliy, muhandislik psixologiyasi, sport psixologiyasi, pedagogik psixologiya va shu kabilarda kuzatish mumkin.

Turli mualliflar psixologiyaning 100dan ortiq sohalarini sanab o'tadilar. Lekin aslida hozirgi kunda ularning soni bundan oshib ketgan.

Shuningdek, psixologiyaning maxsus bo'lim va yo'nalishlari ham mavjud: differensial psixologiya (odamlar o'rtasidagi individual tafovutlarni o'rganadi), qabul qilish psixologiyasi, kriminalistika va sud psixologiyasi, ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod psixologiyasi, qarish psixologiyasi (gerontopsixologiya), aviatsiya psixologiyasi.

Hozirgi zamon psixologiyasi boyib, turli-tuman bo'lib bormoqda, oxirgi yillarda psixologiyaning yangi sohalari: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, «buyukshunoslik» psixologiyasi, o'sish psixologiyasi, tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish qobiliyatlar psixologiyasi, ko'zi ojiz kar-soqovlar psixologiyasi, kitobxonlar va kitob psixologiyasi, mavh etish psixologiyasi, tushlar va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli va xavfli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoteratik psixologiya, taqdir psixologiyasi, mutaassiblik psixologiyasi, qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik psixologiyasi, o'quv faoliyat psixologiyasi, ayollar psixologiyasi, tobe hulq-atvor psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat muloqoti psixologiyasi, o'qituvchi

---

<sup>23</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y. 23p

psixologiyasi, tashqi ko‘rinish psixologiyasi, oliy maktab psixologiyasi, buyruq psixologiyasi, savdo-sotiq psixologiyasi, OAV psixologiyasi, elektoral hulq-atvor psixologiyasi, erkaklar psixologiyasi, din psixologiyasi, tomalogiya, qo‘rquv psixologiyasi, o‘lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqalar faol shakllanib bormoqda.

An‘anaviy psixologik fanlar – umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, yosh va pedagogik psixologiya chuqur o‘zgarishlarga uchramoqda.

Hozirgi zamon psixologiyasining negizini psixikaning umumiy qonunlari, qonuniyatlari, mexanizmlarini o‘rganuvchi **umumiy psixologiya** tashkil etadi. U ilmiy kashfiyotlarni amalga oshiruvchi nazariy konsepsiyalar va tajriba tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi. Umumiy psixologiya akademik fan nomini olgan. Bu fan sifatida u universitetlarda va akademiya institutlarida rivojlanib, o‘z oldiga asosiy bilimlarni orttirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Bundan farqli o‘laroq, amaliy psixologiya aniq bir talabgor bilan ish yuritadi, noma‘lumlikni ilmiy tarzda ochib beruvchi keng hajmli va chuqur tadqiqotlarni olib bormasdan, mijozning amaliy ehtiyojlari, masalan, savdo tashkiloti, vazirlik yoki idora, harbiy kasalxona yoki umumta‘lim maktabi bilan ish ko‘radi. Amaliy psixologlarning asosiy ish vositasi – **treninglar**, xususan: psixodrama, jismoniy treninglar, NLP-treninglar, o‘zini o‘stirish treninglari, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar treninglari, geshtalttreninglar, shaxsiy o‘shish treninglari va biznes-treninglar, autotreninglar va qobiliyatlarni rivojlantirish treninglari, ota-onalar va bolalar uchun treninglar.

### ***Psixologiya tarmoqlari***

Psixologiya fani qanday sohaga taluqligi bilan bir necha guruhlariga bo‘linib ketadi. Biz buni birinchi bo‘lib nazariy va amaliy psixologiya deb ataluvchi ikki katta guruhga bo‘lamiz.

Nazariy psixologiya bizlarga fundament bo‘lib hizmat qiluvchi asosiy qonun qoidalarni va psixologik teoriyalar va prinsiplarni o‘rgatadi. Bu bizlarga juda hilma xil analizlash, baholash, modifikatsiya qilish va hususiyatlarni rivojlantirish metodlari va texnikalarini o‘rgatadi.

Amaliy psixologiyada esa nazariy psixologiyada muhokama qilingan va o‘rganilgan bilimlar sinaladi. Bu yerda biz psixologik qoidalar, prinsiplar, teoralar va texnikalarni haqiqiy hayotda qo‘llab ko‘ramiz va o‘z bilimimizni sinab ko‘ramiz.

Yuqorida takidlab o‘tilgan nazariy va amaliy psixologiyalar ham turli tarmoqlarga bo‘linib ketgan. Kelinglar birinchi bo‘lib nazariy psixologiyani tarmoqlarini ko‘riib chiqamiz:

1. Umumiy psixologiya – normal odamlar xarakterlarini o‘rganishga bog‘liq bo‘lgan asosiy fundament vazifasini o‘tovchi qonun – qoidalar, teoralar va prinsiplarni o‘rganadi;
2. Psixopatologiya – Ruhiya kasalliklarning kelib chiqish sababini, tasir darajasini o‘rganuvchi va uni davolash yo‘llarini izlovchi psixologiya bo‘limidir.

3. Ijtimoiy psixologiya – kishilarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini, guruhiy tavsifni, shaxsning ruhiy faoliyati va xulq – atvorini, ijtimoiy psixologik qonuniyatlarni, holatlar, hodisalar, ularning qiziqishlarini, nimani yoqtirishi va yoqtirmasligini kabilarni o'rganuvchi va tushuntirib beruvchi psixologiya sohasidir
4. Ekspirimental psixologiya – psixik jarayonlar va hodisalarni ilmiy metodlar yordamida laboratoriyalarda ularni o'rganuvchi psixologiya bo'limi. Bu ekspirimentlar asosan hayvonlarda va qushlarda, so'ngra ixtiyorga qarab odamlarda amalga oshiriladi.
5. Fizologik psixologiya – psixologiyaning bu bo'limi hatti harakatlarning fizologik va biologik asoslarini o'rganadi. Atrof muhit, tananing fizologik tuzilishi, miya ishi, nerv sistemalari va ularning ishlash faoliyati va shunga oxshash boshqalar bu bo'limning asosiy predmetlaridir.
6. Para – psixologiya – qo'shimcha sezgi turlari, qayta tug'ilish asoslari, telepatiya va o'zga sayyoraliklar haqidagi muomolarga javob izlaydi
7. Geo – psixologiya – landshaft, tuproq, havo o'zgarishlarining tabiatga aloqador tamonlarini o'rganuvchi psixologiya bo'limi.
8. Rivojlanish psixologiyasi – psixologiyaning bu bo'limi induvid tug'ilganidan boshlab to o'guniga qadar davom etadigan jarayonlarda yuzaga keladigan o'zgarishlarni organadi. Psixologiyaning bu bo'limi o'z navbatida bolalar psixologiyasi, o'rta yoshlilar psixologiyasi va katta yoshlilar psixologiyasi kabi tarmoqlarga bo'linib ketadi.<sup>24</sup>[4]

### **3.2. Psixologiyaning asosiy tamoyillari**

Psixikani o'rganish qator boshlang'ich boshqaruv nizomlariga asoslangan tamoyillarga tayanadi, bu tamoyillar tadqiq etilayotgan ob'ektni mazmunli bayon etish, tajriba ma'lumotlariga ega bo'lish muolajalarini rejalashtirish, ularni umumlashtirib, izohlash, shuningdek, ilmiy farazlarni ilgari surib, ularni tekshirish imkonini beradi.

Psixologiyaning asosiy metodli tamoyillari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

1. **Determinizm tamoyili.** Bu tamoyilga asosan, barcha mavjudliklar ma'lum sabab, qonuniyatga ko'ra paydo bo'ladi, o'zgaradi va nobud bo'ladi. Psixologik tadqiqotda psixika hayot tarzidan kelib chiqib, mavjudlikning turli tashqi sharoitlari ta'sirida o'zgarishini bildiradi.

Hayvonlar psixikasi haqida so'z yuritilganda, uning rivojlanishi biologik qonun sifatidagi tabiiy tanlanish bilan belgilanishini ta'kidlash lozim. Odam psixikasini oladigan bo'lsak, inson ongi kelib chiqishining shakllari va rivojlanishi oxir-oqibat hayot uchun zarur moddiy vositalarni ishlab chiqish usulining rivojlanish qonunlari bilan belgilanadi. Determinizm tamoyilidan kelib chiquvchi xulosa sifatida inson ongining ijtimoiy-tarixiy xususiyatini tushunish xizmat qiladi.

2. **Ong va faoliyatning birligi tamoyili.** Ong va faoliyat uzviy birlikni tashkil etadi, lekin ular bir-biriga aynan o'xshash emas. Ong faoliyat jarayonida uning ichki rejasini, dasturini hosil qilgan holda shakllanadi. Aynan, ongda voqelikning

<sup>24</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y

harakatchan ko‘rinishlari yuzaga keladi, ular yordamida inson atrof muhitda o‘z yo‘nalishini aniqlay oladi.

Ong va faoliyatning birligi tamoyili ruhshunoslarga hulq-atvor, faoliyatni o‘rgangan holda, samarali maqsadga muvofiq harakatlarning ichki psixologik mexanizmlarini aniqlash, ya’ni, psixikaning ob’ektiv qonuniyatlarini ochib berish imkonini beradi.

**3. Psixika va ongning faoliyatda rivojlanish tamoyili.** Ushbu tamoyil psixika haqida uning faoliyat jarayoni va natijasi sifatida uzluksiz rivojlanishda ko‘rib chiqilgandagina to‘g‘ri tushuncha hosil bo‘lishini bildiradi.

Har bir psixik hodisaning tadqiq etilishi shu hodisaning aynan hozirgi vaqtga tegishli bo‘lgan xususiyatlarining ta’rifini, yuzaga kelish va shakllanish tarixini, shuningdek, rivojlanish istiqbollarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.[2]

Olimlar inson psixologiyasi va hulq-atvorini o‘rganishda ularni bir tomondan, organizmning biologik tuzilishi va faoliyati nuqtai nazaridan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy rivojlanish qonunlari yordamida tushuntirib berishga harakat qiladilar.

Har bir fan aniq ma’lumotlarga asoslanadi. Ob’ektiv voqelikning bunday hodisalarini to‘plab, solishtirib, guruhlarga ajratib va umumlashtirib, fan yaratilishi kabi eng muhim zaruriyatni, aynan, irodamiz va ongimizdan mustaqil ravishda mavjud olamning ob’ektiv qonunlarini ochib beradi. Bu ma’lumotlarga ega bo‘lish usullari ilmiy-tadqiqot metodlari yoki bilim, nazariya, ta’limot deb ataladi. SHunday qilib, metod – ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi yoki biror-bir reallikni bilish usuli. Ilmiy metod o‘z tuzilishiga ko‘ra, yondoshuvlar va muolajalar yig‘indisidan iborat. Ilmiy tadqiqotlarning metodlari yordamida olimlar keyinchalik ilmiy nazariyalar tuzish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ishonchli ma’lumotlar oladilar.

Har qanday fanga o‘xshash psixologiya ham o‘zining tadqiqot metodlariga ega. Psixologik tadqiqotda qo‘llaniladigan metodlarning barchasini to‘rt guruhga ajratish mumkin: 1) tashkiliy metodlar; 2) tajriba metodlari; 3) ma’lumotlarni qayta ishlab chiqish metodlari; 4) izohlash metodlari. Birinchi guruhga qiyosiy, longityud va majmua metodlari kiradi. Ma’lumotlar olishning tajriba metodlari kuzatish va o‘zini kuzatish (introspeksiya), tajriba metodlari (laboratoriya, tabiiy, shakllantiruvchi), psixologik tashhishlash metodlari (testlar, anketalar, so‘rovnomalar, sotsiometriya, suhbat, intervyu), faoliyat mahsuli tahlili (xronometriya, kasbiy ta’riflar, mahsulot va bajarilgan ishlarni baholash va boshqalar), tarjimai hol va egizaklar metodlarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumotlarni qayta ishlash metodlariga miqdoriy (statistika) va sifat (materialni guruhlarga ajratish, tahlil) metodlari kiradi. Izohlash metodlariga turli xildagi irsiy (materilning rivojlanishdagi alohida davrlar, bosqichlar, xavfli vaziyatlar va boshqalarni ajratib ko‘rsatgan holda tahlili) va tarkibiy (psixika barcha xususiyatlarining tuzilishlari o‘rtasidagi aloqani o‘rnatish) metodlar kiradi.[1]

Endi esa psixologik tadqiqotning asosiy metodlarini birmuncha to‘liqroq holatda ko‘rib chiqamiz.

**Qiyosiy metod** («ko‘ndalang kesim» metodi) turli guruhlarga mansub odamlarning yoshi, ma’lumoti, faoliyati va muloqotiga ko‘ra taqqoslashdan iborat.

Masalan, yoshi va jinsi bir xil bo'lgan odamlarning ikkita katta guruhi (talabalar va ishchilar) ilmiy ma'lumotlarga ega bo'lish uchun bir xil tajriba metodlari bilan tadqiq etiladi va olingan ma'lumotlar o'zaro solishtiriladi.

**Longityud metodi** («uzunchoq kesim» metodi) tanlangan sinaluvchilarni uzoq vaqt davomida qayta-qayta tekshirishdan iborat. Masalan, talabalarni oliygohda ta'lim olish vaqti davomida ko'plab marta tekshirish.

Qiyosiy va longityud metodlari o'z afzalliklariga ega. Kesimlar metodi qisqa vaqt ichida ko'p sonli sinaluvchilarni tadqiqot bilan qamrab olish imkonini beradi. Longityud metodi kesimlar metodi e'tiboridan chetda qolgan nozik farqlar, xususiy rivojlanish turlarini qayd etishga imkon yaratadi. Amaliyotda bu ikki metod bir-birini to'ldiradi.

**Majmuiy metod** – tadqiqotda turli fan vakillarining ishtiroki turli hodisalar, masalan, shaxsning fiziologik, psixologik va ijtimoiy taraqqiyoti o'rtasidagi aloqalar va bog'liqliklarni o'rnatish imkonini beruvchi o'rganish usuli.

**Kuzatish** – psixika tashqi alomatlarini oldindan belgilangan, tizimli, maqsadga muvofiq va qayd etilgan holatda qabul qilishdan iborat bo'lgan metod. Bu metod ilmiyligining asosiy sharti bo'lib uning ob'ektivligi, ya'ni, qayta kuzatuv yoki tadqiqotning boshqa usullarini, masalan, tajribalarni qo'llagan holda nazorat olib borish imkoniyati xizmat qiladi. Kuzatish bir necha xil: **standartlashtirilgan** (belgilangan dasturga qat'iy mos ravishda o'tkazilgan), **erkin** (oldindan o'rnatilgan chegaralarga ega bo'lmagan), **kiritilgan** (tadqiqotchi o'zi kuzatayotgan jarayonning bevosita ishtirokchisiga aylanadi), **yashirin** bo'ladi.

O'tkazilish joyiga asosan kuzatishlar **dala** va **laboratoriya** kuzatishlariga bo'linadi. Dala kuzatishlari tabiiy sharoitlarda, laboratoriya kuzatishlari esa sun'iy, ya'ni, oldindan yaratilgan sharoitlarda o'tkaziladi.

Olib borish muntazamligiga ko'ra kuzatishlar **tizimli** (ma'lum vaqt davomida ob'ektni o'rganish uchun ishlab chiqilgan reja bo'yicha) va **tizimsiz** (noma'lum vaqt davomida rejaga asoslanmagan) bo'ladi.

O'rganilayotgan hodisaning o'tkazilish davomiyligi, vazifalari va ko'lamiga ko'ra kuzatishlar **qisqa vaqtli** (farazlarni ifodalash yoki boshqa metodlar yordamida olingan ma'lumotlarni nazorat qilish va to'ldirish uchun tadqiqotning boshlang'ich bosqichida o'tkaziladi) va, uzoq oylar va yillar davomida keng ko'lamli yoki murakkab tuzilmali ijtimoiy jarayonlarning kechishini kuzatishga xizmat qiluvchi **uzoq vaqtli** kuzatishlarga bo'linadi.[2]

Kuzatish metodini qo'llash uchun quyidagi shartlar qo'yiladi:

- sinaluvchining hulq-atvori uning ko'pgina ko'rinishlari va turli vaziyatlarda har tomonlama baholanishi lozim;

- kuzatuvchi sinaluvchi bilan juda ko'p vaqt birga bo'lishi kerak (kamida 2-3 oy davomida). Seanslar haftasiga 3-4 marta o'tkazilishi kerak, ularning davomiyligi kuzatish maqsadidan kelib chiqib o'rnatiladi;

- kuzatish jarayoni boshlanmasdan avval sinaluvchi hulq-atvorining qayd etiladigan xususiyatlari aniqlab olinishi, va hulq-atvorning bunday belgilari bilan tadqiqotchi bu metodni qo'llagan holda baholamoqchi bo'lgan psixologik xususiyatlar o'rtasidagi aloqa oldindan o'rnatilishi kerak;

- tadqiqotchi avvaldan kuzatish olib borish mashqini olgan bo'lishi zarur;

- muammoni xolisona hal etish maqsadida sinaluvchi va tadqiqotchi o'rtasidagi rolli munosabatlarga yo'l qo'ymaslik kerak;

- sinaluvchi bir vaqtning o'zida kamida 10 ta ruhshunos kuzatuvida bo'lishi va olingan baho har bir ruhshunos belgilagan balldan o'rtachasini tashkil etgan bo'lishi kerak.

Barcha ruhshunoslar bir-biriga bog'langan bo'lmasligiga zarur. Bunday holat natijalar samarasini oshiradi (baholash metodi).

**O'zini kuzatish** metodi, yoki introspeksiya (lot.dan – ichkariga qarayman) – insonning o'zining shaxsiy psixik hodisalarini kuzatishi. Bu psixikani bilishning eng qadimiy va eng qulay vositasidir. Uning kashf etilishiga fransiyalik faylasuf Rene Dekartning fikricha, ong – alohida tuzilgan, moddiy va tarqoq bo'lmagan substansiya bo'lib, sub'ektning mulohaza yuritganida ichida qanday hodisalar ro'y berishi haqidagi to'g'ridan-to'g'ri va bevosita bilimlari to'g'risidagi dohiyona yorqin g'oyalari turtki bo'ldi. O'ziga va ongiga nazar tashlash introspeksiyaning mohiyatini tashkil etadi.

### **Psixo-fizik metodlar**

Jismoniy va ruhiy hodisa deb nomlangan psychophysics o'rtasidagi munosabatlar o'rganish bilan shug'ullanadi psixologiya filiali. Shu ma'noda, muddatli psixo-jismoniy usullari urinishlar vazn his, yorqinligi, hajmi, va boshqa shunga o'xshash o'zgaruvchilar sifatida ma'lum psixologik tajribalar ilmiy o'lchovlar uchun jismoniy qurilmalar foydalanish ashyodan barcha usullarini ulanishi mumkin. va hokazo uyqu oralig'ida yoki xotira kabi boshqa murakkab psixologik hodisalar, shuningdek, psixo-jismoniy usullarini foydalanish o'rganib mumkin.[4]

Nemis fiziolog va fizik Fechner (1801-1887) tomonidan ishlab chiqilgan uch klassik psixofizik usullari, haligacha psixofizika otasi. Ular:

(I) usullari yoki cheklashlarni minimal o'zgarishlar usuli.

(II) doimiy rag'batlantirishning yoki to'g'ri va noto'g'ri javoblar usuli.

(III) O'rtacha yoki o'rtacha xato usuli.

Bu usullar, birinchi navbatda, mutlaq arafasida va arafasida o'rtasidagi farqni o'lchash uchun ishlatiladi. Va mutlaq, pol va pol farqlar statistik tushunchalar va ham deyarli bir xil tarzda o'lchanadi. Mutlaq, pol ishonchli hissi ishlab chiqaradi jismoniy rag'bat, minimal qiymati sifatida belgilanishi mumkin.

Mutlaq chegara Shunday qilib, biz, biz, nur yorqinligi, biz nima mumkin emas va shuning uchun ko'rish mumkin olmaydi kishilardan hidlarni hidi mumkin olmaydi o'sha eshitasiz tovushlarni ajratib turadi.<sup>25</sup>[4]

O'zlari esa farq mavzu orqali idrok qilinishi mumkin, ikki rag'batlantirishning o'rtasida qiymati eng kam farq sifatida belgilangan bo'lishi mumkin. Bir kishi uning qo'lini qo'yish uchun ma'lum bir og'irlik kechirmoqda qachon umumiy birinchi ajratib bo'lmaydigan bo'lib, masalan, eng kam vazn, pol

---

<sup>25</sup> Mangal S.K.: "General Psychology" 2013y. p.20.

farq, unga ilova qilinadi. Keling, endi yuqorida aytib o'tilgan uch psixofizik usullarini qisqacha fikr berish chiqaylik.

Minimal o'zgarishlar yoki cheklashlar usuli usuli.

Bu usul mutlaq ostonasini va chegara (porog) farqini aniqlash uchun foydalanish mumkin. quyidagicha tartibi tasvirlangan:

1. An shaxs his duchor bo'ladi. Misol uchun, u bir ob'ekt (80 sm, masalan), ma'lum bir masofada yotgan yoki yo'q ko'rishni ega yoki yo'qligini so'rang mumkin.

Psixologiyaning asosiy metodi bo'lib **tajriba** hisoblanadi. Tajriba metodi tadqiq etilayotgan hodisalar, ijtimoiy yoki psixologik jarayonlar, qarashlar, qonuniyatlar, yangi bilimlarga erishishdagi xossalari o'rtasida mavjud bo'lgan sababiy-oqibat aloqalari haqida aniqroq ma'lumotga ega bo'lish maqsadida qo'llaniladi. Kuzatishdan farqli ravishda tajribada tasviriy ma'lumotdan tashqari, aloqalar, munosabatlar, jarayonlar haqida tushuncha beriladi.

Nizom bo'yicha tajribaga qo'yiladigan muhim talablardan psixologlar quyidagilarni sanab o'tadilar: tadqiqot farazlariga ko'ra aniq yo'nalganlik; tadqiqot ob'ektini yuqori darajada bilish va to'liq ta'riflash; tajriba muolajalarini olib borishni qat'iy nazorat qilish, ularning aniqligini ta'minlash; qayta ishlab chiqish, takrorlash imkoniyati; ijtimoiy ob'ektga mos keluvchi metodlar, kuzatish va o'lchash vositalarining mavjudligi.[2]

Tajriba tadqiqotlarini olib borishda quyidagilarni bilish lozim.

**Tajriba predmeti** – o'rganilayotgan ob'ekt xossalari va uning ijtimoiy faoliyati va hulq-atvorini belgilab beruvchi omillar tizimi o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar.

Tajribadagi **o'zgaruvchi** – o'rganilayotgan ob'ekt holatiga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sir etuvchi nazorat ostidagi va nazoratga olinmaydigan omillar. O'zgaruvchilar tizimi tajribadagi vaziyatda etakchilik qiladi va bu vaziyat xuddi shu tizim orqali ta'riflanadi. Asosiy o'zgaruvchilar mustaqil va bog'langan bo'lishi mumkin. Mustaqil o'zgaruvchi – tadqiqotchi tomonidan o'zgartiriladigan va tajriba guruhi faoliyatiga kiritiladigan omil. Bog'langan o'zgaruvchi – mustaqil o'zgaruvchi ta'sirida o'zgaradigan omil.

**Tajribaviy vaziyat** – tajriba o'tkazilayotgan sharoitlar yig'indisi. U dala va laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin.

**Tajriba ob'ekti** – ijtimoiy guruh, jamoa, shaxs (tajriba ishtirokchilari). Tajribada ikki xil ob'ekt: nazorat va tajriba guruhlar ajratiladi. Ikki guruhning tuzilishi tafovutlarni aniqlashga va kutilgan o'zgarishlar ro'y bergani yoki bermagani haqida mulohaza yuritish imkonini beradi. Tajriba ishtirokchilarining soni, odatda, unchalik ko'p bo'lmaydi, aksariyat hollarda 10-15 kishidan oshmaydi.

**Tajriba guruhi** tajriba omili (mustaqil o'zgaruvchi) ta'sir ettiriladigan guruh.

**Nazorat guruhi** tajriba omillarining ta'sirini sezmaydi.

Agar tajriba guruhida nazorat ostidagi (mustaqil) o'zgaruvchilar o'zgartirilsa, nazorat guruhidagi mustaqil o'zgaruvchilar o'zgarishlarsiz sqlanib qoladi. Nazorat guruhi qiyosiy birlik bo'lib xizmat qiladi.

Kengroq tarqalgan tajriba metodlarini ko‘rib chiqamiz.

**Laboratoriya tajribasi** sun‘iy shroitlarda maxsus asboblarni qo‘llagan holda ta‘sir etuvchi omillarning qat‘iy nazorati yordamida amalga oshiriladi. Masalan, inson tafakkuri xususiyatlarini o‘rganish. Sinaluvchiga ajratilgan vaqt ichida echishi lozim bo‘lgan aqliy vazifalar qatori taklif etiladi. Har bir vazifani bajarish ma‘lum ballar miqdori bilan baholanadi, ballar yig‘indisi esa aqliy rivojlanish darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib hisoblanadi.

**Tabiiy tajriba** – sinaluvchiga sezilarsiz tarzda uning faoliyati yoki muloqotiga kiritilgan psixologik tajriba, u tabiiy sharoitlarda tadqiqotchining aralashuvisiz o‘tkaziladi. Tabiiy tajribani hayotning o‘zi qo‘yadi, tajribaviy vaziyat esa tadqiqotchining faol ishtirokisiz yuzaga keladi. Masalan, odam to‘satdan kasal bo‘lib qoldi, bunda kasallik uning psixikasi va hulq-atvoriga nisbatan biror-bir ta‘sirga ega bo‘lishi ma‘lum. Qanday qilib? Bu savolga tajribadan javob topish mumkin, tajriba davomida bemor psixolog tomonidan kuzatiladi va u bemorning kasalikkacha va kasallikdan so‘nggi holatlarini qiyoslaydi.[1]

**Shakllantiruvchi (ta‘limiy) tajriba** – psixik jarayon, shaxs holati yoki sifatini tadqiq etish va shakllantirish metodi. Masalan, bolalarda ma‘lum sinf masalalarini echa olish qobiliyatini shakllantirish. Sinaluvchilar tegishli masalalar bilan tanishtirilib, ularni echish tartibi tushuntiriladi. So‘ngra ularga zarur malaka va ko‘nikmalarni orttirishga ko‘mak beriladi. Tajriba yakunida olingan natijalar baholanadi.

**Dala tajribasi** o‘z xususiyati bilan laboratoriyadagi bilan o‘xshashdir, faqat u insonning real hayotidagi voqelikda o‘tkazilishi bilan farq qiladi. Masalan, oliy o‘quv yurtida ta‘limning yangi dasturini kiritish bo‘yicha tajriba olib boriladi, buning ustiga, dastur o‘quv jarayoniga real tartibda kiritiladi. Tadqiqotchilarni tajriba natijasida talabalar bilimining yaxshilanashi yoki ularning avvalgidek saqlanib qolishi qiziqtiradi. Buning uchun ular tajribagacha va tajribadan so‘ng talabalar bilimni tekshiruvdan o‘tkazadilar va tajribaning samaradorligi yuzasidan xulosa yasaydilar.

**Qayd etish tajribasi** deb, vazifasi ma‘lumotlarni oddiy ravishda qayd etish va ta‘riflash, ya‘ni, jarayonga tadqiqotchi tomonidan faol aralashuvsiz haqiqatda ro‘y beradigan voqelarni qayd etishdan iborat bo‘lgan tajribaga aytiladi. Qayd etish tajribasi tabiiy tajribadan vazifalarning real holati oddiy qayd etilishi va olingan natijalar o‘zaro tajribagacha va tajribadan so‘ng solishtirilmasligi bilan farq qiladi. Masalan, bolalarda xotiraning rivojlanish darajasini aniqlash. Sinaluvchilarga materialni eslab qolish va namoyish qilishga doir vazifalar qatori taklif etiladi. Ularni bajarish natijalariga ko‘ra, xotiraning rivojlanganlik darajasi aniqlanadi.

**Assotsiativ tajriba** – K.G. YUng, M. Vertgeymer va D. Klyayn tomonidan bir vaqtda taklif etilgan va shaxs motivatsiyasini tadqiq etishga mo‘ljallangan loyihalash metodi. Bu metodda sinaluvchiga rag‘bat so‘zlar to‘plamiga javoban miyaga kelgan so‘zlarni iloji boricha tez aytish taklif etiladi. Bunda yuzaga kelgan tasavvurlar rag‘bat-so‘z va sinaluvchining javobi o‘rtasidagi bir xil tasavvurlarning turi, qaytarilishi, vaqtiga ko‘ra qayd etiladi.<sup>26</sup>[3]

---

<sup>26</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-37-41



S.L. Rubinshteyn tajribaning to'rt xil o'ziga xos xususiyatiga ta'rif bergan edi. Birinchidan, tajribada kuzatuvchi vaziyatga faol aralasha olmaydigan kuzatishdan farqli ravishda tadqiqotchining o'zi o'rganayotgan hodisani yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, tadqiqotchi o'rganilayotgan jarayonning kechishi va ifodalanishi sharoitlarini o'zgartirishi mumkin. Uchinchidan, tajribada o'rganilayotgan jarayonni aniqlash uchun qonuniyatli aloqalarni o'rnatish maqsadida, alohida sharoitlarni o'zgarishli tarzda istisno qilish imkoni mavjud. Va, nihoyat, to'rtinchidan, tadqiqotchi olingan ma'lumotlarning matematik qayta ishlanishini qo'llagan holda sharoitlarning miqdoriy nisbatlarini ham o'zgartirishi mumkin.

Tajriba metodining muhim afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi sustkashlikka yo'l qo'ymay, uni qiziqtiruvchi psixik hodisaning yuzaga kelishini kutib o'tirmasligi lozim. Tajribada tadqiqotchi sharoitlarni o'zi yaratganligi uchun bu sharoitlarni, hamda, ularning sinaluvchiga ko'rsatadigan ta'sirini ham to'raligicha hisobga olish imkoniyati tug'iladi. SHaroitlarning tadqiqotchi tomonidan yaratilishi ularni bir necha marta takrorlash imkonini beradi. Bunday takrorlash, bir tomondan, olingan natijalarning ob'ektiv tasdiqlanishi bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ma'lumotlar to'planishi va ularni miqdoriy baholash imkoniyatlarini ochib beradi.

SHu bilan birga, tajriba metodining salbiy tomoni uni qo'llashdagi maxsus yaratilgan sharoitlar o'rganilayotgan psixik holatning tabiiy kechishini izdan chiqarishi mumkinligidan iborat (tajriba sharoitlari hayajon, qo'rquv, o'zining ijobiy tomonlarini ko'rsatishga intilishni keltirib chiqarishi mumkin), bu esa o'z navbatida olingan ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishiga olib keladi.

Keyingi yillarda *psixologik tashhishlash metodlari, test sinovlari* keng ko'lamda olib borilmoqda.[2]

Psixologiyaning ob'ektiv metodlariga, shuningdek, psixologik tashhishlash, aniq shaxs, odamlar guruhi, u yoki bu psixik vazifaning holatlari, xususiyatlarini baholash yoki aniqlash maqsadida qo'llaniladigan test sinovlari ham kiradi.

*Test* deb, bir xil shaklda tuzilgan, qisqa, vaqt bo'yicha chegaralangan, miqdoriy kattalik bilan ifodalangan individual tafovutlarni o'rnatish uchun mo'ljallangan psixologik tashhishlash sinoviga aytiladi. Testlar yordamida odamlarni o'zaro bir-biri bilan solishtirgan holda o'rganish, ular psixologiyasi va hulq-atvoriga baho berish mumkin. Test sinaluvchining o'zini tutishini belgilovchi qat'iy qoida bo'yicha sinaluvchilar bajarishi zarur bo'lgan vazifalar to'rlamidan iborat. Testlarning bajarilishi javoblarning to'g'riligi mezoni bo'yicha baholanadi. To'g'ri bajarilgan vazifalar uchun ballar belgilab qo'yilgan. Testning rag'bat materiali barcha sinaluvchilar tomonidan bir xilda qabul qilinishi kerak.

Testlarga berilgan javoblarni ishlab chiqishning ma'nosi shundan iboratki, olingan ma'lumotlar kalit yordamida baholashning ma'lum ko'rsatkichlari, masalan, shaxsning xususiyatlari bilan solishtiriladi. Aniqlashning so'nggi natijalari test ko'rsatkichlarida o'z ifodasini topadi. Ularning tashhishlashdagi ahamiyati, odatda, ko'p sonli sinaluvchilarda statistik hisoblash yo'li bilan olingan ko'rsatkichlar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi.

Testlar bir necha mezonlarga ko'ra tasniflanadi. Maqsadga ko'ra, tanlash, ajratish, tasniflash teslariga bo'linadi. Mazmuniga ko'ra, a) umumiy qobiliyatlar uchun (intellektual va kreativ); b) maxsus qobiliyatlar: shaxs testlari, yutuqlarga erishish testlari, mezonli-yo'naltirilgan testlarga ajratiladi. SHakliga ko'ra testlar individual va guruhli bo'lib, quyidagi turlarga bo'linadi:

- verbal va noverbal (taqdim etilgan vazifalarning shakliga ko'ra);
- blankli testlar («qalam va qog'ozli») – sinaluvchiga taqdim etilish shakliga ko'ra;
- asbobli testlar (maxsus asboblarning yordamida);
- kompyuter testlari.

Texnika usullari nuqtai nazaridan testlar to'rt turga bo'linadi: 1) *ob'ektiv*, ko'pchilik hollarda asbobli, psixofiziologik sinovlar, masalan, emotsional holatni belgilab beruvchi teri-galvanik refleksi o'lchash; 2) so'rov metodikalari yoki sub'ektiv testlar, masalan, G. Ayzenk va R. Kettelning umumshaxsiy testlari; 3) «qalam va qog'ozli» testlar, masalan, diqqatni tashhishlash uchun – matndagi ma'lum harflarni o'chirish yoki labirintdan eng yaqin chiqish yo'lini chizish va boshqalar; 4) sinaluvchilar hulq-atvori ifodalanishini baholashga asoslangan testlar, masalan, shaxsning guruh tomonidan baholanishi metodikasi (SHGB).

Psixologiyada testlar bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy soha, shaxsning psixologik xossalari, shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish uchun qo'llaniladi. Masalan, Ayzenkning verbal matni aqliy qobiliyatlarni baholashga, Teylor testi esa xavotirlanish darajasini aniqlashga mo'ljallangan.

### **Klinik metod**

eksperimental va differensial usullari odatda xatti umumiy faktlarni o'rganish uchun ishlatiladigan bo'lsa, klinik usul individual xususiyatlarini o'rganish uchun qaratilgan. klinik sozlama yoki jismoniy va ruhiy kasalliklar maslahat va davolash uchun kelgan odamlar parvarishlash va davolash tufayli atrof-muhit. Shu ma'noda, klinik usullari muammo yoki favqulodda xulq tub sabablarini tergov va taklif va tegishli shart-sharoit va imkon muolajalar ta'minlash vazifa bilan engish barcha usullarini eslatadi:[4]

Yaxshi klinik usuli tushunchasi sifatida ta'riflash mumkin klinik psixologiya juda tushunchasi, mavjud: Klinik psixologiya san'at va texnologiya yechimlari shaxsiyati tuzatish muammolar bo'ladi. Bu ta'rifga tahlili bizga tabiat va klinik usuli davolash haqida quyidagi xususiyatlarga ba'zi farq yordam mumkin;

(I) klinik usul xususan holda tegishli.

(II) shaxs ba'zi muammolar bor.

(III) tashxis qo'yish va davolash ikkalasi usullari Ushbu muammolarni hal qo'llaniladi.

(IV) klinik yondashuv barcha har bir bemorga nisbatan qo'llanila olmaydi, degan ma'noni anglatadi, bir san'at, shuningdek, ilm-fan va texnologiya, deb, va u sog'lom va insoniyat yaxshiroq yaratish zavq oladi.

Shunday qilib, psixologik tashxis tadqiqot va ruhiy muammolar davolash yoki individual kasallik bu usulning asosiy elementlari.<sup>27</sup>[4]

Testlar juda xilma-xil bo'ladi. Quyida bulardan ba'zilar keltirilgan:

1. **Yutuqlarga erishish testlari** – sinaluvchining aniq bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish darajasini aniqlash imkonini beradigan psixologik tashhishlash metodikalaridan biri.

2. **Idrok testlari** – individning aqliy imkoniyatlarini aniqlovchi psixologik tashhishlash metodikasi.

3. **Ijodkorlik testlari** – insonning ijodkorlik qobiliyatlarini o'rganish va baholash metodikalarining jamlanmasi.

4. **Shaxsni bilish testlari** – individ shaxsining turli tomonlariga baho berish imkonini yaratuvchi psixologik tashhishlash metodikasi.

5. **Loyihalash testlari** – psixologik izohlashga, ya'ni, sub'ekt tomonidan xususiy xossalari va holatlarining ustun bo'lgan ehtiyojlar, mazmunlar va qadriyatlar ta'sirida ongli va ongsiz ravishda tashqi ob'ektlarga ko'chirilishiga asoslangan shaxsni yaxlit o'rganish uchun qo'llaniladigan metodikalar jamlanmasi.

Yuqorida keltirilgan testlar turlarining aniq qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlarga A.X. Yugayning «Общaya psixologiya: laboratorno-prakticheskie zanyatiya» (Tashkent, 2007) o'quv qo'llanmasi yordamida ega bo'lish mumkin.[1]

6. **Suhbat metodi** o'rganilayotgan muammoni qo'shimcha ravishda yoritib berish uchun yordamchi vosita bo'lib hisoblanadi. **Suhbat** – bu nutq muloqoti orqali psixologik axborotga to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita yo'l bilan ega bo'lishni ko'zda tutuvchi metod. Suhbat sinaluvchi, uning harakatlari mayllari va motivlari, psixik holatlari va boshqalar haqida ma'lumot olishning asosiy usuli bo'lib xizmat qiladi.

7. **Psixologik intervyu** – insonning shaxsiy sifatlari, tasavvurlari, motivlari va boshqalarni o'rganishga yo'naltirilgan intervyu. Psixologik metod sifatida intervyu o'tkazilishi uchun katta kuch va vaqt talab qilgani hisobiga, asosan, individual tadqiqot ishida, ya'ni, shifoxona amaliyotida, maslahat berishda, shaxsiy psixologik korreksiya jarayonida qo'llaniladi. Bu metodning afzalligi shundaki, etarlicha tayyorgarlikka ega bo'lgan psixolog yordamida so'z iboralari, mimika, holat, tovush sifati, tashqi ko'rinish, harakatlarning o'ziga xosligi, faollik darajasi, hissiy reaksiya va boshqa muloqotning barcha omillari kabi manbalardan inson haqida katta hajmli axborot olish mumkin.

8. **Anketa** – oldindan tuzilgan savollar tizimiga javoblar olish uchun so'rovnoma varag'idan iborat verbal kommunikatsiya asosida birlamchi ijtimoiy-psixologik axborot olishda qo'llaniladigan metodik vosita.

9. **Sotsiometriya** – o'zaro munosabatlar va psixologik kelishuvchanlikning tuzilishini aniqlash maqsadida guruhdagi shaxslararo munosabatlarni psixologik tadqiq etish metodi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, metodni samarali qo'llash uning validligi (oldindan belgilab qo'yilgani bo'yicha baholash uchun mos kelishi) va ishonchliligiga (takroriy va qayta tadqiq etishda bir xil natijalar olish imkonini beruvchi) bog'liqdir.

Ishonchlilik va validlik – bular psixologik tashhisning sifati va yuqori samaradorligini aniqlash mumkin bo'lgan mezonlar.

## MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Psixologiyaning asosiy metodologik tamoyillari sifatida quyidagilar keltiriladi:

- a) onglilik va ko'rgazmalalik tamoyillari;
- b) psixofiziologik birlik tamoyillari;
- v) onglilik va faoliyat birligi, psixikaning rivoji tamoyillari;
- g) ongning ijtimoiy omillarga bog'liqligi tamoyillari.

2. Psixologiyaning ko'plab sohalari turli mezonlarga ko'ra ajratiladi:

- a) aniq faoliyat;
- b) taraqqiyot;
- v) ijtimoiy umumiylik;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

3. Biror psixologik jarayon yoki shaxsga yaxlitligicha baho berish maqsadida o'tkaziladigan qisqa standartlashtirilgan psixologik sinov – bu:

- a) kuzatish;
- b) tajriba;
- v) test sinovi;
- g) o'zini kuzatish.

4. Psixologik metodlarga kiradigan uslublar:

- a) inson psixikasi haqidagi ma'lumotlarni to'plash;
- b) kuzatish, testlar, sotsiometriya, tajriba, suhbatlar, anketa to'ldirish, faoliyat mahsulini o'rganish;
- v) hayvon va inson psixikasini o'rganish usullari;
- g) ma'lumotlarni matematik qayta ishlash, introspeksiya, farazlar, ma'lumotlarni tushuntirish.

5. Hayot yo'lining turli bosqichlarida psixik taraqqiyotni tahlil qilish imkonini beruvchi davomli va tizimli ravishda kuzatgan holda bir xil odamlarni o'rganish qanday tadqiqot usuli deb ataladi:

- a) pilotaj;
- b) longityud;
- v) qiyosiy;
- g) kompleks.

### 4. Mavzu: Xulq-atvorning psixofiziologik asosi

#### Reja:

1. Nerv tizimi va endokrin tizimining inson organizmi va xulq atvoridagi ahamiyati.
2. Xulq-atvor va irsiyatning psixologik xususiyatlari
3. Instinkt tushunchasining mazmuni.
4. Odam va hayvon psixikalari o'rtasidagi tafovut

Ruh – falsafa va din borasidagi chuqur tushuncha. Ko'plab falsafa va diniy yo'nalishlarda, inson ruhi-o'lmas, mavhum deb hisoblangan, uning asosiy xususiyatlari his- tuyg'u, tafakkur ong, kechinma va irodadan iboratdir.

Eksperimental psixologiya- bu barcha turdagi ilmiy-psixologik izlanishlarning umumlashuvidir .

Fiziologiya (grekchadan – tabiat haqida fan) – jonli borliq haqidagi fan bo'lib, hayotning me'yoriy va g'ayritabiiy o'zgarish jarayonlarini o'rganadi.

Refleks – (lotin tilidan olingan bo'lib , orqaga qaytadigan, aks ma'nolarini bildiradi) – bu organizmlarning atrof-muhitga bo'lgan ixtiyorsiz javob deb ataladi, u keying faktlardan iborat:

#### ***4.1 . Nerv tizimi va endokrin tizimining inson organizmi va xulq atvoridagi ahamiyati.***

Hozirgi zamon fanida jadal rivojlanib, katta qiziqish uyg'otayotgan va inson sir-sinoatlariga chuqurroq kirib borishga muvaffaq bo'lgan soha asab tizimini tadqiq etish hisoblanadi.

Organizmning yaxlit tuzilma sifatida faoliyat ko'rsatishini nerv hosilalarining to'plamlari ta'minlab beradi.

Asab tizimi markaziy, periferik va vegetativ bo'limlardan iborat. Markaziy asab tizimi (MAT) bosh va orqa miyani o'z ichiga oladi. Miya organizmda boshqaruvchi vazifasini o'taydi va psixomotor faoliyatni ta'minlab beradi. Bundan tashqari, miya fikrlarimizni mahorat bilan boshqarib, inson organizmining beshta asosiy tuyg'ulari – ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish va sezishni nazorat qiladi.[1]

Periferik asab tizimi – nervlar va nerv tugunlaridan iborat. Periferik nervlar majmuasi yurak, o'pka, ovqat hazm qilish tizimi va boshqa ichki organlar, tomirlar va to'qimalarni ta'minlaydi, bularning barchasi vegetativ asab tizimini tashkil etadi. Uning faoliyati inson iroda kuchiga bog'liq bo'lmaydi. (3.1 rasm)

Asab tizimi organizmning ixtiyoriy va ixtiyorsiz bajariladigan vazifalarini boshqaradi. Ixtiyorsiz bajariladigan vazifalarga misol qilib ovqat hazm qilish vazifasini keltirishimiz mumkin. Asab tizimini tashkil etuvchi milliardlab asab hujayralari organizmning o'zidan, shuningdek, tashqi muhitdan axborot qabul qiladilar.

Bosh miya xaritasini tuzib, nervlar vazifalarini aniqlashga ilk marotaba Tomas Uillis (1621-1675) qo'l urgan edi. Nemis vrachi Frans Gall (1758-1828) miyaning frenologiya xaritasini yaratib, unda «ruh layoqatlari» deb nomlagan psixikaning xossalarini joylashtirdi.[2]

Bosh va orqa miya – ikki hayotiy muhim organlar – miya qutisi va umurtqa pog'onasi suyaklari bilan o'ralgan va himoya qilinadi. Miyaning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib katta miya (ikki yarim sharlar), miyacha, orqa miya hisoblanadi. Miya yarim sharlari – bu organning axborotni qabul qilib, tananing boshqa qismlariga o'tkazuvchi asosiy qismidir. Yarim sharlar nutq, tafakkur va xotiraga ma'suldirlar. Miyacha asosan tana harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Orqa miya yurak faoliyati, nafas olish va qon bosimi kabi vazifalarni boshqaradi.

Asab tizimi endokrin tizim bilan uzviy hamkorlikda inson barcha organlarining faoliyatini boshqaradi. Inson fikrlari, xotiralari, hissiyotlari yoki sezgilari, shuningdek, uning har bir anglangan harakati amalga oshirgan faoliyatining aksi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, asab tizimi, ichki, vegetativ,

anglamaydigan vazifalar: tana harorati, yurak urishi va boshqa gomeostaz (muvozanat, doimiylik)ni tashkil etuvchilarni boshqaradi. [2]

Asab tizimi somatik va vegetativ bo'limlarga ajratiladi. Birinchisi, skelet mushaklari qisqarishi yordamida sezuvchanlik va harakat bilan ta'minlangan holda organizm bilan tashqi muhit o'rtasidagi aloqani amalga oshiradi. Ikkinchisi, moddalar almashinuvi, nafas olish, ajratishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

### **Neyron-asab tizimining asosiy birligi**

Inson tanasi va hokazo suyak hujayralari, mushak hujayralari, tana hujayralari, deb hujayralari turli turdagi iborat Har bir turi alohida vazifasi bor bir birlik shakllantirish, kichik hujayralari millionlab topgan. bir tana qismi elektr xabarlar burchi nerv hujayralari uchun tayinlandi. Bizning asab tizimi nerv hujayralari iborat. uning barcha filiallari bilan bir asab hujayrasi neyronlarning deyiladi. Bu neyronlarning asab tizimining yakuniy tuzilishi va funktsional birligi hisoblanadi. bir shaxsning asab tizimida neyronlar soni 200 milliard 100 baholanmoqda. Ular, asosan, tarkibida bir xil bo'ladi, lekin maxsus vazifalar uchun mo'ljallangan turli uzunliklar, shakl va darajada ko'rinadi. Har bir neyronidagi ichida DNK dan genetik ko'rsatmalar oshiruvchi har biri RNK molekulari, millionlab bor.<sup>28</sup>[4]

Miya oq va kul rang moddadan iborat. Kul rang modda asab hujayralarining to'plamlaridan hosil bo'ladi, oq moddani esa asab tolalari tashkil etadi. YAqin vaqtgacha kul rang modda asosan yurish va yugurishga bo'lgan ko'nikma hosil qilish bilan bog'lanar edi. Hozirgi kunlarda olimlar yana bir qonuniyatni aniqladilar – yangi raqs harakatlarini o'rganib, ijro etishga layoqatli insonlarning miyasi faolroq bo'lar ekan.

Miya yarim sharlarining vazifalarini ko'rgazmali tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin ( 3.1 jadval).

3.1 Jadval

Vazifalari	
CHap yarim sharlar	O'ng yarim sharlar
1. Xronologik tartib	1. Joriy vaqt
2. Ismlar, so'zlar, timsollarni eslab qolish	2. Tasvirlarni, aniq voqealarni eslab qolish, odamlarni yuzlaridan tanish
3. Xarita, chizmalarni o'qish	3. Aniq fazoni qabul qilish
4. Nutqning faolligi, ma'noga nisbatan sezgirlik	4. Hissiy holatni qabul qilish
5. Olamni quvnoq, engil holda ko'rish	5. Olamni qora ranglarda ko'rish
6. To'laligicha qabul qilish	6. YAxlit, obrazli qabul qilish

Amerikalik olimlar (R. Xayer va boshqalar) erkaklar va ayollar turlicha fikr yuritishlarini aniqladilar. Miya anatomiyasini tadqiq etish orqali erkaklar ko'proq kul rang moddani, ayollar esa oq moddani faollashtirishlari ma'lum bo'ldi. Boshqacha aytganda, tafakkur jarayonida kuchli jins ayollarga nisbatan kul rang

<sup>28</sup> S.K.Mangal: "General Psychology" 2013y 44p

moddadan 6,5 marta ko'proq, go'zal jins vakillari esa oq moddadan 10 marta ko'proq foydalanar ekan.[2]

Jinsiy tanlov nazariyasining mohiyati:

Jinsiy tanlov-avlod qoldirish uchun ma'lum jins o'rtasidagi boshqa jins uchun bo'ladigan kurash jarayoni. Bu mexanizm evolutsiyaning yezlashish jarayoniga turtki bo'lgan sabablaridan biri

Jinsiy tanlov odatda tabiiy saraloshda yuz beradi. Zamonaviy etologlarning fikricha, sevgi tuyg'usi va o'z-o'zini qurbon qilish jinsiy tanlov natijasida kelib chiqqan.

Evolutsion estetika. Agar evolutsion etika ilmiy-yo'nalish maqomiga ega bo'lib ulgurgan bo'lsa, evolutsion estetika hali keng darajada tarqalmagan.

Ong haqida tushuncha. Ong psixik jarayonning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyatlari bu harakat va shiddatdir. U refleksik va turki bo'luvchi xususiyatga ega. "Men-mohiyat". Inson onggi va miya rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. [2]

Odamning har bir psixik jarayoni holati va xususiyati butun markaziy nerv tizimining faoliyati bilan bog'liqdir. Nerv hujayrasi, nerv tizimining asosiy tuzilmasi neyron deyiladi. Akson – tolasining uchi tarmoqlangan bo'lib, u signallarni boshqa neyron yoki mushaklarga uzatadi. Dendrit- neyronning tarmoqlangan kalta o'simtalari bo'lib, signallarni qabul qiladi va hujayralarga impuls uzatadi.<sup>29</sup>[3]

Sinaps- aksonning signal uzatuvchi tugash qismi va ushbu signalni qabul qiluvchi dentritning tutashgan qismi. Sinaptik oraliq- akson va signal qabul qiluvchi neyron o'rtasidagi kichik oraliq. Har bir neyronda muntazam ravishda almashinuv jarayonlari ro'y berib, oqsillar sintezlanadi, asab impulslari to'plangan holda o'tkazilib turiladi.<sup>30</sup>[3]

Neyron tanasining o'rtacha diametri 0,01 mmni, bosh miyadagi neyronlarning umumiy soni esa 100 mlrd.ni tashkil etadi

Rivojlanib kelayotgan miyaga tabiat yuqori darajadagi mustahkamlik zahirasi joylaydi, va natijada, ko'p miqdorda ortiqcha neyronlar hosil bo'ladi. Ularning taxminan 70% bolaning tug'ilish davrigacha nobud bo'ladi va bu jarayon tug'ilgandan so'ng ham, umri bo'yi davom etadi. Hujayralarning bunday nobud bo'lishi irsiyat tomonidan oldindan belgilab berilgan bo'ladi. Neyronlar o'ta egiluvchandir. Egiluvchanlikning ma'nosi shundan iboratki, nobud bo'lgan asab hujayralarining vazifalari ularning o'z hayotchanligini saqlab qolgan «hamkasblari» zimmasiga yuklanadi, ularning o'lchamlari kattalashgani hisobiga yo'qotilgan vazifalarning o'rni to'ldiriladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bosh miyadagi neyronlarning 90% ga yaqini nobud bo'lmagunicha, kasallik belgilari namoyon bo'lmay, inson sog'lom ko'rinishini saqlab qolar ekan. YA'ni, bitta tirik asab hujayrasi to'qqizta nobud bo'lgan hujayralarning o'rnini bosishi mumkin ekan.

Lekin asab tizimining egiluvchanligi keksalik davrigacha zehnni tiniq holatda saqlab qolishning yagona mexanizmi emas. Tabiatning zahiradagi yana bir yo'li –

---

<sup>29</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 70p

<sup>30</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 74p

voyaga etgan sut emizuvchilarning bosh miyasida yangi asab hujayralarining hosil bo'lishi, yoki neyrogenez hodisasi ham mavjud. Agar asab hujayralari bo'linmaydigan bo'lsa, yangi neyronlar qaerdan paydo bo'ladi? Ular voyaga etgan organizmning o'zak hujayralaridan hosil bo'ladi.

Ong psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Bu ma'noda ong mutafakkirlar ta'kidlab o'tganlaridek, ijtimoiy mahsulotdir.

Ong yuzaga kelishining asosiy sharti, vositasi tildir. Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. **Ongsizlik** – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alaxlash, gallyusinatsiya kabilar kiradi. [2]

Markaziy nerv tizimining tor aloqasida ikkinchi aloqa tizimi ya'ni endokrin tizimi joylashgan. Endokrin tizimining temir moddalari kimyoviy gormonlarni ishlab chiqaradi. Bu gormonlar tananing bir to'qimasida ishlab chiqariladi. Va qon oqimi bilan boshqa to'qimalarga quyiladi va ularga ta'sir qiladi.<sup>31</sup>[3]

## 2. Xulq-atvor va irsiyatning psixologik xususiyatlari

Hulq-atvor – bu tirik organizmning tashqi muhit ta'sirlariga javoban yuzaga keladigan murakkab reaksiyalar majmuasi hisoblanadi. Tirik mavjudotlar psixikasi rivojlanganligining darajasiga ko'ra, murakkabligi turlicha bo'lgan hulq-atvorga ega ekanliklarini alohida ta'kidlab o'tish zarur. SHunday qilib, yuqoridagi fikrlar asosida, tirik organizmlar psixikasi rivojlanganligining to'rt asosiy darajasini ajratish mumkin, bular: ta'sirchanlik, sezgilar (his-tuyg'ular), yuqori tuzilgan biologik turning xulq-atvori (tashqi belgilangan hulq-atvor), inson ongi (sababiy hulq-atvor)dir. Ushbu darajalarning har biri o'z rivojlanish bosqichlariga ega ekanliklarini ta'kidlab o'tish zarur. Psixika rivojlanishining yuqori darajasi faqat insonga xosdir.

### Xulq-atvorning psixofiziologik asosi

Sizni siz qiladigan narsa nima? Eng muhimi, bizning har bir inson betakror. Har bir insonning ko'rinishi turlicha: uning ovozi, tili turlicha, insonlarni bir-biridan farq qiladigan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, madaniy va oilaviy sharoitlari mavjud.

Shuningdek, biz bir daraxtning barglarimiz. Bizning insoniy oilamiz nafaqat bizni ajratgan va qonga singib ketgan umumiy biologik meros, bundan tashqari umumiy xulq-atvorlari hamdir. Bizning miyamizni arxitekturasi dunyoni his qilishga, tilni rivojlantirishimizga va bir xil mexanizmlar orqali ochlikni his qilishga yordam beradi. Biz Arktikadami yoki tropik iqlimda yashashimizdan qat'i nazar, biz nordondan shirin mazani afzal ko'ramiz. Biz ranglar spektrini o'xshash ranglarga ajratamiz. Va biz zurriyotlarini yaratish va himoya qilish kerakligini his qilamiz.

---

<sup>31</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 81p



Bizning qarindoshligimiz bizning ijtimoiy xulq-atvorimizda paydo bo'ladi. Vongmi, Nikomomi, Smitmi, yoki Gonzalesmi, biz tahminan sakkiz oylik bo'lganimizdan so'ng notanishlardan qo'rqishni boshladik va kattalar kabi, biz munosabat va o'xshashligiga ko'ra kishilarni afzal ko'ramiz. Sayyoramizning turli burchaklaridan bo'lishimizdan qat'iy nazar, biz boshqalarni kulganini va xo'mrayishini qanday o'qishni bilamiz. Bir jamoaning a'zolari sifatida, biz , ahloq qoidalariga amal qilamiz, qo'lab- quvvatlaymiz, jinoyatlarni jazolash maqomining ierarxiyasini tashkillashtirdik va bolaning o'limidan xafa bo'lishda bir xilmiz. Tashqi kosmosdan, bir mehmon joyda tomchi va raqs va xursandchilik, qo'shiq va ibodat, sport va o'yin o'ynab, kulib va yig'lab, oilalarda yashayotgan va guruhlar tashkil insonlarni topish mumkin. birga qaralganda, bunday universal xulq bizning inson tabiatini belgilaydi.<sup>32</sup> [3]

Evolyutsionist-psixologlar Ch.Darvin ta'limoti va xulq-atvor o'rtasidagi aloqadorlikni tadqiq qilish natijasida shuni aniqlashdiki, bizning universal shaxsiy xususiyatlarimizni bizning individual farqlarimiz bixevioral genetika (xulq-atvor genetikasi) tadqiqot predmeti ekanini tushuntirishga harakat qilishdi.

Darvin tomonidan ishlab chiqilgan nazariya jonli tabiatni tushunishga bo'lgan insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'ldi. Darvin birinchi bo'lib organizmlarning evolutsion o'zgarishini haqiqat ekanligini isbotlab berdi. Uning nazariyasida atrof-muhit va organizmlar o'rtasidagi o'zaro munosabat o'z xarakteriga ega. Darvin atrof-muhitning oo'zgarishi organizmlar o'zgarishiga turtki bo'lishini aytib o'tgan, ammo boshqa tomondan o'zgarishlar aynan organizmlarda kuzatilgan va organizmlarning divergent evolutsiyasi ularning yashash muhitini ham o'zgartirgan. Tabiiy saralash va yashash uchun kurashni o'rganish organizmlarning o'rtasidagi munosabat , atrof-muhit ta'siri va shuningdek organizmlarning avtonom birlik sifatida qarama qarshi muhitda rivojlanishi o'rganiladi. Zamonaviy evolutsiya nazariyasi Darvin nazariyasi asosida yaratilgan. Shu bois, Darvin nazariyasi evolutsiya jarayonidagi organik dunyoning tuzilish borasidagi muhim savollarga mantiqiy va isbotlar bilan javob bera oladi deb aytishimiz mumkin.<sup>33</sup>[3]

Genetika xulq-atvorini quyidagicha o'rganib chiqishdi:

Egizaklarni tadqiq etish. Egizaklarning bir va har xil otalangan tuxum hujayradan paydo bo'lganligi bir necha metodlar orqali aniqlanadi. Odatda bir tuxum hujayradan rivojlangan egizaklar tashqi qiyofasi, salomatligi, xatti-harakati, jinsi bilan o'xshash bo'ladi. Ulardagi o'xshashlik ularning vujudga keltirishda rol o'ynagan blastomeradagi xromosomalar, genlarning o'xshashligi bilan izohlanadi.

Ikki xil tuxum hujayradan hosil bo'lgan egizak ona qornida bir vaqt bir xil sharoitda taraqqiy qilsalar ham, ulardagi xromosomalar genlar tafovut qilganlari sababli ularning tashqi qiyofalari, belgi xossalari bir-biridan farq qiladi.

Asrab olingan bolalarni tadqiq etish.

Tabiiy-ijtimoiy eksperiment o'tkazish jarayonida mehribonlik uyidan asrab olingan bolaning 2 guruhga oid qarindoshlari o'rganildi. Bulardan biri genetik

---

<sup>32</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 133p

<sup>33</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 135-136p

qarindoshlar (biologik ota-ona) va ijtimoiy qarindoshlar (bolani asrab olgan ota-ona). Genetiklarni bolani qaysi qaysi guruhdagi qarindoshlariga ko'proq o'xshashligi qiziqtiradi. Va qay darajada o'xshashliklari qiziqtiradi.<sup>34</sup> [3]

### **GEN-ATROF-MUHIT O'ZARO TA'SIRI**

#### **Qanday qilib gen va atrof-muhit bir-biriga ta'sir qiladi.**

Bizning shaxsiyatimiz faqatgina genlarimizning mahsuli ekanligini taxmin qila olamizmi? Yo'q, chunki gen va atrof-muhit, tabiat va tarbiya xuddi ikki qo'ning qarsagi kabi birga ishlaydi.

Bizning o'xshashliklarimiz ichida eng muhimi – turlarimizning xarakterli tamg'asi – bu bizning ulkan moslashuvchanlik imkoniyatimizdir. Ba'zi inson fe'l-atvori ikki ko'zga ega bo'lish kabi har muhitda hayolan bir xil rivojlanadi. Ammo boshqa fe'l-atvorlar aynan maxsus muhitlarda ifodalanadi. Yozda yalangoyoq yurib siz qattqlikni rivojlantirasiz, qadoq oyoqlar – ishqalanishga moslashgan biologik holatdir. Ayni paytda sizning qo'shningizning taqasi – yangi kelgan odam bo'lib qoladi. Ikkingiz orangizdagi farq, albatta atrof-muhitning natijasidir. Lekin bu shuningdek biologik mexanizmning mahsuli – moslashish hamdir. Bizning bo'lishgan biologiyamiz bizning rivojlangan farqimizni osonlashtiradi (Buss, 1991).

Genlar – o'z-o'zlarini tartibga soluvchilardir. Vaziyatga qaramasdan bir xil natijaga olib boruvchi andazadek harakat qilgandan ko'ra genlar reaksiyaga kirishadi. Afrikaning yozdagi yashil xonqizisi kuzda jigarrangga aylanadi. Haroratni nazorat qiluvchi genetik o'zgarishdan mamnun holda ayrim vaziyatda jigarrangni ishlab chiqaradigan genlar boshqa vaziyatda yashilni ishlab chiqaradi. Shunday qilib, aynan bir xil, lekin turli tajribali odamlar bir-biriga o'xshash fikrlarga ega bo'ladi, lekin aynan emas. Bir egizak o'zining sherigining sevgisidan mutlaqo o'zgacha tarzda sevib qolishi mumkin.

Bizdan xarakterimiz ko'proq genlarimizning mahsulini yoki atrof-muhitnikimi deb so'rash xuddi dalaning hududi ko'proq uzunlikning mahsulimi yoki kengliknikimi deb so'rash kabidir. Shunga qaramay biz turli xil dalalarning turli xil hududlari ko'proq ularning kengligi va uzunligining farqining natijasimi deb so'ray olamiz. Va shuningdek insonning insonga xarakteri farqlari ko'proq tabiat tomonidanmi yoki tarbiya tomonidanmi deb so'ray olamiz.

Genlar va hayotiy tajribaning ikkalasi ham muhim deb aytish - to'g'ri. Lekin ko'proq anig'i, ular o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Tasavvur qiling, ikkita chaqaloq: biri irsiy beg'am, kirishuvchan va jozibali, boshqasi esa kamroq. Taxmin qilamizki, birinchi chaqaloq mehribonlikka va rag'batlantiruvchi parvarishga ko'proq erishadi ikkinchisidan ko'ra va hayotda do'stona, dilkash inson sifatida rivojlanib boradi. Ikkalasi ham o'sib borarkan, tabiiy do'stona bola keyinchalik ko'proq ijtimoiy dadillikni rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar va do'stlarni qidiradi.

Ularning natijaviy shaxsiy farqlariga nima sabab bo'lgan? Irsiyat ham, tajriba ham yolg'iz mos kelmaydi. Atrof-muhit genlarning ish-harakatiga sabab bo'ladi. (olimlar hozir qachon maxsus genlar oqsil yaralishiga sabab bo'lishiga

---

<sup>34</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 138p

atrof-muhitning ta'siri ustida tadqiqot olib borishyapti). Bizning irsiy ta'sirlangan xususiyatlarimiz boshqa raqsdagi hamrohimiz – shuningdek boshqalardagi muhim javoblarni chaqiradi. Shu sababli bolaning ta'sirchanligi va tajovuzkorligi sinfdagi namunali bolaga nisbatan iliq muomalada bo'lgan o'qituvchining jahldorona javobi bo'lishi mumkin. Ota-onalar ham o'zlarining bolalariga turli xil munosabatda bo'lishi mumkin: biri jazolanadi, boshqasi esa yo'q. Bunday holatda bolaning tabiati va ota-onaning tarbiyasi o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Birortasi ham alohida harakat qilmaydi. Irsiyat va makon birga mos tushadi.

Esga soladigan bog'lanishlar bizga tushuntirishga yordam beradi. Nega aynan bir xil turli oilalarda voyaga yetkazilgan egizaklar ota-onalarining iliq munosabatini ajoyib o'xshashlik sifatida eslaydi – deyarli aynan bir xil ota-onalarda bo'lgani kabi (Plomin 1998, 1991, 1994). Do'stona egizaklar o'zlarining ilk oilaviy hayotlaridagi ajralib turuvchi eslatishlariga ega bo'ladi – hattoki bir xil oilada voyaga yetgab bo'lsa ham! “Bolalar bizda turli xil ota-onalardek tajriba qoldiradi, o'zlarining sifatlariga bog'liq holda”, deb qayd qilgan Sandra Skar (1990). Bundan tashqari saralash natijasi ishda bo'lishi mumkin. Yoshimiz o'tgani sayin biz atrof-muhitni bizning tabiatimizga mos kelishiga qarab tanlaymiz.

Shunday ekan, ilg'or tushuncha jihatidan, bizning irsiy mayl va bizni qurshab turgan atrof-muhit orasidagi o'zaro bog'liqlik pog'onasining mahsulimiz. Xususiyatlarimizga bog'liq holda biz aniq ravishda atrof-muhitni tanlaymiz. Va biz o'zimizning tabiatimizdan reaksiya uyg'otamiz. Shu sababli bizning irsiyat odamlar qanday munosabatga kirishishi va bizga ta'sir ko'rsatishiga ta'sir qiladi. Biologic xususiyatlar ijtimoiy natijalarga ega. Shunday ekan, tabiat tarbiyaga xilof ekanligini unuting, tabiat orqali tarbiyani o'ylang.<sup>35</sup> [3]

**Egizklar usuli** o'xshash belgilarning egizaklarda rivojlanib borishini o'rganishdan iborat. Ma'lumki, odamda egizaklar ikki xil bo'ladi. Ba'zi hollarda bir emas, balki ikkita (kamdan kam hollarda uchta va hatto to'rtta) tuxum hujayra urug'lanadi. Egizaklar bitta tuxum hujayradan va har xil tuxum hujayradan rivojlanadi. Bitta tuxum hujayradan rivojlangan egizaklar bir jinsli va bir-biriga nihoyatda o'xshash bo'ladi. Bu tushunarli albatta, chunki ular bir xil genotipga egadirlar. Ular o'rtasida tafovutlar esa faqat muhit ta'siriga bog'liq bo'ladi. Har xil tuxumdan rivojlangan egizaklar egizakmas aka-uka yoki opa-singillardek bir-biriga o'xshash, bir xil yoki har xil jinsli bo'ladi. Egizaklarni o'rganuvchi fan – gemellologiya hisoblanadi.<sup>36</sup> [3]

Tabiiy saralash mexanizmi: Tabiiy saralash jarayonida mutatsiya, ya'ni organizmlarning moslashuv jarayoni mustahkamlanadi. Tabiiy saralashni odatda “aniq-ravshan” mexanizmlar Psixologiya – (qadimgi grek tilidan olingan bo'lib, qalb to'g'risidagi fan degan ma'noni anglatadi)- inson, ruhiyati va ruhiy faoliyatining rivojlanishi vazifa va qonunlarini yaratilishini o'rganadigan fan. U ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan yondashadi. U o'z ichiga psixologiyaning asosini, ma'lum bir faktlarini, mexanizmini va insonni va odamlar guruhini psixologik faoliyatini oladi.

---

<sup>35</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 112-113p

<sup>36</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 111-114p

- 1) Organizmlar yashab qolishidan ko'ra ko'proq avlod qoldiradi.
- 2) Bu organizmlar populyatsiyasida nasldan naslga o'tadigan o'zgaruvchanlik mavjud
- 3) Genetik xususiyatlarga ega bo'lgan organizmlar kopayish va yashab qolishi turli darajada.

### **3 Instinkt tushunchasining mazmuni.**

Ushbu yuz yillik boshida, CHARLZ Darvinning evolyusiya nazariyasi ta'sirining oshib borgani sari, barcha xulq turlarini instinktlar ko'rinishida tasniflash

qabul qilindi. Agar insonlar o'zlarini tanqid qilishsa, bu ularning "o'zini-o'zi kamsitish instinkti" oqibatida sodir bo'lgan. Agar ular maqtansalar, bu ularning "o'z shaxsini namoyon qilish instinkti" aks etgan. Sotsiologlardan biri, besh yuz kitobni ko'rib chiqib, 5759 ta ehtimoldagi odam instinktlaridan iborat ro'yxat tuzgan edi! Har bir xulqqa o'z instinkti belgilash bilan bog'liq intilish alaqachon o'z og'irligi ostida yo'q bo'lib ketgan. Bu shuning uchun yuz berdiki, birinchi nazariyachi-instinktshunoslar insonning xulqini tushuntirmasdan, unga faqat nom berish bilan mashg'ul bo'lgan. Ushbu jarayon aqlli bolaga "darslarni o'zlashtira olmaydigan" nom berib, uning past baholarini "tushuntirishni" eslatib turgan. Xulqni nomlash, uni tushuntirib berish degani emas.

Instinkt sifatida tasniflash uchun majmuaviy xulq ushbu tur orasida turg'un modelga ega bo'lishi va orttirilmagan bo'lishi kerak (Tinberg, 1951). SHunga o'xshash xulq hayvonot olamining boshqa turlari vakillariga xos (qushlardagi imprintingini (hotirada saqlab qolish) va lososning uvuldiriq sochish uchun o'z joylariga qatishini esga oling). Insonning xulqida ham tug'ma moyilliklar, shu jumladan go'dakdagi emish va harakatlanish reflekslari kabi oddiy turg'un modellar namoyon bo'ladi. Biroq, ko'pchilik psixologlar insonning xulqi fiziologik ehtiyojlarga va ruhiy intilishlarga bog'liq deb hisoblaydi.

Instinkt nazariyasi odam harakatidagi sabablarni tushuntirib berishning uddasidan chiqmagan bo'lsada, ammo uning asos bo'ladigan farazi – genlari ushbu tur uchun xos bo'lgan xulqni ta'minlaydi – bu esa juda ham muhim. Buni biz bizning ma'lum bir yoqtirmaydigan narsalarni o'zlashtirishga bo'lgan biologik moyilligimiz to'g'risida keying boblardagi baxsdan ko'rdik hamda kelgusida ham o'zaro yordam berishga, bizning xayolparast qiziqishimiz va jinsiy farqlarimizga qaratilgan xulqqa evolyusiya qanday ta'sir qilishi mumkinligini muhokama qilishda kuzatamiz.....<sup>37</sup> [3]

Instinktlar – hayvonning tabiiy ehtiyojlarini qondirish uchun qiladigan murakkab tug'ma harakatlaridir. Qushlar juda ustalik bilan in yasar ekanlar, material tanlash va inni pishiq qilib qurish yo'lida xilma-xil harakatlarni bajaradilar. Masalan, qaldirg'ochlarning in qurishi, Kalyushka deb ataluvchi baliqning erkagi suv tagida erdan chuqurcha kovlab, uni mayda suv o'simliklari bilan to'sadi, inning yon devorini quradi va ustini berkitadi buni u yiriqroq o'simliklardan o'z tanasidan elimsimon modda chiqarib yasaydi. SHundan keyin erkak baliq urg'ochi baliqni urug' qo'yish uchun haydab kirgizadi va to urug'dan

<sup>37</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 444p

baliqchalar ochib chiqqunga qadar in atrofini qo'riqlab turadi. Rus zoopsixologi V.A.Vanger (1849-1934) urg'ochi o'rgimchakning nomaqul bo'lib qolgan instinktlari sharotida uning xatti-harakatlarini kuzatgan va tasvirlab bergan edi.

Chunonchi, ko'pincha o'rgimchak pillasining ichidagini zararkunandalar eb ketgan bo'ladi. Lekin urg'ochi o'rgimchak bo'shab qolgan pillani qo'riqlashda va u yoqdan-bu yoqqa ko'chirishda davom etadi. SHunday hollar ham bo'ladi-ki, urg'ochi o'rgimchak pillani yasab va odatda tuxum qo'yish chog'ida bajariladigan harakatlarni bir necha marta takrorlab, amalda tuxum qo'ymasligi ham mumkin. SHunday bo'lsa-da, u kelgusi bosqichga, ya'ni bo'sh pillani qo'riqlashga va uni u yoqdan – bu yoqqa ko'chirishga o'tadi. Asalarilar reaksiyasining maqsadga muvofiqligi ham nisbiydir. Agar mumkatakning orqa tomoni teshib qo'yilsa, asalari yaroqsiz uyaga ma'lum miqdordagi shirani to'kib bo'lgach, garchi uning ikkinchi tomonidan shira oqib ketadigan bo'lsa ham mum bilan berkitib ketadi. Fransuz tadqiqotchisi K.Fabri er arisining bir qolipdagi maqsadga muvofiq bo'lmagan xatti-harakatini kuzatgan edi. Er arisi uyasining oldiga chalajon chigirtkani keltirib, barcha arilar singari uyasini tekshirish uchun kirib ketganida tadqiqotchi uning o'ljasini yiroqqa surib ko'yadi. Ari uyasidan chiqib, uni izlab, shoshib yana uyasining oldiga qo'yadi va tekshirish uchun yana uyasiga kirib ketadi. Fabri arining uyasi oldidan chigirtkani qirq marta chetga surib qo'yadi va ari qirq martasida ham o'ljasini topib, uni olib kirish uchun uyasini tekshirgan. Bu misollar instinktning cheklanganligini ko'rsatadi. Instinktiv harakatlar muayyan shart-sharoitlarga qat'iy bog'liq bo'ladi. Instinktning amal qilish mexanizmi shundan iborat-ki, tashqi shart-sharoitlar reflektor munosabatni bildirishga undaydi, eng oxirida esa navbatdagi munosabat bildirish uchun qo'zg'aydi va hokazo. Shu tarzda reflekslarning butun bir zanjirini harakatga keltiradi va nasliy yo'l bilan mustahkamlangan dasturni amalga oshiradi. Instinktiv harakatlar standart shart-sharoitlar o'zgarishi bilanoq o'zining maqsadga muvofiqligini yo'qotadi. SHunday qilib, xatti-harakatlarning instinktiv shakllari faqat doimiy sharoitlardagina maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlarning instinktlari turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Ovqatlanish instinkti – hayvonlarning o'zi va bolasi uchun ovqat qidirib topish, ovqat g'amlash harakatlaridir.

Himoyalani instinkti – hayvon o'z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko'rinishda sodir bo'ladi. Birinchisi dushmanga hujum qilish, ikkinchisi o'zini himoya qilishdir. Har bir hayvon dushmandan himoya qilish uchun biror organidan shoxlari, tuyoqlari, tish-tirnoqlari, tikanlari kabi yoki zaharli-hidli suyuqlikdan foydalanadi. Masalan, Afrika kobrasi o'z zahrini 3,5 metr masofagacha ota oladi. Amerikada terisining usti qora jun bilan qoplangan uncha katta bo'lmagan bir yirtqich hayvon yashaydi. U amalda barcha turdagi yirtqich hayvonlarning hujumidan saqlangandir. Hayvonlar uni orqasidagi uzun chizig'idan tanib oladi. Bu hayvon skuns deb ataladi. Tabiat skunsga bir bezni ato etganki, u benihoya zaharli, hidli suyuqlik tarqatadi. Salgina xavf tug'ilishi bilanoq, skuns dushmaniga orqasini o'girib, dumini ko'taradi va havoga suyuqlik purkaydi. Natijada eng katta yirtqichlar ham bir necha soat davomida «hushidan ketib qoladi». Amerika qit'asidagi barcha hayvonlar skunsni chetlab

o'tishga harakat qiladilar. Bu hayvonni yangi iqlimga moslashtirishga qaror qilinib, yosh hayvonlarni oldiniga o'ralgan maydonda saqlashdi. Yirtqichlarni parvarish qilishda xizmatchilar qiynalmas-liklari uchun hayvonlardagi mumak bezlari olib tashlandi. Erkinlikka qo'yib yuborilgan skunslar o'rmonlarda bemalol yurishardi. Skunslarga hujum qila boshlanganida, ular qochmasdan, orqalarini o'girib turishaverdi va dushmanlarining engilgina o'ljasiga aylanishdi. SHundan keyin, skunslarning bezlari kesib tashlanmay, ularni boqishning boshqa usulari topildi.

Nasl qoldirish instinkti – bu ota-onalik instinkti sifatida ko'rinib, nasl – avlod uchun g'amxo'rlik qilish, uni ma'lum vaqtgacha ovqat bilan ta'min etish, xavf-xatardan saqlash o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, o'z naslining kelajagi haqida g'amxo'rlik qiladi. Jumladan, o'rgimchakning ba'zi turlarida urg'ochilari o'z tuxumi uchun tolalardan pillalar yasaydi. Bu pillani urg'ochi o'rgimchak qo'riqlab va tez-tez ko'chirib yuradi, o'rgimchak bolalari paydo bo'lishi bilan urg'ochi o'rgimchak uyalarini yonidan siljimasdan qo'riqlab turadi. Nasli kattalashgani sari urg'ochi o'rgimchak ham ularga shuncha befarq bo'la boradi va so'ngra esa o'rgimchak bolalari mustaqil harakat qiladigan bo'lib, qolgandan keyin ularni tashlab ketadi. [2]

To'da bo'lib yashash instinkti–bu instinkt hayvonlarning turli usullar bilan o'zaro aloqa qilishida xilma-xil shaklda birgalashib, to'dalashib, poda bo'lib, gala bo'lib yashashlarida zohir bo'ladi. Bu to'dalanish ba'zi hayvonlarda doimiy xarakterga ega bo'lsa (chunonchi, chumolilar, asalarilar), ba'zilari esa o'ziga o'xshash hayvonlar bilan vaqti-vaqti bilan birgalashib yashaydi asosan yirtqich hayvonlar masalan, qoplon eng kuchli va maymun uchun eng qo'rqinchli yirtqich hisoblanadi. Qoplon maymunlarga erda doim mushukdek chaqqon hujum qiladi, SHimpanze doim kuchli hayvon, lekin qoplondan ularga doim kun yo'q. SHimpanzalar qoplonni odatda yomon ko'radilar, uni ko'rishlari bilanoq shimpanze maymunlari to'da bo'lib, vahshiyona bukchayib qo'llarini pastga tushirib, sakrab, baqirishib hayvonni hamma tomonidan qurshab oladilar. Ayrim hollarda shimpanzalar qo'llariga kaltak olib, qoplonni urib haydaydilar. Hashorotlar galasi, kushlar galasi, sut emizuvchilar podasi, yirtqichlar to'dasi, hayvonlarning doimiy to'da bo'lib yashash shaklidir.

Ma'lumki, asalarilar uyasida bitta ona ari, bir necha o'nlab erkak va bir necha yuzlab bepusht ishchi ari (jinsiy organlari etishmagan)lar bo'ladi. Ishchi arilarning xatti –harakatlari juda ham murakkabdir. Rivojlana borgan sari har bir ishchi asalari uyadagi vazifasini o'zgartira boradi. Oldiniga u asalari bolalarini (gumaklarini) boqadi, uyani tozalaydi, so'ngra uyani qo'riqlaydi, ozuqa topib keladi, katakchalar yasaydi. Erda yashaydigan arining instiktlari ham juda murakkab harakatlar zanjiridan iboratdir. U o'ziga uya qazib olib, uchib ketishidan oldin har gal uni og'zini tuproq bilan qoplaydi. O'ljasini olib kelganidan keyin ari uni uyaga kiraverishiga qo'yib, haligi tuproqni chetga surib, uyani tekshirib ko'radi, shundan keyingina uni uyaga olib kiradi. Instinktiv harakatlar, tug'ma va nasldan-naslga o'tadigan ongsiz harakatlardir. Ular hayvonlarning hayot uchun kurashish va muhitga eng muvaffaqiyatli uyg'unlashish jarayonida hosil qilingan holda irsiy yo'l bilan mustahkamlanib qolgan, ongsiz harakatlardir. Bular aql bilan o'ylab bajariladigan oqilona

harakatlar emas. Masalan, yangi tug‘ilgan sichqon bolalarini cho‘miltirib, mushuk oldiga olib kelinsa, u sichqonni o‘z bolalaridek mehr bilan boqadi, emizadi, himoya qiladi, ammo uni sichqon bolasi ekanligini anglamaydi. O‘rdak tuxumlari tovuqqa bostirilganda, u o‘rdak tuxumining farqiga bormasdan, shu tuxumdan chiqqan o‘rdak bolalarini boqadi, ular suvga tushib suzganlarida suv labida u yoq, bu yoqqa yurib ularning tovuq jo‘jalari emasligini anglamaydi. Demak, instinktlar doimo bir shaklda ko‘rinadigan harakatlardir, ammo instinktlar sharoitga muvofiq o‘zgarishi mumkin. ***Instinktga asoslangan hulq-atvor*** – biror bir turga mansub hayvonlarning barchasida bir xil yo‘naltirilgan turga xos bo‘lgan hulq-atvor hisoblanadi. Qoidaga ko‘ra, instinktga asoslangan hulq-atvor biologik maqsadga muvofiqlik bilan belgilanadi va biror turning ma‘lum vakilini yoki yaxlit turni yashab qolish imkoniyati bilan ta‘minlaydi. Ammo, hayvon hulq-atvori faqat irsiyat tomonidan belgilangan va uning hayoti davomida o‘zgarmasligi haqidagi fikrni juda ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.[2]

Hayvon hulq-atvorini qo‘zg‘atuvchi va yo‘naltiruvchi jismlar ta‘sirining biologik mohiyati muntazam bo‘lmasdan, organizm yashash tarzining aniq sharoitlari va muhit xossalari bog‘liq ravishda o‘zgarib turishi va rivojlanishini ta‘kidlab o‘tish lozim. Masalan, agar och qolgan baqa chuvalchanglar bilan oziqlantirilgandan so‘ng oldiga gugurt va bir siqim yo‘sin (mox) qo‘ysak, baqa chuvalchanglarga o‘xshash uzunchoq shaklga ega bo‘lgan gugurtni tutib oladi. Ammo baqa o‘rgimchaklar bilan oziqlantirilsa, u gugurtga e‘tibor bermay, yo‘singa tashlanadi. Endi dumaloq shakllar uning uchun ozuqaviy mohiyatni kasb eta boshlaydi.

#### ***4. Odam va hayvon psixikalari o‘rtasidagi tafovut***

Taxminan XVII asr o‘rtalarigacha bo‘lgan davrda ko‘pchilik inson va hayvonlar o‘rtasida tanasining ichki tuzilishi va hulq-atvorida, shuningdek, kelib chiqishida ham hech qanday umumiylik bo‘lishi mumkin emasligi haqida fikr yuritgan edi. So‘ngra tana mexanikasining umumiyliги tan olinib, inson psixikasi va hulq-atvori o‘rtasidagi tafovutlar saqlanib qoldi (XVII-XVIII asr.).

1872 yilda CH. Darvin o‘zining «Odam va hayvonlar hissiyotlarining ifodalanishi» kitobini chop ettirdi, bu kitob biologik va psixologik hodisalar o‘rtasidagi aloqani tushunib etishda burilish yasadi. O‘zining bu asarida Darvin evolyusiya tamoyilining hayvonlarning faqat biologik rivojlanishiga emas, balki ularning psixologik, hamda, hulq-atvor rivojlanishiga ham qo‘llanilishi mumkinligini isbotladi. Uning fikriga ko‘ra, hayvon va odam hulq-atvori o‘rtasida umumiylik ko‘pchilikni tashkil etadi. O‘zining bunday nuqtai nazarini u hayvonlar va odamlarda turli emotsional holatlarning tashqi ifodalanishi ustidan olib borgan kuzatishlaridan kelib chiqqan holda asoslab berdi. SHu davrdan boshlab, inson va hayvonlar psixikalarini tadqiq etish ishlari jadallik bilan boshlab yuborildi. Boshlang‘ich davrda Darvinning ta‘siri ostida bu ishlar hissiyotlar va tashqi reaksiyalar ustida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik amaliy fikrlash sohasiga ham yoyildi.[2]

XX asrda hayvonlar o'rtasidagi temperamentlarning alohida tafovutlari tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otdi (I.P. Pavlov), so'ngra odam va hayvonlar kommunikatsiyasida, hulq-atvorning guruhli shakllarida va bilish mexanizmlaridagi o'xshashliklarni izlash ishlari boshlab yuborildi.

Inson va hayvonlar o'rtasida mavjud bo'lgan tafovutlarni aniqlashdan avval shunga o'xshash tadqiqotlarning natijalarini bilish pedagog uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligi haqidagi savolga javob topish zarur.

Hayvon psixologiyasi va hulq-atvoriga tegishli barcha mavjud bo'lganlar egallanishi mumkin bo'lgan ikki usuldan biri orqali: irsiyat tomonidan berilishi yoki tabiiy bilish jarayonida o'zlashtirilishi mumkin. Irsiyat tomonidan o'tkaziladigan belgi va xususiyatlar ta'lim-tarbiyaga bo'ysunmaydi; hayvonda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan xususiyat odamda ham maxsus ta'lim-tarbiya jarayonisiz yuzaga kelishi mumkin. Insonni o'rganishda uni hayvonlar bilan qiyoslashtirish orqali bir xilda anatomik va fiziologik kurtaklarning mavjudligida inson o'z psixologiyasi va hulq-atvorida hayvonga nisbatan yuksakroq rivojlanish darajasiga erishgan ekan, u holda bu yutuq ta'lim va tarbiya orqali ongli ravishda boshqarish mumkin bo'lgan bilishning natijasidir. SHunday qilib, inson va hayvonlarni qiyosiy psixologik-hulq atvor jihatdan tadqiq etish bolalarga ta'lim-tarbiya berish mazmuni va metodlarini to'g'ri, ilmiy asoslangan ravishda aniqlash imkonini beradi.[1]

Insondagi kabi, hayvonlarda ham bilish xususiyatiga ega, ularga olamni oddiy hissiyotlar ko'rinishida idrok qilib, axborotni eslab qolish imkonini yaratuvchi tug'ma boshlang'ich layoqatlar mavjud. Barcha asosiy bo'lgan his-tuyg'ular: idrok, ko'rish, eshitish, sezish, hid va ta'm bilish, teri sezuvchanligi va boshqalar odam va hayvonlarda dunyoga kelishlari bilan tarkib topgan bo'ladi.

### **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Organizmning yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlab beruvchi organ:

- a) bosh miya;
- b) asab tizimi;
- v) nerv hosilalarining to'plamlari;
- g) reflekslar.

2. Asab tizimining strukturaviy birligi:

- a) sinaps;
- b) neyron;
- v) akson;
- g) dendrit.

3. Reflekslar:

- a) doimo tug'ma;
- b) faqat tuban hayvonlarda uchraydi;
- v) yashash uchun kurashga aloqador emas;
- g) barcha javoblar noto'g'ri.

4. «Analizator» tushunchasini fanga kiritgan olim:

- a) R. Dekart;



- b) I.M. Sechenov;
- v) I.P. Pavlov;
- g) A.A. Uxtomskiy.

5. Neyropsixologiyaning hozirgi zamon qarashlariga ko'ra inson miyasining tuzilishi nechta asosiy bo'limdan iborat:

- a) uch asosiy bo'limdan;
- b) ikki asosiy bo'limdan;
- v) to'rt asosiy bo'limdan;
- g) ko'p bo'limlardan.

6. Organizmning gomogen muhitdan moddiy shakllantirilgan diskret jismlar muhitiga o'tishi ...ning paydo bo'lishi bilan bog'liq:

- a) ta'sirchanlik;
- b) sezgilar;
- v) hissiyotlilik;
- g) his-tuyg'ular.

7. Refleksning amalga oshirilishida ishtirok etuvchi nerv tuzilmalarining yig'indisi – bu:

- a) refleks yoyi;
- b) refleks halqasi;
- v) shartsiz refleks;
- g) shartli refleks.

8. Evolyusiya nazariyasi keng ma'noda:

- a) hozirda ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etiladi;
- b) oddiy farazdan emas, balki haqiqatda isbotlangan voqelikdan iborat;
- v) genetika ma'lumotlari va irsiyat qonunlarining kashf etilishi bilan boyitildi;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

9. Instinktiv xulq-atvor, asosan, ...da ustunlik qiladi:

- a) hasharotlarda;
- b) baliqlarda;
- v) sudralib yuruvchilarda;
- g) sut emizuvchilarda.

10. Insonning oliy psixik vazifalariga ... kiradi:

- a) mantiqiy xotira;
- b) so'zlashuv-mantiqiy tafakkur;
- v) tasavvur etish;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

## **5. MAVZU: IJTIMOIY XULQ-ATVOR PSIXOLOGIIYASI.**

Reja.

1. Ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlar.
2. Alturizim va talirantlik tushunchalari mazmuni.
3. Ijtimoiy xulq-atvorda aggressiya.
4. Deviant xulq-atvor

## 1. Ijtimoiy xulq-atvor xususiyatlar.

Yosh bo'lishiga qarmay 21 asr bizga inson bu hayoti va madaniyati o'z hohish va istaklari atrofida aylanadigan ijtimoiy ibdivid ekanligini eslatdi.

AQShda 2001 yilning 11 sentyabrida 19 inson dashatli tarzda qon to'kdilar. Bu voqea insonlarda qo'rquv, jahl va qasd ruhini ko'tardi. Ammo, shuningdek, bu xodisa insonlar qalbida g'amxo'rlik va mehr hislarrini ham uyg'otdi. Odamzot minglab boshqa insonlarni qirishiga, ularning yuragida qaxr isyon ko'tarib, boshqalarga nisbatan bunday kuch ishlatishlariga nima sabab bo'ladi? Qiziq, boshqa bir toifa insonlar biron-bir hudbinliksiz odamlarga yordam qo'lini cho'zishiga nima sabab bo'ladi?

Barcha bu savolar yana bir bora, 2003 yil Darfun (Sudan) voqealari va Iroq urushi (ba'zi manbaalarga asosan og'ir yaralanganlar 151,000 va halok bo'lganlar 2002-2006 yillar davomida 1 milliondan ko'pni tashkil etgan) davomida taraldi. Qanday omillar dunyo yetakchilari u yoki bu qarorlarni qabul qilishlariga ta'sir ko'rsatadi? Qanday usul bilan biz dunyoning jalmushtlarini mehr qabul qilishi uchun ocha olamiz?

Bu asr amerikaliklarning irs, jins va milliy tegishliligiga bo'lgan munosabatlarini ham o'zgartirdi. Masalan, 2008-yilning prezidentlikka davogar shaxslari orasida 60-yoshlik ayol (HilariKlinton), 46-yoshli ko'pmillatli shaxs (Barak Obama), 71-yoshli (DjonMakkeyn) lar ishtirok etishdi. Bor yo'g'i bir necha ovoz barchasini o'zgartirishga qodirligini bilgan nomzodlar insonlarga ta'sir ko'rsatish maqsadida millionlab dollarlarni sarf qildilar. Shunday ekan, biz qay usulda o'z munosabatlarimizni shakllantiramiz va ushbu munosabatlar bizning hayotimizga qanday ta'sir ko'rsatadi? <sup>38</sup>[3]

Har kungi yangiliklar bizni navbatdagi yaxshilik va yomonlik, g'alaba va mag'lubiyat baxsi bilan tanishtirgan bir vaqtda, barchamiz o'zimizning shaxsiy sevgi va yo'qotishlardagi tajribamizni shakllantirish bilan yashaymiz. Nima uchun ba'zi odamlar bizni o'ziga jalb etadi va do'stlik va muhabbatning tafovuti nimadan iborat?

Insonlarning o'zaro birlashuvi juda kuchli va xatarli bo'lishi mumkin. Lekin, *Romanist Germann Melvil* "Biz faqat o'zimiz uchun yashay olmaymiz" deb ta'kidlagan. "Bizning hayotlarimiz o'zaro ko'rinmas iplar bilan bog'langan" deydi. Ommaviy psixologiya biz qay yo'sinda o'ylashimizni, qanday qilib o'zaro bog'liqligimizni o'rganadi.

### Ommaviy fikrlash.

Bizning ommaviy axloqimiz qanchalik ommaviy savodxonligimizga bog'liq. Ayniqsa, to'satdan insonlar o'zgacha o'zlarini tuta boshlashsa biz nimaga aynan bunday bo'layotganini analiz qila boshlaymiz. Masalan, bir kishining bizga mehr ko'rsatishi buning bizga bo'lgan muhabbatidan dalolatmi yoki u hammaga shunday mehribonmi? Agar biron kimsa ishga chiqmasa bu uni kasalligini bildiradimi? Yoki dangasalikmi? Balki unga ishdagi insolarning munosabati yoqmas?

---

<sup>38</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 673p

Insonlarning axloqi va turli vaziyatlarni biron narsaga taalluqligi. Biz qanday qilib birovlar va o'zimizning axloqimizni tushuntirib beramiz?

Ommaviy psixologiya.

Insonlar boshqa birovning hatti-harakatini qanday tushuntirishidan kelib chiqib *Frits Xayder* "attributsiya teoriyasi"ni shakllantirgan.

Attributsiya nazariyasi - bu biz boshqalar xulq-atvorini idrok etishimiz. Bu teoriyaga asosan insonning aniq bir holatda xulq-atvorini baxolashimizda unga ta'sir qiluvchi tashqi omillar, yoki ichki omillar (ustanovkalar, mativlar, shaxsiy sifatlar) haqidagi hulosamiz.

### **Attributsiyadagi fundamental xatosi.**

Agar bizning yangi do'stimiz qo'pol muomalada bo'lsa, biz uni umuman qo'pol deb hisoblashimiz attributsiyada fundamental xato bo'ladi. U balki o'z axloqini ba'zi bir muammolari tufayli deb tushuntirishi mumkin.

Ba'zida kuzatuvchilar qo'pol xato qilishlari mumkin. Masalan, 2008 yilda kamera oldida AQSh prezidenti Barak Obama Hilliriy Klintonga nisbatan yelkasini o'g'irgan holda turib, salomlashmagan. Buni barcha hurmatsizlik deb qabul qilgan. Ammo keyin Obamani aytishicha, ular o'sha paytda allaqachon ko'rishib ulgurishgan va Obama o'zining yonidagi boshqa inson bilan gaplashishga o'girilgan. Yana shunday xato attributsiya ba'zida o'qituvchilar faoliyatida ham kuzatiladi. Masalan, agar biron o'quvchi o'zini darsda yomon tutsa, uni umuman agressiv bola deb o'ylaydilar, vaholanki, uning o'sha paytda u-bu muammo qiynayotgan bo'lishi mumkin.<sup>39</sup>[3]

Boshqa bir attributsiya esa quyidagidan iborat: sinfda Julyett juda kam gapiradi, Djekhar doim 1 chashka kofe ustida to'xtamay gapiradi. Demak, umuman olganda Julyett uyalchan, Djek esa xush chaqchaq va kirishimli. Ba'zida bunday attributsiyalar foydali bo'ladi. Ammo shunda ham biz fundamental hatogayo'lqo'yayotganbo'lishimizmumkin, balki bizlarni ko'rgan kunda birining kayfiyati yomon birini-ki juda yaxshi bo'lgandir, va odatda ularnin axloqi shu kungidan farq qilishi mumkin.

Devid Napolitan va Djordj Goeta Isnomli olimlar qiziq tajriba o'tkazishdi. Ular Uillyams kolledji talabalari bilan suhbat qurishdi. Talabalar bira yol bilan gaplashishi kerak ekanligini aytib, ularni ikki guruhga bo'lishdi. Birinchi guruhga ayol kutilmagan tarzda o'zini tutishi mumkunligini aytib, ikkinchi guruhga esa haqiqatni – ayolga oldindan talabalar bilan do'stona yoki nodo'stona yo'sinda gaplashishi aytilganligidan habar qilishdi. Nima deb o'ylaysiz, aytilgan gaplardan foyda bo'ldimi? Yo'q. talabalar barcha ma'lumotni inkor etdilar. Agar ayol kishi ular bilan do'stona munosabatda bo'lgan bo'lsa, talabalar uni muloyim inson sifatida tasvirladilar. Va huddi shuni teskarisi. Bu yana bir attributsiyaning fundamental hatosini ko'rsatdi. Shuni aytib o'tish kerakki bu xato barchaga xos.

### **Attributsiya effekti.**

Har kungi hayotda biz boshqa larning hatti- harakatini tushuntirish uchun ancha fikr qilamiz. Masalan, sud o'quzish rejalashtirilgan harakat yoki o'zini

---

<sup>39</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 674p

himoyalash harakati ekanini, intervyuer chin ko'ngildan gap bo'lgan bo'lmaganligini, oddiy inson ko'rsatilgan mehr do'stlik yoki sevgi darakligin aniqlashi, barchasi ustida bosh qotirishi lozim. Biz bunday attributsiyalarni amalga oshirayotgan paytda barcha narsani, ya'ni insonning kayfiyatini, turli vaziyatlarni inobatga olshimiz lozim. Odatda, baxtli turmush qurganlar o'z turmush o'rtog'ining og'ir gapiniuning yomom kayfiyatiga yo'yadilar. Va turmushda baxtsiz insonlar esa huddi shu holatni odatiylik ka taalluqli deb biladilar.

Attributsiyaning siyosiy taraflari ham mavjud. Siz ishsizlik yoki kambag'allikni qanday tushuntirib beraolasiz? Buyuk Britaniya, hindiston, Avstraliya va AQShda o'tkazilgan so'rovnoma shuni ma'lum qiladiki, siyosiy konservatorlar insonlarning ishsizligi va kambag'alligiga faqat insonlarning o'zlari aybdor ekanini aytishadi "odatda insonlar o'ziga mos narsalarga ega bo'ladilar, chunki bugungi kunda barcha mehnat qiladigan odamlar yaxshi narsalarga ega bo'ladilar". Liberal va sotsiologlar esa bunday vaziyatda o'tmish va bugunning aybi ko'proq ekanini ta'kidlashadi : "agar siz va biz bunday shart-sharoitlarda yashaganimizda bugungi kundagi mavqeimizga ega bo'larmidik?". Ularning ta'kidlashicha yangi terroristlar vujudga kelmasligi uchun biz barchasini oldini bugun olishimiz kerak. Boshqaso'zlar bilan aytganda chivinlarni barchasini o'ldirgandan ko'ra, botqoqlikni qurit, shunda barchasi yo'qoladi.

### **Attityud va xulq-atvor.**

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy tushunchalardan "attityud" hisoblanadi. Attityud- inson tomonidan ijtimoiy ob'yekt, inson yoki vaziyatning qimmatini, mazmun-moxiyatini, manosini his qilish. Agar biron kishi xaqida yomon deb qabul qilsak, unga nisbatan yomon munosabatda bo'lishimiz mumkin.

Insonlarda fikirlash obrizlarini ijobiy tarafga yo'naltiring, ularning xulq-atvori ko'ring. (Stiv Biko janubiyafrikalik fuqarolarhuquqini ximoyachisi)

1935- yilda G.Ollport " attityud tushunchasi, hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyaning eng zarur va xarakterli tushunchasidir" deb takidlagan. G'arb va AQSH olimlari attityudni- shaxsning guruh a'zosi sifatidagi xulq-atvori mexanizimlarini o'rganuvchi ob'yekt sifatida qaraganlar. Demak psixologiyada "attityud" tushunchasi " individning ijtimoiy maqsad va mohiyatiga nisbatan psixologik tayyorgarligi sifatida yoki ayrim ijtimoiy sifatlarni anglashga nisbatan nomoyon bo'luvchi individning ongli holati" sifatida talqin qilingan. G.Ollport attityudga shaxsning harakatlarga tayorgarlik jarayoni sifatida qarab, u xulq-atvorni keltirib chiqruvchi yakunlangan manba ekanlini e'tirof etadi va bunday ta'rif, ijtimoiy psixologiyada shaxsning o'rganish uchun juda muximdur. Xuddi shunday mulohazani. E. Bogardusning " Attiytud – bu atrof-muhitdagi ayrim omillariga mos yoki qarama-qarshi harakat qilish an'anasidir", degan fikir bilan izohlash mumkin.

1942-yilda M.Smit attityudning uch komponentli srtukturasi ishlab chiqan. Bunga ko'ra attityudda uchta qisim bo'lib, bular kognitiv, affektiv, konativ qisimlaridir.

Kognitiv qisim- shaxsdagi attityud obyektiga nisbatan bilimlar yig'indisi bo'lib, shu obyektning shaxs tomonidan anglasgidur. Unga shaxsdagibilimlardan tashqari g'oyalar, prinsiolar, tasavvurlar kiradi.

Affektiv qismi ( emotsional) o'sha obeytni hissiy-ematsional boholash bo'lib, obeyktga nisbatan yoqtirish yoki yoqtirmaslik tarzidagi hissiyotlar kiradi.

Konativ qisim- xulq-atvor bilan bog'liq qism bo'lib, unga obeyktga nisbatan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, aynan xulq-atvor ko'rinishlari kiradi. Xulq-atvor bajarishga nisbatan patensiyalni ya'ni kuchini bildiradi.

Bizning attityudlarimiz (ustanovkalarimiz) bizning xulq-atvorimizga ta'sir qiladi. Insonlar himoya qilgan narsalariga ishonadilar. Psixologiyada attityudning ikkita asosiy fenomeni mavjud.

- Eshika qaratilgan oyoq fenomeni;
- Ro'llar ta'siri fenomeni.

### **“Eshikka qaratilgan oyoq” fenomeni**

*Insonlarni katta narsaga ishontirmoqchi bo'lsang, kichigidan boshla va asta sekin ko'paytir. (Robert Chaldini 1993yil).*

Bu fenomen sekin astalik bilan iltimoslarni ko'paytirish metodi deb ham ataladi. Bu fenomen 1966 yili D.Fridmanom va S.Freyzerom tadqiqoti asos hisoblanadi. Ular reklama agentligi xodimi sifatida Kaliforniyaliklarga “Yo'l harakati hafsizligi oyi” uchun uylarini darvozasi oldiga “ rulda extiyot bo'ling” shiori yozilgan katta stend osishni so'radilar. Ulardan 17% rozi bo'lishgan. Tadqiqotni davom etirib boshqa uy egalardan 10 sm kattalikdagi stend osishni so'radilar. Ularning barchasi rozi bo'lishgan. Ikki hafta o'tgandan so'ng 10sm kattalikda stend osishga rozi bo'lgan uy egalarga katta stend osishni so'rashti, ulardan 76% rozi bo'lishgan.

Atyutudlarimiz bizning ham yaxshi, ham yomon hatti-xarakterlarimiz hisoblanadi. “Eshika qaratilgan oyoq ” taktikasi hayriya ishlarida ishtirok etishga, donirlar uchun qon berishga va kambag'allarga yordam berishga insonlarni ko'ndirishga yordam beradi.<sup>40</sup>[3]

### **Rolli o'yinlarning bizning attityudlarimizga ta'siri.**

Psixologiyada ham teatrga o'xshab roll- aniq ijtimoiy mavqeyga ega kishining kutilgan hatti-harakatlarini bajarishi. Ijtimoiy rollarning shaxs shakillanishiga ta'siri juda katta. Shaxs o'zi bajarayotgan ro'llar tufayliy, turli munosabatlarga kirishadi. Yangi rollni zimmasiga olish ham shaxsdan katta mas'suliyatni talab etadi. Agar siz talaba bo'lib, o'ylandingiz (turmushga chiqtingiz), yangi ishga qabul qilindingiz- har bir ijtimoiy ro'lingiz talab etgan vazifalarni bajarasiz. Boshida sizda yangi ro'lingiz suniy tuyilishi mumkin, lekin ozgina vaqt o'tib (adaptatsiya) moslashasiz. Harbiy hizmatga borgan yigit uchun birinchi hafta saldatlar suniy, hizmat esa o'yindek tuyiladi. O'yinga o'xshab boshlangan ro'llingiz, hayotingizning bir qismiga aylanadi.

Olimlar insonlarning ro'l qabul qilishdan oldingi va keying xatti-harakatlarini tabiiy usulda yoki laboratoriya usulida o'rganishga harakat qilganlar.

1972 yilda psixolog Filippom Zambardo laboratoriya usuli yordamida maxsus tayorlangan qamoqxonada shaxs rollarini o'rganmoqchi bo'ldi. Tadqiqotda ishtirok etishga rozi bo'lgan talabalarni ikki guruhga ajratgan, birinchi guruhga qamoqxonada xodimi rolini bajarishni buyurdi, ikkinchi guruh ishtirokchilariga

maxfuz ro'lini bajarishni buyurdi. Ularga maxsus kiyim va qurollar berishdi, maxsus qamoqxonaga qamab qo'yishdi. Bir-ikki kundan keyin o'yinga o'xshab boshlangan tadqiqot tusga kirdi. Qamoqxonada xodimlari ro'llini bajarayotganlar maxfuzlarga qattiqo'lik qilib, haqoratlovchi vazifalarni buyura boshlashdi. Maxfuzlar esa birin-kettin parishon xotir holatida yeqilla boshladilar. Bunday vaziyatni ko'rgan psixolog Zimbardo tadqiqotni oxiriga yetkizmasdan tugatishga majbur bo'ldi. Harakatlarimiz attityudlarimizga ta'sir qiladi. Bizning hatti-xarakatlarimiz qanday bo'lsa, biz ham shunday insonga aylanamiz.<sup>41</sup> [3]

### **Ijtimoiy ta'sir.**

Ijtimoiy psixologiyaning asosiy darsi- biz bajarayotgan attityudlarimiz, qarorlarimiz va hatti-harakatlarimiz ijtimoiy ta'siri o'rni katta. Bu hol bizning konformligimizda, yumshoqligimizda va guruhdagi xatti-harakatimizda ko'rishimiz mumkin. Agarda biz suitsit, portlashlar, samayotda yuz bergan hafliy voqiyalar haqida malumotlar bizga kuchi ta'sir o'tkazib tez tarqaladi.[1]

Reklama agentliklari va turli korxonalarining ham xulq-atvorimizga ta'siri katta, ular maxsulot sotib olishga, hayriya ishlarda qatnashishga turtki bo'ladilar.

Savol: Talabalarni o'zgacha kiyinishiga individual xususiyatlari ta'sir qilganmi yoki a'zo kichik madaniyatga taqlid qilishimi?

Savdo komplekslarda jinsiy kiyib yurish odatiy tusga ega(dress-kod). Nyu-yorkdagi Uolld strit va Londindagi Bond strit da erkaklar kastyum, ayollar ko'ylakda yurishi yozilmagan qonunga aylangan.<sup>42</sup>[3]

### **Konformlik va boysunish.**

Bizning hatti-harakatlari atrofdagilar uchun, atrofdagilar hatti-harakatlari biz uchun yuqimliy hisoblanadi.

-Guruhdagi bir inson kulsa yoki yo'talsa, esnasa qoganlar ham shuni qaytara boshlashadi.

- Ko'chada ketayotkanimizda ko'pchilik odamlar tepaga qarab turishgan bo'lsa, biz ham behosdan tepaga qaraymiz.

Nafaqat hursandchilik, kulgi yuqimli balki yomon xulq-atvor ham. Satsiolig Devid Fillips (1985-1989 yillar) aniqlashicha Ommaviy axborot vositalarida suitsit haqidagi axborot ko'pligi, insonlar orasida ham ko'payganini aniqlagan. 1962 yil 6- avgustda mashhur kinoaktrisa Merlin Monroni o'z joniga xasd qilishi, AQSH da avgust oyining o'zida suitsitni 200 barobarga ko'paygani haqida axborot berilgan.

### **Konformlik va guruhning ta'siri.**

Konformlik- guruhdagi standartlarga tayangan holda fikrlarimiz va hatti-harakatlarimizni boshqarishimiz. Guruhning ta'siriga berilish, boshqa shaxslar ta'sirida o'z xatti-harakatini o'zgartirish, atrofdagilar bilan nizoga kirishmaslik uchun ongli ravishda ularga yon bosish. Guruhdagi konformlik darajasini aniqlash maqsadda Salamon Ash (1955 yil) oddiy test o'ylab topti. Unga ko'ra ishtirokchi mo'jallangan joyga borib eng oxirgi ishtirokchi navbatini egalashi kerak. Undan oldin 5ta ishtirokchi tadqiqotga kelgan bo'ladi. Tadqiqotchi ishtirokchilarga

<sup>41</sup> David.G.Myers "Psychology" -2010 Pg 677

<sup>42</sup> David.G.Myers "Psychology" -2010 Pg 678

qog'ozga chizilgan 3 ta to'g'ri chiziqni ko'rsatib, ularning qay biri obrazetsga mos emasligini so'radi. Barcha ikkinchi chiziq mos emasligini aytishdi.

Ikkinchi so'rovda ham shunga o'xshash oddiy masala berildi, barcha ishtirokchilar to'g'ri javob berishdi, asosiy ishtirokchi masala oddiyligidan zerkib qolganini ko'rishimiz mumkin. Uchinchi so'rov ham shunday oddiy masala edi, lekin birinchi ishtirokchini javob asosiy eksperiment ishtirokchisini hayratda qoldirdi: "uchinchi chizig'" shu javob to'g'ri deb qat'iy turib oldi. Ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi ishtirokchi ham huddi shunday javob berdilar (lekin bu javob noto'g'ri). Ko'rayotgan chiziqlari va javoblardan hayratlangan ishtirokchi yuregi tez urishni, asabilashishi, noqulay vaziyatga tushib qolib, o'ziga ishonchni yo'qotadi.<sup>43</sup> [3]

Salamon Ash bu tadqiqotni ko'pchilik studentlar orasida o'tkazdi, ko'pchilik ishtirokchilar guruhga tayangan holda, atrofdagilar fikriga qo'shilganlar.

## **2. Altruizm va tolerantlik tushunchalari mazmuni.**

Altruizm qisqa va lo'nda, aniq qilib aytilganda, hech qanday manfaatni kutmagan holda boshqalarga yordam berish, birovlariga yordam qo'lini cho'zish demakdir. Uning asosida hech qanday manfaat kutmaslik yotishi shu bilan asoslanadiki, altruist odam

har doim hammaga, hatto buning evaziga hech narsa olmasligini bilsa ham, yordam beraveradi. Ta'kidlash joiz, bunday odamlar birovlariga qilgan yordami uchun o'zi jabr ko'rsa ham, baribir boshqalarga yordam berishni kanda qilmaydi. Bunday odamlar so'nggi chaqasi, so'nggi imkoniyati va hatto jonini ham hech qanday minnatdorchilik yoki taqdirlanishni kutmasdan bera oladi.[2]

Bu savolga faylasuf, psiholog, sotsiolog va boshqa sohadagi olimlar uzoq yillardan buyon javob izlashadi va bu savolga berilgan javoblar tahlili shuni ko'rsatganki, savolga javob berayotgan olimning individual- psihologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda bu savolga javob beriladi:

Ya'ni, agar bu olimning o'zi inson sifatida odam hech qachon biror- bir manfaatni ko'zlamasdan boshqalarga shunchaki yaxshilik qilmaydi, digan fikrga ega bo'lsa va o'zi ham bunga amal qilsa, u holda bu olim Altruizmning asosida yo moddiy, yo ma'naviy manfaatdorlik yotadi, deb hisoblaydi.

Aksincha, bu savolga javob izlayotgan olim inson sifatida o'zi altruistik e'tiqodga amalga qilsa, bu olim altruistik xulq-atvorni birovlariga hech qanday foyda ko'zlanmasdan qilinadigan yaxshilik deb tushuntiriladi.<sup>44</sup>[3]

Ijtimoiy psihologiyada Altruizm ijtimoiy xulq- atvor sifatida qaraladi va uning asosi yoki motivini tushuntirishda 2 xil nuqtayi nazar mavjud.

Birinchi nuqtayi nazar biologik nuqtayi nazar bo'lib, bu nazariya Altruizmni biologik ehtiyoj sifatida qaraydi va uni tug'ma holda beriluvchi instinktiv xulq- atvor deb baholaydi. Ularning fikricha, hatto hayvonot olamida ham bir tur vakillari orasida bir-biri uchun qayg'urish va bir-biriga yordam berish holatlarini kuzatish mumkin. Undan tashqari hali manfaat nimaligini unchalik tushunib

---

<sup>43</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 681p  
Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 712p

yetmagan yosh bolalarda ham altruistik harakatlarni kuzatish mumkin-ki, bu holatlar altruizmning tug'ma ehtiyoj ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchi nuqtayi nazar sotsiologik (ijtimoiy) nazariyadir. Bu nazariya vakillari yuqoridagi nazariya vakillarining fikriga butunlay qarshi chiqadi. Ularning fikrida ham jon bor, albatta. Ularning fikri quyidagicha. Agar ota-onalar yosh bolalar bilan munosabatda va muloqotda tez-tez altruizmni nomoyon etsalar, bunday holatda bolalar ham ularga taqlid qilib, shunday harakatlarni amalga oshira boshlaydilar.

Shuni kuzatish mumkinki, ota-onalardagi altruizm ko'pincha ularning bolalarida ham altruizmni nomoyon qilishlariga sabab bo'ladi. Masalan, bolaning oyisi konfetidan bittasini ukasiga berishni o'rgatsa yoki ikkitadan bittasini dadasiga deb olib qo'ysa, buday bola bog'chadagi o'rtog'iga ham konfetining yarmini beradi. Aksincha, ota-onalardagi altruistik harakatlarning kuzatilmaslgi ko'pincha ularning bolalarida ham bunday xulqning kuzatilmaslginini tasdiqlagan. Ushbu nazariyalar asosida yana bir qancha nazariyalar asosida yana bir qancha nazariyalar yaratilganki, ularni quyidagi tarmoqlarga ajratish mumkin:

Sotsiologik yo'nalishdagi nazariya altruizmning asosida nima yotishiga qarab ikki asosiy guruhga bo'linadi:

1. Manfaatni ko'zlab amalga oshiriladigan altruistik harakatlar.

manfaatni ko'zlamasdan amalga oshiriladigan altruistik harakatlar.

Birinchi nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, har qanday altruistik xulqning asosida ochiq yoki yashirin, ongli yoki ongsiz holatda bo'lsin, qandaydir foyda yoki manfaat ko'zlanadi.

Ikkinchi nazariya tarafdorlari esa altruistik xulqning asosida hech qanday manfaat yoki foyda yotmaydi, degan fikrni ilgari suradilar.

Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlari altruistik xulqni tushuntirishda quyidagi variantlarni taklif etadilar.

Ijtimoiy o'zaro almashuv. Bu yo'nalish tarafdorlarining fikriga ko'ra jamiyatda har qanday shaxslararo munosabatlar zaminida o'zaro manfaatdorlik yotadiki, shunga ko'ra altruizm – bu mehr-muhabbat, hurmat, g'amxo'rlik, oqibat kabi psihologik hissiyotlarni o'zaro almashishdir. Ya'ni altruistik harakat qilayotganda kishi buning evaziga o'ziga albatta shunday munosabat qaytishini kutadi. Odatda, bunda “kamroq berib” “ko'proq olishga” mo'ljallab altruistik harakat qilinadi. Masalan, o'rtog'i uchun qayg'urayotgan (kechikayotgan o'rtog'ini “hozir kelib qoladi”, deb oqlayotgan) talaba, o'rtog'laridan o'ziga nisbatan xuddi shunday munosabatlarni kutadi. Hatto bunday munosabat qaytarilmasa, undan xafa ham bo'ladi. Ikkinchi nazariya tarafdorlari birinchi nazariyaga alternativa sifatida chiqishadi va ular altruistik xulqning asosida hech qanday manfaatdorlik yotmaydi degan fikrni ilgari surishadi. Ular altruistik xulqni tushuntirishda quyidagicha nuqtayi nazarlarni taklif etishadi.

1. Empatiya nazariyasi. Bunda altruistik xulqdagi kishi tabiiy holatda, o'zi ham anglamagan holda boshqalar uchun qayg'urish va g'amxo'rlik qilishga moyil bo'ladi. Bunday odamlar qiynalayotgan kishilarni ko'rsa, o'z- o'zidan altruistik xulqni nomoyon qiladilar.



Ijtimoiy me'yortiv nazariya. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, kishi ijtimoiy rol va ijtimoiy me'yorlarni yaxshi o'zlashtirganlari uchungina altruistik xulqni namoyon qiladi. Bunday odamlar sirasiga ayniqsa ma'lum bir dinga e'tiqod qiluvchilar, jamiyatda mavjud bo'lgan ma'lum bir qadriyatlarga, ijtimoiy me'yorga qat'iy amal qiluvchilar kiradi. Bundan tashqari altruistik xulqni tushuntirishda quyidagi yo'nalishga asoslanuvchi nazariyalar ham mavjud. <sup>45</sup>[3]

Ular altruistik xulqning asosida qanday mohiyat yotganligiga ko'ra quyidagilarni ajratib ko'rishadi:

*Altruistik xulqni namoyon qilayotganda boshqalarning borligi.* Talaba hech kim bo'lmaganligidan ko'ra ko'pchilik oldida o'zini altruist ko'rsatib, boshqalarga yordam qo'lini cho'zishi mumkin, bunday hol aksariyat odamlarga xosdir.

*E'tiborli kishilarning bahosi.* Agar inson uchun qaysidir jihatdan e'tiborli kishi ( ayniqsa, uning o'zi altruistik xulqni tez-tez namoyon qilib tursa yoki ayni paytda altruistik harakatni kuzatayotgan bo'lsa) boshqa paytdagiga nisbatan altruistiroq bo'ladi. Talaba o'zi uchun hurmatli bo'lgan o'qituvchisining yonida (agar bu o'qituvchi altruistik xulqni namoyon qiladiganlardan bo'lsa) boshqa paytdagidan ko'ra altruistiroq bo'ladi.

*Javobgarlikni his qilish.* Kishi boshqalar yoki qonun oldida javobgarlikdan qo'rqib, o'zi istamasa-da, boshqalarga yordam beradi. Masalan ota-onadan qo'rqib uka, singillariga yordam berish. Qonun oldidagi javobgarlikdan qo'rqib mashinada urib ketgan odamni kasalxonaga olib boradi. Ba'zi talabalar guruhida guruhdagilarning ba'zilarigina altruistik bo'lsa, to'rtinchi kelib, butun guruh altruistik harakat qiladi va bir- birlari uchun qayg'uradi.

*Taqlidchanlik.* Har bir jamiyatda kishilar o'zini qanchalik ko'p altruistik tutsa bu holatga taqlid qiluvchilar ko'payadi. Agar altruistik xulqqa ega bo'lgan o'qituvchilar ko'p bo'lsa va bu xulqni ular talabalar oldida tez-tez namoyon qilsalar, talabalar ham albatta ularga taqlid qilishadi.

*Jins farqi (simpatiya).* Ko'pgina davlatlarda erkaklar ayollardan ko'ra kuchli jins sifatida tan olinadi. Bunday jamiyatlarda erkaklar ko'pincha jismoniy jihatdan ayollarga o'z yordamlarini taklif etadilar.

*Yosh xususiyati.* Barcha jamiyatlarda ham yosh bolalar yoki keksalarga nisbatan ko'proq altruistik xulq namoyon qilinadi. Chunki, ularning yoshidagilar yordamga ko'proq muhtoj bo'ladilar.

*Kishining holati.* Bunda yordam beruvchining va oluvchining ham holati nazarda tutiladi. Kishi o'zi qiynalib turganda o'zining holatidagi kishiga yordam qo'lini cho'zadi va g'amxo'rlik qiladi. Sessiyadan o'ta olmagan talaba o'ziga o'xshagan talabaga boshqa vaqtdagidan ko'ra mehribonroq munosabat bildiradi.

*Kishining psixik xususiyatlari.* Kishi qanchalik javobgar, g'amxo'r bo'lsa altruistiroq bo'ladi. Aksincha, qahrli, egoist, qaysar, odamlarga befarq bo'lsa, undan altruizmni kutmasa ham bo'ladi.

---

<sup>45</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 674p

*Kishining dinga munosabati.* Islom dini altruistic munosabatlarni targ'ib qiluvchi dinlardan biridir. Unga ko'ra musulmon musulmonga har qanday holatda ham yordam berishi kerak.

Agar xar qaysi shaxs o'ziga qilingan yaxshiliklarni doimiy ravishda o'zi uchun nazorat qilib borsa, bu o'zaro munosabatlarda yaxshi natija beradi. Laboratoriya eksperimenti asosida shunday xulosaga kelganki, agar shaxs o'ziga qilingan yaxshilikka nisbatan javob qaytarish majburiyatini his qilmas ekan, o'zaro munosabatlarda egoizm shakllanadi. Mark Uotli o'z tadqiqotida shuni anglaganki, talabalar ularga konfet ulashib turgan guruhdoshlariga imtixonidan o'tish uchun yordam berishgan. Ba'zi bir shaxslarda qilinayotgan yaxshilikni qaytarish imkoni bo'lmasa, uni qabul qilishga ham qo'rqishadi. Ko'rinib turibiki, jamiyatda shaxs namoyon qiladigan xulqlar orasida egoizm va altruizm doimiy ravishda uchrab turadi.

### **Tolerantlik**

Tolerantlik (lot. *tolerantia* — sabrtoqat), bag'rikenglik — o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, histuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish. Hozirgi dunyoda Tolerantlik o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi, integratsiya va o'zaro bog'liqlik, keng miqyosli migratsiya va aholining ko'chib yurishi va boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag'ri kenglik tamoyili aqida bozlikdan, haqiqatni mutlaklashtirihdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqarohuquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko'ra, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmogi lozim. Bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tolerantlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida YUNESKO "Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi"ni qabul qilgan (1995 y. 16 noyabr). Jamiyatda turli xalqlar, millatlar va dinlarning o'ziga xos xususiyatlariga nisbatan tolerantlik munosabatini O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o'rtasidagi hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagan va bu xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi. 10 dan ziyod konfessiyaga mansub din vakillari yurtimizda hamkor, ham jihat yashab kelayotgani esa dinlararo Tolerantlikning yaqqol namunasidir.

### **Diskriminatsiya**

Jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarda ba'zi toifa vakillariga nisbatan diskriminatsiya asosida yondashish kuzatiladi. Diskriminatsiya umumiy tushunchada tan olmaslikni maqsad qilgan yoki tenghuquqlilik hamda uni himoya qilishni rad etgan, tenghuquqlik tamoyili va insoniylik qadr-qimmatini kamsituvchi har qanday ajratish, tahqirlash, cheklash yoki afzal ko'rishni bildiradi. Amerikalik psixolog Chaldinining fikriga ko'ra, shaxslar orasida bir-biriga nisbatan diskriminatsiyaning yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar bo'lishi

mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy, diniy, irqiy, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, jinsiy oriyentatsiyasi va boshqa diskriminatsiyalar. Barcha ko‘rinishdagi cheklashlarni avtomatik tarzda inson huquqlarining buzilishi, ya’ni diskriminatsiya deb hisoblash mumkin. Agar ular mantiqan muvofiq va obyektiv kriteriyalarga asoslangan bo‘lsa, ushbu cheklashlar oqlanishi mumkin.

**Diskriminatsiya (Discrimination)** — ma’lum bir odamlarga nisbatan, ularning qandaydir guruhga tegishliligi tufayli namoyonqilinadigan fe’l-atvor xususiyatlaridir. Biroq diskriminatsivaning ba’zi ko‘rinishlari alohida odamlar tomonidan ernas, balki ijtimoiy institutlar tomonidan ham namoyon etiladi va u institutsional

diskriminatsiya deb aytiladi. **Institutsional diskriminatsiya (institutionalized discrimination)** — ma’lum bir madaniyatning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy institutlari tarkibiga kiradigan diskriminatsiyadir (Feagin & Feagin, 1999). U to‘g‘ridan to‘g‘ri dushmanlik kayfiyatida bo‘lishi mumkin, masalan, rasmiy qonunchilik ma’lum bir guruhlariga biror joyda yashashni yoki ma’lum bir sohada ishlashni taqiqlashi shunday diskriminatsiyaga misol bo‘ladi. Masalan AQSHda quldorlikni qo‘llab-quvvatlovchi yoki ayollarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yuvchi qonunlarning mavjud bo‘lganligi bunga yaqqol misoldir. Hozirda bunday ochiqdan ochiq diskriminatsiyalar xalqaro huquq me’yorlariga ko‘ra taqiqlansa-da, ularning ba’zi shakllari saqlanib qolmoqda. <sup>46</sup> ( David.G.Myers “Psychology” -2010 Pg 691)

### **3. Agressiv xulq-atvor psixologiyasi.**

Insonlardagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘luvchi xulq-atvor tiplaridan biri agressiyadir. «Agressiya» tushunchasiga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug‘diradi, chunki bu atama ko‘plab xatti-harakat shakllarini ifodalaydi. Odamlar biron kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi yoki badfe’l, barcha narsani o‘zi istaganidek qilishni istaydigan yoki o‘z g‘oyalarini qat’iy himoya qiladigan, echimi yo‘q muammolar girdobiga o‘zini giriftor qiladigan inson kabi ta’riflarni keltirishlari mumkin. Insonning agressiv xatti-har akatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan dastlabki nuqtai nazarlar ichida U. Makdaugoll, Z.Freyd, G.Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug‘ma instinkti mavjud bo‘ladi», degan qarashlaridir. Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr mulohazalar XX asrning boshlarida frustratsiya nazariyasi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keldi. Unga ko‘ra, agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunda qarashni birinchi bo‘lib J.Dollard ilgari surdi. Ammo, ushbu ikki xil nuqtai nazarham amaliyotda o‘z tasdig‘ini topmadi. Agressiv xulq-atvor xususidagi yana bir nuqtai nazar L. Berkovichning ijtimoiy bilish nazariyasida bayon qilingan. Unga ko‘ra, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to‘siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtai nazar bilishning kognitiv

---

<sup>46</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan . 691p

nazariyasi bilan bog‘liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijalari sifatidaba holanadi:

- 1) sub‘ektning o‘z agressiv xulq atvorini ijobiy deb baholashi;
- 2) frustratsiyaning mavjudligi;
- 3) affekt yoki stress tipidagi emotsional qo‘z g‘alishning kuchliligi.

R. Kratchfield va N.Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan va birday maqbul ikki tavsifini keltirganlar. Birinchisi, xulq-atvorning zohiriy (tashqi) alomatlariga asoslanadi: «Agressiya– kimgadir ziyon etkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko‘rinishidir». Ikkinchisi, odamning niyatlari bilan bog‘li ya‘ni insonni harakatga undovchi kuchlar bilan mushtarak: «Agressiya– boshqa bir insonga ziyon etkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monanda tushunchalarga tayangan ko‘plab psixologlar agressiyani mavjudotning yashash uchun kurash bilan bog‘liq uzviy xususiyati deb hisoblaydilar. D. Bass taklif etgan ta‘riflardan biriga ko‘ra, boshqalar uchun xavf tug‘diruvchi va ularga ziyon etkazuvchi har qanday fe‘l-atvor agressiyadir. Bir nechatalani tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan ikkinchi ta‘rif esa quyidagicha: u yoki bu harakatlar agressiya sifatida tasniflanishi uchun ular oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi emas, balki xafa qilish va haqoratlarni maqsad qilib qo‘yishi lozim. Nihoyat, uchinchi nuqtai nazar X. Zilman tomonidan bildirilib, unga ko‘ra, agressiya o‘zgalarga tanjarohati va boshqa jarohatlar etkazish demakdir. «Agressiya» tushunchasining talqinidagi kelishmovchiliklarga qaramay, ijtimoiy fanlar sohasidagi ko‘plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtai nazarda bayon etilgan ma‘nosiga ko‘proq tayanadilar. SHunday qilib, hozirda ko‘pchilik psixologlar tomonidan«agressiya– boshqa tirik jonzoatga u buni istamagan vaziyatda haqorat yoki ziyon etkazishni maqsad qilib qo‘ygan fe‘l-atvorning har qanday shakli», degan ta‘rif qabul qilingan. U agressiyaga emotsiya, motiv yoki ko‘rsatma sifatida emas, balki fe‘l-atvor modeli sifatida qarashnita qozo etadi. Bu muhim fikr ko‘plab chalkashliklarni tug‘dirdi.<sup>47</sup>[3] ( David.G.Myers “Psychology” -2010 Pg 698)

«Agressiya» atamasi ko‘p hollarda g‘azab kabi salbiy his -tuyg‘ular, haqorat qilish va ziyon etkazish kabi motivlar, hatto irqiy va etnik xurofot bilan assotsiatsiyalanadi. Bu omillar natijasi zarar etkazish bo‘lgan fe‘l-atvorda muhim rol o‘ynashiga qaramay, ular bunday harakatlar uchun asos bo‘la olmaydi.[1] G‘azab bosh qalarga tajovuz qilish uchun aslo zaruriy shart hisoblanmaydi, agressiya o‘ta sovuq qonlik holatida qancha yuzaga kelsa, shuncha o‘ta emotsional hayajon holatida ham sodir etiladi. SHuningdek, agressorlarning ular tajovuz qilayotgan shaxslardan nafratlanishi yoki ularni yoqtirishi umuman shart emas. [2] Ko‘pchilik

odamlar o‘zlari yoqtirgan insonlarga zulm o‘tkazadilar. Inson agressiyasining turli-tumanligi va tubsizligidan kelib chiqib, mazkur fe‘l-atvorni o‘rganishda asos tomonidan taklif etilgan konseptual chegaralanish juda foydali ekanligi ayon bo‘ldi. D.Bassning fikricha, agressiv harakatlarni uchta shkalaga asoslangan holda tasvirlash mumkin: jismoniy

---

<sup>47</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 698p

- verbal, faol
- sust va to‘g‘ri
- egri.

Ularning kombinatsiyalari sakkizta ehtimolga yaqin kategoriyalarni berib, ular asosida ko‘plab agressivharakatlarni tushuntirish mumkin. Masalan, bir kishining ikkinchisiga otish, picho qilash yoki kaltaklash tarzida zo‘ravonlik qilish ham jismoniy, ham faol, ham to‘g‘ri shkala sifatida tasniflanishi mumkin. D. Bassning agressiya kategoriyalari Agressiyaning tipii Misollar

## **6. MAVZU: EMOTSIYA VA IRODA**

### **REJA:**

- 1. Emotsiya haqida tushuncha. Xissiy xolatlarning nerv-fiziologik asoslari.**
- 2. Emotsiya nazariyalari (Djeyms-Lang, Kennon-Bard, S.SHaxtyor, D.Zinger). Qarama-qarshi emotsiyalar nazariyasi (R.Salomon bo‘yicha).**
- 3. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari.**
- 4. Irodaviy akt va uning tuzilishi. SHaxsning irodaviy sifatlari.**

- 1. 1. Emotsiya haqida tushuncha. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslari.**

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni

quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan ob‘ektlarga sub‘ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma‘lum munosabatda bo‘ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya‘ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba‘zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg‘otadi.

**Hissiyot** bizning tuyg‘ularimizning o‘ziga xos aks ettirish jarayoni bo‘lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug‘iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o‘z- o‘zidan yuzaga

kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta'siri bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi.

**Emotsiya** – shaxsning voqelikka o'z munosabatini his qilishidan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalaridir. Keltirilgan ta'riflardan ko'rinadiki, hissiyot tushunchasi emotsiyaga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, shaxsning kundalik hayoti, turmush tarzidagi barcha jabhalarni qamrab oladi.<sup>48</sup>[3]

Imagine conducting an experiment measuring the physiological responses of emotion. In each of four rooms, you have someone watching a movie: In the first, the person is viewing a horror show; in the second, an anger- provoking film; in the third, a sexually arousing film; in the fourth, an utterly boring movie. From the control center you monitor each person's physiological responses, measuring perspiration, breathing, and heart rates.

Hissiyotlar o'zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg'usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada ta'ssurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi.[1]

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqqan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozi ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.<sup>49</sup>[3]

Demak, odam ma'lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekretsiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog'iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay

<sup>48</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-549.

<sup>49</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan .699 p

qoladi. Odamda qattiq qo'rqish paytida «Yuragi orqaga tortib ketdi», «Sovuq ter bosib ketdi» kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a'zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko'p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po'stloq osti qismlarining oralig'i bilan ham bog'liqdir. Masalan, ko'rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Odamda uchraydigan yuksak ma'naviy hissiyotlar ham o'zining nerv-fiziologik asosiga ega bo'lishi kerak (chunonchi intellektual, ahloqiy, estetik hissiyotlar). Bu jihatdan akademik I.P.Pavlovning dinamik streotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir. Bu haqda akademik I.P.Pavlov shunday deb yozgan edi: **«Menimcha, ko'pincha odatdagi turmush tartibining o'zgargan paytlarida odat bo'lib, qolgan birorta mashg'ulot yaqin kishidan judo bo'lganda, aqliy iztirob chog'ida kechiriladigan og'ir hissiyotlarning fiziologik asosi xuddi eski dinamik streotipning o'zgarishi, uning yo'qolishi va yangi dinamik streotipning qat'iylik bilan hosil bo'lishidan iborat bo'lsa kerak».**

Ayrim murakkab hissiyotlarning asosida dinamik streotipning yotishi yaqqol ko'rinadi. Masalan, estetik hissiyotni oladigan bo'lsak, biron yoqimli ko'ydanda lazzatlanish, yoki biron mashhur rassomning ishlagan ajoyib suratlarini tomosha qilib, rohatlanish estetik hissiyot hisoblanadi. Agar bu hissiyotlarning nerv-fiziologik asoslarini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, bizga juda yoqadigan kuy boshqa millat odamiga yoqmasligi mumkin. Bunda ajablanishga hech qanday o'rin yo'q. Biz yoshlikdan boshlab mazkur kuyi bir necha yuz marotalab eshitib borishimiz natijasida ana shu kuyga nisbatan deyarli buzib bo'lmaydigan nihoyatda murakkab dinamik streotip yuzaga keladi. Ana shuning uchun ayrim kuylar bizga yoqadi, ayrimlari esa yoqmaydi. Suratlar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, qadimgi klassik asarlar ularning ishlanish uslubi realligi bizni hayratda qoldirib zavq tug'diradi. Aksincha, hozirgi rassomlar tomonidan ishlangan rasmlar odamda qandaydir noxush hissiyotni tug'diradi. Demak, uzoq yillar davomida yuzaga keladigan dinamik streotiplar ayrim murakkab hisni tashkil qiladi.[2]

Shunday qilib, hissiyot vegetativ nerv tizimi orqali boshqariladigan ichki a'zo faoliyati bilan bog'liq bo'lsa ham bari bir bosh miya po'sti orqali idora qilinadi. Chunki akademik I.V.Pavlovning fikricha, odamning butun a'zoyi badanida bo'ladigan har qanday hodisalarning hammasini bosh miya po'sti qismidagi neyronlar idora qiladi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning nerv-fiziologik asosi bosh miya po'sti bilan bog'liq.

**2. Emotsiya nazariyalari**  
**(Djeyms-Lang, Kennon-Bard,**  
**S.SHaxtyor, D.Zinger).**  
**Qarama-qarshi emotsiyalar**  
**nazariyasi (R.Salomon**

Uzoq vaqt davomida psixologlar hissiyotlar tabiati haqidagi masalani echishga uringanlar. XVIII-XIX asrlarda ushbu muammo bo'yicha hech qaday nuqtai nazarlar mavjud emas edi. Keng tarqalgan qarashlardan hissiyotlarning organik ifodalanishlari – bu psixik hodisalarning

oqibati haqidagi dalil asosida paydo bo'lgan *intellektuallashtirish nuqtai nazaridir. Tasavvur* fundamental psixologik dalil bo'lib hisoblanadi, bizning

hislarimiz esa turli tasavvurlar o'rtasida o'rnatiladigan aloqalarga mos keladi, va tasavvurlar o'rtasidagi nizolika nisbatan ta'sirlanish sifatida ko'rib chiqiladi, deb hisoblagan I.F. Gerbart, bu nazariyaning aniq ifodasini keltirdi. V. Vundt ham bu nazariyaning tarafdori edi. SHunday qilib, hissiyotlarni tadqiq qilishda ular haqidagi *sub'ektiv*, ya'ni, hissiyotlarning psixik tabiati haqidagi fikrlar o'z tasdig'ini topdi, unga muvofiq psixik jarayonlar ma'lum organik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.[2]

1872 yilda CH. Darvin «Inson va hayvonlarda hissiyotlarning ifodalanishi» asarini chop etdi. Uning fikriga ko'ra, hayvon va odam hulq-atvori o'rtasida umumiyliklar mavjud. O'z fikrini u hayvonlar va odamlar turli emotsional holatlarining tashqi ifodalanishini kuzatishdan kelib chiqqan holda, asoslab berdi. Ushbu kuzatishlardan olingan ma'lumotlar *evolyusion ta'limot* nomini olgan hissiyotlar nazariyasi asosiga qo'yildi, bu ta'limotga asosan, hissiyotlar tirik mavjudotlar evolyusiyasi jarayonida hayotiy muhim bo'lgan organizmning yashash sharoitlari va vaziyatlariga moslashishni ta'minlovchi moslashish mexanizmlari sifatida yuzaga keldi.

Hissiyotlarning hozirgi zamon tarixi 1884 yilda U. Djemsning «Hissiyot nima?» maqolasining chop etilishidan boshlanadi. *U. Djems* va undan mustaqil ravishda G. Lange hissiyotlar nazariyasini ishlab chiqdilar, unga asosan, hissiyotlarning paydo bo'lishi hosil qilinadigan tashqi ta'sirlar, ixtiyoriy harakat va tizimlar sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar, emotsional kechinmalarning xuddi o'zidir. Djems bo'yicha, «yig'laganimiz sababli qayg'ulimiz; qaltiraganimiz uchun qo'rqamiz; kulganimiz uchun xursand bo'lamiz». Bu hissiy xabar miyaga ta'sir ko'rsatib, ma'lum hulq-atvorni o't oldiradi, teskari somatosensor va visserosensor afferentatsiya esa hissiyotni yuzaga keltirishini bildiradi.<sup>50</sup>[3]

Lekin Djems-Lange konsepsiyasi bir qator e'tirozlarga sabab bo'ldi. Organik va emotsional jarayonlarning nisbatiga U.Kennon qarama-qarshi fikr bildirdi. Uning aniqlashiga ko'ra, insonda sun'iy tarzda hosil qilinadigan organik o'zgarishlar har doim ham hissiyotli kechinmalar birgalikda kuzatilmaydi. Keyinchalik, P.Bardning ko'rsatishicha, haqiqatda, tana o'zgarishlari va ular bilan bog'liq bo'lgan hissiyotli kechinmalar deyarli bir vaqtda paydo bo'ladi, bosh miya tuzilishidagi barcha qismlardan esa hissiyotlar bilan talamusning o'zi emas, balki, gipotalamus va limbik tizimning markaziy qismlari bog'lanadi.

Lindsey-Xebbnig *faollashtirish nazariyasi* Djems-Lange va Kennon-Bardlarning psixoorganik nazariyalaridan so'ng paydo bo'ldi. Bu nazariyaga ko'ra, emotsional holatlar bosh miya quyi qismi nayining retikulyar formatsiyaga ta'siri bilan belgilanadi, chunki bu tuzilma organizmning faolligi darajasiga javob beradi. Hissiyotli ifodalanishlar esa asab tizimining biror bir seskantiruvchiga javoban faollik darajasining o'zgarishidir.

Nazariyalarning alohida guruhini hissiyotlar tabiatini kognitiv omillar, ya'ni, tafakkur va ong orqali ochib beradigan dunyoqarashlar tashkil etadi. Ularning orasida, birinchi navbatda, L. Festingerning *kognitiv dissonans nazariyasini*

---

<sup>50</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan .548 p



ta'kidlab o'tish lozim. Uning asosiy tushunchasi *dissonans*dir. Bu sub'ektning ob'ekt haqida psixologik qarama-qarshi ma'lumotga ega bo'lgan vaziyatda yuzaga keladigan salbiy emotsional holat. Bu nazariyaga muvofiq, ijobiy emotsional kechinmalar odamda o'zi kutgan natijalar tasdiqlanganida paydo bo'ladi. Bunday ijobiy emotsional holat *konsonans* sifatida xarakterlanadi, Salbiy hissiyotlar faoliyatdan kutilgan natijalar va voqeyiy natijalar o'rtasida farqlar yoki dissonans bo'lganida yuzaga keladi.[2]

S.Shexterning kognitiv-fiziologik konsepsiyasiga asosan, paydo bo'ladigan emotsional holat qabul qilinadigan rag'batlar va yuzaga keladigan jismoniy o'zgarishlar bilan birga insonning o'tmish tajribasi va uning vaziyatni sub'ektiv baholashi ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda baholash uning dolzarb qiziqishlari va ehtiyojlari asosida shakllanadi.

Kognitivistik nazariyalar qatoriga P.V. Simonovning hissiyotlar *axborot beruvchi konsepsiyasi* ham kiritilishi mumkin. Bu nazariyaga asosan, emotsional holat individ dolzarb ehtiyoji sifati va jadalligi, hamda, uni qondirish ehtimolligini baholashi bilan belgilanadi. Bu ehtimollikni baholashni inson tug'ma va avval orttirilgan individual tajriba asosida, ixtiyorsiz ravishda ehtiyojni qondirish uchun taxminiy zarur vositalar, vaqt, zahiralarni haqidagi ma'lumotni ayni vaqtda olgan ma'lumot bilan taqqoslagan holda amalga oshiradi. P.V. Simonovning yondoshuvi quyidagi formulada aks etgan:  $H = E (M - A)$ , bunda H – hissiyot, uning kuchi va sifati; E – dolzarb ehtiyoj kattaligi va o'ziga xos xususiyati; M – dolzarb ehtiyojni qondirish uchun zarur ma'lumot; A – ayni paytda insonda mavjud bo'lgan tegishli axborot.[2]

Ushbu formuladan kelib chiqadigan oqibatlar quyidagicha: agar insonda ehtiyojlar mavjud bo'lmasa ( $E = 0$ ), u holda hissiyotlarni ham sezmaydi ( $H = 0$ ); ehtiyoj sezayotgan inson uni amalga oshirish uchun to'la imkoniyatga ega bo'lgan holatda ham, hissiyotlar yuzaga kelmaydi. Agar ehtiyojni qondirish ehtimolligining sub'ektiv baholanishi yuqori bo'lsa, ijobiy hislar namoyon bo'ladi. Salbiy hislar esa sub'ekt ehtiyojini qondirish imkoniyatini salbiy baholaganda yuzaga keladi.

Miya po'stlog'i emotsional holatlarni boshqarishda o'ta muhim o'rin tutadi. I.P. Pavlov tomonidan aynan, miya po'stlog'ining hissiyotlar kechishi va ifodalanishi, boshqarishi, tanada yuz beradigan barcha hodisalarni o'z nazorati ostida ushlab turishi, po'stloq osti markazlariga tormozlovchi ta'sir ko'rsatishi, ularni boshqarishi ko'rsatib o'tilgan. YUqorida bayon etilganlarning tasdig'i sifatida sub'ektiv kechinmalar va ularning tashqi ifodasi o'rtasida keskin farqlar kuzatiladigan klinik holatlarni keltirish mumkin. Miya katta yarim sharlari po'stlog'i shikastlangan bemorlarda istalgan seskantiruvchi muvofiq kelmaydigan tashqi ta'sirlanish: qattiq kulgi yoki shashqator ko'z yoshlarga sabab bo'lishi mumkin. Lekin, kulib turib, bu bemorlar o'zlarini qayg'uli, yig'lab turib esa, ba'zan xursandchilik sezadilar.

Inson hissiyotli kechinmalarida *ikkinchi signal tizimi* katta ahamiyatga ega, chunki kechinmalar tashqi muhitning bevosita ta'sirlari bilan birgalikda so'zlar, fikrlar orqali ham yuzaga kelishi mumkin. Xuddi shunday, o'qib chiqilgan hikoya, tomosha qilingan film mos bo'lgan emotsional holatni yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirda ikkinchi signal tizimi intellektual, ahloqiy, estetik yuksak insoniy hissiyotlarning fiziologik asosi bo'lib sanaladi.<sup>51</sup>

Xulosa o'rnida hissiyotlarning tarkibiy qismlarini keltirib o'tish zarur, bular: 1) sub'ektiv kechinma, 2) organizm reaksiyasi, 3) hissiyotlar bilan yuzaga kelgan va xayoldagi fikrlar yig'indisi, 4) o'ziga xos yuz ifodasi, 5) umumlashtirilgan hissiyotli reaksiyalar: salbiy hissiyotda atrofda voqealarga nisbatan munosabatingiz ham salbiy bo'ladi, 6) ushbu hissiyot bilan assotsiatsiyalangan harakatlarga moyillik.

SHuni ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi vaqtgacha hissiyotlar tabiatiga nisbatan yagona nuqtai nazar mavjud emas. Hissiyotlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar hozirda ham o'tkazilib kelinmoqda. Hozirda to'plangan tajribaviy va nazariy material hissiyotlar tabiatining ikkilanganligidan dalolat beradi. Bir tomondan, hissiyotlar – turli psixik hodisalar, shuningdek, kognitiv jarayonlar, inson qadriyatlar tizimi tuzilmasining xususiyatlari va boshqalar kabi sub'ektiv omillar hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, hissiyotlar individning fiziologik xususiyatlari bilan belgilanadi. Hissiyotlar ma'lum seskantiruvchi ta'siri natijasida paydo bo'ladi, bu esa inson moslashishi va hulq-atvorining boshqarish mexanizmlari ifodasining xuddi o'zginasidir. Inson kayfiyati, affektlari, hislari va ehtirolari yig'indisi uning emotsional hayotini va emotsionallik kabi individual sifatni tashkil etadi. Emotsionallikni insonning hayotiga tegishli bo'lgan turli xil sharoitlardan hissiyotli ta'sirlanishga moyillik, kayfiyatdan ehtirosigacha – kuchi va sifati turlicha bo'lgan emotsiyalarni kechirish layoqati, shuningdek, emotsiyalar kuchining tafakkur va hulq-atvoriga ta'siri sifatida ta'riflash mumkin.

Shaxsning xususiyatlariga ta'rif berish ko'p holatlarda ushbu odamning nimani yoqtirishini, nimadan nafratlanishini, mag'rurlanishi, uyalishi, hasad qilishi va qayg'urishi sababini aniqlashni bildiradi. Individ barqaror hislari predmeti, ularning jadalligi va xarakteri atrofda voqealarga insonning emotsional olami, hislari va bu bilan, uning individualligini ochib beradi. S.L. Rubinshteynning yozishicha, shaxsning xarakteri va aqliy qobiliyati, qiziqishlari va boshqa odamlarga munosabatlarining barcha o'ziga xos xususiyatlari hissiyotlar va sezgilarining kamalak rangida namoyon bo'ladi va aks etadi.

Emotsionallik tug'ma bo'ladi, lekin affektlar, sezgilar hayot jarayonida rivojlanadi, bu esa insonning shaxs sifatida rivojlanishini bildiradi. Bunday rivojlanish inson emotsional sohasiga yangi ob'ektlarni kiritish, shaxs sezgilarini ongli irodaviy boshqarish va nazorat qilish darajasining oshishi ahloqiy boshqarishga yuksak ahloqiy qadriyatlar (vijdon, mas'uliyatlilik, nomus va boshqalar) ning asta-sekin kiritilishi bilan bog'liq.

Inson emotsional hayotining rivojlanishida ma'lum bo'lgan izchillik mavjud. Lekin bir davr sezgisidan keyingi davr sezgisiga o'tish shaxsning har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq. Hissiyotlar odam energiyasini to'plovchi faoliyatga nisbatan kuchli rag'bat bo'lishi mumkin, asosiysi, ularni tegishli tarzda yo'naltirishdir.

---

<sup>51</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan .548 p

Har bir inson uchun ijobiy emotsional ta'sirlanishlarni kuchaytirish va kengaytirish bilan bir vaqtda boshqa odamlar emotsional holatiga samarali ta'sir ko'rsatish malakasiga ega bo'lish juda muhimdir. Zararli emotsional ta'sirlanishlar ko'p hollarda yuqori emotsional zo'riqish vaziyatlarida, o'ta toliqqan holatlarda, frustratsiya vaqtida, odamlar ta'sirchanligida, ishlar ko'ngilgidek yurishmaganida, hayotiy muhim rejalar barbod bo'lganida yuzaga kelishini bilish va yodda tutish lozim.

### **3. Iroda haqida tushuncha. Irodaviy faoliyatning umumiy xususiyatlari**

Ma'lumki, insonning ehtiyojlari ijtimoiy tuzum shakllari taraqqiyotiga qarab o'zgaradi. Shu bois o'z ehtiyojlarini qondirish uchun inson harakat qiladi. Shaxs o'z harakatlari yordami bilan muhitga moslashadi va undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanadi. Lekin shu bilan birga odam muhitni o'z ehtiyojlariga muvofiqlashtirib o'zgartiradi, qayta quradi va o'ziga moslashtiradi. [2]

Odamning shaxs sifatidagi faollik xususiyati shundan iboratki, o'z ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan harakatlari instinktiv harakatlar emas, balki asosan oqilona, ongli harakatlardir. Bu onglilik shundan iboratki, odam oldindan biron-bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi, shu maqsadga etish uchun yordam bera oladigan vositali yo'l va usullarni oldindan qidirib topadi, to'sqinlik va qiyinchiliklarni engish uchun ongli ravishda kuch-g'ayratini ishlata oladi.

Odam faqat o'ziga xos madaniy-ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishda-gina emas, balki, tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishda ham ongli va oqilona ravishda ish tutadi.

Odam tevarak – atrofdagi narsalarni o'zgartirib o'ziga moslashtirar ekan, yangilik yaratadi, ijod qiladi, shu yangilikni tevarak-atrofdagi voqelikka qo'shadi, voqelikni o'zgartiradi va to'ldiradi. Umuman odam har doim harakat qilmasdan tura olmaydi. Ana shu jihatdan olganda odamning barcha harakatlarini ikki turkumga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi ixtiyorsiz harakatlar bo'lsa, ikkinchisi ixtiyoriy harakatlardir. [2]

Odamning ixtiyorsiz harakatlari qat'iy bir maqsadsiz, ko'pincha impul'siv tarzda, ya'ni reflektor tarzda yuzaga keladi. Masalan, yo'talish, aks urish, ko'z qovog'ini ochib yumilishi va shu kabilar. Bu harakatlarni odam oldindan o'ylab rejalashtirmaydi. Ixtiyorsiz harakatlar har qanday sharoitda yuz berishi mumkin. Ixtiyorsiz harakatlar ba'zan, odamning aqliy faoliyatlari bilan ham bog'liq bo'ladi. Chunonchi, ixtiyorsiz idrok, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda olib qolish, ixtiyorsiz esga tushirish holatlari ham bo'ladi. Bunday hollarda odamning ixtiyorsiz harakatlari idrok qilinayotgan narsaning boshqa narsalardan keskin farq qilishi yoki odamning qiziqishlari, ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi.[2]

Irodaviy harakatlarda har doim maqsad aniq bo'ladi. Odam o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqadigan natijalarni ham oldindan tasavvur eta oladi. Ana shuning uchun har qanday qiyinchiliklarni engib bo'lsa ham maqsadini amalga oshirishga intila boradi. Masalan, odam biror imorat solayotgan paytda oxirgi natija qanday bo'lib chiqishini juda yaxshi tasavvur etadi va shuning uchun qanday qiyinchiliklar bo'lsa ham engib ishni davom ettira beradi. Yoki talaba

universitetning birinchi kursiga kirganda qanday mutaxassis bo'lib chiqishini yaxshi biladi va shuning uchun barcha qiyinchiliklarga chidab o'qishni davom ettira beradi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida akti amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin.[1]

Odamning irodaviy faoliyati ob'ektiv jihatdan bog'langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog'liq ravishda irodaviy xarakterlar odam to'la ravishda javob beradigan ish sifatida boshdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli shaxs ko'p jihatdan o'zini ma'lum sharoitda anglaydi, o'z hayot yo'li va taqdirini o'zi belgilashi mumkin.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o'ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti-harakatlarni **irodaviy harakat** deb bo'lmaydi. Shu bilan birga iroda avvaldan mavjud bo'lmagan, lekin faoliyatni natijasiga erishishdan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborini qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z-o'zini engish hamdir. Bu ayniqsa, muvozanatsiz, hissiy, qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Hech bir muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi. Inson kuchli irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzod boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

#### **4. Irodaviy akt va uning tuzilishi. Shaxsning irodaviy sifatleri.**

Ixtiyoriy harakatning dastlabki boshlang'ich nuqtasi harakat maqsadining vujudga kelishi va shu maqsadning o'rtaga qo'yilishidir va uning tuzilishini

quyidagicha izohlash mumkin.

**Maqsad**-kishining shu paytda ma'qul yoki zarur deb topgan ish harakatini tasavvur etish demakdir. Masalan, inson pedagogika universitetiga kirib o'qishni zarur deb topdi yoki viloyatga ish bilan borib kelish zarurligini tushundi, deylik. Bularning hammasida kishining maqsadi o'z-o'zidan zohir bo'layotganga o'xshaydi, ba'zan esa bu maqsad bir qadar fikr yuritish natijasida yuzaga keladi.[1]

Maqsadni tasavvur qilish odatda shu maqsadga erishish istagini va zarur ishni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, u quyidagicha ifodalanishi mumkin. Ehtiyoj ko'ngildan kechib, mudom kuchaygan shu ehtiyojni qondirishga intilish maqsadi ham anglanila boshlaydi. Bunday anglanilgan ehtiyojlar **tilak-havaslar** deb ataladi. Ammo odam o'z intilishlarining maqsadini tasavvur qilganda ham shu maqsadga etishish yo'llari va vositalarini hali tasavvur qila olmasligi mumkin.

Bunday to'la anglanilmagan intilishlar (tilak, havas) ba'zan zo'r xayol surish bilan, ba'zan esa cheksiz orzu bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan (xayolparast insonlarda) bunday tilak havaslar ko'ngildan kechirish orqali orzu (fantaziya) doirasida qolib ketaveradi. Xilma-xil tilak havaslari to'lib-toshgan kishilar ham mavjud. Bu kishilar doimo xo'rsinadilar, armon qiladilar, o'zlarini ham tevarak-atrofdagi kishilarni ham tanqid qiladilar. Bu kishilar ko'pincha yaxshi orzular qilishadi-yu, amalda kam faoliyat ko'rsatishadi yoki butunlay faoliyat ko'rsatishmaydi.<sup>52</sup>[1]

**Harakat motivlari va motivlar kurashi.** Kishi biron maqsadni, ayniqsa, shu maqsadga etish uchun biron yo'l va usulni tanlar ekan, nega boshqa maqsadni emas, xuddi shu maqsadni tanlashi kerak, bu maqsadga nima uchun boshqa yo'llar bilan emas, balki mana shu yo'llar bilan hal etishi kerak degan savolni ko'ngildan o'tkazadi. Maqsadni va unga etish yo'lini tanlash jarayonida unga ma'qul yoki noma'qulligi nuqtai nazaridan baho beriladi.

Maqsadni va unga etishish yo'llarining ma'qulligi yoki noma'qulligini belgilab beradigan hamma narsa ish-harakat motivlari deb ataladi. Kishi nega boshqa bir maqsadni emas, balki xuddi shu vositalar bilan ish ko'rishni, yoki ish ko'rmoqchi bo'layotganining sababi nima degan savolga javob motiv mazmunini tashkil etadi.

Irodaviy ixtiyoriy harakatlar g'ayri ixtiyoriy (irodadan tashqari) harakatlardan farq qilib, motiv tufayli sodir bo'ladi.

**Qarorga kelish.** Maqsadga etishish yo'llarini va vositalarini tanlash jarayonida rejalashtirish, motivlar kurashi bilan bog'langan bo'lib, qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish-muayyan bir maqsadni va shu maqsadga erishish yo'lida harakat usullaridan birini tanlab olish demakdir. Motivlar kurashida buning ma'nosi shuki, motivlardan biri hal qiluvchi rol o'ynagan bo'ladi. Masalan, kechqurun qayoqqa borish kerak – teatrgami yoki o'rtog'ining yonigami-degan motivlar kurashi natijasida kishi bormoqchi bo'lgan joyi haqida qarorga keladi.

**Qarorni ijro etish.** Qaror unga muvofiq keladigan choralar ko'rish va harakat qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o'tishni ijro qilish (yoki bajarish) deyiladi. Irodaviy jarayonda eng muhim narsa-qabul qilingan qarorni ijro etishdir. Irodaviy harakatlar ikki xil bo'ladi: jismoniy va aqliy harakatlar. Jismoniy harakatlarga har xil mehnat operatsiyalari, o'yin, sport mashg'ulotlari va boshqalar kiradi. Aqliy harakatlarga esa masala echish, yozma ishlar, dars tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va shu kabilar kiradi. Ko'p vaqt takrorlanib, o'zlashib ketgan ko'nikma va odat bo'lib ketgan harakatlar ham murakkab irodaviy harakatlardandir.

Qarorni ijro etish odatda ma'lum vaqt, muddat bilan bog'liq bo'ladi. Qaror kechikmasdan belgilangan vaqtda ijro etilsa bu irodaning ijobiy sifatidan dalolat beradi. Bu esa ishchanlik, puxtalikni bildiradi.

Kishining irodaviy sifatlari ya'ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo'yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya'ni doimiy xislatlari) bo'lib qolishi mumkin. Shaxsning bu o'ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb

---

<sup>52</sup> Г.Югай. Н.Мираширова “Умумий психология” дарслик , 214б

ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo'lishi shu kishi xarakterining xislati bo'lavermaydi.

### **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Insonning maqsadga yo'naltirilgan harakat va faoliyatni bajarishda tashqi va ichki qiyinchiliklarni engish malakasida ifodalangan ongli tarzda o'z hulq-atvori va faoliyatini boshqarishi:

- a) tafakkur;
- b) iroda;
- v) diqqat;
- g) tasavvur.

2. Iroda jarayonlari qanday vazifalarning ijro etilishini ta'minlaydilar:

- a) rag'batlantiruvchi, boshqaruvchi;
- b) daraklovchi, konativ;
- v) maqsadli, tormozlovchi;
- g) bilish, mustahkamlovchi.

3. Iroda aktining psixologik tuzilishiga .... kiradilar:

- a) harakatni ijro etish istagi;
- b) harakatning anglangan maqsadlari;
- v) harakatga qaror qilish;
- g) iroda kuchi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

4. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni engib o'tish umumlashgan layoqati:

- a) ongli intizom;
- b) iroda kuchi;
- v) vazminlik;
- g) mustaqillik.

5. Bolalarda iroda sifatlarini tarbiyalashda asosiy o'rinni ... egallaydilar:

- a) ota-onalar;
- b) maktab;
- v) tengdoshlari; g) barcha javoblar to'g'ri.

### **7. MAVZU: EMOTSIONAL XOLATLAR.**

#### **REJA**

**1. Xolat psixik xodisa sifatida va uning xarakteristikasi.**

**2. Psixik xolat turlari. Stress tushunchasi va psixik zo'riqish va uni boshqarish.**

**3. Frustratsiya va bezovtalik emotsional holat sifatida.**

**7.1. Xolat psixik xodisa sifatida va uning xarakteristikasi.**

Amaliy hayotda emotsiyalar sifatida, odatda, insonning turli-tuman javob reaksiyalari – ehtirosning to'liq portlashlaridan tortib, to kayfiyatning nozik

tuslarini tushunamiz. Psixologiyada emotsiyalar deb kechinmalar shaklidagi inson hayotiy faoliyati uchun tashqi va ichki vaziyatlarni baholash va shaxsiy ahamiyatni

aks ettiradigan psixik jarayonlarga aytiladi. Hissiyotlar – yorqin sub’ektiv tusga ega bo‘lgan iski va tashqi seskantiruvchilarning ta’siriga nisbatan inson va hayvonlar javob reaksiyalari. Bundan kelib chiqadiki, hissiyotlarning ahamiyatli belgisi ularning sub’ektivligidir. Hissiyotlar evolyusiyaning moslashuvchi «mahsuloti» sifatida, odatdagi vaziyatlarda organizm hulq-atvorining biologik jihatdan umumlashtirilgan usullari sifatida yuzaga kelganlar. [1]

Hissiyotlar ehtiyojlar bilan ularning qondirilishi yoki qondirilmasligi bilan bog‘liq. Hissiyotlar ikki valentli – ular yoki ijobiy, yoki salbiy bo‘ladi. Hissiyotlar – organizmning muhit bilan o‘zaro ta’sirining mutanosibli darajasini bevosita baholash mexanizmi. Ehtiyojlar o‘rnidagi hissiyotlar harakatga yo‘naltiriladi. Ko‘plab hissiyotli ifodalarda boshlang‘ich hissiyotlarning to‘rt xili: shodlik (zavqlanish), qo‘rqinch, g‘azab va hayratlanish ajratiladi.

Hislar – bu inson ongida uning yuksak ehtiyojlarining qondirilishi yoki qondirilmasligida paydo bo‘ladigan voqelikka nisbatan munosabatining aks etishi.

Hissiyot va tuyg‘ular o‘rtasida umumiylik ko‘p, lekin farqlar ham mavjuddir. Xuddi shunday, hissiyotlar – bu kengroq tushuncha, hislar emotsional kechinmalarning ifodalanishlaridan biri. Hissiyotlar – birlamchi, hislar esa – paydo bo‘lishi, kelib chiqishi jihatidan ikkilamchi. Hissiyotlar yo‘nalishli reaksiya xususiyatiga ega bo‘lgani uchun, ular ko‘pincha, noaniq va etarlicha anglanmagan bo‘ladilar, sezgilar esa, ko‘p hollarda aniq va jism bilan bog‘liq bo‘ladilar. Hissiyotlar biologik jarayonlar bilan, sezgilar esa – ijtimoiy soha bilan bog‘liq bo‘ladilar. Bundan tashqari, anglanmaydigan soha bilan bog‘langan, sezgilar esa ongimizda maksimal darajada namoyon bo‘lgandirlar. Inson sezgilari doimo tashqi ifodalarga ega bo‘ladilar, hissiyotlar esa ega bo‘lmaydilar. Va nihoyat, hissiyotlar ko‘proq vaziyatga bog‘liq va qisqa muddatli bo‘ladilar, sezgilar esa davomliroq va yorqin ifodalangan predmetli xarakterga ega. Ular odanning ma’lum ob’ektlarga nisbatan barqaror munosabatini aks ettiradilar. Sezgilar insonning madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo‘lganlar va rivoj topganlar. <sup>53</sup>[3]

Hissiyotlar va tuyg‘ular sezgi, idrok, tasavvur, inson bilishi va faoliyati tashqarida mavjud bo‘lmaydilar. Hissiyotlar va sezgilar ob’ekt va sub’ektning juda murakkab bo‘lgan o‘zaro munosabatlarida yuzaga kelib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jismlarning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladilar. Hissiyotlar va sezgilarning o‘ziga xosligi insonning ehtiyojlari, motivlari, intilishlari, tilaklari, iroda, xarakter xususiyatlari bilan belgilanadi. Hissiyotlar va sezgilar tabiatini tushunish ularni inson hayotiy faoliyatida ko‘rib chiqishni taqazo etadi. Emotsional holatlar paydo bo‘lishining asosini insonning ehtiyojlari va motivlari tashkil etadi. Ularni qondirish maqsadni ko‘zlash, hayotiy masalarni hal etishni taqazo etadi. Ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan, ko‘zlangan maqsadlarga erishish amalga oshiriladigan real hayotiy sharoitlar emotsional kechinmalarning turli tumanligiga sabab bo‘ladi. Hissiyotlar ko‘pchilik ko‘rsatkichlari, ya’ni, sifati (ijobiy va salbiy), jadalligi (kuchli va kuchsiz), davomiyligi (qisqa muddatli va barqaror), anglanganligi, chuqurligi, irsiy manbasi, murakkabligi, bajaradigan vazifalari, organizmga ko‘rasatadigan ta’siriga qarab farqlanadi.[2]

---

<sup>53</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 530p

Hissiyotlar turlicha vazifalarni bajaradilar. Ularning boshqaruvchi, aks ettiruvchi, daraklovchi, undovchi (rag‘batlantiruvchi), mustahkamlovchi, o‘tkazuvchi, moslashuvchi, kommunikativ, hosil qiluvchi, ifodalovchi vazifalari shular jumlasidandir.

Hissiyotlar va sezgilar organizm holati va inson hulq-atvorini boshqarish vazifasini bajaradilar. Xuddi shuningdek, yaxshi so‘z jon ozig‘i deydilar. Bunda, avvalambor, muhim o‘rin tutgan insonning boshqa odamning emotsional holatiga verbal ta‘siri ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Bunda hissiyotlar va sezgilarning boshqaruvchi vazifasi namoyon bo‘ladi. Aks ettiruvchi vazifasi voqealarning umumiy baholanishi ifodalandi, sezgilar butun organizmning qamrab olgani uchun, ular ta‘sir ko‘rsatayotgan omillarning foydasi yoki zararini aniqlashga va zararli ta‘sir aniqlangunicha ta‘sirlanish imkonini beradi. Masalan, yo‘lni kesib o‘tayotgan odam undagi vaziyatga ko‘ra turli darajadagi qo‘rqinchni boshidan kechiradi. Bundan kelib chiqadiki, hissiyotlar va sezgilarning aks ettirish vazifasi insonga atrof-olamda to‘g‘ri yo‘nalish olish va jismlar, hodisalarni ularning istalganligi nuqtai nazaridan baholash imkonini yaratadi. Xabarlovchi vazifasi yuzaga keladigan kechinmalar insonga undagi ehtiyojlarni qondirish jarayonining kechishi, yo‘lida qanday to‘siqlarga uchrashi, birinchi navbatda nimalarga e‘tibor qaratishi lozimligi va h.k.lar haqida xabar berishdan iborat. Hissiyotlar va sezgilarning baholovchi yoki aks ettiruvchi vazifasi bevosita undovchi vazifasi bilan bog‘liq. S.L. Rubinshteyn ko‘rsatib o‘tganidek, «... hissiyot o‘zida jismga yoki unga teskari yo‘naltirilgan ehtiros, tilak, intilishni mujassamlashtiradi». SHunday qilib, hissiyotlar va sezgilar yuzaga kelgan ehtiyojni qondirishga erishish yok inson oldida turgan vazifala hal etiladigan yo‘lni izlash yo‘nalishni aniqlashga yordam beradi.

Mustahkamlovchi vazifa hissiyotlar va sezgilarning o‘qitishda bevosita ishtirok etishidan iborat. Kuchli emotsional ta‘sirlanishga sabab bo‘ladigan ahamiyatga molik voqealar uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi. Hissiyotlar va sezgilarning o‘tkazuvchi vazifasi motivlar raqobatida, ayniqsa, yaqqol ko‘rinadi, buning natijasida kuchli ehtiyoj aniqlanadi. Xuddi shunday, inson uchun tabiiy bo‘lgan o‘zini muhofaza qilish instinkti va ma‘lum etika me‘yorlariga rioya qilish ijtimoiy ehtiyoji o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklar o‘z mohiyatiga ko‘ra, qo‘rquv va mas‘uliyat hissi o‘rtasidagi kurashda joriy etiladi. Moslashuvchi vazifasi hissiyotlar tufayli jonli mavjudotlar o‘zlari uchun dolzarb bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishda u yoki bu sharoitlarning ahamiyatliligini ko‘rsatishlaridan iborat. Ch.Darvin fikriga ko‘ra, hissiyotlar moslashtiruvchi vosita sifatida yuzaga kelgan. O‘z vaqtida paydo bo‘lgan sezgi tufayli organizm atrof-muhitga samarali tarzda moslashib olish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, sezgilarning kommunikativ vazifasi ham mavjud. Mimika va pantomimika harakatlari insonga o‘z kechinmalarini boshqalarga etkazib berishga, o‘zlarining atrof-olam jism va hodisalariga bo‘lgan munosabatlari haqida ma‘lumot berish imkoniyatini tug‘diradilar. Mimika, tana holatlari, imo-ishoralar, ma‘noli xo‘rsinishlar, tovush ohangining o‘zgarishi «insoniy hislar tili», hissiyotlardan xabar beruvchi vosita bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sezgilarning barcha ifodalanishlarini ham oson aniqlab bo‘lmaydi.



Dahshat (57%), so'ngra nafrat (48%) va ajablanish (34%) kabi hislarni oson aniqlab olish mumkin. Kommunikativ vazifada atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham ajratish mumkin.

Hissiyotlarning umumlashtiruvchi vazifasi vaqt va fazoda bir-biriga yaqin bo'lgan alohida voqea va dalillarni birlashtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, hissiyotlar ekspressiv vazifani bajaradilar. Ko'p hollarda ular periferik xususiyatga ega bo'lgan organik o'zgarishlar (qizarish, oqarish, nafasning tezlashishi, erakning tez-tez urishi va boshqalar) bilan birgalikda kechadi, ifodali harakatlar (mimika va pantomimikada, vokallashtirish)da ifodalanadi. Kundalik hayotda ifodali harakatlar orqali biz, odatda, atrofdagi odamlarning emotsional holati, kayfiyatidagi o'zgarishlarni etarlicha aniq idrok qilamiz va baholaymiz.<sup>54</sup>[3]

Hissiyotlar insonlar hayotida o'ta muhim o'rinni egallaydilar. Xuddi shunday, hozirgi kunda hissiyotlarning organizm hayotiy faoliyati xususiyatlari bilan aloqasini hech kim inkor etmaydi. Ma'lumki, hissiyotlar ta'sirida qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, ichki va tashqi sekretiya bezlari va boshqa organlarining faoliyati o'zgaradi. Kechinmalarning ortiqcha jadalligi va davomiyligi organizmda buzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Hissiyotlar – bu juda murakkab psixik hodisalar. Ahamiyatga ega bo'lgan hissiyotlarga quyidagi emotsional holatlar turlarini kiritish mumkin: hissiyot affektlari, kayfiyatlar, ehtiroslar, stresslar, frustratsiyalar, hissiyotlarning emotsional toni, emotsional munosabat.

Affekt – sub'ekt uchun dolzarb bo'lgan hayotiy sharoitlarining keskin va kutilmaganda o'zgarishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladigan va aniq ifodalangan harakatli visseral (ichki organik) namoyon bo'lish birga kuzatiladigan kuchli va nisbatan qisqa muddatli emotsional holat. Affektiv holat ongli faoliyatning tormozlanganligi bilan ifodalanadi, sub'ekt hulq-atvorini ongli nazoratining izdan chiqishida namoyon bo'ladi. Affekt real sharoitlarda sub'ektning xavfli, ko'p hollarda kutilmaganda paydo bo'lgan vaziyatlardan mutanosib holda chiqib ketish yo'lini topa olmaslik layoqatsizligida rivojlanadi. Affektga misol tariqasida kuchli g'azab, achchig'lanish, dahshat, shiddatli quvonch, chuqur qayg'u, umidsizlik kabilarni keltirish mumkin. Affektning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu emotsional ta'sirlanishning engib bo'lmas darajada odamga qandaydir faoliyatning bajarish zaruriyatini bog'lashdan iborat, lekin bunda odamda voqelik hissi yo'qoladi.[2]

Emotsional holatning keyingi turi – bu emotsiyalarning o'zi. Emotsiyalar affektlardan davomiyligi bilan farq qiladi. Ularning boshqa alohida qirradi faqat joriy voqealarga emas, balki, taxminiy yoki yodga olinadiganlarga nisbatan ham ta'sirlanish hisoblanadi.

Emotsiyalarning mohiyatini tushunish uchun tashqi muhitning jism va hodisalarining ko'pchiligi his-tuyg'u organlariga ta'sir ko'rsatib, ularda murakkab, ko'p qirrali emotsional hissiyotlar va sezgilar va bir vaqtning o'zida ham zavqlanish, ham qoniqmaslikda ifodalanadi, sezgilarni keltirib chiqarishlari mumkin. Bundan tashqari, ko'pchilik vaziyatlarda, bir tomondan, qandaydir

---

<sup>54</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 555p

zo'riqish sezgilari, ikkinchi tomondan, hal etish, yoki engil tortish yuzaga keladi. Faoliyatning keskin damlarida, qaror qabul qilishning mas'uliyatli daqiqalarida qiyinchiliklarni bartarf etishda biz zo'riqishni his etamiz. U yaqqol ko'zga tashlanadigan faol xususiyatga ega bo'lib, faoliyat ob'ektiga e'tiboning kuchayishi, aqliy va jismoniy kuch to'plash, harakatga chanqoqlik, bizni o'rab oladigan alohida hayajon bilan birgalikda kechadi. [2]

Emotsional jarayonlarning boshqa xildagi iodalaniishi qo'zg'alish va tinchlanish hisoblanadi. Qo'zg'algan emotsional holat, odatda, faol xususiyatga ega bo'lib, faoliyat yoki unga tayyorgarlik ko'rish bilan bog'liq. Tinchlanish faoliyatning pasayishi bilan bog'liq bo'lsada, undan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Harakat faolligiga ta'sir ko'rsatishga qarab, emotsiyalar stenik va astenik turlarga bo'linadi. Stenik emotsiyalar va sezgilar faol harakatga undaydi, inson kuchlarini to'playdi. Xuddi shunday, quvonch va ilhomlanish hislari insonni energiyaviy faoliyatga rag'batlantiradi. Astenik emotsiyalar insonni bo'shashtiradi, faolligini pasaytiradi, faoliyatni to'xtatadi.

Kayfiyat – bu u yoki bu emotsiyalarning barqaror kechinmasi. Uzoq davom etuvchi, hulq-atvorni bezovchi emotsional holat. Uni individning shaxsiy tomonlarini, asosiy hayotiy hissiyotlarini, ishiga nisbatan muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik, qulay yoki noqulay sharoit, odamlar munosabatlaridagi madaniyat darajasi, ichki holat kabilarni qamrab oluvchi ta'sirlar keltirib chiqaradi. Kayfiyatda hissiyotlar va sezgilarning rag'batlantiruvchi vazifasi, ularning inson faoliyatiga ta'siri namoyon bo'ladi. Kayfiyat ijobiy yoki salbiy, ma'lum jadallik, ifodalanish, zo'riqish va barqarorlikka ega bo'lishi mumkin. [1]

Emotsiyalar va sezgilar ta'siridagi psixik faollikning eng yuqori darajasi ko'tarinkilik, eng quyisi – apatiya deb ataladi. Psixik faoliyatning salbiy ta'sirlar tomonidan sezilarsiz darajada o'zgarishi izdan chiqish holatidir. Insonning emotsional barqarorligi turli emotsiogen ta'sirlarga nisbatan hulq-atvorining turg'unligida ifodalanadi. Qiyinchiliklarga nisbatan barqarorlik, boshqa odamlar hulq-atvoriga nisbatan bardoshlilik tolerantlik (lot. – bardosh) deb ataladi.

Inson fikrlari va harakatlari yo'nalishini belgilab beruvchi barqaror, chuqur va kuchli his ehtiros deb ataladi. Ehtirolarning asosiy belgisi ularning amaliy natijaga ega bo'lishi, irodaviy va emotsional holatlarning yagonaligidir. Ehtiros insonni hislar ob'ekti haqida astoydil o'ylashga, ular asosidagi ehtiyojlarning qondirilishini to'laqonli va yaqqol tasavvur etishga, bu qondirilish yo'lida haqiqiy yoki bo'lishi mumkin bo'lgan to'siq va qiyinchiliklarni xayol qilish va har tomonlama o'ylashga majbur qiladi. Ehtirolar turg'unligi, vaqt bo'yicha insonga egalik qilish davomiyligi bilan xarakterlanadi. SHaxsning olamga nisbatan chuqur tanlangan munosabatining ifodalanishi sifatida ehtirolar ijobiy va salbiy bo'lishi mumkin.

Turli sezgilar (hidlar, ranglar, tovushlar va h.k.) biz uchun yoqimli, neytral yoki yoqimsiz bo'ladi. Hissiy ton. Hissiyot ko'pincha faqat hissiy tus sifatidagi ruhiy jarayonlarning o'ziga xos tomoni tariqasida namoyon bo'ladi. YOqimli suhbatdosh, kulguli voqea, yoqimsiz hid, zerikarli kitob, ko'ngildagi mashg'ulot, hushchaqchaq sayohat, og'ir ish kabilar. Ko'pincha emotsiyalar o'zining ta'sirchanligi bilan bir-biridan ajralib turishiga qaramay, bunday sifatni hissiy

holatlar stenik (yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, kuch degan maʼnoni anglatadi) xususiyatli deyiladi. Bunda emotsiyalar dadil xatti-harakatlarga, mantiqiy mulohazalarga, nisbiy izlanishlarga kuch quvvat, qanoat bagʻishlaydi. Emotsional javob – jismlari muhitdagi joriy oʻzgarishlarga nisbatan operativ emotsional taʼsirlanish. Goʻzal manzarani koʻrib qoldingiz – emotsional javob yuzaga keldi. Bu javob insonning emotsional qoʻzgʻaluvchanligi, emotsional tonusi bilan belgilanadi. Emotsional javobning turlaridan biri sintoniya – boshqa odamlar emotsional holatini birga qaygʻurish – insonning muhim ijtimoiy sifati hisoblanadi. Nizoli asosidagi emotsional holatlarga stress, frustratsiya, affekt kiradi.

## **7.2. Psixik xolat turlari. Stress tushunchasi va psixik zoʻriqish va uni boshqarish.**

*Stress* tushunchasining mazmuni mohiyati borasida qator taʼriflar uchraydi. Jumladan, A.V.Petrovskiy tomonidan stress–ffektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomiyligiga

koʻra kayfiyatlarga yaqin boʻlgan his-tuygʻularni boshdan kechirilishining alohida shaklidir, deb taʼrif beriladi. Professor E.Gʻozievning umumiy psixologiya kitobida yozilishicha, stress-ogʻir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar ishlarning meʼyoridan oshib, ketib xavfli vaziyatlar tugʻilganida, zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zoʻriqishlar sifatida koʻrsatiladi.<sup>55</sup>

*Stress* – inson organizmini haddan tashqari zoʻriqish natijasida paydo boʻladigan tanglik jarayonidir.

Stress koʻrinishiga qarab ikki turga ajratiladi:

*Konstruktiv* – biz turidagi (koʻpchilik orasida);

*Destruktiv* – men turidagi (yakka shaxs oʻzi bilan) kechadigan jarayon.

Stress tushunchasi kanadalik olim Gans Sele tomonidan kiritilgan, u stressni organizmning jismoniy yoki psixik jarohatni keltirib chiqaradigan taʼsirlarga nisbatan moslashish-himoya reaksiyalari yigʻindisi sifatida taʼriflagan. Stress holatining rivojlanishida G. Sele uch bosqich: a) xavotirlanish, b) qarshilik koʻrsatish, v) izdan chiqishlarni ajratdi.

Xavotirlanish reaksiyasi shok davri (MNS tushkunlik holati) va izdan chiqqan psixik vazifalarning tiklanish, shokka qarshi davridan iborat. Qarshilik koʻrsatish bosqichi (rezistentlik) stressorlar taʼsiriga nisbatan chidamlilikning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Ularning davomli taʼsirida organizm kuchi kamaya boradi, va izdan chiqish bosqichi boshlanadi, baʼzn organizm oʻlimiga olib keluvchi nuqsonli kasallik jarayonlari yuzaga keladi.<sup>56</sup>

Stress hayot uchun xavfli boʻlsada, organizm uchun zarurdir: austressda («foydali» stress) individning moslashish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Axborotli va psixik stress turlari mavjud (emotsional stresslar).

---

<sup>55</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 577p

<sup>56</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 578p

Hissiyot va sezgilarning yana bir qonuniyati – bu psixosomatik korrelyasiya, vegetativ o'zgarishlar bilan aloqa, bu organizm va inson hayotiy faoliyati vazifalarining o'zgarishiga olib keluvchi hissiyotlar ta'sirini bildiradi.

Emotsional kechinmalarning xilma-xilligi avvalambor, odamlarning kayfiyatida ifodalanadi. Emotsional jihatdan kuchsiz ta'sirlanadigan odamlarda faqat qandaydir o'ta xavotirli voqea yaqqol ifodalangan hislarni yuzaga keltiradi. Boshqa toifadagi, emotsional ta'sirchan odamlarda arzimas holat ham kuchli hissiyotlarga sabab bo'lishi mumkin. Hatto, ahamiyatsiz voqea ham kayfiyatlarini ko'tarishi yoki tushirib yuborishi mumkin.

Odamlar o'rtasida hissiyotlarning ifodalanishining chuqurligi va barqarorligi bo'yicha farqlanadigan xususiyatlar kuzatiladi. Ba'zi odamlarni hissiyotlar o'rab olib, o'zidan keyin chuqur iz qoldiradi. Boshqalarda hissiyotlar yuzaki xususiyatga ega bo'lib, oson, sezilarsiz, darhol va umuman izsiz o'tib ketadi. Odamlarda affekt va ehtiroslar ifodalanishidagi farqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda nomutanosib, o'zi va hulq-atvori nazorati yo'qotilgan, affekt va ehtirosarga beriluvchan, masalan, g'azab, jazava, xavotirga tushadigan odamlarni ajratish mumkin. Boshqa odamlar, aksincha, doimo o'zini tuta biladi, o'z hislarini, ongini nazorat qiladi.

Odamlar o'rtasidagi farqlardan biri shundan iboratki, hislar va hissiyotlar ularning faoliyatida aks etadi. Xuddi shunday, ba'zi odamlar hislar ta'sir etuvchi xususiyatga ega, harakatga undaydi, boshqalarda barchasi qator o'zgarishlarga sabab bo'lmaydigan hisning o'zi bilan chegaralanadi. Hislar sustligining yorqin shakli insonning ko'ngilchanligida ifodalanadi.

Shunday qilib, hissiyot va hislarning namoyon bo'lishidagi farqlar ma'lum odamning betakrorligi, ya'ni, uning individualligini belgilab beradi.

Oniomaniya va shopogolizm bilan bog'liq bo'lgan yana bir muammoni ko'rib chiqamiz. Oniomaniya (do'konlarga bog'liqlik) – xarid qilishga bo'lgan miyaga o'rnashib qolgan mayl, zaruriyati va oqibatlari bilan kelishmagan holda, vasvasa holatlarida kuzatiladi. Bunday bog'liqlik zamonaviy tilda – shopogolizm deb ataladi.[2]

Xarid qilishga bo'lgan nosog'lom havas, oniomaniya yoki shopogolizm, XX asrda aniqlangan o'ziga xos kasallikdir, lekin 1990-yilning boshlariga kelib, olimlar unga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Tibbiyot xodimlarining fikriga ko'ra, oniomaniya bilan sayyoramizning 10% aholisi, asosan, ayollar (90%) aziyat chekadilar. AQSHda 55 mln. odam bu kasallikka chalingan, ulardan 15 mln. surunkali shopogoliklardir.

Agar avval oniomaniyadan aziyat chekadiganlar xarid qilish maqsadida supermarket va do'konlarni kezishgan bo'lsa, endilikda ular Internet, TV-do'kon yoki rangli kataloglar orqali xarid qilyaptilar. Oniomaniya sabablari hali oxirigacha aniqlanmagan. Olimlarning taxminlariga ko'ra, shopogolizm odam organizmiga inson kayfiyatini boshqaradigan serotonin gormonining etishmovchiligi bilan bog'liq. Ba'zilar mahsulotlarni sovg'alar qabul qilishni yoqtirganlari sababidan buyurtma qiladilar. Yoki, ayol oiladagi muammolardan o'zini yupatish uchun yangi xarid bilan o'zini xursand qiladi. Sabablar turlicha bo'lishi mumkin, oqibatlari esa yirik qarzlarga borib taqaladi. Shopogolizm, olimlar fikriga ko'ra, ichkilikbozlik kabi jiddiydir.

### 7.3. Frustratsiya va bezovtalik emotsional holat sifatida.

*Frustratsiya* – tushkunlik, ma'lum maqsadga erishishda umidlarning parchalanishi bilan kechadigan inson muvaffaqiyatsizligining emotsional og'ir kechinmasi. Frustratsiya ko'p hollarda

frustratorga qarshi qaratilgan tajovuzkorlik hulq-atvor bilan bog'liq. Frustratsiya sabablari bartaraf etilmaganida, psixikaning davomli izdan chiqishi bilan bog'liq bo'lgan chuqur *depressiv holat* yuzaga kelishi mumkin (xotira, mantiqiy tafakkurga bo'lgan layoqatlarning susayishi). Frustratsiya holati inson biror chiqib ketish yo'llarini izlaydi, shirin xayol olamida beriladi, ba'zida esa tubanlashadi, ya'ni, psixik rivojlanishning dastlabki bosqichlariga qaytadi.[2]

Hissiy jarayonlarning har xil shakllari normal odamda alohida, yakka holda mavjud bo'lmaydi. Yuzlab va minglab kechirilayotgan emotsiyalar, affektlar, kayfiyatlarda aniq yashaydigan umumlashtirilgan hislar *yuksak hislar* deyiladi. Yuksak hislar o'z tarkibiga birinchi soddaroq ko'rinishdagi turli hislarni oladi.

Inson faoliyatining qaysi bir turi, yoki qaysi bir sohasi, hislarni qaysi birining asosiy ekanligiga qarab, yuksak hislarning muhim turlari: praksik , axloqiy, intellektual, estetik turlari ajratiladi. [1]

*Ahloqiy hislar* odamning boshqa kishilarga, jamoa va o'zining ijtimoiy burchlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi. Inson bu hislarni kechirar ekan, ma'lum ahloqqa, ya'ni ijtimoiy ahloq-qoidalari va normalari majmuiga asoslanib, boshqa kishilarning xatti-harakatlariga yoki ruhiy xususiyatlariga hamda o'zining xatti-harakatlariga baho beradi.

*Intellektual hissiyotlar* ham o'z mohiyati jihatidan ahloqiy hissiyotlarga yaqin bo'lgan hissiyotlardir. *Intellektual hissiyotlar* odamning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar bo'lib, biror narsadan hayron qolish, hayratda qolish, shubhalanish kabi holatlarda ifodalanadi. *Estetik hislar* ham yuksak ahloqiy hislardan hisoblanadi. *Estetik his* deganda biz go'zallikni idrok qilish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallik yaratishga intilishni tushunamiz. Estetik hissiyot hamma odamlarga xos bo'lgan hissiyotdir. Atrofdagi tabiat manzaralari estetik hissiyotlarimizning birinchi manbai hisoblanadi.<sup>57</sup>[1]

*Praksik hislar*. Inson amaliy hayotining istalgan sohasi maqsadga muvofiq aqliy faoliyatiga, shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lish sohasiga aylanib qoladi. Bu birinchi navbatda biror maqsadni anglabgina qolmay, uni e'tirof etadigan yoki inkor qiladigan maqsadlarga erishish yo'llarini baholaydigan ta'sir qilish usullari va ko'lamlarini ma'qullaydigan va ma'qullamaydigan, ularni to'g'ri tanlanganligiga shubhalanadigan, nihoyat muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik hissini kechiradigan mehnat faoliyatida kuzatiladi. Hayotiy faoliyat jarayonida muhit va irsiy shartlar asosida insonda barqaror emotsional sifatlar – emotsional xususiyatlar va xossalar shakllanadi. Shaxsning *emotsional xususiyatlariga* emotsional reaktivlik, qo'zg'aluvchanlik, affektlilik, emotsional barqarorlik, umumiy emotsional tonus, emotsional ta'sirlanishlar kuchi va ularning tashqi ifodalanishi – ekspressivlik taalluqlidir.

<sup>57</sup> Г.Югай. Н.Мираширова “Умумий психология” Тошкент 1986

**Emotsional xossalar** individning psixik ko‘rinishini belgilaydilar, shaxs emotsional tipini tashkil etadilar. Odamlar **emotsional, o‘ta ta’sirchan, ehtirosli** va **frigid** mijozlilarga bo‘linadilar. Birinchisi oson qo‘zg‘aluvchan, emotsional ta’sirchan, impulsiv; ikkinchisi – o‘z sezgilarini mushohada qilish, ulardan zavqlanishga moyil; uchinchisi – emotsional intiluvchan, o‘ta faol, maqsadga erishishda sabotli; to‘rtinchisi – aql bilan ish ko‘radilar, qayg‘urish hissi ularga yot.

Hissiyotlar va sezgilarning yuzaga kelishi va so‘nishi shartli refleks shakllanishining barcha qonuniyatlariga bo‘ysunadi.<sup>58</sup>[3]

Biror ob‘ektga nisbatan ishlab chiqilgan sezgilar ma‘lum darajada bir jinsli ob‘ektlar sinfiga ko‘chirib o‘tkaziladi. SHunday qilib, sezgilar qonuniyatlaridan biri ularning umumlashtirilganligi va **ko‘chirib o‘tkazish** imkoniyati hisoblanadi. Boshqa qonuniyat – sezgilarning davomli seskantiruvchilar ta’sirida **sustlashishi**. Xuddi shunday sevimli qo‘shiq hadeb tinglansa, yoqmay qolishi mumkin; juda ko‘p marta takrorlanadigan hazil kulgili bo‘lmay qoladi.

Ijoby hissiyotlar kabi, salbiy hissiyotlar ham so‘nishga moyil bo‘ladi. Odam ma‘lum darajada turli vaziyatlarga, shuningdek, salbiy ta’sirlar (badbo‘y hid, xunuk manzara, noqulay sharoit)larga ham ko‘nikadi.

Turli seskantiruvchilar ta’sirida yuzaga keladigan turli segilar o‘zaro taqqoslanadi va bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, **o‘zaro ta’sirlashadi**. Biror shaxsning xunuk harakatidan, xuddi shunday vaziyatdagi boshqa shaxsning oliyjanob harakati solishtirilganida taassuf hissi kuchayadi, qoniqish hissi qoniqmaslik hissidan so‘ng kuchliroq seziladi. Insonning taqdiri, azob-uqubatlari qanchalik og‘ir, muvaffaqiyatsizliklarining yakun topishi shunchalik quvonch bilan idrok qilinadi – bu **sezgilarning keskin qarama-qarshiligi**.

Sezgi qonuniyatlaridan biri – ularning **jamlanishi**. U yoki bu ob‘ekt tomonidan muntazam ravishda hosil qilinadigan sezgilar to‘planib, jamlanadi. Buning natijasida insonda ota-onaga, do‘stga, qadrdon yurtga nisbatan muhabbat va ehtiram mustahkamlanadi. Salbiy kechinmalar (hayotiy qiyinchiliklar)ning to‘planishi affekt holatiga tashqi tomondan ahamiyatsiz bo‘lgan voqeadan juda kuchli ta’sirlanishga olib kelishi mumkin.

Emotsional holatlar **o‘rin almashishi** mumkin. Xuddi shunday, biror faoliyatdagi muvaffaqiyat boshqa faoliyatdagi muvaffaqiyatsizlikning o‘rnini bosishi mumkin.

Hissiyotlarning yana bir qonuniyati – ularning **o‘zgaruvchanligi** hisoblanadi. Biror ob‘ekt yuzasidan qondirilmagan hissiyotlar boshqa ob‘ektlarga (barchaga «zarar o‘rnini to‘ldirish» hodisasi) o‘tkazilishi mumkin.

**Ambivalentlik** – lotincha har tomonlama kuchga ega ma‘nosini anglatib kishining bir ob‘ektning o‘ziga nisbatan bir vaqtning o‘zida paydo bo‘ladigan bir-biriga qarama – qarshi emotsional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo‘shilib va biri ikkinchisiga o‘tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo‘lish kechiriladigan

---

<sup>58</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 569 p

hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Hissiyot va sezgilarning yana bir qonuniyati – bu *psixosomatik korrelyasiya*, vegetativ o'zgarishlar bilan aloqa, bu organizm va inson hayotiy faoliyati vazifalarining o'zgarishiga olib keluvchi hissiyotlar ta'sirini bildiradi.

### **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Odam va hayvonlarning ichki va tashqi seskantiruvchilardan yorqin ifodalangan sub'ektiv tusga ega bo'lgan ta'sirlanishi:

- a) hissiyot;
- b) emotsiya;
- v) sezgi;
- g) tafakkur.

2. Inson sezgilari – bu:

- a) hissiyot jarayonining emotsional toni;
- b) individning organik holati;
- v) organik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liq bo'lgan sezish;
- g) barcha javoblar noto'g'ri.

3. Emotsional jarayonlar va holatlarning organizm hayotida bajaradigan vazifalari:

- a) faqat moslashuvchi;
- b) faqat safarbarlikka oid;
- v) faqat moslashuvchi va integratsiyalovchi;
- g) moslashuvchi, safarbarlikka oid va integratsiyalovchi.

4. Emotsional holatlar:

- a) kayfiyat, ruhlanish, ehtiroslar, affektlar, stresslar;
- b) qiziqish, kechinma, barqarorlik, insonparvarlik;
- v) muhabbat, shubha, ajablanish, hazil, jadallik;
- g) nafrat, hayajon, uyalish, do'stlik, ehtiyojlar.

5. Psixik holatlarning aqliy, irodaviy va emotsional turlarga bo'linishi uchun asos:

- a) hissiyotlar hosil bo'lishida shaxs va vaziyatning o'rni;
- b) dominant (etakchi) tarkibiy qismlar;
- v) kechish vaqti;
- g) chuqurlik darajasi.

### **8. MAVZU: SEZGI, SEZUVCHANLIK.**

#### **REJA**

1. Sezgilarning haqida umumiy tushuncha. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari.
2. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, sezgi soxasidagi qonuniyatlari.
3. Sezgi sezuvchanlik psixologik asosi haqida qisqacha xulosa.

### **8.1. Sezgilarning umumiy tushunchasi. Sezgilarning nerv-fiziologik asoslari.**

Ma'lumki bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. *Masalan*, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va

boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz. [1]

Tashqi olamdan bizni tanamizga milliard qo'zg'ovchilar hujum qiladi. Bizning qorong'i ichki dunyoimizda esa sirli miyamiz ishlaydi. Bu fakt esa psixologiyaning yuqori ming yildan ortiq fundamental muammosini ko'taradi. Masalani echishda bundan yuz yil avval psixologiya fan sifatida rivojlandi: Atrof muxitimizni o'rab turgan siymolar miyamizga tushadi?

Zamonaviy tilda esa uni quyidagicha talqin qilsa bo'ladi: tashqi olam haqidagi tasavvurlarimizni qanday tuzishimiz; lagerdagi gulxanni yonishidan chiqayotgan tutunining aktiv neyron zanjirlariga aylanishi? Qanday qilib biz tirik neyroximiyadan olovni o'lqinini, temperaturasini hamda olovni tutunini hidini anglaymiz? Miyamizda dunyoni rasmini aks ettirishimiz uchun, tashqi dunyoni fizikaviy energiyasini bilishimiz va uni nerv signallari shaklida kodlashimiz, va bu jarayon an'anaviy sezgi deyiladi. So'ng esa biz buni olib biz o'z sezgilarimizni tashkil qilishimiz va sharxlashimiz, va bu jarayon an'anaviy idrok deyiladi. Bizning kundalik amaliyotimizda sezgi va idrok uzilmas bir jarayonga aytiladi. 5 chi va 6 chi boblarda biz ikkala qismini birlashgan jarayonini ko'rib chiqamiz. [1]

Biz bu bobni sensor retseptorlardan boshlab, yuqori darajadagi ma'lumotlarni ishlanmalarini ko'rib chiqamiz. Kirish qismidagi sensor analiz, psixologiyada ma'lumotlarni sxema bo'yicha pastdan yuqoriga qarab ishlash deb nomlanadi. Sezgi jarayonining buzilishi xar erda bo'lishi mumkin bu sensor retseptordan boshlab to'liq interpretatsiyada tugaydi. Masalan, inson ko'zida katarakta bilan tug'lsa uni ko'zlari yorug'likni ko'rmaydi, bu jarayonda eng murakkab mexanizm ishlasa xam ko'rish ma'lumotlarini bilolmaydi. Miyasi shikastlangan bemorlarda ham qandaydir sezgi va idrok zanjirlari bor. Miya po'stlog'ining chakka qismi buzilganda, inson yuzini tanish javobgarligi yo'qoladi va bu kasallik *prosopagnoziya* deb nomlanadi. Unda sezgilari normal, lekin idroki normal emas. U ma'lumotlarni ko'rib qabul qila oladi va insonni yuz tuzilishini xarakterlab bera oladi, lekin uni taniy olmaydi. Unga notanish chexrani ko'rsatishganda u bunga e'tibor beraydi. Unga tanish chexrani ko'rsatishganda, avtonom nerv sistemasi reaksiyasi shuni ko'rsatadiki u xavotirlanadi va terlashni boshlaydi, lekin bu inson kimligini aytib bera olmaydi. U o'z chexrasini ko'zguda ko'rganda, yana shu chalkashlikga keladi. Miyani buzilganligi sababli, u ma'lumotlarni sxema bo'yicha tepadan pastga qrab ishlolmaydi – to'plangan bilimlarni sensor ma'lumotlar bilan bog'lay olmaydi. <sup>59</sup>[3]

Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. CHunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi

---

<sup>59</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 254p



natijasida ko‘rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to‘lqinlarining qulog‘imizga ta‘sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo‘shlig‘iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta‘siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo‘limiz yoki badanimizga tegib ta‘sir etish natijasida teri (taktil – biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo‘ladi.

Demak, **sezgi** deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a‘zolarimizga bevosita ta‘sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz.

Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo‘lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo‘zg‘atuvchilarning muayyan retseptorlarga bevosita ta‘sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma‘lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o‘tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo‘lgani bilan uning yuzaga kelishi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

Sezgi a‘zolariga ta‘sir etadigan narsa va hodisaning bo‘lishi.

Sezuvchi apparat, ya‘ni analizatorning mavjud bo‘lishi. *Masalan*, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz.

Sezgi idrok bilan bog‘liq bo‘ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a‘zolarimizga ta‘siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to‘plab, har bir sekunda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga etkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o‘z ichki holatini adekvat “mos” aks ettirishi hosil bo‘ladi. Sezgi a‘zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo‘llaridan biridir.

### **Sezgilarning nerv – fiziologik asoslari**

Ma‘lumki, sezgilar faqatgina tashqi ta‘sirlar natijasida hosil bo‘lmay, balki organizmning ichki holatida ham amalga oshiriladi. Sezgi nerv tizimining u yoki bu qo‘zg‘atuvchidan ta‘sir lanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo‘ladi va har qanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Sezgilarning nerv – fiziologik asosini qo‘zg‘atuvchining o‘ziga aynan o‘xshaydigan analizatorga ta‘siri natijasida hosil bo‘ladigan nerv jarayoni tashkil qiladi. SHuningdek, sezgilarning nerv fiziologik asosini o‘rganishda I.P.Pavlov ta‘biri bilan aytganda analizator apparati tashkil etadi.[2]

**Analizator** – tashqi va ichki muhitdan keladigan ta‘sirotlarni qabul qilib olib, fiziologik jarayon bo‘lgan qo‘zg‘alishni psixik jarayonga, ya‘ni sezgilarga aylantiruvchi nerv mexanizmlari tizimi. Analizator apparati 3 qismdan tashkil topgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- periferik (retseptor) – tashqi quvvatni nerv jarayoniga o‘tkazadigan maxsus transformator qismi;
- analizatorning periferik bo‘limining markaziy analizator bilan bog‘laydigan yo‘llarni ochadigan afferent (markazga intiluvchi) va efferent (markazdan qochuvchi) nervlar;

- analizatorning periferik bo‘limlaridan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo‘ladigan qobiq osti va qobiq bo‘limlari.[2]

Analizatorning qobiq bo‘limida retseptor hujayralarining asosiy qismi jamlangan o‘zak, ya’ni markaziy qism va qobiqning turli joylarida ma’lum miqdorda mavjud tarqoq hujayra qismlaridan tarkib topgan tashqi qism bo‘ladi. Analizatorning o‘zak qismida retseptordan markazga intiluvchi nervlar joylashgan bo‘lib, ko‘plab hujayralardan iborat. Mazkur analizatorning periferik, ya’ni tarqalib ketgan qismlari boshqa analizatorlarning o‘zaklari bilan yondosh sohalariga kiradi va alohida narsalarni izlash jarayonida butun bosh miya qobig‘ining katta qismi ishtirok etishiga erishiladi. Analizatorning o‘zagi analiz va sintez qilish funksiyasini bajaradi, *masalan*, tovushlarning balandligi.[2]

Tarqoq qismlar dag‘al analiz funksiyalarni, masalan musiqiy ohang va tovushlarni farqlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Analizator nerv jarayonlarining yoxud reflektor yoyining butun yo‘li manbasi va eng muhim qismini tashkil etadi. Reflektor yoyi retseptordan ta’sirotni miyaga olib boruvchi nerv yo‘llari va effektordan tarkib topgandir. Reflektor yoyi elementlarning o‘zaro munosabati murakkab organizmning tevarak-atrofdagi olamda to‘g‘ri mo‘ljol olishning organizmning yashash sharoitlariga muvofiq tarzda faoliyatining negizini ta’minlaydi.<sup>60</sup>

## 8.2. Sezgilarning tasnifi, sezgilarning turlari, sezgi soxasidagi qonuniyatlari.

Sezgilari qaysi a‘zolar yordamida hosil qilinishiga qarab, quyidagi turlarga, ya’ni ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘m bilish, teri, muskul–harakat, organik sezgilarga ajratiladi. Ular sezgi a‘zolari qayerda joylashganligiga qarab tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasi fanining so‘nggi yutuqlari hamda atamalariga binoan sezgilari quyidagicha klassifikatsiya qilinadi. Ushbu tasniflanishning dastlabki ko‘rinishi ingliz olimi CH.SHerringtonga taalluqlidir. U retseptorning qayerda joylashganligiga qarab, sezgilarni uch turga bo‘ladi.

1. Tashqi muhitdagi narsa va hodisalarning xususiyatlarini aks ettirishgamoslashgan hamda retseptorlari tananing sirtqi qismida joylashgan sezgilari, ya’ni **ekstroretseptiv** sezgilari;
2. Ichki tana a‘zolari holatlarini aks ettiruvchi hamda retseptorlari ichki tana a‘zolarida, to‘qimalarda joylashgan sezgilari, ya’ni **interoretseptiv** sezgilari.
3. Tanamiz va gavdamizning holati hamda harakatlari haqida ma’lumot (axborot, xabar) beruvchi muskullarda, bog‘lovchi paylarda, mushaklarda joylashgan sezgilari, ya’ni **proprioretseptiv** sezgilari.

Sezgilarning tasnifi va bu boradagi tadqiqotlarni tahlil qilamiz. Dastlabki mulohazalar interoretseptiv sezgilari u borasida rus psixologi A.R.Luriya tadqiqot ishini olib borgan. Uning fikricha, interoretseptiv sezgilari asl, tub, ma’nodagi sezgilari emas, balki emotsiyalar bilan sezgilari o‘rtasidagi oraliq sezgilari sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologiya fanida mazkur sezgilari to‘la o‘rganilmaganligi sababli uni “noma’lum hislar” deb atalgan. Bu asosan ichki organlarning

<sup>60</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 255p

xastaliklarida vujudga keluvchi holatlarni diagnostika qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.<sup>61</sup>

Interoretseptiv sezgilar insonning kayfiyatida, emotsional reaksiyalari o'zgarishida ko'zga tashlanadi, bolada esa xatti-harakatning keskin o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki bola tana a'zolaridagi ichki holatini anglash, his qilish imkoniyatiga ega emas. SHuning uchun undagi xatti-harakatning umumiy o'zgarishi belgilardan buni sezish mumkin.

Interoretseptiv sezgilar organizmdagi ichki jarayonlarni o'zaro o'rin almashtirish muvozanatini ta'minlab turishning asosi hisoblanadi. Bu jarayonni bir so'z bilan aytganda, organizmdagi jarayonlarni o'zaro o'rin almashib turishning gemostazi (barqarorligi) deb ataladi. SHuningdek, mazkur sezgilar insonda yuzaga keladigan puls, zo'riqish, affekt holatlarini yo'qotish, tug'ilib kelayotgan mayllarni qondirish bilan bog'liq vazifani bajaradi. Natijada ichki tana a'zolarining faoliyatini izdan chiqarish holati yuz berishi mumkin.

Interoretseptiv sezgilarning fiziologik mexanizmlari intero-sepsiya bilan birgalikda K.M.Bikov, V.N. Chernigovkiylar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ularning fikriga ko'ra, bu narsalarning barchasi shartli reflektor faoliyati mexanizmlaridan kelib chiqadi

Proprietseptiv sezgilar gavdaning fazodagi holati to'g'risida signallar bilan ta'minlab turadi. Ular inson harakatining boshqaruvchisi hisoblanib va afferent asosini tashkil qiladi.

Preferik retseptorlar muskullar, pay va bo'g'imlarda joylashgan bo'lib, maxsus tanachalar shakliga ega va ular Puchchini tanachalari deb ataladi.

Tanachalarda vujudga keluvchi qo'zg'atuvchilar muskullarning harakatlashuvi natijasida va bo'g'imlar holatining o'zgarishi, nerv tolalari yordamida, orqa miyaning orqa ustunidagi oq suyuqligiga etkaziladi. Qo'zg'ovchilar Burdax va Goll yadrosining quyi bo'limlariga etib keladi va undan po'stosti tugunchalaridan o'tib, bosh miya katta yarim sharining qorong'ulashgan zonasida harakatlarini yakunlaydilar.

Proprietseptorlar harakatning afferent asosi ekanligini A.Orbeli tomonidan, hayvonlarda P.K.Anoxin, odamlarda esa N.A.Bernshteynlar tomonidan o'rganilgan.[1]

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra, gavdaning fazodagi holati, sezgirligi **statik** sezgilarda o'z ifodasini topadi. Uning markazi ichki quloq kanallarida joylashgan bo'lib, ular o'zaro bir-biriga perpendikulyar bo'shliqda tutash holatda yotadi. [1]

Masalan, bosh holatining o'zgarishi quyidagi sxemada ko'rish mumkin:

- a) endolimfa suyuqligiga bog'liq qo'zg'alish;
- b) eshitish nervi;
- v) vestibulyar nervi;
- g) bosh miya po'stining chakka bo'lmasi;
- d) miya apparatiga o'tadi;

---

<sup>61</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 254p

Vestibulyator sezgi apparati ko‘rish bilan bevosita aloqada bo‘lib, fazoni mo‘ljalga olish (orientirlash) jarayonida ishtirok etadi.

*Masalan*, avtomobil yo‘lidan o‘tish va hokazo. Bu jarayon patologik holatda ham uchrashi mumkin.

Ekstroretseptiv sezgilar intermodal, nospetsifik sezgi turkumlariga ham ajratiladi. Masalan, eshitish organi orqali 10-15 sekundga tebranishni sezish mumkin, lekin quloq bilan emas, balki suyaklar yordamida (miya qopqog‘i, tirsak, tizza uchlari) payqash – **vibratsiya** sezgilari deyiladi. Masalan, karlarni tovushlarni idrok qilishi. Odatda vibratsion sezgirlik intermodal sezgi deb ham nomlanadi. Uning quyidagi ko‘rinishlari ham mavjud:

- a) hid, ta‘m va maza sezgilarida;
- b) o‘ta kuchli tovushda, o‘ta yorqin yorug‘likda;
- v) uch xil ta‘sirning uyg‘unlashgan integrativ holatida;

*Sezgining nospetsifik shakliga terining foto sezgirligi kirib, u ranglarni, nozik jumalarni ajratish, qo‘l uchlari bilan sezish orqali ro‘yobga chiqadi. Terining foto sezgirligi A.N.Leontev tomonidan kashf qilingan bo‘lib, bu narsa ko‘pgina holatlarga oqilona yondashish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tadqiqot asosan qo‘l uchiga yashil va qizil ranglarni yuborish orqali amalga oshirilgan. Terining foto sezgirligi tabiati psixologiyada etarli darajada o‘rganilmagan.*

#### **Sezgi turlari**

Psixologiya fanida uchta katta guruhga ajratilgan sezgilar (ekstroretseptiv, proprioretseptiv, introretseptiv) o‘z navbatida quyidagi turlarga ajratiladi:

5. Ko‘rish sezgilari;
6. Eshitish sezgilari;
7. Hid bilish sezgilari;
8. Ta‘m bilish sezgilari;
9. Teri sezgilari;
10. Muskul – harakat (kinestetik);
11. Statistik sezgilar;
12. Organik sezgilar;

#### **Ko‘rish sezgilari**

Insonlar tomonidan rang va yorug‘likni sezish ko‘rish sezgilari orqali amalga oshadi va seziladigan ranglar **xromatik** va **axromatik** turlarga bo‘linadi. Psixofiziologik qonunga ko‘ra yorug‘lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o‘tib singanda hosil bo‘ladigan rang **xromatik ranglar** deb atalib, ularga kamalak ranglar, ya‘ni qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha tuslarini qamrab oladi. Odatda oq rang, qora rang, kulrang va ularning turlicha ko‘rinishlari **axromatik ranglar** deb nomlanadi.

Ko‘rish sezgilarining organi ko‘z hisoblanib, u ko‘z soqqasi undan chiqib keladigan ko‘ruv nervlaridan tashkil topgan bo‘lib, ko‘z soqqasini tashqi tomirlari va to‘r pardalari o‘rab turadi. Tashqi pardaning tiniq bo‘lmagan oq qismi sklera yoki qotgan qattiq parda deb nomlanadi. Uning old tomoniga joylashgan bir muncha qavariq qismi tiniq mugus parda bo‘lib, uning oldingi qismi rangdor parda deb ataladi. Mazkur pardaning rangiga binoan uning tovlanishiga qarab, odamlarda

ko'z ko'k, qora kabi jilva beradi. Rangdor pardaning o'rta qismida yumaloq tiniq modda bo'lib, uni qorachig' deb ataymiz va u orqali ko'z ichiga yorug'lik nurlari kiradi.<sup>62</sup>[3]

Ko'zlarning uchinchi pardasi to'r parda deb nomlanib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachig' bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq jism ko'z gavhari joylashgan bo'ladi. YOrug'lik nurlari unda to'planib, so'ng sinadi va to'r pardaga narsa yoki jismning aksi, surati tushadi.

Ko'z soqqasining gavhari bilan to'r parda o'rtasidagi butun ichki yuzasi shishasimon jism deb nomlanuvchi maxsus tiniq suyuqlik bilan qoplangan bo'ladi. To'r parda rang va yorug'likni sezish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda ko'ruv nervining tarmoqlari joylashgandir. Ushbu tarmoqlarning chekkadagi uchlarida tayoqcha va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv xujayralari mavjuddir. Inson ko'zini to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqchalar va kolbachalar deb ataladigan maxsus nerv hujayralari mavjuddir. Inson ko'zining to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga yaqin kolbacha bor deb taxmin qilinadi. Kolbachalar yordami bilan xromatik, ya'ni kunduzgi ranglar ko'riladi.

Tayoqchalar yorug'likni yaxshi sezuvchan bo'lib, xira va qorong'u paytlarda o'z funksiyasini bajaradi, axromatik ranglarni aks ettiradi.

To'r pardaning eng sezgir joyi – sariq dog'ning asosan, kolbachalar bilan markaziy chuqurchasi hisoblanib, unga qaysi narsaning aksi tushsa, xuddi shuni hammadan ravshanroq ko'ramiz. Obektga tik qarash natijasida ko'z muskullari unga qaratiladi va aks ettiruvchining sur'ati sariq dog'ga tushadi. Bunday tarzda ko'rish to'g'ri ko'rish deyiladi.

Odam ko'zi ranglarning taxminan, 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlarning ta'sirini sezadi.

Uch rangli sezgi nazariyasining asosiy qoidalari 1756 yilda M.V.Lomonosov tomonidan bayon qilingan bo'lsa, 1856 yildan keyin nemis fizigi G.Gelmgols tomonidan uni to'la isbotlab berilgan.[2]

Ushbu nazariyaga binoan to'r pardaning kolbachalarida uchta asosiy element mavjuddir, ulardan birining qo'zg'alishi qizil rang sezgisini, ikkinchi qo'zg'alishi yashil rang sezgisi va uchinchi qo'zg'alishi binafsha rang sezgisini hosil qiladi. Nazariyaga ko'ra yorug'lik to'lqinlari birdaniga uchta elementni bir xilda qo'zg'atsa, oq rang sezgisi vujudga keladi. Lekin yorug'lik to'lqinlari ikki yoki uch elementga ta'sir qilsa-yu, ammo bu bir tekis kechmasa, u holda sezuvchi elementlardan har birining qanchalik qo'zg'aluvchanligiga qarab, har xil rang sezgilari namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon psixologiyasida ranglarni sezish yolg'iz to'r pardasidagi jarayonlar bilangina emas, balki miya po'stida yuzaga keladigan boshqa jarayonlar bilan ham bog'liq ekanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjuddir. Zamonaviy ma'lumotlarga binoan tayoqchalarda ko'rish purpuri degan maxsus modda borligi

---

<sup>62</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 264p

isbotlangan. Ko'zga yorug'lik ta'siri etganda ko'rish purpuri kimyoviy yo'l bilan parchalanib, tarkibiy qismlarga bo'linadi va mazkur jarayon ko'rish nervini qo'zg'atib, yorug'lik sezgisini hosil qiladi va qorong'ulikda esa purpur funksional holatini qayta tiklaydi.[1]

### **Eshitish sezgilari**

Eshitish sezgilari tovushlarni eshitishdan iborat bo'lib, musiqaviy va shovqinli tovushlarni aks ettiradi. Odatda tovushlar oddiy va murakkab turlarga ajratiladi, ularning birinchisi tonli, ikkinchisi esa bir necha tondan tashkil topadi. Tonlardan biri asosiy ton hisoblanib, u tovushning balandigini, kuchini belgilaydi, boshqalari keluvchi tovushlar sanalib, ular obertonlar deyiladi. Musiqa asboblardan taralayotgan tovushlarning o'ziga xosligi fan tilida tembr deb ataladi. Hatto nutq tovushlari ham ohangli tovushlar (unli tovushlar) yoki shovqinlardan (undosh tovushlar) tashkil topgan bo'ladi.

Eshitish sezgilari organi quloq bo'lib, tashqi quloqlar suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. O'sha quloqlar nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha, sopdan va uzangidan tashkil topgan. Ichki quloq (quloq labirinti) o'zaro birlashmagan uchta bo'lakdan tuzilgan.<sup>63</sup>[3]

Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi karnay vazifasini bajaradi. Nog'ora parda va unga yopishgan suyakchalar havo to'lqinlarini ichki quloqqa uzatadi. O'rta quloq maxsus yo'l orqali og'iz va burun bo'shlig'i bilan tutashgan bo'ladi. Ichki quloqlarning yuqori qismi uchta yarim doira kanalidan, o'rta qismi kameradan va pastki qismi chig'anoqdan tashkil topgan.

Ichki quloqlarning uchchala bo'limi endolimfa nomli suyuqlikdan iboratdir. Ichki quloqlarning asosiy qismi chig'anoqdan iborat bo'lib, uning ichida kortiy organ mavjud, u gumbaz shakliga ega bo'lib, asosida membrana joylashgan. Membrana uzunligi qisqarib boruvchi elastik tolalardan iborat bo'lib, ular tarang tortilgan to'rlarga o'xshaydi. Uning yuqori qismida maxsus, tayoqchasimon hujayralar mavjud va ular kortiy dugalari deb yuritiladi. Membrananing tolalari endolimfaga ingichka qo'llari bor maxsus hujayralar yordamida korniy dugalari orqali katta yarim sharlar po'stining bo'lagida joylashgan.[2]

Havo to'lqinlarining harakati tufayli tovush chiqaruvchi jismlar tebranganida eshitish sezgilari hosil bo'ladi. Agar musiqaviy tovushlar havo to'lqinlarining sekin harakatlari natijasida vujudga kelsa, shovqinli tovushlar esa ularning notekis harakatlari natijasida yuzaga keladi. Odamning eshitish organi bir sekundda 16 martadan 20000 martagacha tebranishli tovushlarni qabul qiladi.

### **Hid bilish sezgilari**

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi va ularning organi burun kavagining yuqori tomoni hisoblanib, bu erda hid bilish hujayralari hamda sezuvchi nerv tarmoqlari joylashgan. Ular shilliq pardalarda botib turadi.

Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida mavjud deb taxmin qilinadi. Hidli

---

<sup>63</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 271p

moddalar hid bilish hujayralariga gaz holatida ta'sir etib, kimyoviy reaksiyalar yo'li bilan ularni qo'zg'atadi. Oddiy gaz holatidagi hidli moddalar havo bilan nafas olish jarayonida burun havosiga kirib keladi, natijada aks ettirish holati hosil bo'ladi.[1]

### **Ta'm bilish sezgilari**

Ta'm bilish sezgilari shirin, achchiq, nordon, sho'r singari mazalarni his qilish bilan tavsiflanadi. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidan tashkil topgan. Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari mavjud bo'lib, ularning tarkibi tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish "kurtaklari"ga ega. Ta'm bilish so'rg'ichlari til yuzasida bir tekis taqsimlanmaganligi uchun uning orqa qismi achchiqni, uchi shirin mazani, chetlari esa nordon mazani sezadi. Lekin ularning o'rtasi bo'lsa mazani aks ettira olmaydi. Ta'm bilish so'rg'ichlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari joylashgan, ular ta'm bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga uzatib turadi, uning markazlariga yaqin joylashgan.[2]

### **Teri sezgilari.**

Teri sezgilari tarkibi tuyish va harorat turlaridan iborat bo'lib, ularning bunday nomlanishining bosh omili bu retseptorlarning tarkibi va organizmning tashqi shilliq pardalarida joylashganligidadir.

Tuyish sezgilari ikki xil axborotni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lib, birinchisi tegish va tarqalishini tuyish sezgilari, ikkinchisi esa silliq yoki g'adir – budurni tuyish bilan tavsiflanadi. Odatda tana a'zosiga narsalarning tegishini sezish tashqi qo'zg'atuvchi kuchayganda siqiq sezgiga aylanadi, u yanada kuchayganda og'riq sezgisiga aylanadi.[2]

Tuyish sezgilari organi teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyish tanachalari deb nomlanuvchi tanachalardan iborat. Tanachalarning ichida va qisman tashqarisida tuyish nervining chekka tarmoqlari mavjud, ular terida va shilliq pardalarda bir tekis taqsimlangan, barmoqlarning uchlarida til uchida labda zich joylashgan, xuddi shu boisdan sezgirlik darajasi boshqalardan yuksakroqdir.

Psixologiyada tuyish tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari zichligi ekstziometr asbobi yordami bilan o'lchanadi. Asbob keriladigan ikki oyoqli sirkuldan tashkil topgan, bo'lib, uning o'zagidagi darajalar oyoqlarning uchlari o'rtasidagi masofani o'lchaydi.

Tuyish sezgilarining markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy nuqtasida joylashgan deb taxmin qilinadi. Tuyish sezgilarining tashqi, ya'ni fizik sababi bu biron- bir narsalarning teriga bevosita tegishidir.

### **Muskul – harakat sezgilari, statik sezgilar**

Muskul-harakat sezgilari motor sezgilar deb nomlanib, ularga og'irlikni, qarshilikni, organlar harakatini bilish sezgilari kiradi. Ularning organlari–gavda muskullari, paylar, bo'g'imlardan iboratdir. Organlarning tarkibida sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari mavjud bo'lib, ularning ta'sirida harakat va statik sezgilar vujudga keladi.

Muskul – harakat sezgilarining fizik sababi muskullarga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi va gavda harakatlaridir.

Statik sezgilar gavdaning fazodagi holatini sezish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi.[1]

Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat retseptor vazifasini bajaradi. Vestibulyar apparat quloq dahlizi yarim doira kanallaridan tashkil topgan bo'ladi, sezuvchi nerv tarmoqlari esa gavdaning fazodagi harakatini va holatini boshqaradi. Gavda muvozanatini saqlashda alohida ahamiyat kasb etib, ular endolimfada suzib yuradigan mayda ohaktosh kristallardan tashkil topgan.

### **Organik sezgilar**

Organik sezgilarning retseptorlari ichki organlarda, qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda joylashgan bo'ladi. Ichki organlardagi jarayonlar organik sezgilar retseptorlarining qo'zg'atuvchi-laridir.

Ularga quyidagilar kiradi;

- a) Og'riq sezgilar;
- b) chanqoq sezgilari;
- v) noxush tuyg'ular;
- g) ochlikni sezish.

Analizatorlar sezuvchanligining faoliyatdagi seskantiruvchilarga ko'nikishining ta'siri ostida o'zgarishi **moslashish** deb ataladi. Bunda umumiy qonuniyat quyidagidan iborat bo'ladi: kuchli seskantiruvchilardan kuchsizlariga o'tishda sezuvchanlik oshadi, kuchsizlardan kuchlilarga o'tishda – kamayadi. Turli analizatorlar tizimlarining moslashish darajasi bir xilda bo'lmaydi: yuqori moslashish taktil, haroratli, hid bilish va ko'rish sezgilarida, zaif moslashish – eshitish va og'riq sezgilarida kuzatiladi. Ularning orasidan hid bilish va taktil analizatorlar tez fursatda moslashadilar. Yod hidiga to'liq moslashish bir daqiqadan so'ng yuz beradi. uch soniyadan so'ng bosim sezgisi seskantiruvchining 1/5 kuchini aks ettiradi. Qorong'ilikka to'liq moslashish uchun 45 daqiqa kerak bo'ladi.

A.V. Petrovskiy tahririyati ostida chop etilgan darslikda moslashish hodisasining uch xil turi keltiriladi: seskantiruvchining davomli ta'sirida sezgining to'liq g'oyib bo'lishidagi **moslashish**; kuchli seskantiruvchi ta'siri ostida sezgining susayishidagi **moslashish**. Moslashishning bu ikki turini «salbiy moslashish» atamasi ostida birlashtiradilar, chunki buning natijasida analizatorlarning sezuvchanligi kamayadi; kuchsiz seskantiruvchi ta'sirida sezuvchanlikning oshishi ham **moslashish** deb ataladi. Moslashishning bu turi ijobiy moslashish hisoblanadi. Bu turga, masalan, qorong'ilik ta'sirida ko'rish analizatori sezuvchanligining oshishida kuzatiladigan qorong'ilikka moslashish kiradi.

Moslashish hodisasini retseptor faoliyatida seskantiruvchining davomli ta'siri ostida sodir bo'ladigan chetki o'zgarishlar yordamida tushuntirish mumkin. Ma'lumki, yorug'lik ta'sirida ko'z to'r pardasi tayoqchalaridagi ko'rish to'q qizil rangi o'chib ketadi. Qorong'ilikda esa, aksincha, qizil rang tiklanadi, bu sezuvchanlikni oshiradi.

Moslashish hodisasi analizatorlarning markaziy bo'limlarida kechadigan jarayonlar yordamida ham tushuntiriladi. Uzoq vaqt davomidagi qo'zg'alish natijasida bosh miya po'slog'i sezuvchanlikni kamaytiradigan ichki himoya



tormozlanishi kuzatiladi. Tormozlanishning rivojlanishi boshqa o'choqlarning kuchli qo'zg'alishini keltirib chiqaradi, bu esa yangi sharoitlarda sezuvchanlikning oshishiga yordam beradi.

Moslashish maqsadga muvofiq bo'lgan biologik ahamiyatga ega. U kuchsiz seskantiruvchilarni aks ettirishda qatnashadi va analizatorlarni kuchli seskantiruvchilar ta'siridan himoya qiladi.

Sezgilar jadalligi faqat seskantiruvchining kuchi va retseptor moslashishining darajasiga bog'liq bo'lmay, ma'lum vaqtda boshqa his-tuyg'u organlariga ta'sir ko'rsatuvchi ta'sirlarga ham bog'liqdir. Boshqa analizator faoliyati ta'sirida analizator sezuvchanligining o'zgarishi sezgilarning *o'zaro ta'siri* deb ataladi. Sezuvchanlikning o'zgarishi analizatorlar o'rtasidagi po'stloq orqali aloqalari, yuqori darajada bir vaqtdagi induksiya qonuni bilan tushuntiriladi. I.P. Pavlov bo'yicha, kuchsiz seskantiruvchi katta yarim sharlar po'stlog'ida oson tarqaluvchi (irradirlovchi) qo'zg'alish jarayonini hosil qiladi. Qo'zg'alish jarayonining irradiatsiyasi natijasida boshqa analizatorning sezuvchanligi oshadi. Kuchli seskantiruvchi ta'sirida, aksincha, jamlanishga moyil bo'lgan qo'zg'alish jarayoni yuzaga keladi. O'zaro induksiya qonuniga ko'ra, bu holat markaziy bo'limlardagi boshqa analizatorlarning tormozlanishiga va sezuvchanligining pasayishiga olib keladi.

Sezgilarning o'zaro ta'sir qonuniyati quyidagidan iborat: biror-bir analizatorlar tizimidagi kuchsiz seskantiruvchilar boshqa tizimning sezuvchanligini oshiradi, kuchli seskantiruvchilar esa kamaytiradi. Masalan, kuchsiz ta'm bilish (nordon) sezgilari ko'rish sezuvchanligini oshiradi, eshitish va ko'rish sezgilari o'rtasida o'zaro ta'sir kuzatiladi. Analizatorlarning o'zaro ta'sirlashishi, hamda, muntazam mashqlar natijasida sezuvchanlikning oshishi *sensibilizatsiya* deb ataladi. A.R. Luriya sensibilizatsiya turiga ko'ra, sezuvchanlik oshishining ikki tomonini ajratib ko'rsatadi. Birinchisi davomli, muttasil xususiyatli va organizmda ro'y beradigan barqaror o'zgarishlarga bog'liq bo'lgani uchun ob'ektning yoshi aniq holatda sezuvchanlikning o'zgarishi bilan bog'langan bo'ladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, his-tuyg'u organlari sezuvchanligining kuchliligi yosh o'tishi bilan oshib borib, 20-30 yoshlarda eng yuqori cho'qqiga chiqadi, keyinchalik esa asta-sekin pasayib boradi. Sensibilizatsiya turiga ko'ra, sezuvchanlik oshishining ikkinchi tomoni vaqtinchalik xususiyatiga ega bo'lib, fiziologik, shuningdek, sub'ekt holatiga ta'sir ko'rsatuvchi favqulotda psixologik ta'sirlarga bog'liq bo'ladi.<sup>64</sup>[3]

Sezgilarning o'zaro ta'sirlashuvida *sinesteziya*, ya'ni, qo'zg'alish ta'sirida boshqa analizatorlarga xos bo'lgan bir xil sezgi analizatorining hosil bo'lishi kabi holat ham kuzatiladi. Masalan, odamda tovushlar ta'siri ostida rangli sezgilar hosil bo'lishi mumkin, ba'zi ranglar uyg'unligi esa o'z navbatida harorat sezuvchanligiga ta'sir ko'rsatadi. Hammaga ma'lumki, baland tovushlarni «yorqin» ranglar bilan, pastlarini esa «to'q» ranglar bilan baholaymiz.

---

<sup>64</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 280p

Sinesteziya sezgilarning his-tuyg‘u ohangini kuchaytiradi. Sinesteziya hodisasi barcha modalliklarga to‘g‘ri keladi. Ta’kidlash lozimki, sinesteziya individual tarzda ifodalanadi. Sinesteziyaga yorqin qobiliyati bor odamlar mavjud, boshqalarda esa u umuman kuzatilmaydi. A.R. Luriya o‘zining asarida bayon etilgan mashhur mnemonist SH. ni mufassal o‘rganib chiqqan. Bu odamda sinesteziya o‘ta yaqqol ifodalanadi. U barcha ovozlarni bo‘yalgan holda ko‘rgan, va ko‘p hollarda unga murojaat qilgan odamning ovozi, masalan, «sariq rangda va sochiluvchan» deb ta’riflagan. Eshitilgan ohanglar unda turli ranglardagi (och sariq rangdan binafsha rangigacha) ko‘rish sezgilarini uyg‘otgan. Idrok etiladigan ranglar u tomonidan «jarangdor» yoki «bo‘g‘iq», «sho‘r» yoki «karsillagan» tovushlar sifatida his etilgan. Shunday qilib, sinesteziya hodisasi – inson organizmi analizatorlar tizimining muntazam ravishda o‘zaro aloqada bo‘lishidan, ob‘ektiv olamni hissiy aks ettirishning yaxlitligidan dalolat beradi.<sup>65</sup>[3]

### 8.3. Sezgi sezuvchanlik psixologik asosi haqida qisqacha xulosa

Psixofiziologiyada bo‘sag‘alarning ikki turi: absolyut sezuvchanlik bo‘sag‘asi va farqlash bo‘sag‘asini farqlaydilar.

Ceskantiruvchining eng kuchsiz ta’siri ostida dastlab paydo bo‘ladigan sezilarli darajada his etish sezgining *quyi absolyut sezuvchanlik bo‘sag‘asi* deb ataladi. Yirik o‘lchamli ta’sirlanish ta’sirida ma’lum sezgining mavjudligi, ta’sirlanishning borgan sayin o‘sishi natijasida sezgining g‘oyib bo‘lishi yoki og‘riqli sezgi *yuqori absolyut sezish bo‘sag‘asi* deb ataladi.[2]

*Absolyut sezuvchanlik* sifatida kuchsiz seskantiruvchilarni sezish qobiliyati, *farqlashga sezuvchanlik* sifatida esa – seskantiruvchilar o‘rtasidagi kuchsiz farqlarni sezish qobiliyati tushuniladi. Seskantiruvchining eng kichik o‘lchami ta’sirida paydo bo‘ladigan dastlabki his etish *sezuvchanlikning absolyut bo‘sag‘asi* deb ataladi. Fiziolog olim G.V. Gershuni va xodimlarining tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, sezgi bo‘sag‘asidan quyiroqda joylashgan tovush seskantiruvchilari, miya elektr faolligining o‘zgarishi va ko‘z qorachig‘ining kengayishini yuzaga keltirishi mumkin. Sezgilarni hosil qilmaydigan seskantiruvchilar ta’sir doirasi G.V. Gershuni tomonidan «sensor osti sohasi» deb ataldi.[2]

Sezuvchanlik (bo‘sag‘a) va seskantiruvchining kuchi o‘rtasida qarama-qarshi bog‘liqlik mavjud: sezgining paydo bo‘lishi qanchalik katta kuch talab etgan bo‘lsa, odamdagi sezuvchanlik shunchalik past bo‘ladi. Sezuvchanlik bo‘sag‘alari har bir odam uchun o‘ziga xosdir.

Quyi va yuqori absolyut bo‘sag‘alarning kattaligi turli sharoitlar: inson yoshi va faoliyat xususiyati, retseptorning vazifa bajarish xususiyati, ta’sir etish kuchi va davomiyligi va h.k.lar ta’sirida o‘zgaradi. YUqori darajadagi sezuvchanlikka o‘spirinlik davrida erishiladi.[2]

Absolyut sezuvchanlik bilan bir qatorda *nisbiy* sezuvchanlik – ta’sir jadalligining o‘zgarishiga nisbatan sezuvchanlik ham mavjud. Nisbiy sezuvchanlik *farqlashning boshlanishi* bilan o‘lchanadi. Sezgilari kuchi yoki sifatida unchalik

<sup>65</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 310p

sezilmaydigan farqni yuzaga keltiradigan faoliyatdagi seskantiruvchining kuchiga nisbatan eng kichik qo'shimcha farqlash bo'sag'asi yoki ko'p tomonlama bo'sag'a deb ataladi.

Farqlashga bo'lgan sezuvchanlikni tajribada tadqiq etish Veber va Bugerga o'rtacha, ya'ni, absolyut sezuvchanlikning quyi yoki yuqori bo'sag'alariga yaqinlashmaydigan seskantiruvchilar uchun haqqoniy bo'lgan qonunni ifodalash imkonini berdi. Unga ko'ra, seskantiruvchi orttirma kuchining uning asosiy kuchiga nisbati sezuvchanlikning ma'lum turi uchun doimiy kattalikdir. Bosimni (taktil sezuvchanlik) sezishda bu orttirma seskantiruvchi dastlabki og'irligining  $1/30$  ga teng, eshitish seskantiruvchilari uchun bu konstanta  $1/10$  ga, ko'rish seskantiruvchilari uchun –  $1/100$  ga teng.[1]

Nemis fizigi G. Fexner juda kuchsiz va o'ta kuchli ta'sirlar ostida nisbiy bo'sag'alar o'z ahamiyatini yo'qotishini aniqladi. SHuningdek, u seskantiruvchining kuchi geometrik progressiya asosida oshib borishi bilan sezgi jadalligi arifmetik progressiya asosida oshishini aniqladi. Har taraflama sezuvchanlik ham farqlash bo'sag'asi o'lchamiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi: farqlash bo'sag'asi qanchalik katta bo'lsa, har taraflama sezuvchanlik shunchalik kichik bo'ladi.

### **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Sezgi – bu:

a) moddiy dunyo jismlari va hodisalarining alohida xossalarini aks ettirishdan iborat bo'lgan miya ta'sirlanishi;

b) sodda tuzilgan psixik jarayon bo'lib, u moddiy dunyo jismlari va hodisalarining alohida xossalarini aks ettirishdan, shuningdek, seskantiruvchilarning mos bo'lgan retseptorlarga bevosita ta'siri ostidagi organizmning ichki holatlaridan iborat;

v) moddiy dunyo jismlari va hodisalarining bosh miya po'stlog'ida aks etish jarayoni;

g) atrof-olamga bo'lgan munosabatningsub'ektiv kechinmasi jarayoni.

2. Retseptorda hosil bo'lgan qo'zg'alishlarning asab tizimining yuqori darajalariga o'tkazilish yo'llari ... deb ataladi:

a) afferent;

b) efferent;

v) samarali;

g) affektiv.

3. Seskantiruvchining ikkila jadalligi o'rtasidagi eng kichik o'lchami ta'sirida paydo bo'ladigan dastlabki his etish ... deb ataladi:

a) absolyut quyi bo'sag'a;

b) farqlash bo'sag'asi;

v) sezgilarning vaqtinchalik bo'sag'asi;

g) jadallikka nisbatan sezuvchanlik ko'lami.

4. Organizmning ichki muhitidagi ta'sirlarni aks ettiradigan retseptorlar ... deb ataladi:

a) eksteroretseptorlar;

- b) interoretseptorlar;
  - v) proprioretseptorlar;
  - g) ichki retseptorlar.
5. Eksteroretseptiv sezgilar:
- a) ko‘rish;
  - b) organik;
  - v) tebranma;
  - g) harorat.
6. Tasavvurlarning asosiy turlari:
- a) ko‘rish, eshitish, hid bilish, teri-tuyish, ta‘m bilish;
  - b) birlamchi, umumiy, eshitish, harorat, organik;
  - v) ixtiyorsiz, ko‘zlangan, harakatli, fazoviy, vaqtga bog‘liq;
  - g) ta‘m bilish, distantli, aloqaviy, tushunchali, birlamchi.

## 9. MAVZU: IDROK VA ILLYUZIYA

### REJA

1. **Idrok haqida tushuncha. Nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari.**
2. **Idrokning asosiy xossalari va turlari.**
3. **Idrokda predmet va fon, yaxlit va xususiy o‘zaro munosabatlar**

*1. Idrok haqida tushuncha. Nerv-fiziologik asoslari, xususiyatlari va qonuniyatlari.* Inson ayrim yorug‘ yoki rangli, tovushlar yoki aloqalarning o‘rganilmagan dunyosida emas, jismlar va shakllar, murakkab vaziyatlar dunyosida yashaydi. Inson tomonidan idrok etiladigan narsalar uning ko‘z o‘ngida yaxlit tasvirlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.[2]

«Sezgi» va «idrok» tushunchlari o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqdir, lekin ular o‘rtasida tub negizli farqlar ham mavjud. Qo‘shilish natijasida ayrim sezgilar yaxlit idrokka aylanadi, alohida belgilarni aks ettirishdan yaxlit jismlar yoki vaziyatlarni aks ettirishga o‘tadilar. Shuning uchun idrokning sezgidan asosiy farqi, bizga ta‘sir o‘tkazuvchi barcha narsalarni anglash, ya‘ni, jismni barcha xossalari bilan birgalikda yaxlit aks ettirishning predmetliligidan iborat.[1]

Shunday qilib, **idrok** – bu jism va hodisalarni, ularning his-tuyg‘u organlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatishida yaxlit aks ettirish psixik jarayoni.[1]

Idrok – bu sezgilarning oddiy yig‘indisi emas. Idrok qilish jarayonida sezgilardan tashqari, avvalgi tajriba, idrok etiladiganlarni anglash, shuningdek, xotira jarayonlari qatnashadi. SHuning ko‘p hollarda idrok insonning perseptiv tizimi deb ataladi.

Hozirda tasavvurlarni bilish jarayoniga oid turli nazariyalar mavjud. Bu nazariyalarda asosiy e‘tibor his-tuyg‘u organlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi daraklarning anglangan perseptiv tasvirlarga aylanishiga qaratilgan.

Psixofiziologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, idrok tahliliy ishlarni olib borishni talab etuvchi juda murakkab jarayondir. Idrok qilish jarayoniga muntazam ravishda harakatli tarkibiy qismlar ( aniq jismlarni idrok qilishda jismlarni ushlab ko‘rish va

ko'zlar harakati; nutqni idrok qilishda mos kelgan tovushlarni kuylash va talaffuz qilish) kiritilgan bo'ladi. SHuning uchun idrokni sub'ektning perseptiv (idrok qilinuvchi) faoliyati sifatida belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu faoliyatning natijasi bo'lib, real hayotimizda to'qnashishimiz mumkin bo'lgan jism haqidagi yaxlit tasavvur etish hisoblanadi.[2]

Jismni yaxlit aks ettirish ta'sir etuvchi belgilarning(rang, shakl, ta'm va h.k.) yaxlit to'plamidan, bir vaqtning o'zida mavjud bo'lmaganlardan asosiy etakchi belgilarni ajratib olishni talab etadi. Idrok qilishning ushbu perseptiv tasvirning shakllanish bosqichida tafakkur ham qantashishi mumkin, deb taxmin qilinadi. Lekin idrokningkeyingi bosqichi asosiy mohiyatga ega bo'lgan guruhlarni birlashtirishni va idrok etilgan belgilar to'plami bilan jism haqidagi avvalgi bilimlarni taqqoslashni talab etadi, ya'ni, idrok qilish jarayonida xotira ishtirok etadi. Agar taqdim etilayotgan jism haqidagi farazni taqqoslashda, u etkazilgan axborot bilan mos kelsa jismni tanib olish sodir bo'ladi va u idrok etiladi, agarda mos kelmasa, sub'ekt uni topmagunicha, kerakli echimni izlash davom ettiriladi.

Idrok qilishda u yoki bu jismni idrok qilish istagi, uni idrok qilish zaruriyati yoki majburiyati, yaxshiroq idrok qilishga erishishga yo'naltirilgan iroda kuchi, bunday vaziyatlarda namoyon bo'ladigan qat'iyatlilik katta ahamiyatga egadir. Real olam jismini idrok qilishda insonning diqqati va yo'nalganligi ham qatnashadi.

Idrok qilishga bo'lgan munosabatimiz idrok jarayoni uchun katta ahamiyatga ega. Jism bizga qiziqarli yoki biz unga befarq bo'lganimiz uchun, u bizda turlicha his-tuyg'ularni uyg'otishi mumkin. bizga qiziqarli bo'lgan jism faol idrok etilishi, va, aksincha, bizga farqsiz bo'lgan jismni sezmasligimiz ham mumkin.

SHunday qilib, idrok – bu ayni vaqtda bizga ta'sir ko'rsatayotgan narsani bilishga qaratilgan o'ta murakkab, shu bilan birga, umumiy jarayon.<sup>66</sup>

**Idrokning fiziologik asosi** bo'lib his-tuyg'u organlari, nerv tolalari va markaziy asab tizimida ro'y beradigan jarayonlar hisoblanadi. Nerv qo'zg'alishi seskantiruvchilardan his-tuyg'u organlaridagi nerv tugunlarining markaziy proeksiyasidan iborat bo'lgan po'stloqning sensor sohalariga o'tkaziladi. Proeksiya sohasi qaysi organ bilan bog'langanligiga ko'ra, ma'lum sensor axborot shakllanadi.

Sezgilar taklif etilgan yo'nalish darajasida idrok qilish jarayonining tarkibiy qismi sifatida shakllanadi. Idrokning fiziologik mexanizmlarining o'zi, qo'zg'alish bosh miya po'stlog'ining proeksiyali sohalardan integrativ sohalariga o'tganida, real dunyo hodisalari obrazlari shakllanishining tugallanishi sodir bo'ladigan keyingi bosqichlarda yaxlit obrazning shakllanishi jarayonlarida ishtirok etadi. SHuning uchun idrok jarayonini yakunlovchi bosh miya po'stlog'ining integrativ sohalar, ko'pincha, perseptiv sohalar deb ataladi. Bu sohalarning vazifasi proeksiyali sohalarning vazifasidan tubdan farq qiladi. Bu farq u yoki bu soha faoliyatning izdan chiqishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, ko'rish proeksiyali sohasining faoliyati buzilganida markaziy ko'zi ojizlik paydo bo'ladi, ya'ni, periferiya – his-tuyg'u organlarining to'liq faoliyatida odam butunlay

<sup>66</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 290 p

ko'rish sezgilaridan mahrum bo'ladi, u hech narsani ko'ramaydi. Integrativ soha faoliyatining zarar ko'rish yoki izdan chiqishida jarayon boshqacha tus oladi. Odam alohida yorug' dog'larni, qandaydir sharpalarni ko'radi, lekin ko'rganlarini tushunmaydi. Unga ta'sir etuvchilarni anglay olmaydi, unga yaxshi tanish jismlarni ham taniyolmay qoladi. SHunga o'xshash manzara boshqa modalliklarning integrativ sohalari faoliyatining izdan chiqishida ham kuzatiladi. Masalan, eshitish integrativ sohasining buzilishida odamlar inson nutqini tushunolmay qoladalar.

Idrokning fiziologik asosi, uning harakat faoliyati, emotsional kechinmalar, turli tafakkur jarayonlari bilan uzviy bog'langanligi sababidan yanada murakkablashadi. Bundan kelib chiqadiki, his-tuyg'u organlarida boshlangan tashqi seskantiruvchilar ta'sirida paydo bo'lgan nerv qo'zg'alishlari asab markazlariga o'tadi, bunda ular po'stloq sohasini qamrab oladi, boshqa nerv qo'zg'alishlari bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. O'zaro ta'sirga kirishgan va po'stloqning turli sohasini qamrab olgan bunday qo'zg'alishlar to'ri idrokning fiziologik asosini tashkil etadi.

Idrokning reflektorlik asosini I.P. Pavlov ochib berdi. Uning ko'rsatishicha, idrokning assida shartli reflekslar, ya'ni, bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida atrof-olam hodisalari yoki jismlarining retseptorlarga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan vaqtinchalik nerv aloqalari yotadi. Bunda nerv aloqalari hosil qilgan qo'zg'alishlarni qayta ishlashda analizatorlarning po'stloq bo'limlari yadrolarida tahlil qilish va sintezning murakkab jarayonlari sodir bo'lganligi sababli, nerv aloqalari seskantiruvchilar to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilish va sintez jarayonlari idrok ob'ekting atrof-muhitdan ajratib olinishini ta'minlaydilar, va shu asosda uning barcha xossalari yaxlit obrazga birlashadi.[1]

Idrok jarayonini ta'minlovchi vaqtinchalik nerv aloqalari ikki xil: ***bir analizator chegarasida*** va ***analizatorlar o'rtasida*** hosil bo'ladigan turlarga ajratilishi mumkin. Birinchi turdagilari organizmga bir modallikka ega bo'lgan ko'p tomonlama seskantiruvchining ta'sir etishida alohida o'rin egallaydilar. Masalan, bunday seskantiruvchi sifatida eshitish analizatoriga ta'sir ko'rsatuvchi alohida tovushlarning o'ziga xos uyg'unligidan iborat bo'lgan kuy xizmat qilish mumkin. Bu to'plam yagona murakkab seskantiruvchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bunda nerv aloqalari seskantiruvchining o'ziga nisbatan javob o'rnida emas, balki, ularning vaqtinchalik, fazoviy va shu kabi munosabatlariga nisbatan ham hosil bo'ladi. Natijada katta yarim sharlar po'stlog'ida integratsiyalash yoki murakkab sintez jarayoni sodir bo'ladi.<sup>67</sup>

Ko'p tomonlama seskantiruvchi ta'sirida hosil bo'ladigan nerv aloqalarining ikkinchi turi – bu turli analizatorlar chegarasidagi aloqalar, ularning yuzaga kelishini I.M. Sechenov assotsiatsiyalar (ko'rish, kinestetik, sezish va h.k.) mavjudligi bilan tushuntirgan edi. Odamda bu assotsiatsiyalar so'zning eshitiladigan obrazi bilan birgalikda kuzatiladi, bunda idrok yaxlitlik xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, agar ko'zlaringizni bog'lab qo'yib, qo'lingizga aylanasimon jism tutqazilsa, oldindan uni iste'mol qilish mumkinligi uqtirilsa, bunda siz uning o'ziga xos hidini sezishingiz, tatib ko'rishingiz, va hech qiynalmasdan, nima

---

<sup>67</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 295 p

haqida gap ketayotganini tushunib olishingiz mumkin. Bundan, analizatorlar o'rtasidagi aloqalar hisobiga jismlar yoki hodisalarning idrok qilinishi uchun maxsus moslashtirilgan analizatorlari bo'lmagan xossalarini idrokda aks ettirishimiz mumkinligi kelib chiqadi (masalan, jismning kattaligi, sof og'irligi va boshqalar).

SHunday qilib, idrok obrazini tuzishning murakkab jarayoni asosida seskantiruvchilarni yaqqol ko'rish sharoitlari bilan jism xossalarining o'zaro ta'sirini murakkab yaxlitlik sifatida hisobga olgan holda ta'minlaydigan ichki analizatorli va tashqi analizatorli aloqalar yotadi.

2. ***Idrokning asosiy xossalari va turlari.*** Idrokning asosiy xossalariga predmetlilik, yaxlitlik, strukturaviylik, konstantlik, anglanganlik, appersepsiya, faollik kiradi.

Idrokning ***predmetlili***gi – bu real olam jism va hodisalarini bir-biri bilan bog'lanmagan sezgilar to'plami ko'rinishida emas, alohida jismlar shaklida aks ettirish qobiliyati. Predmetlilik idrokning tug'ma xossasi emas. Bu xossaning paydo bo'lishi va takomillashtirilishi bola hayotining birinchi yilidan boshlab, ontogenez jarayonida sodir bo'ladi. I.M.Sechenov fikriga ko'ra, predmetlilik bolaning jism bilan aloqasini ta'minlaydigan harakatlar asosida shakllanadi.[1]

Idrok predmetliliğini ta'minlashda harakatlarning o'rni haqida gap ketganida, idrokning motorli tarkibiy qismi haqida so'z yuritishimiz lozim, motorli tarkibiy qismga jismni paypaslayotgan qo'l harakati; ko'rinib turgan shaklni kuzatib chiqayotgan ko'z harakatlari; tovush chiqarayotgan hiqildoq harakatlari va h.k.lar kiradi.[1]

Ko'zlar va qo'llar harakatida umumiylik mavjudligini ta'kidlash lozim. Ko'zlar, qo'llar kabi surat va jism shakllarini «paypaslagandek» ketma-ket kuzatib chiqadi. Ko'zlar harakati turli-tuman bo'lib, ko'pchilik vazifalarni bajaradi. Ko'rish idrokida ko'zlarning mikro- va makroharakatlari alohida o'rin tutadi. Agar odam harakatsiz jismning qandaydir nuqtasiga tikilib tursa, u holda unda sub'ektiv ravishda bu nuqtani harakatsiz nigohi bilan qayd etayotganidek tasavvur paydo bo'ladi. Haqiqatda esa ko'rish idroki inson uchun ixtiyorsiz va sezilarsiz mikroharakatlar bilan birgalikda kechadi. SHunday qilib, jismni idrok qilish imkoniyati idrok jarayonida motorli tarkibiy qismning ishtiroki bilan belgilangan.

Idrokning boshqa xossasi uning ***yaxlitligi***dir. Jismning alohida xossalarini aks ettiruvchi sezgilardan farqli ravishda, idrok jismning yaxlit obrazini yaratadi. Sezgining tarkibiy qismlari o'zaro shu darajada mahkam bog'langanki, jismning yagona murakkab obrazi odamga ob'ektning alohida xossalari yoki alohida qismlari bevosita ta'sir ko'rsatganida ham hosil bo'ladi. Idrokning yaxlitligi, hatto, idrok etilayotgan ob'ektning alohida xossalari chala aks ettirilganida ham qabul qilingan axborot xayolan aniq jismning yaxlit obrazi holatiga etkazilishi bilan ifodalanadi.[2]

Idrokning yaxlitligi uning ***strukturaviyligi*** bilan bog'liq. Ushbu xossa ko'pchilik hollarda idrokning daqiqali sezgilarimizning proeksiyasi va ularning oddiy yig'indisi emasligidan iborat bo'ladi. Bizlar bu sezgilardan ajratib olingan, bir muncha vaqt davomida shakllanadigan umumiy tuzilishni idrok etamiz.

Masalan, agar odam biror-bir kuyni tinglayotgan bo'lsa, yangi nota jaranglashi haqida axborot etkazilguniga qadar uning ongida avval tinglangan kuyning notalari jaranglayveradi. Odatda, tinglovchi kuyni tushunib etadi, ya'ni, uning tuzilishini yaxlitligicha idrok etadi. SHunday qilib, idrok ongimizga biz real olamda duch kelgan jism yoki hodisaning tuzilishini etkazib beradi.

Idrokning navbatdagi xossasi uning *konstantligidir*. Konstantlik deb, idrok qilish sharoitlarining o'zgarishida jismlar ba'zi bir xossalarning nisbiy doimiyligiga aytiladi. Perseptiv tizimning idrok sharoitlarining o'zgarishini to'ldirish qobiliyatida namoyon bo'ladigan konstantlik tufayli, bizni o'rab turgan jismlarni nisbatan doimiy jismlar sifatida idrok etamiz. Yuqori darajadagi konstantlik jismlar rangi, kattaligi va shaklini ko'rish idrokida kuzatiladi.

Rangni idrok qilish konstantligi yoritilganlikning o'zgarishida ko'zga ko'ringan rangning nisbiy o'zgarishidan iborat. Masalan, ko'mir bo'lagi yozning quyoshli kunida, kech tushgan vaqtdagi bo'rdan ko'ra taxminan 8-9 marta yorqinroq ko'rinadi. Lekin ko'mirni qora rangda idrok etamiz, bo'rning tusi esa, kechqurun bo'lsa ham, biz uchun oq bo'ladi. Rangning konstantlik hodisasi qator sabablar, shu jumladan, ko'rish maydoni yorqinligi umumiy darajasining yorqin ranglarning keskin o'zgarishiga moslashishi, shuningdek, yoritilganlik sharoitlarida jismlarning haqiqiy rangi haqidagi tasavvurlarning ta'siri bilan belgilanadi.

Jismlar kattaligi idroki konstantligi jismlarning turlicha uzoqlashganlik masofalaridagi jismlarning ko'zga ko'ringan kattaligining nisbiy doimiyligida ifodalanadi. Xuddi shunday, bir xil odamning bo'y o'lchami 3,5 va 10 metr masofadan, ko'z to'r pardasidagi tasvirining kattaligi uzoqlashish masofasiga ko'ra turlicha bo'lsada, o'zgarish holatda idrok etiladi. Bu holat jismlarning uncha katta bo'lmagan uzoqlashish masofasida ularni idrok qilish kattaligi faqatgina ko'z to'r pardasidagi obrazning kattaligi bilan emas, balki, qator omillar ta'siri bilan ham tushuntiriladi. Bunday ahamiyatga molik bo'lgan omillardan jismni turli masofalarda qayd etishga moslashayotgan ko'z mushaklarining zo'riqishidir.<sup>68</sup>[3]

Jismlar shakli idroki konstantligi jismlar holatining kuzatuvchi nigohi chizig'iga nisbatan o'zgarishi sharoitida idrokning nisbiy o'zgarishidan iborat. Ko'zlarga nisbatan jism holatining har bir o'zgarishida uning to'r pardadagi tasvirining shakli o'zgaradi (masalan, jismga to'g'ri, yon, orqa tomondan qarash mumkin va h.k.). Lekin ko'zlarning, bizga avvalgi tajribadan ma'lum bo'lgan jismlar shakli va chiziqlariga xos bo'lgan uyg'unliklarni ajratish bo'yicha harakatlari tufayli idrok etilayotgan jism shakli biz uchun doimiy bo'lib qoladi.

Idrok konstantligi manbai bo'lib perseptiv tizimning faol harakatlari xizmat qiladi. Aynan o'sha jismlarning turli sharoitlarda ko'p martalab idrok etilishi perseptiv obrazlarning o'zgaruvchan sharoitlarga nisbatan doimiyligi (invariantlik, o'zgarish tuzilish)ni, shuningdek, retseptor apparatining harakatlarini ta'minlaydi.

Idrokning xususiyatlari insonning barcha orttirilgan amaliy va hayotiy tajribasi bilan belgilanadi, chunki idrok jarayoni faoliyatdan ajralmasdir. Idrok

---

<sup>68</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 301 p



seskantiruvchining xususiyatining o'zigagina emas, balki, sub'ektga ham bog'liq bo'ladi. Ko'z va quloq emas, ma'lum bir jonli inson idrok etadi. Idrokning psixik hayotimizning umumiy mazmuniga bog'liqligi *appersepsiya* deb ataladi.

Appersepsiyada insonning bilimlari, orttirilgan tajribasi, avvalgi amaliyoti katta o'rin egallaydi. Bilim va tajriba idrokning aniqligi va yorqinligiga muhim ta'sirga ega. CHet tilini idrok qilishda tanish bo'lmagan so'zlarni bilmasdan turib, o'z ona tilimizni, hatto, so'zlar tushunarsiz talaffuz etilganda ham, bexato anglaymiz.

Idrok mazmuni inson oldiga qo'yilgan vazifa, hamda uning faoliyati motivlari, uning qiziqishlari va yo'nalganligi bilan belgilanadi.

Appersepsiyada asosiy o'rin idrok mazmunini o'zgarishi mumkin bo'lgan mayl va hissiyotlarga ajratiladi. Uxlayotgan bolaning onasi ko'chadagi shovqinlarni eshitmasada, bola tomondan kelgan har bir tovushga darhol munosabat bildiradi.

Noto'g'ri (soxta) yoki izdan chiqqan idrok hodisasi *idrok illyuziyasi* deb ataladi. Illyuziyalar idrokning turli ko'rinishlarida (ko'rish, eshitish va b.) kuzatiladi. Illyuziyular tabiati faqat mayl. yo'nalganlik, hissiy munosabatlar va h.k.lar kabi sub'ektiv sabablar bilan emas, balki, yoritilganlik, fazoviy holat va boshqalar kabi jismoniy omillar va hodisalar bilan belgilanadi.[1]

Idrokning *anglanganligi*. Perseptiv obrazlar har doim ma'lum mazmun ahamiyatiga ega bo'ladi. Inson idroki, avval ta'kidlaganimizdek, tafakkur bilan uzviy bog'langan. Tafakkur va idrokning aloqasi, avvalambor, jismni ongli idrok qilish – unga tafakkurda nom berishda, ya'ni, uni ma'lum guruh, sinfga tayinlab, ma'lum so'z bilan bog'lashda ifodalanadi.[1]

Idrok etiladigan axborotni anglash jarayoni struktura-mantiqiy chizma yordamida taqdim etilishi mumkin. Idrok jarayonining birinchi bosqichida axborot oqimidan rag'batlar to'plamini ajratib olish va ularning aynan bir xil ob'ektga tegishli ekanliklari haqida qaror qabul qilish amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichda ob'ektni identifikatsiyalash mumkin bo'lgan sezgilarning belgilar to'plamining tarkibiga yaqin yoki o'xshash bo'lgan sezgilarni xotirada izlash jarayoni sodir bo'ladi. Uchinchi bosqichda idrok etilgan ob'ektni, qabul qilingan qarorni e'tirof yoki inkor etuvchi qo'shimcha belgilarni izlash bilan birga, ma'lum darajaga kiritish jarayoni sodir bo'ladi. Va, nihoyat, to'rtinchi bosqichda ob'ekt bilan bir sinfga tegishli ob'ektlarga xos bo'lgan, lekin hali idrok etilmagan xossalari bilan birgalikda, ob'ekt haqida yakuniy xulosa shakllanadi. Shunday qilib, idrok – bu ahamiyatga molik darajadagi intellektual jarayon.

**Idrok qilishni tashkil qilish.** Sezgi ma'lumotlarini ahamiyatli idrokka aylantirish uchun biz uni tashkil qilishimiz kerak: narsalarni ularning atrof-muhitidan ajratib olishimiz, ularning ahamiyatli va doimiy shaklini farqlashimiz, shuningdek ular harakatlanishi yoki harakatlanmasligini va ular bizdan qanday masofada turganligini aniqlashimiz kerak. Miyaning idrok qilish va uning qoidalari shakllanishidagi roli ayrim illyuziyalar bilan izohlanadi. XX asr boshida bir guruh nemis psixologlari bizning aql-idrokimiz qanday tarzda his-tuyg'ularimiz, sezgilarimizni tashkil qilishi va ularni idrokka aylantirishiga qiziqib qoldilar. Sezgi signallarini qabul qiluvchi odam ularni “geshtalt” (nemischa – “shakl” yoki

“yaxlit” ma’nosini anglatadi)ga aylantiradi. Geshtaltpsixologiya odam bunday qobiliyatining ko‘p sonli misollarini tavsiflab berdi. Rasmga e’tibor bering, shaklning alohida qismlari – bu bor-yo‘g‘i uchta oq chiziqdan iborat. Biroq biz ularning barchasini birgalikda idrok qilganimizda, yaxlit shakl – “Neker kubi”ni ko‘ramiz.[1]

Geshtaltpsixologiya tarafdorlari idrok qilishda yaxlit narsa uni tashkil qiluvchi miqdordan farqlanishi mumkin, deb hisoblaydilar. Natriy – korroziya metallini xlor – zaharli gaz bilan biriktiring, Siz umuman boshqa modda – osh tuzi hosil qilasiz. SHakl ham xuddi shunday tarzda idrok qilinadi – ob’ekt tarkibiy qismlari miqdori emas, balki nimadir yangi shakl (Koek & Ra1teg, 1990). Idrok qilish har doim sezishdan biror jihatdan ko‘proq bo‘ladi.

**SHaklni idrok qilish.** Tasavvur qiling, Siz videokompyuter tizimini o‘z “ko‘z+miya” tizimingiz kabi qo‘lyozmani o‘qish yoki odamlar yuzini tanish darajasida loyihalashtirishingiz kerak. (Pochta xodimlari bunday skaner yaratilishiga umid qiladilar). Bunday tizimga qanday xususiyatlar zarur bo‘lishi mumkin?

### **Binokulyar yo‘l-yo‘riqlar**

Bizning ko‘zlarimiz bir-biridan 2,5 dyuym masofada joylashganligi sababli ularning to‘rpardalari atrof-muhit manzaralarini biroz turlicha qabul qiladi. Miya ushbu manzaralarni solishtirganda, aynan to‘rsimon nomutanosiblik (ikki manzara o‘rtasidagi farq) masofani aniqlashga yordam beradi. Agar Siz barmog‘ingizni burun uchiga deyarli tegizilgan holda ushlab tursangiz, to‘rpardalarda barmoqning 2 ta har xil aksi paydo bo‘ladi (Siz bunga rasmda ko‘rsatilgandek, navbatma-navbat bir ko‘z, so‘ngra esa ikkinchi ko‘z qisilganda va barmoqlaringiz ingichka kolbasa ko‘rinishida bukilganda bunga ishonch hosil qilishingiz mumkin). Katta masofada esa, aytaylik, uzatilgan qo‘l masofasida ushbu nomutanosiblik kamroq bo‘ladi.[2]

Stereoskopik filmlarni yaratuvchilar bir-biridan bir necha dyuym (1 dyuym – 25,5 mm) masofada joylashtirilgan ikkita kamera yordamida suratga olish orqali to‘rsimon nomutanosiblikdan kuchli taassurot hosil qiladilar (xuddi shunday imkoniyatni, ehtimol, kuzatuv olib borishi mumkin bo‘lgan kompyuterda ham yaratishni istardik). So‘ngra ekranga ko‘zoynak yoki chap ko‘z bilan chap kameraning “ko‘rish maydoni”, o‘ng ko‘z bilan esa – o‘ng kameraning “ko‘rish maydoni”ni ko‘rish imkonini beradigan maxsus moslama orqali qaralganda, to‘rsimon nomutanosiblikning odatdagi samarasi hosil bo‘ladi. Kompyuter namunalari uchun ham ushbu samara xosdir.<sup>69</sup>

Idrokning yana bir muhim xossasi – bu uning *faolligi*, yoki *tanlab o‘tkazishi*. Bu xossa bizning istalgan vaqtda faqat bir jism yoki ma’lum jismlar guruhini idrok qilishimizdan, real olamning boshqa ob’ektlari esa idrokimizning foni bo‘lib xizmat qilishidan iborat. Xuddi shunday, ma’ruza tinglab yoki kitob o‘qib o‘tirganingizda ortingizda nimalar sodir bo‘layotganiga e’tibor bermaysiz. SHunday qilib, idrok faolligi tabiati ongimiz tabiati tomonidan belgilangan.

---

<sup>69</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 410p

Endi idrok turlarini ko'rib chiqamiz. Hozirgi zamon psixologiyasiga oid adabiyotlarda idrokning tasniflanishiga doir bir qancha yondoshuvlarni keltirish mumkin. Tasniflanishlardan birining asosida idrokda ishtirok etuvchi analizatorlardagi tafovutlar yotadi. Idrokda qaysi analizator yoki modallikning ahamiyatligiga muvofiq ravishda ko'rish, eshitish, teri- tuyish, kinestetik, hid bilish va ta'm bilish idroklari mavjud.[1]

Odatda, idrok – qator analizatorlar o'zaro ta'sirining natijasi bo'lib hisoblanadi. Misol tariqasida taktil va kinestetik analizatorlar ishtirokidagi teri-tuyish idrokini aytib o'tish joizdir. Idrok turlari sof holda juda kam uchraydi. Odatda, ularning o'zaro uyg'unlashib ketishi natijasida idrokning murakkab turlari hosil bo'ladi. O'quvchi tomonidan matn idroki ko'rish, eshitish va kinestetik idrokni o'z ichiga oladi.<sup>70</sup>[3]

Idrokning boshqa tur tasnifining asosini materiyaning mavjud bo'lish shakllari: fazo, vaqt va harakat tashkil etadi. Bunga muvofiq ravishda fazoviy idrok, vaqt idroki va harakat idroki ajratiladi (10.1 rasm).

Barcha jismlar fazoda joylashadi va istalgan hodisa ma'lum vaqtda mavjud bo'ladi. Jismning fazoviy xossalriga kattalik, shakl, fazodagi holat kiradi.

**Jismning kattaligini** idrok qilishda uning to'r pardadagi tasviri muhim o'rinni egallaydi. Idrok etilayotgan jismning ko'zning to'r pardasidagi kattaligi ko'rish burchagining kattaligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rish burchagi kattaligi qanchalik katta bo'lsa, ko'z to'r pardasidagi tasvir ham shunchalik katta bo'ladi. Jism kattaligini idrok qilish jismdan asta-sekin uzoqlashsakda, ko'z to'r pardasidagi jism tasviri kichiklashib borishi holatida ham saqlanadi. Bu hodisa jism kattaligi idrokining **konstatligi** deb ataladi.[1]

Jism kattaligi idroki jismning faqat to'r pardadagi tasvirining kattaligi bilan emas, balki, jism bilan kuzatuvchi o'rtasidagi masofaning idroki bilan belgilanadi. Bu qonuniyatni quyidagicha ifodalash mumkin:

Idrok etilayotgan jism = Ko'rish burchagi x Masofa.

Jismlarning yo'qolishini qayd etish, asosan, ulargacha bo'lgan masofaning o'zgarishida, bizning jismlarni idrok qilishimiz tajribamiz hisobiga amalga oshiriladi. Tanish jismlarni ko'rganimizda, kattalik konstantligi ancha oshadi va ajratib olingan geometrik shakllar idrokida sezilarli darajada kamayadi. Agar jismdan juda uzoqda bo'lsak, u bizga haqiqiy ko'rinishidan kichkina bo'lib ko'rinadi. Masalan, samolyotda uchib ketayotgan bo'lsak, pastdagi jismlar bizga juda kichik bo'lib ko'rinadi.[1]

Jism fazoviy idrokining boshqa xususiyati **jismlarning kontrastligidir**. Biz idrok etayotgan jismning atrofidagi jismlar uning idrokiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'rta bo'yli odam bo'ylari baland odamlar orasida o'zining haqiqiy bo'y o'lchamidan ancha kichik bo'lib ko'rinadi. Boshqa misol – geometrik shakllar idroki. Katta aylanalar o'rtasidagi aylana, kichik o'lchamli aylanalar orasidagi xuddi shunday diametrli aylanaga nisbatan kichik bo'lib ko'rinadi. Bundan tashqari, jism kattaligi idrokiga **jismning rangi** ta'sir etadi. Och rangli jismlar to'q rangli jismlarga qaraganda bir muncha kattaroq bo'lib ko'rinadi. Katta

<sup>70</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 313p

hajmli shakllar, masalan, shar yoki silindr ularga mos bo'lgan yassi tasvirlardan kichikroqdek tuyuladi.[2]

**Jism shakli idrokida** konstantlik hodisasi xuddi shunday saqlanib qoladi. Masalan, yon tomonimizda joylashgan kvadrat yoki dumaloq jismga qaraganimizda uning to'rt pardadagi proeksiyasi ellips yoki trapetsiya shaklida bo'ladi. SHunday bo'lsada, aynan bir jismni bir xilda, bir shaklga ega holatda ko'ramiz.

Uzoq masofada joylashgan jism shaklining idroki o'zgarishi mumkin. Xuddi shunday, shaklning mayda detallari jismning uzoqlashgani sayin yo'qolib boradi, uning shakli sodda ko'rinishga kelib qoladi.[2]

**Katta hajmli shakl** idroki juda murakkab jarayondir. Odam ko'zlari **binokulyar ko'rish** qobiliyatiga ega bo'lgani uchun shakl hajmini idrok etamiz. Binokulyar ta'sir odamning ikkala ko'zi bilan ko'rishiga bog'liqdir. Binokulyar ta'sirning mohiyati, ikkala ko'z bir xil jismga qarab turganida, bu jismning chap va o'ng ko'zlar to'rt pardasidagi tasviri turlicha bo'ladi.

Lekin, binokulyar ko'rish jism hajmli idrokining yagona sharti emasdir. Jism katta hajmini idrok qilishda, ushbu jism hajmli belgilarini bilish, shuningdek, katta hajmli jismda yorug'lik va soyaning tarqalishi ahamiyatga egadir.

Insonning fazoni idrok qilishi qator o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bu fazoning uch o'lchamliligi bilan bog'liq, shuning uchun, idrok qilishga bir qator hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi analizatorlarni ishga tushirish lozim. Bunda fazoni idrok qilish turli darajalarda kechishi mumkin.<sup>71</sup>[3]

Uch o'lchamli fazo idrokida, avvalambor, ichki quloqda joylashgan maxsus vestibulyar apparatning vazifalaridan foydalaniladi. Vestibulyar apparat ko'zni harakatlantiruvchi mushaklari bilan uzviy bog'langan, va undagi har bir o'zgarish ko'z holatidagi refleksli o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Fazoviy idrokni, va, avvalambor, uning chuqurligini ta'min etuvchi ikkinchi vosita binokulyar ko'rish apparatidir. CHuqurlikni idrok qilish jismlarning ko'rish masofasining idroki va bir-biriga nisbatan joylashishiga bog'liq. Binokulyar ko'rish – bu jismlar ko'rish masofasini idrok qilishning shartlaridan biri.

Jismlar uzoqligi va fazo chuqurligining idrokida ko'zlarning **konvergentsiyasi** va **divergentsiyasi** muhim ahamiyatga ega, chunki, jismlarning idrok etilishi uchun ularning tasviri chap va o'ng ko'zlarning to'rt pardasidagi mos nuqtalarga tushishi kerak, bu esa ikkala ko'zning konvergentsiyasiz yoki divergentsiyasiz amalga oshmaydi. Konvergentsiya deb ko'z soqqalarining bir-biriga nisbatan qarama-qarshi aylanishi hisobiga ko'rish chiziqlarining birlashishiga aytiladi. Masalan, bu nigohning uzoqdagi jismdan yaqindagiga o'tishida sodir bo'ladi. Teskari – yaqindagidan uzoqdagi jismga o'tishida – ko'z divergentsiyasi, ya'ni, ko'rish chiziqlarining ajralishi kuzatiladi.[2]

Fazo idroki chuqurlik idroki bilan chegaralanmaydi. Fazo idrokida jismlarning bir-biriga nisbatan joylashish idroki muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, jismlarning fazodagi turli holatlari, inson uchun birinchi galda , hatto, jismning uzoqligi yoki fazo chuqurligi idrokidan ko'ra ko'proq

---

<sup>71</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 316 p

muhim ahamiyat kasb etadi, chunki inson fazoni jismlar holatiga baho bergan holda oddiy idrok etmaydi, u fazoda yo‘nalishini belgilaydi, buning uchun esa u jismlarning joylashishi haqida ma‘lum axborotga ega bo‘lishi kerak.[2]

Fazo idroki, uning markaz tomonidan boshqarilishini amalga oshiruvchi murakkab tuzilgan vositalarni talab etadi. Bunday markaziy vosita sifatida ko‘rish, taktil-kinestetik va vestibulyar analizatorlar ishini birlashtiruvchi bosh miya po‘stlog‘ining uchlamchi sohalari yoki «to‘sis sohalari» xizmat qiladi.

**Harakatni idrok qilish** masalasini ko‘rib chiqamiz. Agar jism fazoda harakatlanayotgan bo‘lsa, u holda biz, uning harakatini yaxshi ko‘rinish sohasidan chiqishi bilan, unda yana nigohimizni to‘xtatishimiz uchun ko‘zlar yoki boshni harakatlantirishimizga majbur qilishining natijasi sifatida idrok etamiz. Bunda ikki hodisa sodir bo‘ladi. Birinchidan, jismning tanamiz holatiga nisbatan surilishi uning fazodagi harakatlanishidan darak beradi. Ikkinchidan, miya jismni kuzayotgan ko‘zlar harakatini qayd etadi. Ikkinchi holat harakat idroki uchun juda muhimdir, lekin ko‘zlar harakati haqidagi axborotni qayta ishlash mexanizmi o‘ta murakkab va qarama-qarshi jarayondir.[1]

Ammo, harakat idroki ko‘zlarning harakati bilangina tushuntirilmaydi,- ko‘z bir vaqtda qarama-qarshi tomonlarga harakatlana olmasada, biz bir vaqtning o‘zida harakatni ikki qarama-qarshi yo‘nalishda idrok etamiz. SHu bilan birga, harakat taassuroti uning reallikda mavjud emasligida yuzaga kelishi mumkin, masalan, kichik tanaffuslar bilan ekranda ob‘ekt harakati fazalarini amalga oshiruvchi tasvirlarni ketma-ket ko‘rsatish. Bu **stroboskopik ta‘sir** bo‘lib, uning yuzaga kelishi uchun alohida seskantiruvchilar ma‘lum vaqt oraliqlarida bir-biridan uzoqlashtirilgan bo‘lishi lozim. Stroboskopik ta‘sirdagi eng katta tanaffus 0,45 sek.ga teng. Kinematografiyadagi harakatlar idroki xuddi mana shu ta‘sir asosida amalga oshiriladi.[1]

Harakatlar idrokida vositali harakatlar tasavvurini hosil qiluvchi qo‘shimcha belgilar muhim ahamiyat kasb etadi. Qo‘shimcha belgilardan foydalanish mexanizmi harakatning biror-bir belgilarini aniqlashda ularning intellektual qayta ishlanishi va jismning harakatlanayotgani haqida fikr bildirilishidan iborat. Xuddi shunday, harakat tasavvuri harakatsiz jismning qismlari uchun noodatiy holatni yuzaga keltirishi mumkin. Harakat haqida tasavvurlarni hosil qiluvchi «kinetik holatlar» qatoriga, jismning engashtirilgan holati, shaklining noaniqligi va boshqalar kiradi.

Harakat idrokining barcha nazariyalarini ikki guruhga ajratish mumkin. Nazariyalarning birinchi guruhi harakat idrokini oddiy, ketma-ket keladigan ko‘rish sezgilarining harakati o‘tadigan alohida nuqtalaridan hosil qiladi va harakat idroki bu oddiy ko‘rish sezgilarining qo‘shilishi natijasida yuzaga kelishini ta‘kidlaydi (V. Vundt).

Ikkinchi guruh nazariyalarining ta‘kidlashiga ko‘ra, harakat idroki bunday oddiy sezgilarga bog‘liq bo‘lmagan maxsus sifatga ega. Bu nazariya vakillari (M. Vertgeymer)ning aytishicha, kuy tovushlarning oddiy yig‘indisi emasligiga, ulardan farqlanuvchi yaxlitlik bo‘lgani kabi, harakat idroki ham bu idrokni tashkil etuvchi oddiy ko‘rish sezgilarining yig‘indisiga teng bo‘lmaydi.

Vertgeymer fikricha, harakat idroki harakatlanuvchi jismlarning o'zini idrok qilishdan farq qiluvchi maxsus kechinma hisoblanadi. Agar ob'ekt turlicha (a) va (b) holatdagi idrokining ikki ketma-ketligi bo'lsa, u holda harakat kechinmasi bu ikki sezgilardan tuzilmaydi, balki, o'rtada turib, ularni birlashtiradi. Bunday harakat kechinmasini Vertgeymer *fi – fenomeni* deb ataydi.

**Vaqt idroki** muammosini o'rganishning murakkabligi vaqtning moddiy dunyo hodisasi sifatida idrok etilmasligidan iborat. Uning kechishi haqida esa ma'lum belgilar bo'yicha mulohaza yuritamiz.[1]

«Biologik soatlar» nomi bilan tanish bo'lgan oddiy marom hodisalari vaqt o'tishining davomiyligi va ketma-ketligini idrok jarayonlari asosida yotadi. Ularga po'stloq va po'stloq osti hosilalarining neyronlarida kechadigan marom jarayonlari kiradi. Masalan, uyqu va hordiqning gallanishi. Qo'zg'alish va tormozlanishning gallanishi kabi nerv jarayonlarining davomiyligiga bog'liq ravishda vaqt haqida ma'lum axborotga ega bo'lamiz. Bundan vaqt idrokini tadqiq etishda, ikki asosiy nuqtai nazarni: vaqt davomiyligi idroki va vaqt ketma-ketligini hisobga olish zarurligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Vaqt bo'lagi davomiyligini sub'ektiv baholash, uning qanday voqealar bilan to'raligiga bog'liq bo'ladi. Agar voqealar ko'p sodir bo'lib, biz uchun qiziqarli bo'lsa, u holda vaqt tez o'tgan bo'ladi. Va, aksincha, voqealar kam bo'lib, bizga qiziqarli tuyulmagan bo'lsa, u holda vaqt sekin o'tgan bo'ladi. Lekin o'tgan voqealarni baholashga to'g'ri kelsa, u holda davomiylikni baholash teskari xususiyatga ega bo'ladi. Turli-tuman voqealarga boy bo'lgan vaqtning bahosini oshirib yuboramiz, vaqt bo'lagi davomli bo'lib tuyuladi. Va, aksincha, biz uchun zerikarli vaqtni munosib baholay olmaymiz, vaqt bo'lagi ahamiyatsizdek bo'lib tuyuladi.

Vaqt davomiyligini baholash hissiyotli kechinmalarga ham bog'liq bo'ladi. Agar voqealar o'ziga nisbatan ijobiy munosabatni hosil qilsa, u holda vaqt tezda o'tib ketadi, salbiy kechinmalarda esa, vaqt bo'lagi cho'zilib ketgandek idrok etiladi.

Vaqtning o'ziga xos bo'lgan xususiyat bu uni ortga **qaytmashligidir**, biz o'tgan vaqtni qaytara olmaymiz. Shu sababli, vaqt o'tishini voqealar qaytmaydigan ketma-ketligining ob'ektiv tartibini o'rnatgan holda idrok etamiz.

Avval bo'lib o'tgan yoki endi bo'ladigan voqelar tartibi yoki ketma-ketligini o'rnatishdan tashqari, vaqtni jamlashdan foydalanamiz, ya'ni, ayni vaqtda qanday voqea sodir bo'lishini bilamiz. Vaqt oralig'ining ma'lum kattaliklaridan foydalanganimiz uchun vaqtni jamlash imkoniyati mavjuddir. Bunday oraliqlarga kun, hafta, oy, yil, asr va h.k.lar kirishi mumkin. Bunday oraliqlarning mavjudligi imkoniyati, ulardagi voqealar ma'lum almashinuvining gallanishi bilan belgilanadi, masalan, quyosh botishi va chiqishi.

Vaqt – yo'nalishli kattalik, vektor bo'lgani uchun faqat o'lchov birliklari (soniya, daqiqa, soat, kun, oy, yil, asr) tizimi bilan emas, balki, hisob olib boriladigan doimiy boshlang'ich nuqta bilan ham ta'riflanadi. Vaqtning tabiiy boshlang'ich nuqtasi, vaqtni avvalgi o'tmish va keyingi kelajakka ajratib turuvchi hozirgi zamondir.

Lekin hozirgi zamon ham namoyon bo'lgan hodisalar qatorida o'zining o'rniga ega, ya'ni, vaqt hisobini olib borish nuqtalari mavjud. Aniq bir odam uchun bunday nuqta bo'lib, uning dunyoga kelish sanasi, insoniyat uchun – umumiy qabul qilingan ma'lum nuqta, masalan, Muhammad Payg'ambarning tug'ilish sanasi hisoblanadi.

SHunday qilib, vaqt idrokida ikki, sub'ektiv va ob'ektiv-shartli nuqtai nazarni ajratish mumkin. Sub'ektiv nuqtai nazar bizning sodir bo'layotgan voqealarni shaxsan baholashimiz, ob'ektiv-shartli esa – hodisalarning ob'ektiv oqimi va shartli boshlang'ich nuqtalar ketma-ketligi yoki vaqt oralig'i bilan bog'liqdir. Agar birinchi nuqtai nazar bizning vaqtni his etishimizni aks ettirsa, ikkinchisi, vaqt yo'nalishida harakatlanishimizga ko'mak beradi.

#### ***4. Idrokda predmet va fon, yaxlit va xususiy o'zaro munosabatlar***

Atrof-olam jismlari birday idrok etilmaydi. Bir xillari yaqqol, «oldingi qatorga» surilgan holatda, boshqalari «orqaga o'tib ketgan» holda, tushunarsiz holatda namoyon bo'ladi. Bunga muvofiq ravishda idrok jismi, yoki ob'ekti, va bizga, bir vaqtning o'zida o'z ta'sirini o'tkazuvchi, lekin orqa planga o'tib ketgan boshqa jismlardan iborat bo'lgan fon ajratiladi. Masalan, kitob javonidan biror kitobni oladigan bo'lsak, biz boshqa ko'pgina kitoblarni idrok etamiz, lekin idrok predmeti, ob'ekti bo'lib, bizga ayni damda zarur va biz izlayotgan kitob hisoblanadi.

Dastlab figura (jism) va fon o'rtasidagi farq tasviriy san'atda yuzaga kelgan. Psixologiyada ushbu muammo mustaqil muammo sifatida daniyalik psixolog E. Rubin tomonidan ko'rib chiqilgan edi. Yakka holatdagi, oldinga chiqqan, e'tiborni o'ziga qaratuvchi hodisaviy maydon qismiga figura, uni o'rab turuvchilarning barchasi esa fon deb aytiladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jism va fonning nisbati – bu dinamik nisbat. Ayni vaqtda fonga tegishli bo'lganlar ma'lum vaqtdan so'ng jismga, va, aksincha, jism fonga aylanishi mumkin. Bunga isbot sifatida rasmdagi ikkilangan tasvirlarni keltirish mumkin.<sup>72</sup>[3]

Jismni fondan ajratib olish, avvalambor, ular o'rtasidagi farqning darajasiga bog'liq bo'ladi. Jism va fon bir-biridan qanchalik ko'p farq qilsa, jism fondan shunchalik oson ajraladi. Xuddi shunday, fon va jism o'rtasidagi ranglar, ayniqsa, bir-biridan keskin farq qiluvchi ranglar bo'yicha tafovut muhim ahamiyatga ega. Masalan, sinf taxtasida bo'r bilan yozilgan so'z yaqqol ko'rinadi, o'qituvchi tomonidan o'quvchi daftarida u yozadigan siyoh bilan tuzatilgan xato esa umuman sezilmasligi mumkin. Agar jism o'xshash jismlar qurshovida bo'lsa, uni ajratib olish qiyinchilik tug'diradi. Agar daryo boshqa daryolarning oqimlari bilan o'ralgan bo'lsa, xarita bo'yicha uning oqimini kuzatib bo'lmaydi.

Jismni fondan ajratib olishni, birinchidan, jismning aniq obrazi bo'lgan ob'ekt haqida ma'lumotga ega bo'lish osonlashtiradi. Ikkinchidan, jismni fondan ajratish jism shaklining ustidan chizib chiqish yoki jismlarni qo'l bilan saralash

---

<sup>72</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 286 p

imkoniyatini engillashtiradi. Uchinchidan, jismni fondan ajratib olish o'xshash faoliyat tajribasini orttirishni engillashtiradi.

Jismni yaxlitligicha idrok qilish bilan birga, uning alohida qismlarini ham idrok etamiz. Bu ikkala tomon ham o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'ladi: yaxlitlikni idrok qilish uning qismlarini idrok qilish bilan belgilanadi, yaxlitlikning o'zi ularning idrok etilishiga ta'sir etadi.[1]

Barchaga ma'lumki, jismning biror qismini o'tkazib yuborsak yoki uni noto'g'ri talqin qilsak, yoki haqiqatda unga tegishli bo'lmagan qismni uning qismi sifatida idrok etsak, jismning idrok etilishi keskin o'zgarib ketadi. Bunday vaziyatlarda jismni o'z holicha qabul qilolmaymiz. Masalan, boshqa so'zlar bilan o'xshash bo'lgan va alohida yozilgan so'zga bir qarashda («chol», «mol» va boshqa so'zlar bilan o'xshash bo'lgan «pol» so'zi), agar harflardan biri noaniq yozilgan bo'lsa, uni noto'g'ri talaffuz qilib o'qishimiz mumkin («pol» so'zining o'rniga - «gol»).

Ob'ektga tegishli qismlar umuman idrok etilmasa yoki noaniq idrok etilsa, yoki ayni damda idrok etilmay qoladigan bo'lsada, shunga qaramay jismni tanib olamiz. Bu holat har bir jism faqat unga xos bo'lgan *tanish belgilariga* ega bo'lganligidan sodir bo'ladi. Masalan, alohida harflari tushirib qoldirilgan so'z keltiramiz «...z.li.». Darhol bu so'zni, albatta, topa olmaysiz, chunki uning tanish belgilari bo'lgan harflar tushirib qoldirilgan. Endi o'qib chiqishga urinib ko'ramiz: «go'z.li.k». SHunday qilib, alohida qismlarning idrok etilishi yaxlitlikning idrok etilishiga ta'sirini ko'rib chiqdik.

Alohida qismlarning idrok etilishi yaxlitlikning idrok etilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida savol tug'iladi. Bu ta'sir, avvalambor, yaxlitlikni idrok qilishda undagi ba'zi bir qismlarining etishmayotganini sezmay qolishimiz mumkinligida kuzatiladi. Masalan, kitob mutoalasida ba'zan tushirib qoldirilgan, ortiqcha harflarni, ularning o'rin almashganini sezmay qolamiz. Bunday holat o'qish malakasining yuqori darajasidagi har bir so'zning yaxlitligicha idrok etilishida kuzatiladi, bu esa uning alohida qismlarining yorqin ranglarda idrok etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Yaxlitlik va qismlar idrokining o'zaro munosabati jism bilan tanishishning turli bosqichlarida birday kechmaydi. Bunda odamlarning individual farqlanishi muhim o'rin egallaydi. Ko'pchilik odamlarda idrokning boshlang'ich davri yaxlitlikni alohida qismlarga ajratmay turib, idrok qilishning ustunligi bilan xarakterlanadi. Ba'zi odamlarda buning aksi kuzatiladi, birinchi navbatda, jismning alohida qismlari farqlanadi.[1]

Individual farqlanishga mos ravishda idrokning ikkinchi davri ham turlicha kechadi. Avval jismning umumiy shakli aniq qismlarga bo'linmagan holda idrok etilsa, keyinchalik, ob'ekt qismlari borgan sayin aniqroq idrok etiladi. Va, aksincha, agar avval jismning qismlari ajratilgan bo'lsa, yaxlitlikka o'tish amalga oshiriladi.

Yaxlitlik va qismlarining idroki faqat individual xususiyatlarga emas, shuningdek, o'tmishdagi tajriba va maylga bog'liq bo'ladi. Masalan, etarlicha o'qish tajribasiga ega bo'lganimiz uchun matnni ko'z yugurtirib, ko'p hollarda xatoliklarga e'tibor bermay, tez o'qiy olamiz. Lekin, agar matndagi xatoliklarni



topishingiz kerak bo'lib qolsa, ma'nosiga tushunib etmasangiz ham, so'zlarning yozilishiga alohida e'tibor qaratasiz. SHunday qilib, idrokni tashkil etishda mayl muhim ahamiyatga molikdir.

Barcha odamlar o'z qiziqishlari va mayllari, shuningdek, qator boshqa xususiyatlariga ko'ra, bir-birlaridan farq qilsalarda, idrokda individual tafovutlar mavjudligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin (10.2 rasm).

Idrokda individual farqlar juda katta bo'lsada, bu farqlarning aniq bir odam uchun emas, odamlarning yaxlit guruhiga tegishli bo'lgan ma'lum tiplarini ajratib ko'rsatish mumkin. Idrok tiplariga: sun'iy (yaxlit) va tahliliy (tafsilotlarni aniqlash), tushuntiruvchi va tavsifiy, ob'ektiv va sub'ektiv tiplar kiradi.

Idrokning *yaxlit tipi* unga moyil bo'lgan shaxslarda jism qoldirgan umumiy taassurot, idrokning umumiy mazmuni, idrok umumiy xususiyatlarining yorqin ifodasi bilan xarakterlanadi. Idrokning bunday tipi bo'lgan odamlar maydachuydalarga kamroq e'tibor beradilar. Ular ko'proq yaxlitlikning ma'nosini ilg'ab oladilar, ko'pchilik tafsilotlar esa e'tiborsiz qolib ketadi.

Idrokning *izchillik tipiga mos shaxslar*, aksincha, qismlar va tafsilotlarni aniq ajratib ko'rsatishga moyil bo'ladi. Ularning idroki, aynan, shunga yo'naltirilgan bo'ladi. Umuman olganda, jism yoki hodisa, idrok etilganlarning umumiy mohiyati orqa ko'rinishga o'tib ketadi, ba'zan esa, umuman sezilmaydi. Ularning hikoyalari doim tafsilotlar va xususiy qismlarni tasvirlashga to'la bo'ladi, buning orqasida yaxlitlikning mohiyati juda ko'p hollarda yo'qolib ketadi.

Idrokning ko'rsatib o'tilgan tiplari chetki qutblar uchun xosdir. Ko'pincha, ular bir-birini to'ldiradi, chunki, ikkala tipning ijobiy xususiyatlariga tayanuvchi idrok samarali hisoblanadi.[2]

Idrokning *tasviriy tipiga* xos bo'lgan shaxslar, ko'rgan va eshitganlari bilan chegaralanadi, idrok etilgan hodisaning mohiyatini tushuntirishga urinmaydilar. Odamlar faoliyati, voqealar yoki qandaydir hodisalarning harakatlantiruvchi kuchlari ularning e'tiboridan chetda qoladi. Aksincha, idrokning *tushuntiruvchi tipiga* xos bo'lgan odamlar bevosita idrokda beriladiganlar bilan qoniqmaydilar. Ular doim ko'rgan yoki eshitganlarini tushuntirib berishga intiladilar. Hulq-atvorning bu tipi ko'pincha idrokning sun'iy tipi bilan uyg'unlashadi.[2]

Idrokning *ob'ektiv tipiga* haqiqatda sodir bo'layotgan voqealarga qat'iy muvofiqlik xosdir. Idrokning *sub'ektiv tipiga* mos shaxslar esa ularga berilganlardan chetga chiqadilar va o'zlaridan ko'p narsa qo'shadilar. Ularning idroki jismlarga nisbatan sub'ektiv munosabatga, avvaldan tarkib topgan taxminlarga asoslangan mulohazali munosabatni nohaq oshirib baholashga bo'ysunadi. Bunday odamlar o'z hikoyalariida idrok etganlarini emas, balki, bu haqdagi o'zlarining sub'ektiv taassurotlarini, ayni damdagi his-tuyg'ulari va kechinmalarini etkazadilar.

Individual farqlar o'rtasida kuzatishdagi farqlash katta ahamiyatga ega. **Kuzatuvchanlik** – bu jismlar va hodisalardagi sezilarsiz, o'z-o'zidan ko'zga tashlanmaydigan, lekin istalgan nuqtai nazar yuzasidan ahamiyatli yoki xususiyatga ega bo'lgan belgini payqash malakasi. Kuzatuvchanlikka xos bo'lgan belgi sezilarsiz, lekin ahamiyatli belgining idrok qilish tezligi. Kuzatuvchanlikdagi farqlar shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Xuddi shunday,

qiziquvchanlik kuzatuvchanlikning rivojlanishiga ko'mak beruvchi omil bo'lib hisoblanadi.[1]

Idrokni oldindan mo'ljallanganlik darajasiga ko'ra farqlash mumkin. Oldindan ko'zlanmagan (ixtiyorsiz) va oldindan ko'zlangan (ixtiyoriy) idroklar mavjud. *Ixtiyorsiz* idrokda biror jismni idrok qilish maqsadi yoki vazifasini qo'ymaymiz, *ixtiyoriy* idrok esa maxsus ko'zlangan maqsad yoki vazifaga yo'naltirilgan. Idrok mustaqil faoliyat sifatida, ayniqsa, *kuzatish*da yaqqol namoyon bo'ladi, kuzatish oldindan mo'ljallangan, rejali va u yoki bu darajada davomli idrok bo'lib, idrok ob'ektida sodir bo'ladigan qandaydir hodisa yoki o'zgarishni aniqlash maqsadida o'tkaziladi.[1]

Ammo, kuzatuvchanlik ham idrok kabi tug'ma xususiyat bo'lib hisoblanmaydi. YAngi tug'ilgan chaqaloq atrof-olamni jismlarning yaxlit manzarasi ko'rinishida idrok etolmaydi. Bolaning atrof-olamdan jismlarni dastlabki ajratib olish hodisasini uning bu jismlarni sinchiklab qarayotganidan sezish mumkin.

B.M. Teplovning fikriga ko'ra, bolada jismning predmetlilik belgilari erta go'daklik davrida (2-4 oylikda) jismlar bilan harakatlarning shakllanishida namoyon bo'la boshlaydi. 5-6 oylikka kelib, bolada qo'llayotgan jismda nigohning jamlanishi holatlarining ko'payishi kuzatiladi. Bog'chachagacha bo'lgan davrdan maktabgacha davrga o'tishda o'yin va konstruktiv faoliyat ta'sirida bolalarda ko'rish analizi va sintezining murakkab turlari, shuningdek, idrok ob'ektini ko'rish maydonida xayolan bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakni alohida, so'ngra ularni yaxlitlagan holda tadqiq etish layoqati tarkib topadi.[2]

Ta'lim olish jarayonida maktabdagi bola idroki faol ravishda rivojlanadi, bu jarayonlar bir necha bosqichlarda amalga oshadi. Birinchi bosqich jismdan foydalanish jarayonida obrazining mutanosib holda tarkib topishi bilan bog'liq. Keyingi bosqichda bolalar qo'l va ko'z harakatlari yordamida jismlarning fazoviy xususiyatlari bilan tanishadilar. Navbatdagi, psixik rivojlanishning yuqori darajalarida bolalar oz fursatda va ortiqcha harakatlarsiz idrok ob'ektlarining ma'lum xossalarini tanib olish, shu xossalar asosida ularni bir-biridan farqlash layoqatiga ega bo'ladilar.

Idrok rivojlanishining muhim sharti *mehnat*dir, u bolalarda ijtimoiy foydali mehnat shaklida, masalan, uydagi vazifalarini bajarish bo'yicha, shuningdek, chizish, yasash, musiqa, o'qish va boshqalar bilan shug'ullanishda namoyon bo'ladi. Bola uchun o'yinda qatnashish ham ahamiyatlidir.[2]

Katta odam bilan solishtirganda, yosh bola idrokining xususiyatlari qanday va ular nimada namoyon bo'ladi? Avvalambor, bola jismlarning fazoviy xossalarini baholashda juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yadi. Bolalarda, hatto, ko'z bilan chiziqli chamalsh kattalarnikiga qaraganda yaxshi rivojlanmagan. Masalan, chiziq uzunligini idrok qilishda bolaning xatolari, katta odamnikiga qaraganda, taxminan besh marta ko'p bo'lishi mumkin. Vaqt idroki yana ham ko'proq qiyinchilik tug'diradi. Bola «ertaga», «kecha», «oldin» va «kechroq» kabi tushunchalarni juda qiyinchilik bilan egallaydi. Bolalar jismlar tasvirini idrok qilishda ham qiyinchiliklarga duch keladi. SHunday qilib, bola idrokining o'ziga xos xususiyatlari bola bilimining etishmasligi va unchalik katta bo'lmagan amaliy

tajriba bilan belgilanadi. Vaqt o'tishi bilan bu muammolar bartaraf etiladi va katta maktab yoshiga kelib, bolalar idroki katta odam idrokidan sira farq qilmay qoladi.

### MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Idrok:
  - a) jismlarning ahamiyatli xossa va sifatlarini yig'indi holatida aks ettirish;
  - b) moddiy olam jismlarini aks ettirishda paydo bo'ladigan sezgilar yig'indisi;
  - v) jism va hodisalarni ularning mos retseptorlarga bevosita ta'sir ko'rsatishida yaxlit aks ettirish;
  - g) voqelikning bilan inson o'tmish tajribasi o'rtasidagi munosabatning bog'liqligi.
2. Idrokning fazoviy, vaqt, harakat idroklariga tasniflanishining asosiy mezonini:
  - a) etakchi analizator;
  - b) aks ettirish jismi;
  - v) materiya mavjudligi shakli;
  - g) sub'ekt faolligi.
3. Idrokning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga bo'linishiga asos bo'lib xizmat qiladi:
  - a) etakchi analizator;
  - b) aks ettirish jismi;
  - v) materiya mavjudligi shakli;
  - g) sub'ekt faolligi xususiyatining maqsadga yo'nalganligi.
4. Idrokning inson psixik hayotining mazmuni va shaxs xususiyatlariga bog'liqligi:
  - a) insayt;
  - b) persepsiya;
  - v) appersepsiya;
  - g) sensibellik.
5. Taktil va harakat sezgilari asosida hosil bo'ladigan idrok turi, - bu:
  - a) appersepsiya;
  - b) illyuziya;
  - v) kuzatuvchanlik;
  - g) teri-tuyish.

### 10. MAVZU: DIQQAT

#### REJA:

1. Diqqatning mohiyati.
2. Diqqatning fiziologik asoslari va psixologik nazariyalari.
3. Diqqatning vazifalari va turlari.
4. Diqqatning xossalari.
5. Diqqatning rivojlanishi.

#### *1. Diqqatning mohiyati*

Diqqat psixologik noyob hodisa bo'lib, hozirgacha ruhshunoslar u haqda yagona fikrga ega emaslar. Ba'zi bir mualliflarning

fikriga ko'ra, diqqat istalgan psixik jarayonda u yoki bu darajada ishtirok etganligi sababli, mustaqil hodisa sifatida o'rganilishi mumkin emas. Boshqalar esa diqqatning psixik jarayon sifatida mustaqilligini yoqlaydilar.

Bundan tashqari, diqqatning psixik hodisalarning qaysi sinfiga tegishliligi haqida ham turli fikrlar mavjud. Ba'zilar ta'kidlashiga ko'ra, diqqat – bu psixik bilish jarayoni. Boshqalar diqqat har bir faoliyatning zarur sharti ekanligiga, diqqatning o'zi esa ma'lum iroda kuchlarining ifodalanishini talab etishiga asoslangan holda, diqqatni iroda va insonning faoliyati bilan bog'laydilar.[1]

Diqqat hodisasini tushuntirishning murakkabligi, uning «toza» ko'rinishda uchramasligidan iborat. Diqqat o'zining bilish mazmuniga ega emas, u faqat boshqa bilish jarayonlari faoliyatiga xizmat ko'rsatadi. SHuning uchun diqqatni bilish jarayonlarining o'sish xususiyatlarini xarakterlovchi holat, psixofiziologik jarayon sifatida o'rganish zarur. Diqqat o'zi nima?

**Diqqat** – bu psixik faoliyatning biror-bir ma'lum narsaga yo'nalganligi va jamlanganligi. Bu hayvonlar, shuningdek, inson diqqatlarining umumiy ta'rifi. Insonga nisbatan **diqqatni** ma'lum ob'ektlarga inson diqqatining, bir vaqtning o'zida boshqa ob'ektlardan chalg'igan holda, yo'nalganligi va jamlanganligi sifatida o'rganish mumkin. Bu ta'rifdan diqqatning ahamiyatga molik belgilari uning yo'nalganligi va jamlanganligidan iborat ekanligi kelib chiqadi.

Psixik faoliyatning **yo'nalganligi** ostida uning tanlash xususiyati, ya'ni, sub'ekt uchun ahamiyatli bo'lgan aniq jismlar, hodisalarni atrof-muhitdan ajratib olish yotadi. Yo'nalganlik tushunchasiga, shuningdek, ma'lum vaqt oralig'ida psixik faoliyatni saqlab qolish ham kiritiladi.[1]

Diqqatning boshqa xususiyati uning faoliyatga u yoki bu darajada chuqurlashganligini tushuntirib beruvchi **jamlanganligidir**. Vazifa qanchalik murakkab bo'lsa, diqqatning jadalligi va zo'riqishi shunchalik kuchli bo'lishi kerak, ya'ni, bunda faoliyatga chuqur kirib borish talab etiladi. Ikkinchi tomondan, jamlanganlik boshqa yot narsalardan chalg'ish bilan bog'liq. Aks holda, yot narsalardan chalg'iy olmay qolsangiz, vazifani bajarishingiz qiyinlashadi.

Yo'nalganlik va jamlanganlik bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'liq. Diqqatingizni biror-bir narsaga yo'naltiradigan bo'lsangiz, bir vaqtning o'zida diqqatingizni unda jamlagan bo'lasiz. Va aksincha, biror-bir narsada jamlansangiz, o'z ruhiy faoliyatingizni unga yo'naltirgan bo'lasiz. Diqqatning yo'nalganligi bir mashg'ulotdan ikkinchisiga o'tish bilan, jamlash esa – mashg'ulotda chuqurlashish bilan bog'liq.

Diqqatning inson psixik faoliyatida tutgan o'rnini tushunish uchun o'zingizni biror-bir jismlar guruhiga qarayotgandek tasavvur qiling. Ko'rish maydoningizning markazida joylashgan ba'zi bir jismlar aniqroq, ko'rish maydoningizning chetida turganlari esa aksincha idrok etiladi. SHunga o'xshash hodisani ongimizga nisbatan ham tuzish mumkin: faoliyatimiz mohiyati ongimizning markazini egallagan bo'ladi; ahamiyatga molik bo'lmaganlari esa ongimizdan chetga surilib qoladi. Lekin boshqacha ham bo'lishi mumkin: siz qandaydir jismga qaragan holda, umuman, boshqa narsa haqida o'y surasiz. Bunda ongingizning «markaziy maydoni» ko'rayotganingiz bilan emas, o'ylayotganingiz bilan band bo'ladi.

Ongimizni grafik tarzda tasvirlaydigan bo'lsak, biri ikkinchisiga joylashgan ikki aylana ko'rinishida chizish zarur. Katta aylana aniq bo'lmagan ong, kichik aylana esa, – aniq ong yoki diqqat deb ataladi.[2]

Psixik bilish jarayonlarining yo'nalganligi va tanlash xususiyati diqqat bilan bog'liq. Diqqat bilan idrokning aniqligi va izchilligi, xotiraning mustahkamligi va tanlash xususiyati, aqliy faoliyatning yo'nalganligi va samaradorligi, qisqasi, umuman bilish faolligining sifati va natijalari aniqlanadi.

Perseptiv jarayonlar uchun diqqat tasvirlar chizgilarini farqlash imkonini beruvchi o'ziga xos kuchaytirgich bo'lib hisoblanadi, inson xotirasi uchun diqqat qisqa muddatli va operativ xotirada kerakli ma'lumotni saqlab turuvchi omil, yodda saqlangan ma'lumotni uzoq muddatli xotira zahirasiga o'tkazishining zarur sharti, tafakkur uchun esa masalani tushungan holda echimini topishning shartli omili sifatida namoyon bo'ladi.

Insonlararo munosabatlar tizimida diqqat o'zaro hamfikrlilik, odamlarning bir-birlariga moslashishi, shaxslararo nizolilarning oldini olish va o'z vaqtida hal etishga yordam beradi.[2]

## **2. Diqqatning fiziologik asoslari va psixologik nazariyalari.**

Diqqat boshqa psixik jarayonlar qatori ma'lum fiziologik hodisalar bilan bog'liq. Ma'lum yo'nalishdagi alohida qo'zg'atuvchilarni ajratish va jarayonlar kechishining fiziologik asosini ba'zi nerv markazlarining qo'zg'alishi, boshqalarining esa tormozlanishi tashkil etadi. Odamga ta'sir ko'rsatayotgan seskantiruvchi retikulyar formatsiya tomonidan amalga oshiriladigan miya faollashishini yuzaga keltiradi.[1]

Retikulyar formatsiyaning «ishga tushirish» mexanizmlari ichida **taxminiy refleks**ni alohida ta'kidlab o'tish joiz, bu refleks odam va hayvon organizmlarining atrof-muhitning barcha o'zgarishlariga nisbatan tug'ma reaksiyasidir. Masalan, xonada shitirlagan ovoz eshinishi bilan oq, mushuk bolasi cho'chib tushib, tovush kelgan tomonga ko'zlarini qadaydi. Darsda o'quvchilar fikrlarini jamlagan holda insho yozmoqdalar. Birdan sinf eshigi qiya ochiladi, va berilib yozayotgan o'quvchilar beixtiyor eshikka qaraydilar.

Diqqatning fiziologik mexanizmlari juda murakkab. Masalan, ma'lum vaqt oraliq'ida doimiy ta'sir ko'rsatayotgan seskantiruvchilar orasidan biror-bir yangi seskantiruvchini ajratib olish uchun ma'lum mexanizmlar zarur. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda, odatda, mexanizmlarning seskantiruvchilarni filtrlovchi ikki asosiy: periferik va markaziy guruhlari ko'rib chiqiladi. **Periferik** mexanizmlarga his-tuyg'u organlarini sozlashni kiritish mumkin. Kuchsiz tovushni eshitgan odam tovush kelgan tomonga qaraydi, shu vaqtning o'zida mos keluvchi mushak nog'ora pardasining ta'sirchanligini oshirgan holda uni tortadi.[1]

D.E. Brodbentning fikricha, diqqat – axborotni, aynan, kirib kelishda, ya'ni periferiyada tanlab o'tkazuvchi filtr. U, agar odam bir vaqtning o'zida turli axborotni ikki qulog'i bilan qabul qilgan bo'lsa, lekin qo'llanmaga binoan, faqat chap qulog'i bilan qabul qilishi zarur bo'lgan holatda, o'ng quloqqa uzatilgan axborot umuman qabul qilinmaganligini aniqladi. Keyinchalik periferik mexanizmlar axborotni fizikaviy xususiyatlariga ko'ra tanlab o'tkazishi aniqlandi.

Diqqatning *markaziy* mexanizmlari bir xil nerv markazlarining qo'zg'alishi, boshqalarining tormozlanishi bilan bog'liq. Nerv qo'zg'alishining kuchi bilan bog'liq bo'lgan tashqi ta'sirlarni ajratish aynan shu darajada sodir bo'ladi. Kuchli qo'zg'alish u bilan bir vaqtda sodir bo'lgan kuchsiz qo'zg'alishni siqib chiqaradi va psixik faoliyatning muvofiq yo'nalishda kechishini belgilaydi. Lekin bir vaqtning o'zida ta'sir ko'rsatib, bir-birini kuchaytiruvchi bir yoki ikki seskantiruvchilarning qo'shilish ehtimoli ham mavjud.[2]

Diqqatning fiziologik asoslari haqida gap yuritilganida, yana ikki muhim hodisa: nerv jarayonlarining irradiatsiyasi va dominantlik haqida aytib o'tish joiz. CH. SHerrington tomonidan belgilangan va akademik I.P. Pavlov tomonidan keng qo'llanilgan nerv jarayonlarining induksiyasi qonuniga binoan, bosh miya po'stlog'ining biror sohasida yuzaga keladigan qo'zg'alish boshqa sohaslarining tormozlanishiga sabab bo'ladi (baravar induksiya) yoki miya ushbu sohasining tormozlanishi bilan almashinadi (ketma-ket induksiya). Irradiatsiya hodisasi sodir bo'ladigan bosh miya po'stlog'i sohasida qo'zg'alish uchun qulay sharoitlar yaratilgani uchun darajalar oson ishlab chiqariladi, yangi shartli aloqalar samarali tarzda o'rnatiladi. Bu fiziologik jarayonlar diqqatni ta'minlaydi.<sup>73</sup>

A.A. Uxtomskiy tomonidan oldinga surilgan dominantlik tamoyiliga ko'ra, miyada doimo ma'lum vaqt ichida nerv markazlari faoliyatini belgilab beruvchi va shu bilan inson hulq-atvoriga ma'lum yo'nalganlik bag'ishlovchi qo'zg'alishning vaqtincha hukmron o'chog'i mavjud bo'ladi. Dominantlik xususiyatlariga asoslangan holda nerv tizimiga keluvchi impulslar to'planadi va jamlanadi, shu vaqtning o'zida boshqa markazlar faolligi susayadi, buning hisobiga qo'zg'alish kuchaytiriladi. Bu xossalarga binoan, dominantlik qo'zg'alishning barqaror o'chog'i hisoblanadi, bu esa o'z navbatida diqqat jadalligini mustahkamlovchi nerv mexanizmini tushuntirishga imkon yaratadi.[1]

SHunday bo'lsada, na nerv jarayonlari induksiyasi qonuni, na dominantlik ta'limoti diqqatning, ayniqsa, ixtiyoriy diqqatning mexanizmlarini to'laligicha ochib bera olmaydi. SHuning uchun, hozirgi zamon fanining taraqqiyoti diqqatning fizilogik mexanizmlarini tushuntirib berishga urinayotgan qator konsepsiyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Hozirgi zamon tadqiqotchilari neyrofiziologik jarayonlarga ko'proq e'tibor ajratadilar. Sog'lom odamlarda diqqatning zo'riqishi sharoitlarida miyaning istalgan sohasida bioelektrik faollikning o'zgarishlari yuzaga kelishi aniqlandi. Bu faollikni peshona sohasida joylashgan neyronlarning alohida turi faoliyati bilan bog'laydilar. Neyronlarning birinchi turi – «yangilik detektorlari» yangi rag'batlar ta'sirida faollashadilar va ularga o'rganib qolish darajasiga ko'ra faollikni kamaytiradilar. Ulardan farqli ravishda «kutish» neyronlari organizm dolzarb ehtiyojni qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan ob'ekt bilan uchrashganidagina qo'zg'aladilar.

Shunday qilib, diqqat bir-biri bilan o'zaro bog'langan miya tuzilmalarining yaxlit tizimi faolligi bilan ta'minlanadi. Diqqat fiziologik mexanizmlarining o'ta murakkab tuzilishi va uning tabiatiga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar diqqatning bir qator psixologik nazariyalarining paydo bo'lishiga olib keldi.

---

<sup>73</sup> Г.Югай. Н.Мираширова "Умумий психология" Тошкент 134 б.

Diqqatning nazariyalari orasida T. Ribo nazariyasi keng ommalashgan nazariya hisoblanadi, uning fikricha, diqqat har doim hissiyotlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida yuzaga keladi. Uning fikriga ko'ra, ixtiyoriy diqqatning jadalligi va davomiyligi diqqat ob'ekti assotsiatsiyalangan emotsional holatning jadalligi va davomiyligi bilan ta'minlaganligi sababli, T. Ribo hissiyotlar va ixtiyoriy diqqat o'rtasidagi alohida uzviy bog'liqlikni ko'ra oldi.[2]

Bundan tashqari, T. Ribo diqqat doimo organizmning jismoniy va fiziologik holatlarining o'zgarishlari bilan birgalikda kechishini uqtiradi. Bunda diqqat tabiatini tushuntirishda Ribo harakatlarga alohida o'rin ajratadi. Uning fikricha, diqqatning jamlanganlik holati organik reaksiyalar bilan birga diqqatni ma'lum darajada tutib turishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladigan tana, yuz, gavda, oyoq-qo'llar qismlarining harakatlari bilan birgalikda kechadi. Biror-bir ob'ektda diqqatni jamlash va ushlab qolishga ketkaziladigan urinish har doim fiziologik asosga ega bo'ladi. Bu holatga, Riboning fikri bo'yicha, mushak zo'riqishi mos keladi, diqqatning chalg'ishi esa, mushak charchog'i bilan bog'liq bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, ixtiyoriy diqqat siri, Ribo nuqtai nazariga ko'ra, harakatlarni boshqarish qobiliyatidan iborat. SHuning uchun ushbu nazariya *diqqatning motorika nazariyasi* deb nomlanishi tasodifiy emas.

Ribo nazariyasidan tashqari, diqqat tabiatini tadqiq etishga turli xil boshqa yondoshuvlar ham mavjud. D.N. Uznadze fikricha, diqqat to'g'ridan-to'g'ri mayl bilan bog'langan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, mayl diqqat holatini ichkaridan ifodalaydi. Mayl ta'siri ostida voqeiy atrof-muhitni idrok qilishda hosil qilinadigan ma'lum obraz yoki taassurotning ajralishi sodir bo'ladi. Bu obraz yoki taassurot diqqat ob'ektiga aylanadi, jarayonning o'zi esa ob'ektivlashtirish deb nomlanadi.[2]

P.YA. Galperin ham diqqatning qiziqarli konsepsiyasini taklif etdi. Uning konsepsiyasi quyidagi asosiy holatlardan iborat:

1. Diqqat yo'nalishli-tadqiqot faoliyatining vaziyatlaridan biri bo'lib, obraz, fikr, inson psixikasida ma'lum vaqtda mavjud bo'lgan boshqa hodisa mazmuniga qaratilgan psixik harakatdan iborat.

2. Diqqatning asosiy vazifasi – psixik obraz, harakat mazmuni va boshqalar ustidan nazorat qilish. Insonning har bir harakatida yo'nalganlik, bajaruvchilik va nazorat qilish qismlari mavjud. Mana shu oxirgi qismi diqqat tomonidan gavdalantiriladi.

3. Ma'lum mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan harakatlardan farqli o'laroq, nazorat yoki diqqat faoliyati alohida natijaga ega bo'lmaydi.

4. Diqqat mustaqil akt sifatida harakat aqliy bo'lib qolmasdan, qisqartirilgan holatda bo'lgandagina ajralib chiqadi. Bunda har qanday nazoratni ham diqqat sifatida o'rganib bo'lmaydi. Nazorat harakatni umumiy tarzda baholaydi, diqqat esa uning yaxshilanishini ta'minlaydi.

5. Diqqat psixik nazorat faoliyati sifatida o'rganiladigan bo'lsa, u holda diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz ma'lum aktlari yangi aqliy harakatlar shakllanishining natijasidir.

6. Ixtiyoriy diqqat reja asosida amalga oshiriladigan diqqatdir, bu oldindan tuzilgan reja yoki namuna bo'yicha bajariladigan nazorat shaklidir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, ko'p sonli nazariyalarning mavjudligiga qaramasdan, diqqat muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Diqqat tabiati haqidagi bahslar avvalgidek davom etmoqda.[1]

### **3. Diqqatning vazifalari va turlari**

Diqqat inson hayoti va faoliyatida ko'plab turli xil vazifalarni bajaradi. U zarur bo'lgan psixologik va fiziologik jarayonlarni faollashtiradi, qolganlarini esa susaytiradi, organizmga etkazilayotgan axborotning uning dolzarb ehtiyojlariga muvofiq holda tashkil etilishi va maqsadga yo'nalganlik bilan tanlab o'tkazilishiga yordam beradi, ruhiy faollikning biror ob'ekt yoki faoliyat turida tanlab va davomli tarzda jamlanishini ta'minlaydi.

Diqqatning asosiy turlarini ko'rib chiqamiz. Bularga tabiiy va ijtimoiy belgilangan, bevosita va bilvosita diqqat, ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqat, hissiy va intellektual diqqat kiradi.

Diqqatni tashkil etishda insonning faolligiga ko'ra diqqatni uch turga bo'lish mumkin: ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi diqqatlar.

**Ixtiyorsiz diqqat** – bu ongning seskantiruvchi sifatidagi alohida xususiyatiga muvofiq holda ob'ektda jamlanganligi.

**Ixtiyoriy diqqat** – bu ob'ektda faoliyat talablariga ko'ra yo'naltirilgan, ongli boshqariladigan jamlanganlik.

Ixtiyorsiz diqqat maqsad qo'yish va iroda qatnashuvi bilan bog'liq emas, ixtiyoriy diqqat uchun esa iroda boshqaruvi va maqsadning mavjud bo'lishi shart. Odatda, ixtiyorsiz diqqatning yuzaga kelishida jismoniy, psixofizik va ruhiy sabablarning yaxlit to'plami bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Ular bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'lsada, shartli ravishda quyidagi to'rt darajaga bo'lish mumkin.

Sabablarning birinchi guruhi **tashqi qo'zg'atuvchi** xususiyati bilan, avvalambor, seskantiruvchining kuchi yoki jadalligi bilan bog'liq. Masalan, siz biror ishni ishtiyoq bilan bajarayotganingizdan, qo'shni xonadagi yoki ko'chadagi engil shovqinni eshitmaysiz. Lekin to'satdan oldingizda polga tushgan og'ir jismning baland tovushi eshitaladi, bu beixtiyor diqqatingizni jalb qiladi.

Ixtiyorsiz diqqat uchun seskantiruvchilar o'rtasidagi keskin farq, shuningdek, seskantiruvchi ta'sirining davomiyligi, uning o'lchamlari va shakli, yangiligi, noodatiyligi kabi sifatleri ham muhim ahamiyatga ega.[2]

Ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiruvchi sabablarning ikkinchi guruhi **tashqi seskantiruvchilarning** odamning **ichki holatiga** muvofiqligi, va birinchi navbatda, uning ehtiyojlariga mos kelishi bilan bog'liq. Masalan, qorni to'q va qorni ochiqqan odamlar ovqat to'g'risidagi suhbatga turlicha munosabat bildiradilar.

Sabablarning uchinchi guruhi shaxsning **umumiy yo'nalganligi** bilan bog'liq. Bizni ko'proq qiziqtiradigan va qiziqishlar sohamizni, shuningdek, kasbiy qiziqishlarimizni tashkil etuvchilar, qoidaga ko'ra, tasodifan duch kelib qolgan bo'lsak ham, e'tiborimizni o'ziga tortadi.

Va, nihoyat, ixtiyorsiz diqqatni yuzaga keltiradigan sabablarning to'rtinchi guruhini ta'sir etuvchi seskantiruvchi hosil qiladigan **his-tuyg'ular** tashkil etadi.



Biz uchun qiziqarli bo'lgan, ma'lum emotsional reaksiyani hosil qiladiganlar ixtiyorsiz diqqatning muhim sababi bo'lib hisoblanadi.

Ixtiyorsiz diqqatdan farqli ravishda ixtiyoriy diqqatning asosiy xususiyati, uning ongli maqsad tomonidan boshqarilishi va iroda kuchi bilan bog'liqligidir. Ixtiyoriy diqqatning asosiy vazifasi psixik jarayonlar kechishini faol boshqarish hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan sifat jihatidan farq qilishiga qaramay, ixtiyoriy diqqat, shuningdek, his-tuyg'ular, qiziqishlar, odamning avval orttirilgan tajribasi bilan bog'liq. Lekin ixtiyoriy diqqatda bularning ko'rsatadigan ta'siri bevosita emas, aksincha, bilvositadir.

Diqqatning yana bir turi mavjud. Ixtiyoriy diqqatga o'xshash, maqsadga yo'nalganlik xususiyatiga ega bo'lib, va dastlab iroda kuchini talab etadi, lekin keyinchalik odam ishga «kirib boradi»: faoliyatning natijasi emas, balki, uning mazmuni va jarayoni ham qiziqarli bo'lib, ahamiyat kasb eta boshlaydi. Bunday diqqat N.F. Dobrinin tomonidan *ixtioriyydan keyingi* diqqat deb nomlandi. Masalan, o'quvchi qiyin arifmetik masalani echa turib, dastlab, unga ma'lum kuch sarf etadi. Masala murakkab, o'quvchi chalg'iy boshlaydi. U o'zini, irodasini ishga solgan holda, masalani echishga majburlaydi. Mana, masalani echishga birinchi urinish natija berdi, echishning to'g'ri usuli belgilab olindi. Masala oydinlasha boradi. Masala o'quvchining ishtiyoqini band eta boshlaydi. U endi chalg'imasdan, qiziqarli masalaga kirishib ketadi. Diqqat ixtioriyydan ixtiyorsizga aylandi.

Haqiqiy ixtiyorsiz diqqatdan farq qilib, ixtioriyydan keyingi diqqat ongli maqsadlar bilan bog'langan holatda qoladi va ongli qiziqishlar tomonidan quvvatlab turiladi. SHu bilan birga, ixtiyoriy diqqatdan farqli ravishda bunda iroda kuchi deyarli bo'lmaydi yoki umuman mavjud emas.[1]

Diqqatning ko'rib chiqilgan uch xil turi inson faoliyati amaliyotida o'zaro bir-biriga o'tishlar bilan uzviy chatishib ketadi va biri ikkinchisiga tayanadi.

**Tabiiy diqqat** o'zida axborot yangiligi unsurini tashuvchi, u yoki bu tashqi va ichki rag'batlarga nisbatan tanlab javob qaytarishning tug'ma qobiliyati ko'rinishida odamga tug'ilishi bilanoq beriladi. Tabiiy diqqat faoliyatini ta'minlovchi asosiy mexanizm *taxminiy refleks* deb ataladi.

**Ijtimoiy belgilangan diqqat** hayot davomida ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadi, hulq-atvorning iroda tomonidan boshqarilishi, ob'ektlarga tanlab ongli ravishda javob qaytarish bilan bog'liq bo'ladi.

**Bevosita diqqat** odamning ehtiyojlari va dolzarb qiziqishlariga mos keladigan va o'zi yo'naltirilgan ob'ektdan tashqari, hech bir narsa tomonidan boshqarilmaydi.

**Bilvosita diqqat** maxsus vositalar, masalan, imo-ishoralar, so'zlar, ko'rsatkich belgilar, jismlar yordamida boshqariladi.

**Hissiy diqqat** afzalligiga ko'ra, hissiyotlar va his-tuyg'u organlarining tanlab ta'sir ko'rsatish faoliyati bilan bog'liq.

**Intellektual diqqat** fikrning yo'nalganligi va jamlanganligi bilan bog'liq.

Hissiy diqqatda ong markazida biror-bir hissiy taassurot joylashgan bo'ladi, intellektual diqqatda esa qiziqish ob'ekti bo'lib g'oya xizmat qiladi.[2]

Diqqat, uni mustaqil psixik hodisa sifatida xarakterlovchi qator xossalarga ega.

#### 4. Diqqatning xossalari

Diqqatning asosiy xossalari barqarorlik, jamlash, taqsimlash, bo‘linish, chalg‘ish va diqqat hajmi kiradi.

**Diqqatning barqarorligi** ma‘lum vaqt davomida bir xil ob‘ektda fikrni jamlay olishlik qobiliyatidan iborat. Tajriba tadqiqotlari diqqatning ixtiyorsiz davriy tebranishlarga moyilligini ko‘rsatdi. Bunday tebranishlarning davrlari N.N. Lange bo‘yicha, odatda, 2-3 soniyaga, ortig‘i bilan esa 12 soniyaga teng bo‘ladi. Masalan, agar soatning chiqillashiga quloq tutib, unda fikrni jamlaydigan bo‘lsak, u holda u bir eshitiladi, bir eshitilmay qoladi. Diqqat tebranishi qonunga asoslangan bo‘lib, **fluktuatsiya** deb ataladi. Masalan, diqqat fluktuatsiyasini oddiy tajribada namoyish qilish mumkin: kesik piramida beriladi: agar unga ma‘lum vaqt davomida tikilib turilsa, u ketma-ket, yo qavariq, yo botiq bo‘lib ko‘rinadi (8.1 rasm).

Hozirda diqqat barqarorligining ahamiyatli sharti bo‘lib, u jamlangan jismning yangi tomonlari va aloqalarini ochib berish imkoniyati xizmat qilishi isbotlandi. Diqqat barqarorligini o‘lchash uchun alohida harflarning tartibsiz ketma-ketligidan iborat Burdon jadvalidan foydalaniladi, bunda qaytariladigan harflar soni har bir satrda bir xilda bo‘ladi.

**Diqqatni jamlash** ostida diqqatning jismda jamlanganlik jadalligi yoki darajasi tushuniladi. A.A. Uxtomskiyning fikriga ko‘ra, diqqatni jamlash bosh miya po‘stlog‘idagi kuchli qo‘zg‘alish o‘chog‘i faoliyatining xususiyati bilan bog‘liq.

**Diqqatni taqsimlash** ostida odamning bir vaqtning o‘zida bir necha faoliyatlarni bajarish qobiliyati tushuniladi. Hayotiy tajribaga ko‘ra, odam ongli psixik faoliyatning faqat bir turini bajara oladi, bir vaqtning o‘zida bir nechtasini bajarish sub‘ektiv hissi esa ketma-ket tezlik bilan bir faoliyat turidan ikkinchisiga o‘tish oqibatida yuzaga keladi.[2]

Diqqatni taqsimlash darajasi bir qator sharoitlarga: mujassamlashtirilgan faoliyat turlari xususiyatiga (ular bir jinsli va turli xil bo‘lishi mumkin), murakkabligiga (ruhiy zo‘riqishni talab etuvchi darajaga), ma‘lumligi va odatiyligi darajasiga (faoliyatning asosiy usullarini egallab olish darajasiga) bog‘liqdir.

Diqqat taqsimlanishini o‘rganish maqsadida SHulte (qizil-qora rangli jadvallar) jadvallari qo‘llaniladi.

**Diqqatning bo‘linishi** – bu diqqatni bir ob‘ektdan ikkinchisiga ongli va anglangan holda o‘tkazish. Bo‘linish bilan ikki turli yo‘nalishga ega bo‘lgan jarayonlar bog‘liqdir, bular: diqqatni ishga tushirish va uzib qo‘yish. Bo‘linish ixtiyoriy bo‘lishi mumkin, u holda uning tezligi – bu sub‘ektning o‘zining idrok qilishi ustidan irodali nazorati darajasining ko‘rsatkichi, va diqqatning bo‘linishi bilan bog‘liq ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin, bu yo ruhiyatning beqarorligi darajasining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi, yo kutilmagan kuchli seskantiruvchilarning paydo bo‘lishidan dalolat beradi.

Bo‘linishning samaradorligi avvalgi va keyingi faoliyatni bajarish xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi (bo‘linish ko‘rsatkichlari engil faoliyatdan og‘ir faoliyatga o‘tishda ancha kamayadi, aksincha bo‘lganida esa, oshib ketadi). Bo‘linish natijasi insonning avvalgi faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq: avvalgi faoliyat qanchalik qiziqarli va keyingisi unchalik qiziqish uyg‘otmagan

bo'lsa, diqqatning bo'linishi shunchalik qiyinroq kechadi. Bo'linishda asab tizimining xususiyatlari, xususan, asab jarayonlarining qo'zg'aluvchanligi tomonidan belgilangan individual tafovutlar mavjud.[2]

**Diqqat hajmi** – sub'ektning etarlicha aniqlik bilan bir vaqtning o'zida qamrab olishi mumkin bo'lgan ob'ektlar soni. Diqqat ob'ektining muhim va belgilovchi xususiyatlaridan biri, uning o'qitishda va mashq bajarishda umuman o'zgarmasligidir. Diqqat hajmini tadqiq etish, odatda, individ tomonidan aniqlik bilan idrok etiluvchi, bir vaqtning o'zida taqdim etiladigan unsurlar (raqamlar, harflar, jismlar va h.k.) sonini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu maqsadlarda **taxistoskop**dan foydalaniladi – ma'lum sondagi seskantiruvchilarni shunchalik tez, tadqiq qilinuvchi ko'zlarini bir ob'ektdan boshqasiga olib ulgurmasidan oldin taqdim etishga imkon beradigan asbob, diqqat hajmi – individual tarzda o'zgaradigan kattalik, lekin, odatda, odamlarda uning ko'rsatkichi  $5 \pm 2$ ga teng bo'ladi.

**Diqqatning chalg'ishi** – bu diqqatning bir ob'ektdan ikkinchisiga ixtiyorsiz o'tkazilishi. Chalg'ish tashqi seskantiruvchilar ta'sirida yuz berishi mumkin. Diqqatni ko'proq to'satdan paydo bo'ladigan, o'zgaruvchan kuch va chastota bilan ta'sir ko'rsatadigan jism va hodisalar chalg'itadi. Diqqatning ichki chalg'ishi kuchli kechinmalar, yot hissiyotlar, va odam ayni damda mashg'ul bo'lgan ishga qiziqish va mas'uliyatning mavjud emasligi ta'siri ostida paydo bo'ladi.[1]

Chalg'ituvchi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati **to'siqlarga moslashuvchanlik** deb ataladi. Odamlarda bu qobiliyatning rivojlanishida nerv tizimidagi farqlar, aynan, uning kuchi, shuningdek, to'siqlarga qarshilik ko'rsatishni oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar bilan belgilangan ko'plab individual tafovutlar kuzatiladi

Diqqat xususiyatlarini o'rganishda **parishonxotirlik** haqidagi masala muhim ahamiyat kasb etadi. Parishonxotirlik deb, odatda, ikki turlicha hodisaga aytiladi. Birinchidan, ko'p hollarda parishonxotirlik deb, insonning atrofida qilargalarga e'tibor bermasdan, ishga haddan tashqari berilib ketishining natijasiga aytiladi. Parishonxotirlikning bu turi u yoki bu faoliyatda kuchli jamlanganlik natijasida yuzaga kelganligi sababli **soxta parishonxotirlik** deb ataladi.

Parishonxotirlikning umuman boshqa bir turi inson diqqatini hech bir narsada uzoq vaqt jamlay olmagan vaziyatda, hech birida ushlanib qolmasdan, muntazam ravishda bir ob'ektdan ikkinchisiga yoki bir hodisadan ikkinchisiga o'tib turishida kuzatiladi. Parishonxotirlikning bu turi **haqiqiy parishonxotirlik** deb ataladi. Haqiqiy parishonxotirlikdan aziyat chekuvchi insonning ixtiyoriy diqqati o'ta beqarorligi va chalg'ib turishi bilan farqlanadi.

Haqiqiy parishonxotirlikning sabablari turlichadir. Bular asab tizimining umumiy izdan chiqishi, qon kasalliklari, kislorod etishmovchiligi, jismoniy yoki aqliy toliqish, og'ir hissiy kechinmalar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, diqqat parishonxotirlikning sabablaridan biri olingan taassurotlarning ko'pligi, shuningdek, betartib havas va qiziqishlar ham bo'lishi mumkin.

**5. Diqqatning rivojlanishi** ega. Bola hayotining birinchi oylarida faqat ixtiyorsiz diqqatning mavjudligi kuzatiladi.

Bola dastlab kuchli yoki keskin farq qiladigan tashqi qo'zg'atuvchilarni sezadi. Uch oylik bo'lishi bilan bola, hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan ob'ektlar bilan ko'proq qiziqqa boshlaydi. 5-7 oyligida bola etarlicha uzoq vaqt davomida qandaydir jismni kuzatishi, ushlab ko'rishi, og'ziga olishi mumkin. Ayniqsa, yorqin va yaltiroq jismlarga bo'lgan qiziqishi yaqqolroq ko'rinadi. Bu ixtiyorsiz diqqatning to'la rivojlanganligidan dalolat beradi.[2]

Ixtiyoriy diqqatning nishonalari, odatda, birinchi yilning oxiri ikkinchi yilning boshlariga kelib, namoyon bo'la boshlaydi. Bolada ixtiyoriy diqqatning shakllanishi va rivojlanishi uni tarbiyalash jarayoni bilan bog'liq. Bolaning atrofidagi odamlar asta-sekin bolani o'zi istaganini emas, balki, uning qilishi zarur bo'lganlarni bajarishga o'rgatib boradilar.

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin jarayonida bola o'z harakatlarini o'yin talablariga muvofiqlashtirishni va ularni qoidalarga mos ravishda yo'naltirishni o'rganadi. Ko'pchilik jismlar va hodisalar bilan tanishib borish, oddiy munosabatlarni farqlash malakasining asta-sekin shakllanishi, ota-onalar bilan muntazam ravishda suhbatlashish, ular bilan sayr qilish va o'yinlar o'ynash, boshqa jismlar va o'yinchoqlarni o'ynatish – bularning barchasi bolaning shaxsiy tajribasini boyitadi, shu bilan birga, uning qiziqishlari va diqqatini rivojlantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy xususiyati ixtiyoriy diqqatining etarlicha barqaror emasligidan iborat. Bola yot seskantiruvchilarga oson chalg'iydi, uning diqqati o'ta hissiyotlidir. Asta-sekin bolada mashqlar va iroda kuchi yordamida o'z diqqatini boshqara olish layoqati shakllanadi[1]

Ixtiyoriy diqqatning rivojlanishida maktab alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab mashg'ulotlari jarayonida bola intizomga o'rganadi, unda qunt qilish, hulq-atvorini nazorat qilish layoqati shakllanadi. SHuni aytib o'tish lozimki, maktab yoshida ixtiyoriy diqqatning rivojlanishi ham ma'lum bosqichlardan o'tadi. Boshlang'ich sinflarda bola mashg'ulotlarda o'z hulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaydi, unda ixtiyorsiz diqqat ustunlik qiladi.

Yuqori sinflarda o'smirning ixtiyoriy diqqati yuqori taraqqiyot darajasiga ko'tariladi. O'quvchi etarlicha uzoq vaqt davomida ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullana oladi, o'z hulq-atvorini nazorat qiladi. Lekin, shuni ko'zda tutish lozimki, diqqat sifatiga tarbiyalash sharoitlarining o'zi emas, balki, yosh xususiyatlari ham ta'sir ko'rsatadi. 13-15 yoshlarda sodir bo'ladigan fiziologik o'zgarishlar yuqori darajadagi toliqish va ta'sirchanlik bilan birgalikda kechadi, va ba'zi holatlarda diqqatning pasayishiga olib keladi.[1]

SHunday qilib, diqqatning rivojlanishida ikki asosiy bosqichni ajratish mumkin: asosiy xususiyati tashqi tomondan belgilangan diqqatning ustunligidan iborat bo'lgan maktabgacha rivojlanish bosqichi va ichki diqqatning jadal rivojlanishi xususiyatiga ega bo'lgan maktab davri rivojlanishi bosqichlaridir.

## **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Diqqat deb:

a) ob'ektning his-tuyg'u organlariga ta'sir ko'rsatishida yuzaga keladigan psixik faoliyatning shakli;

- b) ob'ektning tanlab idrok qilishi;
  - v) odam ongining ma'lum ob'ektlarga yo'nalganligi va jamlanganligi;
  - g) organizmning ishchi holati, analizatorning qo'zg'alishga bo'lgan mayli.
2. Diqqatning umumiy xususiyati bo'lib, uning ... ko'rsatkichi hisoblanadi:
- a) tezligi;
  - b) aniqligi;
  - v) muvaffaqiyatliligi
  - g) hajmi.
3. Ongning seskantiruvchi sifatidagi alohida xususiyatiga muvofiq holda ob'ektda jamlanganligi:
- a) ixtiyorsiz diqqat;
  - b) ixtiyoriy diqqat;
  - v) ixtiyoriydan keyingi diqqat;
  - g) ko'rishga oid diqqat.
4. Istalgan sub'ektga bo'lgan ixtiyoriy diqqatning yuzaga kelish sababi:
- a) faoliyat maqsadining mavjud emasligi;
  - b) seskantiruvchining yangilanishi;
  - v) faoliyat maqsadini belgilash;
  - g) ob'ektning hissiyotli ahamiyatliligi.
5. Diqqatning bo'linish tezligi nimaga bog'liq?
- a) rag'bat materialiga;
  - b) uning sub'ekt bilan faoliyati xususiyatiga;
  - v) shaxs motivatsiyasi darajasiga;
  - g) sub'ektning gender xususiyatlariga.

## 11. MAVZU. XOTIRA

### REJA:

1. Xotira haqida tushuncha va uning nerv fiziologik asoslari.
2. Xotiraning psixologik nazariyalari.
- 3 Xotira jarayonlari va turlari.
4. Xotirani o'rganish metodlari va amaliy tavsiyalar.

#### ***1. Xotira haqida tushuncha va uning nerv fiziologik asoslari.***

Xotira – shaxs psixik hayotini belgilab beruvchi xususiyat. Uning ahamiyati o'tmish voqealarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Axir hozirgi zamondagi hech qanday harakatni jarayonlardan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi; eng oddiy psixik aktning sodir bo'lishida har bir elementni keyingisiga bog'lash uchun esda saqlab qolish katta ahamiyatga ega. Bunday bog'lanishga layoqatsiz bo'lgan insonning rivojlanishi mumkin emas.

Faqat xotira insoniylik madaniyatining yo'qolib ketmasligiga, tafakkurimizning tadbiq etilishiga va tuyg'ularimizning kechishiga ko'mak beradi. Bosh miya po'stlog'ida paydo bo'ladigan tashqi olam obrazlariisiz yo'qolib ketmaydi. Ular uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan iz qoldiradilar.

Psixikamizdagi xotira ularning zahirasi bo'lib xizmat qiladi. Unda kechadigan barcha jarayonlar mnemik jarayonlar deb ataladi (yunonchadan «mnema» - xotira).

SHunday qilib, *xotira* – bu inson tomonidan o'tmish tajribasini esda olib qolish, saqlash va keyinchalik eslashning psixik jarayoni. Inson hayotida xotiraning o'rni beqiyosdir. Xotirasiz inson «abadiy go'daklik holatida» qolgan bo'lar edi (I.M. Sechenov). S.L. Rubinshteyn ta'kidlaganidek: «Xotirasiz daqiqa mavjudotlari bo'lar edik. O'tmishimiz kelajak uchun o'lik bo'lardi. Hozirgi zamon kechmishiga ko'ra o'tmishda badar yo'qolardi».[1]

Xotiraning nerv-fiziologik asosida bosh miya po'stida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, turli assotsiativ bog'lanishlar yotadi. Lekin, odam esda olib qolish paytida assotsiatsiyalar hosil bo'lganligini mutlaqo sezmaydi. Har xil assotsiatsiyalarning hosil bo'lganini odam keyinchalik biror narsani esga tushirish paytida bo'ladi. Xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlari xususida to'xtalar ekanmiz, so'nggi yillarda texnikaning g'oyat tez rivojlanishi natijasida turli esda olib qoluvchi apparatlarga bo'lgan ehtiyoj benihoya ko'payib ketganligini ta'kidlash joiz. Bu o'z navbatida xotiraning nerv-fiziologik mexanizmlarini psixolog va fiziologlardan tashqari injenerlar, bioximiklar, genetiklar hamda kibernetiklar tomonidan o'rganilishiga olib keldi. Natijada xotiraning nerv fiziologik mexanizmlarini tushuntiruvchi bir qancha yangi nazariyalar maydonga keldi. Ana shunday nazariyalardan eng muhimi molekularlarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan bioximik nazariyadir. Bu nazariyaga ko'ra biror narsani esda olib qolish va esda saqlab turish maxsus tuzilishni o'zgarishi bilan bog'liqdir. O'tkazilgan tekshirishlarga ko'ra, biror narsa esda olib qolinganda, asosan nerv hujayralarining (neyronlarning) dendrit shoxlari tarkibida o'zgarish yuzaga keladi. Ular qandaydir boshqacharoq tuzilishga kirib oladilar. Dendritlar tuzilishidagi hosil bo'lgan o'zgarish darrov o'tib ketadigan bo'lmay, ancha mustahkam bo'ladi. Shu sababli esda olib qolgan narsa uzoq vaqt xotirada saqlanib turadi.<sup>74</sup>

Xotiraning psixik jarayon sifatida o'ziga xos xususiyati uning atrof-olamni bevosita aks ettirishga yo'nalmaganligi, moddiy jismlar va hodisalar bilan ish eritmasligidan iborat. Jismlar olamini aks ettirish idrok va tafakkurda amalga oshiriladi. Xotira qabul qilingan obraz va tushunchalarni «ikkinchi aks ettirish» bilan ish ko'radi.

Har bir bilish jarayoni uzluksiz xotiraga aylanadi, va har bir xotira biror bir boshqa narsaga aylanadi. Har bir psixik jarayon boshqa jarayonni amalga oshirishning sharti bo'lib xizmat qiladi (yoki o'sha jarayonning keyingi bosqichi). Bu uning «ikkilamchi» mahsulotga aylanib, tasavvurda amalga oshish qobiliyatiga ega bo'lishini, jarayonning keyingi rivojlanishi uchun tayanch vazifasini o'tashi mumkinligini bildiradi.

Xotiraning keyingi xususiyati uning bir yo'nalishga: o'tmishdan kelajakka qaratilganligidir. Inson xotirasining asosiy ishlash mexanizmi uning kelajakka yo'naltirilganligidir. Xotiraning asosiy vazifasi uning kelajakka xizmat qilishidir. O'tmishni aks ettirish kelajakda natijaga erishishning vositasi sifatida namoyon bo'ladi.[1]

---

<sup>74</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 134p

Xotira xususiyatlarining orasida uning quyidagi tabiiy xossalari ajratiladi:

- yodda saqlash tezligi – axborotni xotirada saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan takrorlashlar soni;
- unutish tezligi – esda qolganlarning xotirada saqlanish muddati;
- yodda saqlash hajmi – insonning ma’lum vaqt ichida esda olib qolishga qodir bo‘lgan jismlar yoki dalillar soni;
- o‘zlashtirilganlarni yodda saqlash davomiyligi – insonning zarur axborotni ma’lum vaqt oralig‘ida yodda olib qolish qobiliyati;
- qayta tiklash aniqligi insonning xotirada saqlanib qolgan axborotni aniq saqlash, asosiysi esa, aniq ishlab chiqish qobiliyati;
- xotira shayligi – talab etilganlarni darhol esga tushirish malakasi.

Xotira qaerda saqlanadi? Ming yillar davomida tibbiyot xodimlari xotiraning saqlanish joyi – bosh miya ekanligiga ishonar edilar. O‘tgan asrda avval xotiradan ko‘tarilgan voqealar haqidagi axborotni o‘tmish qa‘ridan yuzaga chiqarish qobiliyati uchun javobgar bo‘lgan bosh miya nuqtalarini izlash ishlari boshlab yuborilgan edi. Lekin miya qutisi qancha tadqiq etilmasin, axborot to‘plash va saqlash vazifasini bajaruvchi hech qanday soha aniqlanmadi. Ma’lum bo‘lishicha, bu vazifani yaxlit miyaning o‘zi, uning yarim sharlari bajaradi.

Xotira – shaxs psixik hayotini belgilab beruvchi xususiyatdir. Uning ahamiyati o‘tmish voqealarini qayd etish bilan cheklanmaydi. Axir hozirgi zamondagi hech qanday harakatni jarayonlardan tashqarida tasavvur qilib bo‘lmaydi; eng oddiy psixik aktning sodir bo‘lishida har bir elementni keyingisiga bog‘lash uchun esda saqlab qolish katta ahamiyatga ega. Bunday bog‘lanishga layoqatsiz bo‘lgan insonning rivojlanishi mumkin emas.[2]

Faqat xotira insoniylik madaniyatining yo‘qolib ketmasligiga, tafakkurimizning tadbiiq etilishiga va tuyg‘ularimizning kechishiga ko‘mak beradi. Bosh miya po‘stlog‘ida paydo bo‘ladigan tashqi olam obrazlariisiz yo‘qolib ketmaydi. Ular uzoq vaqt davomida saqlanib qoladigan iz qoldiradilar. Psixikamizdagi xotira ularning zahirasi bo‘lib xizmat qiladi. Unda kechadigan barcha jarayonlar mnemik jarayonlar deb ataladi (yunonchadan «mnema» - xotira). SHunday qilib, *xotira* – bu inson tomonidan o‘tmish tajribasini esda olib qolish, saqlash va keyinchalik eslashning psixik jarayoni. Inson hayotida xotiraning o‘rni beqiyosdir.

Biz xotiramizning mavjudligiga shukronalar aytmog‘imiz lozim . U bizni noto‘g‘ri ishlashdan qaytarishdan tashqari, berilgan vaqtimizni to‘g‘ri taqsimlashga, hayotimizni to‘g‘ri belgilab olishimizga yordam beradi. Oilamizni tanish, o‘zimizning tilda gapirish, uyimizni topib kelish va oziq-ovqat va suv topish imkonini beradigan jarayon, bizning xotira hisoblanadi. U tajribalarimizdan bahramand bo‘lishga,tajribalarni xayotga tatbiq qilishga va yana qayta undan zavq olishga imkon beradigan jarayon albatta bizning xotira hisoblanadi Kimlarningdir yomonliklarini unutishimizga qarshilik ko‘rsatadigan xam bizning xotiralar hisoblanadi.

Sizning esda olib qolganingiz juda katta rol o'ynaydi. Sizning to'plagan bilim omboringiz, o'tgan quvonch, g'azab tufayli alamli xotiralar, yoki aybdorlik xisi xotira jarayonisiz mavjud bo'lmagan bo'lar edi.<sup>75</sup>

Tokio universiteti professori YAsudzi Miyasito rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi xotira mexanizmi bosh miya kul rang moddasining chakka qismida jamlanganini isbotladi. Xotira faoliyati chizmasini kashf etgan yaponiyalik olimlar dunyoga mashhur bo'lgan akademik va neyrofiziolog N.P. Bextereva tasdiqlangan fikrlarni isbotladilar: miya hayotimizning har bir soniyasini esda saqlaydi, lekin bizga ayni damda u yoki bu masalalarni hal etishda zarur bo'lganlarni yuzaga chiqaradi, xolos. Va, faqat ba'zi vaziyatlarda, masalan, cho'kayotgan odamning ongida oxirgi daqiqalarda uning ko'z o'ngida butun hayoti yashin tezligida uchib o'tadi; bunda miya unga so'nggi imkoniyatni beradi: balki, avval senda shunga o'xshash vaziyat bo'lgandir, o'sha usulni qo'llab, omon qolishing mumkin.

## **2. Xotiraning psixologik nazariyalari.**

Xotiraga tegishli bo'lgan fizikaviy, kimyoviy, biokimyoviy, fiziologik, axborotli-kibernetikaviy nazariyalar, shuningdek, psixologik nazariyalar guruhlarini mavjud.

Bunday nazariyalar ichida xotira faoliyati qonuniyatlarini tushunish va uni boshqarish usullarini ishlab chiqishda foydali bo'lgan psixologik nazariyalarni ko'rib chiqamiz.[2]

Xotiraning ilk psixologik nazariyalaridan biri XVII asrda yuzaga kelgan, birinchi bo'lib XVIII-XIX asrlarda Angliya va Germaniyada ishlab chiqilgan **assotsiativ nazariya** hisoblanadi. Bu nazariyaga asosan xotira o'xshashligi, vaqt va fazoviy yaqinligi bo'yicha barqaror bo'lgan qisqa va uzoq muddatli assotsiatsiyalarning murakkab tizimi sifatida tushuniladi. Ushbu nazariyaga binoan, ko'plab qonunlar, xususan, G. Ebbingauzning unutish qonuni kashf etilgan. Dastlabki soat davomida qabul qilingan ma'lumotning 60% gacha bo'lgan qismi unutiladi, olti kundan so'ng esa birinchi marta yodlab olingan matnning 20% dan kamroq qismi saqlanib qoladi. Vaqt o'tishi bilan assotsiativ nazariya bir qator hal etilishi zarur bo'lgan muammolar bilan to'qnashdi, ulardan asosiysi inson xotirasining tanlab o'tkazish xususiyatini tushuntirib berish edi.[1]

XIX asrning oxirida assotsiativ nazariya **geshtalt nazariyasi** bilan almashindi. Bu nazariya uchun boshlang'ich tushuncha va shu bilan birga, asosida xotiraning noyob hodisalarini tushuntirib berish mumkin bo'lgan bosh tamoyil sifatida birlamchi elementlarning assotsiatsiyasi emas, balki, ularning dastlabki, yaxlit tashkiloti – geshtalt namoyon bo'ldi. Aynan, geshtaltning shakllanish qonunlari ushbu nazariya vakillari (V. Vundt, E.B. Titchener va boshqalar)ning fikriga ko'ra, xotirani belgilab beradi. Bu nazariya tarafdorlarining asosif fikri shundan iboratki, esda olib qolish va eslashda ma'lumot, odatda, assotsiativ asosda tarkib topgan elementlarning tasodifiy to'plami emas, balki, yaxlit tuzilma sifatida namoyon bo'ladi. Keyinchalik geshtalt nazariyasi ham qator qiyinchiliklar, xususan, inson xotirasining filo- va ontogenezda shakllanishi va rivojlanishining murakkab muammosi bilan to'qnash keldi. Gap shundaki, odamdagi xotira

---

<sup>75</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 327p



jarayonlarini ajratuvchi motivatsion holatlar va geshtaltlarning o'zlari ham tarafdorlari tomonidan oldindan belgilangan va rivojlanmaydigan hosilalar sifatida qabul qilingan edi. Bu bilan xotira genezisi haqidagi masala ustidagi bahslar o'z nihoyasiga etdi.[2]

**Bixeviorizm** va **psixoanaliz** vakillari ham xotira genezisi haqida qoniqarli javob topa olmadilar. Bixeviorizmchilarning xotira yuzasidan qarashlari assotsianistchilarning qarashlari bilan mos kelgan edi. Ular o'rtasidagi yagona farq bixeviorizmchilarning materialni esda olib qolishdagi **yordamning** o'rnini alohida ta'kidlab, o'rganish jarayonlarida xotira faoliyatini o'rganishga katta e'tibor qaratgan edilar (D. Uotson, E. Torndayk). Lekin bixeviorizmchilar insondagi ongli faoliyat va shaxs xususiyatlarining yordamga bog'liqligini chetlab o'tdilar.

Xotira hodisalarining shaxsga bog'liqligi Z.Freyd tomonidan ko'rsatib o'tilgan edi. Uning fikriga ko'ra, insonning ong osti mayllariga imkon bermaydigan barcha narsalar xotiradan siqib chiqariladi, va, aksincha, uning uchun yoqimli bo'lganlar saqlanib qoladi. Bu bog'liqlik tajribada o'z tasdig'ini topmadi. SHu bilan birga, Z.Freyd va izdoshlarining xizmatlari inson xotirasini o'rganishda esda saqlash va unutish xotira jarayonlaridagi ijobiy va salbiy emotsiyalar, motivlar va ehtiyojlarning ahamiyatini aniqlashdan iborat bo'ldi. Psixoanaliz yordamida insonning motivatsion sohasi bilan bog'liq bo'lgan ong osti unutishning psixologik mexanizmlari aniqlandi va ta'rif berildi.

XX asrning boshlarida xotiraning **mantiqiy nazariyasi** yuzaga keldi, unga asosan, mos keluvchi jarayonlar faoliyati esda olib qolish zarur bo'lgan materialni u yoki bu darajada kengroq ma'noli tuzilmalarga birlashtiradigan mazmun bog'lovchilarining mavjudligi yoki mavjud emasligiga bevosita bog'liq holatda bo'ladi (A. Bine, K. Byuler). Esda olib qolish va eslashda matnning ma'noga ega bo'lgan mazmuni ifodalanadi.

Hozirgi zamon psixologiyasida asosiy tushuncha o'rnida **shaxs faoliyatini** uning barcha psixik jarayonlari, shuningdek, xotira jarayonlarining shakllanishini bog'lovchi omil sifatida o'rganadigan **nazariya** tan olinmoqda. Bu konsepsiyaga asosan, esda olib qolish, saqlash va eslash jarayonlarining kechishi ma'lumotning ob'ekt faoliyatida tutgan o'rniga qarab belgilanadi. Ma'lumot faoliyat maqsadi sifatida namoyon bo'lgan vaziyatlarda aloqalar yanada samaraliroq tarzda hosil bo'lishi va dolzarblashtirilishi tajriba aniqlandi va o'z tasdig'ini topdi. Bu aloqalarning xususiyatlari, masalan, mustahkamligi va harakatchanligi ma'lumotning sub'ekt keyingi faoliyatidagi ishtirokining darajasi, bu aloqalarning ko'zlangan maqsadlarga erishishdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Faoliyat nazariyasining asosiy fikri qisqacha quyidagicha ta'riflanadi: turli tasavvurlar o'rtasidagi aloqalar, avvalambor, sub'ektning ulardan qay tarzda foydalanishi bilan belgilanadi.[1]

Inson xotirasining faoliyat sifatida o'rganilishiga dastlab fransiyalik olimlarning, xususan, P. Janening ishlari sabab bo'ldi. U birinchilardan bo'lib, xotirani materialni esda olib qolish, qayta ishlash va saqlashga yo'naltirilgan harakatlar tizimi sifatida ta'rifladi. Jahon psixologiyasida bu konsepsiya L.S. Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan inson oliy psixik vazifalari kelib chiqishining madaniy-tarixiy nazariyasida rivojlantirildi. So'ngra u A.N. Leontev,

A.R. Luriya, P.I. Zinchenko, A.A. Smirnov va boshqalar kabi mashhur psixologlar tomonidan ishlab chiqildi.

### **3 Xotira jarayonlari va turlari**

Xotira quyidagi asosiy jarayonlardan iborat: esda olib qolish, esda saqlash va unutish.

**Esda saqlash** – bu idrok qilingan ma'lumotni eslab qolish va esda saqlash jarayoni. Bu jarayonning kechish darajasiga ko'ra, eslab qolish ikki turga bo'linadi: ko'zlanmagan (ixtiyorsiz) va ko'zlangan (ixtiyoriy). **Ixtiyorsiz esda olib qolish** – bu hech qanday vositalarsiz va kuchlarni namoyon qilmasdan bemaqsad eslab qolish. Masalan, o'rmondagi sayr yoki spektakl tomoshasidan so'ng eslab qolish uchun ma'lum maqsadni ko'zlamagan bo'lsakda, taassurotlarimizdan ko'proq qismini yodimizga tushirishimiz mumkin. Inson uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan, uning qiziqishlari va ehtiyojlari, faoliyatining maqsad va vazifalar bilan bog'liq bo'lgan, barchasining esda saqlanib osonroq kechadi. Shuning uchun ixtiyorsiz eslab qolish ma'lum ma'noda tanlab o'tkazish xususiyatiga ega va bizning atrofdagilarga bo'lgan munosabatimiz bilan belgilanadi.

**Ixtiyoriy esda saqlash** maqsadsiz esda saqlashdan insonning o'z oldiga ma'lum maqsad qo'yib, yod olishning maxsus usullarini qo'llashi bilan farqlanadi. Ixtiyoriy esda saqlash yod olish vazifasiga bo'ysungan o'ziga xos murakkab aqliy faoliyatdir. Materialni esda olib qolish usulariga **yod olish** kiradi, uning mohiyati o'quv materialini to'liq va xatosiz yod olmaganicha ko'p marta takrorlashdan iborat. Masalan, she'r, qoida, ta'rif, qonunlar, formulalar, tarixiy sanalar va boshqalarni yod olish.[1]

Ixtiyoriy esda olib qolishning asosiy xususiyati – bu esda olib qolish ko'rinishidagi yuklatilgan vazifada iroda kuchlarini namoyon qilish. Hayotdagi ko'pchilik idrok qilinuvchilar esda olib qolish vazifasi yuklatilmagan bo'lsa, esimizda saqlanib qolmaydi.

Yod olishda umumiy vazifa bilan birgalikda, xususiy, maxsus vazifalarning yuklatilishi ham katta ahamiyatga ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Ba'zi vaziyatlarda, masalan, idrok qilinayotgan ma'lumotning faqat asosiy mohiyati, faqat asosiy fikr va ahamiyatga molik bo'lgan dalillarni esda olib qolish, boshqalarida esa – so'zma-so'z esda olib qolish, uchinchilarida – dalillar izchilligi va h.k.larni aniq esda olib qolish vazifasi yuklatiladi.

S.L. Rubinshteynning fikriga ko'ra, esda olib qolish amalga oshirilayotgan faoliyatning borishi xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, uning fikricha, ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda olib qolishning yuqori samaradorligi haqida bir ma'noli xulosa chiqarish mumkin emas. P.I. Zinchenko, A.A. Smirnovlarning olib borgan tadqiqotlari ma'lum sharoitlarda ixtiyorsiz esda olib qolishning ixtiyoriy esda olib qolishdan samaraliroq bo'lishini isbotladi.

Tizimli bilimlarning katta qismi, maqsadi ma'lum materialni xotirada saqlab qolish uchun esda olib qolish bo'lgan maxsus faoliyat natijasida orttirilganligini hisobga olish zarur. Materialni esda olib qolish va eslashga qaratilgan bunday faoliyat **mnemik faoliyat** deb ataladi.

Esda olib qolingani materialning anglanganlik darajasiga ko'ra anglangan va mexanik esda olib qolish ajratiladi. **Mexanik esda olib qolish** – bu idrok qilinayotgan materialning turli qismlari o'rtasida mantiqiy aloqani anglamasdan turib esda olib qolish. Bunga misol tariqasida statistik ma'lumotlar, tarixiy sanalar va h.k.larni esda olib qolishni keltirish mumkin. Mexanik esda olib qolishining asosini **bog'langanlik bo'yicha assotsiatsiyalar** tashkil etadi. Materialning bir qismi ikkinchisi bilan vaqt bo'yicha uning orqasidan kelganligi sababli unga bog'lanadi. Bunday bog'lanishning yuzaga kelishi uchun materialni ko'p marta takrorlash lozim.

Bundan farqli o'laroq, **anglangan holda esda olib qolish** materialning alohida qismlari o'rtasidagi ichki mantiqiy aloqalarni tushunishga asoslangan. Anglangan holda esda olib qolish doimo tafakkur jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, asosan, material qismlari o'rtasidagi ikkinchi daraklovchi tizim darajasidagi umulashtirilgan aloqalarga tayanadi.

Anglangan holda esda olib qolish mexanik esda olib qolishdan ko'ra samaraliroq ekanligi isbotlangan. Xuddi shunday, mexanik esda olib qolishda xotirada 1 soatdan so'ng materialning faqat 40%, yana bir necha soatdan keyin esa – atigi 20%, anglangan holda esda olib qolishda esa 30 kundan keyin ham materialning 40% saqlanib qoladi.

Materialni anglash bir necha xil usullar yordamida erishiladi. Birinchidan, o'rganilayotgan materialning **asosiy fikrlarini ajratish** va ularni reja ko'rinishida **guruhlash** zarur. Ikkinchidan, **ma'nodosh tayanch so'zlarni ajratish**. Ushbu usulning mohiyati mazmunga ega bo'lgan har bir qismni esda olib qolish zarur bo'lgan materialning bosh g'oyasini aks ettiruvchi qaysidir so'z yoki tushuncha bilan bog'lashimizdan iborat. Uchinchidan, taqqoslash, ya'ni, jismlar, hodisa va voqealar o'rtasida o'xshashlik va farqlarni aniqlash. Ushbu usulning ko'rinishlaridan biri o'rganilayotgan materialni avval orttirilgan ma'lumotlar bilan solishtirish. Va, nihoyat, anglangan tarzda esda olib qolish va uning esda saqlanishining yuqori ko'rsatkichiga erishish metodi **takrorlash metodi** hisoblanadi.[2]

Takrorlashni vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlash juda muhimdir. Psixologiyada takrorlashning **konsentratsiyalash** va **taqsimlash** usullari mavjud. Birinchi usulda materiallar tanaffuslarsiz ketma-ket takrorlanadi. Masalan, she'rni yodlash uchun 12 marta takrorlash talab etilsa, o'quvchi uni yod olmaganicha ketma-ket 12 marta o'qiydi. Taqsimlangan takrorlashda har bir takrorlash keyingisidan vaqt oralig'i bilan ajratilgan bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, taqsimlangan takrorlash konsentratsiyalangan takrorlashdan samaraliroqdir.

Samarali esda olib qolishning ixtiyoriy va ixtiyorsiz shartlari va qonuniyatlari aniqlangan.

**Maqsadsiz samarali esda olib qolishning shartlari:** kuchli ahamiyatli tabiiy seskantiruvchilar; yuqori yo'nalishli faoliyatni yuzaga keltiruvchilar (harakt jarayonini to'xtatish yoki tiklash, hodisaning noodatiyligi); ushbu odam uchun ahamiyatga ega bo'lgan seskantiruvchilar (kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan jismlar); alohida emotsional tusga ega bo'lgan seskantiruvchilar; ushbu inson ehtiyojlariga kuchliroq bog'langanlari; faol harakat ob'ekti bo'lib hisoblanganlari

**Samarali ixtiyoriy esda olib qolishning shartlariga** materialning ahamiyatligi va mohiyatini anglash; uning tuzilishi, tarkibiy qism va elementlari o'rtasida o'zaro mantiqiy bog'liqlikni aniqlash; so'z-matnli materialda reja, ayanch so'zlarni belgilash, materialni chizma, jadval ko'rinishida taqdim etish; materialning mazmundorligi va hammabopligi, uning inson yo'nalishi va shaxsiy tajribasi bilan solishtirilishi; materialning hissiyotli-estetik boyitilganligi; ushbu materialning ma'lum sharoitlarda eslashning zarurligiga moyillik; ushbu materialning amaliyotda qo'llash imkoniyati; materialning ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga erishish, masalalarni hal etish vositasi, faol aqliy faoliyatning ob'ekti sifatida namoyon bo'lishi.

Xotiraning ma'lum samaralari aniqlangan. Agar tekshiriluvchiga 10ta bo'g'inli qator berilsa, birinchi va oxirgi bo'g'inlar oson esda qoladi, o'rtadagilari esa unchalik esda qolmaydi, – bu «chegara samarasi». B.V. Zeygarnik samarasi – tekshiriluvchilarga vazifalarni bajarish taklif etilib, ularga bir xillarini oxirigacha echishga imkon berilsa, boshqalari yakuniga etkazilmasa, oqibatda tekshiruvdagilar tugallanmagan vazifalarni to'liq echilgan vazifalarga qaraganda 2 marta ko'proq eslay oladilar.[2]

Xotiraning navbatdagi jarayoni – **yodda saqlab qolish**. Bu idrok qiingan ma'lumotni ma'lum muddatgacha esda saqlab qolishdan iborat bo'lgan xotira jarayoni. Esda saqlab qolish xotira jarani sifatida o'zining qonuniyatlariga ega. Masalan, esda saqlab qolishning dinamik va statik bo'lishi aniqlangan. **Dinamik esda saqlab qolish** operativ xotirada, statik – aksincha, uzoq vaqtli xotirada namoyon bo'ladi. Dinamik esda saqlashda material kam o'zgaradi, statikda, aksincha, u albatta, o'zgarish va ma'lum qayta tiklanishga uchraydi. Qayta tiklanish turli sharoitlarda, masalan, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan qismlarning yo'qolishi va ularning boshqa qismlar bilan almashtirilishi, material izchilligining o'zgarishida, uning umumlashtirilish darajasida ifodalanadi.

Materialni xotirada tiklash eslash va tanish jarayonlari yordamida amalga oshiriladi.

**Eslash** – bu xotiradagi materialdan keyingi faoliyatda foydalanish. Eslashning fiziologik asosini jism va harakatlarni idrok qilishda avval hosil bo'lgan nerv aloqalarini tiklash tashkil etadi. Eslash **maqsadsiz** (ixtiyorsiz) va **maqsadli** (ixtiyoriy) bo'lishi mumkin. Birinchi holatda eslash biz uchun kutilmaganda sodir bo'ladi. Masalan, o'qigan maktabimiz yonidan o'tib keta turib, beixtiyor bizga ta'lim bergan o'qituvchi yoki maktabdosh do'stlarning obrazlarini namoyon qilishimiz mumkin.

Ixtiyoriy eslashda ongli ravishda maqsadga ega bo'lgan holda eslaymiz. Bunday maqsad bo'lib o'tmish tajribamizdan biror voqeani yodga tushirishga intilish, masalan, yaxshi yod olgan she'rni esga tushirish maqsadini ko'zlaganimizdagi vaziyat hisoblanadi.[1]

Shuningdek, eslashning turli xillari: haqiqiy eslash, yodga tushirish, tanish mavjud. Alohida o'rinni xotiralar – shaxsning tarixiy esdaliklari egallaydilar. **Esga tushirishda** ko'zlangan maqsad – biror narsani eslash – asosiy masalani hal qilish imkonini beruvchi oraliq maqsadlarga erishish yordamida amalga oshiriladi. Masalan, qandaydir voqeani eslash uchun bu bilan u yoki bu darajada bog'liq

bo'lgan dalillarni eslashga harakat qilamiz. Bunda oraliq zanjirlardan foydalanish **ongli xususiyat**ga ega bo'ladi. Esga tushirish, shuningdek, irodaviy jarayon bo'lib hisoblanadi.

Biror ob'ektni **tanish** uni idrok qilishda sodir bo'ladi va insonda ob'ekt haqida hosil bo'ladigan tasavvurlar, uning shaxsiy taassurotlari (xotira tasavvurlari) yoki so'z bilan ta'riflash (xayol tasavvurlari) asosida shakllangan ob'ektni idrok qilish sodir bo'layotganin bildiradi. Masalan, tanishimiz yashaydigan, lekin o'zimiz hech qachon u erda bo'lmagan uyni taniymiz, tanish esa, tasavvurimizda aks etgan, bizga avval ta'rifi keltirilgan izlab topish mumkin belgilar asosida sodir bo'ladi. Tanish jarayonlari bir-biridan ta'riflanish darajasiga ko'ra farqlanadi. Biz ob'ektga nisbatan **tanish hissini** tuyganimizda, lekin o'tmish tajribadagilarga o'xshata olmaganimizda tanish darajasi kamroq bo'ladi. Masalan, yuz tuzilishi tanishdek tuyulgan odamning kimligini va u bilan qanday vaziyatlarda uchrashishimiz mumkinligini eslay olmaymiz. Bunga o'xshash vaziyatlar **tanishning belgilanmaganligi** xususiyatiga ega bo'ladi. Boshqa vaziyatlarda tanish to'liq belgilanmaganligi bilan farqlanadi: biz odamni ma'lum shaxs sifatida darhol taniymiz. Shuning uchun ushbu vaziyatlar **to'liq tanish** xususiyatiga ega bo'ladi.[2]

To'g'ri tanishning turli xillari bilan bir qatorda **tanishdagi xatoliklar** ham mavjud bo'ladi. Masalan, birinchi marta idrok qilinayotganlar, ba'zida tanishdek, avval xuddi shu ko'rinishda sodir bo'lgandek tuyuladi.

Tanish va eslashning har doim ham bir xilda samarali tarzda amalga oshirilmaydigan jarayonlarining juda qiziqarli o'ziga xos xususiyatini ta'kidlab o'tish lozim. Ba'zida biz qaysidir ob'ektni taniy olishimiz, lekin usiz eslay olmasligimiz mumkin. Bunga teskari vaziyatlar ham bo'ladi: bizda paydo bo'lgan tasavvurlarning nima bilan bog'liqligini tushuntirib bera olmaymiz. masalan, bizni doimo qandaydir kuy ohangi «kuzatib yuradi», lekin uning qaerdan paydo bo'lganini aytib berolmaymiz.

**Unutish** – avval idrok qilingan ma'lumotni tiklash imkoniyatining mavjud emasligida ifodalanadigan xotira jarayoni. Unutishning fiziologik asosini vaqtinchalik nerv aloqalarini dolzarblashishiga halaqit beruvchi po'stloqdagi tormozlanishning ba'zi turlari tashkil etadi. Ko'pincha bu mustahkamlanishlarsiz rivojlanadigan so'nuvchi tormozlanishdan iborat bo'ladi. Unutish ikki asosiy shakl: a) eslash yoki bilish imkoniyatining mavjud emasligida; b) noto'g'ri eslash yoki tanishda namoyon bo'ladi. To'liq eslash va to'liq yoddan chiqarish o'rtasida eslash va tanishning turli darajalari mavjud bo'ladi. Ba'zi tadqiqotchilar ularni «xotira darajalari» deb ataydilar. bunday darajalarga quyidagilar kiradi: a) eslash xotirasi; b) tanuvchi xotira; v) engillashtiruvchi xotira. Masalan, o'quvchi she'rni yod oldi. Agar biroz vaqtdan so'ng uni bexato aytib bera olsa, – bu xotiraning eng yuqori, birinchi darajasi, agar o'quvchi yod olganini aytib bera olmasa, lekin she'rni kitob bo'yicha yoki eshitganida oson taniy olsa, – bu xotiraning ikkinchi darajasi; agar o'quvchi mustaqil holda she'rni eslay olmasa, uni taniy olmasa, lekin takroriy yod olishda bunga birinchi marta yod olganidan kamroq vaqt ichida erisha olsa,- bu uchinchi daraja. SHunday qilib, ifodalanish darajasi o'zgarib turishi mumkin. Unutish materialni chizmalashtirishda alohida, ba'zan ahamiyatga ega

bo'lgan qismlarini olib tashlashda, yangi tasavvurlarni odatdagi, avvalgi tasavvurlarga keltirishda ifodalanadi.

Unutish ifodalarning bir qancha turli xil ko'rinishlarini o'rganib, insonning ayni damda eslay olmasdan, bir muncha vaqt o'tgandan so'ng esga tushirishi yoki tanishi kabi vaziyatlar haqida ham aytib o'tish lozim. Vaqt o'tgandan so'ng xotiradan ko'tarilgan materialni eslash *reminissensiya* (xira esga keltirish) deb ataladi. Reminissensiyaning mohiyati, biz to'liq eslay olmagan material idrok qilinganidan bir-ikki kun o'tgandan so'ng materialni birinchi marta eslashda kuzatilmagan dalillar va tushunchalar bilan to'ldirilishidan iborat. Bu hodisa ko'pincha katta hajmli materialni so'zlab berish orqali eslashda kuzatiladi, bunga nerv hujayralarining charchashi sabab bo'ladi. Reminissensiya ko'pincha maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalarda, va ayrim holatlarda kattalarda ham kuzatiladi.[2]

Unutishning boshqa shakllari *xatolik bilan eslash va tanish*dir. Barchaga ma'lumki, vaqt o'tishi bilan idrok qilinganlar xotirada o'z yorqinligi va aniqligini yo'qotib, rangsizlanib, noaniq bo'lib qoladi. Lekin avval idrok qilingan materialning o'zgarishi boshqa xususiyatga ham ega bo'lishi mumkin, bunda unutish aniqlikni yo'qotishdan emas, esga tushirilganlarning haqiqatda idrok qilinganlarga muvofiq kelmasligidan iborat bo'ladi. Bunda biz voqelikda mavjud bo'lganlarni emas, boshqa narsalarni eslaymiz, chunki unutish jarayonida u yoki bu darajada idrok qilingan materialning chuqur qayta tuzilganligi, sifatining qayta ishlanganligi sodir bo'lishi mumkin. Qayta ishlashga misol tariqasida voqealar izchilligining vaqt bo'yicha noto'g'ri eslashni keltirish mumkin.

Hozirgi kunda unutish jarayonlarining kechishi tezligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ma'lumdir. Xuddi shunday, odam materialni yaxshi tushunib etmagan bo'lsa, unutish tezroq ro'y beradi. SHuningdek, material odamga qiziqarli bo'lmasa, uning amaliy ehtiyojlari bilan bog'lanmagan bo'lsa, unutish shunchalik tez sodir bo'ladi.

Unutish tezligi, shuningdek, material hajmi va uni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar darajasiga bog'liq: material hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, yoki uni idrok qilish qiyinchilik tug'dirsa, unutish shunchalik tez sodir bo'ladi. Unutish jarayoni tezligiga ta'sir etuvchi boshqa omil avvalgi faoliyatningsalbiy ta'siri – *proaktiv tormozlanish*, va keyingi faoliyatning salbiy ta'siri – *retroaktiv tormozlanish*dir. Agar faoliyat tanaffuslarsiz amalga oshirilsa yoki keyingi faoliyat avvalgi faoliyat bilan o'xshash bo'lsa, shuningdek, keyingi faoliyat avvalgisidan qiyinroq kechsa, retroaktiv tormozlanish aniqroq kuzatiladi. Ko'rsatib o'tilgan qonuniyatni maktabdagi o'quv ishlarini tashkil etishda hisobga olish zarur.

Unutish jarayonini tezlashtiruvchi boshqa muhim omil *yosh* ko'rsatkichidir. YOsh o'tishi bilan xotira ko'pchilik vazifalarining izdan chiqishi kuzatiladi. Xuddi shunday, materialni esda olib qolish qiyinroq kechadi, unutish tezligi oshadi.

Unutish, shuningdek, asab tizimining turli kasalliklarida, kuchli psixik va mexanik shikastlanishlarda, aqliy va jismoniy toliqishda, tashqi seskantiruvchilar ta'sirida tezroq sodir bo'ladi. Xotira buzilishlariga: *amneziya* (xotiraning yo'qolishi), *retrograd amneziya* (kasallikdan avvalgi voqeaga nisbatan xotiraning buzilishi) va *anterograd amneziya* (kasallikdan so'ng sodir bo'lgan voqeaga

nisbatan xotiraning buzilishi). O'ta toliqishda *paramneziya* – xotira aldanishi hodisasi ro'y beradi. So'zlarni eslashda xatolikka yo'l qo'yish *kontaminatsiya* («ahamiyatga ega») deyiladi.

Endi xotira tasnifiga nisbatan yondoshuvlar masalasini ko'rib chiqishga o'tamiz. Xotira xossalarning turini ajratish uchun umumiy asos sifatida esda olib qolish va eslash jarayonlari amalga oshiriladigan faoliyat xususiyatlariga bog'liqligi namoyon bo'ladi. Bunda xotiraning ayrim turlari uch asosiy mezonlarga muvofiq ravishda ajratiladi:

- faoliyatda ustunlik qiluvchi psixik faoliyatning xususiyatiga ko'ra, harakat, emotsional, obrazli va so'z-mantiqiy xotiralarga bo'linadi;
- faoliyat maqsadiga ko'ra – ixtiyorsiz va ixtiyoriy xotiraga bo'linadi;
- materialning mustahkamlanishi va saqlanib qolishi davomiyligiga ko'ra – qisqa muddatli, operativ va uzoq muddatli xotiraga bo'linadi.

Xotira turlarining psixik faoliyat xususiyatiga ko'ra tasniflanishini birinchi marta P.P. Blonskiy tomonidan taklif etilgan. Faoliyat turlarida psixik faoliyatning motorli, hissiyotli, sensor, aqliy turlari ustunlik qilishi mumkin. Bu faoliyatlarning har biri harakatlar va ularning mahsuloti bo'lgan faoliyat, sezgi, obraz, fikrlarda ifodalanadi. Blonskiy xotiraning ayrim turlari o'rtasidagi farqlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldi.[1]

Xotira turlarining mana shu to'rt xilining xususiyatlarini keltiramiz.

**Harakat xotirasi** – bu turli harakatlar yoki tizimlarini esda olib qolish, saqlash va eslash. U, masalan, piyoda yurish, mashinani boshqarish, raqs tushish va boshqalarda turli harakatli malaka va ko'nikmalarning shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Emotsional xotira** – bu boshdan kechirilgan sezgi va emotsional holatga nisbatan xotira. Hissiyotlar doimo ehtiyoj va qiziqishlarimizning qanday qoniqtirilayotgani, atrof-olam bilan munosabatlarimiz qanday amalga oshirilayotgani haqida xabar berib turadilar. Boshdan kechirilgan va xotirada saqlanib qolgan sezgilar harakatga boshlovchi yoki o'tmishda salbiy kechinmalarni uyg'otgan harakatdan tutib qoluvchi xabarlar sifatida namoyon bo'ladi.

**Obrazli xotira** – bu tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shuningdek, ovoz, hid, ta'mlarga nisbatan bo'lgan xotira. U ko'rish, eshitish, tuyish, hid bilish va ta'm bilish bilan bog'liq bo'ladi. Ba'zan **eydetik xotira** – ba'zi individlarning(eydetiklar) avval idrok qilingan jism va sahnalar o'ta to'laqonli va obrazini esda saqlash va eslash qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar uchrab turadi. Eydetik obrazlar jismning mavjud emasligida yuzaga kelib, oddiy tasavvurga xos bo'lmagan izchil ko'rgazmalilik xususiyatiga ega bo'lishi bilan tasavvurlarga o'xshash bo'ladi.

**So'z-mantiqiy xotira** fikrlar, tushunchalarni esda olib qolish, saqlash va eslashda ifodalanadi. So'z-mantiqiy (semantik, verbal) xotira yordamida inson aqliy qobiliyati axborot bazasi hosil bo'ladi, ko'pchilik fikrlash operatsiyalari (o'qish, hisob va h.k.) amalga oshiriladi. So'z-mantiqiy xotirada muhim o'rinni ikkinchi xabar tizimi egallaydi. So'z-mantiqiy xotira – bu o'zining sodda shakllarida hayvonlarga ham xos bo'lgan motorli, emotsional va obrazli xotiralardan farqli ravishda faqat insonga xos bo'lgan maxsus xotira. Xotiraning bu

turi maktab va oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda etakchi o'rinni egallaydi.

Xotira faoliyat maqsadiga bog'liqligiga ko'ra *ixtiyorsiz* va *ixtiyoriy* xotiralarga bo'linadi. Biror narsani esda olib qolish yoki esga tushirish maxsus maqsadga ega bo'lmagan esda olib qolish va eslash ixtiyorsiz xotira deyiladi. Shunday maqsad ko'zlanganida ixtiyoriy xotira haqida so'z yuritiladi.

Axborot saqlashning vaqt bo'yicha belgilanganligiga bog'liq ravishda xotirani qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotiraga bo'lish mumkin. Chegaralangan vaqt (30 soniyagacha) ichida axborot saqlash xususiyatiga ega bo'lgan va ushlab qolinadigan elementlar sonining chegaralanganligi bilan ajralib turadigan xotira *qisqa muddatli xotira* deyiladi. Bu xotira idrok qilinganlarning faqatgina umumlashtirilgan obrazini, uning ahamiyatga molik elementlarini saqlab qoladi. Xotira ushbu turining hajmi 5-7 ob'ekt bilan chegaralangan.[1]

*Uzoq muddatli xotira* – materialni chegaralanmagan vaqt oralig'ida va axborotni chegaralanmagan hajmda ushlab qolish xususiyatiga ega bo'lgan xotira turlaridan biri.

*Operativ xotira* – ma'lum faoliyatni bajarishda namoyon bo'ladigan, shu faoliyatga qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiradan kelayotgan axborotni saqlashga binoan xizmat ko'rsatuvchi joriy faoliyatni bajarish uchun zarur bo'lgan xotira turi. Bu xotira turi axborotni saqlash davomiyligi va o'z xossalariga ko'ra qisqa va uzoq muddatli xotiralar o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi. Operativ xotirada materialning saqlanish vaqti operatsiyaning bajarilish davomiyligi bilan aniqlanadi.

Anglanish darajasiga ko'ra xotira mexanik va mantiqiy xotiraga bo'linadi. *Mantiqiy xotira* – yod olinishi zarur bo'lgan materialdagi mantiqiy aloqalarni o'rnatish va tushunishga asoslangan xotira turi. Tafakkur va xotiraning aloqasi psixologiyada mavjud bo'lgan tushunarli bo'lgan narsa oson eslab qolinadi, degan aqidada qayd etiladi. *Mexanik xotira* o'rganish va hayotiy tajriba orttirish qobiliyati shaklida namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqilgan xotira turlari alohida o'zlari mavjud bo'la olmaydi. Fikr va tushuncha xotirasi so'z-mantiqiy xotira sifatida, shuningdek, har bir xususiy vaziyatda ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz bo'ladi.

Inson xotirasini yaxshilashning ko'plab usullari mavjud. Mnemotexnik usullarning mohiyati yod olinishi zarur bo'lgan materialni ma'lum taxlitda tuzishdan iborat. Mana shunday usullardan ba'zilari.

**4.Xotirani o'rganish metodlari va amaliy tavsiyalar.**

*Maromlashtirish metodi* ma'lumotni marom yoki qofiya bilan bog'liq bo'lgan she'r, qo'shiq, satrlarga o'tkazishdan iborat.

*Emotsional assotsiatsiyalash metodi* esda olib qolinadigan materialning inson hissiy kechinmalari bilan aloqasiga asoslangan. Insondagi kuchli his-tuyg'ular va kechinmalar hosil qiladigan material oson esda olib qolinishi aniqlandi. Materialni yaxshi va oson esda olib qolish uchun bu materialni yodlayotgan odamda qiziqish uyg'otishi kerak.



**Aloqalar metodi** matnning tayanch soʻzlarini yagona yaxlit hosilaga, yagona hikoyaga birlashtirishdan iborat.

**Joylar metodi** koʻrish assotsiatsiyalarga asoslangan: esda olib qolish kerak boʻlgan jismni aniq tasavvur qilib, uning obrazini xotirada oson topish mumkin boʻlgan joy obrazi bilan birlashtirish zarur. Bu metod jismlar va joylar izchilligi tomonidan belgilangan assotsiatsiyalarga asoslangan.

Doimiy yoʻnalish sifatida ish joyigacha boʻlgan yoʻl, xonadondagi xonalar va xonalar ichkarisidagi alohida «joylar» (divan, shkaf, kreslo va boshqalar) joylashuvi xizmat qilishi mumkin. Joylar maʼlum izchillikda raqamlanadi va esda olib qolinishi zarur boʻlgan jismlar koʻrish obrazlarini xotirada qayd etgan holda tanlangan yoʻnalish boʻyicha joylashtiriladi. Shu tarzda zarur material maʼlum izchillikda esda olib qolinadi.[2]

### **7.Amaliy tavsiyalar.**

Insonga koʻplab turli-tuman jismlar va xodisalar oʻz taʼsirini koʻrsatadi, lekin bir muncha muddatdan soʻng biz idrok qilgan jismlardan baʼzilarining obrazlarini tasodifan yoki bilgan xolda xotiramizda tiklashimiz mumkin. Bu xodisa tasavvur deb ataladi.

Tasavvurlarni xotiraning birlamchi va emostional taʼsir obrazlaridan farqlash zaruriyatiga eʼtibor karatish lozim.

**Xotiraning birlamchi obrazlari** deb, bevosita obʼektning idrok qilinishidan soʻng paydo boʻladigan va soniyalar bilan oʻlchanadigan vaqt oralifida saqlanib qoladigan obrazlarga aytiladi. Masalan, bir-ikki soniya biror jism – ruchka, stol lampasi, suratga tikilib turing, soʻng koʻzlaringizni yumib, uni iloji boricha yorqinroq tasavvur qilishga xarakat qiling. Siz darxol tez orada soʻnunchan va foyib boʻladigan yorqin va jonli obrazni xosil kilasiz. Xotiraning birlamchi obrazlari izchil obrazlarga oʻxshash maʼlum xususiyatlarga ega boʻladilar: a) obʼektning idrok qilishidan soʻng paydo boʻladi; b) davomiyligi juda oz; v) yorqinligi, jonliligi va koʻrgazmaliligi koʻrgazmali tasavvurlarga qaraganda koʻproq boʻladi; g) yagona idrok ildiziga ega, umumlashtirishdan iborat boʻlmaydi.

Ikkinchi tomondan, ular izchil obrazlardan farq qiluvchi, haqiqiy tasavvurlarga yaqinlashtiruvchi xossalarga ega. Birinchidan, xotiraning birlamchi obrazlari idrok qilishda diqqatning maʼlum obʼektga yoʻnalganligiga boʻliq. Ikkinchidan, yorqin izchil obrazni xosil qilish uchun uzoq vaqt (15-20 soniya) maʼlum obʼektga tikilib turish lozim, xotiraning yorqin birlamchi obrazlari esa davomiy boʻlmagan idrok qilish (1-2 sek.) vaqt oralifida xosil boʻladi.[1]

**Emostional taʼsir obrazlari** deb, bir jinsli obʼektlar yoki kuchli xissiy taʼsir koʻrsatgan obʼektning davomli idrok qilgandan soʻng ongda oʻta jonlilik bilan paydo boʻladigan ixtiyorsiz obrazlarga aytiladi. Masalan, koʻzkorin terib, oʻrmonda uzoq vaqt sayr qilgan odam uxlashga yotib, koʻzlarini yumganida uning ongida oʻrmon manzaralari, barglar, oʻt-oʻlanlar obrazlari etarlicha yorqin ranglarda paydo boʻladi. Yoki, qandaydir kuyni tinglaganingizdan soʻng u uzoq vaqt «kuloklaringiz ostida jaranglab turadi». Koʻpincha, bu xissiyotlarni junbushga keltirgan kuy boʻlib chiqadi. Emostional taʼsirli obrazlar aniqligi va koʻrgazmaliligi, va ixtiyorsizligi, shuningdek, umumlashtirishga ega boʻlmagan idrokning oddiy nusxasi ekanligi bilan izchil obrazlarga oʻxshash boʻladi. Lekin ular izchil

obrazlardan idrokdan vaqt bo'yicha bir necha soatlar, ba'zida esa xatto bir necha kunlar bilan ajratilgan bo'lishi bilan farq qiladi.

Barcha odamlar bir-birlaridan u yoki bu ko'rinishdagi tasavvurlarning ular xayotida ijro qiladigan rollariga ko'ra tafovutlanadilar. Ba'zilar ko'rish, boshqalarda – eshitish, qolganlarida – xarakatli tasavvurlar ustunlik qiladi. Barcha odamlar tasavvur tipining ustunligiga ko'ra ko'rish, eshitish, xarakatli va aralash tasavvurlar ustunligi ifodalanadigan guruxlarga ajratilishi mumkin.

**Ko'rish tipiga** mansub odam matni esga tushiradi, kitob saxifasini tasavvur kilib, xayolan uni mutoala qiladi. Agar qandaydir raqamlarni, masalan telefon raqamini eslab qolish kerak bo'lib qolsa, uni qo'zda yozilgan tarzda tasavvur qiladi.

**Eshitish tipiga** mansub odam matnni xotirlab, talaffuz etilayotgan so'zlarni eshitgandek bo'ladi. Raqamlar xam eshitish obrazi shaklida yodda saqlanadi.

**Xarakatli tipga** mansub odam matn yoki raqamlarni yodda saqlab qolish uchun ularni ichida qaytaradi.

Ta'kidlab o'tish joizki, yorqin ifodalangan tasavvur tiplariga ega bo'lgan insonlar juda kam uchraydi. Ko'pchilik odamlarda u yoki bu darajada tasavurning barcha ko'rsatib o'tilgan tiplari mavjud bo'ladi, va ushbu odamda qaysi tip etakchi o'rinni egallashini aniqlash mushkul ish. Ushbu vaziyatda individual farqlar faqat tasavvurlar ustunligida emas, balki, tasavvurlarning o'ziga xosligida xam ifodalanadi. Xuddi shunday, ba'zi odamlarda tasavurlarning barcha tiplari yorqinroq, jonliroq va to'laroq ifoda etilsa, boshqalarda u yoki bu darajada rangsiz va chizmalarga asoslangan bo'ladi. Yorqin va jonli tasavvurlar ustunligi kuzatiladigan odamlar tasavvurlarning **obrazli tipiga** mansubdir. Bunday odamlarning psixik xayotida tasavvurlar katta ahamiyatga ega. Masalan, qandaydir voqealarni xotirlab, ular xayolan bu voqealarga tegishli bo'lgan aloxida saxnalarni «ko'radilar»; biror narsa xaqida muloxaza yuritib yoki gapirib, ko'rgazmali obrazlar va x.k.lardan keng foydalanadilar. [2]

Qator tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bolalar xayotidagi xodisalar to'frisidagi birinchi xotiralar 1,5 yoshda paydo bo'ladi. Shuning uchun aynan shu vaqtda bolalarda «erkin tasavvurlar» paydo bo'ladi. Uch yoshga kelib esa, ko'rish tasavvurlari bola xayotida muxim ahamiyat kasb etadi. Ikki yoshda nutkiy tasavvurlar yukori rivojlanish nuqtasiga etadi. Bunday tasavvurlarsiz bolaning nutkni egallashi, uning kattalar bilan mulokoti jarayonlarini amalga oshirib bo'lmaydi.

Tasavvurlar maktabgacha yoshdagi bolaning psixik xayotida o'ta muxim o'rinni egallaydilar. Odatda, bu yoshdagi bola obrazlar yordamida ko'rgazmali fikr yuritadi. Lekin bolalardagi birlamchi tasavvurlar yorqin bo'lmaydi.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, tasavvurlarning anikligi va yorqinligi mashklarni bajarish ta'sirida oshib boradi. Tasavvurlar rivojlanishining muxim sharti bo'lib etarlicha boy bo'lgan persteptiv ma'lumotlarning mavjudligi xisoblanadi. Bunday tasdiklanishning moxiyati tasavvurlarning idrokning odatiy usuliga bo'flikligidan iboratdir va bu xolat aniq muammolarni xal etishda xisobga olinishi zarur. Masalan, ko'pchilik chet tilidagi so'zlarni ko'rish orqali, o'z ona tilidagi so'zlarni esa eshitish-xarakat orqali tasavvur qiladi. Bu o'z tilimizni doimo

eshitishimiz va odamlar bilan mulokot jarayonida nutqni o'rganishimiz, chet tilini esa, odatda, kitoblar yordamida o'rganishimiz bilan tushuntiriladi. Natijada chet tilidagi so'zlarni tasavvur qilish ko'rish obrazlari ko'rinishida shakllanadi.

O'qitish jarayonida tasavvurlarning persteptiv obrazlar asosida shakllanishini xisobga olish lozim. Tasavvurlardan erkin ravishda foydalanish uchun o'quvchi mos bo'lgan persteptiv obrazlar asosida ma'lum turdagi tasavvurlarni shakllantirib olishi va ularni qo'llay bilish amaliyotiga ega bo'lishi zarur.

Tasavvurlar rivojlanishining muxim bosqichi bo'lib, ularing ixtiyorsiz paydo bo'lishidan kerakli tasavvurlarni ixtiyoriy xosil qilish malakasiga o'tish xisoblanadi.[2]

### **XOTIRANI YaXSHILASH VA XOTIRA MASHQI**

Kishilarning ismini yoki berilgan bob materialini tezroq va yaxshiroq eslab qolish uchun kundalik hayotimizda biz nima qila olamiz?

Ba'zan bizni xotiramiz pastligi xavotirga soladi: biz tanish ismlarni yoki eng muxim narsalarni eslab qola olmasligimizdan; suxbatimiz mavzusini yo'qotib, kirgan xonamizda bizga nima kerakligini yoddan chikarib qo'yishimizdan ko'rki ketamiz (Neggtapp, 1982). Bunday xotira susayishini bartaraf etish uchun nima qilish kerak?

Kirish qismida gap borgan PRTR (esda olib qolish) metodi mazkur mashqlarni taklif etadi :

Materialni bir necha bor qaytaring, uzok muddat eslab qolish imkonini beradi. Erinmang. Ismni yodda saklab qolish uchun uni talaffuz qilgan zahotiyok takrorlang, biroz kutib, yana qaytaring.

- Takrorlash va material bilan ishlashga ko'prok vaqt ajrating. Minimal darajada takrorlash bilan murakkab materialni tez o'kish (yuzaki ko'z yugurtirish) uning xotirada qolishiga yordam bermaydi. Materialni takrorlab, uni tanqidiy anglash katta foyda keltiradi. Faol mashq qilish (yodlash) lozim.
- Materialni eslab qolish uchun uni o'zingizga qulay qilib tashkil eting. Keyin ularning mazmunini yaxshi eslab qolish uchun mantlarni konspekt qilib, ma'ruzalarni o'z so'zlaringiz bilan yozib oling. Axbarotning ongsiz ravishda takrorlashdan ma'no yo'q. Yaxshisi assostiativ (boflanishli) aloqalarni o'rnatib, ma'lumotlarni tartibga solish, yangi materialni siz o'zingiz bilgan va boshingizdan o'tkazgan narsalar bilan solishtiring xamda o'z fikringiz bilan qayta xikoya qilib bering. Bularsiz siz noqulay vaziyatga tushib qolishingiz va agar savol siz rejalashtirmagan shaklda berilgan paytda ushbu savolni tushunmay qolishingiz mumkin. Gaplarni eslab qolishning mufassal guruxini tashkil etishning ko'prok tasavvurlariga ega bo'ling.
- Notanish tushunchalarni yodda saklab qolish uchun mnemoik (esga olishni osonlashtiradigan) uslublardan foydalaning, notanish so'zlarni tayan-so'zlar bilan boflang. Nomlanishlarni obrazli tasavvur qilish uchun vaziyatlarni o'ylab toping. Ma'lumotlarni akronimlarga ajratib chiking.
- Assostiativ (boflanishli) aloqalar orkali xotirada axbarotni yangilab turing.

- Xayolan eslab qolish ro'y bergan vaziyat va kayfiyatni o'zingizda tasavvur kiling. Xayolan usha joylarga kaytib boring. Xar bir aytmoqchi bo'lgan fikringiz ketma-ketligi avvalgisining ortidan kelishi uchun qulay tarzda vaziyatlarni yodga oling.

- Voqealar yaxshi yodda saklanib turganida xamda siz ularni esdan chikib qolishi darajasiga etkazmasdan esga olishga xarakat kiling.

- Turli xil ma'lumotlarning aralashib ketish extimolini minimum darajaga keltiring. Bir vaqtning o'zida bir-biriga o'xshash mavzularni, masalan ispan va franstuz tillarini birgalikda o'rganmang, chunki biri ikkinchisiga xalakit qiladi.

- Bir vaqtning o'zida biladigan bilimlaringizni xam mustaxkamlab, xam aniklashtirib olish uchun o'z bilimlaringizni takrorlang. Keyinchalik axbarotlarni yodga olish kerak bo'lganda, o'zingizga ortiqcha darajada ishonib yubormang. O'zlashtirganlaringizni takrorlang. Toza qofozga bo'limlar rejasini tuzib oling. Turli xil tushunchalarga mustakil tarzda bobning so'ngida ularni o'qib chikkinungizga qadar ularga ta'rif bering. Mashq kiling. Matnlarda, xususan mazkur bobdagi yaxshi o'zlashtirish maslaxatlari sizga yordam berishi mumkin.

- O'zini tekshirib ko'rmasdan o'ziga ishonish, o'ziga ortiqcha baxo berishga olib kelishini Yudjen Stexmeyster va Djon Shognessilar talabalarning ikki guruxi bilan tajribalar o'tkazish jarayonida anikladilar. Birinchi gurux talabalari o'nlab anik faktlarga asoslangan fikrlarni bir necha marotaba qayta-qayta o'qib chikib, so'ngra o'z fikrlarini xar bir faktga nisbatan so'zlab berdilar, keyin esa ularni qay darajada yaxshi eslab qolganliklarini bilish uchun tekshirib ko'rishdi. Keyinchalik tekshiruvda o'zlari javob bera olmagan savollari uchragan bo'lsa xam, ushbu gurux talabalari o'z kuchlariga juda ishonar edi. Ikkinchi gurux talabalari fikrlarni o'qib chikishdi, biroq qolgan vaqt mobaynida amaliy mashfulotlar bilan band bo'lishdi – savollarga javob qaytarishdi. Buning uchun o'qib chikkanlarini esga olishga to'fri keldi. “Ko'p karra o'qib chikkan” gurux talabalari bilan taqqoslaganda, ikkinchi gurux talabalari xotirani tekshirish testlarida bir xil yaxshi ko'rsatkichlarga erishdilar. Undan tashqari, ushbu gurux talabalari nimani yaxshi bilishlari-yu, nimani yaxshi bilmasliklari to'frisidagi savollarga yaxshi javob bera olishdi. Shunday qilib, o'zi-o'zini tekshirib ko'rish uslubi materiallarni yaxshi eslab qolib, muammolarni aniklash va shu orqali biz xali bilmaydigan narsalarimizga ko'prok diqqatimizni jamlash imkoniyatini beradi. Bir safar Britaniya bosh vaziri Bendjamin Dizraeli shunday degan edi: “Siz kam bilishingizni tushuningiz, bu- bilim olish uchun ko'yilgan katta qadamdir”.

- Xotira psixologiyasi uni mukammallashtirishning anik va ravon uslublarini taklif etadi. Ular orasida: uzoq muddatga eslab qolish; faol tarzda takrorlash, foydali, jonli, obrazli assostiativ aloqalarni tashkil etish, yodda tutish mashqlari; xayolan anik bir vaziyat va kayfiyatga murojat etish; xotiradagilar yolfon xabar orqali yo'qolib ketmasdan oldin qayta xikoya qilish; axborotlar aralashib ketishiga yo'l ko'yimaslik; o'zi-o'zini nazorat qilish va takrorlashdir.<sup>76</sup>

---

<sup>76</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-360.

## MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Xotira – bu:
  - a) avval orttirilgan bilimlarni saqlash;
  - b) amaliy faoliyatda o'tmish tajribasidan foydalanish psixik jarayoni;
  - v) hissiyotlar va idroklarga asoslangan insonning tajribani eslash qobiliyati;
  - g) inson o'tmish tajribasini esda olib qolish, esda saqlash va eslashning psixik jarayoni.
2. Xotira jarayonlari:
  - a) esda olib qolish, assotsiatsiyalar, tasavvurlar;
  - b) esda olib qolish, esda saqlash, tasavvurlar;
  - v) esda olib qolish, esda saqlash, eslash, unutish;
  - g) esda olib qolish, tasavvurlar, unutish.
3. Xotiraning harakat, emotsional, obrazli va verbal xotiralariga bo'linishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi:
  - a) etakchi analizator;
  - b) aks ettirish predmeti;
  - v) sub'ekt faolligi;
  - g) faoliyat turi.
4. Xotiraning yuksak turi ... xotira hisoblanadi:
  - a) harakatli;
  - b) obrazli;
  - v) emotsional;
  - g) verbal.
5. Materialni esda olib qolish oson kechadigan holat:
  - a) maqsadga erishish shartiga kiritilganida;
  - b) faoliyat asosiy maqsadi mazmuniga kirganida;
  - v) maqsadga erishish usullariga kiritilganida;
  - g) erkin tartibda berilganida.

## 12. MAVZU: XAYOL

### REJA:

1. Xayol va uning fiziologik asosi haqida tushuncha.
2. Xayol turlari va jarayonlari.
3. Xayol va ijodkorlik.
4. Xayolning individual xususiyatlari va rivojlanishi

### *12.1. Xayol va uning fiziologik asosi haqida tushuncha*

Insonning Er sayyorasida yashovchi birorta mavjudotga xos bo'lmagan sifat – yangilik yaratish qobiliyatini o'rganib, inson psixikasining yana bir noyob hodisasi bilan to'qnashamiz. Uning mohiyati insonning o'z ongida real voqelikda hali mavjud bo'lmagan obrazni yaratishdan iborat, bunday obraz yaratishning asosini esa o'tmish tajribasi tashkil etadi.

Idrok, xotira va tafakkur bilan bir qatorda inson hayotiy faoliyatida xayol ham muhim o'rinni egallaydi. Xayol bilish jarayoni bo'lib, unda voqelik vositali tarzda

aks etadi. Aks ettirishning vosita materiallari sifatida idrok obrazlari, xotira taassurotlari namoyon bo'ladi. Tafakkur kabi xayol ham o'tmish tajribasini qayta ishla bilan yangi bilimlarni yaratishga qaratilgan.[1]

Shunday qilib, *xayol* – bu real voqelikni aks ettiruvchi taassurotlarni, qayta tuzish va shu asosda yangi taassurotlarni yaratish jarayoni. Xayol – bu obraz, tasavvur yoki g'oya shaklidagi yangilik yaratishning psixik jarayoni.

Xayol obrazlari idrok obrazlari va xotira tasavvurlaridan ularda inson hali duch kelmaganlari aniqlanishi va shu tarkibda bo'lishi bilan farq qiladi. Bular inson ko'z o'ngida sodir bo'lmagan va bo'lishi mumkin bo'lmagan hodisalar, dalillar, voqealardir. Xayol obrazlari o'zida sodir bo'lishi kutilgan voqea va hodisalarni tutishi mumkin. SHu bilan birga, xayollarda kashf etilgan yangilik doimo haqiqatda mavjud bo'lganlar bilan u yoki bu darajada bog'langan bo'ladi. Xayol obrazlari idrok obrazlariga, shuningdek, xayolda chuqur o'zgarishlarga uchraydigan xotira tasavvurlariga ham tayanadi. Insonning individual taraqqiyoti jarayonida xayol tafakkur bilan uzviy aloqada shakllanadi. Xayol obrazlarini tuzish inson aqliy taraqqiyotining yuqori darajasidagina amalga oshishi mumkin.

Ko'p hollarda xayol yangi echimni topish zaruriyati tug'ilganida, ya'ni, harakatdan o'zib ketgan holda aks ettirish talab etilgan muammoli vaziyatda yuzaga keladi.[1]

Xayol natijasida inson kelajakni oldindan ko'ra oladi va o'z hulq-atvorini boshqaradi, atrof-olamni ijodkorlik bilan o'zgartiradi. Xayol – mehnat faoliyatida shakllangan psixik faollikning maxsus tarzda inson tomonidan ifodalanishi. Xayol voqelikni avvaldan aks ettirishni ta'minlaydi, bunda o'tmishning kelajakdagi proeksiyasi hosil qilinadi. Xayol insonga vaziyatda yo'l topishga va bevosita amaliy harakatlarning aralashuvisiz masalalarni hal etish imkonini yaratuvchi ko'rgazmali-obrazli tafakkurning asosi bo'lib xizmat qiladi. Xayol obrazlari faqat insonda mavjud bo'lgan real olam obrazlarining alohida tomonlarini qayta ishlab chiqish yo'li bilan yaratiladi.

Xayol doimo insonning amaliy faoliyatiga yo'naltirilgan bo'ladi. Inson biror harakatni amalga oshirishdan avval, uni qanday bajarish zarurligi va uni qanday bajarishini tasavvur qiladi. SHunday qilib, u avvaldan keyinchalik sodir bo'ladigan amaliy faoliyatda ishlab chiqariladigan moddiy jism obrazini yaratadi.

Xayol faoliyati inson hissiy kechinmalari va uning iroda harakatlarini tadbiiq etish bilan uzviy holda bog'langan.[2]

Xayolning *fiziologik asosi* nerv aloqalarini dolzarblashtirish, ularning emirilishi, qayta guruhlarga qo'shilib, yangi tizimlarga birlashishi, o'tmish tajribada shakllanib bo'lgan vaqtinchalik aloqalar yangi uyg'unliklarining hosil bo'lishidan iborat. Bunda mavjud bo'lgan vaqtinchalik aloqalarning oddiy holda dolzarblashtirish yangilikning yaratilishiga olib bormaydi. YAngilikning yaratilishi avval bir-biri bilan uyg'unlashmagan vaqtinchalik nerv aloqalaridan hosil bo'lgan uyg'unlikni taqazo etadi. Xayol jarayoni ikkila xabarlovchi tizimlarning hamkorlikdagi faoliyatidan iborat. Bunda ikkinchi xabar tizimi – so'z katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Barcha ko'rgazmali obrazlar u bilan uzluksiz ravishda bog'langandir. So'z xayol obrazlarining hosil bo'lish manbai bo'lib xizmat qiladi, ularning tarkib

topish yoʻlini nazorat qiladi, ularni saqlab qolish, mustahkamlash, oʻzgartirish vositasi hisoblanadi. Xayol doimo voqelikdan chetga chiqishdir, lekin istalgan vaziyatda xayol manbai – obʻektiv voqelik hisoblanadi.

Inson hayotida xayol qator maxsus **vazifalarni** bajaradi. Ulardan **birinchisi** voqelikni obrazlarda ifodalash va masalalarni hal etishda ulardan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlishdan iboratdir. Xayolning bu vazifasi tafakkur bilan bogʻliq boʻlib, unga organik tarzda kiritilgandir.[2]

Xayolning **ikkinchi vazifasi** emotsional holatlarni boshqarishdan iborat. Oʻz xayoli koʻmagida inson qisman boʻlsada, koʻpgina ehtiyojlarni qondirish, uning natijasida yuzaga kelgan zoʻriqishni kamaytirishga layoqatli boʻladi.

**Uchinchi vazifasi** xayolning inson bilish jarayonlari va holatlari, xususan, idrok, diqqat, xotira, nutq va hissiyotlarni ixtiyoriy boshqarishdagi ishtiroki bilan bogʻliq. Obrazlar vositasida inson idrok, xotiralar, iboralarni boshqarish imkoniga ega boʻladi.

**Toʻrtinchi vazifasi** harakat ichki rejasining shakllanishi – obrazlardan foydalanib, ularni ongda bajarish layoqatidan iborat.

**Beshinchi vazifasi** – bu faoliyatni rejalashtirish va dasturlash, bunday dasturlarni tuzish, ularning bexatoligi, joriy qilish jarayonini baholash.

Xayol yordamida biz organizmning koʻplab psixofiziologik holatlarini boshqarishimiz, kutilayotgan faoliyatga moyillashtirishimiz mumkin. Insonning irodaviy yoʻl bilan xayol vositasida organik jarayonlarga taʼsir koʻrsatishi, nafas olish maromi, tomir urish tezligi, qon bosimi, tana haroratini oʻzgartirishi mumkinligini isbotlovchi dalillar maʼlumdir. Ushbu dalillar autotrening asosida oʻz tasdigʻini topgan.[2]

**2. Xayol turlari va jarayonlari** Xayol turlari tasniflanishining bir necha xillari mavjud, ularning har biri asosida xayolning ahamiyatga molik belgilari: faollik, inson maqsadlari bilan aloqasi, yangi obrazlar yaratish mustaqilligiga egadir. Faollik belgisi boʻyicha xayol faol va sust xayolga boʻlinadi.

**Faol xayol** doimo ijodiy va shaxsiy masalani hal etishga qaratilgan, aniq amaliy faoliyatni bajarish bilan bogʻliq. Faol xayol kelajakka qaratilgan boʻlib, vaqtdan maʼlum daraja sifatida foydalanadi. U masala tomonidan uygʻotiladi va yoʻnaltiriladi, irodaviy sharoitlar bilan aniqlanadi va iroda nazoratiga boʻysunadi. Faol xayol oʻzida artistlik, ijodkorlik, tanqidiy, yaratuvchilik va antitsipiruyushce xayol turlarini mujassamlashtiradi.

Obrazlarning mustaqilligi va haqiqiylikiga bogʻliq ravishda xayol yaratuvchi va ijodkor boʻladi.[2]

**Yaratuvchi xayol** – bu maʼlum inson uchun biror yangilikni soʻz orqali taʼriflash yoki uni shartli ravishda aks ettirish (chizma, notali yozuv va boshqalar) ga tayangan holda tasavvur qilish. Xayolning bu turi insonning turli xil faoliyatida, shu bilan birga, taʼlimda ham keng qoʻllaniladi. Xuddi shunday, yaratuvchi xayol ishchiga mehnat operatsiyalarini chizmalar boʻyicha bajarishga yordam beradi.

**Ijodiy xayol** – bu yangi obrazlarni tayyor taʼriflar yoki shartli tasvirlarga tayanmagan holda yaratish. Xayolning bu turi davomida inson mustaqil holda

boshqa odamlar yoki jamiyat uchun qadrli bo'lgan, faoliyatning aniq o'ziga xos mahsulotida gavdalangan yangi obraz va g'oyalar yaratadi. Ijodiy xayol inson ijodiy faoliyati barcha turlarining tarkibiy qismi asosi bo'lib hisoblanadi.

*Antitsipatsiyaviy xayol* insonning juda muhim va zarur qobiliyati – kelajakdagi voqealarni oldindan sezish, harakatlarining natijasini ko'ra olish va boshqalar asosida yotadi. Insonning bu qobiliyatiga binoan inson «fikriy nigoh» yordamida kelajakda o'zi, boshqa odamlar yoki atrofdagilar bilan nimalar sodir bo'lishini ko'ra oladi.

*Sust xayol* ichki, sub'ektiv omillarga bo'ysunadi. Bunda amaliy faoliyatdan to'liq yoki deyarli to'liq bo'lgan ajralish mavjud. Bunda fantaziya hayotga tadbiiq etilmaganobrazlarni yaratadi, amalga oshmaydigan yoki tadbiiq etilmaydigan hulq-atvor dasturlari rejalashtiradi. Sust xayol jarayonida qandaydir ehtiyoj yoki tilakning noreal, xayoliiy qondirilishi amalga oshiriladi. Bunday xayolning materiallari sifatida obrazlar, tasavvurlar, tushuncha elementlari va tajribada to'plangan boshqa ma'lumotlar xizmat qiladi.[1]

Sust xayol ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin. *Ixtiyorsiz xayol* inson irodasidan tashqarida, boshqa u yoki bu idrok qilishga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Bu, asosan, ong faoliyati, ikkinchi xabar tizimining kuchsizlanishida, yarim uyqu, affekt holatida, uyquda, ongning patologik buzilishlarida (gallyusinatsiyada), gipnoz, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar ta'sirida sodir bo'ladi. Oldindan ko'zlangan, maqsadga yo'naltirilgan tarzda inson tomonidan o'z tajribasining mos elementlaridan foydalanish va ularni yangi obrazlarda qayta yaratish *ixtiyoriy xayol* deyiladi. Bu xayol uchun obraz yaratish vazifasining mavjudligi va uni amalga oshirishda iroda kuchi xosdir. Maqsadli xayol o'zini uch xil shaklda: orzular – istalgan kelajak obrazlari; shirin xayol – dolzarb kechinmali irreallik obrazlari; fantaziyalar – yaqin kelajak obrazlari. Ular zo'riqishni kamaytirish, maqsadga yo'nalganlik, oldindan sezish, inson zahiralarni safarbar qilish vazifalarini bajarishi mumkin. SHirin xayolda insonning qiziqishlari, moyilliklari, ehtiyojlari yaqqol ko'zga tashlanadi. SHirin xayolga *orzular* – inson amalga oshirmoqchi bo'lgan, lekin ayni damda amalga oshirolmaydigan, uning eng ezgu xohishlarini qondiradigan istalgan kelajak obrazini oldindan yaratish yaqin turadi. Orzular shirin xayoldan o'zlarining amaliy tadbiiqi imkoniyatini taqazo etishi bilan farq qiladi. Inson o'z orzularida yaratgan obrazlar, yorqin, jonli, aniq xususiyati bilan, shu bilan birga – sub'ekt uchun hissiyotga boyligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Lekin orzu, xayol istalgan kelajakni hozirgi zamon bilan muntazam ravishda bog'lab turganidagina foydali bo'lishi mumkin. Agar bunday bo'lmasa, orzu harakat rag'batida xayolparastlikka, fantaziyaga aylanib qolishi mumkin.[2]

Orzuning hissiy-emotsional turi sifatida, *shirin xayol* va unga yaqin bo'lgan *fantaziyalar* namoyon bo'ladi. SHirin xayol deb, odatda, «shirin orzular», ushalmaydigan umidlar, haqiqiy voqelikni o'rnini bosadigan shakllarga aytiladi. SHirin xayol surish – o'ylab topilgan, voqeiiy bo'lmagan hayotda yashash, demak. Bu *eskapizm* – voqelikdan orzular va xayollar olamiga g'arq bo'lish bilan bog'liq.

Ilmiy faoliyatda xayolning boshqa shakli – *faraziiy tajribadan* keng foydalaniladi. Murakkabligi yoki hajmi yuzasidan real sharoitlarda amalga oshirib bo'lmaydigan ba'zi bir jarayonlarda olimlar o'zlarining ijodkorlik xayollarini



yordamga chaqiradilar. Uning yordamida, masalan, fizik-olim miyasida voqea yoki jarayonni, unga mukammal sharoitlarni yaratgan holda amalga oshiradi. Buyuk A. Eynshteyn shu usul bilan bizning borliq geometriyasi haqidagi tasavvurlarimizni o'zgartirib yuboradigan umumiy nisbiylik nazariyasini kashf etgan. Faqat faraziy tajriba Galileyga jismlarning vakuumda tushishining to'g'ri qonunini ishlab chiqish imkonini berdi. Fan «qora tuynuklar» haqidagi tajribaga asoslangan ma'lumotlarga ega emas, lekin faraziy tajriba bu erda ham ularning dinamikasini tushuntirib beruvchi modelini yaratishga yordam berdi.[2]

**Xayol jarayonlari** - Xayol jarayonlari insonning tajribasi va bilim doirasi, shuningdek o'tmish tajribalari bilan belgilanadi.

**Agglyutinatsiya** – «elimlash» degan ma'noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. *Masalan:* yalmog'iz kampir, suv parisi, kentavr, ssfinks obrazlari va boshqalar.

**Giperbolizatsiya** – obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish shuningdek, alohida qismlarni o'zgartirishdir. *Masalan:* Gulliver, liliput, Alpomish, Rustam pahlavon obrazlari kabilar.

**Tizimlashtirish** – o'xshatish orqali ayrim tasavvurlarni ular orasidagi farqlarni silliqlash; tipiklashtirish-bir xil obrazlarni qaytarilishi bo'lib, har bir davr uchun tipik bo'lgan obrazlarni yaratish *Masalan:* A.Kahhor hikoyalari («O'g'ri», «Bemor») A.Qodiriy («O'tgan kunlar») romani kabilar.

**Aktsentlashtirish** – ayrim belgilarni ta'kidlash orqali obrazlar yaratish *Masalan:* o'rtoqlik hazillari. Aktsentlashtirish badiiy adabiyotlarda juda ko'p qo'llaniladi.

YUqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro'y beradi. Chunki har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko'riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obrazlar hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega.

- Xayol tasavvurlari ongda paydo bo'ladi va barqaror bo'ladi.
- Xotira tasavvuridagi narsa doimo tanish narsadek his qilinadi. Xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg'ularini beradi.
- Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bilan bog'liq bo'lgani sababli yangilikni his qilish tuyg'ulari oqibatida vujudga keladi. [2]

**12.3. Xayol va ijodkorlik** Ijodiy jarayonda xayolning tutgan o'rniga ortiqcha baho berish qiyin. Ijod barcha psixik jarayonlar, shuningdek, xayol bilan ham uzviy bog'langan. Xayolning rivojlanganlik darajasi va

uning o'ziga xos xususiyatlari ijodkorlik uchun tafakkur rivojlanganligi darajasidan kamroq ahamiyatga ega emas.

Ijodkorlik psixologiyasi uning aniq turlari: kashfiyotchilik, ilmiy, adabiy, badiiy va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik imkoniyati inson qobiliyatlari bilan mustahkamlangan bilimlari bilan ta'minlanadi, va insonning sobitqadamligi bilan rag'batlantiriladi. Ijodkorlikning muhim sharti ijodiy faoliyatga emotsional tus beruvchi ma'lum kechinmalarning mavjudligi hisoblanadi.[1]

Ma'lum bir insonga ijod qilish imkoniyatini yaratuvchi, boshqalardan esa bu imkoniyatni darig' tutuvchi nima ekanligi haqidagi masala mashhur olimlarni o'tmishdan qiynab keladi. Xuddi shunday, fransiyalik psixolog T. Ribo tomonidan asoslab berilgan ijodiy jarayonda algoritmlashtirish va uni o'qitishning imkoniyati mavjud emasligi haqidagi nuqtai nazariuzoq vaqt hukmron fikr hisoblangan. Uning yozishicha: «Kashf etish metodlari»ga keladigan bo'lsak, haqiqatda ular mavjud emas, buning aksi bo'lganida edi, u holda kashfiyotchini hozirda mexanik va soatsozlarni ishlab chiqargandek, ishlab chiqarish mumkin bo'lar edi»<sup>77</sup>. [3] Lekin asta-sekin bu nuqtai nazar shubha ostiga olinib boshladi. Birinchi o'ringa ijodkorlikka bo'lgan qobiliyatni rivojlantirish mumkinligi gipotezasi ko'tarildi.

Ingliz olimi G. Uolles ijodiy jarayonni tadqiq etishga harakat qilib ko'rdi. Natijada u ijodkorlikda to'rt bosqichni ajratishga muvaffaq bo'ldi, bular: I – *tayyogarlik* (g'oyaning yaratilishi); II – *etilish* (ushbu muammoga bevosita va bilvosita tegishli bo'lgan bilimlarni konsentratsiyalash, «to'plash»); III – *birdan eslash* (izlanayotgan narsani ichki sezgi orqali ilg'ab olish); IV – *tekshirish*. [2]

G.S. Altshuller ijodiy masalarni hal qilishning yaxlit nazariyasini ishlab chiqdi. U ijodkorlikning besh darajasini ajratdi. *Birinchi daraja masalalari* ushbu maqsadga mo'ljallangan vositalarni qo'llash bilan hal etiladi. Bunda umumiy qabul qilingan va ma'lum bo'lgan bir necha xil echimlarni fikran tanlab olish talab etiladi. Bunda ob'ektning o'zi o'zgarmaydi. Bunday masalalarni echish vositalari yagona tor mutaxassislik doirasida bo'ladi. *Ikkinchi darajali masala* ob'ekt ko'rinishini zarur samaraga ega bo'lish maqsadida bir muncha o'zgartirishni talab etadi. Bunda bir necha o'nlab variantlarni tanlash mumkin. Bunday masalalarni echish vositalari bir soha bilimlariga tegishli bo'ladi. *Uchinchi daraja masalalarining* to'g'ri echimi yuzlab noto'g'ri echimlar orasida yashiringan bo'ladi, chunki takomillashtirilayotgan ob'ekt jiddiy o'zgartirilishi zarur. Bu daraja masalalarning echish usullarini o'xshash soha bilimlarida izlashga to'g'ri keladi. *To'rtinchi daraja masalalarini* echishda takomillashtirilayotgan ob'ekt to'laligicha o'zgartiriladi. Odatda, bunday masalalarning echimi fan sohasining kam uchraydigan ta'sir va hodisalar orasidan izlanadi. *Beshinchi daraja masalalarini* hal etishga takomillashtirilayotgan ob'ekt tuzilishini o'zgartirish bilan erishiladi. Bunda tadqiqotlar va xatoliklar soni ko'p karra oshadi, vositalar esa hozirgi zamon fani imkoniyatlari doirasidan tashqarida bo'lishi mumkin. SHuning uchun, avvalo, kashfiyotni amalga oshirib, so'ngra yangi ilmiy ma'lumotlarga tayangan holda ijodiy masalaning echimini topish zarur.

Altshuller fikriga ko'ra, ijodiy masalalarni hal etishning muhim usullaridan biri ularni yuqori darajalardan quyilariga ko'chirishdir. [1]

SHunday qilib, yuzaga kelgan obrazlarning tuyulayotgan engilligi, ixtiyoriyligiga qaramasdan, xayolda voqelikni ijodiy o'zgartirish o'z qonunlariga bo'ysunadi va ma'lum usullar bilan amalga oshiriladi. Yangi tasavvurlar ongda mavjud bo'lganlar asosida tahlil va umumlashtirish operatsiyalari yordamida yuzaga keladi. Oqibatda, xayol jarayonlari boshlang'ich tasavvurlarning fikran tarkibiy qismlarga ajratish va ularni yangi uyg'unlikda birlashishidan iborat

---

<sup>77</sup> Маклаков А.Г. Общая психология. СПб., 2002. Б.295.

bo'ladı. Bundan kelib chiqadiki, ijodiy jarayon xayol oddiy obrazlarining shakllanishida ishtirok etadigan xuddi o'sha mexanizmlarga tayanadi.

#### ***12.4. Xayolning individual xususiyatlari va rivojlanishi***

Xayolning individual xususiyatlari odam xayolining rivojlanish darajasi va ko'proq foydalanadigan obrazlar tipiga ko'ra tafovutlanishida ifodalanadi.

Xayolning rivojlanganlik darajasi o'tmishdagi tajriba ma'lumotlarining obrazlar yorqinligi va chuqurligi bilan qayta ishlash, shuningdek, bu qayta ishlash natijalarining yangiligi va anglanganligi bilan xarakterlanadi. Xayolning kuchli va to'laqonliligi xayol mahsulotining haqiqatga to'g'ri kelmaydigan va mo'jizaviy obrazlar, masalan, sehri ertaklar mualliflarida oson baholanadi. Xayol rivojlanganligining zaifligi tasavvurlarni quyi darajada qayta ishlanishi bilan ifodalanadi. Xayol rivojlanishining zaifligi ma'lum vaziyatni ko'rgazmali tasavvur etish malakasini talab etuvchi mantiqiy masalalarni echishda qiyinchiliklarga sabab bo'ladı. Xayolning etarli darajada rivojlanmaganligida emotsional jihatdan boy va har tomonlama hayot kechirish mumkin emas. [2]

Odamlar xayol obrazlarining yorqinligi darajasiga ko'ra, aniqroq farqlanadi. Bir xil odamlar xayol obrazlarining o'ta yorqinligi, boshqalar – o'ta rangsiz tasavvurlar bilan farqlanadilar. Xayol rivojlanganligining yuqori darajasini ijodiy mehnat bilan shug'ullanuvchilar, - yozuvchi, rassom, musiqachi, olimlarda ko'rishimiz mumkin.

Odamlar o'rtasidagi farqlar ustun bo'lgan xayol xususiyatlariga nisbatan aniqlanadi. Xayol tomonidan hosil qilingan obrazlar asosidagi sezgilar turiga bog'liq ravishda odatda, obrazlarning ko'rish, eshitish, motorli va ko'rish-eshitish-harakat tiplari ajratiladi. Xayolning sof tiplari juda kam uchraydi, odamlar ko'proq xayolning aralash tipiga ega bo'ladilar, chunki hayotda bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va motorli sezgilarga tayanamiz. Bunda xayol tiplaridan birining ustunligi kuzatiladi.

Turli odamlarda xayol ularning kasbiy faoliyati va ustun bo'lgan ehtiyojlar sohasi bilan belgilanadi.[1]

Inson rivojlangan xayol bilan tug'ilmaydi. Uning rivojlanishi ontogeneza sodir bo'ladı va keyinchalik xayol obrazlarining yaratilishi uchun material bo'lib xizmat qiladigan tasavvur zahirasi to'planishini talab etadi. Xayol ta'lim-tarbiya jarayonida, shuningdek, tafakkur, xotira, iroda va sezgilar bilan birlikda shaxs rivojlanishi bilan uzviy aloqada rivojlanadi.

Xayolning birinchi ifodalanishi idrok jarayoni bilan uzviy bog'langan. Idrok qilish va xayol o'rtasidagi uzviy aloqa bola o'z o'yinlarida olgan taassurotlarini avval idrok qilingan jismlarni xayolda o'zgartirgan holda qayta ishlay boshlaganida namoyon bo'ladı. Stul samolyotga, quticha – avtoullovga aylanadi.

Xayol rivojlanishining muhim bosqichi bolaning nutqni egallaydigan yoshi bilan bog'liq. Nutq bolaga xayolga faqat aniq obrazlarni emas, balki mavhum tasavvur va tushunchalarni ham kiritish imkonini beradi. nutqni egallash bosqichi bolaga jismning alohida qismlarini oson ajratish va xayolda ulardan foydalanish imkonini beruvchi amaliy tajribaning oshishi va diqqatning rivojlanishi bilan birgalikda kechadi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati xayol obrazlari paydo

bo'lishining ixtiyorsizligidir. Xayol rivojlanishining keyingi bosqichi uning faol shakllarining yuzaga kelishi va xayolning ixtiyoriyligi bilan bog'liq. Maktab yoshida xayolda muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi. O'qitish jarayonida reproduktiv va ijodiy xayol faol rivojlanadi. Shunday qilib, insonda xayolning rivojlanishi qator omillarga bog'liqdir.[2]

### MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Yangi obrazlarni yaratishga asoslangan ijodiy faoliyat:
  - a) idrok;
  - b) tafakkur;
  - v) xayol;
  - g) diqqat.
2. Xayolning ko'rish va eshitish turlariga bo'linishiga asos bo'lgan:
  - a) etakchi analizator;
  - b) aks ettiriladigan jism;
  - v) materiyaning mavjud bo'lish shakli;
  - g) sub'ektning faolligi.
3. Sust va faol xayolning farqlanishi:
  - a) aks ettiriladigan jismga ko'ra;
  - b) materiyaning mavjud bo'lish shakli;
  - v) aks ettirishning yo'nalganligiga ko'ra;
  - g) psixik faollik darajasiga ko'ra.
4. Kundalik hayotda qo'shilmaydigan turli sifat, xossa, qismlarni «birlashtirish»:
  - a) agglitinatsiya;
  - b) tiplashtirish;
  - v) chizmalashtirish;
  - g) barcha javoblar noto'g'ri.
5. Faoliyatning o'ziga xos va qimmatli mahsulotida joriy etiladigan yangi obrazlarning mustaqil holda yaratilishini taqazo etuvchi xayol,- bu:
  - a) orzu;
  - b) shirin xayol;
  - v) ijodiy xayol;
  - g) barcha javoblar noto'g'ri.

### 13. MAVZU: TAFAKKUR

#### REJA:

1. Tafakkur va uning xususiyatlari.
2. Tafakkur turlari va shakllari
3. Tafakkur operatsiyalari va qonuniyatlari.
4. Tafakkur sifatleri.
5. Tafakkurning individual xususiyatlari va rivojlanishi.

*1. Tafakkur va uning xususiyatlari.* Inson atrof-olam (narsa, hodisalar, insonlarni) va o'zini turli xil faoliyatlarni bajarish va bu ob'ektlarga ta'sir ko'rsatgan

holda ma'lum bir ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga molik maqsadlarga erishish uchun o'rganadi. Sezgi, idrok va tasavvurlar ixtiyorsiz diqqat va ko'rgazma-obrazli xotira bilan hamkorlikda insonga aniq bir ob'ektlar va ularning bevosita o'rganiladigan xossalari haqida ma'lumot beradilar. Psixik aks ettirishning bu shakllari inson tomonidan ob'ektiv reallikni bilishning hissiyotli asoslaridir. Lekin alohida jismlar va real olam hodisalarini bilish istalgan amaliy vazifani hal etishda yuzaga keladigan uch ahamiyatga ega bo'lgan savolga javob topish uchun etarli emas. Bu savollar: «Yuzaga kelgan vaziyatda nimani, qay tarzda bajarish mumkin, va bu harakat natijasida nima hosil bo'ladi?»dan iborat.[1]

Bu savollarga javob izlashda bizlarga tafakkur yordam beradi. Avvalambor, tafakkur yuksak darajadagi bilish psixik jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonning mohiyati inson tomonidan voqelikning faol ijodiy aks ettirish va o'zgartirishdan iborat. Tafakkur bevosita idrokda anglaymaydiganlarni ochib beradi; u olamni ahamiyatli aloqalar va munosabatlarda, uning turli xildagi vositalarida aks ettiradi. Tafakkurning asosiy vazifasi real bog'liqliklarga asoslangan zarur aloqalarni vaqt va fazodagi tasodifiy mos kelishlardan ajratgan holda aniqlashdan iborat. Tafakkur jarayonida tasodifiydan zaruratga, ayrimlikdan umumiylikka o'tish sodir bo'ladi.

SHunday qilib, *tafakkurni* voqelikni umumlashtirilgan va vositalangan aks ettirish sifatida ta'riflash mumkin. Bundan tafakkurning muhim belgilaridan biri *umumlashtirish*dan iboratligi kelib chiqadi. Voqelikni umumlashtirgan holda aks ettirish birgina odam va zamondoshlarining emas, balki, o'tmish avlodlarining ham tajribasini qayta ishlab chiqish natijasidir. Bu tajriba til yordamida og'zaki va yozma nutqda (o'qituvchilar ma'ruzalarida, kitob, darsliklarda va h.k.) ifodalangan. SHuning uchun tafakkur ko'plab odamlar bilimlarini umumlashtiradi.

Tafakkur jarayonida inson amaliy faoliyat, obrazlar va tasavvurlar, modellar, chizmalar, belgilar, til kabi jismlari va ijtimoiy olamning ahamiyatli aloqa va munosabatlariga kirib borish maqsadida, insoniyat tomonidan ishlab chiqilgan turli xildagi vositalardan foydalanadi.[1]

Tafakkurning ikkinchi muhim belgisi voqelikni analizatorga bevosita ta'sir ko'rsatmay, ko'pchilik hollarda asboblar ko'magida olingan qo'shimcha belgilar yordamida anglanadiganlarni tushunish va namoyon qilish imkonini yaratuvchi *vositali tarzda aks ettirish*dir. Hodisalarning qonuniyatlari, ichki aloqalari bizning ongimizda hodisalarning tashqi belgilarida vositali tarzda namoyon bo'lishi bilan inson ichki, barqaror o'zaro aloqalarning belgilarini aniqlab oladi.

Tafakkurning o'ziga xos xususiyati bilish yoki amaliy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan u yoki bu vazifani bajarish bilan bog'liqligidan iborat. Tafakkur muammoli vaziyatdan, tafakkurning maqsadi bo'lgan savolga javobdan boshlanadi.<sup>78</sup>[3]

Tafakkur muammosini ko'rib chiqqan A.A. Smirnov tafakkur va *aqliy jarayonlarning assotsiativ tarzda kechishini* tafovutlash zaruriyati haqida ogohlantirgan edi. Gap shundaki, aqliy faoliyatda biz assotsiatsiyalardan keng foydalanamiz, chunki ular tafakkur masalalarini echishda ahamiyatli yordam ko'rsatadi. Aqliy jarayonlarning assotsiativ kechishida holat o'zgacha bo'ladi.

---

<sup>78</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-407.

Muhim tafovut shundan iboratki, bu vaziyatda o‘z oldimizga hech qanday maqsad qo‘ymaymiz, chunki hech qanday vazifani bajarmaymiz. Bunda bir jarayon ikkinchisi bilan almashadi, chunki ular bir-biri bilan assotsiativ tarzda bog‘langan bo‘ladi. Tafakkur jarayonlarining assotsiativ tarzda kechishi ko‘p hollarda inson toliqqan bo‘lib, hordiq olishni xohlayotganida kuzatiladi. Uyquga ketishdan oldin xayolingizdan ketma-ket turli xildagi o‘ylar o‘tishini kuzatgansiz. Mana shu o‘ylar ma‘lum assotsiatsiyalarga kiradi.[2]

Tafakkurning alohida muhim o‘ziga xos xususiyati – bu uning nutq bilan uzluksiz aloqasi. Tafakkur va nutqning bunday aloqasi, avvalambor, fikrlarning, hatto, nutq tovush shakliga ega bo‘lmagan holat, masalan, kar-soqov odamlarda ham nutq shakliga mujassamlashtirilishida o‘z ifodasini topadi. Biz doimo so‘zlar orqali fikr yuritamiz.

Qisqartirilganlik, muxtasarlik, ixchamlilik xususiyatiga ega bo‘lgan yashirin, tovushsiz, ichki nutq insonning tafakkur mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Nutq tafakkur qurolidir. Ma‘lum fikr so‘zlar bilan ifoda etilganida tafakkur jarayoni amalga oshiriladi. Fikrni so‘z bilan ifoda etish – ifodalash motivi (nutqiy maqsad), ichki nutq, fikrni tashqi tomondan nutqiy ifodalash kabi bosqichlaridan iborat bo‘lgan murakkab jarayon.

Tafakkur – bu narsalar mohiyatini ochib beruvchi g‘oyalar harakati. Uning natijasi obraz emas, balki ma‘lum bir fikrdir. Tafakkur – bu kiritilgan yo‘nalishli-tadqiqiy, qayta o‘zgarishli va bilish xususiyatiga ega bo‘lgan harakatlar va muolajalar tizimini taxminlovchi alohida turga ega bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyat.

Tafakkur moddiy olam qonuniyatlari, tabiat va ijtimoiy-tarixiy hayotdagi sababiy-oqibat aloqalari, insonlar psixikasi qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi. Aqliy faoliyat natijalarini qo‘llash sohasi bo‘lgan amaliyot tafakkur faoliyatining manbai bo‘lib xizmat qiladi.[1]

Tafakkur psixik faoliyat sifatida miyaning vazifasi hisoblanadi. Oddiy psixik jarayonlar, masalan, sezgilar uchun asos vazifasini o‘taydigan yuqoriroq darajadagi miya jarayonlari tafakkurning fiziologik asosini tashkil etadi. Lekin hozirda tafakkur jarayonini ta‘minlovchi barcha fiziologik tuzilmalarning o‘zaro ta‘sir etish tartibi va ahamiyati haqida aniq fikr mavjud emas. Tafakkur faoliyatida miya peshona qismlari alohida ahamiyatga ega ekanligi shubhasizdir. Bundan tashqari, bosh miya po‘stlog‘ining tafakkurni gnostik (bilish) vazifasi bilan ta‘minlovchi doirasi, shuningdek, tafakkur jarayonini ta‘minlovchi miya nutq markazlari ham katta ahamiyatga ega.

Tafakkurning ikki darajasi mavjud: *fahm-farosat* – abstraksiyalardan foydalanish o‘zgarmas chizmalar, namunalar chegarasida sodir bo‘ladigan oddiy tafakkur, sog‘lom fikr, tafakkurning boshlang‘ich darajasi, uning mantiqiy mazmunini emas, balki, ibora va dalillar tuzilishini o‘rganadi, bu aniq, izchilliklik bilan mulohaza yuritish, fikrlarni to‘g‘ri tuzish, dalillarni qat‘iy tizimlashtirish, tasniflash layoqati; *aql* (dialektik tafakkur) – abstraksiyalarni ijodiy qo‘llash va ular tabiatini ongli tadqiq etish xususiyatiga ega bo‘lgan nazariy bilishning oliy

darajasi, aql yordamida inson narsalar mohiyati, ularning qonunlari va qarama-qarshiliklarini anglab etadi.[2]

Tafakkur – bu o‘z tuzilishi va turlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos faoliyat. Tafakkurning turlarga bo‘linishi shakli, xususiyati, ochib berilganlik, yangilik va voqelikka moslik darajasiga ko‘ra amalga oshiriladi

Tafakkur, odatda, nazariy va amaliy tafakkurlarga bo‘linadi. Nazariy tafakkurda tushunchali va obrazli tafakkur, amaliy tafakkurda esa –ko‘rgazmali-obrazli va ko‘rgazmali-harakatli tafakkur ajratiladi.

**Tushunchali tafakkur** – bu ma‘lum tushunchalar qo‘llaniladigan tafakkur. U yoki bu aqliy masalalarni echishda boshqa odamlar tomonidan aniqlangan va tushunchalar, mulohazalar, xulosalar shaklida ifodalangan tayyor bilimlardan foydalanamiz.

**Obrazli tafakkur** – bu obrazlar yordamida mulohaza yuritish jarayonining bir turi. Ular xotiradan olinadi yoki tasavvurda hosil qilinadi. Ko‘pincha tafakkurning bu turi badiiy ijodkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi odamlarda ustun bo‘ladi.

Tushunchali tafakkur voqelikni aniq va umumlashtirgan holda aks ettiradi, lekin bunday aks ettirish mavhumdir. O‘z navbatida, obrazli tafakkur atrofimizdagi olamni aniq va sub‘ektiv aks ettirish imkonini beradi. SHunday qilib, tushunchali va obrazli tafakkurlar bir-birini to‘ldiradi.[2]

**Ko‘rgazmali-obrazli tafakkur** obrazlarni qo‘llash bilan bog‘liq. Bu tafakkur odam biror masalani echishda turli obrazlarni, hodisalar va jismlar haqidagi tasavvurlarni tahlil qilishida, qiyoslashtirishida, umumlashtirishida namoyon bo‘ladi.

**Ko‘rgazmali-harakatli tafakkur** – mohiyati real jismlar bilan amalga oshiriladigan amaliy o‘zgartiruvchi faoliyatdan iborat bo‘lgan tafakkurning alohida turi. Tafakkurning bu turi biror-bir moddiy mahsulot ishlab chiqarish maqsadidagi mehnat bilan mashg‘ul bo‘lgan odamlarda kengroq ifodalanadi.

Yana til vositalari asosida vazifa bajaruvchi **so‘z-mantiqiy tafakkur** mavjud bo‘lib, u tafakkur tarixiy rivojlanishining so‘nggi bosqichidir. Unga tushunchalar va mantiqiy hosilalarni qo‘llash xosdir.

**Amaliy tafakkur** tajriba, amaliy harakatlar asosida amalga oshiriladi va aniq vazifalarni bajarishga qaratilgan, **nazariy** – tajriba bilan ish ko‘rmasdan tushunchalardan foydalanadi. **Diskursiv tafakkur** – kengaytirilgan tafakkur, **ichki sezgi** kechishining tezligi, aniq ifodalangan bosqichlarning mavjud emasligi, oz darajada anglanganligi bilan xarakterlanadi. **Reproduktiv, ishlab chiqaruvchi tafakkur** – bu namuna bo‘yicha tafakkur, ijodkorlik esa – yangi kashfiyotlar, yangi natijalarga olib boruvchi tafakkur. **Realistik tafakkur** voqelikni to‘g‘ri aks ettiradi, odam o‘z hulq-atvorini anglaydi, **autistik tafakkur** esa, asosan, ob‘ektga emas, affektga mos bo‘lganlarni ifodalaydi, ehtiyojni qondirishga, kelib chiqqan hissiy zo‘riqishni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.[2]

**Tafakkurning aqliy jarayonning natijasi hisoblangan uch xil shakli: tushuncha, mulohaza va xulosa farq qilinadi.**

**Tushuncha** – bu jism va hodisalarning umumiy, ahamiyatga ega bo‘lgan va farqlanuvchi belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli. Tushunchalar asosida hodisalar va jismlar haqidagi mavjud bilimlarimiz yotadi. U **aniq** va **mavhum**

bo'lishi mumkin. Jismning barcha belgilaridan aynan ushbu jism yoki o'xshash jismlar guruhini xarakterlab beruvchi ma'lum belgilar yig'indisi ajratilgan bo'lsa, u holda aniq bir tushuncha haqida gap ketadi. Bunday tushunchalarga shahar, g'oya, jamiyat va boshqalar kiradi. Agar jismdagi biror-bir alohida belgi ajratilib, va bu belgi o'rganish predmeti bo'lib xizmat qilsa, alohida jism sifatida o'rganilsa, mavhum tushuncha hosil bo'ladi. Bunday tushunchalarga fidokorlik, tenglik, vijdoniylik va boshqalar kiradi.<sup>79</sup>[3]

Tushunchalar *ayrim* va *umumiy* bo'lishi mumkin. Ayrim belgilar deb, jismning qaysi sinfga tegishliligidan qat'iy nazar, yagona jismga taalluqli bo'lgan tushunchaga aytiladi. ayrim tushunchalarga Moskva, Toshkent, Baykal ko'li va boshqalar kiradi. Umumiy tushuncha deb, bir jismga emas, balki, jismlar sinfiga, bu sinfdagilarning istalgan jismiga tegishli bo'lgan tushunchaga aytiladi. Masalan, samolyot, davlat, korxonalar, institut va h.k.[1]

*Tushunchalarning tasavvurdan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlariga*, tasavvurlarning doimiy obrazga ega ekanligi, tushuncha esa – bu so'zda o'z ifodasini topgan fikr ekanligidan iboratligi kiradi; tasavvur ahamiyatli va ahamiyatga ega bo'lmagan belgilarni o'z ichiga oladi, tushunchalarda esa faqatgina ahamiyatli belgilar saqlanib qoladi. Tushuncha tasavvurdan ko'ra ko'proq umumlashtirilgan aks ettirish hisoblanadi.

*Hukm* – jismlar va hodisalar o'rtasidagi aloqani aks ettiruvchi tafakkur shakli; biror narsani tasdiqlash yoki inkor etish. Tasdiqlovchi hukmga misol sifatida: «Psixika miyaning vazifasi», «Barcha metallar elektr tokini o'tkazadi», inkor etishga – «Suvda hech qanday yog' erimaydi» kabi hukmlarni keltirish mumkin.

Biz tasdiqlayotgan yoki inkor etayotgan hukmning ma'lum sinfnining jismlaridan birortasi, ba'zilari yoki har qaysi jismga taalluqli bo'lishiga bog'liq ravishda hukmlar ayrim, xususiy yoki umumiy bo'lishi mumkin. *Ayrim hukm*: «Bu odam hech qachon aldov yo'lga kirmaydi». *Xususiy hukm*: «Ba'zi metallar suvdan og'irroq». *Umumiy hukm*: «Suyuqlikdagi har bir jismga u siqib chiqargan suyuqlikka teng bo'lgan bosim ta'sir ko'rsatadi».

Hukmlarning ob'ektiv voqelikni aks ettirishiga ko'ra ular chin va soxta bo'lishi mumkin. *CHin hukm* jismlar va ularning xossalari o'rtasidagi voqelikda mavjud bo'lgan aloqalarni ifodalaydi. «Massa – inertlik o'lchovi» chin hukmdir. *Xato hukm* ob'ektiv hodisalar o'rtasidagi voqelikda mavjud bo'lmagan aloqani ifodalaydi, masalan: «Barcha odamlar uchun o'lim muqarrar emas».

Bir yoki bir necha hukmlardan yangi hukm yuzaga keladigan tafakkur shakli *xulosa* deb ataladi. Boshqa hukmlar keltirib chiqariladigan boshlang'ich hukmlar *xulosa dalillari* deb ataladi. Masalan, barcha slanetslarning yonuvchanligi ma'lum, va ushbu modda slanets bo'lsa, u holda «ushbu moddaning yonuvchanligi» haqida xulosa yasash mumkin.

Xulosa chiqarishning sodda va tipik shakli *sillogizm* hisoblanadi. Masalan: «Barcha metallar – elektr o'tkazuvchi. Qalay – metall bo'lgani uchun, qalay – elektr tokini o'tkazadi».

---

<sup>79</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-407.



Inson asosan xulosalarning ikki turi – induksiya va deduksiya foydalanadi. **Induksiya** – bu xususiy xulosalardan umumiy xulosalarni keltirib chiqarish, ayrim dalillar va hodisalarni o‘rganish asosida umumiy qoidalar va qonunlar o‘rnatish usuli.

**Deduksiya** – bu umumiy mulohazalardan xususiy mulohazalar keltirib chiqarish, umumiy qonunlar va qoidalar asosida ayrim dalillar va hodisalarni bilish.[1]

### 3. **Tafakkur operatsiyalari va qonuniyatlari.**

Fikrlash jarayonida inson atrof-olamni o‘ziga xos aqliy operatsiyalar vositasida o‘rganadi. Asosiy fikrlash operatsiyalariga analiz va sintez, taqqoslash, abstraksiya va umumlashtirish, aniqlashtirish, tasniflash va tizimlashtirish kiradi.

**Analiz** – bu yaxlitlikni fikran qismlarga yoki yaxlitlikni tomonlar, harakatlar, munosabatlarga ajratish. Stolni, masalan, qopqog‘i, tirgaklari, g‘aladonlari va boshqalarga bo‘lish mumkin. Fikrlash jarayoni bevosita nutqiy faoliyatga kiritilganida analiz **amaliy**, va nazariy holatda **aqliy** bo‘ladi.

**Sintez** – bu qismlar, xossalalar, harakatlarni fikran yaxlitlikka birlashtirish. Xuddi shunday, o‘quvchi biror mavzuni o‘rganishda matnning hammasini o‘qib chiqadi, so‘ngra esa alohida ma‘noga ega bo‘lgan qismlarni ajratadi, ya‘ni matnni tahlil qiladi. Keyin eslab qolish uchun reja tuzadi – bu sintez operatsiyasi bo‘ladi.

**Taqqoslash** – bu jism va hodisalar, yoki ularning alohida belgilari o‘rtasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni aniqlash. Taqqoslash bir tomonlama (chala) va ko‘p tomonlama (to‘liq); yuzaki va chuqur; bevosita va vositali bo‘lishi mumkin.[2]

**Umumlashtirish** – jism va hodisalarni ularning umumiy va ahamiyatli belgilari bo‘yicha fikran birlashtirish. Masalan, olma, nok, olxo‘ri, o‘rik va h.k.lardagi o‘xshash belgilar «mevalar» so‘zi bilan ifodalanadigan yagona tushunchada namoyon bo‘ladi. Sodda umumlashtirishlar ob‘ektlarni alohida, tasodifiy belgilar asosida birlashtirishdan iborat, majmuiy umumlashtirish murakkab bo‘lib hisoblanadi, bunda ob‘ektlar turli asoslarga ko‘ra birlashtiriladi.

**Abstraksiya** – bu jism va hodisalarning muhim bo‘lgan xossa va belgilarini fikran ajratib, bir vaqtning o‘zida ahamiyatsiz belgilar va xossalardan ayro holatda ko‘rsatish. Xuddi shunday, mas‘uliyatlilik hissi haqida so‘z yuritganimizda, biror-bir ishchi, muhandis, talabaning emas, balki har bir insonning muhim xususiyati sifatida gapiramiz. Abstraklashtirish odatda tahlil natijasida amalga oshiriladi. Aynan, abstraklashtirish vositasida uzunlik, kenglik, miqdor, narx va boshqa tushunchalar yuzaga kelgan.

**Aniqlashtirish** – bu umumlashtirilgan bilimlardan yagona, alohida vaziyatga fikran o‘tish. O‘quv faoliyatida aniqlashtirish – umumiy nazariy qonun, qoida, nizomni tasdiqlovchi misol, rasm, aniq dalilni keltirish demakdir.

Jism va hodisalarni **tizimlashtirish** yoki **tasniflash** ularni bir-biriga o‘xshashlik yoki farqlari asosida guruhlarga bo‘lish. Masalan, o‘quvchilarni o‘zlashtirish, intizom, jamoat ishlaridagi faollik bo‘yicha guruhlarga bo‘lish mumkin.[2]

Tafakkur quyidagi asosiy **qonuniyatlarga** bo‘linadi:

1. Tafakkur *muammoni* hal etish bilan bog'liq ravishda yuzaga keladi; *muammoli vaziyat* yuzaga kelish sharoiti vazifasini o'taydi, u boshlang'ich ma'lumotning taqchilligi, sub'ektning aqliy faolligi yordamida engib o'tish zarur bo'lgan ma'lum bilish to'siqlari, qiyinchiliklarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

2. Tafakkurning asosiy mexanizmi, uning umumiy qonuniyati *sintez orqali tahlil qilish*: ob'ektni boshqa ob'ektlar bilan taqqoslash vositasida unda yangi xossalarni ajratish hisoblanadi; shunday qilib, «ob'ektdan, yangi mazmun yig'ib olinadi, u har safar o'zining boshqa tomonlari bilan o'girilgandek bo'ladi, unda yanada yangi xossalar namoyon bo'ladi» (S.L. Rubinshteyn).

3. Tafakkurning *asoslanganligi*: har bir dalil, har bir hodisa o'tmishdagi dalillar va hodisalar asosida tayyorlanadi. Hech bir narsa etarlicha asossiz sodir bo'lmaydi. Etarlicha asoslash qonuni inson fikrining har bir mulohazada o'zaro bog'langan bo'lishini, birining ikkinchisidan kelib chiqishini talab etadi. Har bir xususiy fikr umumiyroq fikr bilan asoslangan bo'lishi kerak.

4. *Selektivlik* (lot. – tanlash, tanlanish) – ma'lum vaziyat uchun zarur bo'lgan bilimlarni tanlash, barcha imkoniyatga ega bo'lgan holatlarni chetlab o'tgan holda ularni muammoni hal etishga safarbar qilish.

5. *Antitsipatsiya* (lat. – oldindan sezish) voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, oldindan sezishni bildiradi. Inson voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, ularning natijalarini bashorat qilish, muammo echimining ehtimolliги chizmasini tasavvur qilish qobiliyatiga ega.

6. Tafakkur *refleksivligi*. Fikrlovchi sub'ekt doimiy refleksiya holatida bo'ladi, o'z mulohazalarini aks ettiradi, ularni tanqidiy baholaydi, o'zini baholash mezonlarini ishlab chiqadi. *Refleksiya* deb sub'ektning o'zini aks ettirishi bilan birga muloqotda bo'ladigan sheriklarini ham o'zaro aks ettirishiga aytiladi.[2]

**4. Tafakkur sifatlari.** Tafakkur boshqa bilish jarayonlari kabi o'zining individual xususiyatlariga ega bo'lib, fikr yuritish faoliyatining shakllari, vositalari va operatsiyalarining munosabatlari kishilarda turlicha namoyon bo'lishida o'z ifodasini topadi. Odatda tafakkurning individual xususiyat-lari, sifatlariga bilish faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchillik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqa sifatlari kiritiladi. [2]

**Tafakkur mazmundorligi** deganda insoning tevarak-atrofdagi moddiy voqelik to'g'risida ongda qay miqdorda, ko'lamda mulohazalar, muhokamalar, fikrlar, muammolar, tushunchalar joy olganligi nazarda tutiladi. Insonda sanab o'tilgan xarakterdagi g'oyalar to'lib toshsa, shunchalik tafakkur mazmundor bo'ladi. Kishilar bir-birlaridan birinchi navbatda tafakkurning mazmundorligi bilan tafavutlanadi.

**Tafakkurning chuqurligi** deganimizda moddiy dunyodagi narsa-hodisalarning asosiy qonunlari, qonuniyatlari, xossalari, sifatlari ularning o'zaro bog'lanishlari, munosabatlari, tafakkurimizda to'liq aks etganligini tushunishimiz kerak. Tafakkur arsenalida joylashgan narsalarning qay yo'sinda sistemalashganligiga qarab to'g'ri va ratsional yo'l nazarda tutiladi, u yoki bu shaxsning tafakkur chuqurligi to'g'risida qat'iy bir qarorga kelish mumkin.

**Tafakkurning kengligi** o'zining mazmundorligi, chuqurligi kabi sifatлари bilan muntazam aloqada bo'ladi. Insonlardagi narsa va hodisalarning eng muhim belgi, xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan o'tmish yuzasidan, hozirgi davr haqida, shuningdek, kelajak to'g'risida mulohazalar, muammolar va tushunchalarni qamrab olgan tafakkur **keng tafakkur** deyiladi. Fikr doirasi keng bilim saviyasi yuqori serg'oya ijodiy izlanishdagi kishilarni aql zakovatli, bilimdon yoki tafakkuri keng kishilar deb atash mumkin. Demak, insonning aql-zakovati, bilimdonligi mulohazadorligi uning tafakkurining kengligidan dalolat beradi.[1]

Inson tafakkuri o'zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. **Tafakkurni mustaqilligi** deganda kishining shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz, gipoteza qilish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani hech kimning ko'magisiz, ko'rsatmasisiz o'zining aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak.

Tafakkurning mustaqilligi aqlning sertashabbusligi, pishiqligi va tanqidiyligida namoyon bo'ladi. **Aqlning sertashabbusligi** deganda insonning o'z oldiga yangi muammo, aniq maqsad va konkret vazifalar qo'yishni, ana shularning barchasini amalga oshirishda, nihoyasiga etkazishda echimni qidirishda usul va vositalarni shaxsan o'zi izlashi, aqliy zo'r berib intilishi, ularga taaalluqli qo'shimcha belgi va alomatları kiritishdan iborat bosqichlarning namoyon bo'lishini nazarda tutamiz. **Aqlning pishiqligi** vazifalarni tez echishda, echish paytida yangi usul va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llashda, trafaretga aylangan eski yo'l hamda usullardan forig' bo'lishda va boshqa jarayonlarda ifodalanadi.

O'zining o'zgalarning mulohazalarini, bu mulohazalarning chin yoki chin emasligini tekshira bilishda va namoyon bo'lgan mulohazalarga, muhokamalarga, muammoli vaziyatga baho bera bilishda aqlning tanqidiyligi muhim rol o'ynaydi. Tafakkurning tanqidiyligi ob'ektiv va sub'ektiv ravishda ifodalanishi mumkin. Mazkur sifat insonni baholash, o'z-o'zini baholash kabi tafakkurning individual xususiyatlari bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Agar tanqidiylik oqilona, muhim belgilarga, muammo mohiyatining to'g'ri ochilishiga, ba'zan etalonga asoslanib amalga ohsa, unday tanqidiylik ob'ektiv tanqidiylik deb ataladi. Mabodo tafakkurning tanqidiyligi sub'ektiv xatolarga, umuman sub'ektivizmga og'ib ketsa, bunday holda sub'ektiv tanqidiylik deyiladi. Sub'ektiv tanqidiylik salbiy oqibatlariga olib keladi, shuningdek insonlar o'rtasida anglashilmovchilik g'ovini vujudga keltiradi, ikki shaxs o'rtasida kutilmaganda ziddiyat paydo bo'ladi. Insonda tafakkurning tanqidiyligi oqilona ratsional tarzda vujudga kelsa, unda shaxs muhim sifat bilan boyiydi deb atash mumkin.[2]

Maqsad, muammo va vazifalar o'zga shaxslar tomonidan qo'yilib, tayyor usul va vositalarga tayangan holda o'zga kishilarning bevosita yordami bilan amalga oshirilishi jarayonida bir oz ishtirok etgan tafakkur nomustaqil deb ataladi. Nomustaqil tafakkurli kishilar tayyor mahsulotlar quliga aylanadilar, o'sishdan orqada qolish xavfi tug'iladi. Natijada aql-zakovatli inson bo'lish o'rniga, kaltabin, aqldan erinchoq, behafsala odam bo'lib voyaga etadi. Demak, tafakkurning

nomustaqillik illati rivojlanishiga to'siq bo'lib, yakka shaxs uchun esa tragediya rolini bajarishi ehtimoldan xoli emas.

Fikrning mustaqilligi uning mahsuldorligi bilan uzviy bog'langan. Agar inson tomonidan muayyan vaqt ichida ma'lum soha uchun qimmatli va yangi fikrlar, g'oyalar, tavsifnomalar yaratilgan hamda nazariy va amaliy vazifalar hal qilingan bo'lsa, bunday kishining tafakkuri **sermahsul tafakkur** deb ataladi. Demak, vaqt oraliq'ida bajarilgan ish ko'lemi va sifatiga oqilona baho berish tafakkur mahsuldorligini o'lchash mezoni sifatida xizmat qiladi.

**Tafakkur ixchamligi** deganda muammoni hal qilishning dastlab tuzilgan rejasi mazkur jarayonda masala echish shartini qanoatlantirmay qolsa, nomutanosiblik hosil bo'lsa hech ikkilanmay elastik ravishda o'zgartirishlar kiritishdan iborat fikr yuritish faoliyatini tasavvur qilmog'imiz shart. Fikrning operativ jihatdan tezkorlik bilan o'zgartirishdan va to'g'ri yo'nalishga yo'llab yuborishdan iborat tafakkur sifati uning ixchamligi deyiladi. Masalan, talaba imtihonda avval g'oyani noto'g'ri yoritayotib, o'z-o'zicha birdaniga xatosini anglab to'g'ri javob bera boshlashi kabilar. Demak, tafakkurning mazkur sifati fikrlarni, axborotlarni tinglovchilarga xato va kamchiliklarsiz etkazib berish garovidir.[1]

**Tafakkurning tezligi** qo'yilgan savolga va muammoga to'liq javob olingan vaqt bilan belgilanadi. Uning tezligi qator omillarga, jumladan fikrlar uchun zarur materialni tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishlarning tezligi, turli hislarning mavjudligiga, insonning diqqatiga, qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari tafakkurning tezligi boshqa shartlarga – insonning bilim saviyasiga, fikrlash qobiliyatiga, mavjud ko'nikma va malakalariga ham bog'liq ekanligi isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, tafakkur jarayonlarining tezligi va jarayonlarning ma'lum fursat ichida qanchalik samara berganligi bilan baholanadi.

Fikrlarning tezligi talabalar va o'quvchilarga zarur psixologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Imtihon paytida, seminar mashg'ulotlarida faol ishtirok qilgan talaba hayajonlanib, egallagan bilimlarini vaqtincha unutib o'zini yo'qotib qo'yadi. O'rinsiz salbiy emotsiyalar uning tafakkurini tormozlab, muvaffaqiyatsizlikka olib keladi, ya'ni fikrni bayon qilishda inertlik paydo bo'lib, keyinchalik butunlay tormozlanishga aylanadi. Ba'zi talabalar aksincha, imtihonda hayajonlanib fikrlari ravshanlashadi. Qattiq hayajonlanish, qattiq tashqi ta'sir natijasida uyqudagi ayrim neyronlar uyg'onib, funktsiyasi jadallashib ketadi va fikr birdaniga ravshanlashishi mumkin. SHuning uchun o'qitish jarayonida talaba va o'quvchilarning aqliy faoliyatini to'g'ri baholashda ularning individual tipologik xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.[1]

Jahon psixologlarining ko'rsatishiga qaraganda, yuqorida tahlil qilib chiqilgan tafakkur sifatleri ularning asosiy xususiyati bilan uzviy bog'liqdir. Tafakkurning asosiy va eng muhim belgisi, xususiyati bu moddiy voqelikdagi muhim jihatlarni ajratib mustaqil ravishda yangi mazmundagi umumlashmalarni keltirib chiqarishdir. Inson oddiy narsalar to'g'risida fikr yuritganda ham ularning tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmaydi, balki hodisa mohiyatini ochishga intiladi, oddiy turmush haqidagi umumiy qonuniyatni yaratishga harakat qiladi. SHubhasiz, inson tafakkuri hali izlanmagan, to'la foydalanilmagan zahira va

imkoniyatlarga ega. Tafakkur psixologiyasining asosiy vazifasi ana shu zahirani to'la ochish fan-texnika rivojini intensivlashdan iborat. Chunki har qanday kashfiyot, yangilik, rivojlanish inson aql-zakovatining mahsulidir. Shu boisdan ham fan va texnikaning rivojlanishi insonshunoslik fanining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir. [2]

### **5. Tafakkurning individual xususiyatlari va rivojlanishi.**

Insonlar fikrlash faoliyatidagi individual tafovutlar tafakkurning sinchkovlik, tafakkur kengligi, chuqurligi va mustaqilligi, fikrning eguluvchanligi, aqlning sertashabbusligi va tanqidiyligi, mantiqiylik, isbotlanganlik va ijodkorlik kabi sifatlarida ifodalanishi mumkin.[2]

**Aqlning pishiqligi** – u yoki bu hodisani ahamiyatga molik munosabatlarda har tomonlama bilishga intilish; tafakkur **kengligi** – bu savolni yaxlitligicha, shu bilan birga zarur bo'lgan xususiyatlarni chetda qoldirmay qamrab olish qobiliyati. Tafakkur kengligi inson dunyoqarashi va har bir hodisani boshqa hodisalar bilan turli aloqalarda ko'rib chiqish qobiliyatida ifodalanadi. Tafakkurning **chuqurligi** murakkab savollar mohiyatiga kirib borish, asosiy holatni ikkinchi darajalilardan, zaruriyatni tasodifiydan ajratish malakasida ifodalanadi. Tafakkur chuqurligigiga qarama-qarshi sifat bo'lib hukm va xulosalarning yuzasi hisoblanadi, bunda odam mayda-chuydalarga e'tibor qaratib, asosiysini ko'rmaydi. Tafakkurning **mustaqilligi** insonning yangi vazifalarni ilgari surishi va boshqalarning yordamidan foydalanmasdan ularning echimini topish malakasi bilan xarakterlanadi. Fikrning **egiluvchanligi** masalalarni echishda avvaldan qo'llanilib kelayotgan usullarning ta'siridan holi bo'lishda, sharoit o'zgarganda harakatlarni tezda o'zgartirish malakasida ifodalanadi. Tafakkurning **tezligi** – insonning yangi vaziyatda o'zini yo'qotib qo'ymaslik, o'ylab olgan holda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati. Aqlning sertashabbusligini insonning o'ylamasdan masalaning bir tomonini ushlab olib, qaror qilishga shoshishi, etarlicha o'ylanmagan javoblar bildirishida ifodalanadigan shoshqaloqlikdan farqlash lozim. Aqlning **tanqidiyligi** – bu inson o'zining va boshqalarning fikrlarini ob'ektiv baholashi, ilgari surilayotgan nizomlar va xulosalarni izchillik bilan har tomonlama tekshirib chiqish malakasi. Tafakkurning **mantiqiyliigi** – tadqiq etilayotgan ob'ektning barcha ahamiyatli tomonlarini hisobga olgan holda mulohazalarning qat'iy izchilligiga rioya qilish qobiliyati. Tafakkurning **isbotlanganligi** – zarur vaqtda hukm va xulosalarning to'g'riligini tasdiqlovchi dalillar, qonuniyatlardan foydalanish qobiliyati. Aql **ijodkorligi** – ijodkorlik tafakkuriga bo'lgan qobiliyat. Tafakkurning salbiy sifati uning **rigidligi** – hodisa mohiyatiga nisbatan xolis bo'lmagan munosabat, hissiy taassurotning oshirib yuborilishi, bir xil qolipdagi baholarga berilganlik hisoblanadi.[1]

Inson aqliy rivojlanganligining ko'rsatkichi sub'ektning tashqi cheklovlar bilan **bog'lanmaganligi**dir.

Shunday qilib, odamlardagi tafakkurning individual xususiyatlari eqorida ko'rib chiqilgan aqliy sifatlarda turli uyg'unlikda ifodalanadi.

Tafakkur shakllanishi va rivojlanishida bir nechta bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Hozirda mavjud bo'lgan tafakkur taraqqiyotining bosqichlarga

bo‘linishiga nisbatan yondoshuvlarning ko‘pchiligida inson tafakkuri rivojlanishining **dastlabki bosqichi** umumlashtirish bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda bolaning birinchi umumlashtirishlari amaliy faoliyatdan ajralmasdir, bu bolaning o‘zaro o‘xshash jismlar bilan bajaradigan bir xildagi harakatlarida o‘z ifodasini topadi. Bu intilish bola hayotining dastlabki yilining oxiriga kelib namoyon bo‘la boshlaydi. Jismlarning alohida xossalarini bilgan holda ikki yoshli bola ma‘lum amaliy masalalarni echa oladi. Xuddi shunday, bir yoshu uch oylik bola narsalar solingan og‘ir qutini joyidan surish uchun narsalarning yarmini olib tashlaydi, so‘ngra zarur harakatni amalga oshiradi.

Bola tafakkuri rivojlanishining **keyingi** bosqichi nutqni egallab borishi bilan bog‘liq. Bola bilib olgan so‘zlar unga umumlashtirishni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi. Ular tez orada bola uchun umumiy ma‘noga ega bo‘lib, bir jismdan ikkinchisiga oson ko‘chiriladi. Lekin ko‘p hollarda jism va hodisalarning qandaydir alohida belgilari bola o‘sha jismlarga nisbatan qo‘laydigan birinchi so‘zlar ma‘nosini bildiradi. Xuddi shunday, ko‘pincha «olma» so‘zi bolalar tomonidan barcha dumaloq shakldagi yoki qizil rangdagi jismlar bilan solishtiriladi.

Bola tafakkurining **navbatdagi** bosqichida bola bir xildagi jismni bir necha so‘zlar bilan atashi mumkin. Bu hodisa bolada ikki yosh atrofida kuzatiladi va solishtirish tafakkur operatsiyasining shakllanishidan dalolat beradi.

Bayon etilgan ma‘lumotlar asosida maktabgacha yoshdagi bola tafakkurining bir nechta ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlarini aniqlashimiz mumkin. Xuddi shunday, bola tafakkurining ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyati bolaning birinchi umumlashtirishi harakat bilan bog‘liqligidan iborat. Bola harakatlanib, fikr yuritadi. Bola tafakkuriga xos bo‘lgan xususiyat – tafakkur aniqligida namoyon bo‘ladigan ko‘rgazmaliligidir.

Bola maktab yoshiga etganida unda fikrlash imkoniyatlarining taraqqiyoti kuzatiladi. Bu hodisa yosh o‘zgarishlari bilan birga, birinchi navbatda, maktabda ta‘lim olishda bola echishi zarur bo‘lgan intellektual masalalar bilan ham bog‘liqdir. Tushunchalar hosil bo‘lish jarayonida fikrlash operatsiyalarining taraqqiyoti sodir bo‘ladi. Maktab bolani tahlil qilishga, sintezlashga, umumlashtirishga o‘rgatadi, induksiya va deduksiyani rivojlantiradi. Maktabni tugatganida odamda tafakkurni rivojlantirish imkoniyati saqlanib qoladi. Lekin bunday rivojlanish dinamikasi, yo‘nalganligi uning faqat o‘zigagina bog‘liq bo‘ladi.[2]

Hozirgi kunda fan tafakkurni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratgan. Amaliyotda tafakkurni rivojlantirishning filogenetik, ontogenetik va tajribaviy yo‘nalishlari mavjud. **Filogenetik yo‘nalish** insoniyat tarixiy rivojlanish jarayonida inson tafakkuri rivojlanishi va takomillashishini o‘rganishni taqazo etadi. **Ontogenetik yo‘nalish** bir odamning hayotiy jarayoni asosiy bosqichlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. O‘z navbatida, **tajriba yo‘nalishi** tafakkurni tajribada tadqiq etish muammolari va aqlning alohida, sun‘iy tashkil etilgan sharoitlarda rivojlanish imkoniyati bilan bog‘liq.

## MAVZU BO‘YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Tafakkur jarayonining mohiyati jism va hodisalar o'rtasida ... aloqa va munosabatlarni o'rnatishdan iborat:

- a) sababsiz;
- b) o'zgarishli;
- v) sababiy-oqibat;
- g) tafakkur mohiyatiga tegishli bo'lmagan aloqalar.

2. Nazariy va empirik tafakkurni shunga ko'ra farqlaydilar:

- a) masalalarning tipiga ko'ra;
- b) umulashtirishlarning xususiyatiga ko'ra;
- v) sub'ektning faolligiga ko'ra;
- g) etakchi analizatorga ko'ra.

3. Asosiy tafakkur operatsiyalari:

- a) analiz, sintez, tasavvurlar, hukmlar;
- b) taqqoslash, analiz, sintez, umumlashtirish, bilim;
- v) analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish, xulosa;
- g) taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiya, umumlashtirish, aniqlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish.

4. Tafakkurning mantiqiy shakllari – bu:

- a) hukm, xulosa, tushuncha;
- b) hukm, analiz, sintez;
- v) taqqoslash, umumlashtirish, bilim;
- g) xulosa, tasniflash, analogiya.

5. Tafakkurning ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiqiy tasniflanishiga bo'lgan asos:

- a) etakchi analizator;
- b) aks ettirish jismi;
- v) materiyaning mavjudlik shakli;
- g) sub'ekt faolligi.

## 14. MAVZU: INTELEKT VA KREATIVLIK.

### Reja:

1. **Intellekt va kreativlik haqida tushuncha.**
2. **Intellekt va kreativlikning o'zaro aloqasi**
3. **Intellektni o'lchashda zamonaviy testlar tarixi.**
4. **Intellektning shakllanishida atrof- muhim va irsiyatning roli.**
5. **Intellektning rivojlanishidagi jinsiy farqlar.**

Psixologiyada intellekt va kreativlikni aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjud.

D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenberg va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb bilishadi. Intellekt kreativlikning yuqori bosqichidir . Bu degani nafaqat ular birlikda, balki ijodkorlik intellektning hosilasidir. Yuqori darajadagi intellekt- yuqori darajadagi qobiliyatning asosisi hisoblanadi. Quyi intellekt- quyi darajadagi intellektni yuzaga

keltiradi. Gans Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi deb hisoblagan. Kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilangan.

Intellekt bu inson va hayvonlarni yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.SHterni, J.Piaje, D.Veksler va boshqa avtorlar ham intellektni insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o'z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o'quvchilarini logityud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida, dastlab ularni IQ (intellekt koefitsenti) aniqlab olindi. O'quvchilarni IQ koefitsentiga qarab guruhlariga ajratildilar va 30, 40, 50,60 yil oralig'ida kuzatishgan. Yillar davomida intellekt koefitsenti yuqori bo'lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatishgan. IQ koefitsenti pastroq bo'lgan sinaluvchilar ulardan farqli o'laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan. [1]

Lekin intellekt va kreativlikning bir biriga bog'liq emasligini boshqa tadqiqotlarda tadqiq etilgan. Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya'ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaralan nazariyalar ham mavjud. Ba'zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg'izlanish deya ta'rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo'lgan, moslasha olmagan inson o'zidagi yolg'izlikni engib o'tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A.Adlerning fikricha, insondagi kreativlik o'zida mavjud bo'lgan noto'liqlik kompleksini to'ldirish vositasi deb bilgan. Empirik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ijodkor qobiliyatli bolalar shaxsiy va emotsional sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning maktabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqanini kuzatishimiz mumkin.

Kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo'ygan olimlardan yana biri Dj. Gilvord bo'lib, u o'z nazariyasini ikki xil tafakkur asosida quradi. YA'ni konvergent va divergent tafakkur. Konvergent tafakkur masalani echishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur- masalani echishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turidir. Divergent tafakkur- kreativlik asosida quriladi.

Demak intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, ularni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'lash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Intellekt esa o'sha ma'lumotni real amaliyotda qo'llashga va atrof muhitga moslashishga javob beradi.

Uchinchi nuqtai nazar egalari intellekt va kreativlik o'zaro uzviy bog'langan ikki xil faktordeb qarashadi. SHaxsni orientirlashtirgan bu psixologiya vakillari A.Maslau va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba'zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo'lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi kerak. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo'lgan kishi hech qanday kreativlikka ega



bo'lmaydi. O'rta intellekt sohiblari o'rtacha kreativlik, IQ koeffitsenti 120 dan ortiq bo'lgan kishilar a'lo darajadagi kreativlikka ega bo'lishishadi. [2]

Evolyusiya nuqtai nazaridan intellekt va kreativlikning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib ko'raylik.

Intellektni go'yo qolipga solingan, buyuk kashfiyotlarni yaratmaydigan moslashuvchi qobiliyat sifatida ko'ramiz. Intellektga faqat qaytarish xosdir. Psixologlarning fikricha bu g'oya noto'ridir. Sababi evolyusion rivojlanish nazariyasida insoniyatning antropogenez rivojlanishning asosiy omilini intellektning rivojlanishidadir deb aytib o'tilgan. Olovni o'zlashtirish va qurollar yasash bunga misol bo'la oladi.

Intellektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik, originallik kabi sifatlarni kreativlikka moslab qo'ymoqda. Kim birinchi bo'lib buyuk kashfiyotni, o'q-yoylarni yaratgan, kim olovni o'zlashtirish mumkinligini o'ylab topgan? Intellektmi? yoki Kreativlikmi? Agar kreativlik bo'lsa, unda intellekt qaerga ketdi. Demak, bunday mulohazalar intellektni insoniyatning texnik va ilmiy muvaffaqiyatlarini yaratishdagi o'rnini pasaytirmoqda.

Ma'lumki, ba'zi insonlar aniq fanlar yuzasidan ba'zi insonlar gumanitar fanlar yuzasidan qobiliyatga ega bo'lishadi. Yana yuqori darajadagi talantga ega bo'lgan rassomning oddiy matematik misollar oldida esankirab qolishini va ajoyib matematikni ozroq badiiy qobiliyatga ega bo'lishini kuzatganmiz. Bunday insonlarni aqilli deb aytishimiz mumkinmi.<sup>80</sup>

Spirmenning fikricha, insonlarda umumiy intellekt mavjud. Uning fikricha insonlarni bir-biridan ajratib turuvchi o'ziga xos qobiliyatlari bor. Spirmen faktorli analiz, statistik protsedurani ishlab chiqdi. U bog'liq elementlarning muvaqqat bog'lanishlarini tushuntirib bergan. Spirmenning fikricha malakaning umumiy yig'indisi, bizning aqliy hulq-atvorimizga bog'liqdir deb tushuntirgan. SHu kungacha Spirmenning umumiy intellekt nazariyasi, ya'ni intellektni bir taraflama baholash nazariyasi ko'plab noroziliklarga sabab bo'lgan. Spirmandan farqli o'laroq Terstoun aqliy qobiliyatlarning 56 xil testlar, 7 ta klaster orqali baholashni joriy etdi. Terstoun insonlarni yagona shkala orqali baholamadi. U agar shaxs 7ta klasterdagi barcha masalani muvaffaqiyatli echsa, u qolgan barcha sohalarda ham xuddi shunday mavaffaqiyatga erishadi deb bilgan. Ular aqliy qobiliyatni jismoniy qobiliyat bilan taqqoslashgan. Uning fikricha, shtanga ko'tarish bo'yicha jahon chempioni yaxshigina figuristik sport turi bilash ham shug'ullanishi mumkin. CHunki undagi jismoniy tayyorgarlik shunga imkon beradi.

Satosi Kanadzava (2004 y.) umumiy intellektni intellektning bir turi sifatida ko'radi. Umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammoalarni hal qilishda yordam beradi.

1980 yillarga kelib Spiremennig yagona intellekt nazariyasini va Terstounning akedemik qobiliyatlar nazariyalarini taqqoslash jarayoni kuzatilgan. Ularning fikricha, shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo'lsa, demak u boshqa sohalarda ham xuddi shunday zafarlarga erishadi. Hayotga moslashishning asosiy omili shaxsdagi umumiy intellekt emas, balki vaqt o'tib,

---

<sup>80</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 2010 y. 409p

qobiliyatlar bir-biriga ta'sir eta boshlao'idir. X.Gardner intellektni bir necha qobiliyatlar yig'indisi deb qaragan. U o'z tadqiqotlarini past qobiliyatli odamlarda o'tkazgan. Miyaning shikastlanishi bir qobiliyatni so'ndirishi mumkin lekin qolgan qobiliyatlarni qoldirishi mumkin deb hisoblagan.

Gardner o'z tadqiqotini bosh miyasi ba'zi qismlari fiziologik jihatdan shikastlangan sinaluvchilarda o'tkazgan. Ular ko'pincha intellekt testlaridan quyi ballarni egallashgan. Bu sindrom vakillarining ba'zilarida nutq rivojlanmagan. Lekin qo'shib ayirishni xuddi elektron hisoblagichday tezda hisoblay olish qobiliyatiga ega bo'lishgan. Ba'zilari, biror tarixiy kun bilan bog'liq sanalarni yoddan bilishgan. Bunday sindrom egalari hattoki baddiy ijodda ham muvaffaqiyatlarga erisha olishgan. YUqoridagi faktlardan foydalanib, Gardner shaxsda intellekt emas, balki bir necha xil ong mavjud degan fikrga kelgan. Umuman olganda shaxsda 8 xil ko'rinishdagi qobiliyat borligini aytib o'tadi. Agar shaxs biror sohada muvaffaqiyatga erishsa, demak u qolgan sohalarda ham yaxshi natijalarga erishadi deb aytib bo'tgan.<sup>81</sup>

R. SHtenbegr, R.Vagner Gardnerning g'oyasiga qo'shilishgan Lekin shaxsda aqlni 3 xil faktori mavjudligini taxlil qilishgan:

Masalani echishda akademik malakaning mavjudligi. Bunday malakalarni aqliy testlardagi yagona to'g'ri javobni belgilash bilan baholanadi

Amaliy intellekt kundalik hayotda atrof muhitga moslashish uchun muammolarning ko'plab echimidan qulayini tanlashga yordam beradi.

Ijodiy aql. Bun tip vakillari notanish vaziyatlarda o'zining reaksiyasini ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

Mustaqil fikrlashning yuqori shakli bo'lmish ijodiylik muammosi chet el psixologiyasida juda chuqur o'rganilgan, bu asosan qobiliyatning kreativligi tarzida talqin qilingan. Biz bu ta'rifdan "ijodiy" deb foydalanmasligimizga sabab ("*create*" - inglizcha "ijod qilish" demakdir), ijodiylik - bu intellektual faollikning yuksak bosqichi, degan tasavvur paydo bo'lmasligi uchun "kreativlik" atamasidan foydalandik. Psixologiyada kreativlik muammosi 1950-yillardan boshlab izchil ravishda o'rganilmoqda. Lekin biz o'z tadqiqotimizda "kreativlik" atamasini o'zbek tilida shartli ravishda "aqliy ijodiylik" deb atadik va uni mustaqil fikrlashning psixologik asosi sifatida o'rganishni lozim topdik. SHunday qilib, bundan buyon aqliy ijodiylik haqida mulohaza yuritilganda fikrlashning nostandartligi, uning mustaqilligi va "kreativligi" nazarda tutiladi.

Kreativlikning ajratilishiga aqlning an'anaviy testlari va muammoni yechishning muvaffaqiyati o'rtasida bog'lanish yo'qligi haqidagi ma'lumot turtki bo'lgan. Bu sifat mohiyatan aql orqali berilgan ma'lumotlarni, qo'yilgan vazifalarni hal qilishda tezkor usul va har xil yo'sindan foydalanish qobiliyatiga bog'liqligini ifodalaydi.

1962 yilda J.W.Getzels va P.W.Jackson [10] aqliy ijodiylikning ko'rsatkichlari orasida bog'liqlik yo'q, degan ma'lumotni matbuotda e'lon qilishgan. Ular ijodiylikni o'lchash uchun o'zlarining (Sr) koeffitsentini kiritishgan, xolos. Aqliy iste'dod esa bolaning guvohnomasidagi yoshiga nisbati

---

<sup>81</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 2010 y. 407p

qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarining miqdori bilan o'lchanib, *IQ* koeffitsenti bilan belgilanadi. *IQ* va *Cr* koeffitsentlarini ajratish qobiliyat bilan mantiqni aqliy ijodiylikka qarama-qarshi qo'yishga omil bo'lgan. Xuddi shu bois ham XX asrning 60-yillariga kelib, ijodiylikning 60 dan ortiq ta'riflari ishlab chiqildi. Ijodiylik ta'riflarini tahlil qilish orqali ularni 6 turga ajratish mumkin: *geshtaltik* ta'rif (ijodiy jarayonni mavjud *geshtalt*larni buzib, yaxshirog'ini tuzish sifatida ta'riflanadi), *innovatsion (yangi)* ta'rif (so'nggi natijaning yangiligi bo'yicha ijodiylikni baholashga yo'naltirilgan), *estetik yoki ekspressiv* (ijod qiluvchining o'zini-o'zi ifodalashga ahamiyat beruvchi), *psixoxanalitik* (ijodiylikni "U", "Men" va "Ideal - Men" o'rtasidagi o'zaro munosabat deb ta'riflovchi); *muammoli* (ijodiylikni masalalar yechish jarayoni deb aniqlaydigan. Bunga *J.P. Guilford*ning "Ijodiylik - divergent qobiliyat jarayonidir", degan ta'rifini ham mujassamlashtirish mumkin), oltinchi tipga yuqorida ta'riflangan tiplarning birortasiga ham kirmaydigan har xil ta'riflarni kiritish mumkin (masalan, "umuminsoniy" bilimlar zaxirasini to'ldirish)

Hozirgi davrda to'plangan ijodiylik atamasiga taalluqli ta'riflar mazmuni, mohiyati va tuzilmasini baholash qiyin. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "ijodiylikning nimaligini tushunishning o'zi ijodiy harakatni talab qiladi. So'nggi yillardagi tadqiqotlar mualliflaridan biri ijodiylikni qandaydir ahamiyatli va yangi narsaga erishish deb, ya'ni "boshqacha aytganda, bu insonlarning dunyoni o'zgartirish uchun qilgan harakatlari" sifatida ta'riflaydilar

Ijodiylikning XX asr 60-yillardagi ko'zga ko'ringan tadqiqotchilaridan biri M.Wallachning [10] ta'kidlashicha, intellektual testlar ijodiy yutuqlar bilan yuqori ko'rsatkichlarda o'zaro bog'lanmagan. U 11-12 yoshli o'quvchilar o'rtasidagi intellekt va ijodiylik turlicha rivojlanganligi sababli ularni 4 xil guruhga ajratib ko'rsatadi:

intellekt va ijodiylikning yuqori darajasiga erishgan o'quvchilar o'zlarini to'g'ri baholaydilar, ularda o'zini-o'zi nazorat qilish yuqori, ular barcha yangi narsalarga qiziqishadi va baholashda mustaqillikka egadirlar;

intellektual darajasi yuqori va ijodiylik darajasi past o'quvchilar maktabda muvaffaqiyatga intiladilar, lekin birovdan o'z sirlarini yashiradilar, o'zlarini pasaytirib baholaydilar;

intellektual darajasi past va ijodiylik ko'rsatkichi yuqori o'quvchilar xavotirli, e'tiborsiz, quyi ijtimoiy moslashuv bilan boshqalardan ajralib turadilar;

intellektual darajasi va ijodiylik ko'rsatkichi quyi o'quvchilar vaziyatga oson moslashadilar, ijtimoiy intellektual darajasi yuqori, lekin sust sub'ektlar o'zlarini to'g'ri baholaydilar.

Shunday qilib, ijodiylik jarayoni bilan intellekt darajasi o'rtasidagi munosabat o'quvchilarning shaxsiy xislatlariga va ularning moslashuv usullariga ta'sir qiladi.

Stenberg va Gardnerlarning fikricha bir necha qobiliyat shaxsni omadli bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Ijodiylik mezonlaridan biri - bu *nostandartlikdir*. E.P.Torrance ta'kidlaganidek, noyob va original javoblar mohiyatan har doim ham mos tushavermaydi. Ko'pincha tushunchalarning mazmunini asoslanmagan ravishda

aralashtirish holati ro'y beradi: ijodiy qobiliyat esa nostandartlik bilan bir xil deb qaraladi, nostandartlik originallik bilan, originallik esa sinaluvchilar guruhidagi noyob javoblar bilan ayniy deb talqin etiladi. Nostandartlik originallik (o'ziga xoslikka nisbatan kengroq tushunchadir [3].

Ikkinchi mezon - anglanganlikdir. Bu asnoda so'z borganda sinaluvchi tomonidan muammo yechimining a<sup>82</sup>nglanganligi nazarda tutiladi.

Intellectual testlar shaxsdan konvergent tafakkurni talab qiladi. Kreativ testlar esa divergent tafakkurni talab etadi.

Kreativlik- bu birvaqtning o'zida yangi va qadrli g'oyalarni yaratuvchi ijodkorlik qobiliyatidir.

Sternberg va uning kasbdoshlari kreativlikning 5 komponentini ishlab chiqishgan.

1. SHaxsdagi bilimning ko'pqirraligi. Qo'lga qiritgan bilimlarimiz g'oyalarimizning ko'p bo'lishining asosi hisoblandi. Dunyoviy bilimlarimiz qanchalik ko'p bo'lsa, psixikamizdagi bloklar ham shunchalik ko'p bo'ladi. Hayotda muammolarni hal qilishda bilimlarimiz qanchalik ko'p bo'lsa, uni hal qilish shunchalik oson bo'ladi.

2. Tasavvuriy tafakkur narsa va hodisalarini yangidan ko'rishga, ularni qayta yaratishga va bog'lashga imkon beradi. Muammoning asosiy elementini tasavvur qilib uni o'zlashtiramiz va uni yangi bosqichga olib o'tamiz.

3. Tavakkalchilik- yangi ta'surotlarni qidirish. Buni ikki ma'noda ko'rish mumkin. YA'ni birinchisi **tavakkal** va muammoni engib o'tishdagi **qat'iylikda** deb ko'rish mumkin. bunday xususiyatga ega bo'lgan shaxslar orqaga qaytishdan ko'ra, yangi tajribaga ega bo'lishni avzal deb bilishadi.

4. Ichki motivatsiya majburlikdan ko'ra shaxsda murakkab masalani echishda qiziqiqish va qoniqish hissini yuzaga keltiradi. Ijodkor shaxs masalaning muddatini, uning keltiruvchi daromadini va talabgorlari haqida o'ylamaydi. Butin e'tibori masalani echishdagi qonikish hissi va stimuli qaratadi. Isaak Nyutondan "Siz bunday murakkab masalalarni qanday qilib hal qilagansiz" deb so'rashganda, u shunday javob bergan "Men bu muammo haqida tunu kun o'ylab yurganman" deb javob bergan.

5. Ijodiy muhit shaxsdagi ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Hamkasblar bilan ijobiy munosabat va ularni ko'magi shaxsdagi g'oyalarni kamol topishiga turtki bo'ladi. Lekin shuni ta'qidlab o'tish kerakki, ba'zi tadqiqotlarda ijtimoiy muhitning shaxsga salbiy ta'siri holati ham kuzatilgan. Masalan, amerikalik talabalarga insho yozish topshirig'i berilgan. Ular yozgan inshoni uning kursdoshlari tomonidan tekshirilishi oldindan ogohlantirilgan. Boshqa guruhga esa faqatgina insho yozishni aytishagan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ogohlantirilgan guruhning insholari yomon yozilgani ma'lum bo'lgan. Bu holatda biz ijtimoiy muhitning ijodkorlikka salbiy ta'sirini yaqqol ko'rishimiz mumkin.<sup>83</sup>[3]

---

<sup>82</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 2010 y. 410p

<sup>83</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 2010 y. 412p

Nensi Kantor, Djon Kilstrom fanga akademik intellektdan tashqari ijtimoiy intellekt tushunchasini kiritishdi. Ijtimoiy intellekt- bu ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib etish va uni engib o'tish deganidir. S.Epstayn, P.Mayerlar ham bu fikrga qo'shilgan. Nima uchun akademik qobiliyatli shaxslar jamiyatda o'z o'rnini topishga, oilaviy baxtga erishishga, biror bir yutuqqa erishishda muvaffaqiyatsizliklarga duch keladi? S.Epstayn, P.Mayerlarnig fikricha, ijtimoiy intellektning muhim bo'lagi- bu emotsional intelektdir. YA'ni, o'z emotsiyasini qabul qilish, ifodalash, tushunish va boshqarish qobiliyatidir. Ongli, emotsional etuk shaxslar o'z- o'zini yaxshi anglagan shaxslar hisoblanishadi. Bunday odamlar engib bo'lmaydigan depressiya, hissiyotlarini boshqara oladigan insonlar hisoblanishadi.

Emotsional intellektni E.Torndayk, Golman va boshqa olimlar ham tadqiq etgan. Dj. Mayer, P.Solovey, D.Krauzo qobiliyat sirasiga kiruvchi emotsional intellektning 4 komponentini tadqiq etuvchi testlarni ishlab chiqishdi. Bular quyidagilar:

- Emotsiyani qabul qilish ( inson yuzidan uni aniqlash)
- Emotsiyani tushunish (ularni o'zgarishini aytib berish)
- Emotsiyani boshqarish (qaysi vaziyatda qaysi bir emotsiyadan foydalanishni bila olish)
- Emotsiyani moslashuvchan va ijodkor tafakkurda qo'llay olish[412]

Agar shaxs yuqori intellekt koefitsentiga ega bo'lsa, ammo bosh miyasining biror joyidan jarohat olsaunig emotsional intellekti pasayib ketar ekan. Nevrolog Antonio Damasio o'z tajribasida miya saratoni mavjud Elliot ismli bemorni mosol qilib keltirgan. U o'z bemoridagi o'smani jarrohlik yo'li bilan olib tashlagan. U bemor sog'aygandan keyin u bilan bo'lgan soatlab suhbatda unnig yuzida emotsiyaning hech qanday ko'rinishini payqashmagan. Elliotga turli xil vahshiona va turli tabiiy offtlar orqali insonlarda yuz bergan talofatlar aks etgan rasmlarni ko'rsatishgan. Elliot o'zida hech qanday his yo'qligini bilgan va uni ifodalay olmagan. U endilikda hech nima his eta olmayotganini yaxshi bilgan. Natijada Elliot o'z ishi va oilasini yo'qotdi. Uning qayta turmishi ham o'xshamagan. Elliot jamiyatda o'z o'rnini yo'qotib muvaffaqiyatsizlikka erishdi.

Lekin ba'zi olimlarning fikricha, emotsional intellekt – intellektdan yiroq tushuncha. Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, emotsional intellekt bizdagi bor hohish va qiziqishni aktivlashtiradi. Muammoning ma'nosini kamroq o'ylashga majbur qiladi. Bu jarayon kreativlik uchun muhim hisoblanadi.

Intellektning yuqori bo'lishi miya yarim sharlariga bog'liqmi? Bu masalani tadqiq etishganda shu narsa ma'lum bo'ldiki, Bayron, Betxovenlarning miyasining og'irligi normal odamning miyasidan anchagina og'irligini aniqlashgan. Miyasi og'ir bo'lgan shaxslar yuqori intellektga ega bo'lishadi degan qarashlar ham mavjud bo'lgan. Lekin afsus ba'zi bir olim daxolarning miyasi normal insonlarnikidan ancha pastligini ham aniqlashgan. Aksincha ba'zi bir jinoyatchilarning miyasining og'irligi xuddi Bayroninkiday ekanligi aniqlangan. Baribir keyinchalik MRT asob bilan miyani tahlil qilishda ishtellekt bilan miyani bog'liqligi ko'rsatiladi. Intellektning yuqori bo'lishi nafaqat uning og'irligiga balki

miyannig frontal va parietal manglay bo'lagidagi aktivlik jarayoniga bog'liqligini aniqlashgan.<sup>84</sup>

Eynshteyn bilan bir kanadalikning miyasi tadqiq etilganda ularning og'iriligi o'rtasida deyarli hech qanday farq yo'qligini aniqlashgan. Lekin Eynshteyning miyasining kuyi qismi kanadalikning miyasidan 15 foizga yuqoriroqligi namoyon bo'lgan. Aynan miyaning quyi qismi matematik va fazoviy ma'lumotlarga javob beradi. Aksincha Eynshteyning miyasining faollika javob beruvchi qismlari pastroq joylashganinin aniqlashgan. SHuning uchun ham Enshteyn va boshqa fiziklarning gapirish va o'rganishida sekinlikni ko'rishimiz mumkin bo'lgan.

Intellektni o'lchash tarixida dastlabki qadamni ingliz olimi Frensis Galton tomonidan amalga oshirilgan. Galtonning fikricha xarakter irsiyat yo'li bilan avlodddan-avlodga o'tar ekan. U bunga bog'liq ravishda aqliy qobiliyatlarni irsiyat yo'li bilan tushuntirmoqchi bo'lgan. Galtonning tadqiqotlari unchalik yaxshi natijalarni ko'rsatmadi va erkak kishilarning natijali ayollarninkiga qaraganda yuqori chiqanini ko'rishimiz muki. Galtonning tadqiqotlari o'z samarasini bermagan bo'lsa ham biz uni aqliy qobiliyatlarni aniqlagan dastlabki tadqiqotchi sifatada tan olamiz. Intellektni teslar yordamida aniqlash yana bir qadamni fransuz olimi Alfred Bine tomonidan amalga oshirilgan.

Unga fransuz maktablarida yaxshi o'zlantirmayotgan yoki aksincha juda yaxshi o'zlashtirib maxsus ta'lim programmasiga ehtiyoj sezgan bolalarni tadqiq etish topshirilgan. Bunning sababi ularning qobiliyatlaridagi farqlar bo'lishi mumkin deb qaralgan. 1904 yil A.Bine o'z xodimi Tedor Simon bilan birga maktabda o'zlashtirishda ma'lum muammolarga duch keluvchi o'quvchilarni aniqlovchi ob'ektiv testlarni yaratishgan. Bine va Simon aqliy yosh va xronalogik yosh degan hodisani o'rgantishni boshlashgan. Uning aqliy yoshi xronologik yoshiga mos kelishi kerak edi. Agar kimda bu mutanosib kemasa, uni maxsus ta'lim metodi orqali moslashitirish mumkin deb hisoblagan. Bine va Simon Galtondan farqli o'laroq aqliy qobiliyatni muhitga bog'liq deb bilgan.[416]

Binedan so'ng Stanford universitetining professori Lyuis Terman Bine va Simonning intellekt testlari Stanford universitetining talabalariga mos kelmayotganini aniqlab, unga ma'lum o'zgartirish kiritdi. Endilikda unga Stenford-Bine testi deb nomladi. Keyinchalik nemis olimi Vilyam SHtern aqliy qobiliyat koeffitsenti hisoblangan o'sha mashhur IQ atamasini fanga kiritdi.

Aqliy yosh

IQ ----- x100

Xronologik yosh

Demak, dastlab angliyalik olim F.Galton individual- aqliy qobiliyatlarni tadqiq etgan. Lekin unda buni qanday qilib o'lchash kerakligini aniqlay olmagan bo'lsa ham. A.Bine esa uning g'oyasini rivojlantirib, fransuz ta'lim tizimida o'quvchilarning kelajakda o'zlashtirira olishini aytib bera olgan. Xuddi Galton

---

<sup>84</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 413p

dek L.Terman aqliy qobiliyatlar irsiyatning mevasi deb bilgan. Ctenford- Bine testi bu ko'rinmayotgan qobiliyatni uyg'otishga yordam beradi deb aytib o'tgan. [417]

Intellektning rivojlanishi irsiyatsiyatmi yoki ijtimoiy muhitning roli kuchlimi? F.Galtonning fikricha, intellektning rivojlanishiga irsiyatning rolini yuqori qo'ygan. Lekin ijtimoiy muhitning rolini yuqori qo'ysak, unda yaxshi ta'lim-tarbiya olmagan nosog'lom muhitda o'sgan bola qobiliyatsiz bola deb hisoblashga tg'ri keladi.

Haqiqatda ham bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarda intellekt koefitsenti deyarli bir xil natijani ko'rsatgan. Agar bir tuxumdan tug'ilgan egizaklarni boshqa boshqa oilalarda tarbiya qilib ularning intellekt koefitsenti tekshirilganda, baribir natijani bir xiligini ko'rishimiz mumkin.[427]

Yana bir tadqiqot asrab olingan bolalarda o'tkazilgan. Bir muhitda katta bo'lgan bolalarning intellekt koefitsenti yoshligida bir xil natijani ko'rsatgan. Lekin ular ulg'aygan sari bu o'xshashlik kamayib borishini kuzatishgan. Aynan aqliy qobiliyatlar yillar o'tib o'z o'xshashligini yo'qotishini tadqiqotlar isbotlab bergan. Bundan tashqari mehribonlik uylardan asrab olingan bolalar o'gay ota-onalariga qaraganda o'zlarining biologik ota-onalariga o'xshashligi kuzatilgan. Irsiyat va ijtimoiy muhitning bir-biriga o'zaro bog'liqdir. Matematik qobiliyatga ega bo'lgan bolani maxsus matematikaga yo'naltirilgan gimnaziyada o'qitib, yillar o'tib uning itellekti tekshirilganda, yuqori natijalarni ko'rsatgan. Buning sababi ham irsiyat ham ijtimoiy omilda ko'ramiz (qobiliyat+ta'lim). Demak, genlarimiz bizning muhitimizni, muhit esa o'z navbatida bizning o'zimizni shakllantirar ekan. [427]

Dj. Mak-Viker Tegerandagi kam ta'minlangan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini tadqiq etdi. Ko'pchilik 2 yoshli bolalar mustaqil o'tira olmasligini, 4 yoshli bolalar esa yura olmasligini kuzatgan. Tarbiylovchilar bolalarning yig'lashiga, qaysarliklariga umuman e'tibor qaratmas edilar. Natijada bunday bolalar "passiv", tashqi muhit ta'siriga nisbatan hech qanday ehtiyoji yo'q qoloq bolalar bo'lib ulgayishgani aniqlangan. Deprivatsiya sharoiti tug'ma qobiliyatlarni so'ndirmoqda edi.

Xant "inson qobiliyatlarini shakllantirishga o'rgatish" nomli dasturni yaratdi. Dastur davomida Xant tarbiyalovchilarni bolalar bilan tovushli o'yinlar orqali ishlashga o'rgatdi. Tadqiqotda 11 ta bola saralab olingan edi. Ular 1 yosh 11 oylik davriga kelib 50 tagacha so'zni talaffuz qila boshlashgani aniqlandi. Natijada o'sha saralab olingan bolalar juda rivojlangan bolalar bo'lib ulg'ayishdi. [430]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, aqliy qobiliyatlarning shakllanishida ham irsiyatning ham atrof muhitning roli muhim. Insonning dastlabki rivojlanish bosqichida irsiy omillar etakchiroq bo'lib ko'rinadi. Lekin yillar davomida ayniqsa aqliy qobiliyatlarning rivojlanishiga atrof- muhit o'z ta'sirini ko'rsatib boradi. Uning keyingi rivojlanishi yoki so'nib borilishi atrof-muhitga bog'liq bo'lib qoladi. [430]

Aqliy qobiliyatning jinsiy farqlari mavjud bo'lib, ayollarning xotirasi erkaklarnikiga qaraganda kuchli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Erkaklarda esa matematik va fazofiy qobiliyatlar yaxshi rivojlanganligi aniqlangan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, biz intellekt so'zini talaffuz qilishimiz bilan uni testlar orqali o'lchashni ko'z oldimizga keltiramiz. Lekin mana shu teslar qanchalik haqiqatga yaqin. Biz ularga qay darajada ishonishimiz mumkin. Bu ko'rinishdagi testlarning savollari barcha qatlam vakillarining turmush sharitini hisobga olmaganligini kuzatishimiz mumkin. Hattoki, Alfred Bine ham o'zi kashf etkan intellekt testlarini tahlili ustida ishlash kerakligini aytib o'tgan. Sababi, bu teslarning natijasi haqiqatdan uzoq bo'lishini aniqlagan. Bundan tashqari bunday testlar intellektning faqat bir tomonini tadqiq etishga qaratilgan. Emotsional va amaliy intellekti yuqori rivojlangan shaxslarning natijalari bu testlarda yaxshi natija ko'rsatmayotganligi kuzatishgan. Baribir, hozirgi kunda IQ koefitsenti o'z ahamiyatini zararcha ham yo'qotmagan.

### **Mavzu yuzasidan test topshiriqlari**

1. Kreativlik insondagi mavjud bo'lgan noto'liqlik kompleksini to'ldirish vositasidir. Ushbu fikr kim tomonidan aytilgan ?  
A) A.Adler  
B) J.Piaje  
V) G.Ayzenk
2. Dj.Gilford tafakkurni nechi turga bo'ladi ?  
A) 5  
B) 3  
V) 2
3. Kreativlikning 5 komponentini joriy etgan olim kim ?  
A) Galton  
B) SHtern  
V) Stenberg
4. Ijtimoiy intellekt nima ?  
A) Ijtimoiy intellekt- bu ma'lum ijtimoiy vaziyatlarni tushunib etish va uni engib o'tish  
B) Ijtimoiy ta'sir orqali yuzaga keladigan intellekt  
V) Aqliy intellektning quyi ko'rinishi
5. Intellektni dastlab o'lchagan olim kim edi ?  
A) A.Bine  
B) Galton  
V) J.Piaje
6. A.Bine va Simon qachon fransuz maktablarini tadqiq etishgan ?  
A) 1930 y.  
B) 1910 y.  
V) 1904 y.
7. Fanga IQ atamasi ilk bor kim tomonidan kiritilgan ?  
A) A.Bine  
B) V.SHtern  
V) Stenford
8. Galton aqliy qobiliyatning asosiy omilini nima deb hisoblagan ?  
A) Irsiyat



- B) Atrov- muhit  
 V) Ta'lim
9. "Inson qobiliyatlarini shakllantirishga o'rgatish" nomli dasturning muallifi kim ?  
 A) Xant  
 B) Dj. Mak-Viker  
 V) Kruzo
10. Jinsiy farqlarning asosiy komponentlarida nima namoyon bo'ladi ?  
 A) Ayollarda diqqat erkaklarda tinglash qobiliyati yaxshi rivojlangan.  
 B) Ayollarda xotira erkaklarda matematik va fazoviy qobiliyatlar yaxshi rivojlangan.  
 V) Ayollarda matematik erkaklarda mantiqiy xotira yaxshi rivojlangan.

## 15. MAVZU. FAOLIYAT VA MOTIVATSIYA

### REJA:

1. Faoliyatning haqida tushuncha.
2. Faoliyatning tuzilishi va turlari.
3. Motiv va motivatsiya tavsifi.
4. Motivlarning turlari.
5. Motivatsiya nazariyalari (A. Maslou, A.Adler, Z.Freyd)

Odamning asosiy xususiyatlaridan biri

**1. Faoliyat haqida tushuncha** uning mehnat qilish qobiliyatidir, mehnatning istalgan turi esa faoliyat bo'lib hisoblanadi.

Faoliyatning psixologik nazariyasi umumjahon psixologiyasida yaratilgan edi. SHuningdek, u L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontev, A.R. Luriya, A.V. Zaporjets, P.YA. Galperin va boshqa ko'pchilik ruhshunoslarning asarlarida yoritib berilgan.[2]

Faoliyat – bu sub'ektning olam bilan o'zaro ta'sirlashuvining rivojlanuvchi tizimi. Bunday o'zaro ta'sir jarayonida psixik tasvirning yuzaga kelishi va uning ob'ektda ifodalanishi, shuningdek, sub'ektning voqelik bilan o'z munosabatlarini ro'yobga chiqarishi sodir bo'ladi. Faoliyatning istalgan oddiy akti sub'ekt faolligining ifodalanish shakli bo'lib hisoblanadi, bu esa, har bir faoliyatning undovchi sabablarga ega bo'lishi va ma'lum natijalarga erishishga yo'naltirilishini bildiradi.

Shunday qilib, *faoliyatni odamga xos bo'lgan, ong tomonidan boshqariladigan, ehtiyojlarni qondirishda yuzaga keladigan, tashqi olam va insonni bilish, shuningdek, ularni o'zgartirishga qaratilgan faollik sifatida ta'riflash mumkin.*

Faoliyat **predmetlilik** va **sub'ektlilik** xususiyatlariga ega. Faoliyat predmeti deb, u bevosita shug'ullanadigan hodisalarga aytiladi. Masalan, bilish faoliyatining predmeti bo'lib, har xil turdagi axborotlar xizmat qiladi, o'quv faoliyatining predmeti – bilim, malaka va ko'nikmalar, mehnat faoliyatining predmeti – yaratilgan muayyan moddiy mahsulot hisoblanadi. Faoliyat sub'ekti bo'lib odam, individ hisoblanadi.

Faoliyatning predmeti va sub'ektidan tashqari, ushbu tushuncha bilan faoliyat vositalari va natijalari ham bog'liq. Faoliyatni amalga oshirishda odam uchun mehnat vositalari sifatida u yoki bu harakat va muolajalarni bajarishda foydalanadigan asboblarni tushuniladi. Faoliyat natijalari bo'lib, moddiy yoki ma'naviy xususiyatga ega bo'lgan yaratilgan mahsulotlar hisoblanadi.[1]

Shunday qilib, faoliyat quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

- faollikning ichki motivga ega shaklidir;
- inson faoliyatining mahsuldorligi. Moddiy yoki har tomonlama etuk mahsulotning yaratilishi;
- insonning xususiy, oliy, ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi;
- insonning faoliyati o'zi ishlab chiqargan mahsulotda namoyon bo'ladi, faoliyatning bunday ifodalanishi yoki aks etishi o'zida insoniy bilimlar va malakalarni mujassamlashtiradi.

Faoliyat nazariyasi to'raligicha A.N. Leontevning ilmiy ishlarida, xususan, «Faoliyat. Ong. SHaxs» asarida (M., 1982) bayon etilgan.

Faoliyatning tuzilishi haqidagi tasavvurlar faoliyat nazariyasini to'liq tushuntirib bermasada, uning asosini tashkil etadi.

Inson faoliyati murakkab tartibli zinapoyali ketmaketlik tuzilishiga ega. U bir necha qatlam yoki darajalardan iborat. YUqoridan quyiga harakatlanib, ularni nomlab chiqamiz: *alohida faoliyatlar darajasi* (yoki faoliyatning alohida turlari); *harakatlar darajasi*; *muolajalar darajasi*; *psixofiziologik vazifalar darajasi*. SHunday qilib, faoliyat tuzilishining tarkibiy qismlariga motiv, maqsad, harakat (tashqi, predmetli va ichki, aqliy; interiorizatsiya va eksteriorizatsiya jarayonlari), muolajalar, psixofiziologik vazifalar kiradi. Motiv – bu faoliyatga undovchi sabab. Maqsad – bu istalgan, ya'ni, faoliyatni bajarish bilan erishiladigan natijaning tasviri.

**Harakat** – bu faoliyat tahlilining asosiy birligi. Ta'rifga ko'ra harakat – bu maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayon. «Harakat» tushunchasiga oid quyidagi xususiyatlarni keltirish mumkin.

**Birinchi xususiyat:** harakat zarur tarkibiy qism sifatida maqsad qo'yish va uni ushlab qolish ko'rinishidagi ong aktini o'z ichiga oladi.

**Ikkinchi xususiyat:** harakat – bu bir vaqtning o'zida hulqatvor akti ham bo'lib hisoblanadi .

Shunday qilib, faoliyat nazariyasi avvalgi konsepsiyalardan (bixeviorizm) tafovutlari ko'rsatilgan birlamchi ikki xususiyatlarining *ong va hulqatvorning uzluksiz birligini* tan olishidan iborat.[2]

**Uchinchi,** juda muhim **xususiyat:** faoliyat nazariyasi faollik tamoyilini «harakat»tushunchasi orqali ta'sirchanlik tamoyiliga qarama-qarshi qo'ygan holda tasdiqlaydi. Faollik va ta'sirchanlik tamoyillarining alohida har biridan kelib chiqqan holda faoliyat tahlilining boshlang'ich nuqtasi tashqi muhitga yoki sub'ekt organizmiga joylashtirilishi lozim.

**To'rtinchi xususiyat:** harakat tushunchasi odam faoliyatini ijtimoiy va jismlil dunyoga «olib chiqadi».

Harakat doimo maqsad bilan bog'liq bo'ladi. Maqsad harakatni belgilaydi, harakat esa maqsadning amalga oshirishini ta'minlaydi. Maqsadning xususiyati

orqali harakat xususiyatini aniqlash mumkin. Inson maqsadlarini tahlil qilib, nimalarni aytish mumkin? Avvalambor, ularning juda xilma-xilligini, muhimi esa keng hajmliligini keltirish mumkin.

Yirik maqsadlar maydaroq, xususiy maqsadlarga bo‘linadi, ular ham o‘z o‘rnida bulardan ham xususiyroq maqsadlarga bo‘linishi mumkin va h.k. SHunga mos ravishda har bir etarli darajadagi yirik harakat quyi tartibli ketma-ketlikning harakatlar tizimida turli darajalarga o‘tib turishidan iborat. Masalan, boshqa shahar bilan telefon orqali bog‘lanmoqchisiz. Bu harakatni amalga oshirish uchun (I tartib) siz bir qator xususiy harakatlarni bajarishingiz kerak (II tartib): shaharlararo so‘zlashuv telefon tarmog‘iga borib, zarur avtomatni topib, navbatga turishingiz lozim va h.k. Kabinaga kirgandan so‘ng, abonent bilan bog‘lanishingiz kerak. Lekin buning uchun qator mayda ishlarni bajarishingizga to‘g‘ri keladi (III tartib): tanga tashlab, tugmachani bosib turib, ma‘lum sonlarni terish kerak bo‘ladi va h.k.

Muolaja – bu faoliyat bajarilishining navbatdagi quyiroq darajasi. Muolaja deb, harakat bajarilishining usuliga aytiladi. Masalan, ikkita ikki xonali sonlarni ko‘paytirish amalini xotirada va misolni ustuncha shaklida yozgan holda echish mumkin. Bu bir xildagi matematik misolning ikki turlicha usuli yoki ikki xil amal bo‘ladi.[1]

Qo‘llaniladigan muolajalarning xususiyati nimaga bog‘liq bo‘ladi? Avvalambor, ular harakat amalga oshiriladigan sharoitlarga bog‘liq. Agar harakat maqsadning o‘ziga javob bersa, muolaja maqsad qo‘yilgan sharoitlarga javob beradi. Bunday sharoitlarga tashqi vaziyatlardan tashqari, shuningdek, faoliyat ko‘rsatayotgan sub‘ektning imkoniyatlari yoki ichki vositalari ham kiradi.

***Faoliyat nazariyasida ma‘lum sharoitlardan ko‘zlangan maqsad masala deb ataladi.*** Masala echish jarayonini tasvirlashda ularni amalga oshiruvchi harakatlarni ham, muolajalarni ham ko‘rsatish lozim.

Muolajalarning asosiy xossasi ularning kamroq anglanganligi yoki umuman anglanmaganligidan iborat. Bu xossalari bilan muolajalar ongli maqsadni ham, harakatning bajarilishini nazorat qilishni ham belgilab beradigan harakatlardan tamomila farq qiladi.

Muolajalar ikki turga bo‘linadi: ba‘zilari adaptatsiya, moslashish, bevosita taqlid qilish yordamida yuzaga keladi; boshqalari harakatlarni avtomatlashtirish vositasida paydo bo‘ladi. Birinchi turdagi muolajalar anglanmaydi, ularni ongimizda, hatto, maxsus vositalar yordamida ham hosil qilish mumkin emas. Ikkinchi tur muolajalar ong chegarasida joylashadi. Ular osongina dolzarb anglanuvchilarga aylanishi mumkin.[1]

Har bir murakkab harakat harakatlar ketma-ketligi va «to‘shaluvchi» muolajalar qatlamidan iborat. Har bir murakkab harakatda dolzarb bo‘lgan ongli va anglanmagan faoliyatlar o‘rtasidagi chegaraning belgilanmaganligi harakatlar ketma-ketligini muolajalar ketma-ketligidan ajratib turuvchi chegaraning harakatchanligini bildiradi. Bu chegaraning yuqoriga yo‘nalgan harakati muolajadagi ba‘zi harakatlarning (asosan, eng soddalarining) o‘zgarishini anglatadi. CHegaralarning pastga harakatlanishi esa, aksincha, muolajalarning harakatga aylanishini, ya‘ni, faoliyatning maydaroq birliklarga bo‘linishini bildiradi. Quyida shunga mos misol keltiramiz. Munozara vaqtida sizda yangi

g'oya tug'ildi, va siz ifodalanish usulini hisobga olmagan holda, asosan, mazmunidan kelib chiqib, uni bayon qildingiz, deb tasavvur qilamiz. Siz ko'plab, ya'ni, aqliy, nutqli va h.k. muolajalar bilan ta'minlangan harakatni amalga oshirgan bo'lasiz. Ularning barchasi birgalikda g'oyani bayon qilish faoliyatini amalga oshirgan bo'ladilar.

Faoliyat tuzilishidagi eng quyi daraja – *psixofiziologik vazifalarni* ko'rib chiqamiz. Faoliyat nazariyasida bu vazifalarga psixik jarayonlarning fiziologik ta'minoti kiradi. Ularga odam organizmiga xos bo'lgan his etish, o'tmish taassurotlarining qoldiqlarini hosil qilish va qayd etish layoqatlari, motor layoqati va boshqalar kiradi. Mos ravishda sensor, mnemik, motor vazifalar haqida so'z yuritish mumkin. Bu darajaga shuningdek, asab tizimi morfologiyasida mustahkam o'rin tutgan tug'ma va hayotning birinchi oylarida yuzaga keladigan mexanizmlar kiradi. Barcha layoqat va mexanizmlar insonga tug'ilishi bilanoq beriladi, ya'ni ular irsiyat tomonidan belgilangan bo'ladi.[1]

Psixofiziologik vazifalar psixik vazifalarni amalga oshirish uchun faoliyat vositalarini zarur dastlabki shart-sharoitlar bilan ta'minlaydi. Masalan, biror ma'lumotni xotiramizda saqlab qolish uchun tez va sifatli yodda saqlab qolishning maxsus usullaridan foydalanamiz. Lekin agarda biz yodda saqlab qolish layoqatidan iborat mnemik vazifalarga ega bo'lmaganimizda, bu faoliyatni amalga oshira olmagan bo'lardik. Mnemik vazifalar tug'ma bo'ladi. Bola tug'ilishi bilanoq katta miqdordagi ma'lumotni yodida saqlay boshlaydi. Dastlab, bu oddiy axborot bo'lib, keyinchalik rivojlanish jarayonida xotirada saqlanishi zarur bo'lgan axborot hajmidan tashqari, yodda saqlashning sifat ko'rsatkichlari ham o'zgaradi.

«Korsakov sindromi» deb ataladigan (uni ilk marotaba o'rgangan mashhur rossiyalik psixiatr S.S. Korsakov nomi bilan) xotira kasalligi mavjud. Bunda aynan mnemik vazifa oqsaydi. Bu kasallikda voqealar, hatto, bir necha daqiqa avval sodir bo'lganlari ham umuman yodda saqlanib qolmaydi. Bunday bemorlar, masalan, shifokor bilan kuniga bir necha marta salomlashib, bugun ovqatlanmami yoki yo'qmi, eslamasligi ham mumkin. Bir bemor onasiga kitobiy asarning o'ziga yoqib qolgan parchasini hozirgina o'qib berganini yodidan chiqarib yuborib, beto'xtov o'qib berardi va, shu asnoda bir necha o'n martalab takrorlardir. Agar bunday bemor biror matnni yod olishga urinib ko'rsa, u shu zahotiy oq matn bilan birga yod olishningni o'zini ham yodidan chiqarib yuborishi mumkin.

Shunday qilib, psixofiziologik vazifalar faoliyat jarayonlarining organik ustqurmasini tashkil etadi, deb xulosa yasash mumkin. Ularga tayanmay turib, harakatlar va muolajalarning bajarilishidan tashqari vazifalar belgilanishining ham imkoniyati mavjud emas.[2]

Istalgan faoliyat tuzilishida *ichki* va *tashqi* tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ichki tarkibiy qismlarga markaziy asab tizimi tomonidan boshqariladigan faoliyatlarda ishtirok etadigan anatomik va fiziologik tuzilmalar hamda jarayonlar, shuningdek, faoliyatni boshqarishga taalluqli psixologik jarayonlar va holatlar kiradi. Tashqi tarkibiy qismlarga esa faoliyatni amaliyotda bajarish bilan bog'liq turli harakatlarni kiritish mumkin (N.A. Bernshteyn).

Faoliyatning taraqqiy etib va o'zgarib borishi bilan tashqi tarkibiy qismlarning ichkilariga tizimli o'tishi amalga oshiriladi. Bunda *interiorizatsiya*, *avtomatizatsiya* va *eksteriorizatsiya* ham kuzatiladi.

Shunday qilib, tashqi faoliyatdan tashqari ichki, aqliy faoliyatni ham ajratish mumkin. Bunday faoliyatning vazifalari nimalardan iborat? Avvalambor, bu vazifalar ichki harakatlarning tashqi harakatlarni tayyorlashidan iborat. Ular zarur harakatni tezda tanlab olishga imkon yaratib, inson kuchini tejashga, shuningdek, qo'pol xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradilar. Masalan, odam kitob javonlarini devorga qoqib qo'yish uchun joyni mo'ljallaydi. Bir yo'lni tanlab olib, baholaydi, so'ngra undan voz kechib, ikkinchisiga, uchinchisiga o'tadi, nihoyat, o'ziga mos va qulay holatda to'xtaladi. Garchi bu vaqt ichida bir marta ham «barmog'ini qimirlatib» qo'ymaydi, ya'ni, biror bir amaliy harakatni amalga oshirmaydi.[2]

Harakatlarni miyada «aylantirib chiqish» ularni oldindan o'ylab olishga kiradi. Qanday harakat qilishni o'ylayotgan inson qanday yo'l tutadi? Qandaydir harakatning ro'yobga chiqqanligini tasavvur qilib, uning oqibatlarini ko'rib chiqadi. Ularga qarab, o'zining holatiga mos keladigan harakatni tanlaydi. YOki boshqa misol, ko'p hollarda inson qandaydir quvonchli hodisani kutganida, vaqtdan o'zib, o'sha hodisani bo'lib o'tganday tasavvur qiladi. Natijada o'zini yuzida baxtli tabassum bilan o'tirganini ko'radi. Bu misollar insonning ichki faoliyatiga misol bo'la oladi. U o'zining ikki asosiy xususiyati bilan farqlanadi. Birinchidan, ichki faoliyat tashqi faoliyat kabi tuzilishga ega, ular bir-biridan faqat codir bo'lish shakli bilan tafovutlanadi. Bu ikki faoliyat motivlar yordamida uyg'otilishini, hissiy kechinmalar bilan birga kuzatilishini, o'zining muolajaviy texnik tarkibi mavjudligini bildiradi. Ichki faoliyatning tashqi faoliyatdan farqi harakatlar real jismlar bilan emas, ularning xayoliy tasviri bilan amalga oshirilishidan, real mahsulot o'rniga g'oyaviy natija hosil bo'lishidan iborat. Ikkinchidan, ichki faoliyat tashqi faoliyatdan mos harakatlarning ichki holatga o'tkazilish yo'li bilan paydo bo'lgan. Biror-bir harakatni samarali ravishda fikran amalga oshirish uchun uni avvalo amaliyotda o'zlashtirib olib, real natija olish lozim. Masalan, shaxmat o'yinida donalarning yurishi o'zlashtirilib, ularning oqibatlari idrok etilgandan keyingina shaxmat yurishini o'ylab olish imkoniyati tug'iladi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, faoliyat nazariyasining mualliflari ichki faoliyat tushunchasi orqali ong va psixik jarayonlar tahlili muammosi bilan to'qnashdilar. Faoliyat nazariyasi mualliflarining fikriga ko'ra, psixik jarayonlar faoliyat nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin, chunki istalgan psixik jarayon o'z vazifalari va muolajaviy-texnik tuzilishiga ega bo'lib, ma'lum maqsadda amalga oshiriladi. Masalan, ta'mni idrok qilish ta'm sifatlarining o'zaro farqlari va mos kelish darajalarini aniqlash bilan bog'liq perseptiv maqsad va vazifalariga ega. Perseptiv vazifaga yana bir misol sifatida aniqlash jarayonini keltirish mumkin. Bunday vazifalarni kundalik hayotimizda muntazam holatda ko'z bilan chamalash masalalarini hal etishda, chehralarni, ovozlarni tanib olishda va h.k.da bajarishga to'g'ri keladi. Barcha vazifalarni hal etish uchun har biriga mos ravishda farqlash,

aniqlash, o'lash, tanish va boshqa harakatlar ko'rinishidagi perseptiv harakatlar amalga oshiriladi.

Psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur va h.k.)ni faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan faoliyatning alohida shakli sifatida o'rganib, ma'lum axborotlar – faoliyatning umumiy tuzilishi, darajalari, kechish shakllari va h.k.ni qo'llash mumkin va zarurdir.[2]

## 2. Faoliyatning tuzilishi va turlari

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga - predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabanning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasini boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan *nimalarga* yunaltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. **Tashqi faoliyat** shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, **ichki faoliyat** - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, hattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan halos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.[1]

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlardir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

■ **perseptiv** – ya'ni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

- **mnemik faoliyat**, narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab kolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq murakkab faoliyat turi;
- **fikrlash faoliyati** - aql, faxm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni echishga qaratilgan faoliyat;
- **imajitiv** - («image» -obraz so‘zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda hayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va hayolda tiklashni taqozo etadi.

YUqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergan bo‘lsa, bunday jarayonni psixologiyada **interiorizatsiya** deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi **eksteriorizatsiya** deb yuritiladi.[2]

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo‘lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo‘nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o‘tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko‘pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o‘girilganda, **malaka** hosil bo‘ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o‘rganganmiz. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz buni **ko‘nikmalar** deb ataymiz. *Ko‘nikmalar* - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko‘nikma va malakalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham o‘quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko‘nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo‘lsak, uning shakllanish yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- oddiy namoyish etish yo‘li bilan;
- tushuntirish yo‘li bilan;
- ko‘rsatish bilan tushuntirishni uyg‘unlashtirish yo‘li bilan.

Hayotda ko‘nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni engillashtiradi. O‘qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish va turlarga bo‘lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo‘lgan asosiy faollik turlari bo‘yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o‘yin, o‘qish va mehnat faoliyatlaridir.[2]

**Muloqot** - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo‘lish, odamlarga o‘xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. SHaxs o‘z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

**O‘yin** - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma‘naviy ne‘matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o‘zlashtiriladi. Bola toki o‘ynamaguncha, kattalar hatti-harakatlarining ma‘no va mohiyatini anglab etolmaydi.

**O‘qish** faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o‘ynaydi va ma‘no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtiriladi.

**Mehnat** qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo‘lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma‘naviy ne‘matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo‘lgan ma‘lumotlarni eslab qolish va kerak bo‘lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo‘lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo‘naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog‘liq murakkab jarayonlar yotishini unutmash kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug‘ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo‘lib, bu faoliyat motivlaridir.[1]

### 3. Motiv va motivatsiya tavsifi

Inson hulq-atvorida funksional jihatdan bog‘liq bo‘lgan qo‘zg‘atuvchi va boshqaruvchi tomonlar mavjud. Psixologiyada inson hulq-atvoridagi qo‘zg‘atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo‘llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy bo‘lib hisoblanadi.[1]

«Motivatsiya» atamasi «motiv» atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. «Motivatsiya» so‘zi hozirgi zamon psixologiyasida hulq-atvorni determinatsiyalovchi omillardir. Bunga, xususan, ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa ko‘pchilik) tizimini belgilovchi va hulq-atvor faolligini ma‘lum darajada tutib turuvchi, rag‘batlantiruvchi jarayon xususiyati sifatida ikkilangan ma‘noda qo‘llaniladi. Biz motivatsiya tushunchasini birinchi ma‘noda qo‘llaymiz. SHunday qilib, *motivatsiyani* inson hulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo‘lgan sabablar yig‘indisi sifatida belgilash mumkin.<sup>85</sup>[3]

Tashkilotchi psixologlarning ish beruvchilarni motivatsiyalash hamda bandliklarini ta‘minlashga urinishlarida yordamini ko‘rib chiqishdan oldin nega har qanday ishchi yuqori standart yoki qiyin maqsadga erishishi mumkinligini batafsil ko‘rib chiqamiz.

O‘shish imkoni bo‘lgan har qanday ishda muvaffaqiyatga intiluvchi siz bilgan odamni eslang. Endi undan kamroq harakat qilayotganni eslang.

---

<sup>85</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-489



Psixolog Genri Myurrey(1938) birinchi odamning erishuv motivatsiyasini malaka va g'oyalarni egallash uchun, boshqaruv uchun, shuningdek tezda yuqori standartga erishish uchun ahamiyatli yutuqlarga intilishi sifatida ko'rsatgan.

Ularning qat'iyligi va real vazifalarni amalga oshirishini kutishingiz mumkin, yuqori darajadagi motivatsiyali odamlar ko'p narsaga erishadi.

Intellekt testi 1foizning yuqorisida bo'lgan 1528ta kaliforniyalik bolalar hayoti davomida o'rganilgan. Qirq yil o'tgach tadqiqotchilar ko'proq va kamroq kasbiy muvaffaqiyat qozonganlarni solishtirganida motivatsion farqlarni topishdi. O'sha muvaffaqiyatliroqlar izzattalab, quvvatga to'la va qat'iyatliroq edi. Bolaligida ularning faol mashg'ulotlari ko'p bo'lgan. Ulg'ayganida ko'p guruhlarda qatnashishgan va tomoshabindan ko'ra sport musobaqalarining ishtirokchisi bo'lgan (Golmen,1980). Iqtidorli bolalar qobilyatli o'rganuvchilardir. Tajribali kattalar matonatli ijrochilardir.

O'rta maktab va universitet talabalari birgalikda tadqiq qilinganda o'zlashtirish,davomat va obro' uchun intizomlilik intellektdan ko'ra yuqori ko'rsatgichga ega bo'lgan. Buyumlar, g'oyalar va odamlarni egallash, yuqori standartga erishish uchun "Intizom iste'doddan ustun" degan xulosaga kelishdi tadqiqotchilar.

Anjela Dakvort va Martin Seligman nima uchun qiz bolalar ular bilan bir xil iqtidordagi o'g'il bolalardan ko'ra maktabda yuqori baho olishini tushuntiradilar(2005,2006).

Biroq intizom iqtidorni takomillashtiradi. Ularning 20-yillari boshida top-skripkachilar o'qituvchi bo'lish niyatidagi boshqa skripkachi talabalardan ikki marta ko'p – 10000soat jamg'arishgan(Erikson va b., 2001,2006,2007). Iqtisod bo'yicha Nobel mukofotini olgan psixolog Gerbert Saymon(1998)ning tadqiqotlaridan 10yil qoidasi deb nomlangan qoida yuzaga keldi: jahon ekspert-klasslari sohasi bo'yicha o'n yildan kam bo'lmagan vaqt ya'ni haftasiga qirq soat, yiliga ellik hafta ishlashgan.Katta olimlar, sportchilar va rassomlar o'rganilganida aniqlandiki ularning barchasi yuqori motivatsiyaga va shaxsiy intizomga ega, o'z maqsadiga erishish uchun kuniga soatlab vaqt sarflashga tayyor (Blum,1985). Bu yorqin yulduzlar nafaqat o'zining noodatiy talanti, balki kundalik intizomi bilan ajralib turgan. Yuqori natija gallon(4,5litr) ter bilan bir choy qoshiq ilhomning aralashmasiday tuyuladi.<sup>86</sup>[3]

Dakvort va Seligman qayd etganidek, o'ta omadli odamlarni o'zi qatori iqtidorli tengdoshlaridan jasorat – uzoq muddatli buyuk maqsadga nisbatan jo'shqin sadoqat ajratib turadi. Shunga qaramay intelligent qo'nq'iroqsifat egrilikdek namoyon bo'ladi,balki yutuq emas. Bu bizga muvaffaqiyat xom iste'doddan-da ko'p narsani qamrab olishini aytadi. Shuning uchun tashkilotchi psixologlar oddiy ishda ishlovchi oddiy odamlarni jalb qilish va motivatsiyalash yo'llarini qidirmoqdalar.

Hulq-atvorning paydo bo'lishi, davomiyligi va barqarorligi, yo'nalganlik va ko'zlangan maqsadga erishilgandan so'ng yakunlanishi, kelajakdagi voqealarga moyillik, alohida olingan hulq-atvor aktining mutanosibligi va mazmun jihatidan

---

<sup>86</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan 2010 y. .492 p

yaxlitligi, samaradorligini oshirish kabi tomonlari motivatsion jihatdan tushuntirishni talab etadi.

«Nimaga?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «nima evaziga?», «qanday mohiyatga ega?» va boshqa shu turdagi savollarga javob izlash motivatsiyaga muvofiq amalga oshiriladi.

Hulq-atvornining istalgan shakli ichki va tashqi sabablar bilan tushuntirilishi mumkin. Birinchi vaziyatda tushuntirishning boshlang'ich va yakuniy holatlari sifatida sub'ekt hulq-atvorining psixologik xossalari, ikkinchisida – tashqi va faoliyat sharoitlari namoyon bo'ladi. Birinchi vaziyatda *motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, tilaklar, qiziqishlar* va h.k.lar, ikkinchisida esa – yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan *rag'batlar* haqida so'z yuritiladi. Ba'zan inson hulq-atvorini ichdan belgilab beradigan barcha omillar *shaxs dispozitsiyalari* deb ataladi. U holda muvofiq ravishda dispozitsion va vaziyatli motivatsiyalar haqida hulq-atvorni determinatsiyalashning ichki va tashqi analoglari sifatida so'z yuritiladi. SHuning uchun insonning istalgan harakati ikki tomonlama: dispozitsion va vaziyatli determinatsiya sifatida ko'rib o'tiladi.

Dispozitsiyalar o'z mohiyatiga ko'ra motivlardir. *Motiv* motivatsiyadan farqli o'laroq, – bu hulq-atvor sub'ektining o'ziga tegishli bo'lgan, uning ma'lum harakatlari amalga oshirishga ichkaridan undovchi barqaror shaxsiy xossasi. Motivni, shuningdek, umumlashtirilgan ko'rinishda ko'pchilik dispozitsiyalarni ifodalaydigan tushuncha sifatida belgilash mumkin.

Mavjud bo'lgan dispozitsiyalardan eng muhimi *ehtiyojlar* tushunchasi hisoblanadi. Ehtiyoj deb, inson yoki hayvonning ma'lum sharoitlarda ularga normal yashash va rivojlanishi uchun etishmovchilik holatiga aytiladi. Ehtiyoj shaxs holati sifatida muntazam ravishda insondagi organizm (shaxs) uchun etishmovchilik bilan bog'liq bo'lgan qoniqmaslik hissi bilan bog'liq

Inson ehtiyojlarining asosiy xususiyatlariga qondirish kuchi, paydo bo'lishining davriyligi va usuli kiradi. SHaxsning ahamiyatli ehtiyoji, uning jisga bog'liq mazmuni, ya'ni, ushbu ehtiyojni qondira oladigan moddiy va ma'naviy madaniyat ob'ektlarining yig'indisidir.

Ehtiyojdan keyingi motivatsion ahamiyatga ega bo'lgan tushuncha – bu *maqsad*. Maqsad deb, faoliyat bilan bog'liq bo'lgan, dolzarb ehtiyoji qondiruvchi bevosita anglanuvchi natijaga aytiladi. Psixologik jihatdan maqsad ongning motivatsiyali qo'zg'atuvchi mazmuni, u inson tomonidan faoliyatining bevosita va yaqin kutilayotgan natijasi sifatida idrok qilinadi.

Ko'rib chiqilgan motivatsiyali hosilalardan dispozitsiyalar (motivlar), ehtiyojlar va maqsadlar inson motivatsion sohasining asosiy tashkil etuvchilari bo'lib hisoblanadi.

SHaxsning motivatsion sohasini rivojlanganlik nuqtai nazaridan kenglik, egiluvchanlik va ierarxialashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholash mumkin. Motivatsion sohaning *kengligi* deyilganda, darajalarning har birida keltirilgan dispozitsiyalar, ehtiyoj va maqsadlar kabi motivatsion omillarning sifat jihatidan turli-tumanligi tushuniladi. Odamda turli xil motivlar, ehtiyoj va maqsadlar qanchalik ko'p bo'lsa, uning motivatsion sohasi ham shunchalik rivojlangan hisoblanadi.

Motivatsion sohaning *egiluvchanligi* motivatsiya jarayonini quyidagicha xarakterlaydi: yuqori darajadagi motivatsion maylning qondirilishi uchun quyi darajadagi turli xil motivatsion mayllar qanchalik ko'proq qo'llanilgan holatda motivatsion soha ham shunchalik darajada egiluvchan bo'ladi. Masalan, bir individ uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyoj faqat televidenie, radio va kino hisobiga qondirilsa, boshqasi uchun xuddi shunday ehtiyojni qondirish vositasi turli kitoblar, davriy matbuot, odamlar bilan muloqot hisoblanadi. Keyingi holatda motivatsion soha egiluvchanroq bo'lib sanaladi.

*Ierarxialashtirilganlik* – bu alohida olingan motivatsion sohasidagi har bir tuzilish darajasining xususiyati. Bir xil dispozitsiyalar (motivlar, maqsadlar) boshqalaridan kuchliroq bo'lib tez-tez hosil bo'lib turadi; boshqalari kuchsizroq bo'ladi, va kamroq dolzarblashtiriladi. Ma'lum darajadagi motivatsion hosilalarning dolzarblashtirish kuchi va chastotasidagi farqlar qanchalik ko'p bo'lsa, motivatsion sohaning ierarxialanganligi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Motivlar, ehtiyojlar va maqsadlardan tashqari, inson hulq-atvori qo'zg'atuvchilari sifatida, shuningdek, qiziqishlar, muammolar, tilak va maqsadlar ham ko'rib chiqiladi. Qiziqish deb, bilish xususiyatiga ega bo'lgan, to'g'ridan-to'g'ri bir xil, ayni damda dolzarb bo'lgan ehtiyoj bilan bog'lanmagan, alohida motivatsion holatga aytiladi. Muammo ma'lum maqsadga erishishga yo'naltirilgan harakatni bajarishda organizm engib o'tishi zarur bo'lgan to'siqlarga duch kelganida paydo bo'ladi. *Tilaklar* va *maqsadlar* – bu darhol yuz beradigan va ko'pincha bir-birini almashtirib turadigan, harakat bajarish sharoitlarining o'zgarishlariga javob beradigan motivatsion sub'ektiv holat.[2]

Inson hulq-atvori motivatsiyasi ongli va ongsiz bo'lishi mumkin. Bu inson hulq-atvorini boshqaruvchi ba'zi ehtiyoj va maqsadlar inson tomonidan anglanishini, boshqalarining esa anglanmasligini bildiradi.

SHunday qilib, motivlar anglangan yoki anglanmagan bo'lishi mumkin. SHaxs yo'nalganligi shakllanishidagi asosiy o'rinni anglangan motivlar egallaydi.

Turli kasb egalari

**4. Motivlarning turlari** faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. SHunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida **muvaffaqiyatga erishish motivi** bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Makklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaffaqiyatga erishish motivi** hamda **muvaffaqiyatsizliklardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish-bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.[1]

Boshqacha xulq-atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffiqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. SHu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. SHuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka uchrab, «O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da» degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o'rinda *talabchanlik* degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo'nalgan shaxslarning o'zlariga nisbatan qo'ygan talablari darajasi ham yuqori bo'lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo'ladi. Bunday tashqari har birimizdagi o'zimizdagi real qobiliyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs hattoki, mag'lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg'urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo'lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg'urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg'urish sifati ham ma'lum ma'noda motivlar xarakterini belgilaydi.<sup>87</sup>

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtixon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtixon oldidan juda qayg'uradilar, hattoki, qo'rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. YAna uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan-bilmaganini isbot qilishga o'rinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

### **MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI**

1. Faoliyat – bu:

- a) voqelikni to'g'ri aks ettirish;
- b) organizmning muhitda faol harakatlanishi;
- v) insonning olam bilan o'zaro ta'sir jarayoni;

---

<sup>87</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-497

g) odamga xos bo'lgan, ong tomonidan boshqariladigan, ehtiyojlarni qondirishda yuzaga keladigan, tashqi olam va insonni bilish, shuningdek, ularni o'zgartirishga qaratilgan faollik .

2. Ehtiyojlar – bu:

a) muayyan harakatlarning zarurligini anglash;

b) organizmda normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur sharoitlarni tashkil etuvchi biror narsaning ob'ektiv etishmovchiligi holatlari ;

v) inson tomonidan mahsulotlarda biologik ehtiyojlarning qondirilishini anglash;

g) o'z ehtiyojlarini madaniy qadriyatlarda anglash.

3. Faoliyat tuzilishiga quyidagilar kiradi:

a) psixofiziologik vazifalar, muolajalar;

b) motiv, maqsad, muolajalar, psixofiziologik vazifalar;

v) harakat, muolajalar, motiv;

g) usullar, maqsad, natija, harakat.

4. Faoliyatning asosiy turlariga kiradi:

a) mashq, o'yin, harakat;

b) muolajalar, mehnat, malakalar, ko'nikmalar;

v) muloqot, o'yin, o'qish, mehnat;

g) malakalar, harakatlar, mashq, o'yin.

5. Bolada faoliyatning ongli faollik sifatida rivojlanishi quyidagi xususiyatga ega:

a) impulsli hulq-atvor;

b) tadqiqiy hulq-atvor ;

v) amaliy hulq-atvor;

g) kommunikativ hulq-atvor;

d) hamma javoblar to'g'ri.

## 16. MAVZU: MULOQOT

### REJA:

1. Muloqot haqida tushuncha.

2. Nutq va uning turlari.

3. Muloqotning inson filogenetik va ontogenetik rivojlanishidagi ahamiyati.

4. Muloqot vazifalari va turlari .

5. Muloqot axborot almashinuvi sifatida.

6. Muloqot o'zaro ta'sir sifatida.

7. Muloqot odamlarning bir-birini idrok qilishi sifatida.

8. Muloqotning rivojlanishi.

**6.1. Muloqot haqida tushuncha** Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojdir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi

tirik jonzoqlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.[1]

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. **Muloqot** ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. YOki: **muloqot** – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir.[1]

Muloqot barcha tirik jonzoqlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bo'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining kudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tikodlar, intellektual, ma'naviy va estetik xissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib, inson tomonidan talaffuz kilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyfunligidan iborat, ayni vaktida shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma'no va mazmunga ega.

Til – shartli belgilar tizimi bo'lib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan ma'noga va mazmunga ega bo'lgan tovushlar yifindisi uzatiladi.

Nutqda aloxida insonning ruxiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jixatdan aloxida shaxsga xos bo'lib, unda aloxida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa xamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, xarakat, xolat va x.k. ifodalanadi. So'z esa, predmet yoki xodisa to'frisidagi tasavvur bilan bo'flik.

Umumlashtirish funkstiyasi xar bir so'z umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bo'flik, bu esa tafakkurning yuzaga chikishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya'ni muloqot muayyan ma'lumotlarni, fikrlarni, tuyfularni odamlar bir-birlariga etkazib berishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Inson nutqining anikligi cheklangan miqdordagi nutkiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo'finlar, so'zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyfularini ifodalash imkonini beradi.<sup>88</sup>[3]

Muloqot **mazmuni** – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga etkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma'lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma'lum tartibda aloqaga kirishishga yo'naltiruvchi, ularning emotsional holatlari

---

<sup>88</sup> Psychology David G. Myers Hope College Holland, Michigan .384 p

(mamnunlik, shodlik, g'azab, qayg'u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma'lumotlar o'tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga etkaziladi va shaxslararo aloqalar o'rnatish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Biz, ochiq ko'ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda, g'azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o'zimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga etkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma'lumot, masalan, xavfdan yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo'lishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko'nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko'p jismli bo'lib, ichki mazmuniga ko'ra turli-tumandir.

**Muloqot maqsadi** – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va etkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Muloqotning **shaxslararo** tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.[2]

Muloqotning **kognitiv** tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning **kommunikativ-axborotli** tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning **emotiv** tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Muloqotning **konativ** (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

**Muloqot vositalarini** muloqot jarayonida bir tirik jonzotdan boshqasiga etkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berish vositalari sifatida ta'riflash mumkin.

Muloqot vositalariga quyidagilar kiradi:

1. Til – muloqot uchun qo‘llaniladigan so‘zlar, ifodalar va ularni muloqotda qo‘llash uchun ma‘noli iboralarga birlashtirish qoidalari tizimi, shuningdek, turli ko‘rinish va shakllardagi (matnlar, chizmalar, suratlar), axborot yozish, etkazish va saqlashning texnik vositalari (radio- va videotexnika, yozuvning mexanik, magnitli, lazerli va boshqa shakllari) dagi belgilar tizimlari va yozuvdan iborat.

2. *Ohang, emotsional ifodalanganlik*, bir xil iboraga turlicha ma‘no berishga qodir.

3. Suhbatdoshning *mimikasi, gavda holati, nigohi* ibora ma‘nosini kuchaytirishi, to‘ldirishi yoki rad etishi mumkin.

4. *Imo-ishoralar* muloqot vositasi sifatida umumiy qabul qilingan, ya‘ni, belgilangan ma‘noga ega bo‘lishi yoki ekspressiv, ya‘ni, nutqning ifodaliligini yanada oshirishi mumkin.

5. Suhbatdoshlar muloqotidagi *masofa* madaniy, milliy an‘analarga, suhbatdoshga bo‘lgan ishonch darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Inson o‘zining tur ichidagi muloqot usullari va vositalarini tanlashdagi kashfiyotchiligi bo‘yicha Er sayyorasida bizga ma‘lum tirik mavjudotlarni ancha quvib o‘tdi.

Muloqot quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- muloqotga bo‘lga ehtiyoj (axborotni etkazish yoki undan xabardor bo‘lish, suhbatdoshga ta‘sir ko‘rsatish zarur, va h.k.) boshqa odamlar bilan aloqaga kirishishga undaydi;

- muloqot maqsadlari, muloqot vaziyatini to‘g‘ri belgilash;

- suhbatdosh shaxsini belgilash;

- o‘z muloqoti mazmunini rejalashtirish, odam aynan nima haqida so‘z yuritishini tasavvur qiladi (odatda anglanmagan holda);

- inson ongsiz ravishda (ba‘zan ongli) foydalanishi mumkin bo‘lgan aniq vositalar, nutqiy iboralarni tanlaydi, qanday gapirib, o‘zini qanday tutishini o‘ylab qo‘yadi;

- suhbatdoshning javob reaksiyasini idrok qilish va baholash, qaytar aloqa o‘rnatish asosida muloqot samaradorligini nazorat qilish;

- muloqot yo‘nalishi, uslubi, metodlariga tuzatishlar kiritish.

Agar muloqot aktining biror-bir halqasi izdan chiqqudek bo‘lsa, so‘zlovchi muloqotdan kutgan natijalariga erisha olmaydi.

## 2. *Nutq va uning turlari*

Insonning hayvonot olamidana farq qiluvchi, uning fiziologik, psixik va ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiruvchi asosiy xususiyatlardan biri nutq deb ataluvchi alohida psixik jarayonning mavjudligi hisoblanadi. *Nutq* – bu odamlarning til vositasida muloqot qilishi. Gapira olish va begona tilni tushunish malakasiga ega bo‘lish uchun tilni bilish va undan foydalana olish zarur.[2]

Til va nutqning psixologik faoliyatda tutgan o‘rni.

Til va nutqning psixologik rivojlanish yo‘lida tutgan o‘rni beqiyosdir. Nutqning paydo bo‘lishi bilan birga insonning psixologik va ruhiy doirasi ham rivojlana boshlaydi. Masalan, qabul qilish, xotira, tafakkur, tasavvur, e‘tibor kabilar faqatgina til tufayli rivojlana boradi.



Nutq – inson psixologiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, boshqa psixologik jarayonlarni boshqarib, bir biriga boq'lab turadi. Inson ongidagi tafakkur va tasavvur qilish jarayonlari nutq faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson fikrlash faoliyati – nutqiy tafakkurni paydo qiladi. Nutqning rivojlanishi boshqa psixologik jarayonlarning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Nutq o'z navbatida tashqi, ichki, og'zaki, yozma dialog va monolog ko'rinishlarida bo'ladi. Nutq o'zaro munosabat va muloqotda eng asosiy qurol hisoblanadi.

Muloqot- bu odamlar o'rtasidagi aloqa, buning natijasida odamlarning bir biriga bo'lgan ta'siri paydo bo'ladi. Muloqot davomida odamga nisbatan extiyoj tug'iladi. Muloqot tufayli odamlar turli xil amaliy va nazariy faoliyatlarni uyushtiradi. Bundan tashqari axborot almashish, bir-birini tushinish kabi jarayonlar ham muloqot tufayli sodir bo'ladi. Shuningdek, muloqot shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni yaratib, ularni amalda qo'llashdayordam beradi.<sup>52</sup>

Psixologiyada «til» va «nutq» tushunchalari mavjud. *Til* – bu odamlar uchun ma'lum ma'no va ahamiyat kasb etuvchi tovush birikmalarini etkazuvchi shartli ramzlar tizimi. Til jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, odamlarning ijtimoiy ongida ularning ijtimoiy turmushini aks ettirish shakli, shuningdek, ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib hisoblanadi. Tilning noyob hodisaviyligi shundaki, har bir odam atrofdagilar muloqotda bo'ladigan tarkib topgan tilga ega bo'ladi va rivojlanish jarayonida uni o'zlashtirib boradi.[2]

Til – bu murakkab hosila. Istalgan til, avvalo, tilning *leksik tarkibi* deb ataluvchi ma'nodor so'zlarning ma'lum tizimiga egadir. Bundan tashqari, til so'z va so'z birikmalari turli shakllarining ma'lum tizimidan iborat bo'lgan til *grammatikasiga*, shuningdek, aniq bir tilga xos bo'lgan ma'lum tovush yoki *fonetik* tarkibga egadir.

Til, asosan, har bir so'z ma'nosini mustahkamlash uchun xizmat qiladi. So'zning istalgan ma'nosi umumlashtirishni anglatadi, masalan, slova «odam», «mashina», «stol» va boshqalar.

Tildan farqli ravishda nutq deb ma'lumot etkazish, ko'rsatma, savol, buyruq berish shaklida amalga oshiriladigan nutqiy muloqot jarayoniga aytiladi. Nutq yordamida u yoki axborotni etazish uchun ma'lum ma'noga ega bo'lgan mos so'zlarni tanlash emas, balki ularni aniqlashtirish ham lozim. Nutqdagi har bir so'z ma'lum ma'nogacha qisqartirilgan bo'lishi zarur. Bunga so'zni ma'lum kontekstga kiritish bilan erishiladi. Masalan, «Bu qanday mashina?» degan savol bilan bizni jismning o'zida qiziqtirayotgan holatni aniqlashtirmoqchi bo'lganimizda murojaat qilamiz, agarda «Bu kimning mashinasi?», deb savol bersak, bizni jism emas, uning kimga tegishliligi qiziqtirayotgani ma'lum bo'ladi.<sup>89</sup>[3]

Nutqda so'z ifodalari bilan etkaziladigan mazmundan tashqari, bizning so'zlayotganlarimizga nisbatan munosabatimiz ham ifodalanadi. Bu hodisa nutqning *emotsional-ifodali jihati* deb ataladi va iborani talaffuz qilishda qo'llaydigan so'zlarning jaranglash toni bilan belgilanadi.

---

<sup>89</sup>David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-421

Va nihoyat, nutq psixologik jihatdan mohiyatga ega bo'lgan u yoki bu ibora maqsadini aks ettiruvchi kontekstdan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, nutqiy muloqot – bu murakkab va ko'p tomonlama jarayon. A.N. Leontevning fikriga ko'ra, har bir nutq akti «o'ziga xos nutqning shakli va turi, aniq sharoitlar va muloqot maqsadlariga ko'ra, turli nutq vositalarini qo'llashni talab etuvchi psixologik muammoning echimini topishdan iborat». Xuddi shu nutqni tushunishga ham tegishlidir.

Muloqoting universal vositasi sifatidagi hozirgi zamon nutq holatigacha odamning uzoq davom etgan filogenezdagi taraqqiyot jarayoni bo'lib o'tgan edi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, nutq – bu insonga xos bo'lgan faoliyat. Nutq bilan birga til ham, ilk marotaba faqat insoniylik jamiyatida, hamkorlikdagi mehnat jarayonida yuzaga keldi.

Hozirgi zamon fan ma'lumotlariga ko'ra, dastlabki nutq vositasi **majmuiy kinetik nutq** bo'lgan. Nutqning bu shakli ibtidoiy obrazli tafakkur bilan bog'langan bo'lib, taxminan yarim million yil avval mavjud bo'lgan. Majmuiy kinetik nutq deb, tana harakatlari yordamida ma'lumot etkazishning sodda tizimiga aytiladi.

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichida nutq harakatlarining asta-sekin mehnat faoliyatidan ajralib, nutq vositalari sifatida ixtisoslashi, ya'ni, ularning **jestlarga** aylanishi bilan bog'liq. Harakatlarning nutqiy va mehnat harakatlariga bo'linishiga odamlar mehnat faoliyatining murakkablashishi sabab bo'ldi. Natijada maxsus **qo'l bola til** va **qo'l (kinetik) nutqi** paydo bo'ldi. Shunday qilib, odam qo'li mehnat va muloqotning asosiy vositasi bo'lib qoldi.

Tovushli nutqqa o'tish, taxminan, 100 ming yillar avval boshlangan bo'lishi mumkin. Bu ishlab chiqarishning rivojlanishi va mehnatning birlamchi bo'linishi bilan bog'liq bo'lgan. Qo'l nutqi bajara olmaydigan jism va hodisalar alohida **tushunchalar** tizimida aniqroq belgilanadigan, nutqqa bo'lgan talab paydo bo'ldi.

Muloqot jarayonida qo'l imo-ishoralari ma'lum mujmal tovushli ovoz bilan birga ijro qilingan. Asta-sekin nutq tovushlari rivojlanib, sayqallanib bordi. Vaqt o'tishi bilan ular kinetik nutq bajargan vazifalarni o'z zimmalariga oldilar, bundan tashqari, odam nutqi taraqqiyotini ta'minlab berdilar. Shunday qilib, nutq va til yangi sifat darajasi – tovushli aniq nutq darajasiga ko'tarildilar.

Dastlab tovushli nutq takomillashmagan edi. So'zlar, birlamchi, qo'l imo-ishoralari kabi juda umumiy, noaniq ma'noga ega edi. Bir xil so'z mazmuni turlicha bo'lgan jismlarni belgilashda qo'llanilishi mumkin edi (ibtidoiy polisemantizm). Ilk so'zlar yaxlit iboralar bilan ifodalangan, deb taxmin qilish mumkin, dastlabki nutq shakllari juda oddiy bo'lgan. Ularda yashirin ma'no, jumlar bo'lmagan. Nutq aniq maqsadlarda, qandaydir ma'lumotni etkazishdagina ishlatilgan. So'ngra mehnat ta'sirida so'z ma'nolari rivojlana borgan, va bu asta-sekin murakkab morfologiya va sintaksisga ega bo'lgan tilning shakllanishiga olib keldi.[2]

Nutq rivojlanishining keyingi bosqichi **yozuvning** yaratilishidir. YOzuvli nutq og'zaki nutq kabi o'z taraqqiyotida bir necha bosqichlardan o'tdi. Dastlab yozuv belgilari paydo bo'ldi, keyinroq esa, tovushli nutq paydo bo'lishi bilan yozuv

belgilari tovushlar ma'nosini aks ettira boshladi, bu esa harf-fonetik turdagi zamonaviy yozuvning yuzaga kelishiga olib keldi

Irsiy jihatdan nutq tafakkur bilan birga ijtimoiy-mehnat amaliyotida paydo bo'ldi va u bilan insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlandi. Nutq yaxlitligicha ong tomonidan boshqariladi. Ongning asosiy vazifasi – turmushni anglash, aks ettirish, til va nutq buni maxsus holatda bajaradilar: ular turmushni, belgilagan holda aks ettiradilar.

Til va nutq o'zaro farqlanadilar. Til – muloqot vositalarining qat'iy me'yoriy tizimi, nutq esa – muloqot jarayonida fikr va hissiyotlarni etkazish uchun qo'llanma. Til uni qo'llaydigan odamlar uchun bir xildir, nutq individual tarzda o'ziga xos bo'ladi. Nutqda alohida olingan odam yoki odamlar jamoasining psixologiyasi ifodalanadi, til esa o'zida halq psixologiyasini ifodalaydi.[2]

Shu bilan birga, nuq va tilning o'zaro aloqasi shubhasizdir, chunki ma'lum tilsiz nutq bo'lmagani kabi, nutqda qo'llanmaydigan til ham bo'lmaydi.

Demak, nutq – bu verbal kommunikatsiya, ya'ni, til vositasidagi muloqot jarayonidir. Inson nutqi xilma-xil shakllarga ega. Lekin nutqning qanday shaklidan foydalanmaylik, u nutqning ikki asosiy: *og'zaki* yoki *yozma* turlaridan biriga tegishli bo'ladi (6.2 rasm).

Bunda ikki tur ma'lum o'xshashlikka ega bo'ladi. Bu o'xshashlik hozirgi zamon tillaridagi yozma nutq, xuddi og'zaki nutq kabi tovushli ekanligidan iborat: yozma nutq belgilari bevosita ma'noni emas, so'zning tovush tarkibini etkazadi.

Og'zaki nutqning asosiy boshlang'ich ko'rinishi bo'lib, suhbat shaklida kechadigan nutq hisoblanadi. Bunday nutq *suhbat* yoki *dialog* deb ataladi. Uning asosiy xususiyati suhbatdosh tomonidan faol olib boriladigan nutq hisoblanadi, ya'ni, suhbat jarayonida ikki suhbatdosh ishtirok etib, tilning sodda gap va iboralarni qo'llaydilar. Dialog nutqning ochiq holda ifodalanishi talab etmaydi, chunki suhbatdosh suhbat davomida nima haqida so'z yuritilayotganini tushunadi va boshqa suhbatdosh tomonidan bildirilgan iborani fikran yakunlay oladi. SHunga o'xshash vaziyatlarda birgina so'z boshqa suhbatdosh tomonidan aytilgan iborani yakunlab qo'yishi mumkin. Bunda birgina so'z yaxlit iboraning o'rnini bosadi.[2]

Nutqning boshqa shaklini so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tashkil etadi, bunda tinglovchilar uning nutqini idrok qiladilar, lekin unda to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydilar. Bunday nutq *monolog* deb ataladi. Ma'ruzachining nutqi monologik nutq hisoblanadi. Bu nutq psixologik jihatdan dialogdan murakkabroqdir, chunki u tinglovchidan o'z mulohazalarini tushunarli, qat'iy mantiqqa asoslangan holda bayon qilish malakasini talab etadi. Bunda so'zlovchi etkaziladigan axborotning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishini baholashi zarur, ya'ni, u faqat o'z nutqinigina emas, balki tinglovchilarni ham kuzatishi kerak bo'ladi.

Dialog ham, monolog ham *faol* va *sust* bo'lishi mumkin. Nutqning faol shakli – bu so'zlovchining nutqi, tinglovchining nutqi esa sust shaklda namoyon bo'ladi. Gap shundaki, tinglayotganimizda tashqaridan unchalik sezilmasada, ichimizda so'zlovchining so'zlarini takrorlaymiz. Odamlar faol va sust nutq shakllarining rivojlanish darajasiga ko'ra ajratiladilar. Ko'pincha odam boshqa odamning nutqini yaxshi tushunadi, lekin o'zining fikrlarini etkazib berolmaydi. Va, aksincha, odam

etarlicha yaxshi soʻzlab berishi mumkin, lekin boshqalarni tinglashni umuman bilmaydi.[2]

Nutqning boshqa turi *yozma* nutq hisoblanadi. YOzma va ogʻzaki nutqlar oʻrtasida psixologik tafovutlar mavjud. Ogʻzaki nutqning yozma nutqdan farqlaridan biri ogʻzaki nutqda soʻzlarning qatʼiy ravishda ketma-ket kelishi, bir soʻz talaffuz etilganida undan oldin kelgan soʻz na soʻzlovchi va na tinglovchi tomonidan idrok qilinmasligidan iborat. YOzma nutqda boshqacharoq: yozayotgan ham, oʻqiyotgan ham oʻzlarining idrok maydonlarida bir vaqtning oʻzida soʻzlar qatoriga ega boʻladilar, ehtiyoj tugʻilgan vaziyatlarda esa bir necha satr yoki sahifa orqaga qaytishlari mumkin. YOzma nutqning ogʻzaki nutq oldidagi afzalligi shundan iborat. YOzma nutqni ixtiyoriy ravishda tuzish mumkin, chunki yozganlaringiz doimo koʻz oldingizda boʻladi. SHu bilan birga, yozma nutq murakkab nutq shakli boʻlib hisoblanadi, chunki u avvaldan oʻylab iboralar tuzish, mulohazalarni aniqroq bayon etishni talab etadi, negaki, unga emotsional tus berib, zarur imo-ishoralar bilan amalga oshira olmaymiz.

Nutqning yana bir – *kinestetik* shakli mavjud. Nutqning bu turi insonda oʻtmish davrlardan buyon saqlanib qolgan. Vaqt oʻtishi bilan nutqning ushbu turi oʻz vazifalarini yoʻqotgan va hozirda asosan nutqning emotsional-ifodali tarkibiy qismlari – imo-ishoralar sifatida qoʻllaniladi.

Lekin odamlarning kinestetik nutq avvalgidek nutqning asosiy turi boʻlib sanaladigan katta guruhi mavjud. Bunda kar-soqov boʻlib tugʻilgan yoki baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida soʻzlash yoki eshitish qobiliyatidan mahrum boʻlgan odamlar nazarda tutiladi. Albatta, hozirgi zamon kinestetik nutqi qadimgi kinestetik nutqdan tubdan farq qiladi. U bir muncha taraqqiy etgan boʻlib, belgili daraklarning yaxlit tizimiga ega.

Nutq turlarining ichki va tashqi nutq turlariga boʻlinishining yana bir umumiy koʻrinishi mavjud. Tashqi nutq muloqot, axborot almashinuv jarayonlari bilan bogʻliq. Ichki nutq, avvalambor, tafakkur jarayonini taʼminlash bilan bogʻliq.

Ogʻzaki, ayniqsa, yozma nutqqa tayyorgarlik koʻrishda soʻzlovchining oʻz ichida nutqni qaytarib olish davri mavjud. Mana shu ichki nutqdir. Unga parchalarga boʻlinganlik xosdir, u vaziyatga bogʻliq boʻladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida shakllanadi.[1]

Tashqi nutqning ichki nutqqa koʻchirilishi (interiorizatsiya) tashqi nutq tuzilishining qisqarishi bilan birgalikda kechadi, ichki nutqning tashqi nutqqa oʻtishi (eksteriorizatsiya) esa, aksincha, ichki nutq tuzilishini ochib berishni, uni mantiqiy, hamda grammatik qoidalarga muvofiq ravishda tuzishni talab etadi.

### ***3. Muloqotning inson filogenetik va ontogenetic rivojlanishidagi ahamiyati vazifalari va turlari***

Inson muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon boʻladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va individ oʻzini hayotga joriy etadi. Ruhij jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda boʻlish orqali, ilm olishga boʻlgan keng imkoniyatlar evaziga inson oʻzining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, shaxsga aylanadi.[2]

Tirik mavjudotlar muloqoti filo- va ontogenezdagi rivojlanadi. Bu rivojlanish jarayonning barcha asosiy tomonlari: mazmuni, maqsadlari va vositalarini egallaydi. Muloqotning filogenetik taraqqiyoti muloqot mazmunining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagi fikrlarda o'z ifodasini topadi:

- bir mavjudotdan ikkinchisiga etkaziladigan muloqot mazmunining yangi axborot bilan boyitilishi. Avvalo – bu organizmning ichki, biologik holatlari haqidagi ma'lumotlar; so'ngra – tashqi muhitning hayotiy muhim xossalari haqida axborot. SHundan so'ng muloqot mazmuniga kognitiv xususiyatga ega bo'lgan, ob'ektiv, tirik jonzotning xususiy ehtiyojlaridan mustaqil bo'lgan tushunchalar ko'rinishidagi olam haqida bilimlarini ifoda etuvchi axborot kiradi. Bu, endi, inson darajasida, muloqot evolyusion rivojlanishining birinchi ikki bosqichi esa hayvonlar darajasi sodir bo'ladi;

- maqsadlarning boyitilishi o'zaro muloqotda bo'ladigan organizmlar ehtiyojlarining o'zgarishi va rivojlanishi bilan bog'liq: bu ehtiyojlar qanchalik turlicha va yuksak bo'lsa, muloqotning maqsadli nuqtai nazari ham shunchalik xilma-xil va takomillashgan bo'ladi.

Muloqot vositalarining filo- va ontogenezdagi taraqqiyoti bir necha yo'nalishlarda boradi. Birinchidan, bu muloqotchanlik vositalarining maxsus organlari. masalan. qo'llarning ajralishi. Ikkinchidan, ekspressiv ko'rinishdagi harakatlar (imo-ishora, mimika, pantomimika)ning rivojlanishi. Uchinchidan, axborotlarni etkazish va kodlashtirishning vositasi bo'lgan belgili tizimlarni kashf etish va qo'llash. To'rtinchidan, insonlar muloqotida qo'llaniladigan axborot etkazish va qayta tuzish, saqlashning texnik vositalarini rivojlantirish va takomillashtirish (matbuot, radio, televidenie, telefon, telefaks, texnik yozuvning magnitli, lazerli va boshqa usullari va h.k.).

Bolaning ruhiy taraqqiyotida ontogenezning dastlabki bosqichi davridagi uning kattalar bilan muloqoti, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Muloqotda, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri taqlid qilish, keyinchalik vikar o'rganish, so'ngra esa, verbal o'rganish – iborali qoidalar orqali bolaning hayotiy tajribasi orttirilib boriladi. U bilan muloqotda bo'ladigan odamlar bola uchun bu tajribani tashuvchi bo'lib xizmat qiladi va muloqotdan tashqari, boshqa hech qanday vosita yordamida bunga erishib bo'lmaydi.[1]

O'z tadqiqotlarida R.S. Nemov inson muloqoti taraqqiyoti ontogenezi va uning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqadi. Uning ta'kidlashiga ko'ra, inson bolasi o'zida odamlar bilan emotsional muloqotga kirishishga bo'lgan layoqatni uch oyligida sezadi (jonlanish kompleksi), bir yoshga etganda esa uning ekspressiyasi shunchalik boyib ketadiki, muloqotning verbal tilini tezda o'zlashtirib olish, tovushli nutqdan foydalanish imkonini beradi.

R.S. Nemovning fikriga ko'ra, maktabgacha bo'lgan davrda odam muloqotining ontogenetik taraqqiyoti bosib o'tadigan asosiy bosqichlarni quyidagicha tasavvur qilib, ta'riflash mumkin:

1. ***Tug'ilgandan 2-3 oylikkacha bo'lgan yosh davri.*** Mazmun jihatidan biologik bo'lgan, bolaning hayotiy ehtiyojlarini qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi aloqaviy muloqot. Muloqotning asosiy vositasi – sodda mimika va oddiy imo-ishoralalar.

2. **2-3oylikdan 8-10 oylikkacha yosh davri.** Asosiy his-tuyg'u organlari faoliyatining boshlanishi va yangi taassurotlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan bilish muloqotining dastlabki bosqichi.

3. **8-12 oylikdan taxminan 1,5 yoshgacha bo'lgan davr.** Kognitiv ehtiyojlarga xizmat qiluvchi boshqariladigan, verbal-neverbal muloqot. Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga o'tish.

4. **1,5 yoshdan 3 yoshgacha.** Jismli faoliyat va o'yinning paydo bo'lishi bilan bog'liq faoliyat va o'yin muloqotining yuzaga kelishi. Faoliyat va shaxs muloqotiga bo'linishning dastlabki bosqichi.

5. **3 dan 6-7 yoshgacha bo'lgan davr.** Tabiatdan berilgan turli xildagi tabiiy belgilar yoki orttirilgan muloqot vositalarini ixtiyoriy ravishda tanlash va ulardan foydalanish. Syujetli-rolli o'yinlarga jalb qilish asosida paydo bo'ladigan syujetli-rolli muloqotning rivojlanishi.

Maktabga qadam qo'yishi bilan bolaning aqliy va shaxsiy o'sish jarayoni jadallashadi. Muloqot mazmuni chuqurlashadi va xilma-xillashadi, maqsadlar ko'payib, muloqotchanlik vositalari takomillashadi.<sup>90</sup>[3]

Muloqot turli-tuman vazifalarni bajaradi. Turli mualliflar muloqotning turli

#### 4. **Muloqot vazifalari va turlari**

vazifalarini ajratib ko'rsatadilar. G.M. Andreeva kommunikativ, interaktiv va perseptiv vazifasini sanab o'tadi. M.I. Enikeev axborotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, perseptiv-samarali va affektiv-ekspressiv (emotsional o'zini ifodalash) vazifalarini ko'rsatadi. A.A. Brudный: instrumental, sindikatli, translyasiya, o'zini ifodalash vazifalarini ajratadi. **Instrumental** – bu muloqotning harakatni bajarish uchun muhim axborotni etkazishdan iborat bo'lgan asosiy ishchi vazifasi. Bu vazifaga yaqin bo'lgan, lekin unga o'xshash bo'lmagan vazifa, birlashtirish – **sindikativ** vazifa. Ko'pchilik muloqot aktlarining bevosita maqsadlari katta va kichik guruhlardagi odamlar o'rtasidagi umumiylikni aniqlash va mustahkamlashdan iborat. Sindikativ vazifa bilan **o'zini ifodalash** vazifasi bir-biriga yaqindir. O'zini ifodalash o'z mohiyatiga ko'ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgan. Alohida o'rinni ijodiy faoliyatdagi o'zini ifodalash egallaydi, u faoliyat mahsuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u, odamlar o'rtasidagi muloqot predmetiga aylanadi. Va, nihoyat, muloqotning **translyasion** – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni etkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta'lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta'lim olishi amalga oshadi. L.A. Karpenko maqsadga ko'ra muloqotning sakkiz xil vazifasini belgilaydi: **aloqaviy** – xabarlar qabul qilish va etkazish, hamda o'zaro aloqada bo'lishga ikkala tomonning shayligi holati sifatida aloqa o'rnatish; **axborotli** – xabarlar, fikrlar, maqsadlar, echimlar va boshqalar almashinuvi; **chorlovchi** – muloqot bo'yicha sherikni u yoki bu harakatlarni bajarishga yo'naltiruvchi faolligini rag'batlantirish; **boshqaruvchi** – hamkorlik faoliyatini tashkil etishda harakatlarni o'zaro yo'naltirish va muvofiqlashtirish; **anglash vazifasi** – etkazilgan ma'lumotning mohiyatini mutanosib holda idrok qilish va tushunishgina emas,

<sup>90</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-422

balki, sheriklarning ham o‘zaro bir-birlarini tushunishlari (istaklari, mayllari, kechinmalari, holatlari va h.k.larni); **amotiv** – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg‘otish («hislar almashinuvi»), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o‘zgartirish; **munosabatlarni o‘rnatish** – individ mavjudligi kutilayotgan jamiyatdagi rolli, darajali, ish bo‘yicha, shaxslararo va boshqa aloqalari tizimlarida o‘z o‘rnini anglash va qayd etish; **ta’sir o‘tkazish** – sherikning holati, hulq-atvori, shaxsiy-mazmunli hosilalari, shuningdek, istaklari, mayllari, fikrlari, echimlari, tasavvurlari, ehtiyojlari, harakatlari, faolligi va boshqalarni o‘zgartirish. B.F. Lomov muloqotning quyidagi vazifalarini taklif etadi: axborotni qabul qilish-etkazish jarayonlarini o‘z ichiga olgan **axborot-kommunikativ**; hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda harakatlarni o‘zaro tuzatish bilan bog‘liq **boshqaruvchi-kommunikativ**, inson hissiyotlari sohasiga tegishli bo‘lgan va o‘z emotsional holatini o‘zgartirishdagi ehtiyojlarga javob beruvchi **affektiv-kommunikativ** vazifalar.[2]

Ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar real muloqot amaliyotida amalga oshiriladi.

Mazmun-maqсадlari va vositalariga ko‘ra muloqotni bir nechta turlarga bo‘lish mumkin. **Mazmuniga** ko‘ra, u **moddiy** (faoliyat jismlari va mahsulotlari almashinuvi), **kognitiv** (bilimlar almashinuvi), **konditsiv** (ruhiy va jismoniy holatlar almashinuvi), **motivatsion** (xohishlar, maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuvi), **faoliyatli** (harakatlar, muolajalar, malakalar, ko‘nikmalar almashinuvi) bo‘lishi mumkin.

Moddiy muloqotda sub’ektlar, shaxsiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan holda, uning mahsulotlari bilan almashadilar, ular o‘z navbatida dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Konditsiyali muloqotda odamlar o‘zlarini ma’lum jismoniy yoki ruhiy holatga keltirishga mo‘ljallangan bir-birlariga nisbatan o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar. Masalan, kayfiyatni ko‘tarish yoki, aksincha, uni tushirib yuborish; bir-birini qo‘zg‘atib yuborish yoki tinchlantirish, va, oqibatda, bir-birining kayfiyatiga ma’lum ta’sir o‘tkazish. Motivatsiyali muloqotning mazmuni bir-biriga ma’lum istak, mayllarni etkazish yoki ma’lum yo‘nalishda harakatlanishga shay bo‘lishlikdan iborat. Bunday muloqot sifatida insondagi biror maqsadga, boshqa odamda biror-bir intilishning paydo bo‘lishi yoki yo‘qolishi, kimdadir harakatga bo‘lgan ma’lum maylning yuzaga kelishi, qandaydir ehtiyojning dolzablashtirilishi uchun etishish istagining kuchliligi kabi vaziyatlarni keltirish mumkin. Kognitiv va faoliyatli muloqotning ifodasi bilish yoki o‘quv faoliyatining turlari bilan bog‘liq muloqot bo‘la oladi. Bunda sub’ektdan sub’ektga dunyoqarashni kengaytiruvchi, layoqatlarni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi axborot etkaziladi.[2]

**Maqsadlariga** ko‘ra, muloqot xizmat ko‘rsatish ehtiyojlariga muvofiq holda biologik va ijtimoiy turlarga bo‘linadi. **Biologik** – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq. **Ijtimoiy** muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini o‘rnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni nechta turga ajratish mumkin bo‘lsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari bo‘lishi mumkin.

**Vositalariga** ko'ra, muloqot bevosita va vositali, to'g'ridan –to'g'ri va bilvosita bo'lishi mumkin.

**Bevosita muloqot** tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. **Vositali muloqot** muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog'liq. Bular yo tabiiy (yog'och, erdagi izlar va h.k.) yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) jismlar.

**To'g'ridan-to'g'ri muloqot** shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. **Bilvosita muloqot** vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot turlari orasida, shuningdek, ish bo'yicha va shaxsiy, instrumental va maqsadli kabi turlarni ajratish mumkin.[1]

**Ish bo'yicha muloqot**, odatda, xususiy qism sifatida insonlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatiga kiritilgan va bu faoliyatning sifatini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uning mazmuniga odamlar ichki dunyosining muammolari emas, balki ularning nima bilan mashg'ulliklari kiradi. Ish bo'yicha muloqotda suhbatdoshning shaxs, xarakter, yosh, kayfiyat xususiyatlari hisobga olinadi, lekin ishdan ko'riladigan manfaat shaxsiy ixtiloflardanda ustun va muhimdir. Ish bo'yicha muloqotdan farqli ravishda **shaxsiy muloqot**, aksincha, asosan, ichki xarakterning psixologik muammolariga, inson shaxsini chuqur va yaqinlik bilan ochib beradigan: hayot mazmunini izlash, muhim insonga, atrofdagi voqealarga, qandaydir ichki nizolini hal etishga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratilgan.

**Instrumental** muloqot sifatida mustaqil ehtiyoj bilan rag'batlantirilmaydigan, maqsadga aylanmagan, lekin muloqot aktining o'zidan qoniqishdan tashqari, qandaydir boshqa maqsadga qaratilgan muloqotni keltirish mumkin. **Maqsadli** – bu o'z holicha maxsus ehtiyojni, ushbu vaziyatda muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi muloqot.

Ta'kidlab o'tish lozimki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotning quyidagi turlarini ajratadilar:

1. «**Niqoblar aloqasi**» - suhbatdoshning shaxs xususiyatlarini tushunish va hisobga olishga intilish mavjud bo'lmagan rasmiy muloqot bunda haqiqiy hissiyotlar, istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, odatiy xushmuomalalik, dimog'dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarining to'plami qo'llaniladi.

2. **Oddiy muloqot**da boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi ob'ekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo'lsa, aloqaga faollik bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo'lsa, – itarib yuboradilar, yoki tahdidli qo'pol iboralarni qo'llaydilar.

3. **Rasmiy-rolli muloqot** – bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqot (boshliq – qo'l ostidagi xodim, sotuvchi – xaridor, servis xizmati xodimi



– mijoz). Bunda ma'lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritilib, muloqot mazmuni va vositalari ularga bo'ysundirilgan.[1]

4. **Boshqariladigan muloqot** suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni ( xushomad, qo'rqitish, aldov va boshqalar) qo'llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.

5. **Dunyoviy muloqot** – bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo'lmasligidan iborat, ya'ni, odamlar o'z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiy bo'lgan fikrlarni bildiradilar.

6. **Havoyi muloqot** – bu muloqot uchun muloqot.

7. Do'stlarning **ma'naviy, shaxslararo muloqoti** vaqtida istalgan mavzuni qo'zg'atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin.

Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo'lmaydi. U jadal va ko'p tomonlama muloqotsiz paydo bo'lmaydigan individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi.

Odamlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir ( 6.1 rasm).

**Noverbal muloqot** til, tovush nutqining qo'llanilishiga asoslanmagan bo'lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko'rish, eshitish, hid bilish, hamda, boshqa sezgi va tasavvurlar. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko'pchiligi tug'ma bo'lib, faqat o'ziga o'xshashlar bilan emas, balki, boshqa tirik jonzotlar bilan ham hissiyot va hulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o'zaro ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

**Verbal muloqot** faqat insonga xos bo'lib, zarur shart sifatida tilni o'zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk shoir Sa'diyning so'zlarini yodda tutish lozim: «Aqling bormi yoki yo'q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so'z atmaguningcha». Verbal (nutq) muloqot tarkibiga: **so'zlar, iboralar ma'nosi** va **mohiyati** kiradi. Asosiy o'rinni so'zning qo'llanilish aniqligi, uning ifodalanishi va hammabopligi, tovushlar, so'zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. **Nutqdagi tovush hodisalari:** nutq jadalligi, tovush balandligi modulyasiyasi, tovush toni, nutq vazni, tovush sifati, ohangi, aniqligidan iborat. **Tovush sifatining ifodalanishi:** o'ziga xos maxsus tovushlar: kulgu, hiqillash, yig'i, pichirlash, xo'rsinishlar va boshqalar; ajratuvchi tovushlar – bu yo'tal; ahamiyatsiz tovushlar – tanaffuslar, shuningdek, nazalizatsiya tovushlari – «xm, xm», «e-e-e», «o-o-o» va boshqalar.

Tadqiqotlarga ko'ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so'zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo'lmagan o'zaro ta'sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: «Ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz».[1]

Kundalik muloqotda odamlar ko'proq quyidagi fanlar o'rganadigan muloqotning noverbal vositalaridan foydalanadilar: **kinestetika** (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), **mimika** (yuz mushaklarining harakati), **imo-**

*ishoralar* (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), *pantomimika* (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), *takesika* (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo‘l siqish, o‘pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), *proksemika* (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalarini ajratadilar: *yaqinlik sohasi* (15-45 sm), *shaxsiy* yoki *xususiy soha* (45-120 sm), *ijtimoiy soha* (120-400 sm), *ommaviy soha* (400 smdan ortiq)).

Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning ko‘proq ma‘lumot olish mumkin bo‘lgan vositalari. Peshona, qoshlar, og‘iz, ko‘zlar, burun, iyak – bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari: hijron, g‘azab, shodlik, ajablanish, qo‘rqinch, nafrat, baxt, qiziqish, qayg‘u va boshqalarni ifodalaydilar.

Muloqot turlaridan tashqari, uning ba‘zi shakllarini ham ajratish mumkin, bular: rasmiy-ish yuzasidan, mutaxassislik, xususiy, ommaviy, pedagogik muloqot, autokommunikatsiya (o‘zi bilan muloqot)lardir.[2]

Muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma‘lum davrlarga ega. Eng mas‘uliyatli davr *tayyorgarlik davri* – muloqotni rejalashtirish, o‘zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – *aloqaga kirishish*. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o‘zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda *diqqatni jamlash davri* boshlanadi. Keyingi bosqich – *motivatsion zondaj*. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So‘ngra *diqqatni mustahkamlash bosqichi* boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo‘lsa, *asoslash va ishontirish bosqichi* keladi. Va, nihoyat, *natijalarni qayd etish bosqichi* boshlanadi. Agar mavzular ko‘rib chiqilgan bo‘lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba‘zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Muloqot tuzilishida uch xil o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tomonlar: kommunikativ yoki kommunikatsiyani, interfaol va perseptiv nuqtai nazarlarni ajratib ko‘rsatadilar.

### **5. Muloqot axborot almashinuvi sifatida**

*Kommunikatsiya* – bu o‘zaro hamfikrlilikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni. Gap tor ma‘nodagi kommunikatsiya haqida ketganida, odamlarning hamkorlikdagi faoliyati davomida ularning o‘zaro turli taassurotlar, g‘oyalar, qiziqishlar, kayfiyatlar, hissiyotlar, mayllar va h.klar bilan almashinuvi ko‘zda tutiladi. Lekin kommunikativ jarayonda ma‘lumotlarning oddiy almashinuvi emas, balki, kamida ularning faol almashinuvi sodir bo‘ladi.

Odamlar o‘rtasidagi axborot almashinuvining xususiyati sheriklarning belgili tizim vositasida bir-birlariga o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishlari bilan belgilanadi, boshqacha aytganda, bunday axborot almashinuvi sherikning holati, hissiyoti va

hulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishini taxmin qiladi. Bunday vaziyatda muloqot belgisi mehnat quroliga o'xshash vazifani bajaradi.[2]

SHunday qilib, kommunikativ ta'sir bir kommunikativning boshqasiga uning hulq-atvorini o'zgartirish maqsadida ko'rsatadigan psixologik ta'siridan o'zga narsa emas. Kommunikatsiya samaradorligi bu ta'sirning, aynan, qanchalik ro'yobga chiqqanligi bilan o'lchanadi.

Istalgan axborot belgisi tizimlar vositasida etkazilishi mumkin. Psixologiyada verbal (nutq) va noverbal (nutqiy bo'lmagan vositalar) kommunikatsiyu mavjud. Nutq kommunikatsiyaning universal vositasidir. Nutq insonning boshqalar bilan tabiiy til vositasida amalga shiriladigan muloqot jarayoni demakdir. Muloqot samaradorligi muloqotdagilar uchun umumiy tilni, shuningdek, ta'lim, umumiy madaniyat va nutq madaniyati kabi muhim bo'lgan omillarni belgilab beradi. Verbal nutq muloqotning noverbal vositalaridan foydalanish bilan to'ldiriladi.

Psixologiyada noverbal muloqotning to'rt xil shakllari mavjud: kinesika, paralingvistika, proksemika va vizual muloqot.[2]

**Kinesika** – bu imo-ishoralar, mimika va pantomimikadan iborat bo'lgan muloqot vositalari tizimi. Paralingvistik va ekstralingvistik belgilar tizimi, shuningdek, nutq kommunikatsiyasi «qo'shimchalar»idan iborat. **Paralingvistik tizim** – bu vokallashtirish tizimi, ya'ni, tovush sifati, uning ko'lami, tonalligi. **Ekstralingvistik tizim** – nutqqa tanaffus va boshqalarni, masalan, tin olish, yo'talish, yig'i, kulgu, nutq jadalligini kiritish.

**Proksemika** – psixologiyaning muloqotni fazoda va vaqt bo'yicha tashkil etish talablari bilan shug'ullanadigan maxsus sohasi. Proksemikaning asoschisi amerikalik antropolog E. Xolldir. Proksemik xususiyatlarga sheriklarning muloqot vaqtidagi yo'nalishi va ular o'rtasidagi masofa kiradi.

**Vizual muloqot** – bu ko'zlar orqali aloqa. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, servis sohasi bilan bog'liq ish faoliyatida verbal, hamda noverbal aloqalar bo'yicha o'z malakalarini muntazam oshirib boradiganlarga omad kulib boqadi.

Samarali muloqot uchun odam o'zida **kommunikativ omilkorlikni** rivojlantirishi kerak, bu boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish va quvvatlab turish qobiliyatidir. Samarali kommunikatsiyaning belgilari: sheriklarning hamfikrligiga, vaziyat va muloqot predmetini yaxshiroq tushunishga erishish. Salbiy kommunikatsiya, kommunikativ to'siqlarning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:[1]

- stereotiplar – alohida shaxs yoki vaziyatga tegishli bo'lgan soddalashtirilgan fikrlar, natijada odamlar, vaziyatlar, muammolarning ob'ektiv tahlili va anglashga erishilmaydi;

- «yanglish tasavvurlar» - xususiy qarashlarga qarama-qarshi, yangi, noodatiy bo'lganlarni inkor etishga moyillik;

- odamlar o'rtasidagi yomon munosabatlar, odamning munosabati adovatli bo'lgani uchun fikringizning adolatli ekanligiga ishontirish qiyin bo'ladi;

- muloqotda suhbatdoshning e'tibori va qiziqishining mavjud emasligi;

- ma'lumotlarni mensimaslik, ya'ni, etarli ma'lumotlarga ega bo'lmasdan turib, xulosa chiqarish odati;

- e'tiroflarni tuzishdagi xatoliklar: so'zlarni to'g'ri tanlay olmaslik, etkazishning murakkabligi, zaif ishontirish, mantiqsizlik va h.k.;

- muloqotni olib borish yo'nalishi va vositalarini noto'g'ri tanlash.

Muloqot yo'nalishi: ochiq – yopiq muloqot; monologik – dialogik; rolli (ijtimoiy roldan kelib chiqqan holda) – shaxsiy («dildan» muloqot). Ochiq muloqot – o'z qarashlarini to'la ifodalash va boshqalarda ham uni hisobga olish istagi va malakasi. Yopiq muloqot – o'z fikri, munosabati, mavjud bo'lgan axborotni tushunarli tarzda ifodalash malakasi yoki istagining mavjud emasligi.

SHunday qilib, inson kommunikatsiyasining samaradorligi muloqotda hisobga olinishi zarur bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq.[1]

### **6. Muloqot o'zaro ta'sir sifatida**

Muloqotning interfaol tomoni – bu odamlarning o'zaro ta'sirlashuvi, ularning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish bilan bevosita bog'liq bo'lgan muloqot tarkibiy qismlarining xususiyatlarini

anglatuvchi atama.

Muloqot va o'zaro ta'sirning aloqasi muammosiga tegishli bo'lgan turli nuqtai nazarlar mavjud. Ba'zi mualliflar muloqot va o'zaro ta'sirni tenglashtirib, ikkisini ham tor ma'nodagi aloqa sifatida tushuntiradilar; boshqalar muloqot va o'zaro ta'sir o'rtasidagi munosabatni biror jarayon shakli va uning mazmuni o'rtasidagi munosabat sifatida ta'riflaydilar; uchinchi mualliflar muloqotni aloqa sifatida va o'zaro ta'sirni interaksiya sifatida bir-biriga bog'langan, lekin aslida mustaqil holda mavjudligi haqida mulohaza yuritishni afzal biladilar.[2]

Agar kommunikativ jarayon hamkorlikdagi faoliyat asosida yuzaga kelgan bo'lsa, u holda bu faoliyatga tegishli bilimlar va g'oyalar bilan almashish, erishilgan hamfikrlik faoliyatni yanada rivojlantirish bilan bog'liq yangi urinishlarda amalga oshirishini belgilab beradi. Bir vaqtning o'zida ko'pchilikning bu faoliyatda qatnashishi har bir ishtirokchining unga o'zining alohida hissasini qo'shishi kerakligini bildiradi, bu esa o'zaro ta'sirni qo'shma faoliyatning tashkil etilishi sifatida tushuntirish imkonini beradi. Bunday faoliyat davomida ishtirokchilarning axborot almashibgina qolmay, «harakatlar almashinuvi»ni tashkil etishlari, umumiy faoliyatni rejalashtirishlari ham o'ta muhimdir.

O'zaro ta'sir tuzilishi ketma-ket amalga oshiriladigan fazoviy, psixik, ijtimoiy aloqa sifatida, o'zaro ta'sir harakatlari sherikchilik, ijtimoiy munosabatlar (o'zaro qo'shilgan harakatlar tizimi) tomonidan bildiriladigan muvofiq keluvchi javob olish maqsadiga ega bo'lgan harakatlarni tizimli amalga oshirish sifatida ifodalanishi mumkin.[1]

Psixologiyada barcha mavjud bo'lgan o'zaro ta'sir turlari ikki qarama-qarshi turga bo'linadi: kooperatsiya (hamkorlik) va raqobatchilik (nizoli). **Kooperatsiya** hamkorlik faoliyatini tashkillashtirish, guruh maqsadlariga erishishni ta'minlab beruvchi o'zaro ta'sir hisoblanadi. **Nizoli** – bu o'zaro ta'sir sub'ektlarining qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlari, qiziqishlari, fikrlari, qarashlari, mulohazalarining to'qnashuvi. An'anaviy tarzda nizoli o'zaro ta'sirning salbiy turi sifatida ko'rib chiqiladi. Lekin oxirgi vaqtda qator tadqiqotlar nizolining ijobiy tomonlarini aniqladilar.

Muloqotning aniq mazmuni o‘zaro ta’sir sifatida ishtirokchilar tomonidan faoliyatning yagona jarayoniga qo‘shiladigan individual hissalarining ma’lum nisbati bo‘lib hisoblanadi.

L.I. Umanskiy qo‘shma faoliyatni tashkil etishning uch xil shaklini keltiradi:

1. ***Qo‘shma-individual faoliyat*** – har bir ishtirokchi bir-biridan mustaqil holda umumiy ishning o‘ziga tegishli qismini bajaradi.

2. ***Qo‘shma-tadqiqot faoliyati*** – umumiy vazifa har bir ishtirokchi tomonidan ketma-ket bajariladi.

3. ***Qo‘shma-o‘zaro harakat faoliyati*** – har bir ishtirokchi boshqalar bilan bir vaqtning o‘zida o‘zaro harakatda bo‘ladi.[2]

O‘zaro harakatning real mexanizmi psixologik jihatdan ishtirokchilar o‘rtasida bir-birini tushunish qay tarzda paydo bo‘lishini tahlil etish asosida tushuntirilishi mumkin. O‘zaro harakatni belgilash va olib borish o‘zaro hamfikrlik asosida ishlab chiqilishi mumkin. Agarda o‘zaro ta’sir harakatlarini belgilash bajariladigan ijtimoiy faoliyatdagi ijtimoiy munosabatlar xususiyati bilan belgilab berilgan bo‘lsa, o‘zaro ta’sir harakatlarini olib borish bevosita sherik haqidagi tasavvur bilan belgilanadi. Bu ikki holatning birligida o‘zaro ta’sir harakatlarining real holati yuzaga keladi. Uning muhim xususiyati – qarorni birgalikda qabul qilish. SHunday qilib, o‘zaro ta’sir mexanizmini bilish uchun bir individning fikrlari, motivlari va mayllari uning sherigi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelishi va ularning birgalikda qaror qabul qilishlarida namoyon bo‘lishini aniqlab olish zarur.[1]

### ***7. Muloqot odamlarning bir-birini idrok qilishi sifatida***

Bo‘yicha, boshqa odamni «o‘qiymiz», uning tashqi belgilarining ma’nosini anglaymiz. Bunda hosil bo‘lgan taassurotlar muloqot jarayonida muhim boshqaruvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. CHunki, birinchidan, boshqa odamni bilganimiz sayin o‘zimiz ham shakllana boramiz. CHunki, ikkinchidan, boshqa odamni «o‘qishning» aniqligiga, u bilan muvofiqlashgan harakatlarni tashkil etish samarasi bog‘liqdir.[2]

Boshqa odam haqidagi tasavvur shaxsiy o‘zini anglash darajasi bilan uzviy bog‘langan: boshqa odam qanchalik to‘liqroq ochib berilsa, odamning o‘zi haqidagi tasavvuri shunchalik to‘la bo‘ladi. Boshqa odam bilish davomida bir vaqtning o‘zida bir necha jarayonlar amalga oshiriladi, bularga: boshqa odamni emotsional baholash, uning xatti-harakatlari tuzilishini tushunishga urinish, o‘zining hulq-atvorini belgilash.

Lekin bu jarayonlarga kamida ikki odam jalb etiladi, va ularning ikkisi ham faol sub’ekt bo‘lib hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, o‘zini boshqalar bilan qiyoslashtirish ikki taraflama amalga oshiriladi: sheriklardan har biri o‘zini sherigiga o‘xshatadi. Demak, o‘zaro harakatni belgilashda u faqat sherigining ehtiyojlari, motivlari, mayllarini emas, balki, sherigi uning ehtiyojlari, motivlari, mayllarini qanday tushunishini ham hisobga olishi kerak bo‘ladi. Buning barchasi

Bir odamning boshqasi tomonidan idrok etilish jarayoni muloqotning zarur tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi va persepsiya deb ataladi. Hulq-atvorning tashqi tomoni asosida biz, S.L. Rubinshteyn fikrlari

o'zini boshqa odam orqali anglash tahlili ikki taraf: o'xshatish va refleksiya bilan iborat bo'lishiga olib keladi. Boshqa odamni tushunishning oddiy usullaridan biri o'zini unga o'xshatishdir.[2]

O'xshatish va mazmuniga ko'ra unga yaqin bo'lgan hodisa – empatiya o'rtasida uzviy bog'liqlik o'rnatilgan. *Empatiya* affektiv «tushunish» demakdir. Uning emotsional tabiati boshqa odamning, muloqot bo'yicha sherik vaziyati «o'ylab o'tirilmasdan» «his etiladi». Bunda boshqa odamning muammosini anglab etish emas, balki, muammolarini echishda unga emotsional ko'mak berish ko'zda tutiladi.

Ma'lum ko'rinishda empatiya mexanizmi o'xshatish mexanizmi bilan hamohangdir: ikkalasida ham o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yish, hodisalarga uning nuqtai nazari bilan qarash malakasi o'rin egallaydi. Lekin hodisalarga boshqa birovning nazari bilan qarash deganda o'zini o'sha odam bilan tenglashtirishni bildirmaydi.[1]

Agarda men shirigimga nisbatan empatiyani namoyon qiladigan bo'lsam, men faqat uning hulq-atvorini e'tiborga olgan bo'laman, lekin shaxsiy o'zimga nisbatan boshqacha tarzda qurishim mumkin. Bu va boshqa holatlarda boshqa odamning hulqini hisobga olish shundoqqina ko'rinib turadi, lekin bizning hamkorlikdagi harakatlarimiz natijasi turlicha bo'ladi: muloqot bo'yicha sherikni tushungan holda uning tutgan yo'lini ma'qullash boshqa, uning fikrini qabul qilib, o'zi bilganicha harakt qilish boshqa masaladir.

Bu ko'rib chiqilgan ikki xil masala yana bir masalani hal etishni talab etadi: o'sha «boshqa», ya'ni, muloqot bo'yicha sherigim meni qanday tushunar ekan. Bir-birini tushunish jarayoni refleksiya hodisasi bilan «murakkablashadi». *Refleksiya* deganda individning muloqot bo'yicha sherigi tomonidan qanday idrok etilishini anglashi tushuniladi. Endi bu oddiy boshqa birovni bilish yoki tushunish emas, balki, boshqaning meni qanday tushunishi, bir-birini aks ta'sir ettirishning ikkilangan o'ziga xos jarayonidir, sherikning ichki olamini yaratadigan, bunda o'z navbatida mening ham ichki olamim aks etadigan chuqur, ketma-ket o'zaro aks ettirishdir.[1]

Odamlarni to'g'ri idrok qilish va baholashga halaqit beruvchi omillar mavjud. Ularning asosiysi quyidagilarda iborat:

1. Muloqot vaziyatlarini ushbu vaziyatda odamlar muloqotining maqsad va vazifalari, xohishlari va motivlari; qo'yilgan maqsadlarga erishishga mos keladigan hulq shakli; kuzatuv vaqtida odamlar kayfiyati va masalalar holati kabi belgilari bo'yicha farqlay olmaslik.

2. Kuzatuvchida boshqa odamni idrok qilish va baholash jarayoni real holatda boshlanmasdan turib, avvaldan belgilangan mayllar, baholash, fikrlarning mavjudligi. Bunday mayllar, odatda, «Ko'rish va baholashga arziqli nima bor o'zi? Men shundog'am bilaman ...» kabi fikrlarda namoyon bo'ladi.

3. SHakllanib bo'lgan stereotiplar asosida kuzatuvdagi odamlar oldindan ma'lum guruhlariga ajratiladi, va diqqatni u bilan bog'liq qirrani izlashga yo'naltiradigan mayl shakllanadi, masalan, «Barcha o'g'il bolalar qo'pol bo'ladilar», «Barcha qizlar samimiy emasdirilar».

4. Baholanayotgan inson shaxsi haqida etarlicha to'liq va ishonchli ma'lumot olinguniga qadar oldindan xulosa chiqarishga intilish. Ba'zi odamlar, masalan, birov bilan birinchi marta ko'rishishi yoki uchrashishi bilanoq, u haqda «tayyor» fikrga ega bo'ladilar.

5. Boshqa odamlarning fikriga quloq tutish istagi va odatining mavjud emasligi, inson haqidagi faqat o'zining shaxsiy taassurotiga ishonish, uni ma'qullashga intilish.

6. Tabiiy sabablarga ko'ra, vaqt o'tishi bilan sodir bo'ladigan odamlarga baho berish va idrok qilishdagi o'zgarishlarning mavjud emasligi. Bunda inson haqida yangi ma'lumotlarning to'planganligiga qaramay, avval bildirilgan fikrlarning o'zgarmasligi holati ko'zda tutiladi.

Odamlarning bir-birini qanday idrok qilishi va baholashini chuqur anglashda *kauzal atributsiya* hodisasi muhim ahamiyat kasb etadi. U sub'ekt bilan shaxslararo idrok qilish sabablari va boshqa odamlar hulq-atvor metodlarini tushuntirib berishdan iborat. Kauzal atributsiya jarayonlari odamlarning bir-birilari tomonidan tushunishlariga ta'sir etuvchi quyidagi qonuniyatlarga bo'ysunadi:

- tez-tez takrorlanib turuvchi va kuzatiladigan hodisalarga hamrohlik qiluvchi voqealar, odatda, uning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablari sifatida o'rganiladi;

- tushuntirib bermoqchi bo'lgan xatti-harakatimiz noodatiy bo'lib, ungacha biror noyob hodisa bo'lib o'tgan bo'lsa, biz aynan shuni amalga oshirilgan harakatning asosiy sababi sifatida hisoblashga moyil bo'lamiz;

- odamlar xatti-harakatlarini noto'g'ri talqin qilish ularni tushuntirish mumkin bo'lgan ko'plab turlicha, bir xilda ehtimollikka

ega bo'lgan imkoniyatlar mavjud bo'lganida, o'z talqinini taklif etayotgan inson o'ziga qulay bo'lgan holatni tanlashga haqli bo'lgan vaziyatda o'rinli bo'ladi.

Qo'shimcha baho berish hodisasi inson boshqa odam haqidagi ma'lumotlar taqchilligi sharoitlarida yuzaga keladi: bu holatni qo'shib yozish jarayoni bilan o'zgartirish mumkin. Bu jarayon ikki ko'rsatkich: xatti-harakatning odatiyligi darajasi va ijtimoiy «istalganligi» yoki «istalmaganligi» darajasiga bog'liqdir.[1]

Birinchi holatda, tipik hulq-atvor rolli namunalar tomonidan belgilangan hulq-atvor bo'lgani uchun, uni tushuntirish oson kechishi ko'zda tutiladi. Aksincha, o'zgacha hulq-atvorni turlicha tushuntirish, shuningdek, sabablari va xususiyatlarini ham keng ko'lamda tasvirlash mumkin. Xuddi shunday, ikkinchi vaziyatda ham, ijtimoiy «istalgan» hulq-atvor deb ijtimoiy va madaniyat qoidalariga mos keladigan, oson tushuntiriladigan va bir ma'noni anglatuvchi hulq-atvor tushuniladi. Bu qoidalar buzilganida mumkin bo'lgan tushuntirishlar ko'lami ham kengayadi.

## MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Muloqot:

a) shaxsning mohiyatga ega bo'lgan xususiyati;

b) faoliyat kabi ahamiyatli bo'lgan, inson turmush tarzining bir tomoni;

v) insonning boshqa odamlar bilan o'zaro ta'sirlashuv shakli;

g) ikki va undan ortiq odamlarning bilish yoki affektli-baholash xususiyatli axborot almashinuvidan iborat bo‘lgan o‘zaro ta’sirlashuvi.

2. SHaxslararo munosabatlar – bu:

a) odamlar o‘rtasida faoliyat va guruhlardagi muloqotda o‘rnatiladigan munosabatlar;

b) rahbarlar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlar;

v) tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar;

g) faoliyat jarayonidagi odamlar o‘rtasidagi dialoglar.

3. Muloqot, odatda, .... tomonlarining birligida namoyon bo‘ladi:

a) axborotli, perseptiv, yo‘nalishli;

b) interfaol, kommunikativ, nutqiy;

v) shaxslararo, kognitiv, kommunikativ, emotiv, konativ;

g) bilish, emotsional, shaxslararo.

4. Muloqotda o‘zini boshqa odamga o‘xshatish yo‘li bilan uni tushunish xususiyatiga ega bo‘lgan shaxslararo idrokning bosh mexanizmlaridan biri:

a) ijtimoiy-psixologik refleksiya;

b) stereotiplashtirish;

v) empatiya;

g) identifikatsiya.

5. Imo-ishoralar, mimika va pantomimika – bu .... muloqot vositalari:

a) optik-kinestezik;

b) paralingvistik;

v) ekstralingvistik;

g) fazoviy-vaqtli.

## 17. MAVZU: SHAXS

### REJA:

1. «Shaxs» tushunchasi tarixi va uni psixologik tarzda tushunish.

3. Shaxs tuzilishi.

4. Shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy nisbatlar muammosi.

5. Shaxs haqida psixologik nazariyalar.

6. O‘zini anglash, o‘zini baholash va shaxsiy da’vogarlik darajasi.

7. Shaxsning psixologik himoyasi.

8. Shaxs shakllanishi va taraqqiyoti.

### 1. «Shaxs» tushunchasi tarixi va uni psixologik tarzda tushunish.

Shaxs tushunchasi «yuz», «soxta qiyofa» so‘zlaridan kelib chiqadi. Qadimgi rus tilida «soxta qiyofa» so‘zi «rol», ya’ni, odam boshqalar bilan muloqotda bo‘lganida kiyib oladigan biror-bir ijtimoiy niqob ma’nosini anglatuvchi «rol»ni bildirar edi. Lotincha persone so‘zi ham shu ma’noni anglatadi. Per sonare – niqob ortidan so‘zlashish. Qadimgi yunon, keyinchalik esa qadimgi rim teatrlarida akter sahnaga u yoki bu – yovuz, laganbardor, payg‘ambar, qahramon xarakterlari chizilgan niqobda



chiqardi. Niqobning bo‘yoqlari ijtimoiy vazifani bajaruvchi, u yoki bu rolni ijro etayotgan insonning ahloqiy belgilariga ishorat edi.[2]

Qadimgi Yunonistonda «shaxs» tushunchasiga mos keluvchi atama ishlab chiqilmagan edi. O‘zining betakror taqdiriga ega bo‘lgan shaxs haqida Aflotun bilmas edi, bilishni ham xohlamasdi. Uning o‘rnini ruh egallagan edi. Arastuning «Jon haqida» asari hozirgi zamon psixologiyasiga yo‘l ochib berdi.

Qadimgi Rim oldinga qadam tashladi. Rim huquq ilmida yunoncha boshning yuz qismini, tashqi ko‘rinish, bundan tashqari, tragediyada ishtirok etuvchi ijrochini belgilovchi prosopon o‘rniga, lotincha persona so‘zi qo‘llanildi, bu so‘z avvaliga, yunoncha so‘zga o‘xshab, tragediyadagi akterning roli va niqobini anglatar edi. Lekin keyinchalik alohida individning nomi sifatida saqlanib qoldi. Rim fuqarosi huquqiy va diniy zot, avlodlar ismi-sharifi va mulk egasi sifatida ta’riflanadi.

Sharqda umuman boshqacha holat edi. Induizm va buddizm da shaxs inkor etilib, faqatgina «o‘zlik» e’tirozsiz tan olinadi.

K. Yungning psixoanaliz nazariyasiga asosan «shaxs» tushunchasi odamning jamiyatdagi ijtimoiy roli bilan bog‘liq. Hayoti jarayonida u ijtimoiy talablarga mos ravishda o‘zini tutishni o‘rganadi. Har bir kasb uchun, masalan, jamiyat a’zosi taqib yuradigan ma’lum niqob xosdir. Shaxs xarakterni tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanmaydi, lekin u bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ichki «Men»ning himoyasi sifatida faoliyat yuritadi.

Ko‘pgina tillarda mavjud bo‘lgan «o‘zlikni yo‘qotish» iborasi o‘zining egallab turgan o‘rnini va darajasini yo‘qotishni bildiradi.

Sharq tillarida (xitoy, yapon) shaxs tushunchasi odamning yuzi bilan emas, balki butun tanasi bilan bog‘lanadi. Yevropa an’analarida yuz tana bilan birgalikda o‘rganiladi, chunki inson chehrasi ruhining timsolidir, xitoyliklar tafakkurida esa «hayotchanlik» tushunchasiga individning ham ma’naviy, ham vujudiy sifatleri kiradi.

Shu asosda, avval boshidan «shaxs» tushunchasiga ma’lum hayotiy rollarni ijro etganda o‘ziga xoslikka ega bo‘ladigan tashqi, yuzaki ijtimoiy obraz – qandaydir «shaxs», atrofdagilarga qaratilgan ijtimoiy yuz ifodasi kiritilgan edi.

Pedagogika, psixologiya va falsafada shaxsga o‘xshash ko‘plab qarama-qarshi ta’riflari keltirilgan ilmiy tushunchani uchratish amri mahol. Mashhur ruhshunos V.P. Zinchenko fikriga ko‘ra: ««Inson» tushunchasi bilan faqat «shaxs» tushunchasi raqobatlashishi mumkin». Olim D.B. Elkonin adabiyotlarda shaxsning yigirmaga yaqin ta’rifini ko‘rib chiqqandan so‘ng uning o‘zi shaxs emasligini xulosa qildi.

Narx tushunchasini tilla tanga yoki qimmatli qog‘ozning fizik-kimyoviy tarkibini tadqiq qilish bilan tushuntirish qiyinchilik tug‘dirgani kabi, faylasuf E.V. Ilenkovning yozishi bo‘yicha, shaxs sir-cinoatini inson miyasi xususiyatlariga tenglashtirib bo‘lmaydi. SHaxs miya tuzilishi bilan emas, balki, insonning insonga bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan belgilanadi.

Voqeiy shaxs o‘zini «umumiy natijalar» nomini olgan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarni yaratishda angelaydi. Aflotun va Spinoza, Betxoven va Napoleon, Tolstoy va Mikelandjelo – bunday, odatiy holatlarni sindiradigan

ijtimoiy ahamiyatga molik ishlar mujassam bo'lgan shaxslarni boshqalar bilan adashtirib yuborish mumkin emas. Shaxslar ko'lami, E.A. Ilenkovning odilona fikriga ko'ra, faqat ularningina emas, boshqalarni ham qiziqtiradigan o'zlarining faoliyatlari ko'lami bilan o'lchanadi.

Yana bir mashhur faylasuf M.K. Mamardashvili tasdiqlashicha: «Shaxs – bu turmush tarzi, uning shakli, hayotning alohida holati, evolyusiyasining noyob topilmasi. Shaxs – bu «tabiatning yirik mushohadasi». SHunday ta'rif bergan bo'lardim. Uning ifodalanishlarga moyilligi barcha narsalarni bilishga yoki boshqa yuksak belgilarga bog'liq emas. Tushunsangizchi, axir insonning eng muhim ehtirosi – bu ro'yobga chiqmoq, amalga oshmoq, sodir bo'lmoq»<sup>91</sup>.

Ruhshunoslar individning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shaxsning asosiy belgilari, deb hisoblaydilar. B.G. Ananov «shaxs»ga «jamiyatning insonga uning ma'lum tarixiy rivojlanishi davrida ko'rsatadigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy va boshqa ta'sirlari ob'ekti» sifatida ta'rif beradi. A.N. Leontev fikriga ko'ra, «shaxs insonning ijtimoiy-tarixiy va ontogenezdagi taraqqiyotining nisbatan kechki mahsulotidir. Shaxs o'zlashtirib olingan rollar tizimidir («rol» – bu biror-bir ijtimoiy guruh tuzilishida ma'lum o'rinni egallagan insonning kutilgan hulq-atvoriga javob beradigan dastur; bu insonning jamiyat hayotidagi ishtirokining tuzilishga ega bo'lgan usulidir)». SHaxs taraqqiyoti individning ijtimoiylashuvi va tarbiya topishi sharoitlarida amalga oshiriladi. Umumiy psixologiyada ko'pchilik hollarda shaxs sifatida qandaydir yadro, mag'iz, individning turli ruhiy jarayonlarini birlashtiruvchi va uning faoliyatiga zaruriy ketma-ketlik va barqarorlik bag'ishlovchi yig'indi va amodal boshlang'ich modda tushuniladi.

L.S. Vigotskiy ijtimoiy tajribasiz, uning ichki ishlanmasiz, so'ngra uni yana qayta ishlangan shaklda ichkaridan ishlab chiqarmasdan turib, shaxsning taraqqiy etishi mumkin emasligi (interiorizatsiya va eksteriorizatsiya qonunlari) haqida yozgan edi.

Bu xususda psixologlarga tarix fanining ba'zi bir namoyondalari ham qo'shiladilar. G.S. Knabening ta'kidlashiga ko'ra, ««shaxs» insonning jamiyat hayotidagi ishtiroki va hayotda tutgan o'rni nuqtai nazaridan insonga xos xususiyatdir». V.A. Shkuratov quyidagi definitsiyani keltiradi: «Shaxs jamiyat a'zosi va faoliyatdagi mavjudotning ifodalanishini ijtimoiy turlarga ajratish... Shaxsni uning ijtimoiy va madaniy doirasi, kelib chiqishi, kasbi, o'z tipi va h.k.larning xususiyatlaridan yig'ib olish mumkin ».

Hozirgi kunda psixologiya shaxsni insonning jamiyatdagi hayotida shakllanadigan ijtimoiy-psixologik hosila sifatida tushuntiradi. Odam ijtimoiy mavjudot sifatida boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishganida va bu munosabatlar uning shaxsini shakllantiruvchi hal qiluvchi omilga aylanganida, u yangi sifatlarga ega bo'ladi.

Chet el psixologiyasida inson shaxsi sifatida barqaror belgilar majmuasini tashkil etuvchi temperament, sezgirlik, motivlar, layoqatlar, mayllar, turli hayotiy vaziyatlarga moslashayotganida aynan shu insonga xos bo'lgan fikrlar oqimi va

---

<sup>91</sup> Мамардашвили М.К. Как я понимаю философию. М., 1990. Б.173.

hulq-atvorini belgilab beradigan ma'naviyat tushuniladi. J. Godfruaning fikricha, shaxs umumiy holda ham irsiy, ham ijtimoiy-madaniy ta'sirlar bilan belgilanadi. «Shaxs» tushunchasi o'z ichiga tabiiy xossalar (jins, temperament va h.k.) asosida ijtimoiy muhit (oil, maktab, «boshqa ahamiyatlilar») va faoliyat (o'yin, bilish, mehnat) bilan faol o'zaro ta'sirlar jarayonida hosil bo'lgan individga xos bo'lgan ijtimoiy sifatlar yig'indisini birlashtiradi.

Inson shaxsi, keng tarqalgan tasavvurlarga qarshi o'laroq, 30-yoshga etgunicha o'zgarmasdan qolmaydi. Misol keltiradigan bo'lsak, Kaliforniya Universitetining bir guruh olimlari 130 mingdan ortiq odamlarning «Katta Beshlik» (vijdoniylik, murosaga kelish layoqati, nevrotizm va ekstravertlik) nomi bilan ma'lum shaxsiy sifatlarini tahlil qilganlar. Bu sifatlar kayfiyatga bog'liq emas, shuning uchun etarlicha ishonchli tarzda namoyon bo'ladi. Odamlar yosh o'tishi bilan hayotiy ixtiloflarni tezda bartaraf etishga o'rganadilar, xususan, shafqatliroq va mehribonroq bo'lishga intiladilar.

Aniqlanishicha, ayollarda, erkaklardan farqli o'laroq, yosh o'tishi bilan nevroz holatlari kamayadi. Ikki jins vakillarida samimiylik bir oz kamayadi. Olimlarning fikriga ko'ra, 20–30 yoshlilarda murakkab vazifalarni bajarishda va tashkilotlar tuzishda ko'mak beradigan vijdoniylikning kuchayishi kuzatiladi. Murosaga kelishga moyillik, aksincha, ko'pchilik holatlarda 30 yoshdan so'ng yorqin namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, faylasuflar, tarixchilar, pedagoglar va psixologlarda «shaxs» tushunchasining turlicha talqinlari mavjud. Bizlar esa, yuqorida ko'rsatganimizdek, R.S. Nemov tomonidan berilgan shaxsning, fikrimizcha, yanada aniq va to'liq psixologik ta'rifidan foydalanamiz.

## **2. Shaxs tuzilishi va rivojlanishi**

Shaxs asosini uning tuzilishi tashkil etadi, bu esa shaxsning yaxlit hosila sifatida har taraflama nisbiy barqaror aloqa va o'zaro ta'sirga ega bo'lishidan iborat.

Psixologlar shaxs tuzilishida turli tarkibiy qismlarni ajratadilar. S.L. Rubinshteyn temperament, xarakter, layoqatlarda; bilimlar, malakalar va ko'nikmalarda; yo'nalganlikda namoyon bo'ladigan individual-tipologik xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi. A.G. Kovalev yo'nalganlik, xarakter, imkoniyatlar va mashqlar tizimini ajratadi. M.I. Enikeev temperament, yo'nalganlik, layoqatlar va xarakterni sanab o'tadi. Mashhur psixolog K.K. Aflotunov yo'nalganlik tarkibini, ijtimoiy tajriba tarkibini, psixologik tarkibni va biologik asoslangan tarkibni ajratib ko'rsatadi.[2]

SHunday bo'lsada, shaxs tuzilishida tarkibiy qismlarni ajratishdagi tafovutlarga qaramay, mualliflar o'z yondoshuvlarida etakchi tarkibiy qism sifatida **yo'nalganlik**ni alohida ajratib ko'rsatadilar. Bu tushuncha turlicha, masalan, «o'sish sur'ati tendensiyasi (S.L. Rubinshteyn), «ma'no kasb etuvchi motiv» (A.N. Leontev), «dominantlik munosabati» (V.N. Myasimev), «asosiy hayotiy yo'nalganlik» (B.G. Ananayev), «inson mohiyatli kuchlarini dinamik tarzda tashkil etish» (A.S. Prangishvili) sifatida talqin etiladi.

Bizlar nima uchun odam harakatlari faollashganining sababini aniqlashda ehtiyojlar mohiyatining tahlilini o'tkazamiz, lekin bu faollikning oqibatlarini bilish uchun uning yo'nalganligi nima bilan belgilanishini tahlil qilishimiz lozim.

**Yo'nalغانlik** deb, shaxs faoliyatini yo'naltiruvchi va xususiy vaziyatlardan nisbatan mustaqil bo'lgan barqaror motivlar yig'indisiga aytiladi. Masalan, o'quvchi hulq-atvori yaxlitligicha ko'rib chiqilganida, uning psixologiyasi tahlilida **barqaror** motivlarni aniqlash zarur. Mana shu holatdagina o'smirning harakati tasodifiyligi yoki qonuniyatga asoslanganligiga baho berish, uning takrorlanish imkoniyatlarini oldindan ko'ra olish, shaxs sifatlarining ba'zilarini bartaraf etish, boshqalarining rivojlanishini esa rag'batlantirish mumkin. Motivlar u yoki bu darajada **anglangan** yoki umuman **anglanmagan** bo'lishi mumkin. Shaxs yo'nalغانligida asosiy o'rinni anglangan motivlar egallaydi.[1]

Shaxs yo'nalغانligi doimo ijtimoiy belgilangan bo'ladi va tarbiya jarayonida shakllanadi. Yo'nalغانlik – bu shaxsning xususiyatlariga aylangan va havas, istak, intilish, qiziqish, moyillik, ideal, dunyoqarash, e'tiqod kabi shakllarda namoyon bo'ladigan mayllar. Bu shakllarning asosida **faoliyat motivlari** yotadi.

**Havas** – bu sub'ektning ajratilmagan, anglanmagan yoki etarlicha anglanmagan ehtiyojlarini ifodalovchi ruhiy holat. **Istak** faoliyat motivi sifatida ehtiyojning etarlicha aniq anglanganligi bilan ifodalanadi. Bunda uning ob'ektigina emas, balki uni qondirish yo'llari ham anglanadi. **Intilish** istak tuzilishiga irodaviy tarkibiy qism qo'shilganida yuzaga keladi. **Qiziqish** – bu shaxsning yo'nalغانligini faoliyat maqsadlarini anglash bilan ta'minlovchi bilish ehtiyoji ifodalanishining maxsus shakli. Sub'ektiv tarzda qiziqish ob'ektni chuqurroq o'rganish, u haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, uni tushunish istagida bilish jarayoniga ega bo'ladigan ijobiy emotsional tonda namoyon bo'ladi. Odatda, shaxs yo'nalغانligini ifodalovchi qiziqishning qondirilishi uning so'nishiga sabab bo'lmasdan, uni ichdan o'zgartiradi, boyitadi va chuqurlashtiradi, bilish faoliyatining yuqori darajasi talablariga javob beruvchi yangi qiziqishlarni uyg'otadi. **E'tiqodlar** – bu shaxsni o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashiga muvofiq ravishda harakat qilishga undovchi motivlar tizimi. E'tiqodlar shaklidagi ehtiyojlar mazmuni – bu tabiat va jamiyatni o'rab turgan olam haqidagi bilimlar, ularni muayyan tarzda anglash. Bu bilimlar tartibli va ichdan tashkil topgan qarashlar (falsafiy, etika, estetika, tabiiy-ilmiy) tizimini hosil etganida, ular insonning **dunyoqarashi** sifatida o'rganilishi mumkin.[2]

Shaxs **mayli** – bu avvalgi tajribada shakllangan, ob'etni aynan **ma'lum shaklda** idrok qilish, tushunish yoki u bilan harakat qilishga tayyorlik, moyillik.

Ko'pchilik mayllarning yangilash mohiyati, yoki inson shaxsiy tajribasidagi ba'zi faktlardan shoshilinch va etarlicha asoslanmagan holda chiqarilgan xulosalarning natijasi, yoki **fikrlash stereotiplarini** – ma'lum ijtimoiy guruhda qabul qilingan xillarga ajratilgan mulohazalarni tanqidsiz o'zlashtirish natijasi bo'lib hisoblanadi. Jamiyat hayotidagi turli faktlarga (hodisalar, odamlar va boshqalar) nisbatan ogohlantirish xususiyatiga ega bo'lgan mayllar **ijobiy** va **salbiy** bo'lishi mumkin. Mayllar u yoki bu darajada anglanmagan bo'lishi mumkin. Psixologik tadqiqotlar tomonidan mayl tuzilishida uch tarkibiy qism ajratiladi: **kognitiv** tarkibiy qism inson bilishga va idrok qilishga tayyor tasvir namunasidir; **emotsional-baholash** tarkibiy qism mayl ob'ektiga nisbatan xayrixohlik va xush ko'rmaslik majmuasidir; **hulq-atvor** tarkibiy qism – mayl ob'ektiga nisbatan ma'lum tarzda harakat qilish, iroda kuchini amalga oshirishdir.

Psixologiya tarixida shaxsning psixologik mohiyati haqidagi tasavvurlarga ko'p marta o'zgartirishlar kiritilgan. Avvalambor, shaxsni, aynan, psixologik tushuncha sifatida anglashning zaruriyati bilan bog'liq nazariy qiyinchiliklarni bartaraf etishning eng ishonchli vositasi shaxsni psixologik voqelik kabi tashkil etuvchi tarkibiy qismlarni sanab o'tish hisoblanadi. Bu holatda shaxs inson psixikasining sifatlari, xossalari, qirralari, o'ziga xos xususiyatlarining to'plami sifatida maydonga keladi. Muammoga bunday yondoshish A.V. Petrovskiy tomonidan «kolleksiya to'plash» deb nomlangan, bunda shaxs o'zida temperament, xarakter, qiziqishlar, layoqatlar va h.k.larning qirralarini mujassamlashtirgan qandaydir kattalik, hajmga aylanadi.

XX asr 60-yillarining o'rtalarida shaxs umumiy tuzilishini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan harakatlar boshlab yuborildi. Bu yo'nalishda shaxsni bioijtimoiy, tartibli tuzilish sifatida ta'riflagan K.K. Aflotunovning yondoshuvi e'tiborga loyiq. U shaxs tuzilishini quyidagilarga ajratadi:

1. Yo'nalganlik (fikrlar, dunyoqarash, mayllar, istaklar, qiziqishlar, moyilliklar, ideallar kabi shakllarni o'z ichiga oladi). Bu tuzilish osti tarbiya yo'li bilan shakllanadi.

2. Tajriba (ta'lim olishda shaxsiy tajriba vositasida orttirib bo'lingan, lekin shaxsning biologik va hatto, irsiy belgilangan xossalarning sezilarli ta'siri ostidagi bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni birlashtiradi).

3. Aks ettirish turli shakllarining individual xususiyatlari (his etish, idrok, xotira, tafakkur, hissiyotlar, tuyg'ular, iroda).

4. Biopsixik xossalari o'zida temperament xususiyatlari, shaxsning jins va yosh xususiyatlari, patologik, organik o'zgarishlarni birlashtiradi (7.1 jadval).

Bu to'rt tarkibiy qismga yana ikki tarkibiy qism jamlanadi: mustaqil tarkibiy qism bo'lib hisoblanmaydigan shaxsning umumiy sifatlaridan iborat, asosiy tarkibiy qismlarning har birining xususiyatlaridan tashkil topgan xarakter va layoqatlar.[1]

Bunday yondoshuvning asosiy kamchiligi shundan iborat ediki, shaxs umumiy tuzilishi uning biologik va ijtimoiy belgi, xususiyatlarining yig'indisi sifatida izohlanar edi. Natijada shaxs psixologiyasida shaxsdagi ijtimoiy va biologik xususiyatlar nisbati muammosi asosiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Lekin, aslini olganda, biologik xususiyatlar inson shaxsi tarkibida ijtimoiyga aylanadi.

XX asr 70-yillarning oxirida shaxs muammosiga tuzilishli yondoshuv yo'nalishi tizimli yondoshuvni qo'llash tendensiyasi bilan almashindi. SHu munosabat bilan A.N. Leontev g'oyalari alohida e'tiborga loyiq. Uning fikricha, shaxs, - bu insonning jamiyatdagi hayoti natijasida yuzaga keladigan alohida turdagi psixologik hosila. Turli faoliyatlarning birgalikda bo'ysunishi ontogeneza shakllanadigan shaxsning asosini yaratadi. SHu o'rinda, A.N. Leontev ko'rsatib o'tganidek, shaxsga tegishli bo'lmagan, avvalambor, irsiyat tomonidan belgilangan: tana tuzilishi, asab tizimining turi, temperament, biologik ehtiyojlarning o'sish kuchi, affektivlik, tug'ma layoqatlar kabi, shuningdek, orttirilgan ko'nikma, bilim va malakalar, hamda, - kasbiy belgilarni ta'kidlab

o'tish joiz. Uning fikricha, sanab o'tilganlar, insonning individual xossalarini tashkil etadi.

Shaxs avvalgi tajribalar bilan boyitilgan individ emas. Individ xususiyatlari shaxs xususiyatlariga aylanmaydi.

A.N. Leontev tomonidan belgilab berilgan shaxs muammosini o'rganishga umumiy yondoshuv A.V. Petrovskiy va V.A. Petrovskiylarning ishlarida rivojlantirildi. Ularning fikriga ko'ra, shaxs hamkorlikdagi faoliyatning har bir ishtirokchisi o'rtasida o'rnatilgan mazmun-mohiyati, qadriyatlari vositasidagi barqaror shaxslararo aloqalar tizimida o'rganilishi mumkin.[1]

Bayon etilganlar shaxsni faoliyat va muloqotda yuzaga keladigan individual munosabatlarning (sub'ekt – ob'ekt – sub'ektiv va sub'ekt – sub'ekt – ob'ektiv) barqaror tizimiga nisbatan sub'ekt sifatida o'rganish imkonini beradi. A.V. Petrovskiy va V.A. Petrovskiylar shaxs tuzilishini individning «o'ta sezgir» tizimli xususiyati sifatida ko'rib chiqadilar. Shaxsni sub'ektiv munosabatlar tizimida ko'rib chiqib, individ shaxsiy turmush tarzining uch xildagi atributsiyasini (qo'shib yozish, belgilash) yoki shaxs tushunchasining uch xil nuqtai nazarini ajratadilar.

Ko'rib chiqishning ***birinchi nuqtai nazari*** – intraindivid shaxsiy atributsiya: shaxs sub'ektning o'ziga xos bo'lgan xossasi sifatida tushuntiriladi; shaxs individ turmush tarzining ichki muhitiga kiritilgan holatda bo'ladi.

***Ikkinchi nuqtai nazar*** – shaxslararo aloqalar muhiti shaxsni aniqlash va mavjudlik sohasi bo'lib xizmat qilganida shaxsni tushunish vositasi sifatidagi interindivid shaxsiy atributsiya.

Ko'rib chiqishning ***uchinchi nuqtai nazari*** – metaindivid shaxsiy atributsiya. Ushbu holatda individning o'z faoliyati orqali boshqalarga ko'rsatadigan ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ta'siri ko'zda tutiladi. SHaxsga yangicha nazar bilan qaraladi: uning individ sifatleri qatoridagi muhim xususiyatlarini faqat o'zida emas, balki boshqa odamlardan ham izlash taklif etiladi. Bunda shaxs boshqalarda ideal tarzda tasavvur etilishi, ularning o'zga turmush tarzi, uning shaxs sifatida alohidalanishida yuzaga keladi.

Bunday ideal tasavvur etishning mohiyati – sub'ekt faoliyati yoki uning hamkorlikdagi faoliyatini yuzaga chiqaradigan boshqa odamning aqliy va affektiv-ehtiyojij sohasidagi real faol o'zgarishlardan iborat. Bunday holatda gap shaxsning boshqalarda o'z hayotini davom ettirishi mumkin bo'lgan faol jarayon haqida, boshqalarda o'zining davomiyligini ko'ra bilishi haqida ketadi. Individ o'limidan so'ng shaxs butunlay yo'qolib ketmasdan o'zgaralar hayoti bilan davomiyligini saqlab qoladi. A.S.Pushkin so'zlarini esga olsak: «Yo'q, butunlay o'lmayman ... dunyoda bitta bo'lsa ham shoir qolmagunicha».

### ***3. Shaxs tuzilishida biologik va ijtimoiy nisbatlar muammosi.***

Inson shaxsidagi biologik va ijtimoiy nisbatlar muammosi – hozirgi zamon psixologiyasining markaziy muammolaridan biri. Psixologiya fanining bunyodga kelishi va taraqqiyoti jarayonida «psixik», «ijtimoiy» va «biologik» tushunchalar o'rtasidagi mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan aloqalar ko'rib chiqildi. Psixik taraqqiyot to'laligicha ham biologik va ijtimoiydan mustaqil bo'lgan muayyan jarayon sifatida, ham faqat

biologik yoki faqat ijtimoiy rivojlanishning hosilasi sifatida, yoki ularning intividga ko'rsatadigan parallel ta'sirining natijasi sifatida tushuntirilgan edi. Shunday qilib, ijtimoiy, psixik va biologik nisbatlarni turli xilda izohlovchi konsepsiyalarning bir nechtasini ajratish mumkin.[2]

Psixik taraqqiyotning ichki ta'sir natijasida vujudga kelganligini isbot qiluvchi konsepsiyalar guruhida psixik nisbat biologik va ijtimoiy nisbatlar bilan bog'liq bo'lmagan, o'zining ichki qonunlariga to'laligicha bo'ysunadigan hodisa sifatida o'rganiladi. Bunda ushbu konsepsiyalar nuqtai nazaridan inson organizmiga psixik faoliyatning qandaydir «sig'imi» sifatida o'rin ajratiladi. Bunday fikrlarni bizlar ko'proq psixik hodisalarning diniy kelib chiqishini e'tirof etuvchi mualliflar ishlarida uchratamiz.

Biologik konsepsiyalarda psixik nisbat organizm taraqqiyotidan keyin sodir bo'ladigan hodisaning chiziqli funksiyasi sifatida o'rganiladi. Bu konsepsiyalarga asosan, inson xossalari va holatlari, psixik jarayonlarning barcha xususiyatlari biologik tuzilishning xususiyatlari bilan belgilanadi, ularning taraqqiyoti esa biologik qonunlarga bo'ysunadi. Ko'p hollarda bu konsepsiyalarda psixik taraqqiyotni tushuntirib berishda asosiy biogenetik qonun – rekapitulyasiya qonuni qo'llaniladi, bu qonunga ko'ra, individ taraqqiyoti o'zi tegishli bo'lgan tur evolyusiyasining asosiy ko'rinishlarida amalga oshiriladi. Ushbu e'tirofning ifodalanishi ruhiyatning tabiatda mustaqil hodisa sifatida mavjud bo'lmashligi, barcha ruhiy hodisalarni biologik (fiziologik) tushunchalar yordamida ta'riflash yoki tushuntirish mumkinligi haqidagi fikr hisoblanadi. Bunday nuqtai nazarning fiziologlar o'rtasida juda keng tarqalganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, I.P. Pavlov ushbu nuqtai nazarning tarafdori edi.[1]

Bir qator ijtimoiy konsepsiyalar mavjud bo'lib, ular ham rekapitulyasiya g'oyasidan kelib chiqadi, lekin bunda u o'zgacha tarzda namoyon bo'ladi. Ushbu konsepsiyalarda individning konspektiv shaklda psixik rivojlanishi jamiyat tarixiy rivojlanishi, avvalambor, ma'naviy hayot, madaniyatning taraqqiyoti jarayonining asosiy bosqichlarini amalga oshirishi o'z tasdig'ini topgan.

Shunga o'xshash konsepsiyalarning mohiyatini V. Shtern yanada yorqin tarzda ifodalagan. U taklif etgan ta'limotda rekapitulyasiya tamoyili ham hayvonlar psixikasi evolyusiyasini, ham jamiyat ma'naviyatining taraqqiyoti tarixini qamrab oladi. Uning yozishicha: «Inson individi go'daklik davrining birinchi oylarida tuban hissiyotlarning ustunligi holatidagi anglanmagan refleksli va impulsli mavjudligi bilan sut emizuvchi bosqichini egallaydi; ikkinchi yarim yillikda tutish va har tomonlama taqlid qilish faoliyatini rivojlantirib, yuqori sut emizuvchi – maymun darajasiga etadi, va ikki yoshda gavdani tik tutib yurish va nutqni egallagandan so'ng oddiy insoniy holatga erishadi. O'yin va ertaklarning birinchi besh yilligida u ibtidoiy halqlar bosqichida turadi. So'ngra maktabga o'qishga kirish, ijtimoiy bir butunlikka ma'lum majburiyatlar bilan shiddatli tarzda kirib boradi, - bu insonning davlat va iqtisodiy tashkilotlarga ega bo'lgan madaniyatga a'zo bo'lishining ontogenetik taqqoslanishidir. Maktab davrining birinchi yillarida ko'hna va qadimgi olamning oddiy mazmuni bola ruhiga o'ta mutanosibdir, o'rta maktab yillarida diniy madaniyatga berilish qirralari kuzatiladi,

faqat etuklik davrida YAngi davr madaniyati holatiga mos keluvchi ma'naviy darajalarga erishiladi».

Lekin, fikrimizcha, bunday o'xshashliklar keltirilganida, har bir jamiyatda tarixiy rivojlanib, har bir ijtimoiy-tarixiy tuzilmada o'ziga xos bo'lgan ta'lim va tarbiya tizimini hisobga olish zarur. Bunda odamlarning har bir avlodi jamiyatning ma'lum bir rivojlanish bosqichiga to'g'ri kelib, o'sha bosqichda tarkib topgan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Shuning uchun insonga o'z taraqqiyotida bosib o'tilgan tarixiy bosqichlarni qisqartirilgan ko'rinishda takrorlab o'tirish shart emas.

Odamning ma'lum biologik tur vakili sifatida dunyoga kelishini hech kim tomonidan inkor etilmaydi. Shu bilan birga, inson ma'lum ijtimoiy muhitda tug'ilgani uchun faqat biologik ob'ekt sifatida emas, balki, ma'lum jamiyat vakili sifatida ham rivojlanadi. Bu kabi ikki qarash doimiy ravishda o'zaro ta'sirda bo'lganliklaridan psixologiya uchun o'zaro aloqalarining xususiyatini aniqlash muhimdir.

Odamning psixik taraqqiyoti qonuniyatlari ustida olib borilgan ko'p sonli tadqiqotlar individ psixik taraqqiyotining boshlang'ich sharti uning biologik rivojlanishi, deb hisoblash imkonini beradi. Individ ruhiy taraqqiyotining asosi bo'lgan ma'lum biologik xossalalar va fiziologik mexanizmlar to'plami bilan dunyoga keladi. Lekin bu shartlar odam insonlar jamiyati sharoitida mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin.

Inson ruhiy taraqqiyotidagi biologik va ijtimoiy nisbatning o'zaro faoliyati va o'zaro ta'siri muammosini ko'rib chiqib, odam tuzilishining uch darajasini ajratish mumkin, bular: biologik daraja, ijtimoiy daraja va ruhiy darajalardir. SHunday qilib, shuni ko'zda tutish lozimki, gap uchlikdagi: «biologik – ruhiy – ijtimoiy» o'zaro ta'sirlashuv haqida ketadi. Boshqacha aytganda, shaxs tuzilishidagi biologik – ruhiy – ijtimoiylik uzluksiz birlikni tashkil etadi.

Mashhur rossiyalik ruhshunos B.F. Lomov, shaxs shakllanishi muammosini tadqiq qilib, shaxsdagi biologik va ijtimoiy nisbatning barcha murakkabligi va turli mohiyatligini ochib berishga harakat qildi. Uning bu muammoga qarashlari quyidagi asosiy fikrlarga borib taqaladi. Birinchidan, individ taraqqiyotini tadqiq etib, alohida ruhiy vazifalar va holatlar tahlili bilan chegaralanib bo'lmaydi. Barcha ruhiy vazifalar shaxs shakllanishi va taraqqiyoti ma'nosida ko'rib chiqilishi lozim. Shu munosabat bilan biologik va ijtimoiy nisbat muammosi organizm va shaxs nisbati muammosi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, shuni nazarda tutish lozimki, bu tushunchalardan biri biologik fanlar doirasida, ikkinchisi esa ijtimoiy fanlar doirasida shakllangan. Lekin ikkovi ham odamga ham Homo sapiens turining vakili sifatida, ham jamiyat a'zosi sifatida munosabatda bo'ladi. Shu bilan birga, bu tushunchalarning har birida inson xususiyatlarining turli tizimlari: organizm tushunchasida – inson individi tuzilishi biologik tizim sifatida, shaxs tushunchasida esa – insonning jamiyat hayotida qatnashishi aks etgan. Uchinchidan, psixologiya shaxs shakllanishi va taraqqiyotini tadqiq etib, shaxs – individning ijtimoiy sifati ekanligidan kelib chiqadi, bunda odam inson jamiyatining a'zosi sifatida namoyon bo'ladi. Individning bu sifati jamiyatdan tashqarida mavjud bo'lolmasligidan, «individ – jamiyat» munosabatlari tahlilidan tashqarida tushunish etish mumkin emas. Individ shaxsiy xususiyatlarining



ob'ektiv asosi bo'lib, uning o'zi yashab, rivojlanib kelayotgan ijtimoiy munosabatlar tizimi xizmat qiladi. Va, nihoyat, to'rtinchidan, shaxsning shakllanish va rivojlanish jarayonini inson tomonidan ushbu jamiyatda ma'lum tarixiy bosqichda tarkib topgan ijtimoiy dasturlarning o'zlashtirilishi sifatida ko'rib chiqish zarur. Bunda jamiyat tomonidan bu jarayonning maxsus ijtimoiy institutlar, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiya tizimi yordamida yo'naltirilishini ko'zda tutish lozim.

Bundan kelib chiqqan holda quyidagi xulosani keltirish mumkin: individ taraqqiyoti xususiyatlarini belgilovchi omillar tizimli xususiyatga ega bo'lib, yuqori dinamika bilan ajralib turadilar, ya'ni, rivojlanishning har bir bosqichida turli xil o'rinlarni egallaydilar.

#### ***4. Shaxs haqida psixologik nazariyalar***

Shaxs psixologiyasi taraqqiyotini uch davrga ajratish mumkin, bular: falsafiy-adabiyot, klinik va tajribaviy.

Tadqiqotlarning birinchi davri qadimgi allomalarning ishlari bilan boshlangan bo'lib, XIX asrning boshlarigacha davom etdi. Falsafiy-adabiyot davrida shaxs psixologiyasining asosiy muammolari insonning ahloqiy va ijtimoiy tabiati haqidagi masalalardan iborat bo'ldi. Shaxs haqidagi birinchi ta'riflar etarli darajada kengroq edi. Ular o'z ichiga insonda mavjud narsalarni va shaxsan o'ziniki bo'lgan: uning biologiyasi, psixologiyasi, mol-mulki, hulq-atvori, madaniyati va h.k.larni jamlagan edi.

XIX asrning birinchi o'n yilliklarida shaxs psixologiyasi muammolari bilan faylasuflar bilan bir qatorda shifokor-psixiatrlar ham shug'ullana boshladi. Ular birinchilar qatorida klinika sharoitlarida bemor shaxsi ustidan muntazam ravishda kuzatuvlar olib bordilar, uning hulq-atvorini yaxshiroq tushunish maqsadida bemor hayoti tarixini o'rgandilar. Psixiatrlarning diqqat markazida bemor odamda odatda aniqlanadigan shaxs xususiyatlari bo'ldi. Keyinchalik ular tomonidan aniqlangan o'ziga xos xususiyatlar sog'lom odamlarning deyarli barchasida mavjudligi, lekin ularda kuchsiz holatda, bemorlarda esa o'ta kuchli tarzda ifodalanishi aniqlandi. Bu, masalan, xavotirlik va rigidlik, zatormojennosti va qo'zg'aluvchanlik holatlariga tegishlidir.

Shaxsni aniqlash qirralari shifokor-psixiatrlar tomonidan shunday atamalar bilan belgilangan ediki, ular yordamida ham normal, ham patologik, ham aksentuirovannuyu shaxsga ta'rif berish mumkin edi. Shunga qaramasdan, ushbu yondoshuv psixologiya nuqtai nazaridan mukammal deb hisoblanmaydi. Bunday yondoshuvlar normal shaxsni yaxlit holda ta'riflash uchun juda qisqa va etarli emas. Bunday aniqlash turiga turli sharoitlarda aniq ifodalanuvchi, doimo ijobiy, «mutanosib» bo'lgan shaxs xususiyatlari kiritilmagan edi. Bularga misol qilib, layoqatlar, ahloqiy sifatlar va boshqa shaxs xususiyatlarini keltirish mumkin.

XX asrning dastlabki o'n yilliklariga kelibgina, shaxs, ungacha inson holatlari va bilish jarayonlarini tadqiq etish bilan shug'ullanayotgan psixologlar tomonidan o'rganila boshladi. XX asrda psixologiyada tajriba tadqiqotlari jadal olib borilgani uchun, ularga farazlarni aniq tekshirish va asoslangan faktlarga ega bo'lish maqsadida ma'lumotlarni matematik-statistika usulida hisoblash qo'llanildi. Shu asosda, psixologlar uchun uzoq yillar davomida mutanosib shaxsni

tadqiq etishning ishonchli va valid test metodlarini ishlab chiqish birinchi navbatdagi vazifa bo'lib qoldi.

Shaxsga tegishli bo'lgan nazariyalar va konsepsiyalarni tasniflashga nisbatan yondoshuvlarning turli xillari mavjud. Masalan, R.S. Nemov shaxsga doir nazariyalarning 48 tasini keltiradi, ularning har biri tasniflashga asos bo'ladigan besh ko'rsatkich bo'yicha baholanishi mumkin. Bularga hulq-atvorni tushuntirib berish usuli; shaxs haqida ma'lumotlarga ega bo'lish usuli; shaxsga burchak ostidan qarash; yosh darajalari; shaxsni tasvirlab beruvchi tushunchalar kabi ko'rsatkichlar kiradi.[2]

Mavjud bo'lgan shaxs nazariyalarining barchasini hulq-atvorni tushuntirib berish usuli bo'yicha *psixodinamik*, *ijtimoiydinamik* va *interaksion* nazariyalarga bo'lish mumkin. Psixodinamik nazariyalarga shaxsning ruhiy yoki ichki xususiyatlaridan kelib chiqib, uni ta'riflovchi va hulq-atvorini tushuntirib beruvchi nazariyalar kiradi. Ijtimoiydinamik nazariyalarning nuqtai nazariga ko'ra, hulq-atvor determinatsiyasida asosiy o'rinni tashqi vaziyatlar egallaydi. Interaksion nazariyalar insonning dolzarb faoliyatini boshqarishdagi ichki va tashqi omillarning o'zaro harakati tamoyiliga asoslangan.

Shaxs haqida ma'lumotlarga ega bo'lish usuliga ko'ra barcha nazariyalarni *eksperimental* va *noeksperimentallarga* bo'lish mumkin. Eksperimental shaxs nazariyalariga tajriba o'tkazish yo'li bilan to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan nazariyalar, noeksperimentallarga esa – mualliflari tajribaga murojaat qilmasdan turib, hayotiy taassurotlarga, kuzatishlar va tajribaga tayangan holda nazariy bilimlarni umumlashtiradigan nazariyalar kiradi.

Navbatdagi nazariyalarni tasniflashga asos bo'lib xizmat qiladigan nuqtai nazar mualliflarning shaxsni *tuzilishga ega bo'lgan* yoki *dinamik* hosila sifatida tasvirlovchi qarashdir. *Tuzilishga ega bo'lgan* nazariyalar qatoriga tushunchalar tizimi yordamida tasvirlanuvchi shaxs tuzilishini aniqlash asosiy muammo bo'lib hisoblanadigan nazariyalar kiritiladi. *Dinamik* nazariyalar deb, asosiy mavzusi shaxs taraqqiyotida qayta tuzish, o'zgartirish, ya'ni, uning dinamikasiga taalluqli bo'lgan nazariyalarga aytiladi.

Shuningdek, yosh va pedagogik psixologiyada yuzaga kelgan bir qator shaxs nazariyalari mavjud. Bunday nazariyalar shaxs taraqqiyotining inson tug'ilganidan boshlab maktabni bitirishigacha bo'lgan, chegaralangan yosh davrini ko'rib chiqishga asoslangan. Bundan tashqari, mualliflari o'z oldilariga shaxs taraqqiyotini insonning butun umri davomida kuzatish vazifasini quygan nazariyalar ham mavjud.

Shaxs nazariyalarini tasniflash uchun asos bo'ladigan yana bir holat, bu nazariyalardagi shaxsning ichki xossalari, qirralari va sifatlari yoki uning tashqi ifodalanishi, masalan, hulq-atvori va harakatlariga qaratilgan e'tibordir. Shu asosda qirralar nazariyalarini ajratish mumkin. Nazariyalar ushbu guruhining holatlarga ko'ra, barcha odamlar bir-biridan alohida, mustaqil qirralarning rivojlanganligining to'plami va darajasi bilan farqlanadi, shaxs haqidagi ma'lumotlarni esa, test yoki shaxs qirralarini aniqlash va tasvirlashning boshqa usuli yordamida, masalan, ma'lum insonni kuzatgan turli odamlarning hayotiy kuzatishlarini umumlashtirish asosida olish mumkin. SHaxs qirralariga baho

berishning ikkinchi usuli barcha odamlarni tipologik guruhlariga birlashtirishdan iborat. Bunda bir xil tipologik guruhga tegishli bo'lgan odamlar yaqin psixologik xususiyatlarga ega bo'ladilar, va ular o'zlarining hulq-atvori bilan bir-birlariga juda o'xshash bo'ladilar.

R.S. Nemov tomonidan ko'rib chiqilgan shaxs nazariyalarining tasniflaridan tashqari, boshqa tasniflar ham mavjud. Shulardan biri B.V. Zeygarnik tomonidan ko'rib chiqilgan mavjud bo'lgan shaxs nazariyalarini mazmun-mohiyat va tarixiy tamoyillarda, ularning yuzaga kelishi va taraqqiyoti sharoitlariga bog'liq holda o'rganishdir. Bunda nazariyalarning quyidagi guruhlari ajratiladi: freydizm va neofreydizmning shaxs nazariyalari, shaxsning umuminsoniy nazariyalari, ekzistensial psixologiyaning shaxs nazariyalari, fransuz ijtimoiy maktabining shaxs nazariyalari va boshqalar.[2]

Qisqacha asosiy psixologik shaxs nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Amerikalik ruhshunos G. Ollport va ingliz ruhshunosi R. Kettel tomonidan ishlab chiqilgan *shaxs qirralari nazariyasi* shular jumlasidandir.

Shaxs *qirras*i deganda inson tomonidan hayoti davomida uning tajribasi, irsiyati va organizmining fiziologik xususiyatlari asosida egallanadigan barqaror xossa tushuniladi. Shaxs qirralariga xarakter qirralari kiradi.

G. Ollport tan olgan shaxs qirralarini aniqlash va baholashning usullaridan biri chet tilini o'rganishga, shaxsni har tomonlama ta'riflash mumkin bo'lgan so'z-tushunchani tanlab olishga asoslangan. Tanlab olingan so'zlarning etarli tarzda qisqartirish yo'li bilan bo'lishi mumkin bo'lgan shaxsiy qirralarning ma'lum odamda ularni keyinchalik baholash maqsadida to'la ro'yxati tuziladi. G. Ollport shaxsiy qirralarni o'rganish metodikasini tuzishga xuddi mana shu yo'l bilan erishdi.

Shaxs qirralarini baholashning R. Kettel tomonidan qo'llanilgan boshqa usulida hozirgi zamon statistikasining murakkab metodi – *omil tahlili* ishlatiladi, bu metod o'zini tahlil qilish, so'rov o'tkazish, odamlarning hayotiy kuzatishlari natijasida olingan ko'plab turli ko'rsatkichlar va shaxsga baho berishni etarlicha kamaytirish imkonini yaratadi. Natijada statistik jihatdan mustaqil holatdagi inson shaxsining alohida qirralari bo'lib hisoblanadigan omillar to'plami hosil bo'ladi. Ushbu metod yordamida R. Kettel 16 xil turdagi shaxs qirralarini namoyon qilishga muvaffaq bo'ldi. Ularning har biri kuchli va kuchsiz rivojlanganlik darajasini anglatuvchi ikkita nomga ega bo'ldi. Tajribada aniqlangan qirralar to'plami asosida R. Kettel 16-omilli shaxs so'rovnomasini tuzib chiqdi. Bu so'rovnoma haqida to'liqroq ma'lumot bilan laboratoriya mashg'ulotlarida tanishamiz.

*Shaxsning psixoanalitik nazariyasi* (Z. Freyd, A. Adler, K. YUng, E. Fromm, K. Xorni). Bu nazariyaga ko'ra, shaxs uch qism: Id, Ego va Superegodan iborat insonning ichki, psixologik hosilasidir. Id – bu anglanmaganlik, bunga biologik ichki sezgilar va insonning hayvonlar bilan umumiy bo'lgan organik ehtiyojlari kiradi. Z. Freyd jinsiy ehtiyojlar va tahdidlilikni, A. Adler – hokimiyatga intilishni, K. Xorni – turli-tuman komplekslarni, E. Fromm – odamning ozodlikka yoki uni cheklashga intilishini ajratib ko'rsatadilar. Bu – shaxsning o'zini anglashi. Superegoga inson qadriyatlarini, uning hayotiy

maqsadlari, ideallari kiradi. Shaxsning bu uch tarkibiy qismlari, odatda, uyg'unlik holatida bo'lmaydi, ular o'rtasida nevrozlarga, inson ruhiyati va hulq-atvoridagi nuqsonlarga sabab bo'luvchi nizolar yuzaga keladi.<sup>92</sup>[3]

K. Yung Freydning undan ajralib chiqqan birinchi o'quvchilaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ular o'rtasidagi turli fikrlilikning paydo bo'lishiga Z. Freydning panseksualizm g'oyasi sabab bo'ldi.<sup>93</sup>[3]

Yung bo'yicha, inson psixikasi uch daraja: ong, shaxsiy anglanmaganlik va jamoaviy anglanmaganlikdan iborat. Inson shaxsi tuzilishida qadimgi o'tgan insoniyatdan qolgan xotiralardan hosil bo'lgan jamoaviy anglanmaganlik asosiy o'rinni egallaydi. Jamoaviy anglanmaganlik umumiylik xususiyatiga ega. U ham o'z navbatida turli darajalardan iborat. Bu milliy, irqiy va umuminsoniy meros bilan belgilanadi. Eng chuqur daraja odamgacha bo'lgan davrdan, ya'ni, odamning avlodi bo'lgan hayvonlarning tajribasidan boshlanadi. Shunday qilib, Yung ta'rifiga ko'ra, jamoaviy anglanmaganlik – bu qadimgi ajdodlarimizning ongi bo'lib, ular o'ylagan va his etgan, hayot va dunyo, xudolar va inson mavjudotlarini o'rganish vositalaridan iborat.

Jamoaviy anglanmaganlik ba'zi odamlarda faqat tushlarida emas, balki, real ijodkorlikda arxetiplar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Masalan, ona arxetipi – bu hissiyot va obraz mazmuniga ega bo'lgan o'z onasidan kelib chiqqan umumiy ona g'oyasi. Bola bu arxetipni tayyor ko'rinishda irsiyat orqali oladi va shu asosda o'z onasining aniq obrazini yaratadi.

Yung fikriga ko'ra, jamoaviy anglanmaganlikdan tashqari shaxsiy anglanmaganlik ham mavjuddir, lekin u ongdan ajralmagan holatdadir. Shaxsiy anglanmaganlik qachondir anglangan bo'lib, keyinchalik yoddan chiqarilgan yoki ongdan siqib chiqarilgan kechinmalardan iborat. Shaxsiy anglanmaganlikning tuzilish birligini mulohazalar va xotiralar, tuyg'ular qorishmasi, yig'indisi tashkil etadi.

Shuningdek, Yung «Men» tushunchasini kiritdi. Bu tushuncha orqasiga insonning yaxlitlikka va bir butunlikka intilishi yashiringan. Bu orqali onglilik va anglanmaganlik o'rtasidagi mutanosiblikka erishiladi. «Men» turlicha ifodalanishi mumkin. Uning ifodalanishiga bog'liq ravishda odamlarni ma'lum tiplarga ajratish mumkin. Yung insonning o'ziga yoki ob'ektga yo'nalganligi asosida shaxs tiplarining tasniflanishini keltiradi. Bunga muvofiq ravishda u barcha odamlarni ekstravertlar va introvertlarga bo'ladi.

Freydning yana bir ustozidan uzoqlashgan mashhur o'quvchilaridan biri, individual psixologiyaning asoschisi – Alfred Adler hisoblanadi. U Freydning biologiyalashtirish nazariyasini keskin qoraladi. Adler, insonda asosiysi – uning tabiiy ichki sezgilari emas, balki, o'zi «umumiylik tuyg'usi» deb nomlagan ijtimoiy tuyg'ulari ekanligini ta'kidladi. Bu tuyg'u tug'ma bo'lsada, ijtimoiy jihatdan rivojlantirilgan bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, Adler Freydning shaxsni uch bo'lakka bo'linishi haqidagi fikriga qarshi chiqdi. Uning fikricha, shaxs tuzilishi bir butun bo'lib, shaxs

---

<sup>92</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 616

<sup>93</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 618

taraqqiyotidagi bo‘linadigan qism bo‘lib, insonning ustunlikka intilishi hisoblanadi. Lekin bu intilish har doim ham amalga oshavermaydi. Masalan, inson tanasidagi organlarning nuqsonlari tufayli o‘zining mukammal emasligi tuyg‘usini boshidan kechiradi, shuningdek, bu tuyg‘u bolalikdagi noqulay ijtimoiy sharoitlar tufayli paydo bo‘lishi mumkin. Inson mukammal emaslik tuyg‘usini engish uchun turli ko‘rinishdagi to‘ldiruvchilarni izlay boshlaydi. Masalan, Adler yuqori to‘ldiruvchini ishlab chiqish imkoniyati haqida fikr yuritadi. Bu o‘zining mukammal emasligiga qarshi reaksiyaning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Yuqori to‘ldiruvchanlikni ishlab chiqish malakasi, jismonan zaif va irodasiz odamlarning matonat bilan faoliyat yuritishlariga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, yuqori to‘ldiruvchanlikda Adler ijodkorlik mexanizmi, faollikni ko‘radi. Misol tariqasida, u Napoleon shaxsiga izoh berishni yoqtirardi, va Napoleonning sarkarda sifatidagi alohida layoqatlarini, xususan, undagi kichik bo‘y o‘lchami tufayli yuzaga kelgan mukammal emaslik tuyg‘usi bilan tushuntirib berar edi. SHunday qilib, ko‘rganimizdek, mukammal emaslik tuyg‘usi o‘z tabiatiga ko‘ra tug‘ma bo‘lgani uchun, Adler Freydning nazariy qarashlarini ijtimoiylashtirishga harakat qilib ko‘rgan bo‘lsada, biologiyalashtirishdan to‘liq voz kecha olmadi.

Z. Freydning izdoshlaridan biri Karen Xorning fikriga ko‘ra, inson mohiyatining asosini, bolada tug‘ma bo‘lgan, xavotirlanish tuyg‘usida ko‘rish mumkin ekan. Bu tuyg‘u, Xorni fikricha, inson muntazam ravishda boshidan kechiradigan dunyodagi qarama-qarshiliklar tuyg‘usi, va uni bartaraf etish istagi inson harakatlari motivatsiyasining asosi bo‘lgan xavotirlanishni yuzaga keltirishidan hosil bo‘ladi.

Xorning ta‘kidlashi bo‘yicha, inson ikki tendensiya: xavfsizlikka intilish va o‘z xohishlarini qondirishga intilish orqali boshqariladi. Bu ikkala intilish ko‘p hollarda bir-birini inkor etadi, shunda inson hulq-atvorning ma‘lum usullarini ishlab chiqqan holda, o‘zi so‘ndirishga harakat qiladigan asabiylashish holati yuzaga keladi. Xorni hulq-atvorni to‘rt turga ajratdi: birinchi turida «muhabbatga asabiy holatda intilish» hayotda xavfsizlikni ta‘minlash vositasi sifatida ifodalanadi; ikkinchisi qandaydir ob‘ektiv sabablar bilan emas, balki, odamlarga nisbatan qo‘rqinch va dushmanlik bilan tushuntiriladigan «hokimiyatga asabiy holatda intilish» da ifodalanadi; uchinchi turida hulq-atvor odamlardan yakkalanishga intilishda ifodalanadi; to‘rtinchi turi o‘zning yordamga muhtojligini («asabiy tobelik») tan olishda ifodalanadi.

Xorni yo‘nalishlar sonini ko‘paytirishga harakat qildi, lekin, umumiy hisobda uch turida to‘xtaldi: a) odamlarga intilish; b) odamlardan uzoqlashishga intilish, mustaqillikka intilish; v) odamlarga qarshi harakat qilishga (tahdid) intilish. Munosabatlarning bunday uch xil turiga mos ravishda Xorni shaxs asab tizimining uch turini ajratadi: barqaror, bartaraf etilgan va tahdid soluvchi. Hulq-atvorning bunday turlari sog‘lom insonlarga xosdir. Sog‘lom va nevrozga chalingan odamlar o‘rtasidagi farq shundan iboratki, nizoli tendensiyalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sog‘lom odamda kasallikka chalingan odamga nisbatan ancha kam darajada bo‘ladi.

Shunday qilib, Xorni Freyd ta'limotining biologiyalashtirish mohiyatini keskin tanqid ostiga olgan bo'lsada, o'zining asosiy holatidagi «dastlabki xavotirlik» va «negizli xavotirlanish» haqidagi fikrlari bilan Freydni takrorlaydi.

***Shaxs ijtimoiy rollari nazariyasi*** (amerikalik ruhshunos E. Bern va nemis ruhshunosi K. Levin). Ushbu psixologik nazariya insonning hayotda ma'lum, o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy rollarni ijro etishidan kelib chiqadi. Aynan, mana shu rollar ushbu odam shaxsining asosiy xususiyati bo'lib hisoblanadi.

Bunday nazariyaning ma'lum bo'lgan turlaridan biri amerikalik ruhshunos Erik Bern tomonidan taklif etilgan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, odam boshqa rollardan ko'proq quyidagi ijtimoiy rollarni ijro etadi: bola roli, ota-ona roli va katta odam roli.

Bola roli katta odamning o'zini boladek his etishda davom etishida va bola sifatida tutishida namoyon bo'ladi (mas'uliyatsiz, xarxasha qiladi, arazlaydi, e'tibor va g'amho'rlik talab etadi va h.k.). Ota-ona roli odamning boshqalar uchun mas'uliyatni, ularga g'amho'rlikni o'z elkasiga olishida, boshqalarga o'rgatishi, jazolashi, talab qilishida va h.k.larda namoyon bo'ladi.

Ota-ona roli odam o'zini, haqiqatdan ham, katta odamlar o'zlarini bir-birlariga nisbatan qanday tutishlari lozim bo'lsa, shunday tutishlaridan iborat. Har kimning shaxsiy erkinligi va mustaqilligini hurmat qiladilar, huquqini tan oladilar, ishonadilar, qo'llaydilar va sh.o'.

Fizikaviy «maydon» tushunchasi va topologiyada qabul qilingan tasvirlash tamoyillarini qo'llagan holda, K. Levin individ va muhit o'rtasidagi mutanosiblik buzilgan holatdagi hulq-atvorning dinamik tizimi konsepsiyasini ishlab chiqdi.

K. Levin konsepsiyasida boshlang'ich holat sifatida individning «hayotiy bo'shlig'i» ichida ma'lum yo'nalish, kattalik va tayanch nuqtasiga ega bo'lgan, uning psixologik kuchlari (intilishlar, istaklar va sh.o'.) hosil bo'ladigan va o'zgaradigan yaxlit maydon sifatida qabul qilinadi. «Maydon»ning bir xil hududlari individni tortadi, boshqalari itaradi. Ob'ektlarning bu sifati hulq-atvor «maydon» kuchlari bilan harakatlanadigan hulq-atvorning motivatsiyali tuzilishini xarakterlovchi valentlik (musbat yoki manfiy) deb ataladi. Valentlik shaxs va uning maqsadlari, yo'ldagi to'siqlar va h.k.lar jamlangan psixologik «bo'shlig'ini» o'z ichiga oluvchi yaxlit vaziyatning vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan nazariyalardan tashqari, turli ilmiy-psixologik yo'nalishlar ham mavjud. Bunday yo'nalishlardan biri bo'lib, umuminsoniy psixologiya hisoblanadi. Umuminsoniy yo'nalish psixologlari uchun shaxs faqat atrofdagi voqelikka emas, balki, shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan psixologik hosiladir. Umuminsoniy psixologiyaning vakillari K. Rodjers va A. Masloundirlar.<sup>94</sup>[3]

Terapiyadagi o'zining metodini K. Rodjers nodirektiv, ya'ni, bemorda jamlangan metod deb nomladi. Bu metodga asosan, shifokor bemorga bosim o'tkazishi kerak emas. Shifokor va bemor o'rtasidagi aloqa bir-biriga nisbatan hurmatga asoslangan bo'lishi kerak, bunda ularning ikkisi ham suhbat yoki aloqaning teng huquqli ishtirokchisi bo'lib hisoblanadilar. Terapevtning vazifasi

---

<sup>94</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 620

shifokorning bemor uchun ikkinchi «Men»i sifatida namoyon bo'lishi va uning ichki olamiga e'tiborli bo'lgan vaziyatni yaratishdan iborat. Bunday vaziyatda mijoz barcha kechinmalari, hissiyotlari qiziqish va mamnuniyat bilan idrok etilishini his etadi, bu tajribasida yangi qirralarni ochishga, ba'zida esa u yoki bu kechinmalar ma'nosini birinchi marta anglab etishga yordam beradi.<sup>95</sup>[3]

g'oyasi nodirektiv hulq-atvor psixologiya nazariyasigacha rivojlandi. Bu nazariyaga asosan, sog'lom odamlarning o'zaro muloqoti ham xuddi shunday nodirektiv bo'lishi kerak.

Rodjers shaxs nazariyasining markaziy halqasi bo'lib, *o'zini baholash* darajasi hisoblanadi. Bolaning kattalar va boshqa odamlar, bolalar bilan o'zaro munosabatlarga kirishishi natijasida unda o'zi haqida tasavvur paydo bo'ladi. Lekin o'zini baholashning shakllanishi nizolilarsiz o'tmaydi. Ko'p hollarda atrofdagilarning baho berishi o'zini baholash bilan mos kelmaydi. Inson ko'pda atrofdagilar bahosini qabul qilish yoki o'z fikrida qolishdan birini tanlay olmay, qiyin ahvolda qoladi. Murakkab «solishtirish» jarayoni sodir bo'ladi, buni Rodjers «jonli baholash jarayoni» deb ataydi, chunki dastlab baholash manbai bola organizmida bo'lib o'tadi, ya'ni, bu erda biz yana bir bora tug'ma sifatlar tushunchasi bilan to'qnashamiz.

Psixologiyadagi umuminsoniy yo'nalishning boshqa vakili amerikalik ruhshunos Abraxam Xarald Maslou bo'ladi. Uning nuqtai nazariga ko'ra, insonning asosiy ehtiyoji – bu o'zini dolzarblashtirish, o'zini mukammallashtirish va o'zini namoyon etish. A. Maslouning yozishicha: «O'zini dolzarblashtiruvchi odamlarning barchasi qandaydir faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi ... Ular bunga berilgan bo'lib, ular uchun bu ish juda qadrlı – bu o'ziga xos layoqat». Bunday turga mansub odamlar yuksak qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar (ular ichida – yaxshilik, haqiqat, insoflilik, go'zallik, haqqoniylik, etuklik va boshqalar), bunday odamlar uchun bular hayotiy muhim ehtiyoj bo'lib xizmat qiladi. SHaxs tuzilishi Maslou bo'yicha tartibli tizimdan yoki ehtiyojlar darajasidan iborat. Bu ehtiyojlarni tubandan yuqoriga sanab o'tamiz: fiziologik (organik) ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlar, mansublilik va muhabbatga bo'lgan ehtiyojlar, hurmat qilish ehtiyojlari, bilish ehtiyoji, estetik ehtiyoj va o'zini dolzarblashtirish ehtiyojlari.<sup>96</sup>[3]

Yuksak taraqqiy etgan shaxs insonda mavjud bo'lgan o'zining barcha qobiliyatlarini to'la rivojlantirish, ma'nan o'sish va ahloqiy yuksalishga intilish kabi dolzarblashtirish ehtiyojlari bildiradigan xususiyatga ega bo'ladi.

Inson ehtiyojlar darajasi va u yoki bu ehtiyojning shaxs tuzilishida egallagan o'rning o'zgarishini belgilovchi quyidagi qonunlar mavjud: yuqoriroq darajadagi ehtiyojlar insonning quyiroq darajadagi ehtiyojlari oz darajada bo'lsa, ham qondirilgan holatdagina yuzaga kelib, muhim va dolzarb ehtiyojga aylanadi; agar insonda yangi ehtiyoj yuzaga kelib, dolzarblashganida, uning yaxlit ehtiyojlar darajasi ham qaytadan tuziladi.

---

<sup>95</sup> David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p-621

<sup>96</sup> David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p-621

Maslou fikricha, o'zini dolzarblashtirish — bu doimiy taraqqiyot va o'z imkoniyatlarini amaliyotga joriy etish jarayoni. Maslou o'zini dolzarblashtirish – tug'ma hodisa bo'lib, inson tabiatiga kiradi deb hisoblaydi. Inson yaxshilik, ahloqiylik, samimiylikka bo'lgan ehtiyojlar bilan tug'iladi. Ular insonning asosini tashkil etadi, va odam bu ehtiyojlarni joriy qilishni bilishi kerak bo'ladi.<sup>97</sup>[3]

Rossiya psixologiyasida shaxs sohasida ma'lum bo'lgan tadqiqotlar L.S. Vigotskiy maktabi vakillarining nazariy ishlari bilan bog'liq. SHaxs muammosini hal etishga A.N. Leontev va L.I. Bojovich katta hissa qo'shganlar.

L.S. Vigotskiy, L.I. Bojovich tomonidan kiritilgan etakchi faoliyat va taraqqiyotning ijtimoiy vaziyati tushunchalariga tayanib ish ko'rish bola hayotining turli davrlarida faoliyatning o'zaro ta'siri va shaxslararo muloqotning murakkab dinamikasida ichki nuqtai nazar deb ataladigan dunyoga ma'lum nigoh bilan qarash shakllanishini ko'rsatdi. Bu nuqtai nazar shaxsning muhim xususiyatlaridan biri, faoliyat etakchi motivlari yig'indisi sifatida tushuniladigan taraqqiyotning sharti bo'lib hisoblanadi.

A.N. Leontev o'zining markaziy o'rinni faoliyat tushunchasi egallagan shaxs tuzilishi va taraqqiyoti konsepsiyasini taklif etdi. L.I. Bojovichning konsepsiyasiga o'xshash, bu konsepsiyada ham, shaxsning asosiy ichki xususiyati shaxsning motivatsiya sohasi bo'lib hisoblanadi. Uning nazariyasidagi muhim tushuncha inson faoliyati maqsadlarining uning motivlariga, ya'ni, ayni damda bevosita qo'zg'atuvchiga yo'nalganlikka bo'lgan munosabatini ifodalovchi shaxsiy mohiyatdir. Shaxsga tegishli bo'lgan faoliyat turlari qanchalik keng, turli-tuman bo'lsa, ular shunchalik taraqqiy etgan va tartibli, shaxsning o'zi esa shunchalik ma'nan boy bo'ladi.

Xulosa o'rnida, shaxs bo'yicha tadqiqotlar hozirda ham faollik bilan olib borilayotganini ta'kidlab o'tish joiz. Hozirgi zamon tadqiqotlarining muhim xususiyati nazariy qarashlar eksperimental tadqiqotlar asosida shakllanishidan iborat.[2]

##### **5. O'zini anglash, o'zini bholash va shaxsiy da'vogarlik**

Ijtimoiy munosabatlar tizimida odamlar bilan o'zaro muloqotga kirishgandan so'ng inson o'zini atrofdagi muhitdan ajratadi, o'zidagi jismoniy va ruhiy holatlar, harakatlar va jarayonlarning sub'ekti sifatida his etadi, shaxsan o'zi uchun «boshqalar» qarshisida turgan, shu bilan birga, ularga bevosita bog'liq bo'lgan «Men» sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsan «Men» mavjudligining sub'ektiv kechinmasi, avvalambor, insonning hozirgi, o'tgan zamon va kelajakda shaxsan o'ziga nisbatan o'zining *o'xshashligini* tushunishi holatida ifodalanadi. SHunday qilib, *o'zini anglash* yoki «Men-konsepsiyasi» – bu individning o'zi haqidagi tasavvurlarning takrorlanmas tizimi sifatida kechiriladigan nisbatan barqaror u yoki bu darajada anglanganlikdir, uning asosida individ boshqa odamlar bilan o'zaro aloqalarini o'rnatadi va o'ziga munosabat bildiradi. «Men-konsepsiyasi» – bir butun bo'lsada, lekin ichki qarama-qarshiliklardan holi emas, o'ziga nisbatan mayl sifatida namoyon bo'ladigan va quyidagi tarkibiy qismlardan

<sup>97</sup> David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p-621



iborat shaxsiy Men *obrazi* bo'lib hisoblanadi: *kognitiv* – o'z sifatlari, layoqatlari, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy ahamiyatliligi va h.k.lar obrazi; *emotsional* – o'zini hurmat, o'zini yaxshi ko'rish, o'zini kamsitish va h.k.; *baholash-irodaviy* – o'ziga berilgan bahoni ko'tarishga, hurmatga sazovor bo'lishga va h.k.ga intilish. «Men-konsepsiyasi» – ijtimoiy o'zaro ta'sir sharti va oqibati ijtimoiy tajriba bilan aniqlanadi. Uning tarkibiy qismlari: *real Men* (o'zini hozirgi hozirgi zamonda tasavvur etish), *ideal Men* (uning fikricha, ahloqiy qoidalarga rioya qilgan sub'ekt kim bo'lishi), *dinamik Men* (sub'ekt qanday bo'lishni xohlashi), *xayoliy Men* (imkoniyat bo'lsa, sub'ekt qanday bo'lib qolishni istashi) va boshqalar.[1]

I.S. Kon «Men» tushunchasini individga o'zini anglashnigina emas, balki, o'z faoliyatini ongli yo'naltirish va boshqarish imkoniyatini yaratuvchi faol-ijodiy, integrativ muqaddima sifatida ochib bergan holda, bu tushunchaning ikki tomonlama xususiyatga ega ekanligini ta'kidlab o'tadi. O'zini anglash ikkilangan «Men»ni o'z ichiga oladi: 1) «Men» tafakkur sub'ekti sifatidagi, refleksga ega «Men» – faol, harakatchan, sub'ektga tegishli, ekzistensial «Men»; 2) «Men» idrok qilish va ichki sezgi ob'ekti sifatida – ob'ektga tegishli, refleksga ega, noyob hodisaviy, «Men» darajasi yoki «Men» obrazi «Men» tushunchasi, «Men-konsepsiyasi».

Refleksga ega «Men» *kognitiv chizmadan* iborat bo'lib, uning yordamida individ o'zining ijtimoiy persepsiyasini va boshqalar haqidagi tasavvurlarini tuzadi. Kognitiv chizma ikkita tizimni o'z ichiga oladi: shaxsiy va ijtimoiy o'xshashlik. SHaxsiy o'xshashlik jismoniy, intellektual va ahloqiy qirralar atamalaridagi o'z yo'nalishini belgilashga kiradi. Ijtimoiy o'xshashlik alohida o'xshashliklardan tashkil topib, odamning turli ijtimoiy guruhlar: irq, millat, sinf, jins va h.k.larga mansubligi bilan belgilanadi. SHaxsiy o'xshashlik bilan bir qatorda ijtimoiy o'xshashlik o'zini anglash va ijtimoiy hulq-atvorning asosiy boshqaruvchisi bo'lib hisoblanadi.

«Men-konsepsiyasi» faqat anglanadiganlarni o'z ichiga olgani uchun uni ongli kognitiv idrok va individning o'zini o'zi baholashi, ya'ni, o'zi haqida fikr va mulohaza bildirishi sifatida aniqlash mumkin.[2]

Ko'pchilik chet ellik mualliflarning U. Xyuit tomonidan umumlashtirilgan qarashlariga ko'ra, «Men-konsepsiyasi» bir necha tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

*Jismoniy nuqtai nazarga* ko'ra, «Men-konsepsiyasi» odam tanasi va organizmining psixofiziologik va anatomik xususiyatlarida: ko'rish, eshitish, og'irlik, jins, bo'y o'lchami va boshqalarda namoyon bo'ladi. Bularga yana kiyinish rusumi, yoqtirgan avtomobil rusumi, uy-joy turi, yashash hududini kiritish zarur.

*Akademik nuqtai nazarga* ko'ra, «Men-konsepsiyasi» maktabda olingan baholar va erishilgan yutuqlar, o'qishga bo'lgan istak va malakalar, va shu kabilarda ifodalanadi. Odatda, ular ikki darajaga bo'linadi: a) matematika, adabiyot, chet tillar va boshqa fanlar bo'yicha erishilgan yutuqlarning qay darajada yaxshi va yuqoriligida namoyon bo'ladigan akademik yutuqlarning umumiy jihatdan baholanishi; b) shaxsiy yutuqlarning bir xil ijtimoiy guruh yoki bir

avlodga mansub bo'lgan boshqa odamlarning yutuqlari bilan qiyoslashtirish asosida shakllanadigan akademik yutuqlarning ijtimoiy jihatdan baholanishi.

**Ijtimoiy nuqtai nazarga** ko'ra, «Men-konsepsiyasi» atrofdagi odamlar bilan – oila doirasida, qo'shnilar orasida, ishxonada o'zaro munosabatlarning o'rnatilishiga bog'liq bo'ladi.[2]

Ijtimoiy «Men» bizning boshqa odamlar, jamiyat hayotiga kirgan holda bu jamiyatga nisbatan ba'zi bir majburiyatlarni bajarishimiz, boshqacha aytganda, ijtimoiy rollar: o'quvchi, o'g'il-qiz, do'st, sportchi, a'lochi, yigit, qiz bolaning rolini o'ynaganimiz yuzasidan paydo bo'ladi. Biz boshqa odamlar bilan rollar darajasidagi muloqotda juda ko'p vaqtimizni o'tkazamiz.

**Transshaxsiy nuqtai nazarga** ko'ra, «Men-konsepsiyasi» hayot mazmuni muammosini hal etishga mas'ul bo'lganligi, inson diniy qarashlari yoki ularning mavjud emasligi bilan bevosita bog'liqligi sababidan muhimdir.

Har bir «Men» tamoyillar, mulohazalar, ahloqiy qoidalar, maqsadlar, motivatsiyalarning yaxlit tizimidir. Balki, har bir «Men» o'z tiliga egadir. Bunday tillar qatoriga harakatlar, ishoralar, mazmunlar, ichki nutq tillari kiradi (7.2 rasm).

Umuman olganda, odamning nechtagacha «Men»i bo'lishi mumkin? Keling, yuqorida keltirilgan ba'zi «Men»larni sanab o'tamiz.

1. **«Sub'ektiv (nohaqlik) Men»** – bu da'vogarlik darajasi, yutuqlar motivatsiyasi, o'zini yuzaga chiqarishga intilish, shuningdek, o'z qobiliyatlarini bo'rttirib ko'rsatish. Bunday «Men»ning yana bir turi sifatida tug'ma qirra – boshqalar harakatini noto'g'ri tushuntirish, shaxsiy sifat va layoqatlarini oshirib ko'rsatishdan iborat «sevimli Men» namoyon bo'ladi.

2. **«Aks ettirilgan Men»** ijtimoiylashuv jarayonida paydo bo'ladi. Bu tasavvurlar yig'indisi boshqalarning biz haqimizdagi fikrlaridir. Indivud boshqalarga qarab, o'z harakatlariga muntazam ravishda o'zgartirishlar kiritib turadi. Boshqalar uning uchun ijtimoiy oyna vazifasini bajaradi.

3. **«Boshqalar kutgan Men»** – bu mening fikrimcha, boshqalar menda ko'rmoqchi bo'lganlari, mendan kutayotganlari. Bunda ikkilangan aks ettirishni ta'kidlash lozim: menda haqiqatdan ham ko'rmoqchi bo'lgan xususiyatlar emas, mening fikrimcha, ko'rmoqchi bo'lganlardir.

Ko'p hollarda «Kutilgan Men» sohasini ota-onalar belgilaydi. Ba'zan ular o'z farzandlariga bu haqda to'g'ridan to'g'ri gapiradilar («Haqiqiy musiqachi bo'lib etishishingni orzu qilaman (olim, shoir va sh.o'.)»).

Odatda, «Kutilgan Men» biz uchun obro'li bo'lgan insonga yo'nalgan holda tuziladi. Bu ota, ona, qarindoshlar yoki do'stlardan biri, ba'zida ustoz ham bo'lishi mumkin. Bu insonning obro'si qanchalik kuchli bo'lsa, uning kutilganlariga nisbatan yo'nalish ham shunchalik kuchli bo'ladi.

4. **«Ko'rgazmali Men»** yoki **«Namoyishkorona Men»** katta tantanalarda o'zining egallab turgan darajasini ko'rsatish, alohida ko'rinish uchun kiyiladigan ko'chalik ko'ylakni eslatadi. «Na Men» – bu boshqalarda yaxshi taassurot qoldirish uchun ko'rsatiladigan hulq-atvor aktlari yig'indisi. Bunga, shuningdek, biz o'z darajamiz yoki ijtimoiy rolimizdan qat'iy nazar bildiradigan qarashlar, g'oyalar, hulq-atvor odati va shu kabilarni kiritish mumkin.

5. «*Uydagi Men*» ko‘chalik ko‘ylakni echib, hulq-atvorning ko‘rgazmali odatlarini tashlab, bo‘shashganda namoyon bo‘ladi. Masalan, gerdaygan general doimo unga boshchilik qilib, hatto, ovozin ko‘taradigan ayolining itoatkor qo‘g‘irchog‘iga aylanadi. YOki yuvosh ziyoli muhandis uyidagi ayoli va bolalarini qiynaydigan zolimga aylanadi.

6. «*Samimiy Men*» - eng yaqin odamlardan ham sir tutiladigan «Uydagi Men»ning yashirin qismi. Har birimizda, hatto, yaqin odamlarimizdan yashiradigan sirlarimiz topiladi. U o‘zimiz yakka qolganimizda ochishga imkon berishimiz mumkin bo‘lgan, qachondir sodir etilgan va kechirib bo‘lmaydigan xatolik hisoblanadigan, anglanmagan va boshqalar tomonidan qoralanadigan istaklar (ayniqsa, jinsiy) va boshqalar kabi yomon odatlardan shakllanadi. Boshqacha aytganda, bu biz boshqalarda ta‘na qiladigan, lekin o‘zimiz namoyon qiladigan harakatlar va qirralar uchun zahiradir.

«Men»ning oxirgi uch turi ma‘lum ko‘rinishda bir-biri bilan yoki o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. «Men»ning boshqa turlariga qaraganda, ularning o‘zaro bog‘liqligi kuchliroqdir. Quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:

- «Na-Men» - «Namoyishkorona Men»;
- «Uy-Men» - «Uydagi Men»;
- «Sa-Men» - «Samimiy Men».

Ular bunday tartibda boshqalarga ishonch bildirish va sir tutilgan haqiqat darajalarining kamayishi bo‘yicha joylashtirilgan. Masalan, ko‘pchilik bizning «Na-Men»imizni ko‘proq, «Sa-Men»imizni esa kamroq biladilar. Lekin eng haqqoniy «Men» «Sa-Men», eng yanglish esa – «Na-Men». O‘rtada etarlicha haqqoniy va yaqin odamlarga tanish bo‘lgan «Uy-Men» joylashadi.[1]

Shunday qilib, xulosa qilish mumkin: «Men»imiz bilan qanchalik kam odam tanish bo‘lsa, u haqdagi ma‘lumot shunchalik haqqoniy bo‘ladi. «Men»imizni egallagan odamlar soni, «Men»imiz haqidagi haqiqat hajmi teskari proporsional bog‘liklikda joylashadi:

- «Na-Men» - uzoqdagi boshqalar uchun ma‘lumot;
- «Uy-Men» - yaqindagi boshqalar uchun ma‘lumot;
- «Sa-Men»- faqat o‘zi uchun ma‘lumot.

«Men»imizning uch modalligi

Endi ajratilgan belgilanishlar asosida xulosalarni ifodalashimiz mumkin: «Na-Men» - bu o‘zi haqidagi ko‘proq yolg‘on va ozgina haqiqatdir, boshqa so‘zlar bilan aytganda, kamchiliklarning kamrog‘ini ko‘rsatib, afzalliklarni, ba’zida ular o‘ylab topilgan bo‘lsa ham, yuqori darajada namoyish qilishdir; «Uy-Men» - oraliq soha – 50% ko‘rsatiladigan kamchiliklar va 50% namoyish etiladigan afzalliklar; «Sa-Men» - haqiqatni yuqori darajada va yolg‘onni kamroq darajada bilish, boshqacha aytganda, afzalliklarni kamroq ochib berish va kamchiliklarni ko‘proq aniqlash.

Bunga o‘xshash raqamlar chizig‘i asosida pragmatik mulohazalar yotadi. Haqiqatdan ham, har birimizga ma‘lumki, odam o‘zidan hech narsani yashira olmaydi; yaqinlardan kamchiliklarni yashirish befoyda; uzoqdagilarga kamchiliklarni namoyish qilish xavflidir.

Hammadan ko‘ra ko‘proq o‘zimizni kuzatganimiz uchun, barcha o‘zi to‘g‘risidagi haqiqatni biladi. Etarli darajada ko‘p hollarda «Men»imizning ijobiy

va salbiy tomonlarini bilgan yaqinlarimiz turli vaziyatlarda bizlarni kuzatadilar. Yaqinlarimizni qanchalik ko'proq kamchilik va nuqsonlarimizda ishonitiradigan bo'lsak, ularda shunchalik darajada insoniy hamdardlikni uyg'otamiz, o'zaro munosabatlarimiz ham shunchalik samimiy bo'ladi, nihoyat, ular shu darajada yordam qo'lini cho'zishga tayyor turadilar. To'g'ri, albatta, yaqinlarga o'z kamchiliklarini namoyish qilishning ham ma'lum me'yori bo'lishi darkor.

Uzoqdagilardan kamchiliklarni, yaxshisi, yashirgan va afzalliklarni ularga ko'rsatgan ma'qul. Individ notanish odamlarga o'z kamchiliklarini namoyish qilar ekan, uni tarbiya ko'rmagan odam sifatida qabul qilib, u bilan har qanday aloqalarni butunlay uzishlari mumkin.[2]

«Na-Men» - nomaqbul tasavvurning yoki o'zini odamlarga ko'z-ko'z qilish ehtirosli istagining mevasi emas. Buning orqasida chuqur ijtimoiy maqsadga muvofiqlik turadi: o'zining eng yaxshi sifatlarini namoyish qilishga intilish didni, o'ziga qarash malakasini, xarakatlarni nazorat qilishni, nihoyat, o'z hulq-atvorini takomillashtirishni shakllantiradi. O'zini tutish madaniyati uy sharoitida emas, balki tantanali bayram kechalarida, do'stlar va mehmonlar davrasida yuzaga keladi.

Shunday qilib, o'z «Men»ining mavjudligi kechinmasi go'daklik davrida boshlanadigan va I.S. Kon «Menni kashf etish» sifatida belgilagan shaxs shakllanishi jarayonining natijasi bo'lib hisoblanadi. Bir yashar bola tanasidagi hissiyotlari bilan tashqaridagi jismlardan yuzaga keladigan hissiyotlar o'rtasidagi farqni anglay boshlaydi. So'ngra, 2-3 yoshida bola unga zavq bag'ishlaydigan jarayon va o'zining jismlar bilan harakatlari natijasini kattalarning jisimli harakatlariga «Men o'zim!» talabini qo'ygan holda, ajrata boshlaydi. U birinchi marta o'zini atrof- muhitdan ayro tutish bilan birga, boshqalarga qarama-qarshi turgan holatda o'z harakatlarining sub'ekti sifatida anglay boshlaydi. Bolalar bog'chasi va maktab chegarasida, kichik sinflarda kattalar, ota-onalar va o'qituvchilar yordamida shaxsiy psixik sifatlarini baholashga vaqtincha yutuq va kamchiliklarining sababini anglash darajasida yondoshish imkoniyati tug'iladi. Nihoyat, o'smirlilik va o'spirinlik davrida ijtimoiy hayot va mehnat faoliyatiga faol kirishish natijasida ijtimoiy-ahloqiy o'zini baholashning kengaytirilgan tizimi shakllana boshlaydi, o'zini anglash taraqqiyoti nihoyasiga etib, asosan, «Men» obrazi tarkib topadi.

**O'zini baholash** – bu shaxs tomonidan o'z-o'zini, o'z imkoniyatlari, sifatlarini va odamlar orasidagi o'rnini baholashi. Bu psixologiyada o'zini anglashning mohiyatliroq bo'lgan va eng ko'p o'rganilgan tomonidir.[1]

Shaxs asosiga tegishli bo'lgan holda o'zini baholash hulq-atvorining muhim boshqaruvchisi bo'lib xizmat qiladi. Odamning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlari, uning o'ziga nisbatan tanqidiyligi, talabchanligi, yutuq va kamchiliklarga munosabati o'zini baholashga bog'liqdir. O'zini baholash qanday tarkib topadi? Boshqa odamning sifatlarini o'rgangan sayin, shaxs xususiy bahoni ishlab chiqish imkonini yaratuvchi zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi. SHaxsiy «Men» haqida tarkib topgan baholanish shaxsning boshqa odamlarda ko'radiganlari va o'zidagi kuzatishlar bilan muntazam ravishda solishtirib borishning natijasidir. Odam o'zidagi ba'zi bir narsalarni bilgan holda o'zini u

bilan solishtiradi, boshqaning ham uning shaxsiy sifatlari, harakatlari, ifodalariga befarq emasligini taxmin qiladi; bularning barchasi shaxsni o'zini baholashiga tegishli bo'lib, uning ruhiy kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxs doimo referent guruh (real yoki ideal)ga egadir, shaxs unda o'z qadriyatlarini o'zlashtirgani uchun bu guruh bilan hisoblashadi, uning ideallari va qiziqishlari va h.k.lar, shuningdek, shaxsning ham ideallari va qiziqishlari bo'lib hisoblanadi.

Shaxs muloqot jarayonida muntazam o'zini mukammal namuna bilan solishtiradi va bu tekshirish natijalariga bog'liq ravishda o'zidan mamnun bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin.

O'zini baholash *muvofiq* va *nomuvofiq* bo'lishi mumkin. Muvofiq, mutanosib o'zini baholashda individ o'z imkoniyatlari va layoqatlarini to'g'ri solishtiradi, o'ziga etarlicha tanqidiy ko'z bilan qaraydi, o'z yutuq va kamchiliklariga real qarashga intiladi, o'z oldiga haqiqatdan ham amalga oshirishga erishishi mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yishga harakat qiladi. Muvofiq holda o'zini baholashga o'zini «yuqori daraja»da va «o'rta darajadan yuqori» baholash kiradi.

Lekin, o'zini baholash nomuvofiq – o'ta oshirilgan yoki o'ta pasaytirilgan bo'lishi ham mumkin.

Nomutanosib ravishda oshirilgan o'zini baholash asosida odamda o'zi haqida noto'g'ri tasavvur, shaxsi va imkoniyatlarining, atrofdagilar, umumiy ish uchun o'z qadriyatining ideallashtirilgan obrazi paydo bo'ladi. Oshirilgan holda o'zini baholash odamning o'zini bunday bo'lishiga yo'l bermaydigan vaziyatlarda ham o'ziga ortiqcha baho berib yuborishiga olib keladi. Natijada ko'p hollarda uning talablarini inkor etuvchi atrofdagilarning qarshiliklariga duch keladi, gumonsirash, badgumonlik va ataylab takabburlik, tahdidni namoyon qilgan holda g'azablanadi, va, nihoyat, zarur shaxslararo aloqalardan voz kechib, odamovi bo'lib qolishi mumkin.<sup>98</sup>[3]

O'zini baholash pasaytirilgan holda, ya'ni, shaxsning real imkoniyatlaridan quyiroq bo'lishi ham mumkin. Bu, odatda qat'iyatsizlikka, uyatchanlikka, o'z imkoniyatlariga noto'g'ri baho berishga va jur'atsizlikka, o'z qobiliyatlarini joriy eta olmaslikka olib keladi. O'ziga baho berishning o'ta pasaytirilgan holati *mukammal emaslik kompleksining* rivojlanganligi, barqaror qat'iyatsizlik, tashabbuskorlikdan voz kechish, befarqlik, o'zini ayblash va xavotirlanishdan darak berishi mumkin.

O'ziga o'ta yuqori yoki o'ta pasaytirilgan baho berish o'zini boshqarish jarayonini izdan chiqaradi, o'zini nazorat qilishni buzib ko'rsatadi (muloqotda).

O'zini baholash shaxsdagi da'volar darajasi bilan uzviy bog'langan. U. Djemsning formulasi bo'yicha, odam suratida yutuqlar va maxrajida o'zini baholash bo'lgan kasrdir:  $r = \frac{D}{C}$ .

*Da'vogarlik darajasi* – u yoki bu faoliyatda inson erishmoqchi bo'lgan eng katta yutuq. A.V. Petrovskiyning ta'rifiga ko'ra, da'volar darajasi – bu individ o'z

---

<sup>98</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 625

oldiga qo‘ygan maqsadning qiyinligi darajasida ifodalanadigan shaxs o‘zini baholashining istalgan darajasidir («Men» obrazi darajasi).

Inson navbatdagi harakatning qiyinchiligi darajasini erkin holda tanlash imkoniyatiga ega bo‘lgan vaziyatda o‘ziga baho berishni oshirish ikki tendensiya o‘rtasidagi nizolika sabab bo‘ladi: bir tomondan, katta yutuqni boshidan o‘tkazish uchun da‘vogarlikni oshirishga intilish, ikkinchi tomondan – omadsizlikka duchor bo‘lmazlik uchun da‘volarni kamaytirib turish. Yutuqqa erishilganda da‘volar darajasi, odatda, oshadi, odam qiyinroq masalalarni echishga qodirligini namoyon qiladi, omadsizlikda esa – mos ravishda pasayadi.

Da‘volar darajasining shakllanishi faqatgina yutuq yoki omadsizlikni oldindan anglash bilan emas, balki, avvalambor, oldingi yutuq va omadsizliklarni oqillik bilan, ba‘zida esa noaniq anglangan holda hisobga olish va baholash bilan belgilanadi. Da‘volar darajasining shakllanishini o‘quvchining ta‘lim olishida, to‘garakdagi ma‘ruza mavzusini tanlashda, topshiriq berishda va shu kabilarda kuzatish mumkin.

Shaxsning da‘volar darajasi ustida olib borilgan tadqiqotlar faolligi bilangina emas, balki, ularning mazmuni, guruh maqsadlari va vazifalarining aloqasiga ko‘ra, inson xulq-atvori motivlarini yaxshiroq tushunishga va shaxs fazilatlarini shakllantiruvchi yo‘naltirilgan ta‘sirni amalga oshirishga imkon yaratadi. Ba‘zi bir holatlarda pedagog uchun shaxs da‘volar darajasini oshirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi; o‘quvchi o‘ziga va imkoniyatlariga past nazar bilan qaragan taqdirda, bu vaziyat ma‘lum holatda ziyon etkazib, g‘alabaga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishiga olib keladi. Omadsizliklarning ketma-ket takrorlanishi og‘ir hissiyotli jahldorlik va nizolilardan iborat bo‘lgan umumiy holatda o‘ziga baho berishni pasaytirib yuboradi va o‘quvchi o‘zidan hafsalasi pir bo‘lishi mumkin.

Da‘volar darajasini oshirishning turli xil yo‘llari mavjud bo‘lib ular o‘quvchining individualligi, frustratsiya xususiyati, pedagogning imkoniyatlari va boshqalarga bog‘liqdir. Bunga o‘qituvchi va sinf guruhi tomonidan ko‘rsatiladigan yordam, shuningdek, shaxs uchun istiqbol yaratishning turli usullari kiradi.

Boshqa holatlarda pedagog uchun bola yoki o‘smirning da‘volari darajasini, ayniqsa, o‘quvchi o‘z oldiga qo‘ygan vazifalar real vaziyatda oqlanmaydigan, o‘z imkoniyatlarini baholash esa oshirib yuborilgan taqdirda, kekkeyish, o‘ziga xos ustunlik kompleksi va h.k.lar paydo bo‘lgan vaziyatda bir muncha kamaytirish muhimdir. O‘quvchi haqqoniy bo‘lmagan oshirib yuborilgan da‘volar darajasi bilan guruhda qat‘iy qarshilikka uchrashining o‘zi emas, balki, unda mavjud bo‘lgan o‘ziga ortiqcha baho berish real omadsizliklar bilan ko‘plab qarama-qarshiliklarga duch kelib, o‘tkir emotsional nizolilarni yuzaga keltirgani sababidan, ushbu masalani hal etish zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tiladi. Bunda, ko‘p hollarda o‘quvchi uning o‘ziga ortiqcha baho berishi bilan mos kelmaydigan shaxsiy omadsizlik holatlarini payqamaslikka urinib, qaysarlik qiladi, arazlaydi, o‘zini ataylab mamnundek ko‘rsatib, o‘zini nomutanosib tutadi yoki omadsizligida kimningdir qarshi ta‘sirini, yomonligini tushuntirishga harakat qiladi, shubhali, g‘azabnok, tahdidli bo‘lib qoladi.

SHunday qilib, shaxsning o'zini anglashi o'zini baholash mexanizmidan foydalanib, diqqat bilan shaxsiy da'vogarlik va haqiqiy yutuqlar nisbatini qayd etadi.

### **7. Shaxsning psixologik himoyasi**

Insondagi eng qadrlil narsa uning shaxsiyatiga tegishli asosdir. U jonli tabiat va jamiyat tomonidan o'tkaziladigan o'ta kuchli bosimdan himoya qilinishi zarur.

Himoya anglanmagan tarzda sodir etiladi. SHaxs asosini emirilishdan muhofaza qiluvchi ruhiy mexanizm himoyalovchi mexanizm deb ataladi. U biologik evolyusiyadan ko'ra ko'proq madaniy evolyusiyaning natijasi bo'lib hisoblanadi.

**Psixologik himoya** – shaxs yaxlitligiga tahdid soluvchi, nizolilar bilan bog'liq bo'lgan salbiy kechinmalarni kamaytirishga yo'naltirilgan mexanizmlar tizimi. Psixologik himoya shaxs tomonidan psixologik noqulaylik, «Men-obrazi»ga tahdid soluvchi kechinmalarni bartaraf etish va ushbu vaziyatlarga tegishli bo'lgan darajada saqlash uchun qo'llaniladigan boshqarish tizimini tashkil qiladi.[2]

«Himoya mexanizmlari» tushunchasi Z. Freyd tomonidan asabiy holatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan nizolilarda «Ego» qo'llaydigan usulni umumiy holda belgilash uchun kiritilgan edi. Klinika amaliyotida u o'zi va olam bilan kelisha olmagan odamlarga juda ko'p marotaba duch kelgan. Ular irratsional harakatlarni amalga oshirib, nomutanosib fikrlarni ifoda etgan holda, idrok qilish illyuziyalarini namoyish qilganlar, bularning barchasi aniqlik kiritishni talab etardi. SHularga o'xshash reaksiyalar tashhislarda rasmiylashtirilgan edi. Bunday tashhislar sog'lom insonlarda ham aniqlangan edi. Bunday holatni tushuntirib berish uchun Z. Freyd 1884 yilda «psixologik himoya» tushunchasini kiritdi, bu tushunchani anglanmagan intilishlar va ijtimoiy talablar (cheklovlar) o'rtasidagi nizolilarni hal etishning shakli sifatida talqin etdi. Uning qizi Anna Freyd o'zining «Men va himoya mexanizmlari» nomli ilmiy ishida, otasining nazariyasini rivojlantirib, Ego-himoya mexanizmlari anglanmagan bo'lishini va ular «ichki sezgining talablarini inkor etishini» ta'kidlagan edi.<sup>99</sup>[3]

Hozirda psixologik himoya shaxs nazariyalarining barchasida, insonga nisbatan turli yondoshuvlarda tan olinadi va ta'riflanadi. Himoya mexanizmlari yoki psixologik himoya, - bu insonning o'zini noxush kechinmalar, qalb jarohatlari va xavotirlardan himoya qilishda qo'llaydigan, unga xos bo'lgan va umuman anglanmaydigan tizimli harakatlar.

Tadqiqotlarga ko'ra, odamlar shaxsiy sifatlari baholanishlari orasidan o'zlarining baho berishlari bilan mos tushadiganlarini yodda saqlab qoladilar. Shu tarzda ular o'zlariga bo'lgan hurmatlarini yo'qotmagan, ko'z oldimizda obro'imizni tushirmagan xolda xatoliklar va omadsizliklarning sababini tushuntirishga harakat qiladilar. Xuddi mana shuning uchun ham inson ruhiyati himoya mexanizmlari bilan qurollandi. Ular tashqaridan kelayotgan axborotlarni saralab, faqatgina insonning ichki olami – «Men-konsepsiyasi»ning yaxlitligini saqlashga xizmat qiladiganlarini o'tkazadilar.

---

<sup>99</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 613

Shunday qilib, himoya mexanizmlari insonlar uchun juda muhim bo'lgan ikki xususiyatga egadirlar:

- voqelikni inkor etadilar, buzib ko'rsatadilar yoki parchalaydilar;
- anglanmagan holda, ya'ni, avtomatik tarzda va tez ta'sir ko'rsatadilar.

Psixologik himoyalarni tasniflashga nisbatan bir necha xil yondoshuvlar mavjud. Ularni *etuk* va *sodda* guruhlariga ajratish eng oddiy tasniflashdir. Birinchi guruhga maqsadga muvofiqlik, intellektuallashtirish, mutoyiba, sublimatsiya va boshqalar, ikkinchisiga esa – dissotsiatsiya, kuchli nazorat, qadrsizlanish, inkor etish, yakkalanish, tahdid soluvchi bilan tenglashtirish va boshqalar kiradi. Psixologik himoyani boshqa tamoyil asosida ham tasniflash mumkin, unga ko'ra, bir xillari idrok darajasida ta'sir qilsa, masalan, siqib chiqarish, boshqalari esa – transformatsiya darajasida, ma'lumotni qayta ishlash jarayonida ta'sir ko'rsatadi, masalan, maqsadga muvofiqlik.

Psixologik himoya mexanizmlari nihoyatda xilma xildir. Ular Z. Freyd, A. Freyd, A. Adler va ko'pgina boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. A. Freyd quyidagi «psixodinamik» mexanizmlarni himoyalovchi sifatida qabul qilishni taklif etdi, bular: siqib chiqarish, ustunlik, regressiya, reaksiyaning hosil bo'lishi, yakkalanish, amalga oshirilgan faoliyatni inkor etish (bekor qilish), sodir bo'layotgan voqea, proeksiya, introeksiya, o'z shaxsiga murojaat, o'ziga qarama-qarshi tomonga aylanish, sublimatsiyadir. Keyinchalik bu ro'yxat tashqi frustratorlar: vaziyatdan qochish, inkor etish, tenglashtirish, «Men»ni cheklashga qarshi yo'naltirilgan yangi mexanizmlar bilan to'ldirildi. Boshqa ruhshunoslarning fikriga ko'ra, ro'yxatni quyidagi muhim himoya-moslashuv mexanizmlari: maqsadga muvofiqlashtirish, xayol, konversiya, ramziy belgilash, ko'chirish bilan to'ldirish zarur.<sup>100</sup>[3]

Psixologik himoyaning asosiy mexanizmlari o'rtasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: ustunlik, reaktiv o'qitish, inkor etish va rad qilish, siqib chiqarish, sublimatsiya, proeksiya, maqsadga muvofiqlik va boshqalar. Hozirda ruhshunoslarning fikriga ko'ra, o'zining samaradorligi, etukligi va ularni yuzaga keltirgan nizoli,- intilishlar, ahloqiy mayllar yoki tashqi voqelik sohasiga kiritilishi bo'yicha tafovutlanadigan himoya mexanizmlarining yigirmadan ortiq turi mavjud.

Psixologik himoyaning asosiy mexanizmlarini ko'rib chiqamiz.

1. **Inkor etish.** Inson unga og'riq beruvchi voqelikka e'tiborsizlik bilan, o'zini xuddi muammo mavjud emasdek tutadi.

2. **Ko'chirish** – hissiyot ob'ektini xavfsizrog'iga almashtirish. Aslida hissiyotlarning paydo bo'lishiga umuman boshqa odam sabab bo'lsada, inson muhabbat, nafrat, raqobatchilik haqida mulohaza yuritadi.

3. **Sublimatsiya** – jinsiy mayllar bilan bog'liq harakatlarni yuksak maqsadlarga, masalan, ijodkorlikka safarbar qilish.

4. **Proeksiya** – inson o'zining shaxsiy ong uchun maqbul bo'lmagan ichki sezgi va istaklarini boshqa odamlarga o'tkazishidan iborat bo'lgan himoya mexanizmi. Boshqalarni, aynan, shuning uchun ayblaydi.

---

<sup>100</sup>David G. Myers Psychology Hope College Holland, Michigan p- 612



5. **Xayollarga berilish** – shaxsiy «Men»ning ahamiyatligini ko'rsatish maqsadida tasavvur, zeb berish, o'z imkoniyatlariga ortiqcha baho berish sohasida frustratsiyalangan ehtiyojlarni qondirish.

6. **Kasallikka berilish** – muammolarni hal etishda ma'suliyatlilik va mustaqillikdan bosh tortishga intilish; bu mexanizm «ikkilamchi foyda» noyob hodisasi bilan bog'liq. Bemorlik roli odamni harakat qilish zaruriyatidan ozod qiladi, tobe va hamdardlikka muhtoj bo'lishga imkon yaratadi.

7. **Repressiya** (siqib chiqarish, so'ndirish) – xotiradan ruhiyatga jarohat etkazuvchi noxush uchrashuvlar, voqealar, hodisalarni o'chirib tashlaydigan tub negizli himoya mexanizmi. O'zimiz ham bajarolmagan va'da, xunuk xatti-harakatimiz haqida juda tez unutimiz. Lekin bu munofiqlik emas. Inson haqiqatdan ham ko'rmay, bilmay turib, unutib yuboradi.

8. **Regressiya** – voyaga etgan insonga o'zini yosh boladek tutish imkonini beruvchi rivojlanishning dastlabki boqichlariga qaytish. Oilali ayol turmush o'rtog'i bilan kelisholmay qolsa, xuddi, avvalgidek, ota-onasi uyida kichkina qizcha davridagidek, himoya va yupanch ilinjida yig'lay boshlaydi. Ba'zida kattalar qandaydir vaziyatda «bolalarcha ifodalar» bilan gapirishlari mumkin. Bu o'ziga xos ravishda xavotirga sabab bo'luvchi voqealardan, muammolardan o'ziga xos ravishda chekinishdir.

9. **Qarama-qarshi reaksiyaning shakllanishi** – ong uchun maqbul bo'lmagan reaksiyaning qarama-qarshisiga almashtirish, masalan, muhabbatni – nafratga, nafratni – muhabbatga. Jinsiy etilish davrida qizlarga nisbatan havasning uyg'ongani anglanmagan holda o'g'il bolalar qizlarning sochlaridan tortishi, janjallashishi, yomon laqab qo'yishi, ularga toqat qilolmasliklarini alohida ta'kidlashlarida namoyon bo'ladi.

10. **Qasd olish** – impuls yoki hissiyotni bir ob'ektdan qulayroq boshqa ob'ektga qayta yo'naltirish. Oila boshlig'i ishxonadagi noxushliklarning alamini bevosita aybdor - boshlig'idan emas, balki, ayolidan, bolalaridan yoki itidan oladi.

11. **Maqsadga muvofiqlashtirish** – muvofiq kelmaydigan harakatlar va fikrlar uchun ishontiradigan sabablarni o'ylab topish, o'zini aldash. Masalan, omadsizlikka uchragan odam, o'zi intilgan ob'ekt qadrini pasaytirgan holda, haqoratlangan izzat-nafsini tinchlantiradi. Rad javobini olgan yigit qizning «didiga mos kelmasligini» yoki avval o'ylaganchalik go'zal emasligini e'lon qilishi mumkin.

12. **Intellektuallashtirish** – uning yordamida sub'ekt diskursiv ko'rinishda o'zining nizolilari va hissiyotlarini ularni egallab olish maqsadida ifodalashga harakat qiladigan jarayon. Boshqacha aytganda, o'z havaslarini, mantiqiy hosil qilingan mulohaza tuzilmalariga o'ragan holda, ifodalashga intilishdir. Kechinma mulohaza yuritish bilan almashtiriladi.

13. **Yakkalanish** – intellektuallashtirishga o'xshash mexanizm bo'lib, mulohaza yoki harakatning sub'ektning boshqa fikrlari yoki hayotining boshqa tomonlari bilan uzilishini bildiradi. Yakkalanish tafakkur jaraniyodagi to'xtalishda, formula va ritualda ifodalanishi mumkin. Bu mexanizm u yoki bu mavzu yuzasidan suhbatlashish istagining mavjud emasligi, muhokama etilmasligi sifatida ko'rinadi.

14. **Tenglashtirish** – o‘ziga boshqa odamga xos bo‘lgan hislar, mulohazalar, kayfiyatlarni o‘zlashtirib olish. Turlaridan biri tahdid soluvchiga o‘xshatish. Bu dushman uyg‘otayotgan qo‘rqinch hissidan qutilish uchun sub‘ekt, yoki rolni qabul qilgan holda, yoki ob‘ektning o‘zini parchalagan holda u bilan aloqa o‘rnatishini bildiradi.

Hozirgi zamon tadqiqotlari etarlicha puxta ishlab chiqilgan «Men» himoya mezanizmlarini va «O‘zi» mexanizmlarini chegaralashga qaratilgan. Birinchi holatda ob‘ektga yo‘naltirilgan, sub‘ektning bir qismi bo‘lgan, ikkinchisida – sub‘ekt o‘zi uchun ob‘ekt bo‘lib xizmat qiladigan tashkilot bilan ish ko‘ramiz.[2]

### 8. **Shaxsning shakllanishi va taraqqiyoti**

«Shaxs shakllanishi» tushunchasi ikki ma’noda qo‘llaniladi: 1) shaxs shakllanishi uning rivojlanishi, jarayoni va natijasi sifatida. Shaxs shakllanishi tushunchasining xuddi shu ma’noda qo‘llanilishi psixologik o‘rganish predmeti bo‘lib hisoblanadi, uning vazifasiga esa **mavjud bo‘lganlarni** (mavjud, tajribada ma’lum bo‘ladigan) va rivojlanayotgan shaxsda maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy ta’sirlar sharoitida **mavjud bo‘lishi mumkinlarni** aniqlash kiradi. Bu shaxs shakllanishini o‘rganishga **psixologik yondoshuvdir**; 2) shaxs shakllanishi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya sifatida. Bu shaxs shakllanishiga doir masalalarni va usullarni hal etishga bo‘lgan **pedagogik yondoshuv**. Pedagogik yondoshuv jamiyatning ijtimoiy talablariga mos kelishi uchun shaxsda **shakllanishi kerak bo‘lganlarni** aniqlashtirish zarurligini belgilaydi.[1]

Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, unga aylanadi. Shaxs taraqqiyoti bo‘ysunadigan qonunlarga doir turli nuqtai nazarlar mavjud. Turli xil shaxs nazariyalari ko‘pchilikni tashkil etadi, ularning har birida shaxs taraqqiyoti muammosi o‘ziga xos holatda ko‘rib chiqiladi. Psixologik tahlil nazariyasi rivojlanishni insonning biologik tabiatini jamiyatdagi hayotga moslashuvi, insonda ehtiyojlarni qondirishning ma’lum himoya mexanizmlari va usullarining ishlanmasi sifatida tushuntiradi. Xususiyatlar nazariyasiga ko‘ra, shaxs xususiyatlari hayoti davomida shakllanadi, ularning hosil bo‘lish, o‘zgarish va barqarorlashtirish jarayonlari nobiologik qonunlarga bo‘ysunadi. Ijtimoiy ta’limot nazariyasiga ko‘ra, shaxs taraqqiyoti jarayoni odamlar o‘zaro ta’sirlashuvi ma’lum usullarining shakllanishi sifatida o‘rganiladi. Umuminsoniy va boshqa noyob hodisalar bilan bog‘liq nazariyalar «Men»ning vujudga kelish jarayoni sifatida tushuntiradilar.

Shaxs taraqqiyoti uning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi jarayonida sodir bo‘ladi. Mavjudligining birinchi kunlaridan boshlab, inson o‘ziga o‘xshaganlar qurshovida bo‘ladi, turli xil ijtimoiy munosabatlar va o‘zaro harakatlarda qatnashadi. Birinchi ijtimoiy tajribani oilasi sharoitida orttiradi, so‘ngra turli jamoalar sharoitida shaxsining ajralmas qismiga aylangan sub‘ektiv tajribani to‘plab boradi. Bu jarayon, shuningdek, individ tomonidan ijtimoiy tajribaning faol tarzda ishlab chiqarilishi **ijtimoiylashuv** jarayoni deb ataladi.

B.G. Ananov konsepsiyasiga ko‘ra, ijtimoiylashuv jarayoni insonning shaxs sifatida va faoliyat sub‘ekti sifatida bunyodga kelishini ikki yo‘nalishli jarayon sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunday ijtimoiylashuvning yakuniy maqsadi

individuallikning shakllanishidan iborat bo‘ladi. Individuallashtirish deganda aniq shaxsning rivojlanish jarayoni tushuniladi.[2]

Ijtimoiylashuv bilan birgalikda yana bir jarayon – *madaniylashtirish* xam amalga oshiriladi. Agar ijtimoiylashuv – bu ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish bo‘lsa, madaniylashtirish – bu individning umuminsoniy madaniyat va turli davrlardagi inson faoliyatining moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini jamlangan tarixiy tarkib topgan faoliyat usullarini o‘zlashtirishdan iborat.

Shaxs taraqqiyoti muammosining u yoki bu nazariya nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishdan tashqari, shaxsni turli yondoshuvlar nuqtai nazaridan integratsiyalashtirilgan holda, yaxlitligicha ko‘rib chiqish g‘oyasi ham mavjud. Shu asosda, shaxs barcha qirralarining kelishilgan holda, tizimli shakllanishi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarini e‘tiboriga qabul qiluvchi bir qancha konsepsiyalar shakllandi. Ushbu taraqqiyot konsepsiyalari integratsiya konsepsiyalariga kiradi.

Shunday konsepsiyalardan biri amerikalik ruhshunos olim E. Erikson tomonidan ishlab chiqilgan nazariya hisoblanadi, u taraqqiyotga nisbatan o‘z qarashlarida *epigenetik tamoyil*: inson o‘z shaxsiy taraqqiyotida tug‘ilishidan boshlab, to so‘nggi kunlarigacha majburiy ravishda bosib o‘tadigan bosqichlarning irsiy belgilanganligiga rioya qiladi. E.Erikson har bir odamda muqarrar ravishda ro‘y beradigan sakkiz xildagi hayotiy ruhiy inqirozlarni ajratib, ta‘riflab berdi:

1. Ishonch inqirozi – ishonchsizlik (hayotining birinchi yili davomida).
2. Gumonsirash va uyatchanlikka qarshi o‘laroq, o‘zini idora qilish (2-3 yoshlar atrofida).
3. Aybdorlik hissiga qarshi o‘laroq, tashabbuskorlikning paydo bo‘lishi (taxminan uchdan olti yoshgacha).
4. Mukammal emaslik kompleksiga qarshi o‘laroq, mehnatsevarlik (7 dan 12 yoshgacha).
5. Individual g‘o‘rlik va konformizmga qarshi o‘laroq, shaxsiy yo‘nalishga ega bo‘lish (12 dan 18 yoshgacha).
6. SHaxsiy ruhiy yakkalanishga qarshi o‘laroq, samimiylilik va muloqotchanlik (20 yoshlar atrofida).
7. «O‘ziga g‘arq bo‘lish»ga qarshi o‘laroq, yangi avlod tarbiyasi haqida qayg‘urish (30-60 yoshlar orasida).
8. Umidsizlanishga qarshi o‘laroq, bosib o‘tilgan hayot yo‘lidan mamnunlik (60 yoshdan katta)

Erikson konsepsiyasida shaxsning vujudga kelishi har bir bosqichda sodir bo‘ladigan inson ichki olami va atrofdagi odamlar bilan munosabatlarining sifat o‘zgarishlari almashinuvi tarzida tushuniladi. Buning natijasida u shaxs sifatida rivojlanishning, aynan, hozirgi bosqichiga tegishli bo‘lgan va butun umri davomida saqlanib qoladigan yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda yangi shaxsiy qirralar, Erikson fikricha, faqat avvalgi rivojlanish asosida yuzaga keladi.

Inson shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida ijobiy sifatlar bilan birga kamchiliklarga ham ega bo‘ladi. Turli xildagi ijobiy va salbiy yangi hosilalarni birgalikda yagona nazariyada izchil tarzda umuman tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun Erikson o‘z konsepsiyasida shaxs rivojlanishining faqat ikki

keskin: normal va anormal yo'nalishlarni aks ettirdi. Hayotda ular sof ko'rinishda deyarli uchramaydi, lekin aniq chegaralangan qutblar yordamida inson shaxsiyati taraqqiyotining barcha oraliq turlarini tasavvur qilish mumkin.[2]

Shaxs taraqqiyoti muammosini o'rganishda mualliflar inson rivojlanishini belgilab beruvchi sabablarni aniqlashga harakat qiladilar. Tadqiqotchilarning ko'pchiligi shaxs taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida turli ko'rinishdagi ehtiyojlar majmuasini tan oladilar. Bunday ehtiyojlar orasida o'z-o'zini o'stirishga bo'lgan ehtiyoj asosiy o'rinni egallaydi. O'z-o'zini o'stirishga bo'lgan intilish qandaydir erishib bo'lmaydigan etuklikka intilishni bildirmaydi. Shaxsning aniq maqsad yoki ijtimoiy darajaga erishishga bo'lgan intilishi o'ta muhimdir.

Shaxs taraqqiyotining umumiy muammolari qatorida o'rganiladigan masalalardan yana biri shaxsiy xossalarning barqarorlik darajasi haqidagi masala hisoblanadi. Ko'pchilik shaxs nazariyalarining asosida shaxs ijtimoiy-psixologik noyob hodisa sifatida o'zining asosiy ifodalanishida hayotiy barqaror tuzilma bo'lib hisoblanishi haqidagi faraziy tushuncha yotadi. Aynan shaxs xususiyatlarining barqarorlik darajasi harakatlarining ketma-ketligini va ma'lum hulq-atvorni belgilaydi, uning harakatlariga qonuniylik xususiyatini beradi. Lekin qator tadqiqotlar natijasida inson hulq-atvori anchayin o'zgaruvchanligi aniqlandi. Shuning uchun qonuniy ravishda inson shaxsi va hulq-atvorining barqarorligi haqiqatdan ham nimada va qanchalik ifodalanishi haqidagi savol tug'iladi.

Tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, tug'ma anatomik va fiziologik xususiyatlar, asab tizimi xossalari bilan bog'liq bo'lgan shaxsning dinamik xususiyatlari yuqori darajadagi barqarorlikka ega bo'ladi. Ularga temperament, emotsional reaktivlik, ekstraversiya – introversiya va boshqa ba'zi bir sifatlar kiradi. Shuningdek, aniqlanishicha, shaxsning ham barqaror, ham o'zgaruvchan real hulq-atvori doimiy ijtimoiy vaziyatlarga bog'liqdir.

«Umumiy psixologiya» (2002 y.) darsligining muallifi A.G. Maklakovning fikriga ko'ra, inson barcha odamlarga xos bo'lganligidan o'ta barqaror hosilani tashkil etuvchi shaxsning qator xususiyatlariga egadir. Bular integrativ xususiyatlaridir, ularga shaxsning *moslashuvchanlik potentsiali* kiradi. Maklakovning nuqtai nazari bilan qaraganda, har bir odam shaxsiy moslashuvchanlik potentsialiga, ya'ni, ijtimoiy muhit sharoitlariga samarali moslashish imkonini beruvchi ma'lum psixologik xususiyatlar to'plamiga ega. SHaxsiy moslashuvchanlik potentsialining rivojlanish darajasiga ko'ra inson turli vaziyatlarda o'z hulq-atvorini u yoki bu darajada samarali shakllantiradi. SHunday ko'ra, hulq-atvorning muntazamliligi haqida emas, balki turli sharoitlarda mutanosib hulq-atvorni belgilovchi qirralar doimiyligi haqida so'z yuritish lozim.[1]

## MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Quyidagi tushunchalardan qaysi biri mazmunan uncha keng bo'lmagan tushuncha hisoblanadi «individ», «shaxs», «faoliyat sub'ekti», «individuallik»:

- a) individ;
- b) shaxs;

v) faoliyat sub'ekti;

g) individuallik.

2. «Individ», «shaxs», «faoliyat sub'ekti», «individuallik» tushunchalari ichida mazmunining hajmiga ko'ra quyidagi munosabatni hosil qiladi:

a) kiritmalar;

b) o'zaro tobeliklar;

v) avlod – tur;

g) qator tuzilishiga ko'ra.

3. Inson jamiyatidagi ontogenetik taraqqiyotining yuksak bosqichi – bu:

a) individ;

b) shaxs;

v) faoliyat sub'ekti;

g) individuallik.

4. SHaxs taraqqiyoti dinamikasiga yo'naltirilgan, xulq-atvorining asosiy xususiyatlarini belgilab beruvchi barqaror istaklari va motivlari tizimi,- bu:

a) temperament;

b) xarakter;

v) layoqat;

g) yo'nalganlik.

5. Inson intiladigan va unga erishish o'ziga tortuvchi va muqarrar bo'lib tuyuladigan maqsadlarning qiyinlik darajasi quyidagicha xarakterlanadi:

a) da'vogarlik darajasi;

b) nazorat lokusi;

v) o'zini baholash;

g) o'ziga munosabat.

## **18. MAVZU: Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari va ularning roli**

### **REJA:**

**1. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifati**

**2. Temperament. ONF tiplari xususiyatlari, nazariyalari.**

**3. Temperamentning fiziologik asoslari.**

**4. Psixologiyada xarakter muammosi. Xarakter aksentuatsiyasi.**

**5. Jinsiy diformizm va individning psixologik tavsifi.**

**6. Layoqat va qobiliyat. Qobiliyatlar tuzilishi va turlari.**

**7. Talantning paydo bo'lishi va tuzilishi.**

**1. Shaxs rivojlanishining individuallik xususiyatlari differensial psixologiyaning predmeti sifati**

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri bo'lib hisoblanadi. SHaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini ta'riflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida ko'rib

chiqamiz.

Inson o'ta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrog'i, ko'plab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri Yurgen Xabermas asosiylari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim»), individuallik va betakrorlilik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni o'z maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qo'llashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir.

Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi **jisml***li faoliyat* bo'lgan olam. Insonni atrofda olamga va o'ziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yo'nalishini anglash uchun insonning olamda tutgan o'rnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondoshish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan o'rnini bilan aniqlanuvchi jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog'liqdir. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o'rganishda dastlabki holat bo'lib uning jamiyatdagi o'rnini, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi .

Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishlilik va bu bilan bog'liq kechinmalar ma'nosida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda inson mavjud bo'la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to'la. Bu dunyoga jisml*li faoliyat* o'z shaklini o'zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo'qotgan jisml*li harakat* bo'lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o'zini ochishning vositasi, o'zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo'lgan maxsus faoliyat turlari: o'yin, san'at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo'ladi.<sup>101</sup>[3]

Although our personality traits may be both stable and potent, the consistency of our specific behaviors from one situation to the next is another matter. As Walter Mischel (1968, 1984, 2004) has pointed out, people do not act with predictable consistency. Mischel's studies of college students' conscientiousness revealed but a moderate relationship between a student's being conscientious on one occasion (say, showing up for class on time) and being similarly conscientious on another occasion (say, turning in assignments on time). Pirandello would not have been surprised. If you've noticed how outgoing you are in some situations and how reserved you are in others, perhaps you're not surprised either (though for certain traits, Mischel reports, you may accurately assess yourself as more consistent)

---

<sup>101</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-630

«Individ» tushunchasini turlicha talqin qilish mumkin. Avvalambor, individ – bu yagona tabiat mavjudoti sifatidagi odam, Homo sapiens turiga mansub vakil. Ushbu holatda individ biologik turning umumiy irsiy xossalarini tashuvchi biologik organizm (har bir odam individ bo‘lib tug‘iladi) sifatida tushuniladi, ya’ni, insonning biologik mohiyati ta’kidlanadi. Lekin ba’zida «individ» tushunchasi odamni insoniy umumiylikning alohida vakili, mehnat qurollaridan foydalanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida belgilash uchun qo‘llaniladi.

Agar «inson» tushunchasi o‘z ichiga odamlarga xos bo‘lgan barcha insoniy sifatlarning yig‘indisini, ularning ma’lum insonda mavjudligi yoki mavjud emasligidan qat’iy nazar, jamlagan bo‘lsa, u holda «individ» tushunchasi aynan uni xarakterlaydi va qo‘shimcha sifatida shaxsiy xislatlar qatori psixologik va biologik xossalarni ham kiritadi. Bundan tashqari, ushbu tushunchaga ma’lum odamni boshqalardan ajratib turuvchi sifatlilar bilan birga, aynan shu odamga va ko‘plab boshqa odamlarga tegishli bo‘lgan umumiy xossalar ham kiradi.

Shaxs tushunchasining mohiyatli tomonlarini belgilab beruvchi turli xil ta’riflar mavjud. A.N. Leontev ta’rifiga ko‘ra: «SHaxs – faoliyat sub’ekti», A.G. Kovalevning – «shaxs ijtimoiy munosabatlar sub’ekti va ob’ekti sifatida», K.K. Afloqunovning – «shaxs – o‘z o‘rnini anglovchi layoqatli jamiyat a’zosi», S.L. Rubinshteynning – «shaxs – tashqi ta’sirlarning oldini oluvchi ichki sharoitlar yig‘indisi», A.V. Petrovskiyning – «shaxs – individ tomonidan jismlil faoliyat va muloqotda orttirilgan, unga ijtimoiy munosabatlarga kirishganlik nuqtai nazaridan ta’rif beruvchi tizimli sifat», G. Ollportning – «shaxs hayoti davomida shakllanib boruvchi o‘ziga xos psixofiziologik tizimlar – ushbu insonga xos bo‘lgan tafakkur va hulq-atvorni belgilab beruvchi shaxs qirralari yig‘indisi» va boshqalarning ta’riflari shulardan iborat.[1]

Bizlar esa R.S. Nemov tomonidan shaxsga berilgan ta’rifni qo‘llaymiz: «Shaxs – bu ijtimoiy asoslangan, ijtimoiy tabiatga ega bo‘lgan aloqalar va munosabatlarda namoyon bo‘ladigan, barqaror, odamning o‘zi va atrofidagilar uchun ahamiyatli bo‘lgan ahloqiy harakatlarni belgilab beruvchi o‘zining psixologik xususiyatlari tizimidagi inson».

Shunday qilib, inson, birinchidan, tirik tabiat vakili, biologik ob’ekt sifatida, ikkinchidan, ongli faoliyat sub’ekti sifatida va, uchinchidan, ijtimoiy mavjudot sifatida o‘rganilishi mumkin, bu uch darajaning yaxlit uyushmaga birlashishi insonning yig‘indi xususiyatlarini – uning individualligini shakllantiradi.[2]

**Individuallik** – bu ma’lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o‘ziga xos bo‘lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig‘indisi.

Individuallik – bu ko‘rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko‘ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o‘zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o‘ziga xos va shaxsiy xossalarini jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o‘zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o‘ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo‘ladi. Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko‘rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o‘ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik (bo‘y o‘lchami, tana tuzilishi, yuz tuzilishi va h.k.) xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Individuallik – o‘z mohiyatiga ko‘ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo‘lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya’ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.<sup>102</sup>[3]

Individualism giving priority to one's own goals over group goals and defining one's identity in terms of personal attributes rather than group identifications.

Shunday qilib, bizlar ko‘rib chiqqan «odam, individ, shaxs va individuallik» tushunchalari hajmiga ko‘ra turlichadir. Bular orasida keng ma’no kasb etib, boshqa tushunchalarni ham o‘zida jo etadigan tushuncha «inson» atamasidir, eng tor atama esa – «individuallik» tushunchasi.

## 2. Temperament. ONF tiplari xususiyatlari, nazariyalari.

Temperament muammosiga bo‘lgan qiziqish 2,5 ming yil avval paydo bo‘lgan. Bu qiziqishning paydo bo‘lishiga organizm biologik va fiologik tuzilish va rivojlanishi xususiyatlari, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning takrorlanmasligi xususiyatlari asosidagi individual farqlarning mavjudligi sabab bo‘ldi. Temperament shaxsning biologik jihatdan shartlangan tuzilmalariga kiradi. Temperament odamlar o‘rtasida, shuningdek, hissiyotlar, hissiy taassurotlilik, harakatlarning maromi va jadalligi, va boshqa bir qator dinamikaga ega bo‘lgan xususiyatlardagi ko‘plab psixik farqlarning mavjudligini belgilab beradi.

Hozirgi kunda temperamentni tadqiq etishga doir ko‘plab yondoshuvlar mavjud. Lekin bu yondoshuvlarning xilma-xilligiga qaramay, ko‘pchilik tadqiqotchilarning tan olishiga ko‘ra, temperament – bu shaxsning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanadigan biologik ustqurma, temperament asosidagi shaxs xossalari esa barqaror va davomli bo‘lib hisoblanadi.

B.M. Teplov temperamentga quyidagicha ta’rif beradi: «Temperament deb, ayni bir odam uchun xos bo‘lgan emotsional qo‘zg‘auvchanlik, ya’ni, bir tomondan, hislar paydo bo‘lishining tezligi, va ikkinchi tomondan, ularning kuchi bilan bog‘liq bo‘lgan psixik xususiyatlarning yig‘indisiga aytiladi».

**Temperament** – bu inson faoliyati va hulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig‘indi. Shunday qilib, temperament ikki tarkibiy qism – faollik va hissiyotlilikka ega. Hulq-atvorning **faolligi** harakatchanlik, intiluvchanlik, tezlik, yoki, aksincha, sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi. O‘z navbatda **emotsionallik** belgi (ijobiy va salbiy) modallik (shodlik, qayg‘u, qo‘rqinch, g‘azab va boshqalar)ni aniqlagan holda emotsional jarayonlar kechishini xarakterlaydi.<sup>103</sup>[3]

Temperament a person's characteristic emotional reactivity and intensity. As most parents will tell you after having their second child, babies differ even before gulping their first breath. Consider one quickly apparent aspect of personality. In-fants' temperaments are their emotional excitability—whether reactive, intense, and fidgety, or easygoing, quiet, and placid. From the first weeks of life, difficult babies are more irritable, intense, and unpredictable. Easy babies are cheerful,

<sup>102</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-171

<sup>103</sup> David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-153



relaxed, and pre-dictable in feeding and sleeping. Slow-to-warm-up infants tend to resist or withdraw from new people and situations.

Qadimgi zamonlardan boshlab, temperament to'rt xil asosiy tiplarga bo'lingan edi, bular xolerik, sangvinik, melanxolik va flegmatik temperament turlaridir. Temperamentning bu asosiy turlari bir-biridan paydo bo'lish dinamikasi va emotsional holatlar jadalligiga ko'ra farqlanadi. Xolerik tipi uchun tezda paydo bo'ladigan kuchsiz hislar, melanxolik tipi uchun – sekin-asta paydo bo'ladigan, lekin kuchli hislar, flegmatik tipi uchun – sekin-asta paydo bo'ladigan va kuchsiz hislar xosdir. Bundan tashqari, xolerik va sangvinik temperamentlar uchun harakatlar tezligi, umumiy harakatchanlik va hislarning tashqi kuchli (harakatlarda, nutqda, mimikada va boshqalarda) ifodalanishi, melanxolik va flegmatik temperamentlar uchun, aksincha, harakatlar sustligi va hislarning kuchsiz ifodalanishi xosdir.

Temperament tiplarini turmush psixologiyasi nuqtai nazaridan shunday xarakterlash mumkin: **xolerik** – tez, ba'zida, hatto, juda keskin, nutqda, mimika va imo-ishoralarda yaqqol ifodalanadigan kuchli tezda alanganadigan hislarga ega, jadal emotsional ta'sirlanishga moyil odam; **sangvinik** – tez, harakatchan, barcha taassurotlarga emotsional javob beruvchi odam, uning hislari bevosita tashqi xulq-atvorida ifodalanadi, lekin ular kuchli emas, va bir-birini oson almashtiradi; **melanxolik** – emotsional kechinmalar xilma-xilligining uncha katta emasligi, lekin katta kuchga va davomiylikka egaligi bilan farq qiluvchi inson, u barchasiga ham munosabat bildirmaydi, agar bildirgudek bo'lsa ham chuqur o'ylaydi, o'z hislarini u darajada namoyon qilmaydi; **flegmatik** – sust, mutanosib va xotirjam odam, uning emotsional ta'sirlanishi oson emas, va o'zidan chiqarish qiyin, hislari tashqaridan deyarli namoyon bo'lmaydi.

Lekin barcha odamlarni shu to'rt xil asosiy temperamentlarga ko'ra ajratish mumkin deb o'ylash xatodir. Faqat ba'zilariga bu tiplarning sof vakillari bo'lib hisoblanadi; ko'pchilik odamlarda esa biz temperamentlarning aralash tiplarini kuzatamiz.

SHuni ta'kidlash lozimki, temperament insonning qobiliyatligini va iste'dodini belgilamaydi. Ko'zga ko'ringan iste'dod egalaridan faoliyatning turli sohalarida turlicha temperament sohiblarini topish mumkin. Masalan, A.S. Pushkin – xolerik, A.I. Gersen – sangvinik, N.V. Gogol va V.A. Jukovskiy – melanxoliklar, I.A. Krilov va I.A. Goncharov – flegmatiklar. Ikki rus yirik sarkardalari A.V. Suvorov – xolerik, M.I. Kutuzov esa – flegmatik.[2]

Temperamentlardan qay birining ustunligi haqidagi masalani ko'rishga zaruriyat tug'ilmaydi. Har bir temperament o'zining ijobiy va salbiy tomonlariga ega. Xolerikning ehtirosiligi, faolligi va quvvati, sangvinikning ta'sirchanligi va shayligi, melanxolik hislarining chuqurligi va barqarorligi, flegmatikning xotirjamliligi va shoshqaloqligining mavjud emasligi – bularning barchasi nomlari zikr etilgan temperamentlarining ijobiy tomonlari. SHu bilan birga, ularning salbiy tomonlarini ham ko'rsatib o'tish mumkin. Sangvinik temperamenti engil tabiatlikka moyillik, hislarning etarlicha chuqur va barqaror emasligiga olib kelishi mumkin.. Xolerik temperamenti insonni cho'rtkesar, o'zini tiya olmaslik, muntazam «portlashlarga» moyil qilib qo'yishi mumkin. Melanxolik temperamenti

odamda o'z kechinmalariga o'ta berilganlik, o'ta uyatchanlik yuzaga kelishi mumkin. Flegmatik temperamenti odamni lanj, harakatsiz, hayot taassurotlarning barchasiga befarq qilib qo'yishi mumkin.

Temperament haqidagi ta'limotning asoschisi qadimgi yunon tabibi Gippokrat hisoblanadi, uning ta'kidlashicha, odamlar «organizmidagi suyuqliklar» nisbati bilan farqlanadilar, suyuqlik yunoncha «krasis» so'zi bilan ifodalangan; so'ngra lotincha temperamentum – «mutanosiblik», «to'g'ri o'lchov» so'zi bilan almashtirildi. Gippokrat ta'limotiga tayangan holda antik davr tabibi Klavdiy Galen temperamentlar tipologiyasini ishlab chiqdi, uni o'zining «De temperamentum» qo'l yozmasida bayon etdi. Uning ta'limotiga ko'ra, temperament tipi organizmdagi qon, flegma, sariq va qora safro suyuqliklarining ustunligiga bog'liq. U 13 xil temperament tiplarini ajratdi, lekin keyinchalik ularni to'rt xilga birlashtirdi – bu sangvinik (qon), flegmatik (shilliq, balg'am), xolerik (safro) va melanxolik (qora safro).[2]

Keyingi asrlarda uning izdoshlari tana tuzilishi va fiziologik vazifalarining farqlari bilan mos keladigan hulq-atvorlar xilma-xilligini kuzatgan holda, ularni tartibga solishga va guruhga ajratishga harakat qildilar. Temperamentlar haqidagi ta'limotning rivojlanishiga nemis faylasufi I. Kant, nemis psixiatri E. Krechmer, amerikalik olim U. SHeldon, rus fiziologi, akademik I.P. Pavlov, rus anatomi va shifokori P.F. Lesgaft va boshqalar o'z hssalarin qo'shganlar.

**E. Krechmer** o'zining «Tana va xarakter tuzilishi» (1921) nomli asarida bayon qilgan temperamentlar tipologiyasini ishlab chiqdi. Uning asosiy g'oyasi tana tuzilishining ma'lum tipiga ega bo'lgan odamlar ma'lum psixik xususiyatlarga ega bo'lishidan iborat edi. E. Krechmer to'rt xil asosiy konstitutsion tiplarni ajratdi, bularga leptosomatik, piknik, atletik, displastiklarni kiritdi. [1]

**Leptosomatikka** mo'rt tana tuzilishi, baland bo'y, yassi ko'krak qafasi, tor elka, uzun va ozg'in oyoq-qo'llar xosdir. **Piknik** – yog' to'qimasi rivojlangan, o'ta semiz, o'rtacha yoki past bo'yli, katta qorinli, kengayib ketgan tana va kalta bo'yinda joylashgan dumaloq kallaga ega. **Atletik** – mushaklari rivojlangan, kuchli tana tuzilishiga ega, baland yoki o'rtacha bo'yli, keng elkali, tor bo'ksali odam. **Displastik** – shaklsiz, noto'g'ri tana tuzilishiga ega bo'lgan odam. Bu tipdagi individlar tana tuzilishining turli nuqsonlari bilan ajralib turadilar, masalan, o'ta baland bo'y, mutanosib bo'lmagan tana tuzilishi.

Ko'rsatib o'tilgan tiplarning tana tuzilishlari bilan E. Krechmer uch xil temperament: shizotimik, iksotimik, siklotimiklarni ajratdi. **SHizotimik** astenik tana tuzilishiga ega, u odamovi, kayfiyatning o'zgarishlariga beriluvchan, qaysar, fikr va qarashlarini o'zgartirishga moyil emas, atrofqa qiyinchilik bilan moslashadi. Aksincha, **iksotimik** atletik tana tuzilishiga ega, xotirjam, imo-ishoralari tiyilgan taassurotsiz odam, yuqori bo'lmagan tafakkur egiluvchanligiga ega, ko'pincha maydakash. Piknik tana tuzilishiga **siklotimik** ega bo'ladi, uning hissiyotlari shodlik va g'amginlik o'rtasida o'zgarib turadi, odamlar oson aloqaga kirishadi, qarashlari voqelikka mos keladi.[1]

Krechmer nazariyasi Evropada keng ommalashdi. AQSHda XX asrning 40-yillarida **U. Sheldonning** temperament konsepsiyasi keng tarqaldi. Bu konsepsiya asosini tana va temperament – bu odamning bir-biri bilan o'zaro bog'langan

ko'rsatkichlari haqidagi taxmin tashkil etadi. Uning fikriga ko'ra, tana tuzilishi uning vazifasi bo'lgan temperamentni belgilab beradi. SHeldon tana tuzilishining asosiy tiplari mavjudligi haqidagi gipotezadan kelib chiqib, ularni ta'riflashda embriologiya atamalaridan foydalanadi.

U uch xil tipni ajratdi: endomorf (endodermadan asosan ichki organlar hosil bo'ladi); mezomorf (mezodermadan muskul to'qima hosil bo'ladi); ektomorf (ektodermadan teri va nerv to'qimasi hosil bo'ladi). Endomorf tipiga mansub odamlarga zaif, kuchli rivojlangan yog' to'qimali tana tuzilishi, mezomorf tipiga kelishgan va mustahkam tana tuzilishi, katta jismoniy kuch xosdir, ektomorfga esa – mo'rt tana tuzilishi, yassi ko'krak qafasi va uzun ingichka kuchsiz muskulli oyoq-qo'llar xos. Sheldon bo'yicha, bunday tipdagi tana tuzilishlariga temperamentlarning ma'lum tiplari mos keladi, u tananing ma'lum organlari vazifalaridan kelib chiqib, quyidagicha nomladi: visserotoniya (ichki organlar), somatotoniya (tana) va serebrotoniya (miya). Ma'lum tana tuzilishining ustunligini SHeldon mos ravishda visserotoniklar, somatotoniklar va serebrotoniklar deb ataydi va har bir odam xossalarning bunday guruhlariga ega bo'ladi deb hisoblaydi.[2]

Hozirgi zamon psixologiyasida bunday tiplarning ko'pchiligi inson psixik xossalrining shakllanishida muhit va ijtimoiy sharoitlarning ahamiyati to'g'ri baholanmaganligi sababli qattiq tanqid ostiga olinadi. Organizmda dominantlik va boshqaruvchi vazifalarni bajaradigan asab tizimi vazifalarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga asoslangan konsepsiyalar jiddiy e'tiborga loyiqdir. Nerv jarayonlari ba'zi umumiy xossalarning temperament tiplari bilan aloqasi nazariyasi **I.P. Pavlov** tomonidan taklif etilgan edi. U tadqiqot uchun Krechmer kabi tanalar va qon tomirlarining tashqi tuzilishini (P.F. Lesgaft) emas, balki yaxlit organizmni oldi va unda bosh miyani ajratib, ilmiy izlanish ob'ekti sifatida uning xossalarni belgilab chiqdi.[2]

Ushbu yondoshuvning afzalligi boshlang'ich holat sifatida biologik hosilaning qo'shimcha va ikkilamchi belgilari emas, balki inson organizmining etakchi tizimi – markaziy nerv tizimi belgilari olinganligidan iborat edi.

Pavlov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar temperamentning fiziologik asoslarini tushunish uchun ahamiyatli bo'lgan tajribalar sifatida baholanadi.

Temperament nazariyasining rivojlanishiga rus psixologiyasida **B.M. Teplov** katta hissa qo'shdi. U temperament xossalriga psixik faoliyat dinamikasini xarakterlaydigan barqaror psixik xossalarni kiritdi. Temperamentning individual xususiyatlarini temperament u yoki bu xossalari rivojlanganlik darajasi bilan tushuntiradi. Temperamentning ahamiyatga molik xossalriga quyidagilar kiritilgan edi: juda kuchsiz tashqi va ichki ta'sirlarga javob bildirish layoqati – **emotsional qo'zg'aluvchanlik; diqqatning qo'zg'aluvchanligi** – bu individ psixikasining moslashuvchi vazifasini belgilaydigan temperament xossasi, u ta'sirlovchi jadalligining juda kichik o'zgarishlarini payqash layoqatidan iborat; **emotsiyalar kuchi**, uning asosiy vazifasi, Teplov fikricha, motivlarning qondirilishi yoki qondirilmasligiga bog'liq ravishda faoliyatni quvvatlashdan iborat; **xavotirlanish**, Teplov fikriga ko'ra, u tahdidli vaziyatda emotsional qo'zg'aluvchanlikdan iborat, Teplov odatdagi sharoitlarda xavotirlanish va

emotsional qo'zg'aluvchanlikni ajratadi, chunki, emotsional qo'zg'aluvchanlik seskantiruvchi ta'sir kuchiga bog'liq emas, xavotirlanish esa u bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan; *ixtiyorsiz harakatlarning reaktivligi*, ularning vazifasi ayni damda bevosita ta'sir ko'rsatayotgan vaziyat va seskantiruvchilarga nisbatan moslashuvchi reaksiyalar jadalligining oshishidan iborat; *irodaviy maqsadga yo'naltirilgan harakat faolligi*, Teplov fikriga asosan, ko'zlangan maqsadga muvofiq ravishda vaziyatni qayta tuzish yo'li bilan moslashuv faolligini oshirishda namoyon bo'ladi; *egiluvchanlik – rigidlik*, vazifasi faoliyatning o'zgaruvchan talablariga moslashishdan iborat; *rezistentlik*, vazifasi boshlangan faoliyatni bo'shashtiruvchi yoki to'xtatuvchi barcha ichki va tashqi sharoitlarga qarshilik ko'rsatish layoqatidan iborat; *sub'ektivlashtirish*, Teplov fikricha, faoliyatning sub'ektiv obrazlar va tushunchalar yordamida darajalarini kuchaytirishdan iborat.[1]

Temperament xossalari yuqorida keltirilgan xarakteristikalaridan ikkita asosiy xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, temperament xossalari psixik jarayonlar dinamikasida va individ faolligi darajasida namoyon bo'ladi, ikkinchidan, esa temperament faoliyat bilan uzviy bog'langandir. Bular olimlarning keyingi tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Mashhur psixofiziolog **V.M. Rusalov** asab tizimi xossalari konsepsiyasi asosida 1980 yil oxirlarida temperament xossalari ta'rifini keltirgan. U fiziologiyaning hozirgi zamon ma'lumotlaridan foydalandi. V.M. Rusalov, P.K. Anoxinning funksional tizimlar nazariyasidan kelib chiqqan holda, to'rtta xil blokdan iborat – axborotni saqlash, harakatlantirish va qayta ishlash (afferent sintez bloki), dasturlash (qaror qabul qilish), ijro qilish va teskari aloqa kabi afferent sintezning kengligi va torligiga, hulq-atvorning bir dasturdan ikkinchisiga osonlik bilan o'tishga, hulq-atvor joriy dasturining amalga oshish tezligi va harakat real natijasining o'z akseptoriga mos kelmasligiga nisbatan sezuvchanligiga bog'liq bo'lgan temperamentning xossalari ajratildi.[1]

Bunga muvofiq ravishda temperamentning an'anaviy psixofiziologik baholanishi o'zgaradi va faollik bilan sezuvchanlik kabi ikki ko'rsatkichning o'rniga endilikda: ergiklik (chidamlilik), egiluvchanlik, tezlik va emotsionallik (sezuvchanlik) kabi to'rt xil tarkibiy qism ajratiladi. Temperamentning bunday tarkibiy qismlarining barchasi V.M. Rusalov fikriga ko'ra, biologik va irsiy jihatdan belgilangandir. Xuddi shunday, temperament asab tizimining xossalari bog'liq, ular esa o'z navbatida, miya va umumiy asab tizimining integrativ, tahliliy va umumlashtiruvchi faoliyatini ta'minlaydigan funksional tizimlarning asosiy xususiyatlari sifatida tushunilishi lozim.

V.M. Rusalov konsepsiyasi nuqtai nazaridan temperament – bu psixobiologik daraja bo'lib, uning xossalari to'laligicha na tug'ma, va na muhitga bog'liq bo'la oladi. Ular, V.M. Rusalovning fikricha, insonning irsiy belgilangan individual biologik xossalari «tizimli umumlashtirilishidan» iboratdir, ular «turli xildagi faoliyatlarga kirishib, asta-sekin o'zgaradilar va faoliyatning mazmunidan qat'iy nazar, invariant xossalarning umumiylashgan, sifat jihatidan yangi, individual barqaror tizimini hosil qiladilar».

Insonning jismlari faoliyat va muloqotga muvofiq ravishda temperament ayrim xossalari alohida ko'rib chiqilishi zarur, chunki, bu faoliyat turlarida ular turlicha namoyon bo'ladi, deb taxmin qilinadi.

Bayon etilganlarni umumlashtirgan holda, mualliflarning ko'pchiligi temperament xossalari va ularning ifodalanishini organizmning fiziologik xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'rganishlarini aytib o'tish joiz.[1]

### **3. Temperamentning fiziologik asoslari**

XX asrning 20-30-yillarida I.P. Pavlov tomonidan asab tizimi tiplari haqida ta'limot ishlab chiqildi. Pavlovning tasdiqlashiga ko'ra, hulq-atvorning individual xususiyatlari, psixik faoliyat dinamikasi asab tizimi faoliyatidagi individual farqlarga bog'liqdir. Asab tizimi faoliyatidagi individual farqlarning esa turli xil ifodalanishlar, nerv jarayonlarining aloqasi va nisbati – qo'zg'alish va tormozlanish sanaladi.[2]

I.P. Pavlov asab tizimining uch asosiy xossasini ajratdi, bular qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuchi, mutanosibliigi va harakatchanligidir.

**Asab tizimining kuchi** – tipning eng muhim ko'rsatkichi bo'lib, po'stloq hujayralarining ishchanligi, ularning chidamliligi bu xossaga bog'liq. **Asab tizimining harakatchanligi** – bu bir jarayonning ikkinchisi bilan almashish tezligi. U sharoitlarning kutilmagan va keskin o'zgarishlariga nisbatan moslashishni ta'minlaydi. Nerv jarayonlarining **mutanosibliigi** haqida so'z yuritib, I.P. Pavlov qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining ma'lum muvozanatini ko'zda tutgan edi. Bu jarayonlar bir-biri bilan kuchi bo'yicha muvozanatlashgan, yoki muvozanatlashmagan bo'ladi. Bu jarayonlardan birining kuchi ikkinchisidan oshib ketsa, inson mutanosiblikdan chiqadi.

I.P. Pavlov tomonidan ajratilgan nerv jarayonlarining xossalari, uning fikriga ko'ra, Oliy Nerv Faoliyati tipini hosil qiluvchi ma'lum tizimlar, kombinatsiyalarni tashkil etadilar. **Asab tizimining tipi** – bu uning tabiiy, tug'ma xossasi bo'lib, hayot va faoliyat sharoitlari ta'sirida juda oz darajada o'zgarishi mumkin. Bu tip individga xos bo'lgan Asab tizimining asosiy xossalari yig'indisi – qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari nisbatining kuchi, mutanosibliigi va harakatchanligidan tarkib topadi. Asab tizimining bu xossalari temperamentning fiziologik asosini tashkil qiladi.

Asab tizimining Pavlov tomonidan ajratilgan tiplari faqat miqdor jihatdan emas, balki, asosiy xususiyatlari bilan ham temperamentning to'rt xil tipi: ATning kuchli, mutanosib, harakatchan tipi – **sangvinik**; kuchli, mutanosib, harakatsiz tip – **flegmatik**; kuchli, qo'zg'alishi ustun bo'lgan nomutanosib, o'ta harakatchan tip – **xolerik**; kuchsiz, nomutanosib va rigid tip – **melanxolik**larga mos keladi.[2]

Psixika dinamikasidagi farqlarga AT tipi xossalari tomonidan yondoshuv temperamentning fiziologik asoslarini o'rganishda yangi bosqichga asos soldi. B.M. Teplov, V.D. Nebylitsyn kabi psixologlarning ishlarida inson oliy nerv faoliyati tiplari xossalari haqidagi tasavvurlar aniqlashtirildi va boyitildi. AT labilligi va dinamikligi kabi yangi xossalari aniqlandi.[2]

AT **labilligi** nerv jarayonlarining paydo bo'lish va yakunlanish tezligida namoyon bo'ladi.

Nerv jarayonlarining dinamikligining mohiyatini ijobiy (qo'zg'alishning dinamikligi) va tormozli (tormozlanishining dinamikligi) shartli reflekslar hosil bo'lish osonligi va tezligi tashkil etadi.

Hozirgi zamon fani temperament bo'yicha individual farqlarning sabablarini miya, uning po'stlog'i va po'stloq ostining, aynan, funksional xususiyatlarida ko'radi ( V.S. Merlin, YA. Strelyau va boshqalar).

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.<sup>104</sup>[3]

1. **Senzitivlik** (lotincha Sensus – sezish, his qilish degan ma'no anglatadi). Senzitivlik yuzasidan insonda birorta psixik reaksiyani hosil qilish uchun zarur bo'lgan o'ta kuchsiz tashqi taassurot kuchiga qarab mulohaza yuritiladi, jumladan, sezgilarning paydo bo'lishi uchun kerak qo'zg'ovchining ozgina kuchi (ularning quyi chegarasi), ehtiyojlar qondirilmashligining sezilar-sezilmas darajasi (shaxsga ruhiy azob beruvchi) mujassamlashadi.

2. **Reaktivlik**. Bu to'g'rida aynan bir xil kuch bilan ta'sir etuvchi tashqi va ichki taassurotlarga shaxs qanday kuch bilan emotsional reaksiya qilishiga qarab munosabat bildiriladi. Reaktivlikning yorqin ro'yobga chiqishi-emotsionallik, ta'sirlanuvchanlikda ifodalanishidir.

3. **Faollik**. Bu borada inson qanday faollik darajasi bilan tashqi olamga ta'sir etishi va maqsadlarni amalga oshirishda ob'ektiv hamda sub'ektiv qarama-qarshiliklarni faollik bilan engishga qarab fikr yuritiladi.

4. **Reaktivlik bilan faollikning o'zaro munosabati**. Odamning faoliyati ko'p jihatdan nimaga bog'liqligiga binoan, chunonchi tasodifiy tarzdagi tashqi va ichki sharoitlarga (kayfiyatga, favquloddagi hodisalarga) yoki maqsadlarga, ezgu niyatlarga, xohish-intilishlariga ko'ra fikr bildirish nazarda tutiladi.

5. **Reaksiya tempi**. Turli xususiyatli psixik reaksiyalar va jarayonlarning kechish tezligiga, nutq sur'atiga, farosatligiga, aql tezligiga asoslanib xulosa chiqariladi.

6. Harakatlarning silliqliqi va unga qarama-qarshi sifat **rigidlik** (qotib qolganlik), shaxsning o'zgaruvchan tashqi taassurotlarga qanchalik engillik va chaqqonlik bilan muvofiqlashishiga (silliqlik bilan moslashishga), shuningdek, uning xatti-harakatlari qanchalik sust va zaifligiga (rigidligi qotib qolganligicha) nisbatan baho berishdan iboratdir.

7. **Ekstravertlik** va **introvertlik**. SHaxsning faoliyati va reaksiyasi ko'p jihatdan kechinmalarga bog'liq, chunonchi favqulotdagi tashqi taassurotlarga (ekstravertlik) yoki aksincha, timsollarga, tasavvurlarga (introvertlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.[2]

Учитывая указанные свойства, дадим краткую психологическую характеристику основных классических типов темпераента (по YA. Strelyau).

---

<sup>104</sup>David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.- 154

**Sangvinik** yuksak reaktivlik. Bo‘lar-bo‘lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo‘lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo‘r qo‘zg‘alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko‘rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo‘lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to‘playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug‘lik qo‘zg‘ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g‘ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo‘l ko‘tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g‘ayrat bilan kirishadi. Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o‘z hissiyotlarining namoyon bo‘lishini va o‘zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to‘playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada sillqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o‘zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. YAngi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o‘rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko‘cha oladi. Malakalarni tez o‘zlashtiradi va tez qayta o‘zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O‘tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.[1]

**Xolerik** xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. SHuning uchun u tinimsiz o‘zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo‘proq qotib qolgan. SHuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo‘r qatilylik bor, diqqatini ko‘chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga etkazadi, ammo unga qiziqsa.

**Flegmatik** – senzitivligi sust, hissiy qo‘zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko‘ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G‘ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. YUksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. CHidamliligi, matonati, o‘zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to‘playdi. Rigid (qotib qolgan), diqqatini qiyinchilik bilan ko‘chiradi. YAngi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Introvert. YAngi odamlarga qiyinchilik bilan qo‘shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

**Melanxolik** – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirliги yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko‘ra, ko‘zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin yig‘laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O‘ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urib qo‘ya qoladi. G‘ayratsiz qatiy emas. Diqqati tez chalg‘iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

SHunday qilib, temperament individning tabiiy belgilangan psixik xususiyatlarining individual o‘ziga xos yig‘indisidir. bu xususiyatlarga umumiy

nerv-psixik faollikning jadalligi, zo'riqqanligi, ta'sirlanish va harakatlarning maromi, individning motorli, aqliy va kommunikativ sohasida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning kuchayishi va susayishi; sub'ekt emotsional tuzilishining qo'zg'aluvchanligi, reaktivligi, barqarorligi, hissiyotlarning nazorat qilinishi kiradi. Temperament faqat faoliyat va hulq-atvor usullarining dinamik xususiyatlarini belgilaydi.

#### 4. Psixologiyada xarakter muammosi

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. **"Xarakter"** so'zi grekcha so'zdan olingan bo'lib " tamg'a, belgi " degan ma'noni anglatadi. Ijtimoiy turmushda hayot va faoliyat ko'rsatayotgan har qanday shaxs o'zining individual-psixologik xususiyatlari bilan boshqa insonlardan ajralib turadi va bu farqlar uning xarakter xislatlarida ifodasini topadi. Shu boisdan insonning barcha individual xususiyatlarini xarakter xislati tarkibiga kiritib bo'lmaydi. CHunonchi aqlning topqirligi, xotiraning barqarorligi, ko'rishning o'tkirligi kabi individual psixologik xususiyatlar bunga misoldir.

Psixologiya fanida xarakterga turlicha ta'rif berilishiga qaramay, uning asosiy belgilari ta'kidlanganligi bilan bir-biriga muvofiq tushadi. Masalan, shaxs xulqining tipik usullar bilan bog'liq faoliyat muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi uning barqaror xususiyatlari majmuasi **xarakter** deyiladi. Shaxsning jamiyatga nisbatan munosabatlari uning asosiy belgisi hisoblanadi.

Xarakterning asosiy xususiyati uning doimo faoliyatda, insonning atrof-olam va odamlarga munosabatida namoyon bo'lishidan iborat. Inson xarakterini aniqlashda o'sha odamning jasurlik, vijdoniylik, samimiyligini namoyon qilganini emas, balki, bu odam jasur, to'g'riso'z, samimiy inson deb aytiladi, ya'ni, inson xarakterining xususiyatlari insonning o'ziga tegishli bo'ladi. Lekin barcha xususiyatlarni ham insonga xos deb bo'lmaydi, ular ahamiyatga molik va barqaror bo'lishi lozim.

Xarakter – bu insonning o'ziga xos asosi, o'zagi. Xarakterda fokusdagi kabi insonning faoliyat, muloqot va bilish sub'ekti sifatida eng ahamiyatli xususiyatlar jamlanadi. Xarakter hayot davomida tarkib topib boradi va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

Xarakter odam ko'zlagan maqsadi va uni amalga oshirish vositasi yoki usullarida hulq-atvor mazmuni va shaklida ifodalanishi mumkin.

Shakllanishi, rivojlanishi va vazifa bajarishida inson xakteri temperament bilan uzviy bog'langan. Fanda xarakter va temperament o'zaro munosabatlariga doir hukmron nuqtai nazarlardan to'rt xil asosiysi: xarakter va temperamentning o'xshatilishi (E. Krechmer, A. Rujitskiy); xarakter va temperamentni qiyoslash, ular o'rtasidagi qarama-qarshilikni ta'kidlash (P. Viktorov, V. Virenius); temperamentni xakterning elementi, mag'zi, o'zgarimas qismi sifatida tan olish (S.L. Rubinshteyn, S. Gorodetskiy); temperamentni xakterning tabiiy asosida sifatida qabul qilish (L.S. Vigotskiy, B.G. Ananev) kabilarni ajratib ko'rsatish mumkin.[2]



Xarakter va temperament uchun umumiy bo‘lgan xususiyat sifatida odam fiziologik xususiyatlari va birinchi galda, asab tizimi tipiga bog‘liqlik hisoblanadi. Temperament xarakterdagi hulq-atvor mutanosibliyi yoki nomutanosibliyi, ta’sirlanishning harakatchanligi yoki sustligi va h.k.lar kabi qirralarni belgilaydi. Lekin temperament xakterni oldindan belgilab bermaydi. Temperamentning bir xil xossalari ega bo‘lgan odamlarning xarakterlari umuman turlicha bo‘lishi mumkin. Temperament xususiyatlari xakterning u yoki bu qirralarining shakllanishiga yordam berishi yoki qarshilik ko‘rsatishi mumkin.

**Xakter qirralari** deganda insonning umumiy sharoitlardagi hulq-atvorini aniqlovchi psixik xossalari tushuniladi. Jasurlik yoki qo‘rqoqlik xavfli vaziyatlarda namoyon bo‘ladi, muloqotchanlik yoki odamovilik – muloqot vaziyatida, xotirjamlik yoki dovdirash – stress vaziyatlarida namoyon bo‘ladi.

Xakterning alohida xossalari bir-biriga bog‘liq va ular **xarakter tuzilishi** deb ataladigan yaxlit hosilani tashkil etadi. Xakter tuzilishida qirralarning ikki xil guruhini ajratadilar. Birinchi vaziyatda xakterning barcha qirralarni psixik jarayonlar bilan bog‘liqligi uchun iroda, emotsional va aqliy qirralarni ajratadilar.

Xakterning **irodaviy qirralari** – hulq-atvor va faoliyatni ongli, tushunchaviy-vositali boshqarishning barqaror individual-tipologik xususiyatlari. Xakterning irodaviy qirralari insonning qiyinchiliklarni engish bilan bog‘liq faoliyatini ongli boshqarish malakasi va bunga shayligini, hulq-atvorni ma’lum tamoyillar va vazifalarga muvofiq ravishda yo‘naltirishni belgilaydilar. Xakterning irodaviy qirralariga maqsadga yo‘nalganlik, mustaqillik, qat’iyatlilik, dadillik, o‘zini tuta bilish, jasurlik, matonat, intizomlilik, sabr va x.k.lar kiradi. Iroda sifatlarining turli xillari shaxs xakterining iroda tuzilishini belgilaydi. Iroda tuzilishining asosiy xususiyatlariga **xakterning yaxlitligi** – turli vaziyatlarda qarashlar va fikrlarning barqarorligi, so‘z va xarakat birligi; **xakterning kuchi** – insonning harakatchanligi, davomli zo‘riqish vaziyatlarida qiyinchiliklarni engishi; **xakter mustahkamligi** – xakter kuchining asoslaganlik bilan birligi; **vazminlik** – faollik va bosiqlikning qulay nisbati, hulq-atvorning bir tekisdaligi, o‘z imkoniyatlarini turli sharoitlarda qo‘llash kiradi.

**Xakterning emotsional qirralari** – xarakatning bevosita, o‘z-o‘zidan boshqarilishning barqaror individual-tipologik xususiyatlari. Xakterning emotsional qirralari xaqida so‘z yuritganda qo‘zg‘alish ko‘rsatkichi, insonning real xodisalarga, nimani yoqtirish va yoqtirmasligi, befarqligi, ustunlik qiluvchi kayfiyat ko‘zda tutiladi. Eng muhim emotsional xususiyat insonning ustunlik qiluvchi kayfiyati, uning emotsional barqarorligi hisoblanadi. Hissiyotlar bilan bir qatorda shaxs xakterining qirralari sezgilarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Barqaror sezgilar kengligi va chuqurligi, voqeiyliyi, aqliy va irodaviy soha bilan uyg‘unligi – shaxsning muhim xakterologik xususiyati hisoblanadi. Xakterning emotsional qirralariga: shiddatlilik, ta’sirchanilik, qiziqqonlik, faoliyatsizlik, befarqlik, hozirjavoblik va boshqalar kiradi.

**Xakterning intellektual qirralari** – aqliy qobiliyatlarning barqaror individual–tipologik xususiyatlari. Xakterning intellektual qirralari xaqida so‘z yuritganda, avvalambor, aqlning tarkib topgan sifati ko‘zda tutiladi. Intellektual sifatlari bo‘yicha nazariy yoki amaliy aql egalari, aql egiluvchanligi va

chuqurligining turli darajalari, tafakkur jarayonlari kechishining tezligi, tajriba elementlarining ijodiy o'zgarishiga, qobiliyatning turli-tumanligiga, yangi muammolarni tuzish va hal etish mustaqilligiga ko'ra farqlanadilar. Xarakterning intellektual qirralariga qiziquvchanlik, mulohazalilik, sinchkovlik va boshqalar kiradi.

Boshqa vaziyatda xarakter qirralari *shaxs yo'nalganligiga* muvofiq ravishda ko'rib chiqiladi. SHaxs yo'nalganligining mazmuni odamlarga, faoliyatga, atrof-olam va o'ziga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Xuddi shunday, insonning atrof-olamga munosabati yoki ma'lum mulohazalar mavjudligida, dunyoni sezish va bilishda, tamoyillarning mavjud emasligida namoyon bo'ladi. Insonning jamiyatga, boshqa odamlarga munosabatini shaxs sifati va inson xarakteri, uning axloqiyligini belgilab beradi. *Boshqa odamlarga nisbatan munosabatlar tizimi* to'rt xil asosiy chizmada birlashadi: «*Men yaxshiman va barcha odamlar yaxshi*» – yaxlit-yo'nalishli chizma, xayrixohligi, yuqori ijtimoiy kommunikativlik, xushchaqchaqlik, mutanosib o'zini baholash va xuddi shu darajadagi intilishlar, qiyin vaziyatlarda psixikasining barqarorligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-moslashgan shaxslarga xos. «*Men yomonman, barcha boshqa odamlar esa yaxshi*» - o'zini past baholovchi va past darajadagi intilishlarga ega, qat'iyatsiz, o'z imkoniyatlaridan doimo shubhalanadigan, qiyin vaziyatlarda psixik beqarorlikni namoyon qiladigan, ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga qiynaladigan odamlarga xos bo'lgan hayot chizmasi. «*Men yaxshiman, barcha boshqa odamlar esa yomon*» - intilishlarning ortiqcha darajasiga ega va o'zini yuqori baholaydigan odamlarga xos chizma. Ularga takabburlik, xudbinlik, shafqatsizlikka o'tuvchi qat'iyatlilik, o'ziga alohida harakatlar huquqini o'zlashtirish xos bo'ladi. «*Men yomonman va barcha odamlar ham yomon*» - hayotdan faqat yomonlik kutib yashaydigan tuzalmas pessimistlarning nuqtai nazari.

*Insonning mehnatga* va boshqa faoliyat turlariga *munosabati* mehnatsevarlik, ishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, vijdonan bajarish va boshqalarni belgilab beradi. Ushbu guruhning salbiy sifatlariga ishyoqmaslik, tanballik, darbadarlik va boshqalar kiradi.

*Narsalarga inson mehnatining mahsuli sifatida munosabat* bildirish puxtalik, tejamkorlik va boshqalarda, salbiy sifatlar – g'arazgo'ylik, xasislik, cheksiz manfaatdorlik, mezonlarga, «dabdabali hayotga» to'xtovsiz havasdir.

Har bir odamda *o'ziga nisbatan munosabati* – «Men-konsepsiya»siga intilish mavjud. Haqiqiy «Men» obrazi bir qator tarkibiy qismlar: *kognitiv* – tashqi ko'rinish obrazi, ahloqiy sifatlar, psixik xususiyatlar, ijtimoiy ahamiyatlilik; *emotsional* – o'ziga hurmat, o'zidan mamnunlik, o'zini tahqirlash va boshqalar; *davo-irodaviy* – o'zini tasdiqlash tilagi, boshqa idividlar tomonidan afzalliklarining tan olinishidan iborat.

Inson shaxsining barcha qirralarini shartli ravishda motivatsion va instrumental turlariga bo'linishi mumkin. *Motivatsion* qirralar faoliyatni qo'zg'atadi va yo'naltiradi, *instrumental* esa unga ma'lum uslub beradi. Xarakter shaxsning motivatsion qirradi kabi faoliyat maqsadini tanlashda namoyon bo'ladi. Lekin, maqsad aniqlab olinganda, xarakter instrumental vazifasida namoyon bo'ladi, ya'ni, ko'zlangan maqsadga erishish vositalarini belgilab beradi.

Xarakter shaxs namoyon bo'lishining asosiy ifodalaridan biri bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun shaxs qirralarini xarakter qirralari sifatida ko'rib chiqish mumkin. Bunday qirralarga, birinchi navbatda, shaxs xossalarning faoliyat maqsadini tanlashni belgilaydiganlarni keltirish lozim. Bularga muvofiqlik, tejamkorlik yoki ularga qarama-qarshi bo'lgan sifatlar kiradi. Ikkinchidan, xarakter tarkibiga ko'zlangan maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyatda namoyon bo'ladigan qat'iyatlilik, maqsadga yo'nalganlik, izchillik kabi qirralar kiritiladi. Uchinchidan, xarakter tuzilishiga temperament bilan bevosita bog'liq bo'lgan instrumental qirralar, masalan, ekstraversiya – introversiya, xotirjamlik – xavotirlanish, vazminlik – impulsivlik, ta'sirchanlik – rigidlik va boshqalar kiradi.

Xarakterlar tipologiyasi ma'lum tipik qirralarning mavjudligida tarkib topadi. Xarakterning *tipik* ifodalari va qirralari deb, odamlarning ba'zi guruhlari uchun umumiy ko'rgazmali bo'lgan xarakter qirralari va ifodalariga aytiladi. Bunga muvofiq ravishda xarakter tipi deganda odamlarning ba'zi guruhi uchun umumiy bo'lgan individual xarakter qirralaridagi ifodasi tushuniladi. Inson xarakterlarining barcha tipologiyalari quyidagi umumiy g'oyalardan kelib chiqadi: a) inson xakteri ontogenezda nisbatan erta rivojlanadi va hayotning qolgan qismi davomida o'zini u yoki bu darajada barqaror shaxs tuzilishi sifatida namoyon qiladi; b) xarakter tarkibidagi shaxs qirralarining birikmasi tasodifiy bo'lmaydi; v) ko'pchilik odamlar xakterining asosiy qirralari muvofiq ravishda guruhlarga bo'linishi mumkin.

Xarakter tipologiyalarining yaratilishi har doim ham ilmiy metodlarga tayangan holda amalga oshirilmagan. Tipologiyalar yaratishning usullaridan biri inson xakteri va harakatlarini uning tug'ilgan sanasi orqali tushuntirib berishdir. Bu tamoyil bo'yicha inson taqdiri va xakterini bashorat qilishning turli-tuman usullari *munajjimlar bashorati* nomini olgan.

Xakterni tadqiq qilishga *fiziognomika* – insonning tashqi ko'rinishi va uning ma'lum shaxs tipiga mansubligi o'rtasidagi aloqa haqidagi ta'limot ham katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu ta'limotning asosiy g'oyasi tashqi belgilarga asoslangan holda u yoki bu tipga mansub bo'lgan insonning psixologik xakteristikasini aniqlash mumkinligi taxminlaridan iborat. Inson xakterini bilishning asosiy yo'li bosh tuzilishi, kalla qutisining shakli, mimikasini o'rganish deb hisoblagan I.K. Lafaterning fiziognomik tizimi keng ommalashgan edi.[2]

Xakterologiyaning alohida yo'nalishi sifatida inson individual xususiyatlarini uning tana holati bo'yicha aniqlashga asoslangan yondoshuvni ajratish mumkin. Ba'zi psixologlarning fikriga ko'ra, inson tana holati, yurish-turishi, o'tirishi va qay holatda uyquga ketishi bo'yicha inson xakterini ochib berish mumkin.

Fiziognomikadan tashqari, *xiromantiya* (yunonchadan qo'l – fol ochish) ham qiziqarli tarixga ega. Xiromantiya – bu inson xakteri qirralari va taqdirini qo'l kaftining teri reliefi bo'yicha bashorat qilish tizimi. Ilmiy psixologiya xiromantiyani inkor etadi, lekin, barmoqlardagi chiziqlarni o'rganish irsiyat bilan bog'liq bo'lgan yangi soha – *dermatoglifika*ning paydo bo'lishiga turtki berdi. tadqiqotlar jarayonida har bir odam kaft chiziqlarning shakllanishi miyaning rivojlanishi kabi ona qornidagi rivojlanishning 3-4 oyida sodir bo'ladi, bu

jarayonga ota-ona irsiy belgilari yoki homilaning xromosoma nuqsonlari bir xilda ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun barmoqlar chiziqlarini organizmning anatomik yoki fiziologik xususiyat sifatida o'rganish lozim, dermatoglifika esa karakterologiyaning asosiy yo'nalishlari qatoridan joy olishi mumkin.

Xarakter tipologiyasining quyidagi asosiy turlarini aytib o'tish mumkin: inson xakteri xususiyatlarini insonning tashqi ko'rinishi, tana tuzilishi, gabitus bilan bog'lovchi konstitutsion nazariyalar (E. Krechmer, Rostan, Lombrozo, U. SHeldon va boshqalar); xarakter xususiyatlarini uning aksentuatsiyasi – psixikaning psixopatiya quyi chegarasi bo'lib hisoblanadigan xakterning alohida qirralari va ular yig'indisining o'ta ifodalanganligi bilan bog'lovchi aksentual nazariyalar (K. Leongard, A.E. Lichko va boshqalar); shaxsning etakchi yo'nalganligi bo'yicha nazariyalar (E. SHpranger, M.I. Enikeev); shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishning umumiy usuli bo'yicha nazariyalar (M. Enikeev); insonning hayotga, jamiyatga, ma'naviy qadriyatlarga munosabati asosidagi xakterlarning ijtimoiy tipologiyasi (E. Fromm); ekstraversiya-introversiya (K. YUng) bo'yicha nazariyalar shular jumlasidandir.[1]

«Aksentuatsiya» tushunchasi psixologiyaga K. Leongard tomonidan kiritilgan edi. *Xarakter aksentuatsiyasi* – xarakter alohida xossalarning boshqalarga ziyon keltirish hisobiga ortiqcha rivojlanishi, buning natijasida atrofdagilar bilan o'zaro aloqalar yomonlashadi. Leongardning fikriga ko'ra, shaxs aksentuatsiyasi, avvalambor, boshqa odamlar bilan muloqotda namoyon bo'ladi. SHuning uchun, muloqot uslublarini baholashda aksentuatsiyaning ma'lum tiplarini ajratish mumkin. K. Leongard quyidagi tiplarni keltiradi:

1. *Gipertim tip* o'ta muloqotchanligi, sergapligi, imo-ishoralar, mimika va pantomimikaning kuchli ifodalanganligi bilan xakterlanadi. Bunday odamda suhbatning boshlang'ich mavzusidan chetlashishi kuzatiladi. Xizmat va oiladagi vazifalariga etarlicha jiddiy e'tibor bermasligi vajidan atrofdagilar bilan tasodifiy nizolar sodir bo'lib turadi. Bu tipdagi odamlar ko'p hollarda nizolar tashabbuskori bo'lib chiqadilar, lekin atrofdagilardan bu haqda tanbeh eshitsalar, hafa bo'ladilar. Ushbu tip odamlarining ijobiy sifatlaridan chaqqonlik, faoliyatga chanqoqlik, ruhiy ko'tarinkilik, tashabbuskorlik kabilarni keltirish mumkin. SHu bilan birga, ular ba'zi bir yoqimsiz qirralar: engil tabiatlilik, ahloqsiz harakatlarga moyillik, o'ta ta'sirchanlik, xomxayollik, o'z vazifalariga etarlicha jiddiy yondoshmaslik kabilarga ega. Ular qat'iy intizom, zerikarli faoliyat majburiy yolg'izlik sharoitlariga qiyin moslashadilar.

2. *Distim tip* – bu tip past muloqotchanlik, kamgaplik, ustun tushkunlik kayfiyati bilan xakterlanadi. Bunday odamlar, odatda, uydan chiqmaydilar, shovqindan qiynaladilar, nizolarga qo'shilmaydilar, odamovilik turmush tarzini kechiradilar. Ular do'stlarini qadrlaydilar va ularga bo'ysunishga tayyor bo'ladilar. Ushbu tip odamlarining ijobiy sifatlaridan: jiddiylik, vijdoniylik, haqgo'ylik kabilarni keltirish mumkin. Lekin ularda yoqimsiz sifatlar ham mavjud, bulardan: sustlik, tafakkurning sekinlashganligi, harakatlarning qovushmaganligi, individuallikdir.

3. *Sikloid tip* – ularga kayfiyatning davriy ravishda tez-tez o'zgarib turishi xosdir, buning natijasida atrofdagi odamlar bilan muloqot tarzi ham o'zgarib

turadi. Ko'tarinki kayfiyat davrida bunday odamlar kirishimli, ruhiy tushkunlik davrida odamovilik kabi qirralarga ega bo'ladilar. Ruhiy ko'tarinkilik davrida ular o'zlarini gipertim aksentuatsiyasi xarakterli odamlar kabi, tushkunlik davrida distim aksentuatsiyali odamlar kabi tutadilar.

4. **Qo'zg'aluvchan tip** – ularga past muloqotchanlik, verbal va noverbal ta'sirlanishning sustligi xos. Ko'p hollarda bunday odamlar mijg'ov va badqovoq, qo'pollik va koyishga, nizolar chiqarishga moyildirlar, bunda o'zlari faollik ko'rsatadilar. Ular jamoa bilan chiqishmaydilar, oilada xukumronlik qiladilar. Emotsional xotirjamlik xolatda ushbu tipdagi odamlar vijdonli, puxta, xayvonlar va yosh bolalarni yaxshi ko'radilar. Lekin emotsional qo'zg'alishda ta'sirchan, jizzaki bo'lib, o'z xarakterlarini yaxshi nazorat qila olmaydilar.

5. **Suqiluvchi tip** – ularga o'rtacha muloqotchanlik, mijg'ovlik, nasihatgo'ylikka moyillik, kamgaplik xosdir. Nizolarda bunday odam, odatda, tashabbuskor, faol tomon sifatida namoyon bo'ladi. U qo'l urgan har bir ishida yuqori ko'rsatkichlarga erishishga intiladi, o'ziga o'ta talabchan, ijtimoiy adolatga alohida sezgir, shu bilan birga, jizzaki, salga ranjiydigan, shubhalanuvchi, qasoskor; ba'zida o'ta o'ziga ishongan, izzattalab, rashkchi, yaqinlari va ishdagi qo'l ostidagilarga nisbatan o'ta talabchan.

6. **Rasmiyatchi tip** – bunday tipdagi odam nizolarga bormaydi, sust tarafni egallaydi. Xizmatda rasmiyatchi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi. SHu bilan birga, u bajonudil liderlikda boshqalarga yon beradi. Ba'zan u yaqinlarining ozodagarchiligiga katta talab qo'yadi. Uning ijobiy qirralari: vijdoniylik, puxtalik, jiddiylik, ishdagi ishonchlilik, yoqimsiz va nizolarni keltirib chiqaradigan qirralari esa – rasmiyatchilik, mijg'ovlik, hadeb noliyverish hisoblanadi.

7. **Xavotirli tip** – bunday tipdagi odamlarga muloqotga kirishuvchanlikning past bo'lishi, jur'atsizlik, qat'iyatsizlik, tushkun kayfiyat xosdir. Ular atrofdagilar bilan nizolikka bormaydilar, bunda sust o'rinni egallaydilar, bunday vaziyatlarda tayanch izlaydilar. Ular quyidagi ijobiy qirralarga ega: samimiylik, o'zini tanqid qilish, ishchanlik. O'zining himoyasizligi oqibatida, shuningdek, ko'p hollarda boshqalarning gunohiga javobgar, masxara bo'lib qoladilar.

8. **Emotiv tip** – bunday odamlar yaxshi aloqalar o'rnatilgan saralanganlar tor doirasidagi muloqotni afzal ko'radilar. Sust tarafni egallagan holda nizolarga bormaydilar. Hafagarchiliklarini ichlariga yutadilar. YOqimli qirralari: mehribonlik, hamdardlik, kuchli mas'uliyat hissi, ishchanlik. YOqimsiz qirralari: o'ta ta'sirchanlik, yig'loqilik.

9. **Namoyishkor tip** – aksentuatsiyaning bu tipi aloqalarni oson o'rnatishi, liderlikka intiluvchanlik, hukmronlik va maqtovlarga chanqoqligi bilan xarakterlanadi. Ushbu tipga mansub odamlar o'ziga o'ta ishonganligi va intilishlarining yuksakligi bilan atrofdagilarning g'ashiga tegadi, muntazam ravishda nizolarni keltirib chiqaradilar, lekin o'zlari faol himoyaladilar. Ular sertakalluflik, ustalik, boshqalarni orqasidan ergashtirish, tafakkur va harakatlarning o'ziga xosligi kabi ijobiy sifatlarga ega. Salbiy qirralari: xudbinlik, riyokorlik, maqtanchoqlik, ishyoqmaslikdir.

10. **O'ta hayajonli tip**–bunday odamlarga yuqori muloqotchanlik, sergaplik, oshiqlik xosdir. Ular ko'p bahslashadilar. Lekin nizogacha olib bormaydilar. Nizoli vaziyatlarda ham faol, ham sust holatda bo'ladilar. SHu bilan birga, bunday tipdagi odamlar do'stlari va yaqinlariga e'tiborli va sadoqatli bo'ladilar. Ular altruistlikka moyil, ularga hamdardlik hissi, yaxshi did xos bo'lib, sezgilarning yorqinligi va samimiyligini namoyon qiladilar. YOqimsiz qirralari: vahimachilik, vaqtinchalik kayfiyatga berilganlik kabilardir.

11. **Ekstravert tip** – bunday odamlar yuqori muloqotchanlik bilan ajralib turadilar, ularning do'stlari, tanishlari ko'p, ular sergap, istalgan ma'lumotni qabul qiladilar, ayrim holatlarda atrofdegilar bilan nizolarga boradilar, bunda, odatda, sust tarafda bo'ladilar. Do'stlar bilan muloqotda, ishda va oiladagi ko'p holatlarda liderlikda boshqalarga yon bosadilar, bo'ysunishni va chetda turishni afzal ko'radilar. Boshqalarni tinglay olishga shaylik, iltimoslarni bajarish, ishchanlik kabi yoqimli qirralarga egadirlar. YOqimsiz qirralari: ta'sirlarga beriluvchanlik, engil tabiatlilik, o'ylamasdan harakat qilish, ko'ngilochar qiziqishlarga, gap-so'z va mish-mishlarni tarqatishda ishtirok etishga ishtiyoqmandlik.

12. **Introvert tip** – ular past muloqotchanlik, odamovilik, voqelikdan uzilganlik, falsafa so'qishga moyillik bilan xarakterlanadi. Bunday odamlarni yolg'izlikni xush ko'radilar; atrofdegilar bilan shaxsiy hayotlariga takallufsizlik bilan aralashish holatlaridagina nizolarga borishlari mumkin. Ular ko'pincha odamlarga nisbatan kuchsiz bog'langan emotsional sovuqqon odamlardir. Vazminlik, qat'iy e'tiqodlilik kabi ijobiy qirralarga egadirlar. Salbiy qirralari ham mavjud – qaysarlik, tafakkur rigidligi, o'z g'oyalarini qat'iy ravishda himoya qilish hisoblanadi.

Keyinchalik A.E. Lichko o'smirlar aksentuatsiyalarini ta'riflash asosida xarakterlar tasnifini taklif etdi.

M.I. Enikeev shaxs muhitga moslashishining umumiy usuli asosida xarakterning quyidagi tiplarini keltiradi:[2]

1. **Uyg'unlashgan yaxlit tip** – munosabatlarning barqarorligi va, shu bilan birga, atrof-muhitga yuqori moslashganlik bilan ajralib turadi. Bunday tipdagi xarakterli odamda ichki nizolar bo'lmaydi, uning tilaklari bajarayotgan ishi bilan mos tushadi. Bu muloqotchan, irodali, e'tiqodli odam.

2. **Ichki nizoli**, lekin **tashqaridan muhit bilan uyg'unlashgan tip** – ichki intilishlar va, muhit talablariga mos ravishda katta zo'riqish bilan amalga oshiriladigan, tashqi hulq-atvor o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan ajralib turadi. Bunday tipdagi xarakterli odam ixtiyorsiz harakatlarga moyil, lekin ular doimo iroda kuchi tomonidan tutib qolinadi. Munosabatlari tizimi barqaror, lekin kommunikativ xossalari etarlicha rivojlanmagan. Bu har kungi kurashdan voz kechgan oqil kuzatuvchi tipidir.

3. **Moslashganligi kuchsiz nizoli tip** – emotsional va ijtimoiy vazifalar, impulsivlik, salbiy xisssiyotlarning ustunligi, kommunikativ xossalarning rivojlanmaganligi, o'zini anglashning etarlicha tarkib topmaganligi o'rtasidagi kelishmovchilik bilan ajralib turadi. Bunday tipdagi xarakterli odamlarning hayotidagi voqealar soddalashtirilgan chizma bo'yicha sodir bo'ladi: o'zgaruvchan extiyojlari ularning shaxsiy fikrlari bo'yicha qiyinchiliklarsiz darhol qondirilishi

kerak. Bunday odamlar hayotiy faoliyatning asosiy mexanizmi – zavqlanish (gedonizm). Bunday tipdagi odamlar barcha og‘ir vaziyatlarni keskin kelishmovchilik sifatida idrok qiladilar va anglanmagan psixologik soxta himoya – voqealikni buzib aks ettirilishi (injiqliklar, qaysarlik, mevasiz orzular va shirin xayyollar olamiga g‘arq bo‘lish) ga murojaat qiladilar.

4. **Xarakterning variativ tipi** – muhitga tashqi baqaror nuqtai nazar orqali moslashadigan; shaxs rivojlanishining quyi darajasi, xulq-atvor barqaror umumiy usulining mavjud emasligi xaqida dalolat beradi. Bunday tipdagi odamlar ichki olamining soddaligi bilan farqlanadi; ularning yashash uchun kurashi to‘g‘ri chiziq bo‘yicha amalga oshiriladi, ular shubhalanish va ikkilanishlarni namoyon qilmaydilar, alohida ichki chegaralarga ega emas, ularga to‘siqlarning faqat tashqi turi ma‘lum. Ichki olamni tashqi sharoitlarga moslashtirish, to‘g‘rilash, monandlash – bunday odamlar moslashishining umumiy usullari shulardan iborat.[2]

Xarakterlar tipologiyasining asosini shaxsning etakchi yo‘nalganligi ham tashkil etishi mumkin. Mashxur nemis faylasufi va psixologi Eduard SHpranger shaxsning etakchi yo‘nalganligi bo‘yicha quyidagi tiplarni keltiradi:

1. **Ilmiy odam**. Faqat yagona ehtiros – tushuntirishga, aloqalarni o‘rnatishga, nazariy bilimlarni ishlab chiqishga olib boruvchi ehtirosga egadir. Uning kechinmalari voqeyiy hayotdan uzilgan bo‘lib, bilish imkoniyatining mavjud emasligidan tushkunlikka tushishi, nazariy kashfiyotdan zavqlanishi mumkin. Unga faqat bilish metodlarining sofliigi – qanday bo‘lsada, haqiqatga erishish qadrliroqdir.

2. **Iqtisodchi odam**. Bu, albatta, ishlab chiqarish bilan bog‘liq odam bo‘lishi shart emas. Eng asosiysi, shaxs turli sohalari va turmush tarzini belgilab beruvchi bosh motiv sifatida foydalilik motivining mavjudligidir. Barcha hayotiy aloqalarda bunday odam foyda chiqishini birinchi o‘ringa qo‘yadi. U maksimal darajada foyda olish uchun xom ashyo, kuch va vaqtni tejay oladi. Bunday odamni ishbilarmon odam deb atash to‘g‘riroq bo‘lar edi.

3. **Estetik didli odam**. Sof estetik hulq-atvorga hirs qo‘yish xos emas. Olam bilan bevosita aloqada bo‘lish doimo og‘riqli kechadi, bu yashash uchun kurash bilan bog‘liq. Lekin boshqa olam borki, bunda og‘riq quvonch kabi shirin, azob tortish shodlanish kabi ilohiylashgandir: bu fantaziya olami. Estetik tipni ko‘rib chiqishda moddiy asar yaratuvchi san‘at arboblari emas, balki o‘zini yaratuvchi, estetik tipli ichki tuzilishiga ega bo‘lgan odamlar ko‘zda tutiladi.

4. **Ijtimoiy odam**. Ijtimoiy deb atalgan alohida hayot shakli o‘zgalar manfaati yo‘lida o‘zidan voz kechish ehtiyoji etakchi hayotiy ehtiyojga aylanganida yuzaga keladi.

O‘zining yuksak ifodasida ijtimoiy yo‘nalganlik mehr-muruvvatdan tashkil topgan. Biror odamni, unda haqiqat yoki go‘zallik, yoki oliyjanoblik qadriyati namoyon bo‘lganligi sababli sevish mumkin. Mehribonlik odamlarda yashirin holatdagi ma‘lum qadriyatlar tashuvchilarni ochib beradi va ular o‘z hayoti mazmunini bu odamlarga sadoqatli bo‘lishda topadi.

5. **Siyosiy odam**. Inson uchun qudratga ega bo‘lish asosiy ahamiyat kasb etgan alohida holat. Bunday odamning olamni his etishi umumiyliigi bilan ajralib

turadi, umumiylik o'z mavqeini belgilash, muvaffaqiyatga erishish, hayotiy quvvat, turmushdagi harakatda namoyon bo'ladi. Bunday odamlar yuqori ijtimoiy darajaga intiladilar va faqat o'sha darajadagina dohiy sifatida, shon-shuhrat pog'onasida o'zlarida mamnunlik his qiladilar.

6. **Diniy e'tiqodli odam.** Bu ma'naviy hayot yo'li diniy qonunlar asosida hayotning yuksak mazmuniga erishishga qaratilgan odam. Diniy e'tiqodli odamlar hulq-atvorida altruizm yo'nalishi dominantlik qiladi. Hayotlarining oliy mazmunini odamlarga oliyjanoblik bilan beminnat xizmat ko'rsatish – zarar ko'rganlar, yaralanganlar, shikastlanganlar, muhtojlar, tahqirlanganlar va yolg'izlarga yordam ko'rsatishda deb biladilar.

Diniy aqidaparastlar dindor odamlar ong osti sohasiga inson psixikasining murakkab ichki tuyg'usi – ishonch mexanizmi bilan qamrab olgan holda mustahkam singdirib boradilar. Dindor odam hulq-atvori o'zgarib boradi – psixikada insonga nisbatan yaxshilik, mehribonlik g'oyalari dominantlik qila boshlaydi.

Xarakter tiplarining boshqa tasniflari ham mavjud. Xuddi shunday, insonning hayotga, jamiyatga va ahloqiy qadriyatlarga munosabati asosidagi xarakterlar tipologiyasi keng tarqalgan. Uning muallifi – E. Fromm ushbu tasniflashni xarakterlarning ijtimoiy tipologiyasi deb nomladi. Turli odamlar hulq-atvorini kuzatishdan to'plagan ma'lumotlarni umumlashtirib, ularni klinikadagi amaliyot bilan solishtirgan holda, E. Fromm ijtimoiy xarakterlarning quyidagi asosiy tiplarini keltirib chiqardi.

1. **«Mazoxist-sadist».** SHaxsiy hayotidagi muvaffaqiyatlari va omadsizliklarini, shuningdek, kuzatiladigan voqealar sababini sharoitlarda emas, balki, odamlarda ko'rishga moyildir. Bu sabablarni bartaraf etishga intilib, tajovuzkorligini omadsizlik sababi bo'lib ko'ringan odamga yo'naltiradi. Bunday odam mustaqil bilim olish, o'z ustida ishlash, odamlarni yaxshi tomonga o'zgartirish bilan ko'p shug'ullanadi. O'zining qat'iy harakatlari, cheksiz talablari va intilishlari bilan ba'zan o'zini va atrofdagilarni toliqtirib qo'yadi. Bunday odam, ayniqsa, atrofdagilar ustidan hukronlik qila boshlaganida, «ezgu niyatlar»dan kelib chiqqan holda odamlarni dahshatga sola boshlaydi.

Bunday odamlarni xarakterlagan holda, E. Fromm: «Eng ko'p namoyon bo'ladigan mazoxist qarashlar – bu shaxsiy norasolik, muhtojlik, notavonlik hissi» deb yozgan edi. Mazoxist-odamlar o'zini kamsitish va kuchsizlantirishni namoyon qiladilar, o'zini tanqid qilish va azoblashdan rohatlanadilar, o'zlariga be'mani bekorchi ayblovlarni qo'yadilar, barcha holatlarda bunga aloqador bo'lmasalarda, aybdorlikni o'zlariga olishga harakat qiladilar.

Fromm fikriga ko'ra, bunday tipdagi odamlarda deyarli har doim sadistlikka moyillik mavjud bo'ladi. Bu ularning odamlarni o'zlariga tobe qilishlarida, ularning ustidan to'liq hukmronlikka ega bo'lishlarida, ulardan manfaatdor bo'lishlarida, ularga azob berishlarida, ularning azoblanishlaridan rohatlanishlarida namoyon bo'ladi. Bunday tipdagi odam Fromm tomonidan **avtoritar shaxs** deb nomlangan. Masalan, Gitler, Stalin va boshqalar bunday tipdagi odamlar edi.

2. **«Buzg'unchi».** Ushbu odamda frustratsiya, umidlarning chilparchin bo'lishiga sabab bo'lgan ob'ektga nisbatan ifodalangan tajovuzkorlik va uni



bartaraf etishga faol intilish bilan xarakterlanadi. «Buzg'unchilik,- deb yozadi Fromm,- bu chidab bo'lmaydigan kuchsizlik hissidan xalos bo'lish». Buzg'unchilikka, odatda, xavotirlanish va kuchsizlik hissini boshidan kechiruvchi, aqliy va emotsional imkoniyatlarini joriy qilishi cheklangan odamlar o'zining hayotiy muammolarini hal etish vositasi sifatida murojaat qiladilar.

3. «*Konformist-avtomat*». Bunday individ, qiyin ijtimoiy va shaxsiy hayotiy muammolar bilan to'qnash kelganida, o'ziga o'xshamay qoladi. U so'zsiz, ushbu vaziyatda ko'pchilikka xos bo'lgan tafakkur tipi va hulq-atvor usulini darhol o'zlashtirgan holda sharoitlarga, turli ko'rinishdagi jamiyatga, ijtimoiy guruh talablariga bo'ysunadi. Bunday odamning deyarli hech qachon shaxsiy fikri ham, ifodalangan ijtimoiy qarashi ham bo'lmaydi. U shaxsiy «Men»ini, individualligini yo'qotgan va ma'lum sharoitlarda undan kutilgan, aynan, o'sha hislarni boshidan kechirishga odatlangan. Bu ongli yoki ongsiz moslashuvchi tipi.

K.YUng tomonidan taklif etilgan xarakterlarning ekstravert va introvert tiplarga mansubligiga bog'liq ravishda tasniflanishi keng ommalashdi. Ekstraversiya-introversiya hozirgi zamon psixologiyasida temperament ifodalanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Birinchi tip shaxsning ob'ektlari sub'ekt qiziqishlari, hayotiy quvvatini o'ziga tortuvchi atrof-olamga qaratilganligi bilan xarakterlanadi, bu esa ma'lum ma'noda shaxs sub'ektiv olami hodisalari o'rining kamsitilishiga olib keladi. Ekstravertlarga ta'sirchanlik, tashabbuskorlik, hulq-atvorning egiluvchanligi, muloqotchanlik xosdir. Introvertlar esa shaxs qiziqishlarining shaxs ichki olami hodisalarida qayd qilinishi, odamovilik, o'zini tahlil qilishga moyillik, moslashishlarining qiyinligi bilan xarakterlanadilar. SHuningdek, konform va mustaqil, dominant va bo'ysunuvchi, me'yoriy va ayrim, hamda boshqa tiplarga bo'linish imkoniyati ham mavjud.

Xarakterga tegishli xarakter muammosini hal etish uchun asos bo'ladigan ko'plab ilmiy muammolar mavjud. Bunday masalalardan biri *grafologiya* hisoblanadi, bu yo'nalish dastxatni shaxsning psixologik xossalarini aks ettiruvchi ifodali harakatlarning bir turi sifatida ko'rib chiqadi. Asrlar davomida to'plangan grafologiya ma'lumotlari ikki qator dalillar – dastxat xususiyatlari va xarakter o'rtasida aloqa o'rnatilgan edilar. Har bir odam o'ziga xos dastxatga ega. Bu dalil xarakterning dastxatga bog'liqligi masalasini ko'rib chiqish uchun asos bo'la oladi.

Lekin hozirda dastxat va xarakter aloqasini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi ma'lumotlar mavjud emas. Dastxatning emotsional holat va oliy nerv faoliyatining ayrim tipologik xossalariga bog'liqligi to'liqroq dalillarga ega.

Biz xarakterlar tipologiyalarini ko'rib chiqdik, lekin inson shaxsining murakkabligi va xilma-xilligini ko'rsatib o'tilgan tipologiyalarga to'laligicha jamlab bo'lmaydi. Har birimizning biror bir tipga yoki tiplardan bir nechtasiga moyilligimizni etarlicha baholamaslik ham xatolikdir. SHuning uchun xarakterlar tipologiyasi bilan tanishib chiqish odamning kuchli tomonlaridan to'liqroq foydalanish, zaiflarini kamaytirish imkonini beradi, shuningdek, insonlar qarori va harakatlarining yashirin mexanizmlariga yo'l topgani uchun boshqa odamlarning qulfi-dilini ochishga yordam beradi.

## **5. Jinsiy diformizm va individning psixologik tavsifi**

Odamlar xarakterining ba'zi xususiyatlari ularning qaysi jinsga tegishliligi bilan belgilanadi.

Jinsiy psixik xususiyatlar faqat biologik omillar bilan emas, balki tarixiy tarkib topgan erkak va ayol ijtimoiy rollarining bo'linishi, jinsiy belgilar bo'yicha mehnatning taqsimlanishi, erkaklik va ayollikning madaniy-tarixiy stereotiplariga muvofiq ravishda qizlar va o'g'il bolalarni an'anaviy tarbiyalashdagi farqlar bilan ham bog'liqdir. Jinsiy indentifikatsiya – individ o'zini ma'lum jinsga tegishli deb bilishi uning jinsiy ijtimoiylashuvi, jinsga muvofiq holda o'zini anglashning rivojlanganligi, ijtimoiy-jinsiy rolni egallash bilan bog'liq. Individning jinsiy o'zini anglashi to'g'ri jinsiy hulq-atvorni mustahkamlaydigan va bo'lishi mumkin nuqsonlarni qoralaydigan ijtimoiy muhitda shakllanadi.

Jinsiy me'yorlar, erkak va ayol stereotiplari tizimi odamda «erkak obrazi» yoki «ayol obrazi»ni shakllantiradi. Birlamchi jinsiy o'zini identifikatsiyalash 2 yoshgacha shakllangan bo'ladi, 6-7 yoshlarda esa o'yin, hulq-atvor uslubini tanlashda, jinsiy segregatsiya (jins umumiylikning shakllanishi)da namoyon bo'ladigan jinsiy mayllar jadallik bilan shakllanadi

Ayniqsa, o'smirlikda jinsiy-rolli yo'nalish tengdoshlar muloqotida etakchi o'rinni egallagan holda kuchayadi. Bunda an'anaviy erkaklik xususiyatlariga ayollik xususiyatlariga nisbatan bir muncha ortiqcha baho beriladi.

O'smirlikda jinsiy o'xshashlik tanqidiy anglanadi. Ayrim o'smirlarda bu yoshda dismorfobiya – jinsiy nomuvofiqlikdan qo'rqish sindromi yuzaga kelishi mumkin. Jismoniy va psixologik ijtimoiy rivojlanishning nomutanosibliigi og'ir kechiriladi, jinsiy rolli o'z mavqeini o'rnatish jadallik sodir bo'ladi, shaxsning psixoseksual yo'nalganligi shakllanadi.

Qanday psixologik xususiyatlar individning jinsga mansubligi bilan bog'liq? Bu muammo bo'yicha ilmiy ma'lumotlar etarli darajada emas. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, qizlar nutq qobiliyatlari bo'yicha o'hil bolalardan ustun keladilar, o'g'il bolalar ko'rish-fazoqiy qobiliyatlari bilan ustundirlar, erkaklar ayollarga nisbatan tajavozkorroq va beqarordirlar, ayollarning aqliy qobiliyati va idroki ko'proq tahlil qilishga moyildir. Qizlar va ayollar og'ir murakkab faoliyat turlarini yaxshiroq eplaydilar. Inson tashqi ko'rinishi ayollar tomonidan izchilroq idrok qilinadi. Ayollar emotsional ta'sirchandirlar. Ayol psixikasi irsiyat tomonidan, erkaklarniki – muhit ta'sirlari tomonidan belgilangandir.

Ta'sirlanish, xavotirlanish, raqobatchilik va dominantlikning jinsiy farqlari haqida fikrlar bildiriladi. Ayollar uchun hulq-atvorning ko'proq emotsional-ekspressiv, erkaklar uchun – jisimli-instrumental uslublari xosdir.

Jamiyat madaniy rivojlanishining yuqori darajalari ijtimoiy ishlab chiqarishda erkak va ayollarning qarama-qarshiligini engishga nisbatan nuqtai nazar bilan xarakterlanadi, ayollar tomonidan «erkaklar» kasbining egallanishi, ularda muvofiq keladigan psixik sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin bu jinsiy rolli intilishlarning ayrim noaniqligini, shaxslararo munosabatlarda nizolarni yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan jinsiy rollar an'anaviy stereotiplarining tubdan o'zgarishini keltirib chiqaradi.

«Mukammal erkak» va «mukammal ayol» obrazlari hozirda to'la aniqlanmagan.

Xulosa o'rnida Parijda chop etiladigan oynoma o'tkazgan so'rovnomasavollarini keltiramiz. Quyidagi savollar berilgan edi: «Erkaklarning qaysi sifatlarini ayollar asosiy deb hisoblaydilar, va erkaklar nazarida ayollarning kamchiligi nimadan iborat?».

Xuddi shunday, *ayollarning fikriga ko'ra*, erkaklar o'zlarida kasbiy muvaffaqiyatlari, tashqi ko'rinishlari, ayniqsa, jismoniy ko'rsatkichlari, insoniy fazilatlari, matonat, shaxsiy holat, kiyim-boshni qadrlaydilar. *Ayollar nazdida* erkaklar o'zlarining ziyoliligi, hazilkashligi, umumiy madaniyati, xushmuomalaligi, xususiy mulki bilan jozibadordirlar, ularga suyansa bo'ladi.

#### *Ayollar nazarida erkaklarning asosiy kamchiliklari:*

- |                            |                                |                               |
|----------------------------|--------------------------------|-------------------------------|
| a) <i>ishda</i> – ustunlik | b) <i>hayotda</i> – xudbinlik, | v) <i>oilada</i> – TV oldida  |
| hissi,                     | munofiqlik,                    | o'tiradilar, ayollarga quloq  |
| maqtanchoqlik,             | tashabbussizlik,               | tutmaydilar, tanbaldirlar,    |
| ichki hisning              | ayollarni himoya               | samimiy emaslar,              |
| etishmovchiligi,           | qilmaydilar, ayollarga         | qovoqlarini uyub o'tiradilar, |
| hukmronlikka               | kamroq achinadilar,            | ovqat ustida gazeta           |
| intilish,                  | xushmuomala                    | o'qiydilar, o'z onalarini     |
| ikkiyuzlamachalik          | emaslar, ayollarni             | maqtaydilar, ayolning         |
| , qo'rqqoqlik,             | orzu qilishga                  | didlariga mos kiyinganligini  |
| qo'pollik                  | majburlamaydilar               | yashiradilar                  |

*Erkaklar nazarida ayollarning kamchiliklari:* zaif aqliy xususiyatlar, ziyraklik, hazilkashlik, chaqqonlik, hozir javobgarlikning etishmasligi, arzimagan narsalardan hafa bo'lish, betartiblilik, betayinlik.

Odamlarning xarakteri turli yoshlarda yanada ifodaliroq namoyon bo'lishi mumkin. Ba'zilar yoshlik davrida ko'zga yaqin, boshqalar – etuklik davrida faol, samarali va go'zal bo'ladi. Ba'zilar keksayganda samimiy, xayrixoh, ko'ngilchan bo'lib qolganlarida, shuningdek, oqilligi, hamda xolisona insonparvarligi bilan foydali bo'lganlarida, ayniqsa, jozibadorroq bo'ladi. Balki, individ xarakterida ma'lum yoshda to'liq namoyon bo'lishga qaratilgan biror bir xususiyat mavjud bo'lsa kerak.

Inson hayotining yakuniga kelib, illyuziyalar batamom yo'qoladi, xarakter o'z samimiyati bilan to'liq namoyon bo'ladi, yuzaga kelgan ijtimoiy-rolli xususiyatlar kuchsizlanadi. Va inson, o'zini, o'zining haqiqiy munosabatlarini taniydi. Hayot qaytadan oqillik tusiga ega bo'ladi, ehtiroslar tinchiydi, inson barcha narsalarning haqiqiy bahosini bilgan holda o'zini erkin sezadi. Va inson, nihoyat, undagi eng qadrli narsa uning o'zi ekanligini tushunib etadi.

#### **6. Layoqat va qobiliyat. Qobiliyatlar tuzilishi. turlari.**

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon

bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. SHuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Masalan, Albert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi. [2]

Qobiliyat bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi ya'ni, boshqacha qilib aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida turli sharoitlarda qanchalik tez, chuqur, engil va mustahkam amalga oshirishida namoyon bo'ladi.

Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatorga qo'yish ham mumkin emas. Agar shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashiga asos bo'ladi.

Qobiliyat kishining psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shuning bilan birga u ma'lum darajada bilim olish mahsuli hamdir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy ko'nikmalarni egallab olish jarayonida qobiliyat mukamallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakadir. Ular faoliyat mexanizmini tashkil qiladilar. Hamda ular qobiliyat bilan birgalikda mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida mehnatda katta yutuqlar qo'lga kiritiladi. Qobiliyatli, ammo noshut inson ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikmada ro'yobga chiqadi. [1]

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. SHuning bilan birga ko'nikma va malakalar etishmagan qobiliyatni bir muncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi mohirlik deb ataladi. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir.<sup>105</sup>[3]

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi,

---

<sup>105</sup> David G. Myers "Psychology" Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.-461

agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va etakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Barcha qobiliyatlar uchun asosiy tayanch xususiyat kuzatuvchanlik, bilish ko'nikmasidir. Bu individual narsaning o'ziga xos tomoni, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Qobiliyatning etakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishlik hisoblanadi.

Quyidagilarni yordamchi xususiyat deb hisoblash mumkin: xotira (u faoliyat talablariga muvofiq ravishda o'ziga xos tuzilishda bo'ladi), emotsionallik, ya'ni his tuyg'uga beriluvchanlik (bu xususiyat shaxsning faoliyatini oshiradi) va shunga o'xshashlar. Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilishidagi turli xususiyatlarning tarkibi faoliyatning turli davrlarida yoki ijodiyotning bosqichlarida turlicha bo'lishi mumkin. Demak, tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchandir.

Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo'lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv tizimining alohida sezgirligi ma'lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Qobiliyatlar B.M. Teplovning fikricha, muntazam rivojlanish jarayonida mavjud bo'ladilar. SHuningdek, ta'kidlab o'tish lozimki, har bir faoliyatning bajarilish samaradorligi bir xil emas, balki, turli qobiliyatlar uyg'unligiga bog'liq. Ba'zi qobiliyatlar rivojlanishiga zarur nishonalarning mavjud emasligi, ularning tanqisligi boshqa qobiliyatlarning yuksak darajada rivojlanganligi hisobiga to'ldirilishi mumkin.[2]

Rus psixologiyasida qobiliyatlar muammosini o'rganishda ikki yo'nalish mavjud. Birinchisi – asab tizimi asosiy xossalarning aloqalari va insonning umumiy psixik qobiliyatlarini tadqiq etuvchi *psixofiziologik* yo'nalish (E.L. Golubeva, V.M. Rusalov). Boshqa yo'nalish – *qobiliyatlarni individual, o'yin, o'quv, mehnat faoliyatida tadqiq qilish* (A.N. Leontevning faoliyatga yondoshuvidan). Bu yo'nalish faoliyat bo'yicha qobiliyatlarning rivojlanish aniqlovchilarini o'rganadi, bunda iste'dod nishonalari ahamiyatga olinmaydi. Keyinchalik S.L. Rubinshteyn maktabida (A.V. Brushlinskiy, K.A. Abdulxanova-Slavskaya) qobiliyatlar muammosini o'rganishga o'zaro kelishuvga asoslangan nuqtai nazar tarkib topdi. Bu qarashning tarafdorlari bo'lgan olimlar, odamda yuzaga keladigan qobiliyatlarni iste'dod nishonalari asosida, faoliyat usullarining rivojlanishi sifatida ko'rib chiqqan edilar.[2]

Qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlab iste'dod nishonalaridan iborat bo'lgan muayyan asos bo'lishi zarur. Iste'dod *nishonalari* ostida, qobiliyatlar rivojlanishining tabiiy asosini tashkil etuvchi asab tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari tushuniladi. Masalan, qobiliyatning tug'ma nishonalari sifatida turli analizatorlar rivojlanishining xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, eshitish idrokining muayyan xarakteristikalari musiqiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos sifatida yuzaga kelishi mumkin. Intellektual qobiliyatlarning nishonalari esa, avvalambor, miyaning u yoki bu darajadagi

qo'zg'aluvchanligida, asab jarayonlarining harakatchanligida, vaqtincha aloqalarning hosil bo'lish tezligida, ya'ni, I.P. Pavlov *genotip* – asab tizimining tug'ma xususiyatlari deb atagan miya faoliyatining shular kabi vazifalarida namoyon bo'ladi.[1]

Miya, his-tuyg'u organlari, harakat (tug'ma nishonalar) tuzilishining tug'ma anatomik-fiziologik xususiyatlari odamlar o'rtasidagi individual farqlarning tabiiy asosini belgilab beradi.

Ko'pchilik psixologlarning fikricha, nishonalar – bu asab tizimining irsiyat tomonidan belgilangan (tug'ma) anatomik-fiziologik xususiyatlari. Lekin olimlarning ayrimlari, masalan, R.S. Nemov, odamda ikki xil nishonalarning: tug'ma (tabiiy) va orttirilgan (ijtimoiy) turlari mavjudligini faraz qiladilar.

Nishonalarning rivojlanishi – bu tarbiya sharoitlari va jamiyat rivojlanishining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy shartlangan jarayon. Jamiyatda u yoki bu kasbga ehtiyoj tug'ilgan sharoitda nishonalar rivojlanadi va qobiliyatlarga aylanadi; nishonalar rivojlanishining ikkinchi muhim omili tarbiyalash xususiyatlari hisoblanadi.

Nishonalar maxsus bo'lmaydi. Odamda muayyan turdagi nishonalarning mavjudligi qulay sharoitlarda ular asosida ma'lum qobiliyatning rivojlanishi zarurligini bildirmaydi. Bir xil qobiliyatlar asosida faoliyat talablarining xususiyatiga ko'ra turli xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Xuddi shunday, eshitish qobiliyati va ohang hissiga ega bo'lgan odam musiqa ijrochisi, dirijer, raqqosa, qo'shiqchi, musiqa tanqidchisi, pedagog, bastakor va h.k. bo'lib etishishi mumkin. SHu bilan birga, nishonalar kelajakdagi qobiliyatlar xarakteriga ta'sir etmasligini inkor etish yaramaydi. Xuddi shunday, eshitish analizatorining xususiyatlari aynan ushbu analizator rivojlanishining alohida darajasini talab etadigan qobiliyatlarga o'z ta'sirini o'tkazadi.[2]

Qobiliyatlardan farqli ravishda nishonalar insonning ularga murojaat qilishi yoki qilmasligi, amaliyotda foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar, uzoq vaqt davomida mavjud bo'lib, saqlanishi mumkin.

SHunday qilib, nishonalar o'zida qobiliyatlarni jamlamaydi va ularning rivojlanishini kafolatlamaydi, deb aytish mumkin. Ular faqat qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Qobiliyatlarning juda ko'p turlari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasida inson qobiliyatlarining tasniflanish turlari ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning ichidagi umumiy tasniflashga ko'ra qobiliyatlar ikki guruhga: *umumiy* va *maxsus* qobiliyatlarga bo'ladi. Bu guruhlarning har biri oddiy va murakkab, guruh ichida esa alohida turlarga bo'linadi.

*Umumiy boshlang'ich qobiliyatlar* – bu qobiliyatlar turli darajadagi ifodalanishda bo'lsada, barcha odamlarga xos. Ularga psixik aks ettirishning asosiy shakllari: sezish, idrok qilish, esda olib qolish, qayg'urish, fikrlash, xayol surish, qaror qabul qilish va amalga oshirish kiradi. Bu qobiliyatlarning boshlang'ich ifodalari mos bo'lgan sensor, mnemik, tafakkur, irodaviy samaralar bilan bajariladigan psixik harakat. Mashqlar natijasida u muvofiq ko'nikmaga aylanishi mumkin.

**Maxsus boshlang'ich qobiliyatlar** – bu qobiliyatlar barcha odamlarga xos bo'lmay, ular psixik jarayonlarning qandaydir sifat tomonlarining ma'lum ifodalanishini taqazo etadi. **Ko'z bilan chamalash** – bu ko'rish orqali idrok qilinadigan ob'ektlarning kattaliklarini, ular o'rtasidagi va ulargacha bo'lgan masofalarning turli aniqlikda idrok qilish, baholash va taqqoslash qobiliyati, ya'ni, ko'rish orqali idrok qilishning ma'lum sifati. **Musiqaviy eshitish qobiliyati** – bu musiqali tovushlarni farqlash va ularni aniq joriy etish qobiliyatida namoyon bo'ladigan eshitish orqali idrok qilishning ma'lum sifati sanaladi. Musiqali eshitish qobiliyati – bu musiqali qobiliyatlarning tarkibiy qismlaridan biri. Maxsus odatdagi qobiliyatlar ta'lim jarayonida iste'dod nishonalari asosida rivojlanadi.

**Umumiy murakkab qobiliyatlar** – bu umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, ta'lim, o'yin, bir-biri bilan muloqotga bo'lgan qobiliyatlar. Ular u yoki bu darajada barcha odamlarga xos. Bu guruhga mansub qobiliyatlarning har biri shaxs xossalariining murakkab tarkibini tashkil etadi.[1]

**Maxsus murakkab qobiliyatlar** turli darajada emas, umuman barcha odamlarga xos bo'lmagan qobiliyatlar. Ular inson madaniyati tarixi jarayonida yuzaga keladigan ma'lum kasbiy faoliyatga bo'lgan qobiliyatlar hisoblanadi. Ular, odatda, kasbiy qobiliyatlar deb ataladi.

«Umumiy psixologiya» (Sankt-Peterburg, 2002) darsligining muallifi A.G. Maklakov qobiliyatlarni tabiiy yoki odatdagi qobiliyatlar, va ijtimoiy-tarixiy kelib chiqqan maxsus qobiliyatlarga ajratadi.

**Tabiiy qobiliyatlar** odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashkil etadi. Insondagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir-biridan farq qiladi.

**Maxsus insoniy qobiliyatlar** ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi.

**Umumiy qobiliyatlar** insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. **Maxsus** qobiliyatlar deb, inson yutuqlarini amalga oshirish uchun alohida turdagi iste'dod va uning rivoji zarur bo'lgan maxsus faoliyat turlarida aniqlaydigan qobiliyatlar tushuniladi. Bunday qobiliyatlarga musiqa, matematika, lingvistik, texnikaviy, badiiy, adabiy, sportga bo'lgan qobiliyatlarni kiritish mumkin.

Qobiliyatlar muammosini tadqiq qiluvchilarning ko'pchiligining fikriga ko'ra, umumiy va maxsus qobiliyatlar nizoga bormaydilar, ular o'zaro bir-birini to'ldirgan va boyitgan holda birgalikda mavjud bo'ladilar. Bundan tashqari, ayrim holatlarda umumiy qobiliyatlar rivojlanganligining darajasi ma'lum faoliyat turlariga nisbatan maxsus qobiliyatlar sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Inson umumiy qobiliyatlari sirasiga **muloqotda, odamlar bilan o'zaro aloqada ifodalanadigan qobiliyatlarni** ham kiritish zarur. Bu qobiliyatlar ijtimoiy belgilangan bo'lib, insonning jamiyatdagi hayoti jarayonida shakllanadilar. Xuddi shunday, nutqni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirmasdan, insonlar jamiyatiga

moslashish malakasiga ega bo‘lmasdan turib, ya’ni, odamlar harakatini to‘g‘ri idrok qilish va baholash, ular bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish va turli ijtimoiy vaziyatlarda yaxshi aloqalarni o‘rnatish, insonning normal hayoti va psixik rivojlanishining imkoniyati bo‘lmas edi.[1]

*Nazariy* va *amaliy* qobiliyatlar bir-biridan birinchisining insondagi abstrakt-nazariy fikrlashga, ikkinchisining esa – aniq amaliy faoliyatga moyilligini belgilab beradilar.

Qobiliyatlar, shuningdek, *o‘quv* va *ijodkorlik* qobiliyatlariga bo‘linadi. Ular bir-biridan, birinchisining o‘qitish samarasini, inson tomonidan bilim, malaka va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilishini belgilashi bilan, boshqalarining kashfiyotlar, moddiy va ma’naviy madaniyatning yangi shakllarini yaratish imkoniyatini belgilashi bilan farq qiladi.

Qobiliyatlar rivojlanishi uchun sharoitlarning mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko‘ra, ular yashirin va dolzarb bo‘lishi mumkin.[1]

*YAshirin* qobiliyatlar sifatida ma’lum faoliyat turida joriy qilinmaydigan, lekin ijtimoiy sharoitlarning o‘zgarishida dolzarb qobiliyatga aylana oladigan qobiliyatlar tushuniladi. *Dolzarb* qobiliyatlarga ayni damda zarur bo‘lgan va aniq faoliyat turida joriy qilinadigan qobiliyatlar kiritiladi. *YAshirin* va *dolzarb* qobiliyatlar inson qobiliyatlari rivojlanadigan ijtimoiy sharoitlar xarakterining bilvosita ko‘rsatkichlari sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan ijtimoiy sharoitlar xarakteri yashirin qobiliyatlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi va imkoniyat yaratadi, ularning dolzarb qobiliyatlarga aylanishini ta’minlaydi yoki ta’min etmaydi.

Har bir faoliyat bajarilishining samaradorligi doimo bir qator qobiliyatlarga bog‘liq. Xuddi shunday, masalan, yozuvchi bo‘lish uchun qanchalik rivojlangan bo‘lmasin, kuzatuvchanlikning o‘zigina kifoya qilmaydi. YOzuvchi uchun kuzatuvchanlik, obrazli xotira, tafakkurning qator sifatleri, yozma nutq bilan bog‘liq sifatlar, diqqatni jamlashga bo‘lgan va boshqa qobiliyatlar birinchi darajali ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, istalgan ma’lum qobiliyat tarkibi turli faoliyatlar talablariga javob beruvchi universal yoki umumiy sifatlar, hamda faqat yagona faoliyatni muvaffaqiyat bilan ta’minlovchi maxsus sifatleri o‘z ichiga oladi.[1]

Qobiliyatlar tarkibida ikki guruhdan iborat tarkibiy qismlarni ajratish mumkin. Ayrimlari etakchi o‘rinni egallasa, boshqalari yordamchi bo‘lib hisoblanadi. Xuddi shunday, *tasviriy* qobiliyatlar tarkibida etakchi xossalarning o‘rni ko‘rish analizatorining yuqori tabiiy ta’sirchanligi – chiziqalar, nisbatlar, shakllar, yorug‘ va soya tomonlar, ranglar uyg‘unligi, maromi hissi, shuningdek, rassom qo‘lining sensomotor sifatleri, yuqori darajada rivojlangan obrazli xotira va boshqalarga berilgan. YOrdamchi sifatlerga esa badiiy xayol xossalari, emotsional mayl, tasvirga emotsional munosabat va h.k.larni kiritish mumkin. Tasviriy faoliyatga bo‘lgan qobiliyatlarni V.P. Kirienko o‘rgangan.

Musiqqa qobiliyatlari B.M. Teplov tomonidan tadqiq etilgan. *Musiqiy* qobiliyatlar tarkibida u quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratadi: musiqiy eshitish qobiliyati, marom hissi va musiqiy xotira shular jumlasidandir. SHuningdek, Teplov aynan misiqiy faoliyat bilan shug‘ullanishda talab etiladigan, musiqiylik



deb atalgan, individual-psixologik xususiyatlarning majmuini ajratib ko'rsatdi. Uning belgisi o'rnida B.M. Teplov ayrim mazmunning ifodasi sifatidagi musiqiy kechinmani hisoblaydi. Bundan tashqari, musiqaga nisbatan emotsional hozirjavoblik, Teplov bo'yicha,- bu musiqiylikning asosi.[2]

**Matematik** qobiliyatlar ustida V.A. Krutetskiy ish olib borgan. Matematik qobiliyatlar tarkibida matematik xotira, miqdoriy va fazoviy munosabatlar sohasidagi mantiqiy tafakkur qobiliyati, matematik materialning tezda kengaytirilgan holda umumlashtirish, bir operatsiyadan ikkinchisiga oson va erkin o'tish, mulohaza va echimlarning aniqligi, oddiyligi, tejamkorligi va omilkorligiga intilish katta ahamiyatga ega. Matematik qobiliyatlar o'zagini V.A. Krutetskiy tafakkurning matematik yo'nalganligi tashkil etadi deb hisoblaydi. YOrdamchi xossalari sifatida sensor va aqliy sohalaridagi individual-psixologik xususiyatlari matematik faoliyat talablariga javob beradigan, mos bo'lgan sohada ma'lum bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq zahirasini ko'rsatadi.

**Pedagogik** qobiliyatlarni N.V. Kuzmina, F.N. Gonobolinlar tadqiq qilganlar. Pedagogik qobiliyatlar tuzilishida pedagog odobi, kuzatuvchanlik, bolalarga muhabbat, bilimlarni berishga ehtiyoj, perseptiv, kommunikativ, tashkilotchilik va boshqa qobiliyatlar majmuasi etakchi sifatlar o'rnini egallaydi. YOrdamchi sifatlariga artistlik mahorati, notiqlik, hazilkashlik va boshqalar kiradi.

**Tashkilotchilik** qobiliyatlari muammosini uzoq vaqt L.I. Umanskiy tadqiq qilgan. Muallif tashkilotchilik qobiliyatlari tarkibini aniqladi. Qobiliyatli tashkilotchi shaxsi uchun L.I. Umanskiy fikricha quyidagi sifatlar zarurdir, bular: shaxsning yo'nalganligi, uning shayligi, umumiy sifatleri (muloqotchanlik, rivojlanganlikning umumiy darajasi, amaliy ong, kuzatuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, tashkilotchilik, mustaqillik, o'zini tuta bilish), maxsus xossalari (tashkilotchilik hissi, psixologik odob, emotsional-irodali ta'sirchanlik, jamoatchilik faolligi, talabchanlik, tanqidiylik, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik, shaxsning individual xususiyatlari shular jumlasidandir.

O'quvchilarning **texnikaviy** qobiliyatlari M.G. Davletshin tomonidan o'rganilgan. Texnikaviy qobiliyatlar tarkibida muallif tomonidan tayanch va etakchi xossalari, shuningdek, yordamchi sifatlar ko'rsatilgan. Texnikaviy qobiliyatlarning tayanch xossasi bo'lib texnikaviy kuzatuvchanlik hisoblanadi (inson idrokining mashina, asosiy bo'g'inlar va tuzilmalarning tuzilish tamoyiliga, ularning o'zaro ta'siriga yo'nalganligi). Etakchi xossalari bo'lib texnikaviy tafakkur va texnikaviy xayol hisoblanadi (texnikani tushunish, amaliy zakovat, texnikaviy moslamani tahlil qilish, qismlardan yaxlitlikni yasash qobiliyati, fazoviy tasavvurlarning jonliligi va aniqligi, shakllar va masofalarni yodda olib qolish, konstruktiv fantaziya). YOrdamchi xossa qo'l epchilligi hisoblanadi.

**Lingvistik** qobiliyatlarni A.X. YUgay o'rgangan. Lingvistik qobiliyatlar tarkibida u fonematik eshitish qobiliyati (tilning sezgirligi), lingvistik tafakkur va verbal xotirani ajratdi.

Qobiliyatlarning mavjud emasligi odamning u yoki bu faoliyatni bajarishga yaroqsizligini bildirmaydi, chunki ega bo'lmagan qobiliyatlarning o'rnini to'ldirish psixologik mexanizmi mavjud. Ko'p hollarda faoliyat bilan faqat qobiliyatlilar emas, balki ularga ega bo'lmaganlarning ham shug'ullanishiga to'g'ri keladi. Agar

odam bu faoliyat bilan shug'ullanishni davom ettirishga majbur bo'lsa, u ongli ravishda yoki anglanmagan holda, o'z shaxsining kuchli sifatlariga tayanib, qobiliyatlar etishmovchiligini to'ldirishga harakat qiladi. E.P. Ilinning fikriga ko'ra, bu to'ldirish egallanadigan bilim va ko'nikmalar, yoki faoliyatning individual-tipik uslubini shakllantirish orqali, yoki boshqa, rivojlanishi yuksakroq bo'lgan qobiliyat orqali amalga oshirilishi mumkin. Etishmagan qobiliyat juda keng muayyan insondagi yuksak rivojlangan qobiliyatlar bilan to'ldirilishi mumkin. Aynan, shu xususiyat insonning turli sohalarda samarali faoliyat yuritishiga imkoniyat yaratadi.[2]

Qobiliyatlarda bir qancha darajalarni ajratish mumkin: layoqat, mohirlik, iste'dod, geniallik.

**Qobiliyat** deb, insonni u yoki bu faoliyatning samarali bajarilish imkoniyati bilan ta'minlovchi layoqatlarning o'ziga xos uyg'unligiga aytiladi. Ushbu ta'rifda qobiliyatga bog'liq ravishda faoliyatning samarali bajarilishi emas, balki, faqat shunday bajarilishi mumkin bo'lgan imkoniyatga e'tibor qaratish lozim. Faoliyatni samarali tarzda amalga oshirish uchun muvofiq keladigan qobiliyatlar uyg'unligining mavjudligi emas, balki, zarur bilim va ko'nikmalarning egallanganligi ham muhimdir. Qobiliyat faqat u yoki bu faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilaydi, bu imkoniyatning joriy qilinishi esa muayyan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va qanday bilim va ko'nikmalarning egallanganligi bilan belgilanadi.

Qobiliyatli insonlarning individual farqlari qiziqishlarning yo'nalganligi bilan belgilanadi. Xuddi shunday, ayrimlar matematikaga, boshqalar tarixga, uchinchilar esa jamoatchilik ishiga qiziqadilar.

Inson qobiliyatlarini xarakterlaganda ko'pincha, ular taraqqiyotining **mohirlik** deb ataluvchi, ya'ni, ma'lum faoliyatda mukammallikka erishish darajasi alohida ko'rsatiladi. Insonning mohirligi haqida so'z yuritilganda, avvalambor, uning ishlab chiqaruvchi faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish qobiliyati nazarda tutiladi. Lekin bu, mohirlik orttirilgan malaka va ko'nikmalarning yig'indisi, degani emas. Mohirlik yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal qilishga psixologik shaylikni taqazo etadi. «Mohirlik – bu «nima» va «qanday»larning bir vaqtning o'zida kelishi»,- deb bejizga aytilmagan, bu bilan, usta uchun ijodiy masalani anglash bilan uni echish usullarini topishning o'rtasida uzilish mavjud emasligi ta'kidlanadi.[1]

Qobiliyatlar rivojlanishining keyingi darajasi – **iste'dod**. «Iste'dod» so'zi muqaddas kitoblarda uchraydi, bunda kumush o'lchov birligi nazarda tutilgan, kumushni xo'jayinidan olgan tanbal ishchi uni tijoratga ishlatib, foyda olishning o'rniga, erga ko'mib qo'ygan («Iste'dodini erga ko'mgan» iborasi shundan paydo bo'lgan). Hozirda **iste'dod** deb, maxsus qobiliyatlar (musiqiy, adabiy, matematik va boshqalar)ning yuqori rivojlanish darajasiga aytiladi. Iste'dod faoliyatda namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Iste'dodli odam faoliyati yangiligi, yondoshuvning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iste'dod – bu qobiliyatlar yig'indisi. Alohida chegaralab qo'yilgan qobiliyat, yuqori darajada rivojlangan bo'lsada, iste'dod deb atalishi mumkin emas. Masalan, buyuk iste'dodlar ichida yaxshi xotira va yomon xotira egalarini aniqlash mumkin. Bu inson ijodiy

faoliyatida xotira – muvaffaqiyatga erishishning omillaridan biri ekanligiga bog‘liq. Lekin natijalarga aqlning teranligi, boy fantaziya, kuchli iroda, chuqur qiziqishlarsiz erishib bo‘lmaydi.[1]

Qobiliyatlar taraqqiyotining oliy darajasi **geniallik** deb ataladi. Insonning ijodiy yutuqlari jamiyat hayoti, madaniyat rivojida butun bir davrni tashkil etganida geniallik haqida so‘z yuritiladi. Genial odamlar juda ozchilikni tashkil etadi. Inson tamaddunining besh ming yillik tarixida ular 400 ta odamdan oshmaydi. Geniyni xarakterlovchi iste‘dodning yuqori darajasi faoliyatning turli sohalari o‘ta qobiliyatli bo‘lish bilan bog‘liq. Bunday allomalardan Arastu, Leonardo da Vinchi, R. Dekart, G.V. Leybnits, M.V. Lomonosov va boshqalarni keltirish mumkin. Xuddi shunday, M.V. Lomonosov fanning turli sohalari: kimyo, astronomiya, matematikada buyuk natijalarga erishgan, va shu bilan birga, rassom, adabiyotshunos, tilshunos bo‘lib, she‘riyatni juda yaxshi bilgan. Lekin bu holat geniyning barcha individual sifatlari bir xil darajada rivojlanganligini bildirmaydi. Uning qaysidir tomoni ustunlik qilishi, qaysidir qobiliyatlari yorqinroq namoyon bo‘lishi mumkin.

SHunday qilib, ma‘lum qobiliyatlar rivojlanishi me‘yorlarining aniq manzarasini namoyon qiluvchi qobiliyatlarning rivojlanish darajalarini ko‘rib chiqdik.[1]

### **7. Talantning paydo bo‘lishi va tuzilishi.**

Odatda, qobiliyatlar insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug‘ma ravishda tayyor holda berilmaydi. Balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy psixologiya qobiliyatlarning tug‘maligi nazariyasini inkor etib shaxs qobiliyatlarining noma‘lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga qarshi zarba beradi. [1]

Qobiliyatning tug‘maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tug‘ma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan differensial xususiyatlarning tug‘maligini inkor qilmaydi. Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo‘ladigan miya tuzilishining sezgi a‘zolariga va funksional xususiyatlariga **layoqat** deb ataladi. Layoqat ko‘p qirralidir. SHaxs tomonidan qo‘yilgan talablarning tabiatiga bog‘liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. [2]

F.A.Gallning fikricha, odamning hamma qobiliyatlari “aql” va “qobiliyat” sifatlari miya yarim sharlarida o‘zining maxsus qat‘iy markazlariga ega, ya‘ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. SHuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi do‘mboqchalarni shunchaki paypaslab ko‘rish orqali go‘yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo‘ladi. Layoqatning miya miqdori, massasi va og‘irligiga bog‘liqligi haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining o‘rtacha og‘irligi 1400 grammga yaqin bo‘ladi. U.S. Turgenev miyasining og‘irligi 2001 gramm, D.G Bayronniki 1800 grammni, mashhur ximik YU.Libixniki 1360 grammni, yozuvchi Afransniki 1017 grammi tashkil qilgan. Eng katta miya aqliy jihatdan nuqsoni bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan.[2]

1675 yilda F.Galtonning “Talantning irsiyatga bog‘liqligi qonunlari va oqibatlarini” degan kitobi nashr etildi. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini o‘rganib, talant ota-onadan irsiyat yo‘li orqali o‘tadi degan xulosaga kelgan. Biroq Galtonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Baxlar oilasida musiqaga bo‘lgan talant dastavval 1550 yilda ma‘lum bo‘lgan. Bu talant 1800 yillarda yashagan qandaydir Regina Susanadan so‘ng tamom bo‘lgan. Umuman Baxlar oilasida 57 dan ko‘p musiqachi bo‘lgan. Ularning 20 tasi mashhur bo‘lgan. [1]

Bend degan skripkachilar oilasida 9 ta mashhur musiqachi bo‘lgan. Goydon oilasida 2 ta mashhur musiqachi bo‘lgan. Ko‘pchilik hollarda mashhur odamlarning nasl-nasablarini o‘rganish biologik irsiyatdan emas, balki hayot sharoitining nasdan naslga o‘tishidan, ya‘ni qobiliyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi ma‘lum bo‘ladi.

XX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan layoqatni miyaning mikrotuzilishi va sezgi a‘zolari bilan bog‘lovchi faraz mahsuldor bo‘lib hisoblanadi. Miya hujayralarini tadqiq etish iste‘dodli nerv hujayralarining morfologik va funksional xususiyatlarida farq borligini aniqlash mumkinligi faraz qilinadi. Layoqatlar bilan nerv jarayonlarining ayrim differensial xususiyatlari hamda oliy nerv faoliyatining tiplari o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi to‘g‘risida faraz ham haqiqatga yaqindir.[1]

Rus psixologi B.M.Teplov va uning shogirdlari ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta‘siri tufayli shaxs qobiliyatlarining tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlari paydo bo‘lishini aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv tizimining alohida sezgirligi ma‘lum qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin.

Qobiliyatning tabiiy sharti, layoqati nerv tizimining tuzilishi va funksiyalarining hususiyatlari tarkibida ekanligi haqidagi barcha morfologik va funkcionallik sifatlar singari umumgenetika qonunlariga bo‘ysunish farazining haqqoniyligini dalillaydi. F.Galtonning irsiyat qonunlari to‘g‘risidagi g‘oya qobiliyatning tabiiy shartlangan xususiyatlari tavsifini ochib bera olmaydi. Chunki unda dalilga muhtoj juda ko‘p o‘rinlar mavjuddir. SHuning uchun qobiliyat tabiatini biologik irsiyatdan emas, balki turmush muhitining nasldan naslga o‘tishidan qidirish maqsadga muvofiqdir, agarda insonning taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy qonunlar bilan boshqarilishi tan olinar ekan, qobiliyatning taraqqiyoti biologik irsiyat qonunlarga bo‘ysunishi mumkin emas. [2]

YUqoridagi mulohazalarga asoslangan holda xulosa qilish mumkinki, qobiliyat va layoqatlar tabiiy zaminga bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular faqat tabiatning in‘omi emas, balki insoniyat tarixiy taraqqiyotining bebaho mahsulidir. Xuddi shu bois qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi shaxslar tomonidan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish davomida ijtimoiy shartlangan bilimlar va ko‘nikmalarni tarkib toptirishning yaqqol usullariga bevosita bog‘liqdir. SHuning uchun qobiliyatlar taraqqiyotining uzluksiz ta‘lim tizimiga bog‘liq ekanligini ta‘kidlab o‘tish muhim ahamiyatga ega.

Bu konsepsiyaning natijaviy xulosasi bo‘lib, har bir odamda turli qobiliyatlarni shakllantirish mumkinligi haqidagi holat hisoblanadi. Ushbu fikrning tarafdori, amerikalik olim U. Ushbining tasdiqlashiga ko‘ra, qobiliyatlar,

avvalambor, inson bolaligida shakllangan aqliy faoliyat dasturi bilan belgilanadi. O'z dasturiga muvofiq ravishda ayrim odamlar ijodiy masalalarni echadilar, boshqalar esa nimani o'rgangan bo'lsalar, shuni bajara oladilar. Hozirda bu konsepsiyaning tarafdorlari AQSHda qobiliyatli bolalarni «o'stirish»ning maxsus markazlarini tashkil qilmoqdalar. Xuddi shunday, Filadelfiya institutida inson qobiliyatidan yanada yaxshiroq foydalanish uchun har daqiqa g'animat deb hisoblab, miyaga tanballik qilishga imkoniyat yaratmaslik maqsadida bolalarning aqliy rivojlanishi bo'yicha mashg'ulotlarni 4-5 yoshdan boshlaydilar

Hayotiy kuzatuvlar va maxsus tadqiqotlar qobiliyatlar tabiiy shartlarining mavjudligini inkor etish yaramasligini ko'rsatadilar.[2]

Rossiya psixologiyasida qobiliyatlar muammosi bo'yicha mashhur psixologlardan B.M. Teplov, A.N. Leontev, V.D. Nebylitsin, N.S. Leytes va boshqalar shug'ullanganlar. Rossiya psixologiyasida tarkib topgan nuqtai nazarni qisqacha shunday ta'riflash mumkin: inson qobiliyatlari o'z tabiatiga ko'ra bioijtimoiydir.[2]

SHunday qilib, bir tomondan, qobiliyatlar rivojlanishida irsiyat katta ahamiyatga ega, chunki inson asab tizimi anatomik-fiziologik tuzilishining xususiyatlari ma'lum darajada iste'dod nishonalarini belgilab beradi. Lekin, ikkinchi tomondan, qobiliyatlarning rivojlanishi ko'plab ijtimoiy sharoitlarga bog'liq, ularning sirasiga tarbiyalash xususiyatlari, jamiyatning u yoki bu faoliyatga ehtiyoji, ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari va boshqalarni kiritish zarur.

Qobiliyatlar muammosi bilan O'zbekiston psixolog olimlaridan E.G. G'oziev, R.Z. Gaynutdinov, M.G. Davletshin, B.R. Qodirov, V.A. Tokareva va boshqalar shug'ullanadilar.[2]

Qobiliyatlarning rivojlanishida shartli ravishda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. Har bir odam o'z rivojlanishida u yoki bu ta'sirlarga, biror-bir faoliyat turlarini egallashga nisbatan yuqori sezuvchanlik davrlaridan o'tadi. Bola 2-3 yoshiga etganida og'zaki nutqi jadal rivojlanadi, 5-7 yoshda o'qishni egallashga tayyor bo'ladi. Bolalar maktabgacha davrning o'rta va katta yosh bosqichlarida rolli o'yinlarni berilib o'ynaydilar va rolga kirishib ketib, o'zlarida uni gavdalantirishga bo'lgan qobiliyatni sezadilar. SHuni ta'kidlash muhimki, faoliyatning maxsus turlarini egallashga bo'lgan shaylik davrlari ertami kechmi yakun topadi, agar bu qulay davrda qandaydir xususiyat rivojlantirilmay qolgan bo'lsa, keyinchalik bunday rivojlantirish o'ta qiyinlashadi yoki amalga oshmaydi. SHuning uchun bola qobiliyatlarining rivojlanishi uchun uning shaxs sifatida rivojlanishining barcha bosqichlari muhimdir.

Istalgan qobiliyat rivojlanishining birlamchi bosqichi uning uchun zarur bo'lgan organik hosilalarning etilishi yoki ularning asosida kerakli fundamental organlarning shakllanishi bilan bog'liq. Odatda, bu tug'ilishdan boshlab, 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi. Ushbu bosqichda barcha analizatorlar faoliyatining takomillashuvi, bosh miya po'stlog'i alohida sohalarining rivojlanishi va ular vazifasining bo'linishi amalga oshiriladi. Bu bolada umumiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishining boshlanishi uchun qulay sharoit

yaratib beradi, bu qobiliyatlarning ma'lum darajasi maxsus qobiliyatlar keyingi rivojlanishining sharti bo'lib hisoblanadi.[2]

Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi maktabda, ayniqsa, kichik va o'rta sinflarda davom ettiriladi. Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishiga avval bolalarning turli xil o'yinlari yordam beradi, so'ngra esa ularga o'quv va mehnat faoliyati o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi.

O'yinlar jarayonida ko'pchilik harakatli, konstruktorlik, tashkilotchilik, badiiy-tasviriy va boshqa ijodkorlik qobiliyatlarining rivojlanishi sodir bo'ladi. O'yinlarning muhim bo'lgan o'ziga xos xususiyati ularda bir emas, birdaniga bir qancha qobiliyatlar yaxlit majmuasining rivojlanishi hisoblanadi.[1]

Bola shug'ullanayotgan barcha faoliyatlar hammasi ham, u o'yin, yasash yoki chizish bo'lsin qobiliyatlarning rivojlanishi uchun birday ahamiyatga ega bo'lmaydilar. Qobiliyatlarning rivojlanishiga ko'proq, bolani o'ylashga majbur qiladigan ijodkorlik faoliyati yordam beradi. Bunday faoliyat har doim biror yangilik yaratish, o'zi uchun yangi bilimni kashf etish, o'zida yangi imkoniyatlarni aniqlash bilan bog'liq va u bilan shug'ullanish uchun, hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan zarur kuchlarni ishga solishga kuchli rag'bat bo'ladi. Bundan tashqari ijodkorlik faoliyati ijobiy o'zini baholashni mustahkamlaydi, talablar darajasini oshiradi, o'ziga ishonch va erishilgan yutuqlardan mamnunlik hissini uyg'otadi.

Agar bajarilayotgan faoliyat eng maqbul qiyinchiliklar sohasida, ya'ni, bola imkoniyatlari chegarasida joylashgan bo'lsa, u holda qobiliyatlarning rivojlanishiga olib keladi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi ko'p darajada iste'dod nishonalarining joriy etilishiga imkon yaratuvchi sharoitlarga bog'liqdir. Bunday sharoitlardan biri oiladagi tarbiya xususiyatlaridir. Agar ota-onalar o'z bolalarida qobiliyatlarning rivojlanishi haqida qayg'urar ekanlar, bolalarda biror-bir qobiliyatning aniqlanish ehtimolligi o'z hollariga tashlab qo'yilgan bolalarga qaraganda ancha yuqori bo'ladi.[1]

Qobiliyatlar rivojlanishi mumkin bo'lgan sharoitlarning boshqa guruhini makromuhit xususiyatlari belgilab beradi. Makromuhit deb, inson tug'ilib, o'sgan jamiyat xususiyatlariga aytiladi. Makromuhitning ijobiy omili bo'lib, jamiyatning o'z a'zolaridagi qobiliyatlarning rivojlanishi haqida g'amho'rlik ko'rsatishidagi vaziyat hisoblanadi.

Qobiliyatlarning rivojlanishida muhim o'rinni motivatsiya va u sababli yuzaga keladigan zo'riqishli faollik egallaydi. Xuddi shunday, iste'dodli bolalar o'zlari intilayotgan faoliyatga nisbatan moyillik bildiradilar. Ular muntazam va jadal ravishda toliqmay, o'zlariga qiziqarli faoliyat bilan shug'ullanadilar.

Qobiliyatlarning rivojlanishini insonga tabiat tomonidan berilganlarning etilishi kabi tabiiy iste'dod nishonalarining ham miqdor jihatdan o'sishi sifatida tushunish yaramaydi. Qobiliyatlarning rivojlanishi insonga uning faoliyati jarayonida, bu faoliyatning turli-tumanligi va mazmundorligi, unda kuchlarni maksimal darajada ifodalanishi bilan qo'yiladigan talablar orqali belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, faoliyatni qobiliyatlar shakllanishining manbai va omili, mehnatsevarlik, qat'iyatlilik va ishchanlikni esa – hayotda orttirilgan qobiliyatlar

shakllanishining muhim shartlari sifatida ko'rib chiqish lozim. Inson amaliyotda foydalanmay qo'ygan rivojlantirilmagan qobiliyat vaqt o'tishi bilan yo'qoladi. Faqat muntazam mashqlar tufayli biz o'zimizda maqbul qobiliyatlarni mustahkamlab, rivojlantirib boramiz[1]

Qobiliyatlarni samarali tarzda rivojlantirish uchun «chegara nazariyasi» xulosalarini hisobga olgan holda, unga binoan, inson o'zining jismoniy yoki aqliy imkoniyatlari chegarasida faoliyat yuritib, o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etadi va rivojlantiradi. Lekin bunda to'siqlar tamoyilining xususiyatlarini hisobga olish zarur, unga binoan, to'siq aynan ushbu odam uchun muvofiq bo'lishi lozim.

Rivojlanishining birinchi bosqichida qobiliyatlar reproduktiv va taqlidiy xususiyatga ega bo'ladilar, lekin o'ziga xos, ijodiy elementlarning qanchalik tez va aniqroq namoyon bo'lishi, iste'dod haqida so'z yuritishga asos bo'la oladi. Qobiliyatlar rivojlanishining ikkinchi bosqichida faoliyatdagi ijodiy elementlar, masalalarni tuzish va hal etishda mustaqillik xususiyatlari kuzatiladi. Xuddi shu tartibda o'zida qobiliyatlarni rivojlantirish va tarbiyalash uchun ichki shartlar yaratiladi.[1]

Qobiliyatlar baravar rivojlanmaydi: bilim va tajribaning to'planish me'yoriga ko'ra, birlari – oldinroq, boshqalari – kechroq taraqqiy etadi. Barchasidan avval musiqiy, so'ngra tasviriy qobiliyatlar (maktabgacha yoshda) rivojlanadi. She'riyatga bo'lgan qobiliyat o'smirlilik yoshida jadal rivojlanadi, fanlarga bo'lgan qobiliyatlar orasida matematikaga bo'lgan qobiliyat erta rivojlanadi. Bir xil qobiliyatlar faoliyat va tarbiya sharoitlariga bog'liq ravishda yoki juda tez, yoki juda sekin maromda rivojlanishi mumkin. Xuddi shunday, harakat usullarini shaxsan kashf etish yoki boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yangi harakat usullarini egallash mehnat mahsuldorligini oshirish bilan birga, qobiliyatlarning rivojlanishini tezlashtirishga yangi imkoniyatlar yaratadi. Aksincha, izlanishdan to'xtash, xotirjamlik va o'zidan mamnunlik qobiliyatlar rivojlanish maromini keskin pasaytirishi mumkin.

Qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish muammosi kasbga yo'naltirish va kasb tanlash munosabati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirishning zarurligi har bir odam duch keladigan o'ta dolzarb muammo – hayot yo'lini tanlash va kasbiy yo'nalganlik bilan bog'liq bo'lgan o'z taqdirini o'zi belgilashi bilan bog'liqdir. Kabga yo'naltirishning, fransiyalik psixolog A. Leon *tashishlash* va *tarbiyaviy* deb nomlagan ikki konsepsiyasi tarixan tarkib topgan deb hisoblanadi. Maslahatchi testlar yordamida inson qobiliyatlarni aniqlaydi va ularni kasb talablari bilan solishtirish yordamida, uning yaroqliligi yoki yaroqsizligi haqida xulosa chiqaradi. Ko'pchilik olimlar tomonidan ushbu konsepsiya mexanik konsepsiya sifatida baholanadi. Uning asosida qobiliyatlarga muhit ta'siriga kam beriluvchan barqaror tuzilmalar sifatida nazar solish yotadi.

Ikkinchi – tarbiyaviy – konsepsiya individni kasbiy hayotga tayyorlash, uning rejalashtirilgan tarbiyaviy ta'sirlarga mos ravishda o'zini belgilab olishiga yo'naltirilgan. Unda asosiy e'tibor turli faoliyat turlarini egallash jarayonida shaxs rivojlanishini o'rganishga qaratiladi. Kasbga yo'naltirish muammosini hal etish ikkala yondoshuv yagona zanjirning halqalarini tashkil etgan: individ

qobiliyatlarini aniqlash va bo'lajak kasbga tayyorlanishida ko'mak berish holatidagina amalga oshiriladi.[2]

Kasb talablari va qobiliyatlarining nisbatini ko'rib chiqib, E.A. Klimov kasbiy yaroqlilikni to'rt darajaga bo'ldi. **Birinchi daraja** – ushbu kasbga yaroqsizlik. U vaqtinchalik yoki umuman bartaraf etilmaydigan bo'lishi mumkin. **Ikkinchi daraja** – u yoki bu kasb yoki guruhga yaroqlilik. Bu darajada odam u yoki bu mehnat sohasiga nisbatan qarshi ko'rsatmalarga ega emas, lekin ko'rsatmalar ham berilmagan bo'ladi. **Uchinchi darajada** – ushbu faoliyat sohasiga muvofiqlik: qarshi ko'rsatmalar yo'q, ma'lum kasb yoki kasblar guruhi talablariga aniq mos keladigan ba'zi shaxs sifatleri mavjud. **To'rtinchi darajada** – faoliyatning ushbu kasb sohasiga moyillik. Bu inson kasbga yaroqliligining oliy darajasi.

Har qanday holatda ham individning u yoki bu faoliyatga yaroqliligini oldindan belgilash faoliyatdagi qobiliyatlarning rivojlanishi haqidagi nizomdan kelib chiqqan holda tarkib topishi zarur. S.L. Rubinshteyn inson qobiliyatlari rivojlanishining asosiy qoidasini quyidagicha ifodalaydi: «Qobiliyatlar rivojlanishi spiral bo'yicha amalga oshiriladi: biror darajadagi qobiliyatdan iborat bo'lgan imkoniyatni joriy etish, undan yuqori darajadagi qobiliyatlarning keyingi rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Inson qobiliyati xususiy imkoniyatlarni joriy etish ochib beradigan yangi imkoniyatlar kengligi bilan belgilanadi».

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun kasbiy qobiliyatlarining shakllanishi o'qitishning birinchi kunlaridan boshlab o'quv-tarbiyaviy ishlarning yaxlit tizimi vositasida amalga oshirilishi muhimdir. Ma'lum kasb tomonidan talabaga qo'yilayotgan psixologik talablarni tushungan holda, uning kasbiy qobiliyatlarini to'g'ri baholash va ularni rivojlantirish mumkin.[2]

### MAVZU BO'YICHA TEST TOPSHIRIQLARI

1. Temperament – bu:

a) insonning psixik faoliyatida turlicha aks etadigan uning jahli tezligi, o'zini tuta bilmasligi;

b) inson faoliyati va hulq-atvorining dinamikasi va emotsional tomonini xarakterlovchi individual xususiyatlar yig'indisi;

v) inson psixik faoliyatining ma'lum qo'zg'aluvchanligi, mutanosibligi va tezligida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlari;

g) inson jonliligi va harakatchanligi darajasida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlari.

2. I.P. Pavlov bo'yicha asab tizimi tasniflanishi quyidagi ko'rsatkichlarning hisobga olinishiga asoslangan bo'lishi kerak:

a) kuch;

b) faollik;

v) organizmdagi suyuqliklar nisbati;

g) tana tuzilishi xususiyatlari.

3. Past darajadagi psixik faollik, harakatlarning sekinlashganligi, tez toliqish, yuqori emotsional senzitivlik, salbiy hislarning ijobiy hislardan ustunligi bilan quyidagi temperament turi xarakterlanadi:



a) sangvinik;

b) xolerik;

v) flegmatik;

g) melanxolik.

4. SHaxsning faoliyati va muloqotida tarkib topadigan va namoyon boʻladigan barqaror individual xususiyatlari, - bu:

a) temperament;

b) qobiliyat;

v) xarakter;

g) isteʼdod.

5. Ekstraversiya haqida tasavvurlar – introversiya kim tomonidan ishlab chiqilgan:

a) A. Adler;

b) Z. Freyd;

v) K. YUng;

g) K. Rodjers.

6. SHaxsiy tashabbuskorligiga koʻra, maqsad qoʻyish va unga erishish yoʻlini izlash malakasi insonning quyidagi sifatiga mos keladi;

a) maqsadga intiluvchanlik;

b) qatʼiyatlilik;

v) tirishqoqlik;

g) mustaqil.

7. Nishonalar qobiliyatlar rivojlanishining anatomik-fiziologik shartlari sifatida:

a) hayot davomida shakllanadi;

b) koʻpchilik maʼnoga ega;

v) muayyan faoliyat mazmuniga yoʻnaltirilgan;

g) barcha javoblar notoʻgʻri.

8. Quyida keltirilgan qobiliyatlarning shakllanishiga taʼsir koʻrsatuvchi sharoitlarning qaysi birini faoliyat sharoitlari deb atash mumkin?

a) nazariy va amaliy toʻplangan tajriba va bilimlar;

b) maʼlum maqsadlarni bajarish va turli xil oʻyinlar, oʻqitish, mehnatning bajarilishi bilan bogʻliq faollik;

v) emotsionallik, taʼsirchanlik;

g) bilimdonlik.

### **Adabiyotlar roʻyhati:**

1. Yugay A.X., Mirashirova N.A. “Obshchaya psixologiya” – Tashkent 2014 g. S.-378-419

2. Safayev N.S., Mirashirova N.A. “Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti“ TDPU, 2013 y, B.160-182.

3. David G. Myers “Psychology” Hope College Holland, Michigan 2010 y. p.- 553-593.

4. S.K.Mangal: “General Psychology” 2013y p.-12- 49.

5. Mamardashvili M.K. Kak ya ponimayu filosofiyu. M., 1990. B.173
6. Maklakov A.G. Obshaya psixologiya. SPb., 2002. B.295.

#### **Elektron ta'lim resurslari**

1. <http://books.google.co.uz/books/S.K.Mangal>
  2. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
  3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
  4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
  5. [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
  6. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz);
- [www.gov.uz](http://www.gov.uz);